O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA’LIM VAZIRLIGI

TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI

A. N.NORCHAYEV

TURIZM GEOGRAFIYASI

O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi tomonidan 5610300 – Turizm (faoliyat yo‘nalishlari bo‘yicha), 5610200 – Mehmonxona xo‘jaligini tashkil etish va boshqarish va 5230202 – Menejment: turizm biznesini boshqarish bakalavriat ta’lim yo‘nalishlarida tahsil olayotgan o‘talabalar uchun darslik sifatida tavsiya etilgan

TOSHKENT

UO‘K: 338.486
KBK 67.404.1
N 98

A.N. Norchayev. Turizm geografiyasi. (Darslik). – T.: «Innovatsion rivojlanish nashriyot-matbaa uyi», 2022 – 408 b.

ISBN 978-9943-8748-6-2

Mazkur darslik turizm geografiyasini o‘rganish orqali dunyo turizmi resurslari, ulardan foydalanish darajalarini tahlil qilish va mintaqalarda turizmning rivojlanishiga ta’sir etuvchi geografik omillarni aniqlashga bag‘ishlangan. Darslikda turizm geografiyasining rivojlanishi shart-sharoitlari va holati yoritilgan bo‘lib, u 5610300 – “Turizm” (faoliyat yo‘nalishlari bo‘yicha), 5610200 – “Mehmonxona xo‘jaligini tashkil etish va boshqarish”,5230202 – “Menejment: turizm biznesini boshqarish” bakalavriat ta’lim yo‘nalishlariga “Turizm geografiyasi” fanidan darslik sifatida tavsiya etilgan.

В этом учебнике обсуждён изучение географии туризма, анализу мировых туристических ресурсов, уровню их использования и выявлению географических факторов, влияющих на развитие туризма в регионах. В учебнике описаны условия и состояние развития географии туризма для направления бакалавриата 5610300 – «Туризм» (по направлениям деятельности), 5610200 – «Организация и управление гостиничным хозяйством», 5230202 – «Менеджмент: управление туристическим бизнесом» рекомендован в качестве учебника по предмету «География туризма».

This textbook is devoted to the study of the geography of tourism, the analysis of the world’s tourism resources, the level of their use and the identification of geographical factors influencing the development of tourism in the regions. The textbook describes the conditions and status of the development of tourism geography for the fields of study bachelor 5610300 – “Tourism” (by areas of activity), 5610200 – “Organization and management of the hotel industry”, 5230202 – “Management: tourism business management” is recommended as a textbook on the subject of “Geography of Tourism”.

UO‘K: 338.486
KBK 67.404.1

ISBN 978-9943-8748-6-2

© «Innovatsion rivojlanish nashriyot-matbaa uyi», 2022.

KIRISH

Turizm sohasi 2020-yilgacha jahon iqtisodiyotida eng tez sur’atlar bilan rivojlanib borayotgan va eng daromadli biznes turi bo‘lib, jahon yalpi ichki mahsulotining (YaIM) 10,4%, har 1/10 ish o‘rni, jahon eksportining 7%, xizmatlar eksportining 30% to‘g‘ri kelgan. Dunyo bo‘yicha 2019-yilda 1,401 mln.dan ortiq turistlar xalqaro sayohatlarga chiqqan bo‘lib, ularga ko‘rsatilgan xizmatlardan 1,480 mlrd. AQSH dollari miqdorida daromad olingan. Kutilmaganda yuzaga kelgan COVID-19 pandemiyasi oqibatida 2020-yilda turistlar soni 364,3 mln. kishini (oldingi yilga nisbatan 74%ga kamaygan), ko‘rsatilgan xizmatlar 371,0 mlrd. AQSH dollarini (oldingi yilga nisbatan 75%ga kamaygan) tashkil etgan[1]. 2019-yilga nisbatan olganda 2020-yilda ichki turistlarning xarajatlari 45%ga, xorijlik turistlarniki 69,4%ga kamayishi natijasida sohada 62 mln.ta ish o‘rni yo‘qotilgan bo‘lib, jahon YaIMdagi ulushi 5,5%ni tashkil etgan[2]. Bundan ko‘rinib turibdiki, turizm bugungi kunda jahon iqtisodiyotning boshqa tarmoqlari kabi chuqur inqirozni boshidan kechirmoqda.

Jahondagi barcha davlatlarda yuzaga kelgan inqirozdan tezroq chiqib ketish uchun, turizm rivojlanishiga ta’sir etuvchi omillarni aniqlash, turistik xizmatlar raqobatbardoshligini oshirish, turistik jozibadorlikka e’tibor qaratish, Yangi turistik xizmatlarni ishlab chiqish, sohaga innovatsion texnologiyalarni joriy qilish, mintaqalardagi turistik resurslardan samarali foydalanish, maxsus turistik zonalarni tashkil etish, Yangi ish o‘rinlarini yaratish, investitsiyalarni jalb qilish orqali infratuzilmani takomillashtirish, YaIMdagi ulushini oshirish hamda turizmni rentabelli sohaga aylantirishda bevosita geografik bilimlarni ham o‘zlashtirish talab etiladi.

Turizm geografiyasi turizm sohasini rivojlantirish, xususan, zamonaviy turizm infratuzilmasini shakllantirish va takomillashtirish

[1] www. unwto.

[2] https://wttc.org.

borasida keng ko‘lamli ishlar amalga oshirishda muhim ahamiyatga egadir. Shuningdek, jahonning mintaqalardagi arxelogik, tarixiy-madaniy yodgorliklar, tabiiy iqlimi, relyefi, resurslari, Yangi standartlar va tizimlarini o‘rganishda muhim rol o‘ynaydi. Shu bilan birgalikda, dunyo mintaqalariga va mamlakatlarga xorijlik turistlar oqimini ko‘paytirish, ichki turizmga mahalliy aholini kengroq jalb qilish, turistik xizmatlar eksportini oshirish, infratuzilmani kengaytirish orqali Yangi ish o‘rinlarini yaratish, mehmonxonalar va joylashtirish vositalari, ovqatlantirish korxonalari, transport tarmoqlarini rivojlantirish orqali infratuzilmani takomillashtirish, innovatsion texnologiyalarning imkoniyatlaridan samarali foydalanish, maxsus turistik-rekreatsion hududlarni tashkil qilish, qishloq joylaridagi turistik resurslardan samarali foydalanish borasidagi bilimlarni mutaxassislarni tayyorlashda asosiy yo‘nalishlardan biridir. Binobarin, mamlakatimizda ham turizm sohasida mutaxassislarni tayyorlashda “Turizm geografiyasi” fanini o‘zlashtirish orqali, sohadagi dolzarb masalalarni hal qilish bo‘yicha chora-tadbirlar dasturi ishlab chiqish, ularning ijrosini ta’minlash sa’y-harakatlarni tobora kuchaytirish lozim.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, “Turizm geografiyasi” jahon turizmi rivojlanishi, sohaning infratuzilmasining shakllantirish va sohaga innovatsion texnologiyalarni keng joriy qilish, mintaqalardagi turistik–rekreatsion resurslardan maqsadli foydalangan holda ko‘rsatilayotgan xizmatlarni ishlab chiqarishning ilmiy-uslubiy asoslarini o‘rganishda ham muhimdir.

1-BOB. “TURIZM GEOGRAFIYASI” FANIGA KIRISH

1.1. Turizm geografiyasi fanining predmeti va obyekti.

1.2. Geografiya fanlari tizimi haqida tushuncha va uning mohiyati.

1.3. Turizm va geografiyaning bir-biriga bog‘liqligi, turizmning rivojlanishiga ta’sir etuvchi omillar**.**

1.1. Turizm geografiyasi fanining predmeti, obyekti va vazifalari

Geografiya fanining rivojlanishi qadimgi Antik davrida mamlakatlar o‘rtasida hududiy (geografik) mehnat taqsimoti, ya’ni har bir hududning o‘ziga xos tabiiy sharoiti va resurslari, iqtisodiy geografik o‘rni, xalqlarning urf-odatlari va an’anlari asosida ma’lum bir tovarlarni ishlab chiqarish va xizmatlar ko‘rsatishga ixtisoslashishi va ular o‘rtasida tovar ayirboshlash jarayonining shakllanishi davriga borib taqaladi. Qadimgi yunon olimi Strabon o‘zining o‘n yetti tomlik “Geografiya” deb nomlangan asarida, aholining hududiy joylashuvi, mamlakatlar va hududlar o‘rtasidagi tovar ishlab chiqarish va savdo sotiq aloqalarini yoritadi.

Ma’lumki, Buyuk Geografik kashfiyotlar xalqaro savdo va ilk kapitalistik munosabatlarning rivojlanishiga olib keladi. Bu davrda hududiy mehnat taqsimotining chuqurlashishi va jahon xo‘jaligining shakllanishi, o‘z navbatida, geografiya fanining rivojlanishini talab etadi. Mamlakatlar va ularning hududiy birliklari haqidagi iqtisodiy geografik tavsif g‘arbiy Yevropalik olimlarning asarlarida o‘sha davrlarda juda chuqur talqin etilgan. Ayniqsa, ilk geografik bilimlarning nazariy jihatlari, Yerning ustki tuzilishi, aholining tarkibi, shaharlar, siyosiy tuzum masalalariga qaratilgan. Masalan, “Tabiiy geografiya” fani geografik qobiqda kechayotgan tabiiy jarayonlarni va hodisalarni o‘rgansa, “Turizm geografiya” fani turistik resurslarning mintaqaviy taqsimotini, turizmning rivojlanishiga ta’sir etuvchi

omillarni va turizmning hududiy birliklari – zonalar, hududlar, markazlarning shakllanishini o‘rganadi.

Turizm geografiyasining vazifalariga odamlarning dam olishi uchun foydalaniladigan turistik resurslarni baholash, turistik rayonlar va markazlar, oqimlarni shakllantirishning iqtisodiy-geografik shart-sharoitlarini o‘rganish kiradi.

Turizm geografiyasining obyekti mintaqalar va ulardagi turistik resurslar hisoblanadi.

Turizm geografiyasining predmeti turistik obyektlar, markazlar va zonalarni joylashtirish, rivojlantirish va faoliyat yuritishning umumiy qonuniyatlarini, turizm faoliyati jarayonida turistik oqimlar yo‘nalishini o‘rganadi.

Turizm geografiyasining asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

-turistik markazlar va zonalarni shakllantirish qonuniyatlarini aniqlash;

-turistik markazlar va zonalarning mintaqaviy va xalqaro ixtisoslashuvini aniqlash;

-turistik markazlar va zonalar rivojlanishining asosiy omillarini aniqlash;

-turistik markazlar va zonalarning geografik joylashuvi va muayyan mintaqalar va mamlakatlarning muayyan ijtimoiy-iqtisodiy va tabiiy sharoitlarida ishlash mexanizmining tavsifi;

-turistik rayonlashtirishni rivojlantirish (sharoit va omillarni, hududiy shakllanish qonuniyatlari va tamoyillarini tadqiq qilish);

-alohida mintaqalar va mamlakatlarning turizm resurslarining xususiyatlari;

-turizm rivojlanishining milliy va mintaqaviy xususiyatlarini tahlil qilish va boshqalar.

Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda Turizm geografiyasi geografik fanlardan biridir.

Turizm geografiyasi ijtimoiy-iqtisodiy fanlarga mansub bo‘lib, geografiyaning quyidagi bo‘limlariga asoslanadi:

-demografiya – aholining demografik va iqtisodiy va ijtimoiy ahvoli evolyutsiyasi haqidagi bilimlar;

-iqtisodiy geografiya – dunyoning turli mintaqalaridagi iqtisodiy resurslar haqidagi bilimlar;

-mintaqaviy fanlar – Yer shari qit'alari va mintaqalari iqtisodiyoti haqidagi bilimlar;

-geofizika – turizmni rivojlantirish uchun asos bo‘lgan tabiiy resurslar – iqlimiy, sog‘lomlashtirish va boshqalar haqidagi bilimlar;

-tarixiy geografiya – madaniy-ma'rifiy turizmni rivojlantirishning muhim omili bo‘lgan madaniyat, tarix haqidagi bilimlar;

-rekreatsion geografiya – aholining dam olishi uchun ishlatilishi mumkin bo‘lgan tabiiy resurslar haqidagi bilimlar.

Turizm geografiyasi geografik, ijtimoiy-iqtisodiy va ijtimoiy fanlar – siyosatshunoslik, sotsiologiya, atrof-muhitni boshqarish, iqtisodiyot, ekologiya, turizm, psixologiya, tibbiyot bilan chambarchas bog‘liq.

1.2. Geografiya fanlari tizimi haqida tushuncha va uning mohiyati

Ma'lumki, geografiya fani ikkita yirik tarmoq – tabiiy va ijtimoiy-iqtisodiy geografiyaga bo‘linadi. Birinchisi geografik qobiq, uning komponentlari va yer yuzidagi geotizimlarni tadqiq etsa, ikkinchisi dunyo, uning mintaqa va mamlakatlari, shahar va qishloqlari miqyosida aholi, uning yashash tarzi va madaniyati, ishlab chiqarish sohalari, siyosiy voqea-hodisalarni o‘rganadi. Geografik bilimlar qamrovi va hajmining kengayishi, fanning ilmiy-amaliy ahamiyatining chuqurlashuvi natijasida tabiiy va ijtimoiy-iqtisodiy geografiya tarkibida bir nechta mohiyatan torroq fan va ilmiy tadqiqot yo‘nalishlari shakllandi. Jumladan, tabiiy geografiya doirasida alohida tabiat komponentlarini atroflicha o‘rganadigan fanlar shakllanib, mustaqil fan sifatida rivojlanmoqda: geomorfologiya (yer yuzi relyefini o‘rganadi), iqlimshunoslik (iqlim xususiyatlarini o‘rganadi),

gidrologiya (gidrosferani o‘rganadi, okeanologiya va quruqlik gidrologiyasiga bo‘linadi), glyatsiologiya (qor va muzliklarni tadqiq etadi), geokriologiya (ko‘p yillik muzloq yerlarni o‘rganadi), tuproqlar geografiyasi (tuproqlarning tarqalishini o‘rganadi) va biogeografiya (tirik organizmlarning yer yuzida tarqalishini o‘rganadi, geobotanika va zoogeografiyaga bo‘linadi). Sayyoraviy ahamiyatga ega tabiiy geografik jarayonlarni va geografik qobiqni bir butun yaxlit tizim sifatida umumiy tabiiy geografiya o‘rganadi. Kichik hududlar tabiatining tuzilishi va xususiyatlarini tadqiq qiluvchi landshaft-shunoslik fani ham tabiiy geografik fanlar qatorida alohida ajralib turadi. Tabiatga inson xo‘jalik faoliyati ta’sirining kuchayishi munosabati bilan vujudga kelgan geoekologiya fani atrof tabiiy muhitda ro‘y berayotgan o‘zgarish va ekologik muammolarni geotizimlar doirasida tadqiq etadi. Ijtimoiy-iqtisodiy geografiya doirasida ham shunga o‘xshash tarmoqlanish jarayoni rivojlanib bormoqda. Buning natijasida, aholi geografiyasi, shaharlar geografiyasi (geourbanistika), siyosiy geografiya (jahon siyosiy xaritasi, davlat chegaralari, siyosiy munosabat va jarayonlarni o‘rganuvchi fan), sanoat geografiyasi, qishloq xo‘jaligi geografiyasi, transport geografiyasi, turizm geografiyasi, xizmat ko‘rsatish sohasi geografiyasi, etnogeografiya (xalqlar geografiyasi), din geografiyasi va boshqa geografik fanlar vujudga kelgan. Shu bilan birga, ijtimoiy-iqtisodiy geografik fanlar ichida jahon iqtisodiyoti va xalqaro mehnat taqsimotini o‘rganuvchi jahon xo‘jaligi geografiyasi hamda dunyo mamlakatlarini har tomonlama tadqiq etadigan mamlakatshunoslik kabi keng qamrovli fanlar ham rivojlanmoqda.

Yuqoridagilardan xulosa chiqarib aytish mumkinki, geografiya hozirgi davrda maqsad va vazifalari, o‘rganish obyekti va predmeti o‘zaro bog‘liq bo‘lgan bir nechta fanlardan iborat bo‘lgan fanlar tizimiga aylandi. Bu fanlar tizimi tarkibida tabiiy geografik va ijtimoiy (ya’ni, jamiyatni o‘rganuvchi) geografik fan guruhlari ajralib turadi. Shuningdek, jamiyat va tabiatning o‘zaro munosabatlarini o‘rganish

chog‘ida qator umumgeografik mazmun-mohiyatga ega fanlar ham tarkib topgan, masalan, tabiiy resurslar va tabiatdan foydalanish geografiyasi, tibbiy geografiya (turli hududlarda yashovchi aholining salomatligi va kasallanishi, unga ta’sir etuvchi tabiiy va ijtimoiy omillarni o‘rganadi).

Geografik fanlar tizimida geografik xaritalarni tuzish va ular bilan ishlashni o‘rganadigan kartografiya fani alohida o‘rin va ahamiyatga ega. Geografik fanlar turkumiga kiruvchi barcha fanlar o‘zaro bog‘liq bo‘lib, umumiy ilmiy va amaliy maqsadlarni ko‘zlagan holda rivojlanmoqda. Turli geografik fanlar uyg‘unligida yer yuzi va alohida hududlar haqida yaxlit tasavvur shakllanadi, mamlakat va hududlar rivojlanishining muammo va istiqbollari aniqlanadi, tabiatni muhofaza qilish va undan oqilona foydalanish, iqtisodiyotni rivojlantirish, aholi turmush darajasini yuksaltirishga xizmat qiluvchi amaliy taklif va tavsiyalar ishlab chiqiladi. Geografiyani o‘rgana boshlagan paytda bu fanning nomi qadimgi yunon tilida “Yerning tasviri” degan lug‘aviy ma’no berishini bilib olgansiz. Lekin hozirgi davr geograflari turli joylar tabiati, aholisi va xo‘jaligini tasvirlash va tavsiflash bilan cheklanib qolmasdan, turli tabiiy va ijtimoiy hodisalarning vujudga kelish va hududiy tarqalish qonuniyatlarini o‘rganadilar, tabiat va jamiyat o‘rtasidagi o‘zaro munosabat va ziddiyatlarni atrofl icha tahlil qiladilar, dolzarb ahamiyatli ekologik, ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy muammolarni hududlarning o‘ziga xos sharoit va xususiyatlaridan kelib chiqqan holda yechish yo‘llarini ishlab chiqadilar. Zamonaviy geografiya an’anaviy tasvirlovchi mohiyatdagi “Nima? Qayerda? Qancha?” savollariga javob beruvchi fandan “Nima? Qayerda? Qancha? Nima sababdan? Qanday foydalanish kerak? Yaxshilash uchun nima qilish kerak?” degan savollarga javob topuvchi keng qamrovli nazariy va amaliy ahamiyatga ega bo‘lgan fanlar tizimiga aylandi.Geografiya fanining vazifasi fan va jamiyatning rivojlanishi bilan o‘zgarib bordi. Bugungi kunda zamonaviy geografiyaning oldiga qo‘ygan vazifalari bir qancha

bo‘lib, eng asosiy vazifasi tabiat va jamiyat o‘zaro munosabatlarini uyg‘unlashtirishdir.

Geografiya fanlarida turli ilmiy-amaliy masalalarni o‘rganish jarayonida qator tadqiqot usullaridan foydalaniladi. Bulardan eng muhimlari – ekspeditsiya, tasviriy, kartografiya, statistik, qiyosiy geografik, rayonlashtirish usullari. Shuningdek, borgan sari geografik tadqiqotlarda matematik va kompyuter modellashtirish, aerokosmik, geokimyoviy va geofizik kabi zamonaviy tadqiqot usullarining ahamiyati hamda qo‘llanilish qamrovi kengayib bormoqda

1.3. Turizm va geografiyaning bir-biriga bog‘liqligi, turizmning rivojlanishiga ta’sir etuvchi omillar

Turizm rivojlanishining qadimgi (antik) davri**.** Turizm yoki sayyohlikning ilk bor boshlanish davri qadim-qadimlarga borib taqaladi. Kishilarning bir joydan ikkinchi joyga o‘tishi yoki borishi ko‘p hollarda savdo-sotiq yumushlari, atrof-olamni ko‘ra-bilish istagi, hamma ishtirok etaoladigan o‘qish, diniy va dam olish omillari bilan bog‘langan. Qadimgi manbalarda yozilishicha bundan ikki ming yillar oldin (eramizga qadar) misrliklar hayotida sayyohlik ko‘ngil ochish va dam olishning odatdagi hodisasi bo‘lgan.

Ma’lumotlarga ko‘ra, dunyoda eng qadimgi sayyohlik markazlaridan biri bu Tinch okean minatqasida joylashgan Okeaniya hududi bo‘lib hisoblanadi. U yerda yashovchi aholilar uncha katta bo‘lmagan oddiygina qayiqchalarda Janubi-Sharqiy Osiyoning Mikroneziya va Markaziy (Tinch okeani) orollari, Tuamotu arxipelagi (orollar guruhi) ga sayohat qilganlar. Eramizga qadar 500 yil oldin polineziyaliklar Gavay orollari (Tinch okeani)ga 2 ming mill. masofagacha okeanda suzib borganlar. Ular safar davomida quyosh, yulduzlar, bulutlar va qushlarning harakatidan foydalanib manzilga yetib olishganlar. Sayohat davomida ular uchun eng muhim muammo bu ichimlik suvi va oziq-ovqatlar hisoblangan.

Qadimgi sayyohlikning eng rivojlangan markazlaridan biri O‘rta yer dengizi qirg‘oqlarida joylashgan Gretsiya, Italiya, Fransiya, Ispaniya, Misr, Tunis kabi mamlakatlar bo‘lib hisoblanadi. Dengiz bo‘ylarida yashovchi aholilar savdo-sotiq, diniy safarlar, ilm olish, davolanish, yangi hududlarni kashf qilish maqsadida uzoq-uzoq safarlarga dengiz orqali chiqishgan. Bu to‘g‘risida juda ko‘pgina ma’lumotlar mavjud bo‘lib ularning bir qismi hozirgi kungacha bizga yetib kelgan. Jumladan Gretsiyada V asrda (eramizga qadar) Gerodot va IV asrda (eramizgacha) Pifey kabi olimlar boshqa mamlakatlarni o‘rganish uchun sayohatga borganlar.

Qadimgi grek tarixchisi Gerodot birgina Misrda bo‘lib qolmasdan, balki sharqning ko‘pgina mamlakatlarida, jumladan Liviyadan tortib Vaviloniya, Assuriya, Kichik Osiyo, hatto Qora dengizning Shimoliy sohillarida ham bo‘lgan. U o‘zining sayohat taassurotlarini to‘qqiz tomlik “Tarix” nomli asarida tasvirlab bergan.

Qadimgi Gretsiyada sport o‘yinlari (Olimpiada)ning tashkil etilishi, unda sportchilar va sport ishqibozlarining turli mamlakatlardan kelib-ketishi sayyohlikning rivojlanishiga katta turtki bo‘lgan.

Qadimda har yili Ellada (Gretsiya)ga Olimpiada o‘yinlariga qatnashish va tomosha qilish maqsadida nafaqat Elladadan, hatto butun O‘rta yer dengizi bo‘yi mamlakatlaridan minglab sport ishqibozlari, san’atni sevuvchi muxlislar yig‘ilishgan. Yirik maxsus sport inshootlarining keng ko‘lamda qurilishi o‘sha davrga taalluqli xususiyatlardan biridir. Musobaqalarda turli xil sport o‘yinlari o‘tkazilib, ishqibozlar olqishiga sazovar bo‘lingan, o‘z o‘rnida mehmonnovozlik yo‘lga qo‘yilgan.

Qadimgi Xitoy ham o‘z davrida yuksak madaniyatli davlatlardan biri bo‘lgan. Xitoylik sayyohlar, olimlar, daryo, dengiz, tog‘lar to‘g‘risida juda ko‘plab geografik ma’lumotlar (qo‘lyozmalar)ni yozib qoldirgan. Xitoy elchisi Chjan San II asrda (eramizgacha) sayohatga chiqib juda katta amaliy ahamiyatga ega bo‘lgan ma’lumotlarni to‘plab

qoldirgan. Uning bosib o‘tgan safar yo‘llari keyinchalik “Buyuk Ipak yo‘li”ga asos bo‘lgan.

Marko Polo (1254-1323) Yevropaliklardan birinchilardan bo‘lib Osiyoni o‘rgangan venetsialik (Italiya) sayyohdir. Uning otasi Nikkolo va amakisi Matteo savdo-sotiq bilan shug‘llanib, tasodifan Mo‘g‘uliston xoni Qublay (Chingizxonning o‘g‘li) ning qarorgohiga kelib qolishadi.

1271-yilda Nikko va Matteo ikkinchi bor safarga chiqib, mo‘g‘ul tilini va mahalliy urf-odatlarni o‘rgangan Marko Poloni o‘zlari bilan birga olib ketishadi. Marko Polo xon iltifotiga sazovar bo‘ladi va uni o‘ziga yaqin olib mulozim etib tayinlaydi. Xon Marko Poloni o‘z hukmronligi ostidagi joylarda turli xil ma’lumotlarni to‘plashga da’vat etadi. U ana shu imkoniyatdan foydalanib mamlakat va xalqlar to‘g‘risida ko‘pgina ma’lumotlarni to‘playdi. 1292-yil mo‘g‘ul xoni uchala sayyohlarga katta sovg‘a – salomlar berib ularni vataniga qaytaradi. Sayyohlar Tinch okean orqali Koxinxin, Sumatra, Seylon, Trapezud va Konstantinopol orqali 1295-yili Venetsiyaga qaytib keladi va sayohat davomida orttirgan boyligi bilan yuqori martabaga erishadi. Keyinchalik Marko Polo Venetsiyada buyuk Kengash a’zosi lavozimiga ko‘tariladi. 1307-yilda esa qayta ishlangan safar taassurotlarini bosib chiqaradi. U o‘z taassurotlarida xitoyliklarning ixtirolari bilan qiziqib kompas, zabtlash taxtasi, veksellari bilan tanishganligini yozib qoldiradi. Marko Poloning sayohatlar to‘g‘risidagi birinchi kitobi 1861–1862-yillarda rus tilida bosilib chiqiladi.

Qadimgi Rim imperiyasi turizm taraqqiyotiga juda katta hissa qo‘shgan mamlakat bo‘lib hisoblanadi. Bu yerda mustahkam imperiyaning tashkil etilishi, boyligi, mo‘l-ko‘lchilik, hududining kattaligi, dengiz sohilida joylashganligi kabi omillar turizmning rivojlanishi uchun zarurat hisoblangan. Rimliklar o‘sha davrda ajoyib yo‘llar tarmog‘ini qurishgan. Har kuni 100 mill masofagacha otda sayr qilish, ibodatxonalarni ziyorat qilish amallari bajarilgan.

Aleksandr Makedonskiy (eramizgacha bo‘lgan 334-yil) hukmronligi davrida Turkiyadagi Efes shahri qadimgi (antik) davrda eng muhim savdo markazi va asosiy shaharlardan biri bo‘lib hisoblangan. Turistlar, akrobatlar, huqqavoz (jongler)lar, sehrgarlar, shahar ko‘chalarini to‘ldirib yurganlar.

Yevropaliklarda sayyohlik salb yurishi harakati bilan boshlangan va ular muqaddas yer Ierusalimni zabt etganlar. Yevropalik sayyohlar ritsarlar, savdogarlar bilan yonma-yon yurishib begona mamlakatlar boyliklarini talaganlar va territoriyalarni bosib olish maqsadida harakat qila boshlagan. Ular bilan birgalikda sharqqa tomon ruhoniylar va ziyoratchilar, son-sanoqsiz daydilar, beva-bechoralar ommaviy ravishda harakat qila boshlaganlar.

O‘z davrida imtiyozga ega bo‘lgan aholi vakillari shifobaxsh mineral suv manbalariga bora boshlaganlar. Biroq, safarning va sayohatning turli xil maqsadlariga qaramasdan ularning hammasi kishilar ongining obyektiv holatda geografik kengayishini ta’minlaydi. Ular tomondan dengiz, daryo, materiklar, davlatlarni aniq tasvirlash amalga oshirilgan.

Qadimgi davrda turizmning rivojlanishi juda murakkab kechgan. Safar muddati ham o‘ziga xos xususiyatga ega bo‘lgan. Kishilarning sayohatda yurish tezligi o‘rtacha soatiga 6 km. dan oshmagan. Bir kunlik bosib o‘tgan safarining umumiy masofasi esa 30-40 km atrofida bo‘lgan. Sayohatga chiqish imtiyozi va zarurati faqat savdogarlar, boy-badavlat kosib yoki mayda savdogarlar, dvoryanlar va aslzodalarga taalluqli bo‘lgan.

Sayohatchilar safar davomida asosan ot ulovlardan (ot, tuya, eshak va boshqalar), qayiqlar va kemalardan foydalanishgan. Ular sayohat davomida yakka holda yoki savdo karvonlariga qo‘shilib o‘z manzillariga yetib borishgan.

Turizmning rivojiga uyg‘onish davri (XV-XVI asrlarda Yevropada fan va san’atning taraqqiy etgan davri) ham katta ta’sir ko‘rsatadi. Unda iqtisodiyotning jo‘shqinlik bilan rivojlanishi, Yangi

tarmoqlarning paydo bo‘lishi, davlatlararo savdo-sotiqning kenga-yishiga yanada imkoniyatlar tug‘diradi.

Shu bilan birgalikda moliyaviy resurslar imtiyozlarning mavjudligi, bo‘sh vaqtlarning ko‘pligi, boy-badavlat kishilar sonining ko‘payishi bilan xarakterlanadi. XVI asrga kelib Yevropa bo‘ylab sayohat qilish odat tusiga kira boshlaydi. Bunday sayohatlarni uyushtirish “Yosh aristokratlarni tarbiyalash dasturi”ga kiritilib, unda o‘qish, bilim olish maqsadlari ko‘zda tutilgan. Bunday sayohatlarning yo‘nalishi Angliyada London shahridan boshlanib, Fransiyaning Parij shahrida, so‘ngra Italiyaga: Genuya, Milan, Florensiya, Rimgacha davom etgan. Orqaga qaytish yo‘li Shveysariya, Germaniya, Gollandiya mamlakatlari orqali o‘tilgan. Aslzoda (aristokrat) yoshlar sayohat davomida xo‘jalik, siyosiy aloqalarini taniqli xorijiy oilalar bilgan o‘rnatishga kirishadilar. Ular nafaqat bilim olish, balki dam olish, ko‘ngil ochish uchun ham safarlarga chiqishgan.

Shuni qayd qilish joizki, yevropaliklarda Alp tog‘larini zabt qiluvchi, birinchi sayyohlar qatoriga inglizlar, undan keyin esa fransuzlar va amerikaliklar kirganlar.

XVI asr oxirlariga kelib xorijiy mamlakatlarda dam olish va dunyoqarashlarini kengaytirish maqsadidagi sayyohlik safarlari Rossiyada ham rivojlana boshladi. Piyotr I hukmronlik qilgan davrda uning o‘zi bu sohada shaxsiy namuna ko‘rsatdi. U 1697-1699-yillar davomida Buyuk Moskva elchilari tarkibida G‘arbiy Yevropa mamlakatlariga safarga otlanadi. Safar davomida yevropaliklar hayoti, turmush – tarzi bilan tanishish rus madaniyatining rivojiga katta ta’sir ko‘rsatdi.

Sayohatga chiqishda eng muhim narsalardan biri dvoryanlar uchun xorijiy tillardan birini albatta bilishi va gaplasha olishi zarurligidir. O‘z davrida Rossiya imperatori Yekaterina II mulozimlari (katta amaldorlarni kuzatib yuruvchi kishilar) va xorijiy elchilar hamrohligida Rossiya imperiyasining g‘arbiy qismlarini kesib o‘tib, Dnepr daryosi bo‘ylab suzib, Xerson va Sevostopol shaharlari bilan

tanishib chiqadi. U Yevropada Germaniya, Avstriya, Niderlandiya (Gollandiya) mamlakatlarning ko‘pgina shaharlariga sayohat qilgan.

Turizm rivojlanishiga ta’sir etuvchi omillar bo‘yicha ko‘rib chiqadigan bo‘lsak, ularni bir nechta guruhlarga bo‘lib o‘rganamiz**.**

Geografik omillar. Kishilar tabiat qo‘yniga chiqib, juda ko‘p manzarali joylarni ko‘rish va ulardan bahramand bo‘lishga intiladi. Sayyohlik, dam olish uchun tabiiy sharoitning xilma-xilligi darajasi va xususiyati muhim ahamiyatga ega. Ya’ni ma’lum bir hududning yer usti ko‘rinish manzarasi (landshafti), iqlimi, o‘simlik va hayvonat dunyosi xilma-xilligi kishilarning dam olishi, o‘z salomatligini tiklashi uchun asosiy vositalardan biri bo‘lib hisoblanadi.

Shu sababli sayyohlik firmalari ekzotik, betakror tabiiy obyektlarni ko‘proq reklama qiladi. Ayniqsa Osiyo, Afrika, Markaziy va Janubiy Amerika, Avstraliya va Okeaniya kabi mamlakatlar o‘zining diqqatga sazavor tabiiy ekzotikalari bilan Yevropa va Shimoliy Amrikalik sayyohlarni o‘ziga jalb qiladi. Kolumbiyada “Kolumbiya qushlari” nomi bilan ataladigan noyob sayyohlik turi, “Pan-Amerikan” aviakompaniyasining 24 kunlik Avstraliya va Yangi Zelandiyaga qimmat baho toshlar va minerallarni topish uchun sayohat uyushtirishi misol bo‘ladi.

Xalqaro turizmni rivojlantirishda mamlakat va hududning geografik o‘rni ya’ni uning dengiz va okeanga yaqinligi, qirg‘oq chiziqlarining xususiyati, turli xil suv, avtomobil va temir yo‘llar bilan kesishish joyi, tog‘li va o‘rmon manzarali joylarga yaqinligi, ular bilan ta’minlanganlik darajasiga ham bog‘liq bo‘ladi. Jumladan, xalqaro turizmni rivojlanishda Yevropa mamlakatlari, Vest Indiya, Singapur kabi mintaqalar va hududlar geografik joylanish xususiyati bilan alohida ajralib turadi.

Xalqaro turizmning rivojlanish jarayonlari ko‘p hollarda mamlakatlar va hududlarning tabiiy iqlim sharoitiga bog‘liq bo‘ladi. Bu o‘rinda tabiiy iqlim sharoiti yetakchi o‘rinni egallaydi. Tabiiy iqlim sharoiti turizm harakatini mavsumiy xarakterga aylantiruvchi asosiy

omil bo‘lib hisoblanadi. Tabiatda ob-havoning o‘zgarishi, tabiiy ofatlarning tez-tez takrorlanish hodisalari, tabiat injiqliklari turistlar oqimining keskin kamayishiga sababchi bo‘ladi. Shu sababli turizmning eng rivojlangan mintaqalari yer sharining mo‘tadil iqlim zonalariga to‘g‘ri keladi. Jumladan, O‘rtayer dengizi, Qora dengiz, Karib dengizi, Adriatika dengizi, Boltiq dengizi, Yapon dengizi, Janubiy Xitoy dengizi qirg‘oqlarida joylashgan mamlakatlarda turizm xalqaro ahamiyatga ega.

Dunyo okeani va dengiz qirg‘oqlari xalqaro turizm sohasining rivojlanishiga katta ta’sir ko‘rsatuvchi omillar bo‘lib xizmat qiladi. Ular iqtisodiy aloqalarni rivojlantirishga sayyohlik, sayr-tomoshalarni uyushtirishda, alohida o‘rinni egallaydi. Ayniqsa, Fransiya va Italiyaning dengiz qirg‘oqlari, Ruminiya va Bolgariya Sharqiy sohillari, AQSHda Koliforniya va Florida dengiz bo‘ylari, Bagam va Bermud orollari plyajlari bilan so‘zsiz xalqaro turizm va kurortlar maskaniga aylangan.

Okean va dengiz suvlarining cho‘milishi uchun qulay bo‘lgan qirg‘oqlari tarkibiga quyidagi elementlar kiradi. Mikroiqlim, dengiz va okean suvlarining quruqlikka tutash bo‘lgan joylarida suvning harorati, chuqurligi, suv to‘lqinlari, ko‘tarilishi, qaytishi, oqimlar, suvning shifobaxshligi, tozaligi, tiniqligi, dengiz suvi tagining relyefi, suvdagi yirtqich qonxo‘r baliqlar (akula) va hayvonlarning bor-yo‘qligi h.k., qirg‘oq chiziqlarining tuzilishi, plyajlardagi qumlar va yotqiziqlarning sifati, rangi, shakllari va qolaversa bir qator omillar ta’sir etadi.

Daryo va ko‘llar ham turizm resursi yoki boyligi bo‘lib xizmat qiladi. Ular yer usti landshaftlarini yasatadi, mikroiqlim sharotini hosil qiladi, turistlar uchun baliq ovlash, suv sporti bilan shug‘ullanish, turistik markazlar, kurort maskanlarini toza ichimlik suvi bilan ta’minlash uchun xizmat qiladi. Hozirgi kunda Avstriya, Shvetsariya, Buyuk Britaniya, Vengriya, Polsha kabi mamlakatlardagi daryo va ko‘l suv havzalari turizmning eng rivoj topgan turlari bo‘lib hisoblanadi.

Xalqaro turizmni rivojlantirishda o‘rmon boyliklarining roli ham anchagina. U turistlarning dam olishida, hissiyotini (emotsiyasini) muvozanatlantirishda, lirik shart-sharoitlarni vujudga keltirishda, “tashqi dunyo”dan ajralgan holda, qisqa vaqtlarda yashashida muhim rol o‘ynaydi. O‘rmonlar toza havoni ishlab chiqaruvchi asosiy man’ba, salomatlikni qayta tiklovchi maskan, kurort hududlarida shovqinni qaytaruvchi asosiy vositalardan hisoblanadi.

Xorijiy sayyohlarni o‘ziga ko‘proq jalb qiluvchi omillardan biri – bu ekzotik (g‘alati, ajoyib) hayvonlar yashaydigan joylar qo‘riq-xonalar, davlat buyurtmalari, milliy bog‘lar, ov qilish uchun ajratilgan maxsus hududlardir. Bunday hayvonat va o‘simlik dunyosining markazlari yuzdan ortiq bo‘lib, Afrika, Osiyo, Yevropa, Avstraliya, Amerika (AQSH, Kanada) ning sayohat qilish mintaqalari va hududlari hisoblanadi.

Ko‘pgina xorijiy turistlarni o‘ziga jalb qiladigan omillardan biri, bu shifobaxsh mineral suvlar bo‘lib hisoblanadi. Uning asosiy maskanlariga Rossiya, Gruziya, Vengriya, Slovakiya, Chexiya, Ukraina kabi bir qator mamlakatlar misol bo‘ladi.

Xorijiy turistlarning tog‘ sharoitidagi sport turlari alpinizm (Alp, Kordilera, Himolay tog‘lari h.k.), chang‘i sporti (Skandinaviya, Alp, Tatra tog‘lari) suv ustida chang‘ida suzish, suv ostida suzishlar turlari borgan sari rivojlanib bormoqda. Germaniya, Fransiya, Italiya, Belgiya, Shvetsiya, Buyuk Britaniya, Gretsiya hamda AQSH mamlakatlarida xorijiy sayyohlar sport ovlari, baliq ovlashlarda keng ko‘lamda ishtirok etmoqda.

Iqtisodiy geografik omillar. Iqtisodiy geografik omillarga turizmning moddiy texnika bazasi, ya’ni mehmonxonalar fondi, umumiy ovqatlanish korxonalari (restoran tarmoqlari), sport inshootlari, tomosha va sayr qilish, dam olish, bir qator servis xizmati ko‘rsatish obyektlari ichki va tashqi kommunikatsiya tarmoqlari avtomobil, temiryo‘l, havo yo‘llari, dengiz va daryo transporti, aloqa vositalari, internet tarmog‘i kiradi. Xalqaro turizmning jadal

rivojlanishiga yangi temir yo‘llar, avtomobil trassalari, dengiz, daryo, havo transportlari, zamonaviy turistik avtobuslar, yengil avtomobillar, shu jumladan yotib uxlaydigan komfortabelli avtomobil tirkagichlar, mototsikllar, motorollerlar, yangi dengiz, daryo passajir kemalari, teploxodlar, tez uchar reaktiv havo laynerlari h.k. bularning hammasi xalqaro turizmni rivojlantirishga katta imkoniyatlar tug‘diradi.

Iqtisodiy omillar. Turizm rivojlanishiga makroiqtisodiy omillar bilan bir qatorda mikroiqtisodiy omillar ham katta ta’sir ko‘rsatadi. Makroiqtisodiy barqarorsizlik, ishsizlik darajasini o‘sishi, pulning qadrsizlanishi kabilar jamiyatni qo‘zg‘atadi va bezovta qiladi. Ayrim hollarda esa kishilar o‘z uyida qolib, hech qayoqqa sayohatga bormasdan o‘tirishga to‘g‘ri keladi. Qachonki, biror mamlakatning iqtisodiyoti yuksalishda bo‘lsa, ishlab chiqarish imkoniyatlari, ya’ni valyutalar miqdorining ortib borishi bilan belgilanadi. Qaysi bir mamlakatda turizmdan keladigan foyda YaIMda salmog‘i anchagina bo‘lgan taqdirda investitsiyalar ya’ni mehmonxonalar qurishga va infratuzilmasini rivojlantirishga sarf etiladi. Shu bilan birga milliy daromadini o‘sishi, ayniqsa aholi shaxsiy ehtiyoji qobiliyatini qondirishga qaratilgan xarajatlarning o‘sishi darajasi, ularning sayyohlikka bo‘lgan qiziqishini uyg‘otadi. Kishilarning dam olishida turistik mahsulotlar va turistik tovarlar bahosi eng muhim omillardan biri bo‘lib hisoblanadi. Ayniqsa, turizmni moliyalashtirishda valyuta kursi muhim rol o‘ynaydi. Valyuta almashtirishning soddaligi, uning osonligi kabilar. 2002-yil 1-yanvardan boshlab Yevropa Ittifoqi (YeI) davlatlari o‘rtasida yevroning muomalaga kiritilgani. Ushbu hududdagi sayyohlar uchun yagona valyutaga o‘tilishi juda katta imkoniyatlar tug‘diradi.

Savdo aloqalari. Xorijiy mamlakatlarda sayohatga boradigan turistlar, odatda, o‘sha yerda nimalarni xarid qilishi qiziqtiradi. Bu noyob, mahalliy hunarmandchlik mahsulotlarini, suvenirlarni, qarindosh-urug‘lari, oila a’zolari uchun xarid qilishidir. Bunday

suvenirlar, sovg‘alar odatda sayyohlar gavjum joylarda magazinlarda, do‘konchalarda sotiladi.

Turizm rivojlangan bir qator mamlakatlarda xorijiy davlatlardan keladigan sayyohlarning talab va ehtiyojlarini hisobga olgan holda sanoat eksportini rivojlantiradi. Hozirgi kunda Birlashgan Arab Amirligi (BAA), Gretsiya, Italiya, Singapur, Hindiston, Xitoy, Janubiy Koreya kabi mamlakatlar xorijiy turistlarga uzoq muddatli foydalaniladigan tovarlar (kiyim-kechaklar, ro‘zg‘or buyumlari, elektornika, radio, telefon, televizor, videotexnika asboblar)ini sotishga kirishganlar.

Siyosiy omillar. Siyosiy omillarga kelganda turistlarni qabul qilib oluvchi va turistlarni jo‘natuvchi mamlakatlarda muhim turistik marshrutlar yo‘nalishidagi hududlarda, mintaqalarda siyosiy vaziyatning holatiga ham bog‘liq bo‘ladi.

Ma’lumki, mamlakatdagi ichki vaziyatning qay darajada turg‘unligi ko‘p hollarda xalqaro turizm oqimining yo‘nalishini belgilaydi. Tabiiyki, davlatlararo turistlarni almashtirishda, mamla-katlar o‘rtasidagi o‘zaro kelishuvchilik munosabatlari ham muhim ahamiyatga ega bo‘ladi. Odatdagi diplomatik aloqalar, turizm sohasidagi kelishuvlar, shartnomalar, kommunikatsiyalar va transport vositalaridan hamkorlikda foydalanish, turistik reklamalarni bir-birlari bilan almashtirish bularning hammasi turizmning rivojiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi.

Ijtimoiy-demografik omillar. Dunyo mamlakatlarida demografik jarayonlar (aholining tug‘ilishi, o‘limi, tabiiy ko‘payishi, aholi migratsiyasi kabilar) ham xalqaro turizm sohasining rivojlanishiga o‘z ta’sirini ko‘rsatadi. Yer sharining turli davlatlarida, hududlarida va mintaqalarida aholi sonining ko‘payib borishi, ayniqsa shahar aholisi aglomeratsiya doirasining borgan sari kengayib borishi kishilarning dam olishi va sayyohlikka chiqishni taqazo qiladi. Shu borada turizmning rivojlanishiga ta’sir etuvchi demografik omillarni quyidagicha ifodalash mumkin:

- dunyo xalqlaridagi bir-biriga o‘xshashlik bo‘lish umumiy tomonlari, ularning qiziqishlari h.k;
- ayrim malakaviy sohalardagi kishilarning maxsus sayyohlik guruhda faol ishtirok etishning kuchayib borishi;
- turizm tarkibidagi xotin-qizlar va yoshlar salmog‘ining ortib borishi;
- xalqaro ahamiyatga ega bo‘lgan kurort va sanatoriyalar tarmog‘ining ko‘payib borishi, ularda davolanishga moil bo‘lgan kasallar sonining ortib borishi;
- kishilarning atrof-muhitga bo‘lgan qarashlari, tushunchalari va munosabatlarning o‘zgarib borishi h.k. juda katta rol o‘ynaydi.

Sayohat xavfsizligi. Turizmning rivoji bilan sayyohlarning xavfsizligini ta’minlash borgan sari muhim va zarurat masala bo‘lib qolmoqda. Hozirgi kunda turizm sohasida sayyohlarni jo‘natuvchi va qabul qilib oluvchi har bir mamlakat uchun sayyohlarning dam olish paytlarida, transport harakati yo‘nalishlarida ularning xavfsizligini ta’minlash chora-tadbirlari har bir mamlakat uchun oddiy, odatdagi hayotiy holda bo‘lmog‘i zarur. Xalqaro kelishilmovchiliklar yoki harbiy xatti-harakatlar, xalqaro jinoyatchilik, terrorizm voqea va hodisalari xalqaro turizm oqimiga nafaqat to‘sqinlik qiladi, balki uning rivojiga juda katta zarba beradi. Bu to‘g‘rida xalqaro turizmning asosiy generatori (boshlovchisi) bo‘lgan har bir mamlakatning tashqi ishlar vazirligi o‘zlarining fuqarolari sayohatga boradigan mamlakatlardagi noxush voqea va hodisalar to‘g‘risida xabardor qilib borishi lozim. Sayyohlarni sayohatga boradigan mamlakatalardagi noxush voqea va hodisalar to‘g‘risida xabardor qilib borishi lozim. Sayyohlar sayohatga boradigan mamlakatdagi mehmonxonalar, ovqatlanish korxonalarining sanitariya-gigiyenik holati, shu jumladan ichimlik suvi to‘g‘risida obyektiv ma’lumotlarini, yuqumli infeksion kasalliklar kelib chiqishi xavf-xatari to‘g‘risidagi zururiy ma’lumotlar bilan oldindan xabardor bo‘lishi kerak.

Transport tarmoqlari va kommunikatsiyalar**.** Xalqaro turizmda transportning tutgan o‘rni beqiyos muhim bo‘lib hisoblanadi. Ayniqsa passajir transporti va transport kommunikatsiyalari sayyohlar uchun ularni o‘z uyidan aeroport yoki temir yo‘l, avtomobil, dengiz, daryo suv yo‘li vokzallariga, sayyohlarni bir shahardan ikkinchi shaharga, vokzaldan mehmonxonaga, mehmonxonadan turistik manzillargacha qulay, xavf-xatarsiz holda olib borib qo‘yishda yo‘l ochadi. Xalqaro turizmni transport vositalarisiz umuman tasavvur qilib bo‘lmaydi.

Yo‘lovchilar tashuvchi transport vositalari bilan turizm sohasi o‘rtasida o‘zaro bog‘liqlik mavjuddir. Transport vositalarining takomillashuvi, ya’ni zamonaviy qulay transport turlarining yaratilishi xalqaro turizmning dinamik holatda rivojlanishi bilan ifodalanadi. So‘nggi yillarda xalqaro turizmda sayyohlikka talabning ortib borishi, transport tarmoqlarining qatnashishi, turistik almashinishni ta’min etishda va uni to‘xtatib turishda asosiy omillardan biri bo‘lib hisoblanadi.

Ko‘pgina ommaviy turistik xizmatlarni tashkillashtirishda transport va kommunikatsiyalarning roli beqiyos muhimdir. Ayniqsa transport tarmoqlari jumladan, avtomobil yo‘llari, ularning turistik ahamiyati va o‘tkazuvchanlik quvvati muhim rol o‘ynaydi. Xorijdan kelgan har bir sayyoh uchun birinchi taassurot samolyot trapidan tushib, aeroport vokzaliga kirishi, yoki temir yo‘l poyezdida kelganlar uchun temir yo‘l vokzalidan boshlanadi. Undan so‘ng transport vositalarida vokzaldan mehmonxonagacha boriladi. Shu sababli turizm uchun xizmat ko‘rsatuvchi tarmoqlarning holati sayyohlar uchun qulay, bezarar va to‘siqsiz bo‘lishi zarur.

Turistik infratuzilmalar**.** Turistik infratuzilmalar o‘z tarkibiga mehmonxonalar, ovqatlanish korxonalari, aloqa yo‘llari yig‘indisi (yo‘llar, aeroportlar, kemalar to‘xtaydigan joylar h.k.), kommunikatsiyalar (suv quvurlari, elektr tarmoqlari, markaziy isitish korxonalari, oqova suv tarmoqlari, telefon, aloqa, (pochta bo‘limlari), huquqni himoya qilish, jamoat-tartibini saqlovchi idoralar, tibbiyot

tashkilotlari, maishiy xizmat ko‘rsatuvchi tashkilotlar, do‘konlar, sport inshootlarini birlashtiradi va turistik xizmat ko‘rsatuvchi korxonalar bilan chambarchas holda bog‘langandir.

Turistik infratuzilmalar turistik zaruriy shart-sharoitlarini, sayyohlarning xavfsizligi, sog‘liq-salomatligini ta’minlashga qaratilgan. Ma’lumki, sayyoh uchun qaysi bir joyda tinchlik osoyishtalik, maishiy qulaylik yaratilgan bo‘lsa, u o‘sha joyga borishga intiladi. Turist avtomobildami, poyezddami, mehmonxo-nadami qisqasi qayerda bo‘lmasin u o‘zini xavf-xatarsiz holda sezishi, unga zarurat birinchi yordam ko‘rsatilishi zarur. Maboda zarurat tug‘ilsa, u yer kurrasining har qanday joyi bilan bog‘lanish imkoniyatiga ega bo‘lishi, yuqori darajada tibbiyot maslahatlari, zaruriy servis xizmati olish imkoniga ega bo‘ladi.

Ilmiy texnika taraqqiyoti (yangi texnologiyalar). Fan-texnika yutuqlari turizm industriyasi va mehmondo‘stlikda, yo‘lovchilar tashishda, axborotlar almashish sohalarida keng ko‘lamda foydalanilmoqda. Havo transportida yangi zamonaviy tez yurar, yirik passajirlar tashishga mo‘ljallangan havo kemalarning ishlab chiqarilishi sababli sayyohlarga xizmat ko‘rsatish rivojlanib bormoqda.

Temir yo‘l transporti sohasida texnologik omillar borgan sari rivojlanib, o‘z aksini poyezdlar qatnovi tezligini oshirilishi bilan ifodalanadi. Hozirgi kunda Yaponiya va Fransiya kabi mamlakatlarda tez yurar poyezdlar tezligini soatiga 485 km.ga yetkazishga erishildi. Temir yo‘l transportining aviatsiya transportidan afzalligi shundan iboratki, temir yo‘l vokzallari shahar markazida joylashgan bo‘lib, sayyohlar uchun qulay imkoniyatlar tug‘diradi.

Telekommunikatsiya texnologiyalari va elektronika sanoatining rivojlanishi kompyuter tizimida mehmonxona o‘rinlarini, transportda chiptalarni band qilishga imkon yaratdi. Yangi texnologilarning paydo bo‘lishi turistik mahsulotlarni tashkil etishda va ularni sotishda sifat o‘zgarishlariga sabab bo‘ldi. Xalqaro turizmning kelajakda rivojlanishi birinchi o‘rinda turistik mahsulotlarning takomillashuvi, professional

turagentlik tarmoqlarining rivojlanishini, tur operatorlar mahsulotlari sohasi, marketing xizmatlarining foydalanish darajasi va inson omillari bilan bog‘liqligi bo‘lib hisoblanadi.

Nazorat uchun savollar

1. Turizm geografiyasi fanining predmeti va obyektini tushuntirib bering.
2. Geografiya fanlari tizimi haqida tushuncha va uning mohiyatini aytib bering.
3. Turizm va geografiyaning bir-biriga bog‘liqligi nimada.
4. Turizmning rivojlanishiga ta’sir etuvchi omillarni sanab bering.
5. Turizm rivojlanishining tarixiy bosqichlarini sanab bering.
6. Turizm infratuzilmasi tarkibini aytib bering.

2-BOB. DUNYO SIYOSIY XARITASI VA KARTOGRAFIYA

2.1. Dunyo siyosiy xaritasi haqida tushuncha.

2.2. Dunyo siyosiy xaritasi shakllanishining asosiy bosqichlari.

2.3. Qadimgi dunyo va o‘rta asrlardagi dunyo siyosiy xaritasi.

2.4. Buyuk geografik kashfiyotlar va yevropa mustamlakachilik bosqichining boshlanishi.

2.5. Birinchi va ikkinchi jahon urushi ta’sirida dunyo siyosiy xaritasida yuz bergan siyosiy o‘zgarishlar.

2.6. Hozirgi dunyo mamlakatlarining davlat tuzumlari.

2.7. Dunyo mamlakatlarining toifalarga bo‘linishi.

2.1. Dunyo siyosiy xaritasi haqida tushuncha

Siyosiy xaritaning ahamiyati g‘oyat katta bo‘lib, u mamlakatlarning xalqaro o‘rnini, dunyoda egallagan mavqeini, ichki siyosiy-ma’muriy strukturasi xususiyatlarini o‘zida yaqqol aks ettiradi. Mamlakatlar va xalqlarning butun hayoti ularning davlat (siyosiy) chegaralari belgilangan o‘z hududlarida o‘tadi. Ularni aynan shu yo‘nalishda o‘rganish iqtisodiy, ijtimoiy va siyosiy geografiyaning asosiy vazifasi hisoblanadi. Bir tomondan, dunyo va regional muammolar ayrim mamlakatlarning muammolaridan o‘sib chiqadi va shakllanadi, boshqa tomondan esa, ularning rivojlanishi boshqa ko‘plab mamlakatlarga bevosita katta ta’sir ko‘rsatadi. Masalan, 2022-yil 24-fevralda boshlangan Rossiya va Ukraina o‘rtasidagi ziddiyatlar, uzoq vaqtdan beri davom etib kelayotgan Afg‘oniston va Suriyada yuz minglab insonlar hayotiga zomin bo‘lgan tanglik o‘chog‘i alanga olib turibdi. Afg‘onistondagi harbiy-siyosiy tanglik, beqarorlik bugun Markaziy Osiyodagi mintaqaviy barqorорlikning holatiga ham, jumladan, qo‘shni mamlakatlarning milliy xavfsizligiga ham salbiy ta’sir ko‘rsatmay qolmaydi. Shu bilan bir qatorda xalqaro hayotda siyosiy, iqtisodiy (shu jumladan, sanoat, transport va boshqa sohalardagi xo‘jalik qurilishlari), egalik muammolarini bir nechta

davlatlarning birgalikdagi sa’y-harakatlari, umumiy mablag‘lar hisobiga hal etish yo‘llari tabora ko‘payib barmoqda. Bunday muammolar yechimi davlat chegaralaridan tashqariga chiqmoqda, chegaralar esa davlatlarni ajratib turadigan to‘siqlardan o‘zaro aloqa, hamkorlik chiziqlariga aylanmoqda.

Mustaqil davlatlarning tashkil topishi, shakllanishi, rivojlanishi, shuningdek, ularning barbod bo‘lishi yoki suverenitetining tugatilishi, o‘zgarishi yoki tubdan o‘zgartilishi va boshqalar g‘oyat murakkab tarixiy jarayonlar bo‘lib, ko‘plab ichki va tashqi amallar – siyosiy, ijtimoiy, iqtisodiy, etnik, diniy va boshqalar bilan belgilanadi. Bunda ko‘pincha mamlakatlar va xalqlar hayotining murakkab mummolari ko‘p yillar, bazan asrlar davomida yechilmay qoladi.

Xalqaro muammolar bo‘yicha mutaxassislar yer sharida 300ga yaqin joy (punkt) bo‘yicha hududiy, chegara va boshqa masalalar yuzasidan munozaralar borligini, shu jumladan, 100dan ortiq shunday joy bo‘yicha kuchli nizoli vaziyat mavjudligini ko‘rsatadi.

Dunyoning aholi yashaydigan qismi (o‘zlashtirilgan quruqlik) odamlarning tez ko‘payishiga bog‘liq holda tabora tor bo‘lib qolmoqda. Ko‘pchilik davlatlarda, birinchi navbatda, Osiyo va Afrikaning ayrim mamlakatlarida mavjud chegaralar doirasida yer tanqisligi haddan tashqari murakkab muammoga aylandi. Ularda yerning oziq-ovqat ishlab chiqarish manbai, aholi yashash manzillari joylashadigan va xo‘jalik rivojlanishi uchun g‘oyat zarur hudud sifatidagi qiymati oshib bormoqda. Bu holat mamlakatlar iqtisodiy va siyosiy rivojlanishi xusiyatlari hamda ekologik vaziyatning keskin yomonlashuvi, katta yer maydonlarining ishdan chiqishi (yaroqsiz bo‘lib qolishi), aholi tabiiy o‘sishining yuqoriligi bilan uzviy bog‘liqdir.

Bunday holatga misol tariqasida Xitoy, Hindiston, ko‘pchilik arab davlatlari, Tropik Afrika mamlakatlari. Misol tariqasida Bangladesh Respublikasida yuzaga kelgan fojiali vaziyatni ko‘rsatish mumkin. Uning maydoni atiga 144 ming. kv.km. bo‘lib, bu yerda 165

milliondan ko‘proq aholi yashaydi. Hududning 90% Gang, Braxmapurtra, Mechxna daryolari va ularning ko‘plab irmoqlari yaratgan yotqiziqlaridan tashkil topgan deltadan iborat. Issiq va g‘oyat nam iqlimda “sholi tuproqlari” deb ataladigan bu yerlar ushbu mamlakatning eng qimmatli va deyarli yagona tabiiy boyligidir. Ayni paytda, dunyoning biron mamlakati daryo to‘rlari zichligi, har yili ko‘p marta sodir bo‘ladigan, katta moddiy zarar yetkazadigan, hududining katta qismini suv ostida qoldiradigan toshqinlarning katta miqyosi bo‘yicha Bangladeshga tenglasha olmaydi, Masalan, 1988-yil avgust-sentyabrdagi suv toshqinlari mamlakatning 80% hududiga yoyilgan va 30 mln. aholining boshpanasiz qolishiga sabab bo‘lgan. Dunyoda sunami to‘lqinlari kabi dengiz to‘lqinlarining dahshatli zarbalariga uchraydigan Bangladesh kabi davlat topilmaydi. Bu tabiiy ofat o‘n minglab odamlarning o‘limiga sabab bo‘lmoqda. Masalan, 1990-yil kuzida sodir bo‘lgan toshqin oqibatida, hisoblarga ko‘ra. 150 mingdan 300 mingtagacha odam halok bo‘lgan.

Bangladesh agrar mamlakat bo‘lib, deyarli barcha iqtisodiy va ijtimoiy ko‘rsatkichlar bo‘yicha dunyoning eng kambag‘al va qoloq mamlakatlaridan biridir. Shu bilan birga hozirda bu davlat to‘qimachilik sanoati bo‘yicha tezlikda rivojlanayotgan davlatlar qatoriga chiqib oldi. Aholisining tabiiy o‘sishi har yili 3 mln. kishidan (2,2%) ko‘proqni tashkil etadi, umumiy soni esa 165 mln.dan ko‘proqdir (2020). Aholisining o‘rtacha zichligi bo‘yicha dunyoda yetakchi davlatlar qatorida turadi. Bu ko‘rsatkich hududi jihatidan uncha katta bo‘lmagan Bangladeshdek mamlakat uchun g‘oyat katta muammolarni keltirib chiqarmoqda. Shu bilan birga ijtimoiy-iqtisodiy muammolarning chuqurlashuviga sabab bo‘lmoqda. Chunki birorta davlat Bangladeshga bir qarich ham yer bermasligi aniq-ku, axir. Afsuski, dunyoning ko‘p rayonlarida chegara, hududiy masalalar doimo murakkab muammo bo‘lib kelgan, ular ayniqsa so‘nggi yillarda davlatlararo, millatlararo nizolar oqibatida g‘oyat keskinlashdi.

Dunyo siyosiy xaritasi g‘oyat o‘zgaruvchan xususiyatga ega. U quyidagi asosiy siyosiy-geografik o‘zgarishlarni aks ettiradi: muayyan davlatning boshqa davlat bilan qo‘shilishi (birlashishi, bir davlatning boshqa davlat tarkibiga kirishi v.b); davlatchilikning (siyosiy suverenitetining) yo‘qotilishi; davlatlar (mamlakatlar) maydonining-hududlar va akvatoriyalar, ular chegaralarni o‘zgarishi; poytaxtning almashishi (o‘zgarishi); davlat, mamlakat va poytaxt nomlarining o‘zgarishi; davlat boshqaruvi shaklining o‘zgarishi va boshqalar. Bu elementlarning barchasi siyosiy geografik xaritaning asosiy mazmunini belgilab beradi.

2.2. Dunyo siyosiy xaritasi shakllanishining asosiy bosqichlari

Hozirgi zamon dunyo siyosiy xaritasi kishilik jamiyatining uzoq davom etgan ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish jarayonlari o‘zgarishi, almashinuvi qonuniyatlarini to‘la aks ettiradi. Dunyo siyosiy xaritasi – tarixiy davrlarning ko‘zgusi, materiklar, qit’alar, dunyo siyosiy-iqtisodiy bo‘linishining o‘ziga xos tasvirdir.

Dunyo siyosiy xaritasining shakllanishi quyidagi davrlarga bo‘linadi: qadimgi, o‘rta asrlar, yangi davr va eng yangi davr.

Qadimgi davr (davlatlarning dastlab paydo bo‘lishidan milodning V asrigacha) quldorlik tuzumi davrini o‘z ichiga oladi; yer sharida birinchi davlatlarning paydo bo‘lishi va halokatini aks ettiradi. Qadimgi Misr, Karfagen, qadimgi Gretsiya, qadimgi Rim, O‘rta Osiyoda shakllangan qadimgi Xorazm, Baktriya, So‘g‘da va boshqa davlatlar, Turk hoqonliklari (milloddan avvalgi 207-yildan millodning 216-yiligacha Ulug‘ Xun imperiyasi, Ikkinchi Xun imperiyasi millodning II-IV asri) kabi qadimgi davlatlar dunyo sivilizatsiyasining rivojlanishiga katta hissa qo‘shganlar. Turkiy xalqlarning qadimgi avlodlari bo‘lgan xunlar (skif) Markaziy Osiyo, Kaspiy bo‘ylari, Shimoliy Kavkazgacha cho‘zilgan o‘z davlatlarini barpo etganlar. Ular o‘z yozuviga ega bo‘lishgan, harbiy maqsadlarda xaritalardan foydalanishgan. Xun avlodlari sharqiy va g‘arbiy Yevropaga borib,

milodning 347-yilidan 469-yiligacha Xunlar imperiyasini tuzganlar. Shu bilan bir qatorda bu davrda harbiy yurishlar, urushlar davlat chegaralari va hududlari o‘zgarishining asosiy sababi bo‘lgan.

O‘rta asrlar davri (V-XV asrlar). Bu davrda Dunyo siyosiy xaritasi feodalizm davri bilan bog‘liq holda shakllangan. Quldorlik imperiyalari parchalanib, ularning o‘rnida ko‘p sonli katta va kichik feodal davlatlar paydo bo‘ldi. Feodal davlatlarning siyosiy funksiyalari quldorlik davridagi davlatlardagiga nisbatan ancha murakkab va xilma-xil edi. Bu davrda ichki bozor shakllandi, regionlarning boshqalardan ajralgan holda yopiq yashashiga chek qo‘yildi. Davlatlarning o‘zlaridan uzoqda joylashgan hududlarni bosib olishga harakat qilish ishtiyoqi kuchayadi. Dunyo materiklari va qit’alari turli davlatlar o‘rtasida taqsimlab olindi.

2.3. Qadimgi dunyo va o‘rta asrlardagi dunyo siyosiy xaritasi

Bu davrda muqaddas Rim imperiyasi, Angliya, Ispaniya, Fransiya, Portugaliya, Kiyev Rusi, Hindiston, Xitoy, Eron va Turon – Turkiston o‘lkasidagi feodal davlatlar va boshqalar mavjud bo‘lgan. Shu jumladan, O‘rta asrlar dunyo siyosiy xaritasida Movarounnaxrning ilk feodal davlatlari (So‘g‘d, Toxariston, Farg‘ona, Choch, Xorazm va boshqalar), IX-XIII asrdagi feodal davlatlar (Qarluqlar, Toxiriylar, Samoniylar, Qoraxoniylar, Xorazm davlatlari va boshqalar), Chig‘atoy ulusi (XIII-XIV asr), Amir Temur va Temuriylar davlatlari (XIV asrning oxiri XV asr boshi) katta salmoqqa ega bo‘lganlar. Bu davlatlar joylashgan o‘rni “Buyuk Ipak Yo‘li” bilan bog‘liq bo‘lgan qulayligidan feodallashib, G‘arb va Sharq o‘rtasidagi aloqalarda o‘ziga xos Karvon yo‘li “Ko‘prigi” (madaniyatlar almashuvi) rolini o‘ynagan. Shu bilan bir qatorda O‘rta Osiyo sahrolari ularni ajratuvchi, karvon savdosi uchun to‘siq funksiyani ham bajarganligini ta’kidlash lozim. Dunyo siyosiy va iqtisodiy xaritasi shakllanishining yangi davri (XV-XVI asr oralig‘idan birinchi jahon

urushi tugaganiga qadar) kapitalizm paydo bo‘lgan, rivojlangan va qaror topgan butun bir tarixiy davrga to‘g‘ri keladi.

Feodalizmning yemirilishi va kapitalistik munosabatlarning paydo bo‘lishi ijtimoiy hayotning barcha sohalarida va dunyo siyosiy xaritasida muhim o‘zgarishlar bo‘lishiga olib keldi. Kapitalistik iqtisodiyotning rivojlanishida Buyuk geografik kashfiyotlar alohida o‘rin egallaydi. U feodal ishlab chiqarish munosabatlaridan kapitalistik ishlab chiqarish munosabatlariga o‘tishning asosiy omillaridan biri hisoblanadi. Buyuk geografik kashfiyotlar qator iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy jarayonlar va voqealarning yakuniy natijasi sifatida tayyorlangan edi. O‘rta yer dengizi bo‘yi savdosining inqirozi va muomala vositasi hisoblangan oltin va kumishning yetishmasligi, Turkiyaning O‘rta yer dengizi qirg‘oqlarini zabt etishi yevropaliklarni sharqqa, ayniqsa, Hindistonga boradigan yangi yo‘llarni izlab topishga majbur etdi. “Oltinga tashnalik” esa yangi yerlarni qidirishga undadi. Portugallar Afrika qirg‘oqlari, Hindiston, Uzoq sharqda, ispanlar esa Atlantika okeanidan kesib o‘tib, Amerikada “Oltin” qidirdilar. Buyuk geografik kashfiyotlarning tayyorlanishi Yevropa qit’asining kapitalizm vataniga aylanishi uchun yaratilgan quyidagi shart-sharoitlar bilan uzviy bog‘liqdir.

– tovar-pul munosabatlarining rivojlanishi;

- markazlashgan yirik davlatlarning tashkil topishi;

- yangi yerlarni kashf etish va o‘zlashtirish uchun tayyor kadrlarning mavjudligi;

- texnik imkoniyatlar, birinchi navbatda Karavella (uch yoki to‘rt machtali yelkanli kema), va kompasli xaritalardan foydalanish;

- usmonli turklar tomonidan Sharqiy O‘rta yer dengizining zabt qilinishi va yevropaliklarning sharqqa yangi yo‘llar topishga majbur bo‘lganligi;

- fanning rivojlanishi, ayniqsa, “Astranomiya” va “Geografiya” fanlarining yutuqlariga tayanib, ispanlar va portugallar buyuk geografik kashfiyotning kashshoflari (piyonyerlari) bo‘ldilar.

Portugallar Afrikani aylanib, Hindistonga, ispanlar esa yangi dunyo (Amerika)ga dengiz yo‘llarini ochishga erishdilar. Bular olamshumul ahamiyatiga ega kashfiyotlar edi.

Buyuk geografik kashfiyotlar qatoriga kiradigan quyidagi sayohatlarni ko‘rsatib o‘tish mumkin:

-1492-1502-yillari Amerikaning yevropaliklar uchun kashf etilishi (X. Kolumbning Markaziy Amerika va Janubiy Amerikaning shimoliga sayohati). Ispaniya tomonidan Amerikaning koloni-zatsiyasining boshlanishi;

-1498-yildagi Vaska Da Gammaning Afrikani aylanib o‘tgan dengiz sayohati;

-1499-1504-yillar Ameriko Vespuchining Janubiy Amerikaga sayohati;

-1519-1522-yillar Magellan va sheriklarining dunyo bo‘ylab sayohati;

-1648-yil Semen Dejuevning sayohati (Rossiya – Sibir);

-1740-yil V. Bering va P. Chirikov sayohatlari (Sibir);

-1771-1773-yillar – Jems Kuk sayohati (Avstraliya, Okeaniya).

Buyuk geografik kashfiyotlar davri dunyo siyosiy va iqtisodiy xaritasida kuchli o‘zgarishlar bo‘lishiga olib keldi. U yevropa mustamlakachilar bosqichining boshlanishi, dunyo xo‘jalik aloqalarining keng tarqalishi, aholi ko‘chish harakatlarining kuchayishiga sabab bo‘ldi. Buyuk geografik kashfiyotlar, birinchidan, dunyoning birinchi uchta yirik mustamlakachi davlatlari – Ispaniya (Amerikada), Portugaliya (asosan Osiyoda) imperiyalarining paydo bo‘lishiga, ikkinchidan, dunyo savdosining vujudga kelishi va dunyo bozorining shakllanishiga olib keldi.

Shu munosabat bilan asosiy savdo yo‘llari, dunyo savdosining asosiy hajmi va yo‘nalishi quruqlik (karvon) yo‘llari (shu jumladan, Buyuk Ipak yo‘li ham), ichki dengiz yo‘llari va ularga tutash mamlakatlardan Atlantika va Hind okeaniga ko‘chdi. Ispaniya, Portugaliya, Angliya, Gollandiya, Fransiyaning iqtisodiy geografik

o‘rni yaxshilandi. Lissabon va Sevilya, so‘ngra Antverpen va Amsterdam Yevropaning yirik dengiz portlariga aylandi. Ayni paytda qit’a ichkarisida joylashgan shaharlar, masalan, shimoliy Italiya shaharlari og‘ir ahvolga tushdi, quruqlik karvon yo‘llarining ahamiyati ancha pasaydi. Temuriylar davlatining inqirozi va parchalanib ketishi ham ayni shu davrga to‘g‘ri keldi. Yevropaga arzon oltin va kumush oqimlari kirib kelishi XVI asrda tovarlar narxi bir necha marotaba ko‘tarilishiga, oqibatda, savdo sanoati burjuaziyasining tez boyishiga olib keldi. Sanoat mollarini chetga chiqaruvchi mamlakatlar (Nederlandiya, Angliya, Fransiya) tez fursatda o‘z mavqelarini mustahkamlab oldilar. Aksincha Ispaniya va Portugaliyada osonlik bilan olib kelinayotgan mustamlaka o‘ljalari feodal munosabatlar, cherkovning saqlanishiga, o‘z hunarmandchiligi va manfakturasiga putur yetkazishga, oqibatida o‘zlarining avvalgi ahamiyatini yo‘qotishi va raqobatchilaridan harbiy mag‘lubiyatga uchrashiga sabab bo‘ldi.

XIV asrning oxiri va XV asrning boshida tashkil topgan Amir Temur va Temuriylar davlati Hindiston va Xitoydan Qora dengizga qadar va Orol dengizdan fors qo‘ltigiga qadar g‘oyat katta hududni egallagan davlat edi. Uning dunyo siyosiy va iqtisodiy xaritasi shakllanishiga ta’siri bu ulkan hudud bilangina chegaralanmagan. Bu davlat Janubi-Sharqiy va Kichik Osiyo, Suriya, Misr, Quyi Volga, Don bo‘ylari, Shimoliy Kavkaz, Balxash ko‘li va Ili daryosi bo‘ylari, Shimoliy Hindistongacha bo‘lgan ko‘plab mamlakatlarni o‘ziga bo‘ysindirgan qudratli davlatga aylangan edi. Amir Temur Xitoy va Hindistondan O‘rta Osiyo orqali Yaqin Sharq va yevropa mamlakatlariga yo‘nalgan asosiy savdo yo‘li “Buyuk ipak yo‘li”ni nazorat qilib, sharq bilan g‘arb o‘rtasidagi savdo-sotiq va elchilik aloqlarini har tomonlama rivojlantirishga katta hissa qo‘shdi. Temurning To‘xtamish ustidan g‘alaba qozonib, Oltin O‘rdaga bergan zarbasi (1395-y.) Rossiya davlatining mustaqilligini saqlab qolish va uning markazlashuvida katta ahamiyat kasb etganligi tan olingan

haqiqatdir. Sohibqironning Boyazid ustidan galabasi esa (1402-y.) Yevropani Usmonli turk imperiyasi asoratidan saqlab qoldi.

Lekin, Temur vafotidan keyin vorislari toju taxt talashuvi, shuningdek, Buyuk Ipak yo‘lining xalqaro savdo (karvon) yo‘li sifatidagi ahamiyati keskin pasayishi (buyuk geografik kashfiyotlar, ayniqsa, yangi dengiz yo‘llarining ochilishi va dengiz transportidagi taraqqiyot bilan bog‘liq holda) ushbu ulkan davlatning parchalanishiga olib keldi. Uning o‘rnida ko‘plab katta-kichik davlatlar paydo bo‘ldi. Xususan, Movarounnaxr va Xurosonda Shayboniyxon davlati (XVI asr boshlarida) tashkil topdi. Uning parchalangan hududlarida esa XVI asrda Buxoro xonligi (amirligi), Xiva xonligi, XVIII asr boshida Qo‘qon xonligi vujudga keldi. XIX asrning o‘rtalaridan boshlab Rossiya imperiyasi o‘zbek xonliklarini bosib olish uchun keng harbiy-siyosiy tayyorgarlik ko‘rishga kirishdi. XIX asrning 40-yillari oxiri, 50-yillari boshidan Rossiya imperiyasi Turkiston yerlariga bostirib kela boshladi. Rus istilochi qo‘shinlari keng ko‘lamdagi harbiy harakatlar bilan 60-yillardan Qo‘qon xonligi, Buxoro amirligi, 70-yillarning boshida esa Xiva xonligi hududlarini bosib oldi va ularni Rossiya imperiyasiga to‘la bo‘ysindirdi. Turkiston ulkan viloyat, volost, uchastka va oqsoqolliklarga bo‘linib boshqarildi. Rossiyadan ko‘plab rus dehqonlari va yersiz aholilar ko‘chirilib keltirilib, ularga kamida 10 desyatinadan yer ajratib berildi. Mustamlakachilar rus imperiyalari, xutor va selolar, shaharlar yonida esa ruslar uchun “Yangi shaharlar” barpo etishga alohida e’tibor berdi. Tub joy aholisining turmushi esa tobora og‘irlashib boraverdi.

Shunday qilib, O‘rta Osiyo uchun bir asrdan ko‘proq davom etgan og‘ir mustamlakachilik davri boshlandi. XVII asrning birinchi yarmida Angliya va Fransiya mustamlakachilik harakatini boshladilar. Ular Vest-Indiyadagi qator orollarni o‘zlariga bo‘ysindirdi, Shimoliy Amerikada o‘zlarining ko‘chma koloniyalarini tashkil qildilar. XVII asrning o‘rtasida Niderlandiya, Osiyodagi Portugaliya mustamlakalarini (Sellon, Hindiston dengizi qirg‘oqlaridagi tayanch

punktlar, qator Zond orollari), Afrika janubi, Surinam, Vest-Indiyadagi orollarni bosib olib, dunyoning birinchi mustamlakachi va savdo mamlakatiga aylandi. Lekin, XVII asrning ikkinchi yarimidagi Angliya, Niderlandiya urushlari Niderlandiyani sezilarli kuchsiz-lantirdi. Mustamlakalar uchun Angliya bilan Fransiya o‘rtasidagi kurash XVII asr oxiridan XIX asrning boshlarigacha davom etdi. Angliya o‘z mustamlakalarini fransuzlar hisobidan Shimoliy Amerikada va Hindistonda kengaytirdi. Fransiya qaramog‘ida faqat kichik mustamlakalargina saqlanib qoldi. Angliya shiddatli kurash orqali Ispaniya, Niderlandiya, Fransiyadan ko‘plab mustamlakalarni tortib oldi. Ularning umumiy maydoni 22 mln.kv.km.dan ortiqroq bo‘lib, Hindiston, Kanada, Avstraliya, Janubiy Afrikani o‘z ichiga olgan edi. Butun “yetuk” kapitalizm davri mobaynida Angliya dunyoda o‘zining sanoat, savdo, moliya va harbiy hukumronligini saqlab qoldi. London dunyoning eng yirik shahari, porti, bank markaziga aylandi. 1870-yilda Angliya hissasiga dunyo sanoat ishlab chiqarishining 1/3 qismi to‘g‘ri kelgan va Britaniya mustamlaka imperiyasi dunyo siyosiy va iqtisodiy xaritasining shakllanishiga eng katta ta’sir ko‘rsatgan. XIX asrning o‘rtalarida Hindiston to‘liq Angliya mustamlakasiga aylandi. Hindistonga boradigan dengiz yo‘lidagi barcha tayanch punktlar (Mavrikiy oroli, Afrikaning janubiy qirg‘og‘i), mamlakatning janubiy qirg‘og‘i, Singapur bosib olindi, Avstraliya va Yangi Zelandiya ustidan to‘liq hukumronlik o‘rnatildi.

XVIII asrning oxiriga kelib Lotin Amerikasida Ispaniya va Portugaliyaning talonchilik siyosati salbiy oqibatlari yaqqol ko‘rina boshladi. Ozodlik urushlari bilan bog‘liq holda XIX asrning birinchi choragida Ispaniya mustamlakalarida (Yangi Ispaniya, Yangi Grenada, Peru, La-Plata) yigirmaga yaqin davlatlar tizimi paydo bo‘ldi. Bu mamlakatlar iqtisodiyotiga chet el kapitali keng miqyosda kirib kela boshladi.

Angliyaning mustamlakalar iqtisodiy rivojlanishini metropoliya manfatlariga to‘la bo‘ysundirishga harakati Shimoliy Amerika

mustamlakalarida kuchli norozilik uyg‘otdi. Masalan, 1775-1783-yillarda ozodlik uchun olib borilgan urush Angliyaning AQSH mustaqilligini tan olishga majbur etdi. 1776-yilda AQSH mustaqilligi e’lon qilindi. Uning tarkibiga 13 ingliz mustamlakalari kirdi. Mustaqillikka erishgach, AQSHda boshqa davlatlarga nisbatan kapitalizmning kengayishi va chuqurlashuvi uchun nihoyatda qulay vaziyat yuzaga keldi. XVIII asrning oxiridan boshlab AQSH Appalachi tog‘laridan g‘arbda joylashgan hindu qabilalari yashaydigan hududlar kolonizatsiyasini kuchaytirdi, XIX asrning birinchi yarimida AQSH yerlarni sotib olish va zabt etish hisobiga o‘z hududlarini ancha kengaytirdi. 1803-yilda Fransiyadan g‘arbiy Luizianani (maydoni 2,5 mln. kv. km.), 1819-yilda Ispaniyadan Floridani sotib oldi. Meksikadan Texas (1845-y), Kaliforniya va qoyali tog‘larning janubini (1848-y) o‘z ichiga olgan katta hududlar tortib olindi, 1846-yilda keng Organ viloyati mamlakatining Shimoli-g‘arbi qo‘shib olindi, 1867-yilda Rossiyadan Alyaska sotib olindi. Shunday qilib, AQSHning tez rivojlanishi uchun qulay shart-sharoitlar yuzaga keldi. Uning dunyo sanoati ishlab chiqarishidagi salmog‘i 1870-yilga kelib14% ga yetdi.

XIX asrning o‘rtalarida Germaniya va Italiyada siyosiy birlashish asosida yagona markazlashgan davlatlar tashkil topdi. Bolqon yarim orolida milliy ozodlik harakati asosida Turkiya imperiyasi tarkibiga kirgan Gretsiya (1829-y.), Ruminiya (1861-y.), Bolgariya, Serbiya, Chernogoriya (1878-y.) davlatlari paydo bo‘ldi.

XIX asrning oxirgi choragiga kelib Rossiya dunyoning yirik mustamlakachi davlatlari qatorida turar edi. U yangi asrda rus davlatidan ko‘plab tutash mamlakatlarni istilo qilish asosida yirik Rossiya imperiyasiga aylandi. 1876-yilda uning mustamlakalari maydoni 17 mln.kv.km. bo‘lib, ularda yashaydigan aholi 15,9 mln. nafarga yetgan edi. O‘sha davrda Rossiya dunyoning Buyuk Britaniyadan keyingi ikkinchi mustamlakachi imperiyasi hisoblanardi. Ayniqsa, XIX-XX asr tutashgan davrda bo‘lingan dunyoni qayta bo‘lib

olish uchun kurash g‘oyat keskinlashib, dunyo siyosiy xaritasi bekor bo‘lib qoldi. Masalan, 1876-yilda Afrikaning atigi 10% hududi g‘arbiy yevropa mamlakatlariga qarashli bo‘lsa, 1900-yilga kelib bu ko‘rsatgich 90%ga yetdi. Afrikani bo‘lib olishda birinchi o‘rinni Angliya egalladi. U Shimoli-sharqiy va Janubiy, qisman g‘arbiy Afrikada hukumron mavqega ega bo‘ldi va o‘ziga Misr, Sudan, Keniya, Uganda, Somolining bir qismi, Shimoliy va Janubiy Rodeziya, Transval va To‘qsariq (Oranjevaya), Bur Respublikalari, Nigeriya, Oltin qirg‘oq (Gana), Serra – Leone, Gambiya mamlakatlarini bo‘ysindirdi.

Fransiya 70-yillargacha Jazoir, Senegal, Gvineya qo‘ltig‘i qirg‘oqlarining bir qismini bosib olgan bo‘lsa, Afrikani bo‘lib olish davrida yana Tunis, Marokkash, Gvineya qo‘ltig‘i qirog‘lari, Niger, Kongo havzasi, Chad ko‘li rayoni, Madakaskar, Somolining bir qismini zabt etdi va Shimoliy va g‘arbiy Afrikada yirik mustamlaka massivini barpo qildi.

Bu davrda Germaniya, Italiya ham Afrikada mustamlakalar bosib olishni boshladi. 1884-yilda Germaniya Janubi-G‘arbiy va Sharqiy Afrika (Tanganika), Kamerun, Tongoni istilo etdi. Italiya Eritereyani, Somolining bir qismini bosib oldi.

1911-1912-yillardagi Turkiya, Liviya urushi oqibatida Kichik Osiyo qirg‘oqlaridagi orollar guruhiga ega bo‘ldi. Bepoyon va xilma-xil resurslarga boy Kongo hududlari Belgiya egaligiga o‘tdi. Afrikani bo‘lib olish davrida Portugaliya, Angola va Mozambik hududlarini kengaytirdi, Ispaniya g‘arbiy Saxroi Kabir, Ispaniya Gvineyasi (Rio-Muni), Shimoliy Marokkaning bir qismini zabt etdi.

Shunday qilib, butun Afrika qit’asida nomigagina ikkita mustaqil davlat saqlanib qoldi. Bularning biri Abissiniya (Efiopiya) bo‘lib, u Italiyaga qarshi zarba berishga muvaffaq bo‘lgan edi. Ikkinchisi – Liberiya esa 1847-yilda Amerika mustamlaka jamiyati tomonidan asoslangan bo‘lib AQSHning norasmiy protektorati hisoblanardi.

XIX asrning oxirida AQSH ham mustamlakalar bosib olishga kirishdi. 1898-yildagi Ispan – Amerika urushi natijasida u Ispaniyadan Filippin, Guam orollari va Puerto-Rikoni tortib oldi.

Kuba rasman mustaqil deb tan olinishiga qaramay, amalda u AQSHning yarim mustamlakasiga aylangan edi. AQSH o‘ziga Gavayi orollarini qo‘shib oldi, Samoa orollarini Germaniya bilan bo‘lib olishdi, Panama kanali zonasini istehkomlar va harbiy-dengiz bazasini qurish huquqi bilan ijaraga oldi. Okeniyani bo‘lib olish ham tugallandi: Angliya Fidji orollarini, Salmon orollarining bir qismini, Fransiya, Gaiti, Yangi Kaledaniya orollarini, Germaniya Yangi Gvineya orollarining Shimoliy-sharqiy qismini, Bismark orollarini, Salomon orollarining bir qismini, Marshal orollarini bosib oldilar. Germaniya Ispaniyadan Marin va Korollin orollarini sotib oldi.

Yaponiya uzoq sharqda mustamlakalar istilosini boshladi. 1895-yilda Xitoydan Tayvan orolini tortib oldi, Koreyani bosib oldi va 1910- yilda uni o‘zining mustamlakasi deb e’lon qildi. Rus-Yapon urushidan keyin Yaponiya Saxalin orolining Janubiy qismida, Kuril orollarida mustahkam o‘rnashdi. Mustamlakachi davlatlar Xitoyni yarim mustamlakaga aylantirdilar, unga teng bo‘lmagan shartnomalarni majburan qabul qildirdilar va shu asosda uning hududlarida “ta’sir sohalari”, konsepsiyalar tuzildi. XIX asrning ikkinchi yarmida Fransiya Vetnam, Laos, Kambodjani o‘z ichiga olgan Fransuz Hindi – Xitoyi mustamlaka koloniyasini barpo etdi. Angliya Yuqori Birma, Barneo orolining Shimolini zabt etdi. XX asrning boshida Turkiya hukmronligiga qarshi milliy ozodlik harakatlari Balqon yarim oroli siyosiy xaritasida o‘zgarishlar bo‘lishiga olib keldi. Albaniya mustaqillikka erishdi, Bolgariya Egey dengiziga chiqishga, Gretsiya va Serbiya esa o‘z hududlarini kengaytirishga muvaffaq bo‘ldi.

2.4. Buyuk geografik kashfiyotlar va yevropa mustamlakachilik bosqichining boshlanishi

Buyuk geografik kashfiyotlar XV–XVII asr o‘rtalari (chet el adabiyotlarida, odatda, faqat XV asr o‘rtalari XVI asr o‘rtalari)da yevropalik sayyohlar tomonidan qilingan yirik geografik kashfiyotlar uchun qabul qilingan shartli termin.

Yevropa mamlakatlarida tovar ishlab chiqarishning o‘sishi, javohirlarning yetishmasligi va oltin hamda kumush, ziravorlar va fil suyagini (tropiklarda), qimmatbaho mo‘yna, morj tishini (shim. mamlakatlarda) topish maqsadida yangi yerlarni qidirish, Yevropadan Hindiston va sharqiy Osiyoga yangi savdo yo‘llarini axtarish kabilar ekspeditsiyaga borishning umumiy sabablari bo‘lgan.

Buyuk geografik kashfiyotlar birinchi yuz yillik davrining muhim voqealari 1488-yil portugaliyalik dengizchilar Afrikaning barcha g‘arbiy va janubiy. sohilini tekshirdilar (D. Kan, B. Diash va b.). 1492-1494-yillarda X. Kolumb Bagam orollarini, Katta va Kichik Antil orollarini kashf qildi. 1497-1499-yillarda Vasko da Gamma (arablar rahnamoligida) G‘arbiy Yevropadan janubiy Afrika bo‘ylab Hindistonga uzluksiz dengiz yo‘lini ochdi. 1498-1502-yillarda X. Kolumb, A. Oxeda, A. Vespuchchi va boshqa ispan hamda portugal dengizchilari Janubiy Amerikaning hamma shimoliy sohilini, uning sharqiy (Braziliya) qirg‘og‘ini 25° j.k.gacha va Markaziy Amerikaning Karib qirg‘og‘ini kashf qildi. 1513-1525-yillarda ispanlar Panama bo‘ynini kesib o‘tib, Tinch okean qirg‘og‘iga chiqdilar (V. Nunes de Balboa) va La-Plata qo‘ltig‘ini, Florida va Yukatan orollarini va Meksika qo‘ltig‘ining barcha sohilini (X. Ponse de Leon, F. Kordova, X. Grixalva va b.), Meksika va Markaziy Amerikani (E. Kortes va b.) zabt etdilar, Janubiy Amerikaning Atlantika sohilini to‘liq tekshirdilar. 1519-1522-yillarda F. Magellan va uning safdoshlari Amerikaning janubiy chekkasi bo‘ylab bo‘g‘oz orqali (keyinchalik Magellan bo‘g‘ozi deb ataldi) dunyo bo‘ylab birinchi sayohat amalga oshirdi.

1526-1552-yillarda F. Pissaro, D. Almagro, P. Valdiviya, G. Kesada, F. Orelyana va boshqa ispanlar janubiy Amerikaning barcha Tinch okean sohilini, And tog‘larini 10°sh.k.dan 40°j.k.gacha, Orinoko, Amazonka, Parana, Paragvay daryolarini ochdi. Fransuz dengizchilari J. Verratsano (1524), J. Karte (1534-1535) Shimoliy Amerikaning sharqiy qirg‘og‘ini va San Lavrentiy daryosini, ispan sayyohlari E. Soto va F. Koronado esa Appalachi tog‘larining janubini va Qoyali tog‘larning janubini, Kolorado va Missisipi daryolarining quyi oqimlarini o‘rgandi (1540-1542).

Buyuk geografik kashfiyotlar ikki yuz yillik davrining muhim voqealari. Ermakning G‘arbiy Sibirga yurishidan (1581-1584) keyin va Gaz daryosi bo‘yida Mangazeya shahriga (1601) asos solingandan so‘ng rus sayyohlari Yenisey va Lena daryolari sohillarini o‘rgandi, shimoliy Osiyo hududini kesib o‘tib, Oxota dengizigacha yetib bordi (1639-y. I. Moskvitin). XVII asrning o‘rtalariga kelib Sibirning barcha yirik daryolari va Amur daryosining oqimini (K. Kurochkin, I. Perfilev, I. Rebrov, M. Staduxin, V. Poyarkov, E. Xabarov va b.) o‘rgandi. Rus dengizchi sayyohlari esa Osiyoning barcha shimoliy sohilini aylanib chiqib, Yamal, Taymir, Chukotka yarim orollarini tavsifladi va Shimoliy Muz okeanidan Tinch okeanga (Bering bo‘g‘ozi orqali) o‘tib, Osiyo quruqlik orqali Amerika bilan tutashmaganligini aniqladilar (F. Popov, S. Dejnev ekspeditsiyalari). Golland dengizchisi V. Barens 1594-yilda Novaya Zemlya orolining g‘arbiy qirg‘og‘ini va 1596-yilda Shpitsbergen orolini aylanib chiqdi. Inglizlar 1576-1631-yillarda Grenlandiyaning g‘arbiy sohilini aylanib o‘tib, Baffin Erini, Labrador yarim orolini aylanib, Gudzon qo‘ltig‘i qirg‘oqlarigacha bordilar (M. Frobisher, J. Deyvis, G. Gudzon, U. Baffin va b.). Fransuzlar 1609-1648-yilarda Shimoliy Amerikada Shimoliy Appalachi tog‘larini va Buyuk ko‘llarni (S. Shamplen va b.) topdilar. Ispaniyalik L. Torres 1606-yilda Yangi Gvineya orolining janubiy qirg‘og‘ini aylanib Torres bo‘g‘ozini ochdi, gollandlar esa V. Yansson, A. Tasman va boshqalar 1606-1644-yillarda Avstraliya, Tasmaniya va

Yangi Zelandiyaning shimoliy, g‘arbiy va janubiy qirg‘oqlarini kashf qildi.

Sharq mamlakatlarida, ayniqsa, Xitoyda bunday kashfiyotlar ancha ilgari boshlangan. Miloddan avalgi 128-yilda xitoylik Chjan Syan Sharqiy Tyanshan etaklari bo‘ylab borib, Markaziy Tyan-Shan dovonlaridan oshib, Farg‘ona vodiysining Koson shahriga kelgan, so‘ngra Qizilqumdan o‘tib, Balxga etib borgan. Qaytishda Pomir, Singin tog‘laridan o‘tib, 126-yilda vataniga qaytib kelgan (15 ming km. yo‘l bosgan). Xitoy sayyohi Syuan Szan VII asrda 16 yil (629—645) davomida Chjan Syan yo‘lidan yurib, Balx shahrigacha borgan, so‘ng Hindukush tog‘laridan oshib, Haybar darasidan o‘tib, Hind vodiysiga chiqqan va Panjobni o‘rgangan, Panjobdan Bengaliyagacha bo‘lgan yerlarni kezgan, so‘ngra Amudaryo bo‘yiga qaytib, Pomir va Qashqar orqali vataniga qaytgan. 689-yilda xitoylik I. Szin dengiz bo‘ylab sayohatga chiqqan. Sumatra oroliga borgan, 695-yil vataniga qaytgan va ko‘rganlarini batafsil yozib qoldirgan.

IX–X asrlarda arablar Eron, Hindiston, Shri-Lanka, Turkiston, O‘rta Osiyoning buyuk tog‘lari, Shimoliy va Janubiy Xitoy, Hindixitoy, Indoneziya orollari, Afrika, Madagaskar orollari haqida yetarli ma’lumotga ega bo‘lishgan. Faqat Yevrosiyoning shimoli ularga uncha aniq emas edi. X asrning birinchi yarmida arab sayyohi, olim Mas’udiy butun G‘arbiy Osiyoni, Turkiston, Kavkaz, sharqiy Yevropa, shimoliy Afrika, Sharqiy Afrikani kezib chiqqan, Yava oroli va Xitoyda ham bo‘lgan degan ma’lumotlar bor. XIII asrning boshida arab geografi va sayyohi Yoqut Hamaviy O‘rta dengiz, Fors qo‘ltig‘i, Eron tog‘ligi va Turkistonda bo‘lgan. Yoqut Hamaviy “Mamlakatlar lug‘ati”ni tuzgan. Marokashlik savdogar Abu Abdulloh Ibn Battuta 1325-yilda Iskandariyaga kelgan, so‘ngra Nil daryosi bo‘ylab suzib, birinchi sharsharaga (Asvon yaqinida) borgan. Keyin Suriya (Shom), Kichik Osiyo yarim oroli Iroq, Makka, Yaman, undan Mozambikka borgan, so‘ng Zanjibar oroli orqali Ho‘rmuz bo‘g‘oziga kelgan, Bahrayn orollaridan o‘tib, Janubiy. Eronda bo‘lgan, u yerdan Misrga

qaytgan. So‘ngra Suriya va Kichik Osiyo yarim oroli orqali Qora dengiz bo‘yiga, Qrimga, Volga daryosi etagi, Axtuba orqali Oltin O‘rda poytaxti Saroy Berkaga borgan. Keyin Xorazm, Buxoro, Samarqandga o‘tgan. Janubga burilib Amudaryodan o‘tgan, Hindukush tog‘laridan oshib, Hind vodiysiga, Panjobga, Dehliga borgan. 1342-yilda Xitoyga bora turib Janubiy Hindiston, Shri-Lanka, Maldiv orollariga o‘tgan, undan Xitoyga, Tayvan oroliga borib, 1349-yilda vataniga qaytgan. So‘ng Ispaniyaga borgan. Niger daryosi o‘rta oqimiga, Air, Axaggar tog‘liklariga (Sahroi Kabirda) borgan. Hammasi bo‘lib (quruqlikda va suvda) 130 ming km. yo‘l bosgan. U sayohat qilgan mamlakatlar haqida muhim ma’lumotlar qoldirgan.

Turkistondan ham jahon geografiya faniga buyuk hissa qo‘shgan olim va sayyohlar chiqqan. Bulardan Muhammad ibn Muso al Xorazmiy “Surat alarz” “Yer tasviri” asarini yozgan, 7 iqlimga ta’rif bergan, 537ta joy nomini yozib qoldirgan. Abu Rayhon Beruniy 1016-yilda sharqda dastlabki geografik globusni yaratdi. Yer aylanasini aniq, o‘lchadi, dunyo xaritasini tuzdi, g‘arbiy yarim sharda quruqlik borligini bashorat qildi. Nosir Xisrav Mag‘rib shahriga, janubda Nubiya cho‘li, Makkagacha, sharqda Mo‘lton va Lohur shaharlariga borgan, 15 ming km.dan ortiq yo‘l bosgan. Hofizi Abru (XIV–XV asrlar) Movarounnaxr, Dashti Qipchoq, Xuroson, Iroq, Fors, Ozarbayjon, Eron, Gurjiston, Armaniston, Rus va Shom yerlarida bo‘lgan, Hindistonda Gang daryosi qirg‘oqlarigacha bir necha marta borgan. Uning 1417-1420-yillarda yozgan geografik asarida dunyoning doira shaklidagi xaritasini yaratdi. Abdurazzoq Samarqandiy Afanasiy Nikitindan 27 yil avval Hindistonga (Kolikut portiga) dengiz yo‘li (Arabiston dengizi) orqali borgan (1441) va Hindiston haqida kitob yozgan. Afrikani aylanib o‘tgan Vasko da Gama Abdurazzoq Samarqandiydan 50 yil keyin shu portga yetib borgan. Sharq geograf sayyoh olimlarining kashfiyotlari va yozib qoldirgan kitoblari yevropalik geograf sayyohlarning jahonshumul geografik kashfiyotlariga asos bo‘lgan deyish mumkin.

2.5. Birinchi va ikkinchi jahon urushi ta’sirida dunyo siyosiy xaritasida yuz bergan siyosiy o‘zgarishlar

Dunyo siyosiy xaritasi shakllanishining yangi asr davridagi asosiy mazmunini mustamlakalar bosib olish, metropoliya (mustamlakachi) davlatlari o‘rtasidagi o‘zaro munosabat va nisbatlar belgilab berdi. XX asr boshida dunyo to‘liq bo‘lib olindi. 1914-yilda mustamlakachi imperiyalar mustamlakalarining umumiy maydoni 74,9 mln.kv.km. (jami yer yuzasi quruqlik hududlarining 56%i), ulardagi aholi 530 mln. kishiga (dunyo aholisining 35%i) yetdi. Angliya mustamlakalari maydoni 33,5 mln.kv.km. (dunyo mustamlakalarining 44,7%i), ularning aholisi 393,5 mln. kishi (mustamlaka aholisining 74,2%i), Rossiya shunga mos holda 17,4 mln. (23,3%) va 33,2 mln. (6,3%); Fransiya 10,6 mln. (14,1%) va 55,5 mln (10,5%); Germaniya 2,9 mln. (3,9) va 12,3 mln. (2,3%); AQSH 0,3 mln. (0,4%) va 9,7 mln. (1,8%); Yaponiya 0,3 mln. (0,4%) va 19,2 mln. (3,6%) bo‘lgan. Metropoliya va mustamlakalar maydoni va aholisi o‘rtasidagi nisbat tegishlicha quyidagi miqdorda ortiq bo‘lgan: Buyuk Britaniyada – 100 va 8,8 marta va 0,2%; Niderlandiya – 67 va 7,4; Portugaliya – 21 va 1,5; Fransiya-21 va 1,3; Belgiya -80 va 2,8 marta; Daniya – 5 marta va 4,2%; Germaniya – 5 marta va 21%; Ispaniya – 40% va 3,8%; Italiya – 1,7 marta va 2,2%; AQSH – 24,4% va 11,6%. Shu davrdan boshlab dunyoni qayta bo‘lib olish faqat urush va zo‘ravonlik vositasida amalga oshishi mumkin edi. Shu sababdan dunyoning yetakchi mamlakatlari o‘rtasida bo‘lingan dunyoni qayta bo‘lib olish uchun kurash tobora keskinlashdi.

Eng yangi davr birinchi jahon urushining tugashi va 1917-yil Rossiyada oktyabr to‘ntarishidan boshlab to hozirgi kunlargacha bo‘lgan davrni qamrab oladi. Bu davr quyidagi uch bosqichga bo‘linadi. Birinchi bosqich (1917-1939-yillar) dunyo xaritasida SSSR (sotsialistik imperiya)ning paydo bo‘lishi, yevropada va dunyoning boshqa qismlarida muhim hududiy o‘zgarishlarning sodir bo‘lishi bilan xarakterlanadi. Avstriya – Vengriya imperiyasi parchalandi, ko‘p

davlatlarning chegaralari o‘zgardi. Yangi mustaqil mamlakatlar Polsha, Finlyandiya, Chexoslovakiya, Yugoslaviya (Serbiya, Xorvatiya, Slovoniya qirolliklari) va boshqalar paydo bo‘ldi. Buyuk Britaniya, Fransiya, Belgiya, Yaponiya mustamlakalari ko‘paydi va kengaydi. Germaniya mustamlakalari (3 mln.kv.km.) g‘olib davlatlarga vasiylikka (amalda mustamlakaga) bo‘lib berildi. Masalan, Tanganika Angliyaga “mandat”ga berildi. Togo va Kamerun esa Angliya va Fransiya o‘rtasida bo‘lib olindi. Janubi-G‘arbiy Afrika JARga, Shimoliy – Sharqiy Yangi Gvineya Avstraliya Ittifoqiga, Karolin, Marian, Marshall orollari Yaponiyaga, g‘arbiy Samoa orollari Yangi Zelandiyaga, Nauru orollari – Angliya, Avstraliya, Yangi Zelandiyaga berildi. Rossiyada bolsheviklar yakkaboshchiligi ostida sovet hokimiyati o‘rnatilgandan keyin Turkistonda ham muhim o‘zgarishlar sodir bo‘ldi. Tarixan tarkib topgan xalqlarning yagona iqtisodiy, madaniy makoni, mavjud suv resurslari, sug‘orish tizimlari va boshqalarning umumiyligi hisobga olinmay, Markaziy Osiyoni bo‘lib tashlash, Turkiston o‘lkasi, Buxoro amirligi, Xiva xonligi o‘rnida yangi tuzilmalarni vujudga keltirish asosida mustamlakachilikni yanada mustahkamlash sho‘rolar imperiyasi siyosatining asosiy yo‘nalishiga aylandi. Dastlab Turkiston muxtoriyati (1917-yil noyabr – 1918-yil fevral), Turkiston ASSRning tuzilishi (1918-yil aprel), Buxoro amirligining tugatilishi (1920-yil avgust) va Buxoro Xalq Sovet Respublikasi (1920-yil oktyabr) tuzilishi (1920-yil boshlari) va Xorazm Xalq Sovet Respublikasi (1920-yil aprel) tuzilishi, so‘ngra milliy davlat chegaralanishining amalga oshirilishi ushbu siyosatning natijalaridir. V.I. Lenin Turkistonni, “Uzbekiya, Kirgiziya, Turkmaniyaga bo‘lingan xaritasini tuzish to‘g‘risida ko‘rsatma berdi. 1924-yilda Turkiston, Buxoro va Xorazm Sovet Respublikalari o‘rnida O‘zbekiston SSR, Turkmaniston SSR, Tojikiston ASSR, (O‘zbekiston SSR tarkibida), Qoraqirg‘iz (Qirg‘iz viloyati RSFSR tarkibida) va Qoraqalpoq avtonom viloyati (Qozog‘iston ASSR tarkibida) tashkil etildi. Til va milliy tafovutlarni

ataylab bo‘rttirib ko‘rsatib, ayni holda tarixiy, iqtisodiy, madaniy, diniy birlikni hisobga olmasdan tuzilgan yangi respublikalar “bo‘lib tashla, hukumronlik qil” degan mustamlakachilik prinsipiga asoslangan edi. Ular Rossiya imperiyasi davridagidek metropoliyaga arzon xomashyo yetkazib beriladigan mustamlakalar bo‘lib qolaverdi. Bulardan tashqari 1918-yilda Latviya, Litviya, Estoniya (Rossiya imperiyasi), Yaman (Turkiya imperyasi muxtor hududi), 1919-yilda Afg‘oniston (Britaniya imperiyasidan) mustaqilligi e’lon qilindi.

1920-yilda Antanta (g‘oliblari) mamlakatlari tomonidan San-Remo konferensiyasida Turkiya imperiyasining arab mamlakatlaridagi mustamlakalari mandatlari bo‘lib olindi. Angliyaga Falastin, Transiordaniya, Mesopatomiya (Iroq), Fransiyaga Suriya va Livan berildi. Xijaz mustaqil arab davlati sifatida tan olindi. 1926-yilda “qo‘shilgan viloyatlar bilan Xijaz va Nejz” qirolligi tashkil topdi va uning nomi 1932-yilda Saudiya Arabiston deb o‘zgartirildi. 1923-yilda Nepal mustaqilligi e’lon qilindi, lekin u mustaqil taraqqiyot yo‘liga ikkinchi jahon urushidan keyingina o‘tdi. 30-yillarda dunyoning qayta bo‘lib olish bilan bog‘liq bo‘lgan harbiy nizolar muttasil davom etdi. 1931-1932-yillarda Yaponiya Xitoydan Manjuriya va Ichki Mongoliyaning bir qismini tortib oldi, 1937-yilda Xitoyni bosib olish uchun urush boshladi. Italiya 1935-1936-yillarda Abissiniyani (Efiopiya), 1939-yilda Albaniyani istilo qildi. Gitler Germaniyasi 1938-1939-yillarda Avstraliyani bosib oldi, Chexoslovakiyani bo‘lib tashladi. 1939-yil sentyabrda Germaniya Polshaga hujum boshladi. Polsha esa shartnomalar orqali Fransiya va Angliya bilan bog‘langanligi sababli, bu urush ikkinchi jahon urushining boshlanishiga olib keldi. Urush davomida Germaniya qator Yevropa mamlakatlarini bosib oldi. 1941-yilda Yaponiya Janubi-Sharqiy Osiyo va Tinch okeaniga boshqa imperiyalarning mustamlakalarini bosib olish uchun harbiy harakatlarni boshladi, 4 mln.kv.km. hududni unda yashaydigan 150 mln. kishi bilan ishg‘ol qildi. Ikkinchi jahon urushida Germaniya va Yaponiyaning mag‘lubiyatiga bog‘liq holda dunyo

siyosiy xaritasida muhim o‘zgarishlar yuz berdi. Ikkinchi bosqich (1939-1990 y.) Yevropa siyosiy xaritasida yuz bergan o‘zgarishlardan tashqari, sotsialistik eksperimentning kengayishi (Yevropa va Osiyodagi ayrim davlatlarning sotsialistik yo‘lga o‘tishi), imperalizm mustamlakachilik tizimining yemirilishi oqibatida Osiyo, Afrika, Lotin Amerikasi (Karib regioni) okeaniyada 100dan ortiq mustaqil davlatlarning barpo etilishi bilan xarakterlanadi. Mustamlakachilik tizimining barbod bo‘lishi, milliy ozodlik harakatlarining kuchayishi, xalqlarning mustaqillik uchun kurashlari dunyo siyosiy xaritasini tubdan o‘zgartirib yubordi.

1943-yilda Livan va Suriya; 1944-yilda Ispaniya; 1945-yilda Indoneziya (Niderlandi Ost-indiyasi hududida); 1946-yilda Filippin mustaqillikka erishdi; 1947-yilda Hindiston diniy prinsipga asosan ikkita Hindiston va Pokistonga bo‘lindi; 1950-yilda Hindiston; 1956-yilda Pokiston Respublikalari e’lon qilindi; 1947-yilda BMT bosh Assambleyasi Falastin hududida ikkita mustaqil Arab va yaxudiy davlatlarini tuzish to‘g‘risida qaror qabul qildi. 1948-yilda Isroil davlati tashkil etildi, lekin ko‘p sabablarga ko‘ra, hozirgacha Falastin arab davlati tuzilmadi. 1949-yilda sobiq Germaniya hududida dastlab GFR (AQSH, Angliya, Fransiya ishg‘ol zonasida), so‘ngra GDR (SSSR zonasida) tuzildi. G‘arbiy Berlin esa mustaqil siyosiy maqomga ega shaharga aylantirildi. SSSR chegaralarida ba’zi o‘zgarishlar yuz berdi: Zakarpat Ukrainasi, sobiq Sharqiy Prussiyaning bir qismi (1946-yildan Kaliningrad viloyati), Pechenga viloyati, Janubiy Sahalin, Kuril orollari SSSR tarkibiga kirdi. Polshaga uning yerlari – Seleziya, Pomore, Gdansk viloyatlari qayta qo‘shildi. Ikkinchi Jahon urushidan keyingi yillarda dunyo siyosiy xaritasida Vetnam (1945-y) KXDR (1948), Xitoy Xalq Respublikasi (1949 y), 1948-yilda Birma va Seylon (1972-yildan Shiri-Lanka), 1953-yilda Laos va Kambodja paydo bo‘ldi. 1963-yilda Singapur, Malayziya Federatsiyasi tarkib topdi. 1965-yilda Singapur mustaqil respublika deb e’lon qilindi. 60-yillarning birinchi yarmida ingliz mustamlakalari Kipr, Quvayt,

Maldiv orollari, 1967-yilda Janubiy Yaman, 1971-yilda Baxreyn, Katar, Birlashgan Arab Amirliklari (BAA), shuningdek, Bangladesh (Sharqiy Pokiston) mustaqil bo‘ldi. 1976-yilda Shimoliy va Janubiy Vetnam yagona davlatga birlashdi. 1975-yilda Laosda Monarxiya ag‘darilib Laos Xalq Demokratik Respublikasi e’lon qilindi.

Ikkinchi jahon urushidan keyingi yillarda Afrikaning 90%ga yaqin hududi va 75% aholisi mustamlaka asoratida edi. Bu yerda faqat uchta mustaqil davlat (Janubiy Afrika Ittifoqini hisoblamaganda) – Efiopiya, Misr, Liberiya mavjud bo‘lgan. Hozir ularning soni 50dan ko‘proqdir. Birinchi bo‘lib Shimoliy Afrikadagi Arab mamlakatlari mustaqil bo‘ldilar: Liviya (1951), Marokkash va Tunis, Sudan (1956), undan so‘ng Tropik Afrikada birinchi bo‘lib Gana (1957), so‘ngra Gvineya (1958). 1960 – “Afrika yili”dan boshlab (shu yili 17 Afrika mamlakati mustaqil bo‘ldi) mustamlakachilikning parchalanishi jarayonlari boshqa materiklarda ham nihoyat darajada tezlashdi (hatto, Yevropada ham: 1964-yilda Malta mustaqil bo‘ldi). Lotin Amerikasi siyosiy xaritasida ham muhim o‘zgarishlar yuz berdi. 1959-yilda Kuba rivojlanishning sotsialistik yo‘liga kirdi. 1962-yilda ingliz mustamlakalari o‘rnida mustaqil davlatlar Trinidad va Tabago, Yamayka, 1966-yilda Gayana (Sobiq Britaniya Gvineasi) va Barbados, 1973-yilda Bagam orollari, 1974-yilda Grenada, 1978-yilda Dominika, 1979-yilda Sent-Lyusiya paydo bo‘ldi. 1975-yilda Niderlandiya mustamlakasi Surinam mustaqilligini e’lon qildi. Okeaniya siyosiy xaritasida ham chuqur o‘zgarishlar sodir bo‘ldi. 60-yillarda g‘arbiy Samoa va Nauru (BMT ning sobiq vasiy hududlari), O‘tgan asrning 70-yillarida Tonga, Fidji, Salomon orollari, Tuval, Kiribati, Papua-Yangi Gvineya, 1980-yillarda Vanautu. Uchinchi bosqich 1990-yillardan to hozirga qadar davom etayotir. Bunda quydagilar dunyo hamjamiyatining ijtimoiy-iqtisodiy va ijtimoiy siyosiy hayotiga katta ta’sir ko‘rsatdi va dunyo xaritasida muhim Yangi sifat o‘zgarishlari sodir bo‘lishiga olib keldi:

-1991-yilda SSSRning parchalanishi, uning tarkibidagi barcha ittifoqdosh respublikalar davlat mustaqilligining e’lon qilinishi;

-Mustaqil davlatlar hamdo‘stligining (MDH) tashkil topishi;

-Sharqiy Yevropa mamlakatlarida tinch yo‘l bilan xalq demokratik inqilobining g‘alaba qilishi (1989-1990-yillar);

-1991-yilda Varshava shartnomasi tashkiloti (harbiy) va o‘zaro yordam iqtisodiy kengayishi faoliyatining to‘xtatilishi. U Yevropa va dunyodagi siyosiy va iqtisodiy vaziyatga doimo jiddiy ta’sir ko‘rsatib turgan edi;

-1990-yil 3 oktyabrda ikki nemis davlatining (GFR va GDR) yagona davlatga birlashuvi;

-Yugoslaviya Sotsialistik Federativ Respublikasining parcha-lanishi, Sloveniya, Bosniya va Gersogovina, Xarvatiya Yugosloviya Ittifoqi Respublikasi (tarkibida Serbiya va Chernogoriya) mustaqilligining e’lon qilinishi. Hozirgacha davom etayotgan millatlararo nizolar bilan bog‘liq bo‘lgan sobiq federatsiyaning jiddiy inqirozi;

-1990-yil may oyida ikki arab davlati Yaman Arab Respublikasi (YaAR) va Yaman Xalq Demokratik Respublikasi (YaXDR) milliy-etnik asoslarda birlashdi;

-1990-1991-yillarda mustamlakachilikning barbod bo‘lish jarayoni davom etib, quyidagilar mustaqillikka erishdilar: Namibiya (Afrikadagi eng so‘nggi mustamlaka); Okeaniyada Yangi davlatlar – Mikroneziya Federativ Shtatlari (Karolin orollari), Marshal orollari Respublikasi paydo bo‘ldi;

-1993-yil 1-yanvarda sobiq Chexoslovakiya parchalanib, ikkita mustaqil davlat Chexiya va Slovakiya vujudga keldi;

-1993-yil Eriteriya davlatining (Efiopiyaning qizil dengiz qirg‘og‘idagi sobiq provinsiyasi) mustaqilligi e’lon qilindi.

Dunyo siyosiy xaritasining kelajakda o‘zgarish miqyoslari ko‘p millatli mamlakatlarda etnik-milliy jarayonlarning rivoji yo‘nalishiga,

mamlakatlar va xalqlar o‘rtasidagi iqtisodiy, siyosiy, madaniy munosabatlarning xarakteriga bog‘liq.

2.6. Hozirgi dunyo mamlakatlarining davlat tuzumlari

Dunyoning siyosiy kartasida davlatlarni siyosiy rejimi, davlat tuzumi va tuzilishi bo‘yicha o‘rganish alohida ahamiyatga ega. Siyosiy rejim davlat hokimiyatini amalga oshirish usul va yo‘llarining majmui bo‘lib, mamlakatdagi siyosiy vaziyatni, jamiyatdagi siyosiy erkinlik darajasini va shaxsning huquqiy holatini bildiradi.

Davlatlarning siyosiy rejimi bo‘yicha ikkita toifaga bo‘lish mumkin. Demokratik va g‘ayridemokratik davlatlar. Xalqaro tashkilotlarning ma’lumotlariga qaraganda, XX asrning 70-yillarida demokratik davlatlar toifasiga dunyoning 1/3 davlati kirgan bo‘lsa, XXI asrning 80-yillarida 88ta (dunyoning 2,8 mlrd. aholi shu davlatlarda yashaydi) erkin demokratik davlatlar va 55ta (dunyoning 1,3 mlrd. aholisi istiqomat qiladi) davlat qisman erkin deb tan olingan. Bu davlatlarda, shaxsning iqtisodiy sohadagi erkinligi, inson va fuqaro huquqlari erkinligi, qonun ustuvorligi, ijtimoiy birlashmalarning ko‘pligi belgilari xosdir.

Jahon mamlakatlarining g‘ayridemokratik tuzumga asoslangan davlatlarining soni 50ta bo‘lib, demokratik erkinliklar, siyosiy va ijtimoiy tashkilotlarning faoliyatini cheklanganligi, qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud hokimiyati o‘rtasidagi vakolatlari aniq taqsimlanmaganligi, insonning konstitutsion huquqlari va erkinliklari poymol bo‘layotganligi bu davlatlar uchun xos.

Davlatlarni boshqaruvi tuzumi ikki xil respublika va monarxiya shaklida bo‘ladi. Davlatlarni respublika shaklida boshqarilishi Antik davrida vujudga kelgan bo‘lib, Yangi va eng Yangi tarixiy bosqichlarda bu boshqaruv shakli juda keng tarqalgan. Shuni qayd etish zarurki, mustamlakachilik tuzumidan ozod bo‘lgan va siyosiy mustaqillikka erishgan aksariyat davlatlar, respublika boshqaruviga o‘tgan, ming yillab monarxiya boshqaruviga ega bo‘lgan Misr, Iroq,

Tunis, Liviya davlatlari ham respublika boshqaruvi shaklini qabul qilgan. Hozirgi davrda, dunyoning 4/5 mustaqil davlatlarida respublika boshqaruvi tuzumi joriy qilingan.

Respublika boshqaruvida asosiy qonun chiqaruvchi organ, xalq tomonidan saylangan parlament, ijro etuvchi organ hukumat hisoblanadi. Respublikalar Prezidentlik va parlamentar respublikalarga bo‘linadi. Prezidentlik respublikasiga AQSH, Qozog‘iston, O‘zbekistonni kiritish mumkin. Parlament respublikalariga Avstriya, Italiya, Germaniya misol bo‘lishi mumkin. Monarxiya boshqaruvi eng qadimgi davrda vujudga kelgan bo‘lib, O‘rta asrlarda va Yangi davrda rivojlanadi. Davlatni monarx (imperator, amir, qirol, shoh va boshq.) boshqaradi va boshqaruv avloddan-avlodga o‘tib turadi. Hozirgi davrda 30ta monarxiya davlati mavjud (2.6.1-jadval).

Monarxiya uch xil bo‘ladi, konstitutsion, mutlaq va teokratik. Hozirgi davrdagi monarxiya tuzumidagi davlatlarning ko‘pchiligini konstitutsion monarxiya tuzumi tashkil etadi, monarxning vakolati cheklangan bo‘ladi, qonun chiqaruvchi va ijro etuvchi organlar davlat boshqaruvini olib boradi. Konstitutsion monarxiya davlatlariga misol qilib, Buyuk Britaniya, Yaponiya, Norvegiya, Ispaniyani keltirish mumkin.

Mutlaq monarxiyada cheksiz vakolatga ega bo‘lgan monarx boshqaradi. Bu davlatlarga Oman, BAA, Qatar misol bo‘ladi. Teokratik monarxiyada davlatni diniy boshqaruv olib boradi. Saudiya Arabistoni, Vatikan, Bruney shu davlatlar qatoriga kiradi.

Davlat tuzilishi shakli uning ma’muriy-hududiy tashkil etilishidir. Davlat tuzilishi bo‘yicha barcha davlatlar quyidagi turlarga bo‘linadi:

1.Unitar davlatlar.

2.Federativ davlatlar.

3. Konfederativ davlatlar.

2.6.1-jadval

Monarxiya boshqaruv shaklidagi davlatlar

Davlatlar	Boshqaruv shakli	Davlatlar	Boshqaruv shakli
G‘arbiy Yevropa			
Andora	Knyazlik	Lixtenshteyn	Knyazlik
Belgiya	Qirollik	Lyulsenburg	Buyuk Gerseoglik
Vatikan	Teokratik monarxiya	Monako	Knyazlik
Buyuk Britaniya	Qirollik	Gollandiya	Qirollik
Daniya	Qirollik	Norvegiya	Qirollik
Ispaniya	Qirollik	Shvetsiya	Qirollik
Xorijiy Osiyo			
Baxreyn	Amirlik	Omon	Sultonlik
Bruney	Sultonlik	Saudiya Arabistoni	Qirollik
Butan	Qirollik	Tailand	Qirollik
Iordaniya	Qirollik	Yaponiya	Qirollik
Kambodja	Qirollik	Nepal	Qirollik
Qatar	Amirlik	Birlashgan Arab Amirligi	Amirlik
Quvayt	Amirlik	Malayziya	Sultonlik
Afrika, Okeaniya			
Lesoto	Qirollik	Tongo	Qirollik
Marokkash	Qirollik	Svazilend	Qirollik

Unitar davlat – bu oddiy, yaxlit davlat bo‘lib, davlat, oblast, okrug, rayon, tuman, deb turlicha nomlanadigan ma’muriy-hududiy birliklarga bo‘linadi. Bunday davlatda bitta parlament, bitta hukumat, bitta prezident bo‘ladi. Bunday davlatlarga, Buyuk Britaniya, Fransiya, Italiya, Shvetsiya, Polsha va boshqalar misol bo‘ladi.

Federativ davlat murakkab, ittifoqdosh davlat bo‘lib, bir qancha ma’muriy-hududiy bo‘linmalardan tashkil topadi (shtatlar, o‘lkalar,

respublikalar), federativ tuzilishdagi davlatlarni AQSH, Rossiya, Hindiston, Meksika va hok.tashkil etadi (2.6.2-jadval).

2.6.2-jadval

Dunyoning federativ tuzilishiga ega bo‘lgan davlatlari

Mintaqalar	Davlatlar
MDH	Rossiya Federatsiyasi
Xorijiy Yevropa	Avstriya Respublikasi, Belgiya Qirolligi, Bosniya, Gersegovina, Germaniya Federativ Respublikasi, Shveysariya Konfederatsiyasi
Xorijiy Osiy	Hindiston Respublikasi, Malayziya, Myanma Ittifoqi, Birlashgan Arab Amirligi, Pokiston Islom Respublikasi
Shimoliy Amerika	Kanada, Amerika Qo‘shma shtatlari
Lotin Amerikasi	Argentina Respublikasi, Braziliya Federativ Respublikasi, Boliviya respublikasi, Venusuela, Meksika Qo‘shma Shtatlari, Sent-Kits va Nevis federatsiyalar
Avstraliya va Okeaniya	Avstraliya Ittifoqi, Mikroneziya Federativ shtatlari

Konfederatsiya o‘z suverenteti va mustaqilligini saqlab qolgan holda, u yoki bu maqsadga erishish uchun birlashgan davlatlar ittifoqi. Konfederatsiyada yagona hudud, yagona fuqarolik bo‘lmaydi. Har bir davlat xalqaro huquqning teng huquqli subyekti bo‘ladi. Hozirgi davrda Shveysariyada konfederatsiya maqomi saqlanib qolgan.

2.7. Dunyo mamlakatlarining toifalarga bo‘linishi

Dunyo mamlakatlarining har birini o‘rganganda, uni tabiiy, xo‘jalik, madaniy va siyosiy jihatlari geografik obyekt nuqtai-nazaridan qaraladi. Dunyo mamlakatlarining guruhlanishi va tavsiflanishi turli mezonlar asosida olib boriladi. Agar mamla-katlarning guruhlanishi miqdor ko‘rsatkichlari asosida o‘tkazilsa, ularning tavsiflanishi esa, sifat ko‘rsatkichlari asosida olib boriladi.

Mamlakatlar hududining maydoni, aholi soni, geografik o‘rni xususiyatlari bo‘yicha guruhlanadi. Dunyo davlatlari soni bo‘yicha eng katta gigant–davlatlar, o‘rta, kichik va juda kichik (mitti davlatlar) davlatlarga bo‘linadi. Bundan dunyoning eng katta maydoni bo‘yicha gigant davlatlarga quyidagi o‘nta mamlakat kiradi (2.7.1-jadval) Maydoni bo‘yicha eng yirik davlatlar dunyoning quruqlik qismini 55% tashkil etadi.

2.7.1-jadval

Dunyodagi maydoni bo‘yicha eng yirik davlatlar

Davlatlar	**Maydoni, mln. km.kv.**	**Maydoni bo‘yicha dunyodagi salmog‘i, %da**
Rossiya	17,1	12,7
Kanada	10,0	7,4
Xitoy	9,6	7,2
AQSH	9,6	7,2
Braziliya	8,5	6,4
Avstraliya	7,7	5,7
Hindiston	3,3	2,5
Argentina	2,8	2,1
Qozog‘iston	2,7	2,0
Sudan	2,5	1,9

Shuningdek dunyoning maydoni bo‘yicha eng kichik, mitti-davlatlari mavjud bo‘lib, ular G‘arbiy Yevropada joylashgan, Andorra, Lixtensheyn, San-Marino, Monako, Vatikan davlatlari (bulardan eng kichik davlat Vatikan -0,44 km.kv.), Karib dengizi orollarida Grenada, Barbados, Antigua davlatlari va boshqalar kiradi. Dunyo aholisi soni bo‘yicha ham dunyo mamlakatlari guruhlanadi va guruhlanish har doim o‘zgarib turadi. Aholi soni bo‘yicha eng yirik mamlakatlarda dunyo aholisining 3/5 foiz istiqomat qilmoqda. Aholi soni bo‘yicha Osiyo mamlakatlari yetakchi bo‘lsa, ikkinchi o‘rinda Amerika, uchinchi o‘rinda esa Yevropa turadi.

Mamlakatlarni iqtisodiy geografik o‘rni bo‘yicha guruhlaydigan bo‘lsak, dengiz yo‘liga ega bo‘lgan va dengiz yo‘liga chiqish

imkoniyati berk bo‘lgan mamlakatlarga ajratish mumkin (2.7.2-jadval). Davlatlarning tavsiflanishi ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish darajasi bo‘yicha olib boriladi. Mamlakatlar iqtisodiy-ijtimoiy rivojlanish darajasini jahonning eng nufuzli xalqaro tashkilotlari BMT (Birlashgan Millatlar tashkiloti), Jahon banki va Xalqaro Valyuta fondi belgilab beradi. Hozirgi davrda dunyoda uchta guruhga xos mamlakatlar mavjud:

1) iqtisodiy rivojlangan mamlakatlar;
2) rivojlanayotgan mamlakatlar;
3) bozor iqtisodiyotiga o‘tish davri mamlakatlari.

2.7.2-jadval

Dengiz yo‘liga chiqish imkoniyati berk bo‘lgan mamlakatlar

Mintaqalar	Mamlakatlar
MDH	Ozarbayjon, Armaniston, Belarus, Qozog‘iston, Qirg‘iziston, Moldova, Tojikiston, Turkmaniston, O‘zbekiston
G‘arbiy Yevropa	Avstriya, Andorra, Vatikan, Vengriya, Lixtenshteyn, Lyuksemburg, Makedoniya, San –Marino, Slovakiya, Chexiya, Shveysariya
Xorijiy Osiyo	Afg‘oniston, Butan, Laos, Mo‘g‘iliston, Nepal
Afrika	Botsvana, Burkina Faso, Burundi, Zambiya, Zimbabve, Lesoto, Malavi, Mali, Niger, Ruanda, Svazilend, Uganda, Markaziy Afrika Respublikasi, Chad, Efiopiya
Lotin Amerika	Boliviya, Paragvay

Iqtisodiy rivojlangan mamlakatlarga dunyoning 40 davlati to‘g‘ri kelib, iqtisodiy-ijtimoiy rivojlanish darajasi bo‘yicha boshqa rivojlanayotgan davlatlardan farq qiladi. Bu davlatlarni 26 tasi Yevropada, 7 tasi Osiyoda, 4 tasi Avstraliya va Okeaniyada va 1 tasi Afrikada joylashgan. Ushbu davlatlarining iqtisodiy rivojlanishining o‘ziga xos xususiyati, yuqori darajadagi bozor iqtisodiyoti munosabatlari shakllanganligida, fan-texnika salohiyati ahamiyatida,

aholi turmush darajasi va sifati ko‘rsatkichlarida namoyon bo‘ladi. Jahon sanoati va qishloq xo‘jaligida ishlab chiqarilgan mahsulotlarni va xizmatlarni aksariyat qismi shu davlatlarga to‘g‘ri keladi. Shu bilan birga, bu guruh davlatlarining ichida ham ma’lum tafovutlar mavjud bo‘lib, bu davlatlarni bir nechta guruhlarga bo‘lib o‘rganamiz.

Iqtisodiy rivojlangan davlatlar ichida AQSH, Yaponiya, GFR, Fransiya, Buyuk Britaniya, Italiya va Kanadaning ahamiyati katta bo‘lib, bu “Yettilik davlatlari”ning yetakchiligi dunyo siyosatida va iqtisodida muhim rol o‘ynaydi. Jahonda ishlab chiqarilgan yalpi jahon mahsulotining (JYaM) va sanoat mahsulotini ½ qismi, shuningdek qishloq xo‘jaligi mahsulotini ¼ qismi shu davlatlar salmog‘iga to‘g‘ri keladi. G‘arbiy Yevropaning Avstriya, Belgiya, Daniya, Gollandiya, Norvegiya, Shveysariya va Shvetsiya davlatlari ham ikkinchi guruhni tashkil etadi. Bu davlatlar uchun ham yuqori darajadagi iqtisodiy-ijtimoiy rivojlanishga va xalqaro geografik mehnat taqsimotida tor ixtisoslashishga ega. Bu davlatlar jahon siyosatida ham ahamiyatli mavqega ega bo‘lib, Vena va Jeneva shaharlarida Birlashgan Millatlar Tashkilotining (BMT) bir nechta bo‘limlari joylashgan.

Avstraliya, Yangi Zelandiya, Janubiy Afrika Respublikasi (JAR), Isroil davlatlari uchinchi guruh mamlakatlarini tashkil etadi. Bu davlatlar sobiq Buyuk Britaniyaning mustamlakalari bo‘lib, ko‘chmanchi kapitalizm bu davlatlar uchun xosdir. Oxirgi yillarda iqtisodiy rivojlangan davlatlar qatoriga Janubiy Afrika Respublikasi, Singapur, Syangan (Gonkong) va Tayvan davlatlari qo‘shildi.

Rivojlanayotgan davlatlar guruhiga dunyoning 150dan ortiq mamlakati kirib, quruqlikning ½ qismi va dunyo aholisining 4/5 qismi shu davlatlarga to‘g‘ri keladi. Bu davlatlar, Osiyo, Afrika, Lotin Amerikasi va Okeaniyada joylashgan. Iqtisodiy jihatdan past rivojlanishi, agrar-xomashyo tarmoqlariga ixtisoslanishuvi va jahon bozoriga qaramligi bu davlatlar uchun xos. Bu davlatlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish darajasida jiddiy tafovutlar mavjud, shuning uchun ham ularni har-xil turlarga ajratib o‘rganiladi.

Rivojlanayotgan mamlakatlar ichida Xitoy, Hindiston, Braziliya va Meksika davlatlari muhim rol o‘ynaydi. Tabiiy resurs zaxiralari, aholi va iqtisodiy salohiyat ko‘rsatkichlari bo‘yicha mazkur davlatlar jahonda yetakchi o‘ringa ega. Oxirgi yillarda jahonda ishlab chiqarilgan yalpi jahon mahsuloti (YaJM) qiymati bo‘ycha Xitoy 2 o‘rinni va Hindiston esa 4 o‘rinni egallamoqda, hatto rivojlangan mamlakatlardan ham o‘zib ketdi. Shuningdek, bu to‘rtta davlatda ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlarining hajmi, qolgan rivojlanayotgan mamlakatlardan bir necha barobar yuqori.

Rivojlangan mamlakatlar ichida siyosiy jihatdan mustaqil va ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishda yuqori yutuqlarga erishayotgan Lotin Amerikasidagi Argentina, Venesuela, Urugvay va Chili davlatlarini ikkinchi turdagi mamlakatlarga kiritamiz.

XX asrning 80-90-yillarida, jahon iqtisodiyotida iqtisodiy rivojlanish bo‘yicha keskin sakrash sodir etgan “yo‘lbars” yoki “ajdar” deb nomlangan Yangi industrial davlatlar vujudga keladi. Janubiy Koreya, Singapur, Syangan (Gonkong) va Tayvan davlatlari hozirgi paytdagi xalqaro nufuzli tashkilotlarning ma’lumotlari bo‘yicha, rivojlangan davlatlar qatoriga kirgizilgan Malayziya, Tailand, Indoneziya va Fillipin ham yangi industrial davlatlari deb tan olingan. Rivojlanayotgan davlatlar qatorida neft eksport qiluvchi Saudiya Arabistoni, Quvayt, Birlashgan Arab Amirligi (BAA), Qator, Baxreyn, Liviya va Bruney alohida guruhni tashkil etishadi. Bu davlatlar boshqa davlatlarga nisbatan ancha iqtisodiyoti boy, valyuta tushumining asosiy qismi neft eksporti hisobiga to‘g‘ri keladi.

Rivojlanayotgan mamlakatlarining aksariyat qismini ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi sust bo‘lgan mamlakatlar guruhi tashkil etadi. Bularning umumiy soni 50 tadan ortiq bo‘lib, Osiyo, Afrika va Lotin Amerikasida joylashgan davlatlar kiradi. Masalan, Shri-Lanka, Ganu, Gvineya, Zimbabve, Boliviya, Ganduras va boshqalar kiradi. Bu mamlakatlar uchun, aholi jon boshiga to‘g‘ri keladigan yalpi

mahsulotning pastligi, iqtisodiyotida qishloq xo‘jaligining ustuvorligi va aholining savodsizligi xususiyatlari xos.

Bozor iqtisodiyotiga o‘tish davri mamlakatlariga rejali iqtisodga asosan sobiq sotsialistik mamlakatlar, ya’ni ilgari SSSR tarkibiga kiruvchi 15 ta respublika va Markaziy va Sharqiy Yevropada joylashgan 12ta respublika va Mongoliya kiradi. Bu davlatlarda XX asrning 80-90-yillaridan boshlab, ma’muriy-buyruqbozlikka va rejali iqtisodga asoslangan xo‘jalikdan bozor iqtisodiyoti tizimiga o‘tish, demokratik jamiyat qurish, inson huquqlarini himoya etish, fuqarolik jamiyatini shakllantirish va rivojlantirish bosqichlarini amalga oshirmoqda.

Nazorat uchun savollar

1. Dunyo siyosiy xaritasi haqida tushuncha bering.
2. Dunyo siyosiy xaritasi shakllanishining asosiy bosqichlarini tushuntirib bering.
3. Qadimgi dunyo va o‘rta asrlardagi dunyo siyosiy xaritasi haqida tushuncha bering.
4. Buyuk geografik kashfiyotlar va Yevropa mustamlakachilik bosqichining boshlanishi qachondan boshlangan?
5. Birinchi va ikkinchi jahon urushi ta’sirida dunyo siyosiy xaritasida yuz bergan siyosiy o‘zgarishlarni tushuntirib bering.
6. Hozirgi dunyo mamlakatlarining davlat tuzumlari va toifalarga bo‘linishini tushuntirib bering.

3-BOB. UMUMIY TABIIY GEOGRAFIYA

3.1. Yer sayyorasi shakli, harakatlari, uning hajmi va ichki tuzilishi.

3.2. Litosfera, atmosfera, gidrosfera, biosfera haqida umumiy ma’lumotlar va ularda ro‘y beradigan hodisalar va ularning xususiyatlari.

3.3. Yer sharining quyosh atrofida aylanishi, quyosh radiatsiyasi, gravitatsiya va yerning magnit maydoni.

3.1. Yer sayyorasi shakli, harakatlari, uning hajmi va ichki tuzilishi

Yer Quyosh tizimidagi uchinchi sayyoradir. U Venera va Mars sayyoralari oralig‘ida joylashgan. Yerdan Quyoshgacha bo‘lgan o‘rtacha masofa 149,6 mln.km. Mazkur masofa astronomik birlik sifatida qabul qilingan. Yerning orbita bo‘ylab o‘rtacha harakat tezligi sekundiga 29,8 km.ni tashkil qiladi. Yer orbitasining uzunligi 940 mln.km. Yer o‘z o‘qi atrofida 23,43 soatda bir martda aylanib chiqadi.

Yer yadrodan, mantiyadan va yer po‘stidan iborat. Hozirgi ma’lumotlarga binoan yerning yadrosi metalli zarralarni bir-biriga urilishi va yopishishi (asosan temir zarralarining) natijasida hosil bo‘lgan. Yer tarkibida yengil gazlardan tortib og‘ir metallargacha uchraydi. Ammo yerning tarkibi hali to‘la va atroflicha o‘rganilmagan. Yerni besh foizini tashkil qilgan yuqori qismigina yaxshi o‘rganilgan. Yer po‘stida quyidagi elementlar tarqalgan: O(47,2%), SiO_2(27,6%), Al_2 (8,8%), 34 Fe(5,1%), Ca (3,6%), Na(2,64%), K(2,6%), Mg(2,1%), H(0,15%), qolgan elementlar 0,21%ni tashkil qiladi. Yerning o‘rtacha zichligi 5,52 g/sm^3 .

F.N.Krasovskiy ma’lumotlari bo‘yicha yerning o‘lchamlari quyidagicha: Ekvatorial radius yoki katta yarim o‘q-6378,245 km;

Qutbiy radius yoki kichik yarim o‘q-6356,863 km;

O‘rtacha radius- 6371,110 km;

Qutbiy siqiqlik- 1:298 yoki 21,36 km;

Ekvatorial siqiqlik- 1:30000 yoki 213 m;

Meridian uzunligi- 40008,550 km;

Ekvator uzunligi- 40075,696 km;

Yer yuzasining maydoni- 510083000 $km^{2;}$

Yerning hajmi- 1,083 x 1012 km^3.

Yer yuzasining 71%ni okeanlar va 29%ni quruqlik tashkil qiladi. Yer yuzasida hozirgi paytda to‘rtta okean ajratiladi: Tinch, Atlantika, Hind va Shimoliy Muz okeanlari, keyingi paytlarda Antarktida materigi atrofida janubiy okean ham ajratilmoqda. Quruqlik oltita materik va qit’alardan iborat. Materiklar: Yevrosiyo, Afrika, Shimoliy Amerika, Janubiy Amerika, Antarktida, Avstraliya. Qit’alar: Osiyo, Amerika, Afrika, Antarktida, Yevropa, Avstraliya. Yer yuzasining eng baland nuqtasi Jomolungma tog‘i hisoblanadi (8848m). Dunyo okeanining eng past nuqtasi Tinch okeanidagi Mariana cho‘kmasi bo‘lib, uning chuqurligi 11022m. Quruqlikdagi eng past nuqta O‘lik dengizi sathi hisoblanadi, u okean sathidan 405 m. pastda joylashgan. Quruqlikning o‘rtacha balandligi 875 m., dunyo okeanining o‘rtacha chuqurligi esa 3790m.

Quruqlikning katta qismi shimoliy yarim sharda joylashgan. Dunyo okeanining katta qismi janubiy yarim sharda joylashgan. Hamma qit’alar Antarktidadan tashqari juft-juft bo‘lib joylashgan. Shimoliy va janubiy Amerika, Yevropa-Afrika, Osiyo-Avstraliya. Hamma materiklar (Antarktidadan tashqari) janub tomon torayib boradi va uchburchak shakliga ega. Yer yuzasi qarama-qarshi (antipodal) tuzilishga ega. Janubiy qutbdagi quruqlikka shimoliy qutbdagi suvlik to‘g‘ri keladi, Janubiy yarim shardagi suvlikka shimoliy yarim shardagi quruqlik to‘g‘ri keladi. Sharqiy yarim sharning katta qismi quruqlikdan, g‘arbiy yarim sharning katta qismi esa suvlikdan iborat.

Yerning shakli qanday degan muammo qadimdan olimlarni qiziqtirib kelgan. Yerning shaklini yassi, yapaloq, tekis, qabariq,

doirasimon, sharsimon degan fikrlar asta – sekin ma’lumotlar yig‘ilishi bilan vujudga kelgan. Yerning shakli sharsimon ekanligini miloddan avval IV asrda Aristotel tomonidan isbotlangan. Mazkur g‘oya XVII asrgacha fanda hukm surib keldi. Qadimgi olimlar yerning sharsimon ekanligini quyidagi dalillar bilan isbotlashgan[3]:

- qirg‘oqqa yaqinlashayotgan kemaning avval tepa qismi (machtasi) so‘ng o‘rta qismi oxiri pastki qismining ko‘rinishi. Yer yassi, tekis bo‘lganda kemaning hamma tomoni birdan ko‘rinar edi;

– qirg‘oqdan uzoqlashayotgan kemani dastlab pastki qismini so‘ngra o‘rta va yuqori qismini ko‘zdan g‘oyib bo‘lishi;

-tog‘larga yaqinlashib kelganda dastlab tog‘ tepalari, so‘ngra tog‘ etaklari ko‘rinadi;

- Oy tutilganda yerning unga tushadigan soyasi har doim to‘g‘ri doiraning bir qismi shaklida bo‘lishi;

– Quyosh chiqayotganda dastlab tog‘larning tepasini yoritishi. Quyosh botgandan keyin ham ma’lum vaqt davomida tog‘ cho‘qqilarini yoritilib turishi, yer yuzasi yassi bo‘lsa, tog‘lar etagidan tepasigacha barobar yoritilgan bo‘lar edi;

– meridian bo‘ylab shimoldan janubga yoki janubdan shimolga qarab yurilganda yulduzlar o‘rnining o‘zgarishi. Shimoliy yarim sharda biz Katta ayiq yulduzlar turkumini va Qutb yulduzini ko‘ramiz. Janubga borgan sari bu yulduzlar pasayib boradi. Osmonning janub tomonida boshqa yulduzlar ko‘rinadi. Ekvatorga borganda Qutb yulduzi ko‘rinmay qoladi, Janubiy But yulduzi paydo bo‘ladi;

-balandga ko‘tarilgan sari ufqning kengayib borishi;

-dunyo aylana sayohatlarda bir tomonga qarab ketib ikkinchi tomondan kelinishi;

-tongning sharqdan boshlanib kelishi. Agar yer yassi, tekis bo‘lganda hamma joyda tong barobar otar edi;

-ochiq joyda masalan, ko‘lning qarama-qarshi tomonida joylashgan ko‘p qavatli uylarning yer yuzasi qabariq bo‘lganligi

[3] Vahobov X. va boshqalar. Umumiy yer bilimi. Darslik. “Universitet” Toshkent 2004-yil, 37-b.

tufayli uning poydevoridan boshlab emas, balki ma’lum baland qismidan yuqorisi ko‘rinadi.

XVII asrga qadar olimlar yerni shar shaklida deb tasavvur qilishgan. Ammo keyinchalik yerning qutblari siqilgan va ekvator atrofida qavariq ya’ni shar emas, balki yerning ekvator tekisligidagi radiusi yer o‘qining yarmidan uzunroq bo‘lgan ellipsoid yoki sferoid degan fikrlar paydo bo‘ldi. Yerning Ellipsoid ekanligini isbot etuvchi asosiy dalillar quyidagilardan iboratdir.

O‘rtacha kengliklarda to‘g‘rilangan mayatnikli soat ekvatorga yoki qutb o‘lkalariga keltirilsa, ekvatorda orqada qoladi, qutblarda oldin ketadi. Mayatnikning bir tebranish davri og‘irlik kuchining tezlanishiga bog‘liq bo‘lganidan, mayatnik tebranishining sekinlashishi og‘irlik kuchining kamayganini, mayatnik tebranishining tezlashishi esa og‘irlik kuchining ortganini ko‘rsatadi. Qutbdan ekvatorga borgan sari markazdan qochish kuchi orta borishini hisobga olganda, mayatniklarning tebranishida kuzatilgan o‘zgarishlarga sabab, ekvatorda yer yuzasining har qanday nuqtasi, qutbdagiga nisbatan yer markazidan uzoqroqda turadi (yani tortish markazidan):

Hozirgi paytda yerning shaklini bir necha variantlari bor. Chunki yerni shakli bu qandaydir ma’noda umumlashgan tushunchadir. Shuning uchun yerni shaklini bir necha taxminlari bor: sfera, ellipsoid, uch o‘qli ellipsoid, geoid.

Sferoid – yerning shaklini umumiy va yirik ko‘rinishi. Bunda yer bitta aylanish o‘qiga va ekvatorial simmetrik tekislikka ega. Sferoid aniq ifodalangan simmetriya o‘qiga ega emas, uning hamma o‘qlari bir xildir. Shuning uchun yer shaklini sferoid ko‘rinishi yerning haqiqiy shakliga o‘xshamaydi. Bu nomuvofiqlik geografik qobiqning yuzamala tuzilishini o‘rganganda mintaqalarning aniq ifodalanishida aks etadi.

Ellipsoid – asosiy o‘q aniq ifodalangan, ekvatorial simmetriya tekisligi mavjud, meridional tekisliklar ham aniq ifodalangan. Yerning bu ko‘rinishi oliy geodeziyada koordinatalarni hisoblashda, kartografik

andozalarni tuzishda ishlatiladi. Ellipsoidning yarim o‘qlari orasidagi farq 21 km. Katta yarim o‘q – 6378,16 km., kichik yarim o‘q – 6356,77 km., ekssentrisitet – 1/298,25.

Uch o‘qli ellipsoid – yerning ekvatorial kesimi ham ellips shakliga ega ekanligi aniqlangan. Bunda yarim o‘qlar farqi bor yo‘g‘i 200 m. atrofida. Ekssentrisitet esa 1/30000. Yerning bu ko‘rinishi geografik tadqiqodlarda umuman foydalanilmaydi. Geoid – yersimon shakl degan ma’noni bildiradi.

Geoid – Dunyo okeanining o‘rtacha sathiga mos keladigan yuza sathi bo‘lib, bu yuzada og‘irlik kuchi bir xil qiymatga ega. Bu yuzada jismlarning o‘z-o‘zidan gorizontal siljishi mumkin emas, ya’ni mazkur yuza gorizontal holatdadir. Yerning shakli va kattaligi muhim geografik ahamiyatga ega. U quyidagi holatlarda namoyon bo‘ladi:

– quyosh nurlari yerning sharsimon yuzasiga turli joylarda turlicha burchak bilan tushadi, mazkur tushish burchaklari qutblarga tomon kamayib boradi;

- yer yuzasining isitilish sur’ati ekvatordan qutblar tomon kamayib boradi. Bu esa issiqlik taqsimotida va iqlimlarda aks etadi. Yunonlar qadimda yuqori va quyi geografik kengliklarning sharoitini bilmasdanoq faqatgina sharning yoritilish sharoitini asos qilib yerni iqlimlarga ajratishgan;

- yerning sharsimonligi uning aylanishi bilan birgalikda quyosh nurlari tushadigan joylarda zonallikni shaklanishiga sabab bo‘ladi;

- yerning shar shaklida ekanligi uning quyosh nuri bilan yoritilgan va yoritilmagan qismlarga bo‘linishiga sabab bo‘ladi (kecha va kunduz).

Bu esa yerning issiqlik me’yoriga ta’sir ko‘rsatadi;

- geodezik, kartografik va gravimetrik ishlar uchun ellipsoidning aniq o‘lchamlarini bilish zarur;

- yerning kattaligini asosiy geografik ahamiyati shundaki, yer tortish kuchi tufayli o‘z atrofida atmosferani ushlab turadi.

Yer sayyora sifatida bir vaqtning o‘zida bir necha harakatlarni amalga oshiradi. Ulardan eng muhimlari quyidagilardir:

-yerning quyosh atrofida aylanishi;

-yerning o‘z o‘qi atrofida aylanishi;

-yer-oy umumiy og‘irlik markazi atrofida aylanishidir.

3.2. Litosfera, atmosfera, gidrosfera, biosfera haqida umumiy ma’lumotlar va ularda ro‘y beradigan hodisalar va ularning xususiyatlari

Georafik qobiqda moddalar og‘irligiga qarab qatlam-qatlam bo‘lib joylashgan. Og‘irroq moddalar quyi qatlamni, o‘rtacha og‘irlikdagi moddalar o‘rta qatlamni va yengil moddalr yuqori qatlamni tashkil qilgan. Har bir qatlam yoki qobiq nisbatan bir xil moddalardan tuzilgan. Litosfera qattiq moddalardan, atmofera gazsimon moddalardan, gidrosfera suyuq moddalardan, biosfera esa tirik moddalardan iborat. Qattiq moddalardan, ya’ni tog‘ jinslaridan tuzilgan litosfera quyida, o‘rtacha zichlikka ega bo‘lgan gidrosfera o‘rtada, gazlardan iborat atmosfera yuqorida, tirik organizimlardan iborat biosfera esa ularning ichida joylashgan. Demak, yerning ichki qobiqlari yadro, mantiya, tashqi qobiqlariga esa yer po‘sti, gidrosfera, atmosfera va biosferadan iborat.

Litosfera (grekcha litos-tosh, sfera-qobiq) yerning qattiq tosh qobig‘idir. Mantiyani ustida joylashgan va uni yopinchiq sifatida har tomondan o‘rab olgan. Uning qalinligi 50-200 km. litosfera mantiyaning yuqori qismini va yer po‘stini o‘z ichiga oladi. Litosfera yuqori mantiyadagi yumshoq, yopishqoq xamirga o‘xshagan astenosfera qatlami ustida joylangan. Litosfera astenosfera qatlami ustida izostatik ravishda muvozanatlashgan, ya’ni litosfera bo‘laklari og‘irligi va zichligiga qarab Arximed qonuniga binoan joylashadi. Litosferaning quyi qismiga yuqori mantiya qatlamining bir qismi ham kiradi. Mazkur qatlam yer po‘stidan Moxo chegarasi bilan bo‘lingan.

Mazkur chegarada yuqorida aytilganidek moddalarning zichligi keskin o‘zgaradi. Ular astenosferaga bir xil bosimda ta’sir etadi. Litosferaning yuqori qismini yer po‘sti tashkil qiladi.

Atmosfera (grekcha atmos – bug‘, sphoira – shar) sayyoramizning havo qobig‘idir. Atmosferaning koinot bilan chegaradosh yuqori qismi ekzosfera yoki tashqi atmosfera deb ataladi va 2-3 ming km. balandlikkacha davom etadi. Yuqori atmosferada shu qatlamlardan tarqalgan yengil elementlar – vodorod va geliy atomlarining koinotga tarqalib ketishi sodir bo‘ladi. Yer yuzasida havo og‘irlik kuchi ta’sirida ushlab turiladi. Yer yuzasida havoning zichligi 1,275 kg/m^3. Balandlikka ko‘tarilgan sari havoning zichligii kamayib boradi: 5 km. balandlikda havoning zichligi 0,735 kg/m^3, 10 km.da 0,411 kg/m^3, 20 kmda 0,087 kg/m^3, 300 km. balandlikda esa zichlik yer yuzasidagi zichlikdan 100 mlrd. marta kam, 2-3 ming km. balandlikda esa havoning zichligi fazoning zichligiga tenglashib qoladi. Atmosferaning yerdagi hayot uchun ahamiyati juda katta. U yerni qattiq isib va sovib ketishidan, metioritlardan va Quyoshdan keladigan zararli nurlardan saqlaydi.

Gidrosfera yer po‘sti va atmosferaning o‘rtasida joylashgan. Gidrosfera okean va quruqlik suvlaridan iborat. Gidrosfera suvlarining asosiy qismi okeanlar suviga to‘g‘ri keladi. Boshqa suv obyektlaridan yer osti suvlari va muzliklar ajralib turadi. Ular chuchuk suvlarning asosiy manbaidir. Yer po‘stining g‘ovaklarida va muzliklarda suv resurslarining eng muhim qismi bo‘lgan chuchuk suvlarning asosiy qismi joylashgan. Demak, gidrosfera okean va quruqlik suvlaridan iborat ekan. Okean suvlari Tinch, Atlantika, Hind va Shimoliy Muz okeani suvlaridan iborat. Quruqlik suvlari o‘z navbatida yer usti va yer osti suvlariga bo‘linadi. Yer usti suvlari daryo, ko‘l, botqoq va muzlik suvlaridan, yer osti suvlari esa suyuq va muzloq suvlardan tashkil topgan. Ko‘p yillik muzloq yerlar asosan Yevrosiyo va Shimoliy Amerikaning Shimoliy qismlarida tarqalgan. Muzlar esa Antarktida va Grenlandiyada hamda baland tog‘larda tarqalgan. Gidrosfera yer

yuzasini yoppasiga to‘xtovsiz qoplamasa ham, uning 70,8%ni tashkil qiladi (510,1 mln. km^2 dan 361 mln. km^2). Suv qanday bo‘lishidan qat’iy nazar asosiy landshaft hosil qiluvchi omildir. Suv geografik qobiqdagi hamma jismlar tarkibida u yoki bu darajada mavjud.

“Biosfera” atamasi birinchi bor 1875-yil nemis geologi Eduard Zyuss tomonidan fanga kiritilgan. Biosfera deganda yerning hayot qobig‘i – tirik organizmlar mavjud muhit tushuniladi. U atmosferaning quyi qismi, gidrosferaning va litosferaning yuqori qismini o‘z ichiga olib, yerning boshqa qobiqlaridan o‘zining bir qator xususiyatlari bilan ajralib turadi. Eng asosiy farqi – bu muhitda tirik organizmlarning (o‘simliklar, mikroorganizmlar, hayvonot dunyosi) mavjudligi hisoblanadi. Ammo biosfera yaxlit qobiqni hosil qilmaydi. Biosferaning yuqori chegarasi atmosferaning 25-30 km. balandlikda joylashgan ozon qatlami, quyi chagarasi quruqlikda 10-12 km. chuqurlikdan o‘tkaziladi. Gidrosfera esa butunlay biosfera tarkibiga kiritiladi. Organizmlarning asosiy qismi qalinligi bir necha o‘nlab metrni tashkil etuvchi atmosfera, litosfera va gidrosfera chegara zonasida joylashgan.

Biosferadagi hayotni vujudga kelishi hali o‘z yechimini oxirigacha topmagan tabiatshunoslikning yirik muammolaridan biri hisoblanadi. Ko‘pchilikning fikricha, hayot moddaning kimyoviy evolyutsiyasini biologik evolyutsiyaga o‘tishi natijasida vujudga kelgan deb hisoblanadi. Bunday o‘tish davri qachon va qayerda bo‘lganligi haqida hanuzgacha aniq ma’lumotlar olingani yo‘q. Yaqin yillargacha yerning o‘zini mutlaq yoshi haqida ham har xil fikrlar mavjud edi, eng yangi usullar yordamida olingan ma’lumotlarga qaraganda yerninng mutlaq yoshi 4,5 mlrd. yil atrofida ekanligi aniqlandi. Yerdagi eng qadimgi cho‘kindi tog‘ jinslarning mutlaq yoshi esa 4 mlrd. yil atrofida ekanligi aniqlangan.

Ko‘pgina olimlarning fikricha yerda hayot vujudga kelishidan oldin qariyb 1 mlrd. yil davomida organik birikmalarning abiogen

sintezi amalga oshgan va shundan keyin birlamchi sodda organizmlar shakllangan deb hisoblanadi.

Biosferadagi tirik organizmlarning umumiy massasi yerning boshqa qobiqlarining massasiga nisbatan juda kichik bo‘lib, gidrosferaning massasiga nasbatan taxminan 600 ming barobar, litosferaning massasiga nisbatan 1,5 mln barobar kam. Lekin shunga qaramay tirik organizmlarning geografik qobiqqa ko‘rsatayotgan ta’siri benihoya katta. Birinchi navbatda bu ta’sir geografik qobiqning biz ko‘rsatayotgan bir qator xususiyatlarni shakllanishida o‘z aksini topgan. Ayniqsa yashil o‘simliklarninng fotosintez jarayonida atmosferadagi karbonat angidrid, suv va tuproqdagi eritmalar hisobiga organik birikmalarni vujudga keltirishi muhim ahamiyatga ega. Bu jarayon katta miqdordagi Quyosh energiyasini geografik qobiqda to‘planishi bilan bog‘liq. Keyinchalik bu energiya yonish, chirish jarayonida arof – muhitga chiqadi yoki boshqa organizmlarga ozuqa zanjiri orqali uzatiladi. Biosferada energiya manbai sifatida har xil kimyoviy reaksiyalar ham xizmat qilishi mumkin, shuni hisobiga bakteriyalar organik mahsulotni vujudga keltiradi.

Atrof – muhitning sharoitiga moslashishi, organizmlarni tabiiy raqobat natijasida tanlanishi tirik organizmlarning evolyutsiyasini ta’minladi. Birlamchi tirik organizmlarni vujudga kelishi atmosfera, litosfera va gidrosferadagi moddani biologik o‘rin almashishiga jalb etish bilan birga uni energiya manbalaridan foydalanish imkonini yaratdi. Organizmlarning ichki energiya manbai, agar u uni tashqi muhitdan nur, issiqlik sifatida olmasa, moddani oksidlanish jarayonida ajratgan energiyasidan iborat. Ma’lum muhitda vujudga kelgan organizmlar bu muhitni u yoki bu darajada o‘zgartirdilar, o‘zlari ham o‘zgarib boradilar. Shunday qilib, biosfera deganda tirik organizmlar mavjud muhit tushuniladi.

Biosferada moddaning ikkita asosiy toifasi mavjud: ular tirik organizmlar va jonsiz modda. Tirik organizmlar o‘z faoliyati natijasida quyosh energiyasi hisobiga kimyoviy birikmalarni vujudga keltiradi,

bu birikmalar parchalanganda kimyoviy ish bajarishga qodir energiya ajralib chiqadi. Kimyoviy nuqtai nazardan tirik organizmlar materiyaning faol shakllaridan biri bo‘lib, uninig kimyoviy energiyasi energiyani boshqa masalan, mexanik, issiqlik va h.k. shakllariga aylanishi mumkin. Jonsiz modda – tirik organizmlar tarkibiga kirmagan minerallardan yoki kimyoviy elementlardan iborat bo‘lib, uning tarixiy davr mobaynida ajratgan energiyasi (radiaktivli, kimyovmiy) unchalik ko‘p emas. Biosferadagi tirik va jonsiz organizmlar hayotiy jarayonlar ta’sirida bir-biri bilan chambarchas bog‘langan.

Yerda hayotni keng tarqalishida tirik organizmlarni har xil sharoitga moslashish qobiliyati muhim ahamiyatga ega. Misol tariqasida ba’zi bir mikroorganizmlar harorati +1800dan -2530ga bo‘lgan muhitda yashashi mumkinligini ko‘rsatishimiz mumkin. Ulardan ba’zi birlari 3000-8000 atmosfera bosimiga chidashi mumkin. Hayot shakllari ham xilma – xildir. Yer yuzida 500 mingga yaqin o‘simlik va 1,5 mln.ga yaqin hayvonot turlarni uchratishimiz mumkin, dunyodagi hamma minerallarning soni esa 4 mingdan biroz ko‘proqdir.

3.3. Yer sharining quyosh atrofida aylanishi, quyosh radiatsiyasi, gravitatsiya va yerning magnit maydoni

Yer Quyosh atrofida aylanasimon orbita bo‘ylab harakat qiladi. Yer Quyosh atrofini 365 kun, 6 soat, 9 minut, 9 sekuntda to‘la bir marta aylanib chiqadi. Yerning yillik aylanma harakati (orbitasi) Ellips shaklga ega, ellipsning bitta fokusida quyosh turadi. Shuning uchun quyosh bilan yer o‘rtasidagi masofa doimo o‘zgarib turadi. Ular o‘rtasidagi eng qisqa masofa (perigeliy) 3-yanvarda 147 mln. km. bo‘ladi. Ular o‘rtasidagi eng uzun masofa esa (afeliy) 5- iyunda 152 mln.km. bo‘ladi. Yer orbitasining uzunligi 940 mln.km. Bu masofani yer soatiga 107 ming km. yoki sekundiga 29,8 km. tezlikda bosib o‘tadi. Afeliyda ya’ni yer quyoshdan uzoqlashganda uning tezligi

kamayadi va sekundiga 29,3 km.ni tashkil qiladi. Perigeliyda, ya’ni yer quyoshga yaqinlashganda uning tezligi ortadi va sekundiga 30,3 km. ni tashkil qiladi. Shuning uchun shimoliy yarim sharda qish qisqaroq yoz esa uzunroq.

Yer o‘qi orbita tekisligiga og‘gan. Yer o‘qi orbita tekisligi bilan $66^0 33^1$ burchak hosil qiladi, ya’ni yer o‘qining og‘ish burchagi $66^0 33^1$. Harakt davomida yer o‘qi ilgarilama shaklda siljiydi va orbitada 4ta o‘ziga xos nuqta hosil bo‘ladi:

- 21 mart va 23 sentyabrda yer o‘qining qiyaligi quyoshga nisbatan neytral bo‘ladi. Quyosh nurlari ekvatorga tik tushadi va ikkala yarim Sharni teng yoritadi. Kun va tun uzunligi baravar bo‘ladi. Qutblarda esa kun va tunni almashinishi ro‘y beradi. Shuning uchun mazkur kunlar bahorgi va kuzgi tengkunlik kunlari deyiladi;

-21 iyunda yer o‘qining shimoliy qismi quyoshga enkaygan bo‘ladi. shuning uchun quyosh nurlari ekvatorga emas, balki undan shimolroqqa tik tushadi. Bu masofa ekvator tekisligining orbita tekisligiga qiyaligiga teng. Ya’ni $90\text{-}66^0\ 33^1 = 23^0\ 27^1$. Quyoshni tropiklarda turadigan kuni yozgi quyosh turishi deb ataladi.

Yozgi quyosh turishida shimoliy yarim sharning yuqori kengliklarida sutka davomida faqat qutbgina va qutb atrofi emas, balki shimoliy qutb chizig‘igacha bo‘lgan joylar yoritiladi. Ammo janubiy yarim sharda janubiy qutb chizig‘ining ichidagi hududlar quyosh tomonidan yoritilmaydi;

- 22 dekabrda quyosh nurlari janubiy tropikka tik tushadi. Shuning uchun shimoliy qutb doirasi ichidagi hududlar yoritilmaydi. Janubiy qutb doirasi esa sutka davomida yoritiladi. Bu holat bahorgi teng kunlikkacha davom etadi.

Demak, yer o‘qining qiyaligi ekvatordan tashqari hamma joyda kun va tunni turlicha uzunligini keltirib chiqaradi. Bahorgi va kuzgi tengkunliklar davrida quyoshning ufqdan balandligi quyidagicha aniqlanadi. $h=90^0 - \varphi$.φ – geografik kenglik. Masalan, Toshkentda 21 mart va 23 sentyabrda tush paytida quyoshning balandligi 90^0 –

$42^0=48^{0.}$ Har bir yarim sharning yozida quyosh zenitda bo‘lgan davrida uning balandligi 230 271 ta ortadi. $h=90^0 – \varphi+23^0271$ qishda esa kamayadi $h=90^0 – \varphi – 23^027^{1.}$ Toshkentda 22 – iyunda ufqdan balandligi $h=90^0 – 42^0+23^027^1=71^027^{1.}$ Qishda esa $h=90^0 – 42^0 – 23^027^1=24^033^{1.}$

Yerning quyosh atrofida aylanishi natijasida yil fasllari hosil bo‘ladi. Yer o‘qining qiyaligi bilan tropiklar, qutb doiralari, ekvator kabi tushunchalar bog‘langan. Ekvator qutblardan teng masofada yer yuzasidan o‘tkazilgan shartli chiziq. Tropiklar quyosh nurlari yozgi quyosh turish davrida tik tushadigan parallellar, ya’ni 23^027^1sh.k., 23^027^1j.k. Qutb doirasi chizig‘i – kengligi yer o‘qining qiyaligiga teng bo‘lgan parallel, qutb doirasi chiziqlari qutbiy tun va kunning tarqalish chegaralari hisoblanadi. Yer o‘qining qiyaligi yoritish mintaqalarini kelib cheqishiga sabab bo‘ladi.

Quyosh radiatsiyasi – quyoshning elektromagnit va korpuskulyar (zarra) nurlanishi. Quyosh radiatsiyasi yerdagi deyarli barcha jarayonlarning energiya manbai hisoblanadi. Korpuskulyar Quyosh radiatsiyasi asosan protonlardan iborat bo‘lib, yer yaqinidagi tezligi 300-1500 km/sek, o‘rtacha konsentratsiyasi 5-80 ion/sm^2. Quyosh faolligi maksimum, bo‘lganda va katta chaqnashlardan keyin yer yaqinidagi protonlar konsentratsiyasi 103 ion/sm^2 gacha yetadi. Quyosh chaqnashlari paytida katta energiyali (7-103 eV) zarrachalar (asosan, protonlar) paydo bo‘ladi. Yerga tushayotgan umumiy kosmik nurlar chaqnashini quyosh radiatsiyasi ko‘rinishida ifodalaydi. Quyosh elektromagnit nurlanishining asosiy qismi spektrning ko‘zga ko‘rinadigan nurlari qismiga to‘g‘ri keladi. Quyosh to‘la nur energiyasining yer atmosferasidan tashqarida (quyoshdan 1 astronomik birlik uzoqlikda)gi quyosh nurlariga tik bo‘lgan 1 sm^2 yuzada 1 min.da tushadigan miqdoriga quyosh doimiysi deyiladi. Quyosh doimiysi quyoshning umumiy energiyasini hisoblash, tadqiq etish, uning yerga ta’sirini o‘rganish maqsadida maxsus aktinometrik styalarda o‘lchab boriladi. Quyosh doimiysining hozirgi paytdagi qiymati 1,95 kal/

(sm^2min) yoki 136-106 erg/(sm^2sek.). Quyosh faolligi maksimumga yetganda quyosh nurlanishi bir oz ortadi, lekin bu miqdor umumiy nurlanishning 1% dan ortmaydi. Quyoshning radionurlanishlari yer atmosferasidan to‘liq o‘tmaydi, chunki atmosfera radiodiapazonning bir necha mm dan bir necha m gacha qismi uchungina shaffofdir. Radionurlanishlar quyoshning faolligi bilan bog‘liq. Quyosh radionurlanishlari juda ham kuchsiz bo‘lib, F=10~22 Vt/(m^2 sekTs) birlikda o‘lchanadi. Quyoshning qisqa to‘lqinli nurlanishlari yer atmosferasida to‘la yutilib qoladi. Bu nurlanishlarga oid ma’lumotlar asosan, geofizik raketalar, yer sun’iy yo‘ldoshlari va kosmik zondlar yordamida olinadi. Quyoshning rentgen nurlanishlari (to‘lqin uz. \A dan 100 A gacha) tutash va ayrim chiziqlarning nurlanishidir. Bu nurlanishlarning intensivligi quyosh faolligiga mos ravishda kuchli o‘zgaradi (yer orbitasida 0,13—1erg/sm^2-sek) va faollik maksimumga yetganda rentgen nurlanishlari spektrning qisqa to‘lqinlarida kuchayadi. Quyoshning rentgen va ultrabi-nafsha nurlari juda oz (15 erg/sm^2sek) energiya olib kelsa-da, bu nurlanishlar yer atmosferasining yuqori qatlamlariga kuchli ta’sir qiladi. Quyoshda gamma nurlanishlari ham topilgan, lekin u yetarlicha o‘rganilmagan.

Gravitatsiya. G‘arb dunyosi gravitatsiya (tortishish kuchi) haqidagi tushuncha yoxud qonun ilk bora XVII asrda ingliz olimi Isaak Nyuton (1642-1727) tomonidan kashf etilgan deb biladi. Bu qonunni kashf etishga turtki bo‘lgan voqea sifatida esa bog‘da olma daraxti ostida do‘sti bilan suhbatlashib o‘tirganda ustiga olma tushib ketganligi haqidagi o‘sha mashhur hikoya esga olinadi.

Lekin, “aslida ham shunday bo‘lganmi? Nyutondan avval tortishish kuchi yoki og‘irlik kuchi haqidagi fizik hodisalarga hech kim e’tibor bermaganmidi?!”, kabi savollar paydo bo‘lishi tabiiy. Negaki, dunyoviy ilm bu sekin-astalik bilan yig‘ilib, zamonlar o‘tishi natijasida birin-ketin keluvchi o‘nlab va yuzlab olimlar tomonidan oz-ozdan hissa qo‘shilishi natijasida sayqallanib, shakllanadigan tabiatga ega bo‘lib, biror ilmiy haqiqat to‘laqonli tarzda vujudga kelib, mukammal

surat kasb etishi va aksiomaga aylanishi uchun ko‘plab olimlarning tafakkur va tajribalariga muhtoj bo‘ladi.

Shu ma’noda, Nyuton ilgari surgan dunyo gravitatsiya qonuni ham o‘z-o‘zidan bitta olmaning tushishi orqali kashf qilingan bo‘lishi mumkin emas edi. Balki, u ham o‘zining bu kashfiyotida o‘zidan avvalgilarning ilmiy qarashlari va tajribalaridan foydalangan va ularga tayangan. Zero, bunday buyuk fizik qonuniyatni Nyutondan avval hech kim payqamasligi, mulohaza qilmasligi aqlga sig‘maydi.

Agar shunday deb o‘ylasak, Nyutondan ilgari yashagan hamma olimlarni qandaydir e’tiborsiz, tafakkursiz, mulohazasiz insonlarga chiqarib qo‘ygan bo‘lamiz yoki bu hodisa ya’ni tortishish kuchi va gravitatsiya hodisasi go‘yoki benihoya sirli, anglab bo‘lmaydigan, faqatgina qandaydir g‘ayri tabiiy ilhom orqaligina bilinadigan g‘aybiy narsaga aylantirib qo‘ygan bo‘lamiz. G‘arb olimlari ichidan faqat Nyutongagina ochilgan degan fikrni bilmagan holda ilgari surgan bo‘lamiz.

Boz ustiga, g‘arb olimlarining o‘zlari ham gravitatsion ta’sir masalasiga ilk bora Aristotel to‘xtalganligini ko‘p bora tilga oladilar. Uning fizika va mexanikaga oid so‘zlarida “jismning qulash tezligi uning vazniga mutanosibdir” degan fikri tilga olinadi. Ya’ni, Aristotelga ko‘ra jism qanchalik og‘ir bo‘lsa, uning qulash tezligi ham shunchalik kuchli bo‘ladi. Garchi, keyinchalik italyan olimi Galiley (1564-1642) jismlarning erkin qulashdagi tezligi ularning og‘irligiga bog‘liq emasligini isbotlagan bo‘lsada ammo, barcha fiziklar ittifoq qiladigan narsa shuki, jism qanchalik ulkan va og‘ir bo‘lsa, uning gravitatsion ta’siri va maydoni ham shunchalik katta bo‘ladi. Ehtimol, Aristotelning yuqoridagi so‘zlaridan maqsadi ham jismlarning o‘zaro tortishish kuchiga e’tiborni qaratishdan iborat bo‘lgan bo‘lishi mumkin.

Dunyoviy bilimlar rivojiga o‘zining ulkan hissasini qo‘shgan, ilm-fan sohasida inqilobiy o‘zgarishlar yasagan musulmon olimlari ham tabiiyki, bu mavzudan chetda qolmaganlar. Jumladan, Abu

Muhammad Hamadoniy, Hibatulloh ibn Malko al-Bag‘dodiy, Abu Rayhon Beruniy, Ibn Sino, Xoziniy, Idrisiy va boshqalar kabi bir vaqtda ham faylasuf, ham fizik, ham kimyogar, ham astronom, riyoziyotchi, ham shoir, ham psixolog, geograf va tibbiyotda mohir bo‘lgan qomusiy olimlarimiz Galiley, Nyutondan ancha oldinroq o‘z asar va yozilmalarida gravitatsiya masalasiga ulardan ancha oldinroq to‘xtalib o‘tgan edi. Darvoqe, yuqorida Galiley jismlarning erkin qulashdagi tezligiga ularning og‘irliklari ta’sir qilmasligini o‘rganib, Aristotelning bu boradagi mashhur nazariyasining noto‘g‘riligi isbot qilganligini aytib o‘tgandik. Vaholanki, Aristotel tushib qolgan o‘sha xatoni Hibatulloh Ibn Malko (1080-1165) Galileydan qariyb besh yuz yil oldin o‘zining “Al-mu’tabar fil hikma” nomli asarida quyidagicha to‘g‘rilagan edi: “shuningdek, jismlar bo‘shliqda pastga qarab, harakatlanadigan bo‘lsa, ularning ichida og‘ir bo‘lganining ham, yengil bo‘lganining ham, jismi kattasining ham, kichigining ham, o‘tkir bosh tarafi bilan qulaydigan konussimon shakldagisining ham shuningdek, keng tarafi bilan qulaydigan konus shaklidagi jismning ham harakat tezligi bir xil bo‘ladi”.

Abu Muhammad Hamadoniy (893-945m/280-336h) ham “Al-Javharatayn Al-Atiyqatayn” nomli asarida gravitatsiya va narsalarning o‘zaro tortishish masalasiga to‘xtalgan: “Kim yerning ostki tarafida (ya’ni narigi yarim sharida) bo‘lsa, o‘z qomatida sobit tura olishida xuddi ustki tarafidagi kabidir. Uning narigi tarafdagi sathiga o‘rnashishi va qadamining sobitligi bamisoli yerning bu tarafidagi sathiga o‘rnashishi va qadam qo‘yishi kabi sobitdir. Zero, yer xuddi o‘ziga har tarafdan temirni tortib turadigan magnit toshi kabidir”. Hamadoniy o‘zining mazkur so‘zlari bilan gravitatsiya va jismlarning o‘zaro tortishishi shuningdek, potensial energiya, elektrostatik potensial kabi masalalarga go‘yoki tamal toshini qo‘ygan edi garchi, bunday atamalar uning fikrida ochiq bayon

qilinmagan bo‘lsa ham ayni chog‘da Hamadoniyning so‘zlari uning yerni doirasimon shaklda deb bilganligiga ham dalolat qiladi.

Ibn Sino (980-1037m/370-427h) o‘zining “Al-ishorot va-t-tanbiyhot” asarida shunday yozadi: “Deylikki, katta jismdagi quvvat kichik jismdagi quvvatga o‘xshash bo‘lsa va katta jismdagi quvvatdan kichik jismdagi quvvat miqdoricha olib tashlangan taqdirda ham ularning quvvati teng bo‘lib qoladi. Zero, katta jismdagi quvvat kattaroq va ko‘proqdir”.

Buyuk vatandoshimiz Ibn Sino bu so‘zi bilan jism qanchalik katta bo‘lsa, uning gravitatsiya kuchi va maydoni shunchalik katta bo‘lishiga ishora qilgan. Balki, Ibn Sino o‘zining mazkur asarida Nyutonning harakat haqidagi birinchi qonuni (mexanikaning birinchi qonuni)da so‘z yuritgan masalaga ham to‘xtalgan. Keling, avval bu haqdagi Nyutonning ta’birini esga olamiz. “Agar tashqi tarafdan biror kuch bilan ta’sir etilmasa, jism o‘zining tinch holatida yoxud to‘g‘ri chiziqdagi tizimli harakatida davom etadi”. Ibn Sino esa xuddi shu masalani quyidagicha anglatadi: “Agar jism o‘z holi va tabiatiga tashlab qo‘yilsa va u tashqaridan keluvchi begona ta’sirga uchramasa, u albatta, o‘zining muayyan o‘rni va shaklida qoladi. Bu esa uning mohiyatidagi o‘z holida qolish ma’nosi tufaylidir”.

Yana bir mashhur va buyuk vatandoshimiz Abu Rayhon Beruniy (973-1048m/362-440h) o‘zining “Al-qonun al-mas’udiy” nomli asarida Hamadoniy kabi yerning tortishish kuchiga to‘xtalib, uni quyidagicha ifoda etadi: “Odamlar yer yuzida xuddi koptokning har tarafi bir xilda sobit va mustaqim bo‘lgani kabi qomatlari sobit va mustaqimdir. Jismlar va vazmin narsalar pastga qarab (ya’ni yer markaziga qarab) harakatlanadi”.

O‘rta Osiyolik to‘g‘rirog‘i hozirgi Turkmaniston hududiga kiruvchi Marv shahrilik yana bir fizik, mexanik, astronom, matematik va faylasuf vatandoshimiz Abdurahmon Xoziniy (1155 milodiy yilda vafot etgan) o‘zining “Mezonul hikma” nomli asarida

og‘irlik va tortishish kuchi haqida shunday yozadi: “Og‘ir narsa doimo o‘zidagi zotiy quvvat bilan olamning markaziga qarab harakatlanadi. Ya’ni, aytmoqchimanki, og‘irlikda markaz nuqtasiga qarab harakatlanish quvvati mavjuddir”.

Yana bir musulmon olimi, Idrisiy (1099-1160m) Sitsiliya qiroli Rojer II ning talabi bilan yozgan “Nuzhatul mushtoq fiy ixtiroqil ofoq” (yana bir nomi “Kitobu Ro‘jer”) nomli asarida yerning tortish kuchini magnitning tortish kuchiga mengzatib, shunday deydi: “Yer o‘z ustidagi og‘irliklarni bamisoli magnit toshi temirni tortgani kabi o‘ziga tortib turadi”.

Ko‘rib turganimizdek, musulmon olimlari ham o‘z tajriba va bilimlari, tafakkur va izlanishlari asosida o‘z vaqtida tortishish kuchi, og‘irlik kuchi, mexanika qonunlari va boshqa narsalarga e’tibor qaratganlar, ularni payqaganlar va o‘z asarlarida bu mavzularga ishoralar qilib ketganlar.

Ha, Nyuton o‘zining nisbiylik nazariyasida mazkur hodisani so‘nggi qolipda shakllantirgan deb aytish mumkin, ammo unga qadar bu narsadan butun dunyo g‘aflatda bo‘lgan deya ishonish bu biroz soddalik bo‘lardi.

Isaak Nyuton va boshqa barcha g‘arb olimlarining ilmiy izlanishlari, kashfiyotlari va sohadagi ulkan yutuq va muvaffa-qiyatlarini e’tirof etgan holda aytish joizki, ilm-fan sohasida dunyo erishgan ko‘plab yutuq va muvaffaqiyatlar zaminida Islomning oltin asrida yashab, ijod qilgan musulmon olimlarining ham o‘ziga xos mehnat va hissalari mavjuddir. Mazkur olimlarning eng ko‘zga ko‘ringan vakillari aynan bizning vatanimiz, bizning tuprog‘imizda tug‘ilgan insonlar ekanliklari ham kishida o‘zgacha faxru iftixor hissini uyg‘otadi.

Nazorat uchun savollar

1. Yer sayyorasi shakli, harakatlari, uning hajmi va ichki tuzilishini tushuntirib bering.

2. Litosfera, atmosfera, gidrosfera, biosfera haqida umumiy ma’lumotlarni bering.

3. Litosfera, atmosfera, gidrosfera, biosferada ro‘y beradigan hodisalar va ularning xususiyatlarini tushuntiring.

4. Yer sharining quyosh atrofida aylanishini tushuntirib bering.

5. Quyosh radiatsiyasi haqida tushuncha bering.

6. Gravitatsiya va yerning magnit maydoni haqida tushuncha bering.

4-BOB. DUNYO AHOLI GEOGRAFIYASI

4.1. Aholi soni, aholining qayta tiklanishi, demografiya va urbanizatsiya tushunchlarining mazmuni.

4.2. Materiklar va mamlakatlar bo‘yicha aholining joylashishi va zichligi.

4.3. Dunyo aholisining tabiiy o‘sishi. Tashqi va ichki migratsiya.

4.4. Aholining tarkibiy tuzilishi. Jinsiy, irqiy, milliy, diniy va yosh tarkibi.

4.1. Aholi soni, aholining qayta tiklanishi, demografiya va urbanizatsiya tushunchlarining mazmuni

XIX asrgacha dunyo aholisining soni ancha sekin o‘sib, 1820-yilga kelib 1 milliard kishiga yetdi. Bu jarayon aholining tabiiy o‘sishi pastligi bilan belgilangan edi, chunki o‘tgan tarixiy bosqichlarda ham tug‘ilish, ham o‘lim ko‘rsatkichlari yuqori bo‘lib, ular orasidagi farq juda kichik darajada edi. Lekin 1 milliarddan 2 milliardgacha ko‘payish uchun insoniyatga birmuncha kamroq vaqt, ya’ni 107 yil kerak bo‘ldi (1820–1927-yillar orasi). Keyingi yillarda dunyo aholisi soni yanada tezroq o‘sib bordi. 1960-yilga kelib dunyo aholisi 3 milliard kishiga yetdi. 1975-yilga kelib 4 milliard kishi, 1987-yilda 5 milliard kishi, 1999-yilda 6 milliard kishi, 2011-yilga kelib esa 7 milliard kishiga teng bo‘ldi. 2020-yil holatiga jahon aholisi soni 7,8 milliard kishidan oshdi. Demak, XIX asrning ikkinchi yarmiga kelib jahon aholi sonining ko‘payishi keskin tezlashdi. Bu jarayon fanda demografik portlash deb ataladi. Bu hodisaning sababi ijtimoiy-iqtisodiy va fan-texnika taraqqiyoti tufayli aholining turmush darajasi yuksalishi, yashash sharoiti yaxshilanishi va sog‘liqni saqlash tizimining rivojlanishi, odamlarning o‘rtacha umr davomiyligining o‘sishi, o‘lim darajasi esa pasayib ketganligidir. Dastlab demografik portlash XIX asrning boshi – XX asrning birinchi yarmida G‘arbiy Yevropa va Shimoliy Amerikada ro‘y bergan bo‘lsa, XX asrning

ikkinchi yarmida esa Osiyo, Afrika, Lotin Amerikasi va Okeaniyadagi rivojlanayotgan mamlakatlar aholi sonining yuqori sur’atlar bilan o‘sishida o‘z aksini topdi. Rivojlanayotgan mamlakatlar aholisi yuqori tezlik bilan o‘sib kelgan bir paytning o‘zida, Yevropa davlatlari va Yaponiyada aholining tabiiy ko‘payishi keskin sekinlashdi. Hattoki, ayrim hollarda tug‘ilish o‘limdan ham pastroq darajaga tushib ketib, aholining tabiiy kamayish (depopulyatsiya) jarayoni ham ro‘y berdi. Demografik portlashdan keyingi tug‘ilishning pasayib ketish jarayoni sabablarini demografik o‘tish nazariyasi yordamida izohlash mumkin. Bu nazariyaga ko‘ra, jamiyatda aholining takror barpo bo‘lishi 4 ta bosqichdan o‘tib o‘zgarib boradi. Dastlabki, 1-bosqichda tug‘ilish bilan o‘lim juda yuqori bo‘lib, orasidagi tafovut, ya’ni aholi tabiiy ko‘payishi minimal darajada saqlanadi. Bunday demografik vaziyat “an’anaviy turg‘unlik” deb ataladi. Keyingi, 2-bosqich davomida o‘lim darajasi keskin kamayib, yuqorida ta’riflangan demografik portlash hodisasi ro‘y beradi. Demografik o‘tishning 3-bosqichida o‘limning pasayish jarayoni o‘z poyoniga yetib, tug‘ilish darajasi kamayishni boshlaydi. Tug‘ilishning pasayib ketishi aholining yashash tarzi o‘zgarganligi (shaharlashuv, sanoatlashuv, mehnat unumdorligining yuksalishi, tibbiyotning rivojlanishi, ayollarning jamiyatdagi o‘rni o‘zgarishi va hokazo) natijasida yuzaga keladi. Yakuniy, 4-bosqichda esa tug‘ilish va o‘lim ko‘rsatkichlari ancha past bo‘lib, tabiiy ko‘payish minimal darajada kuzatiladi va “zamonaviy barqarorlik” kuzatiladi.

Ba’zida demografik o‘tish jarayoni bu holat bilan chegaralanib qolmasdan, depopulyatsiya bosqichiga ham o‘tib ketadi. Dunyoning turli mamlakatlari demografik o‘tishning har xil bosqichini boshdan kechirmoqda. G‘arbiy Yevropa mamlakatlari, Yaponiya, Kanada, Avstraliya, Yangi Zelandiya kabi rivojlangan mamlakatlar 4-bosqichda bo‘lib, tug‘ilish va aholi tabiiy ko‘payishining pastligi bilan ajralib turadi. Osiyoda Janubiy va Shimoliy Koreya, Singapur, Tailand va hattoki aholi soni jihatidan dunyoda yetakchilik qilayotgan Xitoy ham

demografik o‘tishning yakuniy bosqichiga kirdi. Lotin Amerikasi va Okeaniyaning ayrim rivojlanayotgan mamlakatlarida ham shunga o‘xshash demografik vaziyat kuzatilmoqda. Tug‘ilish va aholining tabiiy ko‘payishining eng past ko‘rsatkichlari esa Vengriya, Bolgariya, Serbiya, Ruminiya, Latviya, Litva, Ukraina kabi Yevropaning o‘tish iqtisodiyotidagi davlatlariga xosdir. Bu davlatlarda bir necha yildan buyon aholining tabiiy kamayishi sodir bo‘lmoqda. Rivojlanayotgan mamlakatlarning ko‘pchiligi demografik o‘tishning 3-bosqichini o‘z boshidan kechirmoqda, ularda tug‘ilish ko‘rsatkichlari asta-sekin pasayib bormoqda. Demografik o‘tish jarayonining eng past sur’atlari esa Afrika davlatlari uchun xos. Ayniqsa, G‘arbiy, Markaziy va Sharqiy Afrika mamlakatlarida tug‘ilish va aholi tabiiy ko‘payishining yuqori darajalari saqlanib qolmoqda. Jumladan, 2020-yil yakunlari bo‘yicha, jahonning aholi tabiiy ko‘payish sur’atlari bo‘yicha 10 ta yetakchi davlat ichida 9 tasi Afrika materigida joylashgan, birinchi beshlikdan esa faqat Afrika mamlakatlari (Malavi, Uganda, Burundi, Niger, Mali) joy olgan. Demak, dunyoning eng rivojlangan davlatlari hamda o‘tish iqtisodiyotidagi ko‘p davlatlar demografik o‘tishni yakunlab qo‘ygan bo‘lsalar, Afrikaning ijtimoiy-iqtisodiy jihatidan eng sust rivojlangan mamlakatlari 2-bosqichdan 3-bosqichga o‘tish arafasida turibdi. Shuning uchun hozirgi sharoitda dunyo aholisi, asosan, rivojlanayotgan mamlakatlar hisobiga ko‘payib bormoqda. Hozirgi davrda dunyo aholisi har yili o‘rtacha 80-85 mln. kishiga ko‘paysa, bu ko‘payishning 97% Afrika, Osiyo va Lotin Amerikasining rivojlanayotgan davlatlariga to‘g‘ri kelmoqda (4.1.1-jadval).

Rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlarning demografik vaziyatidagi tafovutlar ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish darajasi, shaharlashuv, aholining turmush tarzi va an’anaviy qadriyatlarning saqlanganlik darajasi kabi omillar bilan bog‘liqdir.

Tabiiy ko‘payishning yuqori sur’atlari saqlanishi yoki o‘ta past darajaga tushishi mamlakat iqtisodiyoti uchun turli muammolarni

keltirib chiqaradi. Rivojlanayotgan mamlakatlarda bu muammolar ishsizlik, ta’lim va sog‘liqni saqlash sohalaridagi kamchiliklar bo‘lsa, rivojlangan davlatlarda ular mehnat resurslari yetishmasligi, nafaqa va soliq tizimlarining beqarorligida bilinadi. Ayrim davlatlar demografik vaziyatini o‘zgartirish maqsadida maxsus moddiy, ma’muriy va targ‘ibot choralarini qo‘llab kelmoqda. Davlat tomonidan ishlab chiqilgan va amalga oshiriladigan bunday choralar tizimi demografik siyosat deb ataladi. Demografik siyosat, asosan, ikki xil: mamlakat aholisi tabiiy o‘sishini kamaytirishga qaratilgan yoki uni ko‘tarish maqsadini ko‘zlaydigan bo‘ladi. Birinchi yo‘nalishdagi demografik siyosat tajribalari Xitoy, Hindiston, Pokiston, Bangladesh, Eron va boshqa rivojlanayotgan davlatlarda mavjud bo‘lsa, ikkinchisi Yevropa mamlakatlarida amalga oshirilmoqda.

4.1.1-jadval

Dunyo va yirik regionlarning asosiy demografik ko‘rsatkichlari (2020-yil)

№	Hududlar	Tug‘ilish (har 1000 kishiga)	O‘lim (har 1000 kishiga)	Aholi tabiiy ko‘payishi	
				Har 1000 kishiga)	%
1	Dunyo	20	8	12	1,2
2	Rivojlangan davlatlar	11	10	1	0,1
3	Rivojlanayotgan davlatlar	22	7	15	1,5
4	Yevropa	11	11	0	0
5	Osiyo	18	7	11	1,1
6	Afrika	36	10	26	2,6
7	Shimoliy Amerika	12	8	4	0,4
8	Lotin Amerikasi	17	6	11	1,1
9	Avstraliya va Okeaniya	17	7	10	1,0

Urbanizatsiya jarayonining global va regional jihatlari. Ma’lumki, urbanizatsiya (lotincha urb – “shahar”) – bu shaharlar va shahar

aholisining o‘sishi, shahar turmush tarzining keng tarqalish jarayonidir. Shaharlar eng qadimgi davrlarda vujudga kelib, qishloqlar bilan birgalikda aholi manzilgohlarining ikkita asosiy turidan birini tashkil qiladi. Shaharlar tarixan ijtimoiy mehnat taqsimoti natijasida paydo bo‘lgan va rivojlangan. Qadimgi davrlarda shaharlar hunarmandchilik, savdo-sotiq, ma’muriy boshqaruv, mudofaa ishlari, diniy ibodatxona va ziyoratgohlar negizida vujudga kelgan. Tarixdan ma’lumki, bir necha ming yillar avval yer yuzida Fiva, Bobil (Vavilon), Afina, Rim, Iskandariya, Karfagen, Moxenjo-Daro, Samarqand kabi yirik shaharlar mavjud bo‘lgan. Ammo haqiqiy shaharlashuv jarayoni qizg‘in sur’atlar bilan faqat XIX asrda, dastlab Yevropada, keyinchalik esa Shimoliy Amerikada boshlandi. Bu hodisa G‘arb davlatlarida o‘sha paytda ro‘y bergan sanoat inqilobining natijasi bo‘ldi.

Dunyoning rivojlanayotgan mamlakatlarida esa urbanizatsiya jarayonlari XX asrning o‘rtalarida ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy sohalardagi ijobiy o‘zgarishlar tufayli boshlandi va hozirgi kungacha yuqori sur’atlar bilan davom etmoqda. Oxirgi 200 yil davomida dunyo aholisida shahar aholisining ulushi muntazam ravishda o‘sib borgan. 1800-yilda insoniyatning taxminan 3%i shahar joylarida istiqomat qilgan edi. 1900-yilga kelib bu raqam 14%gacha ko‘tarildi. Yarim asrdan so‘ng, 1950-yilda jahon urbanizatsiya darajasi 29%ni tashkil etdi, 1990-yilda bu ko‘rsatkich 45%, 2001-yilda 47%ga yetdi. 2010-yilga kelib shaharliklarning jahon aholisi tarkibidagi ulushi 50%dan ortdi va hozirgi kunda u 54%ga teng. Urbanizatsiya jarayoni 3ta asosiy bosqichdan o‘tib rivojlanadi. Shakllanayotgan urbanizatsiya bosqichida shahar aholisining ulushi 50%dan past bo‘lib, Yangi shaharlar vujudga keladi, ayrim qishloq joylar shahar manzilgohlari toifasiga o‘tib ketadi. Ayniqsa, yirik shaharlar tez o‘sishni boshlaydi. Bunda eng yirik shahar boshqalarga nisbatan ancha ilgarilab ketadi. Eng yirik shaharlarning o‘sishi ayrim hollarda “soxta” urbanizatsiya tarzida, ya’ni shahar chekkalarida qishloqdan ko‘chib kelgan past

daromadli aholi uy-joylarining zichlashib borishi ko‘rinishida kechadi. Hozirda Osiyo va Afrikadagi qator rivojlanayotgan mamlakatlar urbanizatsiyaning ana shu bosqichini kechirmoqdalar.

Rivojlangan urbanizatsiya bosqichi “millioner” shaharlarning yuqori sur’atlar bilan o‘sishi hamda yirik shaharlar atrofida aglomeratsiyalarning vujudga kelishi bilan tavsiflanadi. Shaharliklarning jami aholidagi ulushi 50 %dan ortib ketdi, Yangi shaharlar vujudga kelmaqda, mavjud shaharlar esa, ayniqsa, yiriklari tez rivojlanmoqda, shahar manzilgohlarining tizimlari shakllanib bormoqda. Urbanizatsiyaning bu bosqichi Sharqiy Yevropa, MDH davlatlari, Lotin Amerikasi, Shimoliy Afrika, Janubi-G‘arbiy Osiyo, Okeaniyadagi ko‘p mamlakatlarga xosdir.

Yetuk urbanizatsiya bosqichi Yevropaning eng rivojlangan davlatlarida, AQSHda, Kanadada, Avstraliyada, Yaponiyada, Isroilda kuzatilmoqda. Bunda aholi yirik shaharlarning markazlaridan asta-sekin shahar atrofiga ko‘chib bormoqda, lekin shaharda ishlash, o‘qish, turli faoliyat yuritishni davom ettirmoqda. Natijada shaharlar markazlari, asosan, tadbirkorlik, bank-moliya sektori, boshqaruv sohalarining rivojlanish maskanlariga aylanib, aholi yashash massivlari esa tobora markazdan uzoqlashib boraveradi. Bunday ijtimoiy-geografik jarayon suburbanizatsiya deb ataladi. Transport va aloqaning zamonaviy texnologiyalari rivojlangan sari urbanizatsiyaning bu bosqichida shahar iqtisodiyoti tarmoqlari va shahar turmush tarzi qishloq joylarda ham keng tarqalib boradi, natijada shahar va qishloqlardagi yashash sharoiti tobora yaqinlashadi, ya’ni, qishloq joylar rasman o‘zining qishloq maqomini saqlab tursa-da, aslida, tub ma’noda shaharlashib ketadi. Shahar bilan qishloq joylar orasidagi ijtimoiy-iqtisodiy farq va chegaralarning yo‘qolib borish jarayoni urbanizatsiya atamasi bilan yuritiladi.

4.1.2-jadval

Dunyo va yirik regionlarning urbanizatsiya darajasi (2020 y)

№	Hududlar	Urbanizatsiya (%da)
1	Dunyo	54
2	Rivojlangan davlatlar	78
3	Rivojlanayotgan davlatlar	49
4	Yevropa	74
5	Osiyo	48
6	Afrika	41
7	Shimoliy Amerika	81
8	Lotin Amerikasi	80
9	Avstraliya va Okeaniya	70

Demak, jahon mamlakatlarida urbanizatsiya jarayoni turli bosqichlarida rivojlanib bormoqda va bu, birinchi navbatda, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish darajasi bilan belgilanadi. Yevropa, Shimoliy Amerika, Lotin Amerikasi, Avstraliya va Okeaniya kabi yirik mintaqalardagi davlatlarda urbanizatsiya ko‘rsatkichi o‘rtacha hisobda 70 foizdan oshgan. Bu borada, ayniqsa, Islandiya, Buyuk Britaniya, Belgiya, Daniya, Niderlandiya, Avstraliya, Yangi Zelandiya, Argentina, Venesuela kabi shaharlashuv darajasi 90 foizdan yuqori bo‘lgan davlatlar ko‘zga tashlanadi. Jahon aholisining 60 foizi va dunyodagi shaharliklarning yarmi yashaydigan Osiyo qit’asida urbanizatsiyaning umumiy darajasi birmuncha pastroq, 50 foiz atrofida bo‘lib, o‘sishi davom etmoqda. Afrikada esa urbanizatsiya ko‘rsatkichi 40 foizdan sal ko‘proq. Lekin har ikkala qit’ada ham yuqori urbanizatsiyalashgan mamlakatlar bor. Jumladan, Osiyoda bu borada Yaponiya, Janubiy Koreya, Isroil, Fors qo‘ltig‘i arab mamlakatlari, Tailand, Afrikada esa Liviya, Jazoir, Misr, Marokash, JAR kabi davlatlar ajralib turibdi. Shu bilan birga, Butan, Burundi, Malavi, Uganda, Chad, Afg‘oniston va boshqa mamlakatlarda urbanizatsiya

darajasi 25 foizga ham yetmaydi. Ammo oxirgi yillarda shahar aholisining umumiy soni va jahon aholisidagi ulushi aynan Osiyo va Afrika davlatlarida kechayotgan urbanizatsiya jarayonlari hisobiga ko‘paymoqda. Bunda eng salmoqli hissa shaharlari ancha yuqori sur’atlar bilan o‘sib borayotgan Xitoy va Hindiston davlatlariga tegishli. Jahon urbanizatsiyasining hozirgi bosqichida xalqaro savdo-iqtisodiy va bank-moliya munosabatlari rivojlanishi, transmilliy korporatsiyalar faoliyati doirasining kengayishi, zamonaviy transport va aloqa tarmoqlari vujudga kelganligi hisobiga ayrim juda yirik shaharlarning ta’sir doirasi joylashgan davlati bilan chegaralanib qolmasdan, boshqa mamlakat va mintaqalar, ba’zan esa jahonni qamrab olmoqda. Bunday shaharlarning aholisi soni bir necha million kishiga teng bo‘lib, yirik transmilliy korporatsiyalar va xalqaro tashkilotlar qarorgohlari, dunyodagi eng yirik port, sanoat korxonalari, bank, moliyaviy jamg‘arma va birjalar joylashganligi bilan boshqa shaharlardan ajralib turadi. Shu toifadagi shaharlarga nisbatan global (yoki jahon) shaharlari atamasi qo‘llaniladi. Global shaharlar qatoriga, eng avvalo, Nyu-York, London, Tokio, Shanxay, Gonkong, Parij, Dubay, Singapur kabi savdo-moliyaviy va transport salohiyati o‘ta katta shaharlar kiritiladi. Global shaharlar safi borgan sari kengaymoqda, ularning ta’sir doirasi esa barcha qit’a va ularning yirik qismlarini qamrab olishga intilmoqda. Urbanizatsiya jarayonlari ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotning ajralmas qismi va ularning bevosita hosilasi bo‘lib, qator muammolarni ham keltirib chiqarmoqda. Bu muammolarning qamrovi keng bo‘lib, ekologik, iqtisodiy, ijtimoiy, tibbiy, madaniy, ma’naviy-axloqiy jihatlar bilan tavsiflanadi. Bunda ishlab chiqarish atrof-muhitga o‘tkazadigan bosimining kuchayishi, suv ta’minotidagi kamchiliklar, transport tarmoqlariga me’yoridan ortiq yuk tushayotgani, shahar turmush tarzi bilan bog‘liq kasalliklarning tarqalishi, jinoyatchilikning ortishi va boshqa muammolar eng dolzarb hisoblanadi. Demak, jahon urbanizatsiyasi-

ning zamonaviy bosqichi miqdor va sifat xususiyatlari, shuningdek, turli ko‘rinishdagi muammoli jihatlari bilan tavsiflanadi.

4.2. Materiklar va mamlakatlar bo‘yicha aholining joylashishi va zichligi

Dunyo aholisining 1000-yildan 2020-yilgacha bo‘lgan o‘sishiga nazar tashlasak, aholi eng tez ko‘paygan davr XX asrdir. Agar Yer shari aholisining bir mlrd.ga yetishi uchun salkam 850 yil kerak bo‘lgan bo‘lsa. 2 mlrd.ga yetishi uchun 85 yil, 3 mlrd.ga yetishi uchun 25 yil, 4 mlrd.ga yetishi uchun – 15 yil, 5 mlrd.ga yetishi uchun 20 yil va 6 mlrd.ga yetishi uchun – 15 yil, 7,8 mlrd. yetishi uchun 14 yil vaqt kerak bo‘ldi. Sayyoramiz aholisining ko‘payib borishi uning alohida hududlari bo‘yicha ham farq qiladi. Yevropada XIV asrning o‘rtalaridan fan va texnika rivojlandi. Ilmiy manbalarda, ushbu davrni Yevropa uchun “uyg‘onish” davri, deb qayd etilgan.

Yevropa dunyo qit’alari ichida aholining o‘rtacha zichligi yuqori hudud hisoblanadi. Aholi zichligi Yevropaning shaharlarida yuqori bo‘lib qishloq hududlaridan keskin farq qiladi. Bu qit’ada aholi umuman yashamaydigan hudud yo‘q. Yevropada aholisi nisbatan siyrak joylashgan hududlar Islandiya va Norvegiya davlatlari bo‘lsa, aholisi eng zich joylashgan Niderlandiya (Gollandiya) va Belgiya davlatlaridir. Aholi zichligi bo‘yicha Malta davlati alohida ahamiyatga ega bo‘lib, bu yerda aholi zichligi 1 km^2ga 1000 kishidan ortadi. Maltada ichishga yaroqli suv juda tanqis bo‘lib, u qimmatga sotiladi. Toza suvning qimmati hatto vinodan ham yuqori turadi. Yevropada aholi eng zich joylashgan hudud Reyn daryosi vodiysidir. Bu yer juda hosildor lyossimon tuproqlardan tarkib topgan bo‘lib, dehqonchilik va chorvachilik bilan shug‘ullanish uchun juda qulaydir. Shuningdek, Dunay daryosi vodiysi bo‘ylab ham aholi zichligi nisbatan yuqoridir.

Yevropada urbanizatsiya darajasining yuqoriligi shahar va qishloq
hududlari aholisi zichligidan keskin farq etishiga olib kelgan. O‘z

navbatida, qishloq hududlarida ham aholi zichligi o‘zaro farq qiladi. Masalan, Maltada qishloq aholisi 1 km^2ga 100 kishidan ortib borganda, Yevropaning Shimoliy hududlarida aholi siyrak joylashgan. Chunki bu yerlar iqlimi sovuq bo‘lib, qishloq xo‘jaligini rivojlantirish uchun unchalik qulay emas.

Fan-texnikaning rivojlanishi tufayli Yevropada ishlab chiqarishda qo‘l kuchi o‘rniga texnikalardan foydalanish aholi ijtimoiy-iqtisodiy sharoitini ma’lum darajada yaxshilanishiga olib keldi. Aholi soni oldingi davrlarga nisbatan tezroq sur’at bilan ko‘paya bordi. Lekin Yevropaning, ba’zi hududlarida tarqalgan epidemiyalar (1624, 1639-yillarda o‘lat va vabo), ocharchiliklar (Italiyada 1739-1741-yillardagi kartoshka ocharchiligi) va urushlar (Turkiya va Bolqon urushi XVI asrda; 1618-1648-yillardagi 30 yillik urush, 12 yil davom etgan ispan merosi uchun urushlar 1701-1713-yillar) aholi sonining ko‘payib borishiga salbiy ta’sir etgan. Shuningdek, Yevropa aholi soni dinamikasiga emigratsiya ham ta’sir ko‘rsatdi. Amerikaning kashf etilishi juda ko‘p ispanlar, portugallar, inglizlar, gollandlar va fransuzlarning Amerikaga ko‘chib ketishiga sabab bo‘lgan. XVI-XVIII asrlarda Yevropadan Amerikaga 2 milliondan ko‘p aholi ko‘chib ketgan. Shunday bo‘lsada, Yevropa aholisi XVI-XVIII asrlarda oldingi davrlarga nisbatan yuqori sur’at bilan ko‘payib borgan. Masalan, 1700-yili Yevropa aholisi taxminan 100 million kishi bo‘lsa, 1800-yilda bu ko‘rsatkich 150-160 millionga etgan. Fransiya, Angliya, Germaniya va Ispaniya Yevropaning aholisi eng ko‘p davlatlaridan bo‘lgan. XIX asr Yevropa aholi takror paydo bo‘lishida Yangi bosqichga o‘tgan. O‘limning kamayib borishi, aholi o‘rtacha umr ko‘rish muddatining uzayishi va tug‘ilishning nisbatan yuqori darajada saqlanib turishi aholining tabiiy ko‘payishini yuqori darajaga olib chiqdi. Ushbu davrda Yevropada tug‘ilishning umumiy koeffitsiyenti 35-40 promille, o‘lim esa 20-25 promille atrofida bo‘lgan. Aholi tabiiy o‘sishi har 1000 kishiga 15-20 kishini tashkil etgan. Yevropadan Amerikaga aholi emigratsiyasining ko‘payishi, Fransiya imperatori

Napoleonning urushlari aholi sonining ko‘payishiga salbiy ta’sir etgan. Lekin, aholining tabiiy ko‘payishining yuqoriligi tufayli Yevropa aholisining umumiy soni dinamikasida kamayish kuzatilmagan. XIX asrda Yevropadagi ko‘p sonli aholiga ega bo‘lgan davlatlar Fransiya, Buyuk Britaniya, Germaniya aholisi 1,5-2 barobarga ko‘paygan.

XX asr Yevropa aholisining takror barpo bo‘lishida yangi bosqich bo‘ldi. Yevropadagi qator davlatlarda XX asrning ikkinchi yarmida tug‘ilish keskin kamayib bordi. Tug‘ilish bilan bir qatorda o‘lim hollari ham qisqardi. Aholining takror barpo bo‘lishida Yangi demografik o‘tish davri boshlandi. Natijada, Yevropada aholi sonining o‘sish sur’ati bir muncha kamaydi. 1900-1950-yillarda Yevropa aholisi har yili o‘rtacha 1,8 million atrofida ko‘paygan bo‘lsa, 1970-2020-yillarda esa, bu ko‘rsatkich 1,2 millionni tashkil etgan. Hozirgi davrda (2021-y.) Yevropa aholisi 750,6 millionga yetgan.

Osiyo dunyoning eng ko‘p sonli aholi istiqomat etayotgan hududidir. XX asrga qadar bo‘lgan davr uchun Osiyo aholisining soni haqidagi aniq ma’lumotlar deyarli yo‘q. Taxminlarga ko‘ra, XVI-XVIII asrlarda Osiyo aholisining umumiy o‘sish sur’ati Yevropa aholisining o‘sish sur’atiga juda yaqin bo‘lgan. Chunki, Osiyoda ushbu davrlar nisbatan tinch, yirik qirg‘in-barot urushlar bo‘lmagan davr hisoblanadi. Osiyoning ba’zi davlatlari demografik jarayonlarida keskin o‘zgarishlar kuzatiladi. Masalan, Yaponiyada oilalarda farzand tug‘ilishini nazorat etish boshlandi. Natijada aholining tabiiy ko‘payish sur’ati sekinlashdi va aholi soni ham mos ravishda nisbatan kam sur’atda ko‘paydi. XIX asr boshlarida Osiyoning eng ko‘p sonli xuddi Xitoyda aholi soni 300- 350 million, Hindistonda 150-210 million, Yaponiyada 27-30 million kishini tashkil etgan.

XIX asrda Osiyo davlatlarining ko‘pchiligida yangi siyosiy o‘zgarishlar yuz berdi va ularning ko‘pchiligi mustamlakalarga aylantirildi. Mustamlakachilik aholi ijtimoiy-iqtisodiy hayotiga salbiy ta’sir etdi. Dehqonlarning asosiy qismi yersiz qoldilar, hunarmandchilik, ishlab chiqarish ma’lum darajada sustlashdi. Bu

holatlar aholining tabiiy ko‘payish sur’atiga salbiy ta’sir etdi. Ocharchilik, epidemiya va mustamlakachilarga qarshi urushlar natijasida aholi o‘rtasida o‘lim hollari ko‘paydi. Millionlab aholi yuqoridagi omillar natijasida qirilib ketdi. XIX asrning oxirida Hindistonda 20 martaga yaqin ocharchilik bo‘lib, ularda qariyb 20 million atrofidagi aholi vafot etgan. Ana shu davrda (1887-y.) Xitoyning shimoliy rayonlarida ham ocharchilik bo‘lib, 4-6 million kishi halok bo‘lgan. XIX asrda Osiyoning qator hududlari aholisida tug‘ilish 45-50 promilleni, o‘lim esa 40-45 promilleni tashkil etgan. Aholining tabiiy o‘sishi juda past bo‘lib, 5-10 %nigina tashkil etgan. Natijada, Osiyo aholisining soni juda sekinlik bilan ko‘paygan. 1900-yillarda Osiyo aholisining soni 950 million kishidan oshgan. Shu jumladan, Xitoyda aholi soni 400-500 million, Hindistonda 285 million va Yaponiyada 44 millionga yetgan.

XX asrda Osiyo mamlakatlarining ko‘pchiligida aholi o‘limining keskin kamayishi kuzatiladi. Natijada, Osiyo aholisining soni ko‘payib bordi. 1900-2020-yillarda Osiyo aholisi soni 950 milliondan 4622, millionga yetdi yoki 4,9 marta ko‘paydi. Shuni alohida qayd etish lozimki, XX asrning ikkinchi yarmida Xitoy, Hindiston kabi aholi ko‘p sonli davlatlarda tug‘ilishni nazorat etish davlat siyosati darajasida olib borilishi aholining o‘sish sur’atini bir muncha sekinlashishiga olib keldi. Osiyo aholisining dunyo aholisi tarkibidagi salmog‘i 1000-2000-yillarda 63,9 foizdan 59,3 foizga tushdi. Hozirda (2020-y.) Osiyoda dunyo aholisining 60,1 foizi istiqomat qilmoqda.

Osiyoda dunyo aholisining eng asosiy qismi yashaydi. Sharqiy Osiyoda Yaponiya, Xitoy, Janubiy Koreya, Janubiy Osiyoda esa Hindiston, Pokiston, Bangladesh kabi davlatlar joylashgan bo‘lib ular dunyodagi aholi zichligi bo‘yicha eng yuqori o‘rinlarni egallaydilar. Osiyo aholisining asosiy qismi Hindi-Xitoy yarimorolida va Indoneziya orollarida joylashgan bo‘lib, ularda aholi zichligi 1 km^2ga 400-500 kishiga teng. G‘arbiy Osiyodagi Arabiston yarim orolida, Markaziy Osiyoda, ayniqsa, Mo‘g‘ulistonda aholi siyrak joylashgan

bo‘lib, 1 km^2 ga 3-4 kishini tashkil etadi. Osiyoda dunyo qishloq aholisining katta qismi istiqomat etib, ular qishloq xo‘jaligi, ayniqsa dehqonchilik uchun qulay yerlarda joylashgan. Osiyodagi yirik daryolar, Gang, Braxmaputra, Mekong, Xuanxe vodiylariga, Koreyaning janubiy qismi, Yaponiya va Yava orollariga joylashganlar. Bu hududlar maydoni 2.5 mln.km^2 bo‘lib, ularda taxminan 2 milliarddan ortiq aholi yashaydi. Aholi zichligi Hind va Ganga vodiylarida, Xuanxe va Yanszi deltalarida juda zich bo‘lib 1 km^2ga 1000-1500 kishini tashkil etadi.

Osiyoda aholi doimiy yashamaydigan tog‘li hududlar (Tibet, Hindikush, Himolay tog‘liklari) va cho‘llar, chala cho‘llar (Rub-al-Xali, Takla-Makon, Gobi cho‘llari) ham mavjuddir. Afg‘oniston, Suriya, Eron, Turkiya davlatlari hududlarida ham aholi juda siyrak joylashgandir. Chunki bu hududlar tabiiy sharoiti ham dehqonchilik uchun uncha qulay emas. Bu yerlarda asosan aholi ko‘chmanchi chorvachilik bilan shug‘ullanadi.

Afrika qit’asi inson ajdodlarining eng qadimiy maskanlari shakllangan shu bilan bir qatorda aholisi yer kurrasining qator hududlariga nisbatan juda siyrak joylashgan hudud 1970-2004-yillarda Afrika aholisining o‘rtacha zichligi 1 km^2ga 12 kishidan 29 kishiga yetgan. Afrikada aholining siyrak joylashuvi bir tomondan tabiiy sharoitning qishloq xo‘jaligi uchun qulay emasligi, ichimlik va sug‘orish uchun suv tanqisligi bo‘lsa, ikkinchi tomondan Afrika davlatlarining juda uzoq davr Yevropa davlatlari mustamlakasi bo‘lib kelganligidir, chunki koloniya sharoitida aholining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi sekin boradi. Ushbu jarayon esa aholining tabiiy o‘sishiga, o‘rtacha umr ko‘rish muddatiga salbiy ta’sir etadi. Natijada, aholi soni sekin ko‘payadi va aholi zichligi ham shunga mos tarzda o‘zgaradi. Aholining eng yuqori zichligi Mavrikiy, Reyunon va Viktoriya ko‘li atrofida joylashgan Ruanda va Burundi davlatlarida (1 km^2ga 400-450 kishi), aholi eng siyrak joylashuvi esa Botsvana, Liviya va Namibiya davlatlarida kuzatiladi.

Afrikada ham aholi joylashuvida suv resurslarining asosiy omil ekanligi yaqqol kuzatildi. Nil daryosi vodiylarida, Gvineya qo‘ltig‘i, Tunis, Jazoir va Marokashning sohil bo‘ylarida aholi zich joylashgan Sahroi Kabir, Kalaxari va Liviya cho‘llarida, tropik o‘rmonlarda aholi juda siyrak, ba’zi cho‘llarda umuman aholi yashamaydi. Afrikaning ba’zi hududlarida aholi juda notekis joylashgan. Bunday hol ayniqsa, Afrikaning shimoliy qismiga xarakterlidir. Bu yerda aholi eng zich joylashgan O‘rta yer dengizi sohillari bilan aholisi juda siyrak Sahroi Kabir cho‘li mavjuddir. Shuningdek, Marokashning shimoli-g‘arbida mamlakat aholisining 90 foizi istiqomat qiladi va aholi zichligi 1 km^2ga 200 kishidan ortiq, janubi-sharqiy qismidagi tog‘ va cho‘l hududlarida aholi zichligi 1 km^2ga 1-2 kishini tashkil etadi.

Afrika aholisi sonining ko‘payib borishida uning tabiiy sharoiti bilan bir qatorda ijtimoiy ahvoli ham asosiy omil hisoblanadi. O‘rta asrlarda shimoliy Afrikaga arablarning bosqinchilik yurishlari tufayli juda ko‘p aholi qirilib ketgan. Bu qit’a aholisi asosan G‘arbiy Sudan va sharqiy Afrika aholisi hisobiga bir muncha ko‘paygan. Sharqiy Afrikada arab sultonliklari tashkil topib, Osiyo davlatlari, ayniqsa, Hindiston bilan savdo-sotiq rivojlanadi.

Ikkinchi ming yillikda Afrika xalqining ijtimoiy-siyosiy hayotida yana keskin o‘zgarishlar sodir bo‘ldi. Afrikani Yevropaliklar tomonidan mustamlakaga aylantirilishi natijasidagi urushlar, afrikaliklarni qullarga aylantirib sotilishi, ularning og‘ir turmush sharoiti, ochlik, issiq iqlim sharoitida turli yuqumli kasalliklarning tez-tez tarqalib turishi natijasida aholi o‘rtasida o‘lim ko‘rsatkichlari yuqori darajada bo‘lgan. 1650-1800-yillarda Afrika aholisi taxminan 100 milliondan 90 millionga kamaygan.

XVI-XVII asrlarda Afrikadan negrlarni qul qilib, Amerikaga olib ketilishi ham Afrika qit’asi aholisi soniga salbiy ta’sir etgan. Ayniqsa, Shimoliy Amerikadagi ingliz koloniyalariga Afrikadan millionlab negrlarni qul qilib haydab kelishgan. 1680-1786-yilning o‘zida shimoliy Amerikaga Afrikadan 2 million negrlar keltirilgan. Yuzlab

negrlar yo‘lda halok bo‘lishgan va qul sifatida sotib yuborilgan. Yuqorida qayd etilgan holat natijasida Afrikaning Angola, Mozambik va G‘arbiy Sudan kabi davlatlarida aholi juda kamayib ketgan.

XIX asrga kelib, Afrikaning ijtimoiy-siyosiy ahvoli bir muncha yaxshilandi. Qator davlatlar mustamlaka tuzumidan ozod bo‘ldi. Dunyoda inson huquqlarini, millatlar manfaatini himoya etish tashkilotlari tashkil topib, faoliyat ko‘rsata boshladi. Afrika xalqlarining himoya qilinishi, ularga tibbiy yordam ko‘rsatish, bilim olishlariga imkoniyatlar yaratila boshlandi. Natijada qit’a aholisi o‘rtasida o‘lim hollari kamaydi. Tug‘ilishning yuqori darajada bo‘lishi va o‘limning kamayishi Afrika aholisining tez sur’atlar bilan ko‘payishiga olib keldi. 1900-yil Afrika aholisi taxminan 130 mln. kishini tashkil etgan. 1900-2000-yillarda esa qit’ada aholi soni 6 marta ko‘paydi va 790 millionga yetdi. XX asr Afrika aholisining eng yuqori sur’at bilan ko‘paygan davridir. 2021-yil ma’lumotlariga qaraganda, Afrika aholisining soni 1380,6 millionni tashkil etib, bu ko‘rsatkich dunyo aholisining 17,6 foizini tashkil etdi.

Amerika qit’asida ilmiy manbalarda yozilishicha, Amerika Xristofor Kolumb tomonidan kashf etilgan davrga qadar, 25 milliondan ortiq aholisi bo‘lgan. Aholisining asosiy qismini atseklar (Markaziy Meksika) davlatida va inklar imperiyasida (Peru) yashaganlar. Amerika aholisining tub xalqi hindular bo‘lib, ular kichik-kichik qabilalarga birlashganlar. Hozirgi AQSH hududida 1 millionga yaqin hindular yashagan.

Amerikaning yevropaliklar tomonidan bosib olinishi uchun bo‘lgan urushlar natijasida tub aholi bo‘lmish hindularning qirib yuborilishiga sabab bo‘lgan. Masalan, Karib dengizi havzasidagi orollarda 1 milliondan ortiq hindular yashaganlar. XVI asr o‘rtalarida Yevropaliklarning bosqinchilik urushlari tufayli mahalliy aholi vakillaridan bir necha yuz kishigina qolgan xolos. Meksikada esa XIX asr boshlarida 1,5 mln., AQSHda XIX asr oxirlarida 200 ming hindular yashaganliklari haqida ma’lumotlar mavjud. Amerika tub aholisining

kamayib ketishiga ularning yevropaliklar tomonidan ayovsiz qirib tashlanishi bilan birga, yevropaliklar olib kelgan epidemiyalar “Yangi kasalliklar” (qizamiq, vabo, toshmalar), plantatsiyalardagi og‘ir, antisanitariya sharoitdagi mehnatlar ham sabab bo‘lgan.

Amerika ham yer sharidagi aholisi nisbatan siyrak joylashgan hududdir. Bu yerda aholi zichligi 1970-2004-yillarda 12 kishidan 22 kishiga yetgan. Amerikaning aholi zichligi bo‘yicha dunyodagi tutgan o‘rni Afrikaga yaqindir. Shimoliy Amerikada aholi Janubiy Amerikaga nisbatan siyrakroq joylashgan. AQSHning Atlantika okeani sohillaridagi Rod-Aylend, Nyu-Jersi, Pensilvaniya shtatlarida aholi zich joylashgan. G‘arbga borgan sari aholi zichligi kamaya boradi. Missisipi vodiysidan so‘ng tog‘li hududlar boshlanadi va bu yerlarda aholi juda siyrak bo‘lib, 1 km^2ga aholi zichligi 1-2 kishidan to‘g‘ri keladi. Tinch okeani sohillarida ayniqsa, Kaliforniyada aholi zichligi yana ortib boradi. Kanadada ham aholi nisbatan siyrak joylashgan bo‘lib, aholi 1 km^2ga 3-4 kishidan to‘g‘ri keladi. Kanadaning juda katta maydonini tayga va tundra zonalari egallagan. Kanadaning shimoliy qismi, arktik orollarda, AQSHga tegishli Alyaska yarim orolida aholi juda ham siyrak joylashgan va ba’zi hududlarda aholi umuman yashamaydi.

Janubiy Amerikada ham aholi asosan suv resurslariga yaqin, okean va daryolar sohillarida joylashgan. Braziliyaning San-Paulo shtatida va sharqiy qismida, Parana past tekisligida aholi nisbatan zichroq joylashgan bo‘lib 1 km^2ga 50-55 kishini tashkil etadi. Karib dengizi orollari va Bermud orollarida ham aholi zich joylashgan. Aholi zichligi yuqorida qayd etilgan orollarda 1 km^2ga 300-400 kishidan ortiq. Amazonka vodiysining tropik o‘rmonlar va botqoqliklar bilan qoplangan qismi, baland And tog‘lari va Atakama cho‘lida esa aholi deyarli yashamaydi.

Amerika aholisi soni XIX asr boshiga qadar, asosan yevropadan kelgan immigrantlar kelishi va Afrikadan ko‘plab negr-qullarni olib kelinishi hisobiga sekinlik bilan ko‘paygan. Ushbu davrda Amerika

qit’asida 25 million atrofida aholi bo‘lib, ularning 18 millioni Lotin Amerikasida, 5,3 millioni AQSHda yashagan.

XIX asrda Yevropadan Amerikaga ko‘chib keluvchilar soni yana ham ko‘paydi. Immigrantlarning asosiy qismi iqtisodiy ahvol yaxshiroq bo‘lgan AQSH ga qaratilgan edi. XIX asrning ikkinchi yarmida (1821-1900-yillarda) AQSHga kelgan immigrantlar soni 20 million atrofida bo‘lgan. AQSH aholisi immigrantlar hisobiga juda tez sur’at bilan ko‘payib borgan va 1900-yilda 76 millionga yetgan va ularning tarkibida 10 million atrofida negrlar qayd etilgan.

Kanada hududlariga ham XIX asrda immigratsiya jarayoni kuchaydi. XIX asr boshlarida Kanadada bor yo‘g‘i 300 ming atrofida aholi istiqomat etgan bo‘lsa, 1851-yili aholi soni 1,8 mln., 1900-yilda esa 5,8 millionga etgan. Asr boshida faqat Kanadaga dastlab Yevropadan kelgan fransuz emigrantlar aholining asosiy qismini tashkil etgan edi. XIX asrning ikkinchi yarmida AQSH hududi tamoman egallab olingach, immigrantlar oqimi Kanadaga qaratiladi.

Lotin Amerikasi davlatlari aholisi esa XIX asrlarda AQSH va Kanada aholisiga nisbatan sekinroq ko‘paygan. Asosan aholining ko‘payishi tabiiy o‘sish hisobiga sodir bo‘lgan.

Bu davrda Yevropadan immigrantlarning kelishi Shimoliy Amerikaga nisbatan kamroq bo‘lgan. Immigrantlar asosan Argentina, Braziliya va Urugvay davlatlariga kelganlar. 1900-yilda Lotin Amerikada 60-65 million aholi istiqomat etgan. 1850-1900-yillarda butun Amerika qit’asi aholisi 65 million kishidan 145 million kishiga ko‘paygan, yoki 2,2 marta oshgan. 1900-2000-yillarda esa aholi soni 6 martaga ko‘paydi. Bu davr Amerika aholisining eng yuqori sur’at bilan ko‘paygan davridir. Aholi sonining ortib borishi dunyo aholisi tarkibida uning hissasini 3 barobar ko‘tarilishiga sabab bo‘ldi. 2021-yil Amerikada 1020 mln. aholi bo‘lib, dunyo aholisining 13,2 foizi tashkil etgan. 1000-yilda bu ko‘rsatkich 4,6 fozini tashkil etgan edi.

Okeaniya va Avstraliya aholi zichligi bo‘yicha dunyoda eng oxirgi o‘rinda turadi. 1970-2004-yillarda aholi zichligi 1 km^2ga 2

kishidan 3,8 kishiga yetgan. Lekin materikning ichida aholi juda notekis joylashgan. Okeaniya orollarida aholi zichligi nisbatan yuqori. Guam orollarida aholi zichligi 1 km.ga 200 kishidan ortiq bo‘lsa, G‘arbiy Samoada 50 kishidan ortiqni tashkil etadi. Avstraliyada esa aholi uning Sharqiy, Janubi-Sharqiy va Janubi-G‘arbiy qismida, Yangi Janubiy Uels, Viktoriya va Kvinslend shtatlarida zich joylashgan. Bu hududlarda Avstraliyaning 80 foizdan ko‘p aholisi istiqomat etadi. Markaziy va Shimoliy Avstraliyada joylashgan cho‘l hududlarida mahalliy tub aholi avstraliyalik aborigenlar yashaydilar. Ular juda kam bo‘lib, zichlik ham nisbatan pastdir. Shuningdek Yangi Gvineyaning janubiy qismida ham aholi siyrak joylashgan. Chunki bu hududlar maydonida ham tabiiy sharoit inson yashashi uchun noqulay bo‘lib, tropik o‘rmonlar va botqoqliklardan iboratdir.

Aholining yer yuzi bo‘ylab joylashuvi qator omillar bilan bog‘liq. Ularga tabiiy sharoit, aholi manzilgohlari shakllanishining tarixiy xususiyatlari, demografik o‘tishning hozirgi bosqichi, rivojlanish darajasi va xo‘jalik tarkibi kabi sotsial-iqtisodiy omillarni kiritish mumkin. Aholining joylashuvida eng asosiy omil bu tabiiy sharoitdir. Dunyo aholisining asosiy qismi inson yashashi uchun qulay tabiiy sharoitga ega bo‘lgan mo‘tadil, subtropik va tropik iqlim zonalarining qishloq xo‘jaligi bilan shug‘ullanish imkoniyati bor hududlarida joylashgan.

Avstraliya va Okeaniya hududi aholisiga oid aniqroq ma’lumotlar demografik manbalarda, XVIII asrning ikkinchi yarmiga taalluqlidir. 1788-yilda ushbu qit’ada 200-300 ming mahalliy xalqlar (aborigenlar) yashaganlar. Okeaniyada esa XVIII asr o‘rtalarida 3 million kishi bo‘lganligi taxmin etiladi. Bu hududda ham aholi shakllanishida Amerika qit’asiga o‘xshash yevropaliklarning kelishi bilan bog‘liq ijtimoiy-siyosiy o‘zgarishlar katta ta’sir etgan. Yevropaliklar bilan to‘qnashuvlardan, epidemiyalardan Avstraliya aholisining juda ko‘p qismi qirilib ketgan. XIX asrning oxirlarida Avstraliyada 100 ming nafar aborigenlar qolgan xolos. Shuningdek, Yangi zelandiyaliklar

ham XVIII asrning oxiridan XIX asrning oxirgi choragiga qadar 200-250 mingdan 37,5 ming kishiga kamayib ketganlar. XVIII asrning oxiridan XIX asrning oxiriga qadar, gavayiliklar soni 300 mingdan 31 mingga qisqargan.

XIX asrning oxiridan boshlab, Avstraliya va Okeaniya aholisi aralash millatlar va yevropaliklar hisobiga bir muncha ko‘paya boshladi. Ayniqsa, Avstraliya va Yangi Zelandiya aholisi asosan yevropaliklar hisobiga ko‘payib borishining asosiy sababi Avstraliya va Okeaniyada Yangi konlarning topilishi va o‘zlashtirilishi edi. Yevropada ishlari yurishmagan kambag‘al va o‘rtahol kishilar tezda boyib ketish maqsadida bu yerga ko‘plab ko‘chib kelganlar. 1800-1850-yillarda Avstraliyaga kelgan immigrantlar soni 5 mingdan 405 mingga yetgan. Immigratsiya hisobiga Gavayi, Fidji, Yangi Kaledoniya aholisi ham ko‘paya boshladi. Natijada, Avstraliya va Okeaniya aholisining dunyo aholisi tarkibidagi salmog‘i deyarli 2 barobar ko‘paydi. 1900-yilda bu hudud aholisi 6 milllion kishini tashkil etgan bo‘lsa, 2000-yilda bu ko‘rsatkich 30 millionga yetgan. Hozirgi kunda (2021 y.) Avstraliya va Okeaniya aholisining soni 43,3 millionni tashkil etmoqda.

4.3. Dunyo aholisining tabiiy o‘sishi. Tashqi va ichki migratsiya

Aholining tabiiy o‘sishi ma’lum davr ichida tug‘ilganlar soni bilan o‘lganlar soni orasidagi farq orqali aniqlanadi. Aholining tabiiy o‘sishi aholi o‘sishi jadalligining umumiy ko‘rsatkichi bo‘lib, odatda, koeffitsiyent bilan o‘lchanadi. Bu ko‘rsatkich har 1000 kishiga nisbatan olinadi va promille (‰) bilan o‘lchanadi. Ekspertlarning fikricha keyingi asrda dunyo aholisining keskin pasayishi ilk marta tug‘ilish soni kamayishi sababli ro‘y beradi. Aholining tabiiy o‘sishi va migratsiya masalalari bo‘yicha ilmiy qarashlar yoritib boriladigan “Lancet” jurnalida chop etilgan Yangi tadqiqot keyingi asrda dunyo aholisi keskin pasayishini prognoz qildi. Jurnalda e’lon qilingan ma’lumotlarga ko‘ra hozirda dunyoda 7,8 milliarda ortiq odamlar

istiqomat qilmoqda. Tadqiqotga ko‘ra, 2064-yilda dunyo aholisining eng yuqori cho‘qqisi 9,7 milliard atrofida bo‘lishi va 2100-yilda 8,8 milliardga tushishi kutilmoqda. O‘rganishlarga ko‘ra 23tadan ortiq mamlakatlar aholisining 50 foizdan ko‘proqqa qisqarishini ko‘rsatdi. Jumladan, aholi soni kamayishi Yaponiya, Tailand, Italiya, Ispaniya, Portugaliya, Janubiy Koreya va boshqa mamlakatlarda tug‘ilish darajasi pasayishi va aholining qarishi tufayli yuz beradi. Hatto Xitoy kabi eng ko‘p aholiga ega mamlakatda ham aholi soni 2020-yildagi 1,4 milliarddan 2100-yilga borib 732 millionga qisqaradi.

Biroq tadqiqot dunyoning ba’zi mamlakatlarida aholi soni ko‘payishini prognoz qilmoqda. Bunga Shimoliy Afrika, Yaqin Sharq va Sahroyi Kabir Afrikasi kiradi. Ulardagi aholi soni 2019-yildagi 1,04 milliarddan 2100-yilda 3,07 milliardga ko‘payadi.

Hozirgi kunda dunyodagi ikkinchi eng katta aholiga ega bo‘lgan Hindiston mamlakati aholisi 2100-yilda 1,09 milliard atrofida bo‘ladi.

Olib borilgan tadqiqotning yetakchi muallifi global salomatlik bo‘yicha professor Shtayn Emil Vollset IFLScience nashriga bergan intervyusida shunday deydi: “Qora vabo tufayli dunyo aholisi oxirgi marta XIV asr o‘rtalarida qisqargan. Agar bizning prognozimiz to‘g‘ri bo‘lsa, bu pandemiya yoki ocharchilik kabi hodisalardan farqli o‘laroq, birinchi marta aholining kamayishi tug‘ilish pasayishi hisobiga sodir bo‘ladi.

Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, qizlar uchun ta’lim va kontratsepsiya vositalaridan foydalanish imkoniyatini oshirish tug‘ilish va aholi o‘sishini sekinlashtiradi. Bu omillar tug‘ilish darajasiga ta’sir qiladi – ayollarning butun umri davomida o‘rtacha tug‘ish soni bu aholi soni shakllanishining eng katta omilidir. Butun dunyo tug‘ilish darajasi barqaror ravishda pasayib, 2017-yildagi 2,37dan 2100-yilda 1,66gacha, aholi sonini saqlab qolish uchun zarur deb hisoblangan minimal ko‘rsatkichdan ancha past bo‘lishi bashorat qilinmoqda.

Hozirda dunyo aholisining o‘sishi yiliga 1,1 foizni (83 million kishidan ortiq) tashkil etmoqda. Ushbu ko‘rsatkichi XVIII asrda sanoat

inqilobidan keyin tez sur’atda o‘sishni boshladi. Jahon aholisi 1800-yildagi 1 milliarddan 7 milliarddan ortiq ko‘rsatkichgacha o‘sdi, 2030-yilga kelib, 8,6 mlrd kishiga yetadi. Aholisi 100 mln. kishidan ortiq bo‘lgan jami 13ta mamlakat mavjud: Xitoy, Hindiston, AQSH, Indoneziya, Braziliya, Pokiston, Nigeriya, Yaponiya, Efiopiya, Bangladesh, Rossiya, Meksika va Filippin. Xitoy va Hindistonda mazkur ko‘rsatkich 1 mlrd.dan ortib bo‘ldi.

Xitoyda hozirda 1.409.516.397 aholi istiqomat qiladi. Xitoy – Sharqiy Osiyodagi eng yirik davlatlardan biri hisoblanadi. XXRda 56ta etnik guruhlar bor, ulardan eng yirigi xanlar (91,51 foiz). Xanlar yoki xan dunyodagi eng ko‘p elatlardan biri hisoblanadi. Xanlar soni bo‘yicha Sinszyan va Tibetdan tashqari XXRning har bir provinsiyasida ustunlik qiladi.

Hindistonda 1.339.180.127 aholi istiqomat qiladi. Hindiston maydoni bo‘yicha dunyoda yettinchi, aholi soni bo‘yicha esa ikkinchi o‘rinni egallaydi. 2011-yilda aholini ro‘yxatga olish ma’lumotlariga ko‘ra, ko‘rsatkich 1.210.193.422 kishini tashkil qilgan. Bu esa raqamlar 2001-yildan 2011-yillarga qadar 17,64 foizgacha o‘sganini anglatadi. Aholi soni 1998-yilda 1 milliarddan ortgan edi. Prognozlarga ko‘ra, 2024-yilga borib, Hindiston aholisi eng zich joylashgan mamlakatga aylanadi. Aholisining 50 foizdan ortig‘i – 15 yoshdan kichikdir. Bu juda jiddiy ko‘rsatkich bo‘lib, ijobiy tomonlari bilan birga kelajakda bir qator muammolarni ham keltirib chiqarishi mumkin.

AQSHda hozirda 324.459.463 kishidan ortiq aholi istiqomat qiladi. Amerika Qo‘shma Shtatlari 50ta shtat, 5ta o‘zini o‘zi boshqaradigan hudud va 1ta federal okrugdan iborat respublikadir. AQSH dunyodagi eng rivojlangan yirik davlatlardan biri hisoblanadi. AQSHning aholisi yaqin yillarda sezilarli darajada o‘sishi prognoz qilinmoqda. Aholisi eng zich joylashgan shtat Kaliforniya sanaladi (39.536.653 kishi), undan keyin Texas va Florida shtatlari turadi.

Indoneziyada 263.991.379 kishi doimiy istiqomat qiladi**.** Indoneziya Okeaniyada ham bir qator orollar hududlariga egadir. Indoneziya Janubi-Sharqiy Osiyodagi eng aholisi ko‘p va yirik iqtisodiyotga ega bo‘lgan davlat hisoblanadi. U dunyo siyosiy xaritasidagi eng yirik orol davlat bo‘lib, 13 mingdan ortiq orollarga ega. Aholisining katta qismi Yava orolida joylashgan.

Braziliyada hozirgi kunda 209.288278 kishi istiqomat qiladi. Braziliya aholisi 1940-yildan 1970-yilga qadar o‘lim ko‘rsatkichining pastligi sabab sezilarli darajada o‘sdi. 1940-yil mobaynida o‘sish sur’ati 2,4 foizni tashkil etdi va 1950-yillarda 3 foizga yetdi, biroq 1960-yillarda o‘sish sur’ati shiddat bilan tushishni boshladi, bugun ushbu ko‘rsatkich 0,8 foizni tashkil etmoqda.



Izoh: (+)-ijobiy o‘sish; (0)-turg‘unlik; (-)-salbiy o‘sish; (?)-ma’lumotlar mavjud emas.

4.3.1-rasm. Dunyo aholisining tabiiy o‘sishi kartasi.

Shu bilan birgalikda dunyo aholisining o‘sishiga migratsiya ham o‘z ta’sirini o‘tkazadi. Aholi migratsiyasi so‘zi lotincha “migratio” so‘zidan olingan bo‘lib, u odamning doimiy yoki vaqtinchalik yashash uchun bir hududdan ikkinchi bir hududga ko‘chishini bildiradi. Rus olimi O.D.Vorobyova o‘z asarlarida aholi migratsiyasi – bu aholining doimiy yashash joyini yoki vaqtincha yashash joyini o‘zgartirish maqsadida ma’muriy-hududiy tuzilmalarning ham tashqi, ham ichki chegaralarini kesib o‘tishi bilan bog‘liq har qanday hududiy harakatidir, deb yozadi.

Migratsiyaning bir necha turi mavjud bo‘lib, uning turlariga quyidagilar kiradi:

- tashqi va ichki;
- turistlar va qishloq xo‘jaligi ishchilarining mavsumiy migratsiyasi;
- rivojlanayotgan mamlakatlarda sanoatlashtirish (urbanizatsiya) jarayonida sodir bo‘lgan qishloqlardan shaharlarga migratsiya;
- rivojlangan mamlakatlarda ko‘proq uchraydigan shaharlardan qishloqqa migratsiya (qishloqlashuv);
- ziyorat migratsiyasi;
- vaqtinchalik va uzoq muddatli;
- chegaraviy yoki tranzit;
- noqonuniy.

Ko‘rinishiga ko‘ra tavsiflanishi:

- ommaviy tashkil etilgan;
- uyushmagan.

Sabablariga ko‘ra tasniflanishi:

- iqtisodiy;
- ijtimoiy;
- madaniy;
- siyosiy;
- harbiy va boshqalar bo‘yicha migratsiya jarayonlari vujudga keladi.

Umumiy qilib olganda migratsiya jarayonining kelib chiqishi qadimgi vaqtga, ya’ni dastlabki mehnat taqsimoti vujudga kelishi va chorvachilikning dehqonchilikdan ajralib chiqishi davriga borib taqaladi. Hozirgi kunda dunyoda xalqaro mehnat migratsiyasi eng ahamiyatli yo‘nalishlardan biri bo‘lib qolmoqda. Xalqaro mehnat migratsiyasi ishchi kuchlarining jahon mamlakatlari orasida ko‘chib yurishi bo‘lib, u tashkiliy yoki stixiyali ko‘chish jarayonida kechadi hamda bir qator omillar bilan belgilanadi. Bu omil shartli ravishda iqtisodiy, demografik, siyosiy omillarga bo‘linib, ular o‘zaro bog‘langan. Bular orasida iqtisodiy omil eng asosiysi hisoblanadi. Mehnat zaxirasining xalqaro migratsiya natijasida o‘ziga xos bo‘lgan tovar, ya’ni ishchi kuchiga aylanishi kuzatiladi. Uning boshqa tovardan asosiy farqi shundaki, ishchi kuchi o‘zi boshqa tovarning ishlab chiqarish omilidir. Mehnat zaxirasi ortiqcha bo‘lgan mamlakat ishchi kuchini eksport qilishi natijasida, birinchi navbatda, ishsizlik sonini kamaytirishga erishadi hamda xorijiy valyuta kelishini ta’minlaydi. Biroq, ikkinchi tomondan, yuqori malakali mutaxas-sisning tashqariga chiqib ketishi ushbu mamlakatning texnologik imkoniyatini, uning umumiy ilmiy va madaniy darajasining kamayishiga olib keladi. Umuman, migratsiya jarayonini amalga oshirishda iqtisodiy omillardan tashqari boshqa ta’sirlar ham mavjudki, ular qatoriga ekologik, psixologik, huquqiy omillarni kiritish mumkin. Yangi tarixda birinchi bor ishchi kuchining ommaviy tarzda ko‘chishi XVII asrda Afrikadan Amerikaga qullarning olib kelinishida ko‘rindi.

AQSHda quldorlikning bekor qilinishi natijasida ikkinchi bir katta oqimning Yevropadan AQSHga emigratsiya qilinishi boshlandi.

Iqtisodiy migratsiya bir qancha turlarga bo‘linadi:

1. Ta’lim olish maqsadidagi migratsiya. Miqdoran cheklangan fuqarolarni bir necha oy yoki yilga rivojlangan mamlakatlarning davlat va xususiy korxonalariga Yangi zamonaviy malakalarga ega bo‘lish, zamonaviy texnologiyalarni o‘rganib qaytish maqsadidagi

harakatlanuvchi ko‘chishidir. Bu ko‘rinishdagi migratsiya natijasida olingan ish tajribasi mamlakatga qaytib kelingandan keyin o‘zining yuqori samarasini beradi.

2. Yuqori texnik kasb-korlik, boshqaruv mahoratiga ega bo‘lgan, shuningdek, ishbilarmon kishilar xorijiy davlatlarda hech qanday to‘siqlarsiz joylashib oladilar. Xalqaro ishchi kuchi migratsiyasini muddati bo‘yicha quyidagilarga bo‘lish mumkin:

- butunlay (qaytib kelmaslik) migratsiya – aholining boshqa mamlakatga doimiy yashash uchun borishi;
- vaqtinchalik (qaytib kelinadigan) migratsiya – aholining boshqa mamlakatga ma’lum muddatga borishi;
- mavsumiy migratsiya – aholining boshqa mamlakatga ma’lum bir vaqt mobaynida va ma’lum bir muddatga borishi (masalan, qishloq xo‘jaligi ishlari uchun);
- mayatnikli migratsiya (ko‘p takrorlanadigan) – ishchilar bir mamlakatda yashaydilar, lekin doimo yoki vaqtincha boshqa mamlakatda ishlaydilar. Bu jahon hamjamiyatining chegaradosh mamlakatlariga xosdir (Polsha, Germaniya).

Mehnat migratsiyasi o‘zining ish joyini o‘zgartirishiga qaratilgan harakatdir. Mehnat migratsiyasi 2 turga bo‘linadi.

1. Ichki mehnat migratsiyasi – bir mamlakat miqyosida ishchi kuchining harakatlanishi.

2. Tashqi mehnat migratsiyasi – bir mamlakat hududidan ikkinchi bir mamlakatga ishchi kuchining ko‘chishi. Ichki mehnat migratsiyasi milliy qonunlar, mehnat kodeksi orqali boshqariladi, tartibga solinadi. Tashqi mehnat migratsiyasi milliy qonunchilik me’yorlari, BMT standartlari va Xalqaro mehnat tashkiloti (XMT) ko‘rsatma va tavsiyanomalariga muvofiq keluvchi davlatlararo kelishuvlar asosida boshqariladi. Tashqi mehnat migratsiyasi xalqaro iqtisodiy aloqalarda muhim o‘rin tutib, avvalo ishchi kuchini eksport qiluvchi mamlakatlarda ishsizlik sonini qisqartirib, ularga ishchi kuchini qabul qilgan mamlakatlar tomonidan xorijiy valyuta kelib tushishini

ta’minlaydi. Jahon iqtisodiy aloqalarida mehnat migratsiyasi muhim ahamiyat kasb etib, xalqaro mehnat bozorlarining asosiy markazlari ma’lumdir. Xalqaro mehnat bozorining birinchi markazi AQSHdir. Bu mehnat bozorining o‘ziga xos xususiyati shundaki, avvalo ilmiy-texnikaviy xodimlar yollanadi, yuqori malakali mutaxassislar ishga qabul qilinib, Yevropa va dunyoning boshqa mamlakatlaridan turli sohalar bo‘yicha yuqori professional malakaga ega bo‘lgan mutaxassislar yollanadi. Xalqaro mehnat bozorining ikkinchi markazi G‘arbiy Yevropa mamlakatlari hisoblanadi. G‘arbiy Yevropa mamlakatlari Yevropa Ittifoqiga kiruvchi rivojlangan mamlakatlar, Shimoliy Afrikaning arab davlatlaridan va Yaqin Sharq, Shimoliy Yevropa va MDH mamlakatlaridan ishchi kuchini jalb qiladi.

Taraqqiyotning hozirgi bosqichida ishchi kuchining norasmiy migratsiyasi ko‘payib bormoqdaki, bu jahon muammosiga aylandi. Bunday ishchilar ijtimoiy, huquqiy jihatdan himoyalanmagan bo‘lib, aksariyat hollarda yuqori malakali mutaxassislarning oddiy ishchi sifatida ishlashlari va mahalliy ishchilarga nisbatan bir necha barobar past haq olishlariga to‘g‘ri keladi. Bunday noqonuniy faoliyat oshkor bo‘lgan taqdirda ish beruvchi va ishchiga katta jarima solinadi.

Ba’zi mamlakatlarda aholining qarishi, jumladan Yevropaning aksariyat davlatlarida migrantlarga zarurat tug‘diradi. Dunyo aholisini migratsiyaga majbur etuvchi asosiy sabablar quyidagilardan iborat:

1. Xalqaro miqyosda ishsizlikning yuqoriligini keltirib chiqaruvchi sabablar faqat malaka, kasb-kordagina emas, buning asosiy sabablaridan biri rivojlanayotgan mamlakatlarning aksariyatida ishchilar ish haqining pastligidadir.

2. Rivojlanayotgan mamlakatlarning ko‘pchiligida mehnat sharoitlari talablarga javob bermasligi va o‘ta og‘irligi.

3. Rivojlanayotgan mamlakatlarda ish vaqtining haddan tashqari uzunligi.

4. Ish joylarida mavqeni oshirish imkoniyatlarining yo‘qligi. Shuning uchun ham Gaiti, Yamayka, Tobago aholisinining 70 foizi, Salvador aholisining 1/5 qismi xorijda yashaydi.

Mehnat migratsiyasida yuqori malakali mutaxassislar ulushining kengayishi kuzatilmoqda. Buning bir qancha jihatlari mavjud. Birinchidan, mutaxassislar faqat “kapital” uchun emas, balki “bir vaqtning o‘zida kapital bilan birga yoki uning ketidan bormoqda”. Bu, avvalambor, transmilliy korporatsiyalarning faoliyati bilan bog‘liqdir. Ikkinchidan, hozirgi vaqtda mutaxassislar migratsiyasi darajasiga xalqaro korporatsiyalarning “aqlli boshlarni ovlash” faoliyati ham ta’sir etmoqda. Uchinchidan, oliy ta’limning integratsiyalashuv tizimi alohida o‘ringa egadir. To‘rtinchidan, dunyo miqyosida xalqaro migratsiyaning hozirgi zamon bosqichidagi o‘ziga xos xususiyati shundaki, hozirda bu jarayonga davlat faol va samarali tarzda aralashmoqda. U xalqaro mehnat bozoridagi kelishuvlarni tartibga solib, migrantlarning boshqa mamlakatga chiqishi uchun ruxsat berishi va qaytib kelishi muddatini nazorat qilmoqda. Beshinchidan, xalqaro mehnat migratsiyasining globallashuv xususiyati jahon hamjamiyatining barcha mamlakatlarini qamrab olmoqda. Xalqaro mehnat migratsiyasi ishchilarni “eksport qilayotganlar” uchun ham, “import qilayotganlar” uchun ham nisbatan birdek sezilarli darajada ta’sir ko‘rsatadi. Ko‘pchilik industrial mamlakatlarda ular taraqqiyotining og‘ir davrlarida faol ishchi kuchi emigratsiyasi amalga oshirilgan. Biroq muammolar hal qilina borishi bilan bu jarayonlar barqarorlasha boshladi.

Har bir davlat mehnat migratsiyasiga taalluqli siyosatni ishlab chiqishda bu jarayonga turlicha yondashadi va o‘z mamlakatiga mos keluvchi mezonlarni hisobga oladi. Jumladan, ishchi kuchining mamlakatlararo ko‘chib yurishi va kuchayib borishining ijobiy tomonlari bilan birga salbiy tomonlari ham mavjud. Shuning uchun ko‘p davlatlar bu jarayonga bevosita ta’sir etishning an’anaviy usullari hisoblangan kvotalash, litsenziyalash va turli xil ma’muriy

rasmiyatchiliklar o‘rnatish usullaridan keng foydalanadilar. Xalqaro mehnat bozorini tartibga solish import va eksport qiluvchi davlatlarning milliy qonunchiligi hamda hukumatlararo va idoralararo kelishuvlar asosida amalga oshiriladi. Xorijiy ishchi kuchining kirib kelishini cheklovchi hamda ularni o‘z vatanlariga qaytib ketishini (remigratsiya) rag‘batlantiruvchi byudjetdan moliyalashtirilgan dasturlar yordamida tartibga solinadi. Bunda immigrantlar sonini kamaytirish maqsadida tegishli talablar qo‘yish, ya’ni ularning kasbiy malakasi, ma’lumoti, yoshi, sog‘lig‘i, soni va geografik tomondan kvotalanishi, bevosita va bilvosita kirib kelishini taqiqlash hamda boshqa cheklashlar asosida amalga oshiriladi. Remigratsiya esa qaytib ketayotgan immigrantlarga ma’lum pul to‘lovlarini to‘lash, immigrantlarni professional (kasbiy) tayyorlash orqali amalga oshiriladi.

Ishchi kuchini eksport qiluvchi mamlakatlar uchun mehnat migratsiyasining bir qancha ijobiy tomonlari bilan birga salbiy tomonlari ham mavjud:

1. Ishchi kuchini eksport qiluvchilarda ishchi kuchini eksport qilish natijasida valyuta daromadlarida qo‘shimcha manba paydo bo‘ladi. Turkiya, Misr, Pokiston kabi davlatlarda ishchi kuchi migratsiyasidan muayyan daromadlar tushmoqdaki, bu mamlakatlar oldida turgan ba’zi muammolarni hal qilish imkonini beradi. Ayni vaqtda bunday usuldagina xorijiy valyutani topib iqtisodiy rivojlanishni takomillashtirish zararli bo‘lib qolishi mumkin, shuningdek, iqtisodiyotda tarkibiy o‘zgarishlarning hal qilinmay qolishi iqtisodiy rivojlanishga salbiy ta’sir ko‘rsatmoqda. Mehnat migrantlarining miqdorida, qolaversa, ular tomonidan o‘z davlatlariga yuborayotgan pul o‘tkazmalari (“migrodollar”lar) hamda bu “migrodollar”larning mamlakatlar iqtisodiyotiga, shuningdek, migrantlarining iqtisodiy ahvoliga qanday ta’sir etayotganligidadir.

Hozirgi xalqaro iqtisodiy aloqalarda ishchi kuchini eksport qiluvchi ayrim mamlakatlar uchun bu soha valyuta tushumining asosiy

manbalaridan biri bo‘lib qolmoqda. Dunyo miqyosida ba’zi mamlakatlarda oilasi va yaqinlariga pul jo‘natayotgan mehnat migrantlari ba’zi holatlarda o‘z mablag‘larini qarindoshlari, do‘stlari orqali jo‘natadilar. Bu esa rasmiy statistikada hisobga olinmaydi va bu holat pul chiqib ketayotgan va kirib kelayotgan davlatlar iqtisodiyotida norasmiy jarayonlarning rivojlanishiga olib keladi. BMT ma’lumotlariga ko‘ra, mehnat migrantlarining pul jo‘natmalarining 40%dan ortig‘i norasmiy yo‘llar bilan amalga oshiriladi. Buning asosiy sabablaridan biri bu mehnat migrantlarining ko‘pchilik qismi (ularning 3/4 qismiga yaqin) hisobdan o‘tmasdan hamda zarur bo‘lgan hujjatlarsiz ishlashlaridir. Mehnat migrantlari bunday holatlarda rasmiy idoralarda “ko‘rinish”ni xohlamaydilar yoki hujjatlari ish beruvchida turishi sababli pul jo‘natishda rasmiy yo‘llardan foydalana olmaydilar. Ularning 20-30%i o‘z ish joylaridan tashqariga chiqmaydilar. Shunday bo‘lsa-da, jahonda mehnat migrantlarining aksariyati o‘z pul jo‘natmalarini banklar orqali amalga oshiradilar, so‘ng bu banklarning doimiy mijoziga aylanadilar va o‘z navbatida, banklar ham bunday mijozlarning iste’mol, ipoteka kreditlaridan foydalanishlarida, sug‘urta xizmatlari bilan ta’minlashlarida ko‘mak beradilar. Shuningdek, pul jo‘natmalarining banklarda jamg‘arilishi daromadlar miqdorining oshib borishiga olib keladi.

4.4. Aholining tarkibiy tuzilishi. Jinsiy, irqiy, milliy, diniy va yosh tarkibi

Xitoyning qadimiy donishmand faylasufi Konfutsiy ikki yarim ming yil oldin “Biz qanaqa xalq ekanligimizni bilgingiz kelsa, oldin bizning sonimizni bilib oling” degan ekan. Donishmandning bu so‘zlari dunyoning hozirgi ijtimoiy-ijtimoiy rivojlanish davrida ham o‘z dolzarbligini yo‘qotgani yo‘q. Aksincha, jamiyatning rivojlanish sur’atlari shiddat bilan oshib borayotgan sari aholining soni, undagi tarkibiy va sifat o‘zgarishlar e’tiborimizdan chetda qolib ketishiga yo‘l qo‘yishimiz kerakmas. Bu borada e’tiboringizga jahon mamlakatlarida

yashab istiqomat qilib kelayotgan fuqarolar soniga, ularning keyingi paytlarda son va jins jihatidan bo‘layotgan keskin o‘zgarishlariga, davlatlardagi aholining yaqin va uzoq istiqbollaridagi bo‘lajak holatlarga e’tiborni qaratish zarur.

Ma’lumki, iqtisodiyotga innovatsion tendensiyalarning ta’siri ortib borishi bilan dunyodagi demografik o‘zgarishlarning ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyati yil sayin kuchaymoqda. Bu jarayon, avvalambor, dunyo aholisi miqdorining yuqori sur’atlar bilan oshib borayotganligiga bog‘liqdir.

Shundan kelib chiqan holda dunyo aholisining jinsiy tarkibida erkaklar bir oz ko‘proq. Aholining yoshi bo‘yicha tarkibiga tabiiy ko‘payish, migratsiya va urushlar ham ancha ta’sir ko‘rsatadi. Dunyoda aholining turli dinlarga mansubligini bilish ham muhimdir. Eng ko‘p tarqalgan dinlarga uch mashabga ega bo‘lgan xristian dini, islom dini, hind dini va buddizm kiradi. Aholini etnik tarkibining eng kichigi qabila, o‘rtasi elat va kattasi millatdir. Yer yuzida 2000dan ortiq milliy guruhlar bor. Aholisi soni 50 mln. kishidan ortiq bo‘lgan eng yirik xalqlardan 18 tasi butun insoniyatning yarmiga yaqinini tashkil etadi.

Aholining yosh-jins tarkibi va mehnat resurslarining shakllanishi**.** Aholining yosh jins tarkibi unga xos belgilar ichida eng muhimi hisoblanadi. Chunki ishga qarab aholining jamiyatda tutgan o‘rni va ahamiyati baholanadi. Butun dunyoda erkaklarning soni ayollarnikiga nisbatan qariyb 30 mln.ga ko‘proqdir. Lekin ayrim materiklar, regionlar va erkaklar bilan ayollar soni o‘rtasidagi farq sezilarli tusga ega. Bolalar yoshlarida barcha materiklar va regionlarda o‘g‘il bolalarning ustunligi ko‘zga tashlanadi. Dunyoda 9-14 yoshda har ming qizga 1040 o‘g‘il bola to‘g‘ri keladi. Ushbu ko‘rsatkich Yevropada (1060) Osiyoda (1050) hamda Avstraliya va Okeaniyada (1059) undan ham yuqori. Faqat Afrika (1008) va Amerika (1029) da nisbatan past daraja bilan ifodalanadi. Bolalar sonidagi farqning kelib chiqishida tug‘ilgan har ming go‘dakning 520 tasi o‘g‘il bolalardan

iborat bo‘lishligi omili hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Aholining asosan mehnatga layoqatli yoshdagi qismidan tashkil topgan 15-65 yoshida dunyo bo‘yicha har 1000 ayolga 1020 ta erkak to‘g‘ri keladi. Yevropada erkaklar soni ayollar soniga teng. Osiyoda xar 1000 ayolga 1049 ta erkak Avstraliya va Okeaniyada esa 1039 erkak to‘g‘ri keladi. Mazkur ko‘rsatkich Afrika (979 erkak) va Amerika (990 erkak) da aksincha ayollar ustunligi bilan ifodalanadi. Yuqoridagi yosh guruhlarida erkaklar bilan ayollar o‘rtasida mavjud bo‘lgan farqlar juda ko‘p omillar ta’sirida shakllangan. Bunda dunyo va region hamda mamlakat doirasidagi urushlar erkaklar bilan ayollarning jamiyatda tutgan o‘rni, ularning o‘rtacha umr davridagi farqlar va boshqa omillarning roli juda kattadir.

Dunyo aholisining tarkibida bolalar ulushi kamayib, mehnatga layoqatli yoshdagi va aholi salmog‘i ko‘paymoqda. Binobarin, 1970-1999-yillarida 0-14 yoshdagi bolalar ulushi 36,6 da 31 foizgacha kamaydi. Mehnatga layoqatli yoshlarda aholi salmog‘i 57, 7 dan 62,0 foizga yetdi.

Jahon aholisining irqiy etnik va diniy tarkibi**.** Inson irqi – bu o‘xshash avloddan-avlodga o‘tuvchilar tashqi (teri-gavda) belgilariga ega, tarixiy shakllangan odamlar guruhidir. Hozirgi vaqtda uchta asosiy yevropoid (oq), negroid (qora)larga mongoloid (sariq) irqlarga ajralish qabul qilingan. Ayrim hollarda to‘rtinchi avstroloid irqi ham ajratiladi. Katta irqlar tarqalgan hududlar o‘rtasidagi chegaralar odatda aniq bo‘lmasdan bir-biriga kirishib ketgan. Ana shunday hududlarda irqlarning aralash o‘tkinchi shakl va tiplari hosil bo‘ladi. Dunyo aholisi ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy taraqqiyotining har xil bosqichlarida turuvchi xalqlardan etnoslardan iboratdir. Etnosning eng yuqori darajasi millat hududi iqtisodiyoti va madaniyati tilning barqaror tarzda umumiyligi bo‘yicha ajralib turuvchi insonlar yig‘indisidan iborat. Usullar asosida millatga xos umumiy jihatlar milliy o‘zligini anglash hissiyoti shakllanadi. Dunyoda uch-to‘rt ming xalq bo‘lib, ularning ichida aholisining umumiy soni yuzdan hatto o‘ntadan

oshmaydigan mayda elatlarda (Hindistonda toza, Braziliyada botanuza va boshqalar) soni o‘n million va yuz milliondan ziyod bo‘lgan yirik millatlar mavjuddir. Shular qatoriga xitoylar, Yaponlar, braziliyaliklar, AQSH amerikaliklari, ruslar, hindistonliklar, bengallar, panjobliklar, bexariar livanliklar, nemislar va boshqalar kiradi.

Milliy tarkibi xilma xil bo‘lgan Osiyoda dunyoda soni eng ko‘p bo‘lgan xalqlar yashaydi. Osiyoda mutlaq soni 1 mln. dan ortiq 110 ga yaqin xalq bo‘lib, ularning umumiy miqdori qit’a aholisining 98 fozini tashkil etadi. Osiyo mamlakatlarining aksariyati, ko‘p millatlidir. Hindiston va Indoneziya davlatlarida 15 tadan ortiq xalq, Filippinda deyarli 100, Vetnam va Xitoyda 50 dan ortiq, Eron, Afg‘oniston, Tailandda 30 dan ortiq xalq istiqomat qiladi. Aholining etnik rang-barangligi ba’zi bir xalqlar tarqalgan hududlarning davlat chegaralariga hududlarda kompakt holda yashaydi.

Millat, xalq va elatlarning ana shunday hududiy tarqalganligi va joylashganligi ayrim mamlakatlarda etnik munosabatlar murakkab tus olishiga sabab bo‘ladi. Ba’zi mamlakatlarda esa bunday holat etnik nizolar mojarolarga olib kelganda siyosiy vaziyatning keskinlashuviga sabab bo‘lgan (Yaqin Sharq mintaqasi, Turkiya, Rossiya, Xitoy, Indoneziya, Malayziya, Hindiston, Ruanda, Burundi va boshqalar).

Dunyo mamlakatlari aholisining milliy tarkibi va etnik munosabatlarining xususiyatiga ko‘ra qator guruhlarga taqsimlash mumkin.

Birinchi guruhga bir millatli, ya’ni asosiy millati jami aholisining 95 foizdan ortiq qismini tashkil etuvchi mamlakatlar, bularga Yevropada Islandiya, Irlandiya, Norvegiya, Daniya, Polis Germaniya va boshqalar. Osiyoda Yaponiya, KXDR, Koreya Respublikasi, Bangladesh, Mongoliya, Yaman, Oman, Qatar va boshqalar. Afrikada Misr, Liviya, Somali, Madagaskar, Janubiy Afrikadagi deyarli barcha mamlakatlar kiradi.

Ikkinchi guruhni ushbu ko‘rsatkich 70-95 foizgacha teng bo‘lgan mamlakatlar Buyuk Britaniya, Fransiya, Finlyandiya, Ruminiya, Jazoir, Marokko, Zimbabve, Mavritaniya, Ispaniya, Botsvana, Xitoy, Vetnam,

Kambodja, Turkiya, Suriya, Iroq, Shri-Lanka, Singapur, AQSH, Avstriya, Yangi Zelandiya va boshqalar tashkil etadi. Shular qatoriga O‘zbekiston, Turkmaniston, Tojikiston, Ozarbayjon davlatlari ham kiradi.

Uchinchi guruh mamlakatlarida Eron, Afg‘oniston, Gruziya, Qirg‘iziston, Qozog‘iston, Pokiston, Malayziya, Laos, Markaziy, Sharqiy va Janubiy Afrika mamlakatlari va boshqalar asosiy millat umumiy jami aholining yarmidan kami yoki ortiq biroq 70% dan past ko‘rsatkich bilan ifodalanadi.

To‘rtinchi guruhda aholisi bir necha yirik mamlakatlarga ega, lekin ulardan birortasining ulushi sezilarli bo‘lmagan mamlakatlar to‘plangan Hindiston, Indoneziya, Filippin, Rossiya, Shveysariya, G‘arbiy Yevropa, Afrika mamlakatlari va boshqalar. Ma’lumki, XX asrning so‘nggi chorak asri davomida etnik tarkibi murakkab bo‘lgan mamlakatlarda millataro munosabatlar murakkablashdi. Har xil majorolar va ziddiyatlar vujudga keldi. Shularning barchasi har xil tarixni va ijtimoiy siyosiy sabablarga ega. Binobarin, yevropaliklar tomonidan bosib olinib, keyinchalik mustaqil qilishga erishilgan mamlakatda tub va mahalliy millat vakillarini kamsitish hollari uchrab turadi.

Ziddiyatlarning ikkinchi manbai – bu kam sonli millatlarning o‘ziga xos tili va madaniyatini mensimaslik, kamsitish. Buyuk Britaniyada shotlandlar va uelsliklar, Ispaniyada basklar, Fransiyada korsikoliklar, Kanadada frankanadaliklar va boshqalar.

Milliy va diniy asosga ega bo‘lgan majorolar uzoq yillardan beri Hindiston, Shri-Lanka, Indoneziya, Sudan, Somali, Malayziya, Xitoy va boshqalarda davom etmoqda. Diniy va hududiy manbadagi milliy ixtiloflar yarim asrdan ortiq vaqt davomida Isroil, ikkinchi tomondan Misr, Livan, Suriya hamda Iordaniya o‘rtasidagi muzokaralarning tashkil qilinganligi, bu dunyo miqyosidagi katta ijobiy siljishdir. Ma’lumki, din jamiyat hayotida turmushida juda katta rol o‘ynaydi. Bunda davlatning iqtisodiy rivojlanganligi dramasi, aholining ta’limiy darajasi katta ahamiyat kasb etmaydi. Aholining diniy tarkibini bilish va uni to‘g‘ri baholash, dunyoda bo‘lib o‘tayotgan miqyosini voqea va hodisalarning

ko‘pchiligini to‘g‘ri tushunish va anglashga imkon beradi. Yevropada xristianlik dinini barcha shakllari keng tarqalgan. Katolik dini asosan qit’aning janubida, qisman g‘arbi va markazida; provaslavlik Sharqi va Janubi-Sharqida Sobiq ittifoq mamlakatlari provaslavlik va islom dinlari keng tarqalgan. Osiyoda barcha dunyoviy dinlar va yirik milliy dinlar keng tarqalgan. Ayniqsa, islom dini katta rol o‘ynaydi. Islomning sunniylik yo‘nalishi Indoneziya dunyoda eng yirik musulmon mamlakatlaridir. Malayziya, Hindiston, Bangladesh, Pokiston, Afg‘oniston, Janubi-G‘arbiy Osiyodagi barcha arab mamlakatlari asosiy o‘rin egallaydi. Islomning shialik yo‘nalishi Eron, Ozarbayjon, qisman Iroq va Yamanda asosiy din sifatida tan olgan islom diniga e’tiqod qiluvchilarning katta-katta guruhlari Filippin, Kombadja, Tailand, I’enka, Kipr, Shri-Lanka mamlakatlarida mavjud.

Sharqiy va Janubi-Sharqiy Osiyo mamlakatlari buddizm va lamaizm keng tarqalgan. Induizmga Hindiston va Nepal aholisining ko‘pchiligi e’tiqod qiladi. Konfutsiyalik va daosizm dinlari Xitoyning asosiy dinlari hisoblanadi. Sintoizm Yaponiyada tarqalgan. Xitoy, Yaponiya, Koreya, Indoneziya, Malayziya va boshqa mamlakatlar ham xristian diniga e’tiqod qiluvchilar bor. Afrikaning Shimoli-G‘arbi va Sharqida joylashgan ko‘pchilik mamlakatlarda islomning sunniylik yo‘nalishi hukmron. Efiopiya, JAR va boshqa qator mamlakatlarda xristian dini muhim rol o‘ynaydi. Markaziy va Janubiy Afrika aholisining asosiy qismi mahalliy dinlarga e’tiqod qiladi.

Nazorat uchun savollar

1. Aholi soni, aholining qayta tiklanishi haqida tushuncha bering.
2. Demografiya va urbanizatsiya tushunchlarining mazmunini tushuntirng.
3. Materiklar va mamlakatlar bo‘yicha aholining joylashishi va zichligini tushuntiring.
4. Dunyo aholisining tabiiy o‘sishi haqida tushuncha bering.
5. Tashqi va ichki migratsiya haqida tushuncha bering.
6. Aholining tarkibiy tuzilishi. Jinsiy, irqiy, milliy, diniy va yosh tarkibi haqida tushuncha bering.

5-BOB. JAHON IQTISODIYOTIDA TURIZM

5.1. Xalqaro turizmning jahon iqtisodiyotidagi o‘rni.
5.2. Turizm xizmatlarining jahon eksporti.
5.3. Turizm sohasida jahon kapital qo‘yilmalari.
5.4. Turizm xizmatlari bozorini rivojlantirish omillari.

5.1. Xalqaro turizmning jahon iqtisodiyotidagi o‘rni

Turizmning rivojlanishi jarayonlarini tahlil qilib o‘rganib chiqqanimizda shu narsa namoyon bo‘ladiki, u o‘zining rivojlanish jarayonida bir-necha bosqichlarni bosib o‘tgan bo‘lib, qadimdan insonlar hayotida dunyoni bilishda asosiy vosita bo‘lib kelgan bo‘lishi bilan birga ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishda ham asosiy ahamiyatga ega bo‘lgan.

Turizm yoki sayyohlikning ilk bor boshlanish davri qadim-qadimlarga borib taqaladi. Kishilarning bir joydan ikkinchi joyga o‘tishi yoki borishi ko‘p hollarda savdo-sotiq yumushlari, atrof-olamni ko‘ra-bilish istagi, bilim olish, o‘qish, diniy va dam olish omillari bilan bog‘langan. Qadimgi manbalarda yozilishicha bundan ikki ming yillar oldin (eramizga qadar) misrliklarning hayotida sayyohlik, ko‘ngil ochish va dam olish odatdagi hodisa bo‘lgan.

Qadimgi sayyohlikning eng rivojlangan markazlaridan biri O‘rta yer dengizi qirg‘oqlarida joylashgan Gretsiya, Italiya, Fransiya, Ispaniya, Misr, Tunis kabi mamlakatlar bo‘lib hisoblanadi. Dengiz bo‘ylarida yashovchi aholilar savdo-sotiq, diniy safarlar, ilm olish, davolanish, Yangi hududlarni kashf qilish maqsadida uzoq-uzoq safarlarga dengiz orqali chiqishgan. Bu to‘g‘risida juda ko‘pgina ma’lumotlar mavjud bo‘lib ularning bir qismi hozirgi kungacha bizga yetib kelgan. Jumladan Gretsiyada V asrda (eramizga qadar) Gerodot va IV asrda (eramizgacha) Pifey kabi olimlar boshqa mamlakatlarni o‘rganish uchun sayohatga borganlar.

Qadimgi grek tarixchisi Gerodot birgina Misrda bo‘lib qolmasdan, balki Sharqning ko‘pgina mamlakatlarida, jumladan Liviyadan tortib Vaviloniya, Assuriya, Kichik Osiyo, hatto Qora dengizning shimoliy sohillarida ham bo‘lgan. U o‘zining sayohat taassurotlarini to‘qqiz tomlik “Tarix” nomli asarida tasvirlab bergan[4].

Bu davrda qadimgi Xitoy ham yuksak madaniyatli davlatlardan biri bo‘lgan. Xitoylik sayyohlar, olimlar, daryo, dengiz, tog‘lar to‘g‘risida juda ko‘plab geografik ma’lumotlar (qo‘lyozmalar)ni yozib qoldirgan. Xitoy elchisi Chjan San II asrda (eramizgacha) sayohatga chiqib juda katta amaliy ahamiyatga ega bo‘lgan ma’lumotlarni to‘plab qoldirgan. Uning bosib o‘tgan safar yo‘llari keyinchalik “Buyuk Ipak yo‘li”ga asos bo‘lgan.

Qadimgi davrda turizmning rivojlanishi juda murakkab kechgan. Safar muddati ham o‘ziga xos xususiyatga ega bo‘lgan. Kishilarning sayohatda yurish tezligi o‘rtacha soatiga 6 km.dan oshmagan. Bir kunlik bosib o‘tgan safarining umumiy masofasi esa 50-60 km atrofida bo‘lgan. Sayohatga chiqish imtiyozi va zarurati faqat savdogarlar, boy-badavlat, mayda savdogarlar, dvoryanlar va aslzodalarga taalluqli bo‘lgan.

Sayohatchilar safar davomida asosan ot ulovlardan (ot, tuya, eshak va boshqalar), qayiqlar va kemalardan foydalangan. Ular sayohat davomida yakka holda yoki savdo karvonlariga qo‘shilib o‘z manzillariga yetib borgan.

Marko Polo (1254-1323) yevropaliklardan birinchilardan bo‘lib, Osiyoni o‘rgangan venetsialik (Italiya) sayyohdir. Uning otasi Nikkolo va amakisi Matteo savdo-sotiq bilan shug‘llanib, tasodifan Mo‘g‘uliston xoni Kublay (Chingizxonning o‘g‘li)ning qarorgohiga kelib qolishadi[5]. 1271-yilda Nikko va Matteo ikkinchi bor safarga chiqib, mo‘g‘ul tilini va mahalliy urf-odatlarni o‘rgangan Marko Poloni o‘zlari bilan birga olib ketishadi. Marko Polo xon iltifotiga sazovar bo‘ladi. Xon Marko Poloni o‘z hukmronligi ostidagi joylarda

[4] X.M. Mamatqulov va bosh. Xalqaro turizm. Darslik. –T.: O’zbekiston faylasuflari milliy jamiyati, 2009. -24 b
[5] X.M. Mamatqulov va bosh. Xalqaro turizm. Darslik. –T.: O’zbekiston faylasuflari milliy jamiyati, 2009. -25 b.

turli xil ma’lumotlarni to‘plashga da’vat etadi. U ana shu imkoniyatdan foydalanib mamlakat va xalqlar to‘g‘risida ko‘pgina ma’lumotlarni to‘playdi. 1292-yil mo‘g‘ul xoni uchala sayyohlarga katta sovg‘alar berib ularni vataniga qaytaradi. Sayyohlar Tinch okean orqali Koxinxin, Sumatra, Seylon, Trapezud va Konstantinopol orqali 1295-yili Venetsiyaga qaytib keladi va boyligi bilan yuqori martabaga erishadi. Keyinchalik Marko Polo Venetsiyada buyuk Kengash a’zosi lavozimiga ko‘tariladi. 1307-yilda esa qayta ishlangan safar taassurotlari kitobini bosib chiqaradi. U o‘z taassurotlarida xitoyliklarning ixtirolari bilan qiziqib kompas, zabtlash taxtasi, veksellari bilan tanishganligini yozib qoldiradi.

Turizm va savdo-sotiqning rivojlanishiga Markaziy Osiyo ham o‘zining munosib hissasini qo‘shgan bo‘lib, bu davr Buyuk sarkarda Sohibqiron Amur Temur tuzgan imperiyaning ham ahamiyati katta bo‘lgan. Amir Temur davlati o‘sha vaqtda ma’lum bo‘lgan quruqlikdagi barcha davlatlar bilan deyarli aloqani yo‘lga qo‘ygan. Aynan Amur Temur davrida “Buyuk Ipak Yo‘li”ning mavqeyi ko‘tarilgan bo‘lib, davlatlar va elatlar o‘rtasidagi madaniy aloqalarning rivojlanishiga sabab bo‘lgan.

XVI asrga kelib Yevropa bo‘ylab sayohat qilish odat tusiga kira boshlaydi. Bunday sayohatlarni uyushtirish “Yosh aristokratlarni tarbiyalash dasturi”ga kiritilib, unda o‘qish, bilim olish maqsadlari ko‘zda tutilgan. Bunday sayohatlarning yo‘nalishi Angliyada London shahridan boshlanib, Fransiyaning Parij shahriga, so‘ngra Italiyaga Genuya, Milan, Florensiya, Rimgacha davom etgan. Orqaga qaytish yo‘li Shveysariya, Germaniya, Niderlandiya mamlakatlari orqali o‘tgan[6]. Aslzoda (aristokrat) yoshlar sayohat davomida xo‘jalik, siyosiy aloqalarini taniqli xorijiy oilalar bilan o‘rnatishga kirishadilar. Ular nafaqat bilim olish, balki dam olish, ko‘ngil ochish uchun ham safarlarga chiqishgan.

[6]http://ibooks.ru Трусова Н.М., Мухамедиева С.А., Клюев Ю.В. «Туризм» междисциплинарный аспект: конспект лекций для студентов.

Bu haraktlar davomiyligida bir qator o‘zgarishlar yuzaga kela boshladi, endi turizm fan va texnika rivojlanishi natijasida rejali, ilmiy asoslangan holda amalga oshirish uchun sharoitlar yuzaga kela boshladi.

Turizm XIX asrning o‘rtalariga kelib, ilmiy asoslangan holda amalga oshirila boshlandi. Bunga sanoatning rivojlanishi va ishlab chiqarishning takomillashuvi o‘z ta’sirini o‘tkazdi. Buning natijasida turistik harakatlarni amalga oshirishda poyezdlar, avtomobillar va paroxodlardan keng foydalanila boshlandi va turizmning yaxlit infratuzilma shaklida rivojlanish yo‘liga o‘tdi. Turizmni tashkllashtirish avvalgilaridan tubdan farq qila boshladi. Bu davrda iqtisodiyoti tez rivojlanayotgan Yevropa va Amerika mintaqasi mamlakatlarida insonlar dunyoni yanada kengroq o‘rganish maqsadida turli xildagi sayohatlarga chiqa boshladi.

Zamonaviy turizmni har tomonlama ilmiy asoslangan reja asosida Yangi bosqichini 1841-yilda dunyoda birinchi bo‘lib Buyuk Britaniyalik Tomas Kuk boshlab berdi[7]. Tomas Kuk 1846-yildan faoliyatini kengaytirib borib, 1860-yilda “Thomas Cook Travel” deb nomlangan turistik korxonasini ochdi.

Biroz keyinroq turistik firmalar va agentliklar Buyuk Britaniyaga qo‘shni bo‘lgan Fransiyada, Italiyada, Shveysariya va Yevropaning boshqa mamlakatlarida paydo bo‘la boshlaydi.

Tomas Kuk turizm faoliyati natijasida sohaga quyidagi yangiliklarni olib kirdi[8]: transport, mehmonxona, ovqatlanish va boshqa xarajatlarni o‘z ichiga olgan holda ommaviy sayohat qilish; kreditga sayohat qilish; yoshlar uchun ma’naviy-ma’rifiy sayohatlar; ishchilar uchun maxsus sayohatlar uyushtirish; valyuta almashtirish operatsiyalari va boshqalar.

Turizm rivojlanishi jadallashi bilan birga yuzaga kelgan ayrim siyosiy vaziyatlar tufayli uning rivojlanishida muammolarni keltirib

[7]В.А. Квартальнов, И.А. Зорин и.др. Туризм как вид деятельности. –М: “Финансы и статистика” 2001 г. -33с.

[8] A.N. Norchayev. Xalqar turizm rivojlanishining iqtisodiy o’sishga ta’siri. I f. n. diss. –T: TDIU, 2004 y. -18 b

chiqara boshladi. Turizm rivojlanishidagi birinchi jiddiy muammo, bu birinchi jahon urushi boshlanishi bo‘ldi. Buning natijasida turistik faoliyat inqirozga uchradi. 1920-yildan boshlab turistik faoliyat qayta tiklana boshlandi.

Turizmning o‘zini qisqa vaqt ichida tiklab olishiga bir qator omillar ta’sir ko‘rsatdi. Bu davrda Amerika mintaqasidagi turistlar oqimi Yevropa va Osiyoga qaratilib, urush vayronagarchiliklari va ularni tiklash borasida investitsiyalar kiritish va o‘zaro manfatli hamkorliklar yuzasidan tashriflar ko‘payib bordi. Bu davr uzoqqa cho‘zilmadi, sababi 1929-1933-yillardagi jahon iqtisodiy inqirozining kuchayishi Yevropada siyosiy vaziyatning keskinlashuvi, Germaniyada davlat hokimiyatiga natsistlar partiyasining kelishi bilan bog‘liq bo‘ldi. Turizm sohasi turli xil davlat ahamiyatiga ega bo‘lgan axborotlarni to‘plashi va qo‘poruvchilik ishlarini amalga oshiradigan manba bo‘lib qoldi. Misol, Ispaniyadagi grajdanlar urushi davrida Germaniya Tashviqot va targ‘ibot vazirligida maxsus turizm bo‘limi tashkil etilgan edi. Uning asosiy vazifasi Ispaniyaga polyak askarlarini turist tarzida yuborishdan iborat edi[9].

1939-1945-yillardagi ikkinchi jahon urushi xalqaro turizmning hajmini keskin kamaytirib yubordi. Urush davrida ko‘pgina Yevropa mamlakatlari shaharlari xarobalarga aylanib qoldi. Pul tanqisligi, yoqilg‘i-energetika resurslari, oziq-ovqat va malakali kadrlarning yetishmasligi davlatlarning milliy iqtisodiyotiga juda katta ta’sir ko‘rsatdi. Bu borada dunyo mamlakatlaridagi siyosiy vaziyatning keskinlashuvi, harbiy qurollanish poygasining to‘xtovsiz kuchayishi xalqaro turizm rivojlanishiga salbiy ta’sir ko‘rsatdi[10].

Ikkinchi jahon urushi tugagandan keyin Yevropaning ayrim mamlakatlarida, AQSH va Kanadada xalqaro turizm yana jonlana boshladi. 1951-yilga kelib butun dunyo bo‘yicha qayd etilgan

[9] http://elibrary.ru. Исторические аспекты развития массового туризма в России.
[10] http://elibrary.ru. Исторические аспекты развития массового туризма в России

turistlarning umumiy soni urushgacha bo‘lgan darajaga yetdi va 25 milliondan ortiq kishini tashkil qildi[11].

Kuchli dam olishga bo‘lgan talabning ortib borishi natijasida turizm infratuzilmasi tezlikda shakllandi. Bu davr turistik firmalarning aktiv faollashuvi ommaviy qurilish mehmonxonalar, motellar, dam olish uylari va ko‘ngil ochar joylari bilan ifodalanadi. 1947-yilda Parijda xalqaro turistik tashkilotlarning rasmiy Ittifoqi (MSOTO) tuzildi va uning ustavi tasdiqlandi. Uning haqiqiy a’zolari bo‘lib, davlat va nodavlat tashkilotlari hisoblanadi. Ittifoq tarkibiga 120dan ortiq davlat kirgan.

1969-yil BMT bosh Assambliyasi rezalyutsiyasiga muvofiq nodavlat xalqaro turistik tashkilotlarning maxsus ittifoqi (MSOTO) qaytadan tashkil etilib, Butunjahon Turizm Tashkiloti (BTT)ga aylantirildi. BTT 1975-yil 2 yanvarda o‘z ustavini qabul qildi. Uning tarkibiga bugungi kunda 160dan ortiq davlat kiradi. BTT tashkilotining asosiy maqsadi turizm sohasida davlatlarning bir-birlari bilan hamkorligini yo‘lga qo‘yish, turizmning rivojlanishini rag‘batlantirish, tinchlik, taraqqiyot va inson huquqlarini himoya qilish, jadal iqtisodiy yuksalishga o‘z hissasini qo‘shishdan iboratdir.

Turizm rivojlanishidagi asosiy voqealardan biri, 1972-yilda YUNESKO qarori bilan Butunjahon tarixiy-madaniy obidalarini va tabiatni saqlash, kelgusi avlodga yetkazish bo‘yicha Konvensiya qabul qilinishi bo‘ldi. 2019-yilda Konvensiyaga a’zo bo‘lib kirgan mamlakatlar soni 195tadan oshib ketdi. O‘zbekiston ham bu Konvensiyaga qabul qilingan. Bugungi kunda butunjahon madaniy meroslari ro‘yxatiga 1121ta obyekt kiritilgan. Bulardan eng mashhurlari Florensiya va Rimdagi tarixiy obidalar, Agradagi Tojmahal, Moskvadagi Qizil maydon, AQSHdagi Ozodlik haykali, Misr Piramidalari, Aleksandriya Mayog‘i, Parijdagi Eyfel minorasi, Samarqanddagi Registon maydoni, Xivadagi Ichanqal’a va shu kabi ko‘plab tarixiy ahamiyatga molik obyektlardir.

[11]www/ unwto.org

Xalqaro turizm rolining ko‘tarilishida Birlashgan Millatlar Tashkiloti (BMT)ning ahamiyati ortib bordi va tezkorlik bilan rivojlanib borayotgani uchun ushbu sohaga juda katta e’tibor berdi. 1963-yilda Rimda (Italiya) BMTning turizm va sayohatlar bo‘yicha I-konferensiya o‘tkazildi. Konferensiyada “Vaqtinchalik keluvchi”, “Turist”, “Ekskursant” kabi turizmdagi maxsus tushunchalarga aniqlik kiritildi. Lekin, shu kungacha xorijiy ilmiy adabiyotlarida “Turizm” tushunchasini aniqlashga turlicha yondashuvlar mavjud. Bu yondoshuvlarni turlicha belgilarga qarab bir necha guruhlarga birlashtirish mumkin[12]:

- turizm – odamlarni yo‘nalish bo‘yicha aniq obyektga tashrif buyurishi yoki maxsus qiziqishini qondirish va doimiy yashash joyiga qaytib kelishi harakatlarining alohida shaklidir;
- turizm – odamlarni harakatlanishi (joyini o‘zgartirishi), ularni doimiy yashash joyida bo‘lmasligi va qiziqqan obyektida (safarda) vaqtincha bo‘lishi;
- turizm – shaxsni uning ijtimoiy-gumanitar funksiyasi orqali (tarbiyaviy, ta’limiy, sog‘lomlashtirish va sport) amalga oshiriladigan rivojlanishi alohida shaklidir;
- turizm – dam olishni, bo‘sh vaqtni o‘tkazishning ommaviy shakli sifatida qaraladi.

Turizm hodisa sifatida dam olish deb ongimizga singib ketgan bo‘lib, boshqa narsa an’anaviy tasavvurlarga sig‘maydi. 1991-yilda Ottavada (Kanada) bo‘lib o‘tgan BTTning konferensiyada konsepsiya sifatida talablar yo‘nalishi tanlandi va **“**Turizm – odatdagi muhitdan tashqarida dam olish, ishga aloqador va boshqa maqsadlarda bir yildan ko‘p bo‘lmagan davrda bo‘lgan sayohat va joylarda bo‘lishni amalga oshirgan shaxs faoliyati” -deb ta’rif berildi[13].

Shu jumladan, konferensiyada statistik hisobotlarni bir xil qilish va ularni tahlil qilish, turizm rivojlanishi istiqbolini belgilash,

[12] X.M. Mamatqulov va bosh. Xalqaro turizm. Darslik. –T.: O’zbekiston faylasuflari milliy jamiyati, 2009. -5 b.
[13] X.M. Mamatqulov va bosh. Xalqaro turizm. Darslik. –T.: O’zbekiston faylasuflari milliy jamiyati, 2009. -5 b.

chegaralarda turistlarni chiqarish va kiritishning rasmiyatchilik tartib-qoidalarini soddalashtirish ko‘rib chiqildi.

Yuqorida ko‘rib o‘tilgan omillardan xulosa qilib oladigan bo‘lsak, bizning fikrimizcha “Turizm davlatlar iqtisodiyotini mustahkamlovchi, xalqaro aloqalarni rivojlantiruvchi, kishilarning ma’naviy va ijtimoiy ahvolini yaxshilovchi tarmoqdir” – desak xato bo‘lmaydi.

Shundan kelib chiqqan holda xalqaro turizm bugungi kunda, jahon YaIMning 10%ni, umumiy eksportning 7%ni, xizmatlar eksportining 30%ni, har 10ta ish o‘rnining bittasini tashkil etmoqda edi[14]. Jahonda kutilmaganda yuzaga kelgan pandemiya ta’sirida 2019-yilga nisbatan olganda 2020-yilda ichki turistlarning xarajatlari 45%ga, xorijlik turistlarniki 69,4%ga kamayishi natijasida sohada 62 mln.ta ish o‘rni yo‘qotilgan bo‘lib, jahon YaIMdagi ulushi 5,5 %ni tashkil etgan[15]. Pandemiyadan oldingi vaqtda jahon iqtisodiyotini turizmsiz tasavvur qilish mumkin emas edi. Pandemiyadan oldingi turizmning makroiqtisodiy ko‘rsatkichlariga to‘xtaladigan bo‘lsak, turistlar soni 2015-yilda 1,196 mln., 2016-yilda 1,241 mln., 2017-yilda 1,329 mln., 2018-yilda 1,408 mln., 2019-yilda 1,462 mln. dan ortiqni tashkil etgan holda yillik o‘sish 3,8% bo‘ldi[16]. 2020-yilda boshlangan pandemiya jahon turizmini chuqur inqirozga tushirib qo‘ydi. Bu inqiroz mutaxassislarning xulosalariga ko‘ra 2019-yilgi ko‘rsatkichlarga 2026-yilda chiqishi aytilmoqda.

5.2. Turizm xizmatlarining jahon eksporti

Xalqaro turizm bugungi kunda jahon eksportining 7%ni, xizmatlar eksportining 30%ni tashkil etmoqda. Turistlarga ko‘rsatilgan xizmatlardan kelayotgan tushumlar ham mutassil ravishda o‘sib bormoqda, bu ko‘rsatkich 2015-yilda 1,221 mlrd., 2016-yilda 1,245

[14] www. unwto.
[15] https://wttc.org.
[16] UNWTO. International Tourism Highlights. 2019 Edition.

mlrd., 2017-yilda 1,346 mlrd., 2018-yilda 1,454 mlrd., 2019-yilda 1,480 mlrd. AQSH dollari miqdorida bo‘lib, o‘rtacha yilik o‘sish sur’ati 2,8 %ni tashkil etgan[17].



5.2.1-rasm. Jahon turizmining makroiqtisodiy ko‘rsatkichlari[18].

Bundan ko‘rinib turibdiki turistlar sonining o‘rtacha o‘sishi, xizmat ko‘rsatishdan tushayotgan daromadning o‘rtacha o‘sishidan yuqori, bu narsa shundan dalolat beradiki, turistik xizmatlar soni ortib borishi natijasida jahon turizm bozorida kuchli raqobat yuzaga kelgan. Bu raqobat mintaqalar va mamlakatlar o‘rtasida raqobatbardosh infratuzilmani shakllantirishga olib kelmoqda.

Jahon turizmining rivojlanish tendensiyalarini to‘laroq tahlil qilish uchun turisik resurslardan foydalanish imkoniyatlari darajasi qanday ekanligini mintaqalar misolida o‘rganib chiqsak, yutuqlar negizida nimalar borligi haqida to‘laroq tasavvurga ega bo‘lamiz (5.2.1-jadval).

[17] UNWTO. International Tourism Highlights. 2019 Edition.
[18] World Tourism Organization (UNWTO) йиллик статистик маълумотлари асосида тузиб чиқилган.

5.2.1-jadval

Mintaqalarning turistlarni qabul qilish ko‘rsatkichlari[19]

Mintaqalar nomi	Yillar bo‘yicha turistlar soni mln. kishi hisobida						Yillik o‘sish %da	
	2010	2015	2016	2017	2018	2019	18/17	19/ 18
Yevropa	486,4	605,1	619,5	673,3	710,0	744,3	5,5	4,0
Osiyo-Tinch okeani	208,2	284,1	306,0	324,0	347,7	360,6	7,3	3,7
Amerika	150,4	194,1	201,3	210,8	215,9	220,2	2,3	2,0
Afrika	50,4	53,6	57,7	62,7	67,1	73,2	7,0	8,9
Yaqin Sharq	56,1	58,1	55,6	57,7	60,1	64,2	4,8	6,1

Jahon turizmida turistlar harakatiga nazar tashlaydigan bo‘lsak, bu borada Yevropa mintaqasi 2010-yilda 486,4 mln., 2015-yilda 605,1 mln., 2016-yilda 619,5 mln., 2017-yilda 673,3 mln., 2018-yilda 710,0 mln., 2019-yilda 744,3 mln.dan ortiq turistlarni qabul qilib, yilik o‘sish 4,0%ni tashkil qilgan holda yaqqol ustunlikka erishmoqda.

Bu ko‘rsatkich mos ravishda Osiyo va Tinch okeani mintaqasida 2010-yilda 208,2 mln., 2015-yilda 284,1 mln., 2016-yilda 306,0 mln., 2017-yilda 324,0 mln., 2018-yilda 347,7 mln., 2019-yilda 360,6 mln. bo‘lgan holda yillik 3,7% o‘sishga erishilmoqda. Rivojlanish ko‘rsatkichlari yuqoriligi bilan Amerika mintaqasida ham yillar bo‘yicha mos ravishda 2010-yilda 150,4 mln., 2015-yilda 194.1 mln., 2016-yilda 201,3 mln., 2017-yilda 210,8 mln., 2018-yilda 215,9 mln., 2019-yilda 220,2 mln.dan ortiq turistlarga xizmat ko‘rsatilgan bo‘lib, yillik o‘sish 2,0%ni tashkil etgan. Afrika mintaqasida ham yillar bo‘yicha mos ravishda 2010-yilda 50,4 mln., 2015-yilda 53,6 mln., 2016-yilda 57,7 mln., 2017-yilda 62,7 mln., 2018-yilda 67,1 mln.,

[19] World Tourism Organization (UNWTO) yillik statistika ma’lumotlari asosida tuzib chiqilgan.

2019-yilda 73,2 mln.dan ortiq turistlarga xizmat ko‘rsatilgan bo‘lib, yillik o‘sish 8,9%ni tashkil qilgan[20].

Yaqin Sharq mintaqasidagi siyosiy beqarorliklarga qarmasdan turizm rivojlanishi so‘nggi yillarda barqarorlashib borayotganligini ko‘rishimiz mumkin. Bu mintaqaga 2010-yilda 56,1 mln., 2015-yilda 58,1 mln., 2016-yilda 55,6 mln., 2017-yilda 57,7 mln., 2018-yilda 60,1 mln., 2019-yilda 64,2 mln.dan ortiq turistlarga xizmat ko‘rsatilgan bo‘lib, yillik o‘sish 6,1%ni tashkil qilgan.

5.2.2-jadval

Mintaqalarda turistlarga ko‘rsatilayotgan xizmatlardan olinayotgan daromadlar ko‘rsatkichlari[21]

Mintaqalar nomi	**Yillar bo‘yicha olinayotgan daromadlar mlrd. AQSH dol. hisobida***					**O‘rtacha yillik o‘sish %da**
	2015	2016	2017	2018	2019	
Yevropa	468,0	468,1	519,5	570,5	574,2	2,4
Osiyo va Tinch okeani	355,6	370,8	396,0	435,5	443,8	3,2
Amerika	307,3	313,7	325,8	338,0	342,6	1,3
Afrika	32,2	33,0	36,4	38,4	39,1	2,0
Yaqin Sharq	58,0	59,0	68,4	72,8	80,0	4,0

*mahalliy valyutalarda va domiy narxlarda hisoblangan.

Yuqorida qilingan 5.2.2-jadvaldagi berilgan ma’lumotlar bo‘yicha yanada kengroq tushunchaga ega bo‘lish uchun quyidagi 5.2.2-rasmni keltirib o‘tishni maqsadga muvofiq deb bilamiz.

XX asrning so‘nggi o‘n yilligida xalqaro turizm eng yuqori texnologiyalar asosida rivojlanib borayotgan yaxlit bir infratuzilmaga aylandi. Bu davrda jahon iqtisodiyotiga katta ta’sir o‘tkazadigan yirik xalqaro Transmilliy kompaniyalar (TMK), mehmonxonalar zanjiri, zamonaviy ovqatlanish korxonalari, yirik ko‘ngil ochar obyektlar

[20] UNWTO. International Tourism Highlights. 2019 Edition.
[21] World Tourism Organization (UNWTO) yillik statistika ma’lumotlari asosida tuzib chiqilgan.

infratuzilmasining paydo bo‘lishi turizmni rivojlantirishga juda qulay shart-sharoitlarni tug‘dirdi.



5.2.2-rasm. Xalqaro turizmda turistik mintaqalarning 2019-yildagi ko‘rsatkichlari[22].

Umuman olganda, XX asrning 90-yillarida xalqaro turizm bozori rivojlanishi biroz susayib, uning o‘sish sur’ati o‘rtacha 4 foiz atrofida kuzatildi. Xalqaro turizmning rivojlanishiga ta’sir ko‘rsatuvchi salbiy omillardan biri terrorizm va eksteremizm bo‘lib qolmoqda. Bu omillar oxirgi yillarda ayniqsa turistlar harakatiga katta xavf solmoqda.

Bu kabi salbiy omillarga qaramasdan turizm rivojlanishda bir qator yutuqlarga erishmoqda. Misol uchun XXI asrda kosmik turizmni rivojlantirish, sayyohlarni kosmosda sayr qildirish va shu bilan bir

[22] UNWTO. International Tourism Highlights. 2019 Edition ma’lumotlari asosida jamlangan.

qatorda Yangi turistik yo‘nalishlar ishlab chiqish asosiy yo‘nalishlardan biriga aylanmoqda. Dunyoda birinchi bo‘lib 2010-yilda rossiyalik turoperatorlar tomonidan kosmosga turistlar olib chiqildi va muvaffaqiyatli amalga oshirildi. Bu yo‘nalishda hozirda dunyoning yetakchi davlatlarida bir qator dasturlar ishlab chiqilishi boshlab yuborildi. Ular kelajakda turizmni kosmoslararo rivoj-lantirishni maqsad qilib olishmoqda.

Hatto keyingi o‘n yillikda shu narsa namoyon bo‘layaptiki, ba’zi mamlakatlarda turizmga moslashtirilgan maxsus hududlar (regionlar) tashkil qilinmoqda. Bularning asosiylari tog‘li hududlarda, dengiz qirg‘oqlarida, tabiati go‘zal joylarda tashkil etilmoqda. Bu esa yo‘nalishlar geografiyasini kengaytirish bilan birga infratuzilmaning takomillashuviga olib kelmoqda.

5.3. Turizm sohasida jahon kapital qo‘yilmalari

Iqtisodiyotning turli sohalariga shu singari turizmga qo‘yilgan xorijiy investitsiyalarning qanchalik samarali bo‘lishi va qo‘yilgan maqsadlarga erishishi ko‘p jihatdan investitsiyalash loyihalarini to‘g‘ri baholash va tahlil etishga bog‘liq bo‘ladi. Bizga ma’lumki, “investitsiyalar loyihasi” tushunchasi ikki ma’noda qo‘llaniladi:

Birinchidan, turizmda investitsiyalar loyihasiga aniq maqsadga erishishni ta’minlovchi tadbirlar majmuasini amalga oshirishga mo‘ljallangan hujjat sifatida qaralsa, ikkinchidan, ma’lum bir faoliyatni tasvirlab beruvchi tashkiliy-huquqiy va moliyaviy hisob-kitob tarzdagi hujjatlar tizimi sifatida qaraladi. Bizning fikrimizcha, investitsiyalar loyihasi, bu investitsiyalash mo‘ljallanayotgan obyektning to‘liq tasvirini ifodalovchi tashkiliy-huquqiy va moliyaviy hisob-kitob hujjatlarining majmuasidir. Loyihalarni ishlab chiqish va amalga oshirish jarayonini quyidagi bosqichlarga bo‘lish mumkin:

- investitsiyalash imkoniyatlarini izlash;
- investitsiyalash g‘oyalarining shakllanishi;
- loyihani texnik-iqtisodiy asoslash;

- shartnoma hujjatlarini tayyorlash;
- loyiha chizmalarini tayyorlash va smetalarni tuzish;
- qurilish montaj ishlari;
- obyektni foydalanishga topshirish, iqtisodiy ko‘rsatkichlar monitoring.

Bozor iqtisodiyotiga o‘tish sharoitida byudjetdan investitsiyalarni moliyalashtirish hajmi kamayib, investitsiyalar ko‘proq turli mulk shaklidagi xo‘jalik subyektlarining mablag‘lari va xorijiy portfel investitsiyalar hisobiga amalga oshiriladi. Shunday ekan, bu investorlarning bosh maqsadi foyda yoki daromad olish va umuman samaraga erishishdan iboratdir. Shuning uchun ham turizmda investitsiyalarni safarbar etish loyihalarini ishlab chiqishning har bir bosqichi har tomonlama saviyali tarzda tuzilishi zarur.

Taylandda har qanday investor o‘z kapitalini biror loyihani amalga oshirish uchun qo‘yishdan oldin, eng avvalo, shu loyiha bo‘yicha ishlab chiqarish mo‘ljallangan mahsulotga ichki va tashqi bozorlardagi talab va taklifni o‘rganib chiqadi. Shundan so‘ng investitsiyalarning samaradorligi aniqlanadi. Shuning uchun ham loyihani ishlab chiqishda va samaradorligini aniqlashda, quyidagilarga e’tibor beriladi:

1. Turizmda keng doirada marketing izlanishlarni olib borish, ya’ni bozordagi talab va taklifni, bozor segmentatsiyasini, narxlarni, asosiy raqobatchilarni, mahsulotning kelgusidagi istiqbolini, mahsulotning eksporti va importini chuqur o‘rganib chiqish.
2. Turizmda loyihaning ijtimoiy-ekologik natijalarini baholash, ya’ni loyihani amalga oshirish natijasida ma’lum hudud aholisining ijtimoiy ahvolining o‘zgarishi va atrof-muhitga ta’siri, tabiatni muhofaza qilish bo‘yicha chora-tadbirlarni hisoblash.
3. Bozor iqtisodiyoti sharoitida turizmda investitsiyalar loyiha-larini iqtisodiy-ijtimoiy-ekologik samaradorligini baholash to‘g‘risida qaror va tavsifnomalar ishlab chiqish.

4. Turizmda investitsiya loyihalarini baholashda noaniq omillarning yuzaga kelishi va investitsiyalash xavf-xatarlar darajasini pasaytirish bo‘yicha chora-tadbirlarni loyihada hisobga olish.

Investitsiya loyihalarini tahlil qilish jarayonida noaniq omillarga alohida e’tibor qaratiladi.

Turizmda noaniq omillar – bu loyihani amalga oshirish jarayonida noqulay holatlarning va oqibatlarning vujudga kelishi bilan bog‘liq omillardir.

Turizmda loyihani baholash jarayonida quyidagicha noaniqliklar va investitsiya xavf-xatarlari yuzaga kelishi mumkin[23]:

- iqtisodiy noqonuniyatlar va joriy iqtisodiy holatlarning, investitsiyalash va foydani ishlatilishi sharoitlarining barqaror bo‘lmasligi bilan bog‘liq omillar;
- tashqi iqtisodiy xavf-xatarlar, eksport va importni cheklab qo‘yish, chegarani yopib qo‘yish va hokazolar.
- siyosiy holatlardagi noaniqliklar, respublikada yoki hududda ijtimoiy-siyosiy ahvolining o‘zgarishi;
- bozor konyuturasining va valyuta kursining o‘zgaruvchanligi oqibatidagi xavf-xatarlar;
- turli tabiiy ofatlarning ro‘y berishi;
- investorlarning maqsadi va manfaatining aniq bo‘lmasligi;
- texnik-iqtisodiy ko‘rsatkichlarning, Yangi texnika va texnologiyalarning parametrlari to‘g‘risidagi ma’lumotlarning noto‘g‘ri bo‘lishi;
- investorlarning ish qobiliyati va moliyaviy holati to‘g‘risidagi ma’lumotlarning noto‘g‘ri va noaniq berilishi kabilar.

Bu omillarning va xavf-xatarlarning darajasini kamaytirish va investorlarning manfaatini himoya qilish maqsadida maxsus tadbirlarni ishlab chiqish zarur bo‘ladi. Bunday loyihada barqarorlashtirish tadbirlarini qo‘llash ham qo‘shimcha xarajatlarni keltirib chiqaradi. Bu xarajatlar ham loyihaning samaradorligini baholashda hisobga olinishi

[23] wwwF cont.org – 56.

zarur.

Turizm amaliyotida investitsion loyihalarning samaradorligini baholashda quyidagi ko‘rsatkichlardan foydalaniladi:

1. Loyihalarning moliyaviy samaradorligi ko‘rsatkichlari.
2. Byudjed samaradorligi ko‘rsatkichlari.
3. Iqtisodiy samaradorlik ko‘rsatkichlari.

Moliyaviy samaradorlik ko‘rsatkichlari ko‘pgina davlatlarda tijorat samaradorligi ko‘rsatkichlari deb ham yuritiladi, u olingan natijaning jami moliyaviy xarajatlarga bo‘lgan nisbati bilan ifodalanadi.

Turizm amaliyotida investitsiya loyihalarining iqtisodiy samaradorligini baholashning statistik, ekspert va kombinatsiyalashgan usullari mavjuddir.

Statistik usulida verkatsiya ko‘rsatkichlari yordamida, asosan, amalda faoliyat ko‘rsatayotgan korxonalarni investitsiyalashga baho beriladi. Bu usulda investitsiyalanishi mo‘ljallangan korxona yoki firmaning qator yillardagi iqtisodiy foydaliligi hisoblanadi va tahlil qilinadi. Ammo bu usul investitsiyalanadigan obyekt faoliyati to‘g‘risida ko‘p ma’lumotlarning bo‘lishini talab qiladi. Bu kabi ma’lumotlarni to‘plash va tahlil etish investor uchun juda qimmatga tushishi mumkin.

Investitsiya loyihalarining samaradorligini baholashning ekspert usuli deganda tajribali tadbirkor va mutaxassislarning fikriga asoslangan holda loyihalarni tahlil etish tushiniladi.

Bunda loyihaning barcha ma’lumotlari anketa tarzida tarqatilib, har bir mutaxassisning fikri va xulosasi inobatga olinadi. Bunday sharoitda bu usulning samarasi investitsiya loyihasidan tuzilgan anketa savollari qanchalik ilmiy asosda saviyali tuzilganiga bog‘liq bo‘ladi. Aksariyat hollarda ekspert usulidan foydalanish maqsadga muvofiqdir. Chunki bir nechta mutaxassislarning fikrini jamlab investitsiya samaradorligini yoki investitsiya xavf-xatarlarni baholash, tanlov asosida investorlarni aniqlab olish imkoniyatini beradi. Buning uchun,

bizning fikrimizcha, investitsiya loyihasi ma’lumotlari matbuotda, ya’ni gazeta va jurnallarda chop etilib, bu loyihaning samaradorligini baholash bo‘yicha tanlov e’lon qilish va g‘oliblar taqdirlanishlari zarur.

Inflyatsiyaning mavjudligi investitsiyalash loyihalarini ishlab chiqish, ularni amalga oshirish jarayoniga ham, ularning samaradorligini baholashga ham salbiy ta’sir etadi. Inflyatsiyaning mavjudligi loyiha ko‘rsatkichlariga qiymat ko‘rinishidagina emas, balki moddiy resurs ko‘rinishida ham ta’sir etadi. Boshqacha so‘z bilan aytganda, Inflyatsiya faqatgina loyihaning moliyaviy natijalarini qayta baholashga emas, balki loyihani amalga oshirish bilan birga istiqbolli bozorlarda hisob-kitoblar qilish Inflyatsiyaning maksimum ta’sirini hisobga olish imkoniyatini beradi.

Shu maqsadda turizmda investitsiyalar loyihalari samaradorligini baholashda quyidagi ko‘rsatkichlar bo‘yicha dinamika ko‘rsat-kichlarini, xususan, uning o‘sish sur’tini hisoblanadi:

1)milliy valyuta kursining xorijiy valyutaga nisbatan pasayishi yoki o‘sishi sur’ati;

2)narxlarning umumiy darajasi;

3)ichki va tashqi bozor uchun ishlab chiqarilgan mahsulot narxining darajasi;

4)ishlatiladigan resurslar va texnologiyalar narxining o‘sishi sur’ati;

5)to‘g‘ri xarajatlarning o‘sish sur’ati;

6)ish haqi xarajatlari darajasi;

7)umumiy va ma’muriy xarajatlar dinamikasi;

8)mahsulot ishlab chiqarishni tashkil etish xarajatlari hollari;

9)bank foizlarining o‘zgarish sur’ati.

Turizmda investitsiya loyihalarini baholash va investitsiyalashni amalga oshirish iqtisodiy jihatdan barqaror qulayliklarga egadir. Bu qulayliklar Inflyatsiyaning loyihalarga bo‘lgan ta’sirining mo‘tadillik darajasida bozor infrastrukturasining samarali faoliyatida,

telekommunikatsiya sohasida so‘nggi ma’lumotlardan foydalanish imkoniyatlarning kengligi va erkinligi kabilarda namoyon bo‘ladi. Agar, O‘zbekiston sharoitida telekommunikatsiya sohasining endigina rivojlanib kelayotganligini, so‘nggi ma’lumotlardan foydalanish imkoniyatining cheklanganligi, statistik ma’lumotlarning qayta ishlash va chop etilish jarayonining kechiktirilib amalga oshirilishini, bozor infrastrukturasining endigina shakllanib kelayotgani, moliya bozorining dastlabki bosqichdagina faoliyat yuritayotganligi, milliy valyutaning qadrini nisbatan pastligi, ish haqi va narx o‘rtasidagi tafovutning mavjudligi va umuman narx siyosatida barqarorlikning sustligi kabi muammolarning mavjudligini hisobga olsak, investitsiya loyihalarini tuzish, baholash va amalga oshirish jarayoni o‘ta murakkab va mas’uliyatli faoliyat ekanligini guvohi bo‘lamiz.

5.4. Turizm xizmatlari bozorini rivojlantirish omillari

Turizm xizmatlari bozori rivojlantirishga bir qator omillar yetakchi ta’sirini o‘tkazadi. Bu omillardan quyidagilarni ko‘rib chiqishni maqsadga muvofiq deb bilamiz.

Geografik omillar. Kishilar tabiat qo‘yniga chiqib, juda ko‘p manzarali joylarni ko‘rish va ulardan bahramand bo‘lishga intiladi. Sayyohlik, dam olish uchun tabiiy sharoitning xilma-xilligi darajasi va xususiyati muhim ahamiyatga ega. Ya’ni ma’lum bir hududning yer usti ko‘rinish manzarasi (landshafti), iqlimi, o‘simlik va hayvonat dunyosi xilma-xilligi kishilarning dam olishi, o‘z salomatligini tiklashi uchun asosiy vositalardan biri bo‘lib hisoblanadi[24].

[24] X.M. Mamatqulov va bosh. Xalqaro turizm. Darslik. –T.: Ozbekiston faylasuflari milliy jamiyati, 2009. -17 b.



5.4.1-rasm. Turizm infratuzilmasi rivojlanishiga ta’sir etuvchi geografik omillar piramidasi[25].

Turizm xizmatlarini ko‘rsatishda va ishlab chiqishda mintaqa va mamlaktalarning qulay geografik joylashuvi omillari yetakchi rol o‘ynaydi.

Masalan, sayyohlik firmalari ekzotik, betakror tabiiy obyektlarni ko‘proq reklama qiladi. Ayniqsa Osiyo, Afrika, Markaziy va Janubiy Amerika, Avstraliya va Okeaniya kabi mamlakatlar o‘zining diqqatga sazavor tabiiy ekzotikalari bilan Yevropa va Shimoliy Amrikalik sayyohlarni o‘ziga jalb qiladi. Kolumbiyada “Kolumbiya Qushlari” nomi bilan ataladigan noyob sayyohlik turi, “Pan American” aviakompaniyasining 24 kunlik Avstraliya va Yangi Zelandiyaga qimmatbaho toshlar va minerallarni topish uchun sayohat uyushtirishi mamlakat turizmi infratuzilmasini muvofiqlashtirish va shakllantirilishiga olib keldi.

Ayrim mamlakatlarda turizm xizmatlarini rivojlantirishda mamlakat va hududning geografik o‘rni ya’ni uning dengiz va okeanga yaqinligi, qirg‘oq chiziqlarining xususiyati, turli xil suv, avtomobil va temir yo‘llar bilan kesishish joyi, tog‘li va o‘rmon manzarali joylarga yaqinligi, ular bilan ta’minlanganlik darajasiga ham bog‘liq bo‘ladi. Jumladan, turizm infratuzilmasining rivojlanishda Ispaniya, Italiya, Fransiya, Turkiya, Misr Arab Respublikasi, Tayland, Indoneziya, Singapur, Karib havzasi mamlakatlari hududlari geografik joylanish

[25] Muallif tomonidan ishlab chiqildi.

xususiyati bilan alohida ajralib turadi. Shu bilan birga ko‘p hollarda mamlakatlar va hududlarning tabiiy iqlim sharoitiga bog‘liq bo‘ladi. Bu o‘rinda tabiiy iqlim sharoiti yetakchi o‘rinni egallaydi. Tabiiy iqlim sharoiti turizm harakatini mavsumiy xarakterga aylantiruvchi asosiy omil bo‘lib hisoblanadi. Tabiatda ob-havoning o‘zgarishi, tabiiy ofatlarning tez-tez takrorlanish hodisalari, tabiat injiqliklari turistlar oqimining keskin kamayishiga sababchi bo‘ladi. Shu sababli turizmning eng rivojlangan mintaqalari yer sharining mo‘tadil iqlim zonalariga to‘g‘ri keladi. Jumladan, O‘rtayer dengizi, Qora dengiz, Karib dengizi, Adriatika dengizi, Boltiq dengizi, Yapon dengizi, Janubiy Xitoy dengizi qirg‘oqlarida joylashgan mamlakatlarda turizm infratuzilmasi xalqaro ahamiyatga ega[26].

Dunyo okeani va dengiz qirg‘oqlari turistik xizmatlar ko‘rsatishda katta ta’sir ko‘rsatuvchi omillar bo‘lib xizmat qiladi. Ular iqtisodiy aloqalarni rivojlantirishga sayyohlik, sayr-tomoshalarni uyushtirishda, alohida o‘rinni egallaydi. Ayniqsa, Fransiya, Ispaniya, Italiya, Turkiya, Gretsiya, Misrning dengiz qirg‘oqlari, Ruminiya va Bolgariya Sharqiy qirg‘oq sohillari, AQSHda Koliforniya va Florida dengiz bo‘ylari, Bagam va Bermud orollari plyajlari bilan so‘zsiz xalqaro turizm va kurortlar maskani infratuzilmasi rivojlanishiga o‘z ta’sirini o‘tkazgan.

Okean va dengiz suvlarining cho‘milishi uchun qulay bo‘lgan qirg‘oqlari tarkibiga quyidagi elementlar kiradi. Mikroiqlim, dengiz va okean suvlarining quruqlikka tutash bo‘lgan joylarida suvning harorati, chuqurligi, suv to‘lqinlari, ko‘tarilishi, qaytishi, oqimlar, suvning shifobaxshligi, tozaligi, tiniqligi, dengiz suvi tagining relyefi, suvdagi yirtqich baliqlar (akula) va hayvonlarning bor-yo‘qligi h.k., qirg‘oq chiziqlarining tuzilishi, plyajlardagi qumlar va yotqiziqlarning sifati, rangi, shakllari va qolaversa bir qator omillar ta’sir etadi.

Daryo va ko‘llar ham turizm resursi yoki boyligi bo‘lib xizmat qiladi. Ular yer usti landshaftlarini yasatadi, mikroiqlim sharotini hosil

[26] X.M. Mamatqulov va bosh. Xalqaro turizm. Darslik. –T.: Ozbekiston faylasuflari milliy jamiyati, 2009. -18 b.

qiladi, turistlar uchun baliq ovlash, suv sporti bilan shug‘ullanish, turistik markazlar, kurort maskanlarini toza ichimlik suvi bilan ta’minlash uchun xizmat qiladi. Hozirgi kunda Avstriya, Shvetsariya, Buyuk Britaniya, Vengriya, Polsha, Rossiya, Fillandiya, Kanada, AQSH kabi mamlakatlardagi daryo va ko‘l suv havzalari turizmning eng rivoj topgan turlari bo‘lib hisoblanadi[27]. Ammo, keyingi yillarda G‘arbiy Yevropadagi Reyn daryosi suvi haddan tashqari ekologik jihatdan ifloslanib ketish natijasida, u turizm va dam olishda oldingi o‘z o‘rni va mavqeini yo‘qotmoqda edi, lekin Germaniya hukumatining o‘z vaqtida ko‘rgan chora-tadbirlari natijasida bu yerda hozir tabiat qayta tiklanib, turistlarning haraktlari yana jonlanmoqda.

Davlatlarning turizmni rivojlantirishda o‘rmon boyliklarining roli ham anchagina. U turistlarning dam olishida, hissiyotini (emotsiyasini) muvozanatlantirishda, lirik shart-sharoitlarni vujudga keltirishda, “tashqi dunyo”dan ajralgan holda, qisqa vaqtlarda yashashida muhim rol o‘ynaydi. Bu borada Rossiya, Kanada, AQSH, Braziliya, Kolumbiya, Venesuella, Chili mamlakatlarida bir qator ishlar amalga oshirilgan. O‘rmonlar toza havoni ishlab chiqaruvchi asosiy manba bo‘lib, salomatlikni qayta tiklovchi maskan, kurort hududlarida shovqinni qaytaruvchi asosiy vositalardan hisoblanadi.

Xorijiy sayyohlarni o‘ziga ko‘proq jalb qiluvchi omillardan yana biri, bu ekzotik (g‘alati, ajoyib) hayvonlar yashaydigan joylar qo‘riqxonalar, davlat buyurtmalari, milliy bog‘lar, ov qilish uchun ajratilgan maxsus hududlardir. Bunday hayvonat va o‘simlik dunyosining markazlari yuzdan ortiq bo‘lib, Afrika, Osiyo, Yevropa, Avstraliya, Amerika (AQSH, Kanada) ning sayohat qilish mintaqalari va hududlari hisoblanadi.

Ko‘pgina xorijiy turistlarni o‘ziga jalb qiladigan omillardan biri, bu shifobaxsh mineral suvlar bo‘lib hisoblanadi. Uning asosiy maskanlariga Germaniya, Rossiya, Gruziya, Vengriya, Slovakiya, Chexiya, Polsha, Ukraina kabi bir qator mamlakatlar misol bo‘ladi.

[27] X.M. Mamatqulov va bosh. Xalqaro turizm. Darslik. –T.: Ozbekiston faylasuflari milliy jamiyati, 2009. -18 b.

Xorijiy turistlarning tog‘ sharoitidagi sport turlari alpinizm (Alp, Kordilera, Himolay tog‘lari h.k.), chang‘i sporti (Skandinaviya, Alp, Tatra tog‘lari) suv ustida chang‘ida suzish, suv ostida suzishlar turlari borgan sari rivojlanib bormoqda. Germaniya, Fransiya, Italiya, Belgiya, Shvetsiya, Buyuk Britaniya, Gretsiya hamda AQSH mamlakatlarida xorijiy sayyohlar sport ovlari, baliq ovlashlarda keng ko‘lamda ishtirok etmoqdalar.

Iqtisodiy geografik omillarga turizmning moddiy texnika bazasi, ya’ni mehmonxonalar fondi, umumiy ovqatlanish korxonalari (restoran tarmoqlari), sport inshootlari, tomosha va sayr qilish, dam olish, bir qator servis xizmati ko‘rsatish obyektlari ichki va tashqi kommunikatsiya tarmoqlari avtomobil, temiryo‘l, havo yo‘llari, dengiz va daryo transporti, aloqa vositalari, internet tarmog‘i kiradi. Turizm infratuzilmasining jadal rivojlanishiga yangi temir yo‘llar, avtomobil trassalari, dengiz, daryo, havo transportlari, zamonaviy turistik avtobuslar, yengil avtomobillar, shu jumladan yotib uxlaydigan komfortabelli avtomobil tirkagichlar, mototsikllar, motorollerlar, yangi dengiz va daryo passajir kemalari, teploxodlar, tez uchar reaktiv havo laynerlari h.k. bularning hammasi katta imkoniyatlar tug‘diradi.

Iqtisodiy omillar. Turizm rivojlanishiga makroiqtisodiy omillar bilan bir qatorda mikroiqtisodiy omillar ham katta ta’sir ko‘rsatadi. Makroiqtisodiy barqarorsizlik, ishsizlik darajasini o‘sishi, pulning qadrsizlanishi kabilar jamiyatni qo‘zg‘atadi va bezovta qiladi. Ayrim hollarda esa kishilar ishdan ta’tilga chiqqanlarida o‘z uyida qolib, hech qayoqqa sayohatga bormasdan o‘tirishga to‘g‘ri keladi. Qachonki, biror mamlakatning iqtisodiyoti yuksalishda bo‘lsa, ishlab chiqarish imkoniyatlari yuqori, ya’ni valyutalar miqdorining ortib borishi bilan belgilanadi. Qaysi bir mamlakatda turizmdan keladigan foyda YaIMda salmog‘i yuqori bo‘lgan taqdirda investitsiyalar ya’ni infratuzilmasini rivojlantirishga sarf etiladi. Shu bilan birga milliy daromadini o‘sishi, ayniqsa aholi shaxsiy ehtiyoji qobiliyatini qondirishga qaratilgan xarajatlarning o‘sishi darajasi, ularning sayyohlikka bo‘lgan qiziqishini

uyg‘otadi. Kishilarning dam olishida turistik mahsulotlar va turistik tovarlar bahosi eng muhim omillardan biri bo‘lib hisoblanadi. Ayniqsa, turizmni moliyalashtirishda valyuta kursi muhim rol o‘ynaydi. Valyuta almashtirishning soddaligi, uning osonligi kabilar[28]. Masalan, 2002-yil 1-yanvardan boshlab, Yevaropa hududidagi davlatlarda “Yevro”ning muomalaga kiritilgani (19ta davlatda), hududdagi sayyohlar uchun yagona valyutaga va 26ta davlatning yagona viza sistemasiga (Shengen kelishuviga asosan) o‘tilishi va Yevropa Ittifoqi (Buyuk Britaniya 2020-yil 1 yanvardan boshlab YeIni tark etgandan keyin 27ta davlat) davlatlari o‘zaro iqtisodiy-ijtimoiy aloqalari misol bo‘la oladi.

Savdo aloqalari. Xorijiy mamlakatlarda sayohatga boradigan turistlar, odatda, o‘sha yerda nimalarni xarid qilishi qiziqtiradi. Bu noyob, mahalliy hunarmandchlik mahsulotlarini, suvenerlarni, qarindosh-urug‘lari, oila a’zolari uchun xarid qilishidir. Bunday suvenyerlar, sovg‘alar odatda sayyohlar gavjum joylarda supermarketlarda, do‘konlarda sotiladi.

Turizm rivojlangan bir qator mamlakatlarda xorijiy davlatlardan keladigan sayyohlarning talab va ehtiyojlarini hisobga olgan holda sanoat eksportini rivojlantiradi. Hozirgi kunda Birlashgan Arab Amirligi (BAA), Gretsiya, Italiya, Singapur, Hindiston, Xitoy, Janubiy Koreya kabi mamlakatlar xorijiy turistlarga uzoq muddatli foydalaniladigan tovarlarini (kiyim-kechaklar, zargarlik taqinchoqlari, ro‘zg‘or buyumlari, elektornika, radio, telefon, televizor, videotexnika asboblar) sotishga kirishganlar.

Siyosiy omillar. Siyosiy omillarga kelganda turistlarni qabul qilib oluvchi va turistlarni jo‘natuvchi mamlakatlarda muhim turistik marshrutlar yo‘nalishidagi hududlarda, mintaqalarda siyosiy vaziyatning holatiga ham bog‘liq bo‘ladi.

Ma’lumki, mamlakatdagi ichki vaziyatning qay darajada turg‘unligi ko‘p hollarda xalqaro turizm oqimining yo‘nalishini

[28] X.M. Mamatqulov va bosh. Xalqaro turizm. Darslik. –T.: Ozbekiston faylasuflari milliy jamiyati, 2009. -20 b.

belgilaydi. Tabiiyki, davlatlararo turistlarni almashtirishda, mamlakatlar o‘rtasidagi o‘zaro kelishuvchilik munosabatlari ham muhim ahamiyatga ega bo‘ladi. Odatdagi diplomatik aloqalar, turizm sohasidagi kelishuvlar, shartnomalar, kommunikatsiyalar va transport vositalaridan hamkorlikda foydalanish, turistik reklamalarni bir-birlari bilan almashtirish, bularning hammasi turizmning rivojiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi.

Ijtimoiy-demografik omillar**.** Dunyo mamlakatlarida demografik jarayonlar (aholining tug‘ilishi, o‘limi, tabiiy ko‘payishi, aholi migratsiyasi kabilar) ham xalqaro turizm sohasining rivojlanishiga o‘z ta’sirini ko‘rsatadi[29]. Yer sharining turli davlatlarida, hududlarida va mintaqalarida aholi sonining ko‘payib borishi, ayniqsa shahar aholisi aglomeratsiya doirasining borgan sari kengayib borishi kishilarning dam olishi va sayyohlikka chiqishni taqazo qiladi. Shu borada turizmning rivojlanishiga ta’sir etuvchi demografik omillarni quyidagicha ifodalash mumkin: dunyo xalqlarining bir-biriga o‘xshashligining umumiy tomonlari, ularning qiziqishlari; ayrim malakaviy sohalardagi kishilarning maxsus sayyohlik guruhda faol ishtirok etishning kuchayib borishi; turistlar tarkibidagi xotin-qizlar va yoshlar salmog‘ining ortib borishi; xalqaro ahamiyatga ega bo‘lgan kurort va sanatoriyalar tarmog‘ining ko‘payib borishi, ularda davolanishga moyil bo‘lgan kasallar sonining ortib borishi; kishilarning atrof-muhitga bo‘lgan qarashlari, tushunchalari va munosabatlarning o‘zgarib borishi h.k. juda katta rol o‘ynaydi.

Sayohat xavfsizligi. Turizmning rivoji bilan sayyohlarning xavfsizligini ta’minlash borgan sari muhim va zaruriy masala bo‘lib qolmoqda. Hozirgi kunda turizm sohasida sayyohlarni jo‘natuvchi va qabul qilib oluvchi har bir mamlakat uchun sayyohlarning dam olish paytlarida, transport harakati yo‘nalishlarida ularning xavfsizligini ta’minlash chora-tadbirlari har bir mamlakat uchun oddiy, odatdagi hayotiy holda bo‘lmog‘i zarur. Xalqaro kelishilmovchiliklar yoki

[29] X.M. Mamatqulov va bosh. Xalqaro turizm. Darslik. –T.: Ozbekiston faylasuflari milliy jamiyati, 2009. -21 b.

harbiy xatti-harakatlar, xalqaro jinoyatchilik, terrorizm voqea va hodisalari xalqaro turizm oqimiga nafaqat to‘sqinlik qiladi, balki uning rivojiga juda katta zarba beradi. Bu to‘g‘rida xalqaro turizmning asosiy generatori (boshlovchisi) bo‘lgan har bir mamlakatning tashqi ishlar vazirligi o‘zlarining fuqarolari sayohatga boradigan mamlakatlardagi noxush voqea va hodisalar to‘g‘risida xabardor qilib borishi lozim. Sayyohlarni sayohatga boradigan mamlaktalardagi noxush voqea va hodisalar to‘g‘risida xabardor qilib borishi lozim. Sayyohlar sayohatga boradigan mamlakatdagi mehmonxonalar, ovqatlanish korxonalarining sanitariya-gigienik holati, shu jumladan ichimlik suvi to‘g‘risida obyektiv ma’lumotlarini, yuqumli infeksion kasalliklar kelib chiqishi xavf-xatari to‘g‘risidagi zururiy ma’lumotlar bilan oldindan xabardor bo‘lishi kerak[30].

Ilmiy–texnika taraqqiyoti (innovatsiyalar). Fan-texnika yutuqlari turizm industriyasi va mehmondo‘stlikda, yo‘lovchilar tashishda, axborotlar almashish sohalarida keng ko‘lamda foydalanilmoqda. Havo trasportida Yangi zamonaviy tez uchar, yirik yo‘lovchilarni tashishga mo‘ljallangan havo kemalarning ishlab chiqarilishi sababli sayyohlarga xizmat ko‘rsatish rivojlanib bormoqda.

Temir yo‘l transporti sohasida texnologik omillar borgan sari rivojlanib, o‘z aksini poyezdlar qatnovi tezligini oshirilishi bilan ifodalanadi. Hozirgi kunda Yaponiya, Xitoy, Germaniya va Fransiya kabi mamlakatlarda tez yurar yo‘lovchi poyezdlar tezligini soatiga 320-550 km.ga yetkazishga erishildi. Temir yo‘l transportining aviatsiya va boshqa transport turlaridan afzalligi shundan iboratki, turistlar xavfsizligi eng yuqori darajada ta’minlaganligi va temir yo‘l vokzallari shahar markazida joylashgan bo‘lib, sayyohlar uchun qulay imkoniyatlar tug‘diradi.

Telekommunikatsiya texnologiyalari va elektronika sanoatining rivojlanishi kompyuter tizimida mehmonxona o‘rinlarini, transportda chiptalarni band qilishga imkon yaratdi. Yangi texnologilarning paydo

[30] X.M. Mamatqulov va bosh. Xalqaro turizm. Darslik. –T.: Ozbekiston faylasuflari milliy jamiyati, 2009. -21 b.

bo‘lishi turistik mahsulotlarni tashkil etishda va ularni sotishda sifat o‘zgarishlariga sabab bo‘ldi[31]. Turizmning kelajakda rivojlanishi birinchi o‘rinda turistik mahsulotlarning takomillashuvi, professional turagentlik tarmoqlarining rivojlanishi, turoperatorlar mahsulotlari sohasi, marketing xizmatlarining foydalanish darajasi va inson omillari bilan bog‘liqligi bo‘lib hisoblanadi.

Nazorat uchun savollar

1. Xalqaro turizmning jahon iqtisodiyotidagi o‘rni tahlil qilib bering.
2. Turizm xizmatlarining jahon eksportidagi ulushini tahlil qilib bering.
3. Turizm sohasida jahon kapital qo‘yilmalari haqida tushuncha bering.
4. Turizm xizmatlari bozorini rivojlantirish omillarini tushuntiring.
5. Turizmda zamonaviy texnologiyalar haqida tushuncha bering.
6. Sayyohlar xavfsizligi qanday ta’minlanadi?

[31] X.M. Mamatqulov va bosh. Xalqaro turizm. Darslik. –T.: Ozbekiston faylasuflari milliy jamiyati, 2009. -22 b.

6-BOB. YEVROPANING IQTISODIY VA SIYOSIY GEOGRAFIK TAVSIFI

6.1. Yevropaning iqtisodiy va siyosiy geografik o‘rni, maydoni, chegaralari.

6.2. Yevropaning tabiiy sharoiti va resurlarining mamlakat iqtisodiyotidagi o‘rni.

6.3. Aholisi va davlatlar tuzumi. Aholisining soni, migratsiyasi va tabiiy o‘sishining pastligi va uning sabablari.

6.4. Yevropa mamlakatlarining sanoati.

6.1. Yevropaning iqtisodiy va siyosiy geografik o‘rni, maydoni, chegaralari

Yevropa, yer sharining shimoliy yarimshari va qisman sharqiy yarimsharida joylashgan qit’adir. Shimolda shimoliy Muz okeani, g‘arbda Atlantika okeani, sharqda Osiyo va janubda O‘rtayer dengizi bilan chegaradosh. Yevrosiyo materigining g‘arbiy qismini o‘z ichiga oladi. Yevropaning maydoni 10,1 million km^2, shundan 730 ming. km^2ni orollar tashkil etadi. Yevropaning materikdagi chekka nuqtalari: Shimolda Nordkin burni, janubda Marroki burni, g‘arbda Roka burni, sharqda Qutbiy Ural tog‘ining sharqiy etagi. Yevropa hududining 25%ini yarim orollar tashkil etadi, ularning eng yiriklari Kola, Skandinaviya, Yutlandiya, Pireney, Apennin, Bolqon, Qrim yarim orollari hisoblanadi. Yevropaga qarashli orol va arxipelaglardan eng yiriklari yangi yer, Frans-Iosif yeri, Shpitsbergen, Britaniya, Islandiya, Irlandiya, Korsika, Sardiniya, Sitsiliya va Krit‘dir. Yevropa qirg‘oq chizig‘ining umumiy uzunligi 38 ming km. Qirg‘oqlari kuchli yemirilgan, dengiz va qo‘ltiqlar quruqlik ichkarisiga kirib borgan. Yevropa maydonining katta qismi, ya’ni 4,1 mln. km^2 Rossiya Federatsiyasining Yevropada joylashgan qismiga to‘g‘ri keladi. Yevropa siyosiy xaritasida 44 mustaqil davlat (Rossiya bilan birga) joylashgan. Bundan tashqari, Turkiya va Qozog‘iston davlatlari ham

qisman Yevropada joylashgan, ammo xalqaro statistikasida ular Osiyo qit’asi tarkibiga kiritilgan. Yevropa davlatlari odatda 4 ta yirik subregionlarga bo‘linadi: Shimoliy, G‘arbiy, Janubiy va Sharqiy Yevropa (6.1.1-rasm).

Shimoliy Yevropa davlatlari. Bu subregion tarkibiga qit’aning Shimoliy Muz okeani hamda Atlantika okeanining Shimoliy va Boltiq dengiziga tutash 8ta davlati kiradi. Bu davlatlar, odatda, 2ta tarixiy-geografik guruhga bo‘linadi: Skandinaviya davlatlari – Norvegiya, Shvetsiya, Daniya, Finlyandiya, Islandiya hamda Boltiq davlatlari – Estoniya, Latviya, Litva. Bu ikki guruh davlatlar o‘rtasida tarixan shakllangan mustahkam siyosiy, iqtisodiy va madaniy aloqalari mavjud. Daniya, Shvetsiya va Norvegiya konstitutsiyaviy monarxiya, qolgan davlatlar esa parlamentar respublika hisoblanadi.

Tabiiy sharoitining umumiy jihatlari asosan iqlimining ko‘proq mo‘tadil va dengiz xarakterga egaligida o‘z aksini topadi. Faqat Islandiya hamda Norvegiya, Shvetsiya va Finlyandiyaning Shimoliy hududlariga subarktika va arktika iqlim tiplari xos. Norvegiya va Islandiyaga tog‘li relyef xos bo‘lsa, qolgan davlatlar yer yuzasi, asosan, tekisliklardan iborat. Subregion davlatlaridan faqat Islandiya tektonik jihatdan faol mintaqada joylashgan bo‘lib, vulqon va geyzerlari bilan butun dunyoga mashhur. Islandiya jahondagi geotermal resurslaridan keng va oqilona foydalanayotgan davlatlardan biri hisoblanadi.

Norvegiya va Daniya Shimoliy dengiz tubidan tabiiy gaz va neftni qazib oladilar, ayniqsa, bu jihatdan Yevropadagi eng yirik gaz eksportyorlaridan biri hisoblangan Norvegiyaning salohiyati yuqori. Estoniya – energetikasi yonuvchi slanesga asoslangan dunyodagi yagona mamlakatdir, bu davlatda elektroenergiyaning 90 foizidan ortig‘i yoqilg‘ining bu turidan foydalanadigan IESlar ishlab chiqaradi.

6.1.1-rasm. Yevropa subregionlari (Yevropa Ittifoqi tashkiloti tasnifi bo‘yicha)

Subregionning ko‘p davlatlarida gidroenergetika sohasi yaxshi rivojlangan, va bu borada Norvegiya va Islandiya kabi tog‘li mamlakatlar yetakchilik qilmoqdalar. Shvetsiyada yuqori sifatli temir rudalari, Estoniyada esa fosforit zaxiralari katta. Shuningdek, subregion davlatlari o‘rmon resurslariga ham boy. Shimoliy Yevropa mamlakatlaridagi demografik vaziyatning umumiy jihatlari tug‘ilish va o‘limning past ko‘rsatkichlari bilan tavsiflanadi. Biroq Skandinaviya va Boltiq mamlakatlarida demografik holat bir xil emas. Litva, Latviya va Estoniyada, uzoq muddat mobaynida Skandinaviya davlatlariga xos bo‘lmagan aholining tabiiy kamayishi va migratsiyaning manfiy balansi kuzatilmoqda, ya’ni bu uch davlatning aholisi vaqt o‘tgan sari kamayib bormoqda.

Shimoliy Yevropa, ayniqsa, Skandinaviya davlatlari uchun aholi zichligining birmuncha past ko‘rsatkichlari xos. Urbanizatsiya barcha davlatlarda 70 foizdan yuqori darajada, Islandiya, Norvegiya, Daniya va Shvetsiyada esa bu ko‘rsatkich 90 foizdan ham o‘tib ketadi. Shimoliy Yevropadagi eng yirik aglomeratsiyalar poytaxti shaharlari negizida vujudga kelgan. Skandinaviya davlatlari ijtimoiy-iqtisodiy

rivojlanishi jihatidan dunyodagi eng rivojlangan davlatlar safidan joy olgan. Turmush darajasi koʻrsatkichlari boʻyicha bu mamlakatlar koʻplab xalqaro reytinglarda eng yuqori qatorlarini egallaydi. Boltiq davlatlari esa sobiq sotsialistik tuzumidagi mamlakatlar sifatida oʻtish iqtisodiyotidagi davlatlar hisoblanadi. Lekin bu blokdagi davlatlar ichida Litva, Latviya va, ayniqsa, Estoniya ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish koʻrsatkichlari boʻyicha peshqadamlikka erishib, koʻp jihatlari bilan rivojlangan mamlakatlarga yaqinlashgan. Xalqaro mehnat taqsimotida Shimoliy Yevropa davlatlari oʻrmon va sellyuloza-qogʻoz sanoati, elektr energiyani koʻp talab qiladigan rangli metallurgiya sanoati, koʻp tarmoqli mashinasozlik (kemasozlik, avtomobilsozlik, elektronika va elektrotexnika va boshqalar), baliqchilik, sut-goʻsht chorvachiligi mahsulotlarini ishlab chiqarish, dengiz transporti hamda turizm xizmatlarini koʻrsatish bilan faol ishtirok etadi. Shuningdek, Shimoliy Yevropa davlatlarida tarixiy-madaniy va ekologik turizm ham yaxshi rivojlangan. Finlyandiyaga, ayniqsa, Rojdestvo bayrami (25-dekabr) arafasida millionlab turistlar tashrif buyuradilar, chunki bu davlatda Santa-Klaus (ya’ni, Qorbobo)ning “rasmiy qarorgohi” joylashgan. Latviya esa dengiz turizmi (Riga, Yurmala shaharlari) rivojlanishi bilan alohida ajralib turadi.

Gʻarbiy Yevropa davlatlari. Yevropaning bu subregioniga qit’adagi eng ulkan iqtisodiy salohiyatga ega uchta davlat – Germaniya, Fransiya va Buyuk Britaniya, shuningdek, Avstriya, Shveytsariya, Belgiya, Niderlandiya, Irlandiya hamda “mitti” davlatlar safiga mansub Lixtenshteyn, Lyuksemburg va Monako kabi mamlakatlar kiradi. Alp togʻlarida joylashgan Avstriya, Shveytsariya va Lixtenshteyn Alp mamlakatlari guruhini tashkil qiladilar. Belgiya, Niderlandiya va Lyuksemburg davlatlariga nisbatan esa ular oʻrtasidagi iqtisodiy integratsiya jarayonlari juda yuqori darajada ekanligini hisobga olgan holda “Benilyuks” umumiy nomi ishlatiladi. Subregion mamlakatlarining iqlim sharoiti moʻtadil, Fransiya janubida

esa iqlimi subtropik. Foydali qazilmalardan Shimoliy dengiz akvatoriyasidagi neft-gaz (Niderlandiya, Buyuk Britaniya), qo‘ng‘ir va toshko‘mir (Germaniya, Fransiya, Belgiya, Buyuk Britaniya), temir rudalari (Fransiya, Germaniya, Lyuksemburg, Belgiya) va kaliy tuzlari (Germaniya) konlari diqqatga sazovor. Alp mamlakatlari gidroenergiya resurslariga boy. G‘arbiy Yevropa mamlakatlarida tug‘ilish va tabiiy ko‘payish ko‘rsatkichlari juda past, Germaniyada esa ko‘p yillardan buyon depopulyatsiya jarayoni ro‘y bermoqda. Lekin tashqi migratsiya balansi yuqori musbat ko‘rsatkichlarga ega bo‘lganligi bois, subregion davlatlarida aholi o‘sishi davom etmoqda. G‘arbiy Yevropa qit’a subregionlari ichida aholisi eng zich joylashgan hudud hisoblanadi. Urbanizatsiya ko‘rsatkichlari, Lix tenshteyndan tashqari, barcha davlatlarda yuqori bo‘lib, Buyuk Britaniya, Belgiya, Niderlandiya, Lyuksemburgda 90 foizdan baland, Monakoda esa 100 foizga teng. Yevropa va butun jahon miqyosida katta ta’sir doirasiga ega London, Parij, Berlin, Gamburg, Bryussel, Amsterdam, Syurix va ular singari boshqa yirik shaharlarning aynan G‘arbiy Yevropada joylashganligi ham bu subregionning muhim o‘ziga xos xususiyatidir. G‘arbiy Yevropa davlatlarining barchasi rivojlangan davlatlar safiga mansub bo‘lib, jahon xo‘jaligining hududiy tarkibida juda muhim o‘ringa ega. Jahon iqtisodiyotida G‘arbiy Yevropa davlatlari ko‘p tarmoqli mashinasozlik va kimyo sanoati, intensiv chorvachilik va dehqonchilik, bank-moliya va turizm sohalarining xalqaro ahamiyatli darajada rivojlanganligi bilan alohida ajralib turadilar.

Janubiy Yevropa mamlakatlari. Janubiy Yevropa siyosiy xaritasida Ispaniya, Portugaliya, Italiya, Gretsiya hamda Andorra, San-Marino, Malta va Vatikan “mitti” davlatlari joylashgan. Bu davlatlar iqtisodiy-geografik o‘rni va xo‘jalik rivojlanishi jihatidan uzoq tarixi davomida O‘rta dengiz bilan chambarchas bog‘liqligi sababli Yevropaning O‘rta dengizbo‘yi mamlakatlari deb ham ataladi. Bu mintaqa Yevropa sivilizatsiyasi va madaniyatining chin beshigi hisoblanadi, chunki bu qit’adagi eng qadimgi davlatlar – Gretsiya bilan

Rim aynan O‘rta dengiz qirg‘oqlarida rivoj topgan. Malta O‘rta dengizdagi orollarda joylashgan kichik davlat bo‘lsa, subregionning qolgan davlatlari geografik o‘rni nuqtayi nazaridan yarim orol mamlakatlari hisoblanadi. Andorra, San-Marino, Vatikan davlatlari yarim orollarda joylashsada, dengizga chiqish imkoniyati yo‘q. San-Marino bilan Vatikan anklav davlatlar hisoblanadi, chunki ular faqat bitta davlat, ya’ni Italiya bilan chegaradosh bo‘lib, butunligicha uning hududi bilan o‘ralgan. Janubiy Yevropa mamlakatlaridan Ispaniya va Andorra boshqaruv shakli jihatidan konstitutsiyaviy monarxiya, Vatikan davlati Yevropada yagona mutlaq teokratik monarxiya (davlat rahbari – Rim-katolik cherkovi yetakchisi hisoblanmish Rim Papasi), qolganlari esa respublikadir. Janubiy Yevropa davlatlari O‘rta dengiz geosinklinal mintaqasida joylashganligi tufayli seysmik jihatdan faol hudud hisoblanadi. Qadimdan olamga mashhur Etna, Vezuviy, Stromboli vulqonlari ham Yevropaning shu qismida joylashgan. Foydali qazilmalardan rangli metall rudalari va mineral tuzlar zaxiralari mavjud. O‘rta dengiz tipidagi subtropik iqlim (yozi issiq, birmuncha quruq, qishi esa iliq va yomg‘irli) qishloq xo‘jaligi va turizm uchun juda qulay sharoit yaratadi. Lekin Yevropaning boshqa subregionlarga nisbatan suv resurslar bilan ta’minlanish darajasi pastroq bo‘ib, ayrim hududlarda suv tanqisligi ham sezilmoqda. Janubiy Yevropadagi demografik vaziyatga aholining tabiiy va migratsion ko‘payishining past ko‘rsatkichlari xos. Ular orasida, ayniqsa, aholisi kamayib borayotgan Ispaniya, Portugaliya va Gretsiya davlatlari alohida ajralib turadi. Rivojlanayotgan davlatlardan, xususan Shimoliy Afrikadan, ko‘plab immigrantlar ko‘chib kelishi bilan bir vaqtda bu yerdan G‘arbiy Yevropa mamlakatlariga tomon emigratsion oqimning faolligi subregionning migratsiya qoldig‘ini ancha pasaytiradi, yuqorida aytib o‘tilgan davlatlarda esa manfiy ko‘rsatkichlargacha tushirmoqda. Janubiy Yevropa relyefi, asosan, tog‘lardan iborat bo‘lganligi tufayli aholisi juda notekis joylashib, asosan qirg‘oqbo‘yi tekisliklari va daryo vodiylarida joylashgan.

Urbanizatsiya Shimoliy va G‘arbiy Yevropa mamlakatlariga nisbatan biroz pastroq bo‘lsada, 60 foizdan yuqori darajada. Yevropaning O‘rta dengizbo‘yi mamlakatlari Shimoliy va G‘arbiy Yevropa davlatlariga nisbatan ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish ko‘rsatkichlari nisbatan past. Ayniqsa, Gretsiya, Ispaniya va Portugaliya iqtisodiyotidagi inqirozli vaziyat Yevropa Ittifoqi doirasida ko‘zga tashlanadi. Italiya garchi “katta yettilik” guruhi a’zosi bo‘lsada, mamlakatning turli hududlarining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi keskin farq qiladi. Shimoliy Italiya Yevropadagi eng rivojlangan iqtisodiy rayonlardan biri hisoblansa, Janubiy Italiya, aksincha, Yevroittifoqning eng qoloq rayonlaridan biri hisoblanadi. Xalqaro mehnat taqsimotida Janubiy Yevropa mamlakatlari, eng avvalo, subtropik dehqonchilik (uzum, sitrus mevalari, yong‘oq, zaytun va hokazo) bilan turizmga ixtisoslashgan. Bu subregion dengiz turizmining dunyodagi eng yirik rayoni hisoblanadi. Sanoat tarmoqlari ichida eng rivojlanganlari – yengil (to‘qimachilik, tikuvchilik, charm-poyabzal) va oziq-ovqat (yog‘-moy, konserva, vino) sanoatlari. Italiya va Ispaniya mashinasozlik sanoati, ayniqsa, avtomobilsozlikning rivojlanishi bilan ham ajralib turadilar.

Sharqiy Yevropa davlatlari**.** Bu subregionga qit’ada joylashgan sobiq Ittifoqdosh respublikalar (Rossiya Federatsiyasi, Ukraina, Belarus, Moldova) hamda sobiq sotsialistik mamlakatlar (Polsha, Chexiya, Slovakiya, Vengriya, Ruminiya, Bolgariya, Sloveniya, Serbiya, Xorvatiya, Bosniya va Gersegovina, Chernogoriya, Makedoniya, Albaniya) kiradi. Bu mamlakatlarning muhim umumiy jihatlaridan biri o‘tish iqtisodiyotidagi davlatlar blokiga mansubligidir. Yettita davlati – Belarus, Chexiya, Slovakiya, Vengriya, Moldova, Serbiya, Makedoniya – dengizga chiqish imkoniyatiga ega emas. Bolgariya, Albaniya, Makedoniya, Serbiya, Bosniya va Gersegovina, Xorvatiya, Chernogoriya davlatlari Bolqon yarimorolida joylashganligi bois odatda Bolqon mamlakatlari deb nomlanadi. Sharqiy Yevropaning siyosiy xaritasida o‘tgan asrning oxirida jiddiy

o‘zgarishlar ro‘y berdi. Sovet Ittifoqi tarqalib ketganligi natijasida Rossiya, Ukraina, Belarus va Moldova davlatlari tashkil topdi. Yugoslaviya Sotsialistik Federativ respublikasining parchalanishi chog‘ida birin-ketin Sloveniya, Xorvatiya, Bosniya va Gersegovina, Makedoniya, Chernogoriya, Serbiya kabi davlatlar mustaqilligini e’lon qildi. Chexiya va Slovakiya respublikalari Chexoslovakiya davlati tarkibidan ajralib chiqdi. Jahon hamjamiyati tomonidan to‘laligicha tan olingan oxirgi siyosiy-geografik o‘zgarish 2006-yildagi Serbiya va Chernogoriya federatsiyasining tarqalishi bo‘ldi. Ahamiyatlisi shundaki, Bolqon yarimorolidagi ayrim davlatlarning mustaqillikka erishish jarayoni tinch ravishda kechmasdan, harbiy ziddiyat, millatlararo va dinlararo fuqarolik urushlarni keltirib chiqardi. Bunday urushlarning eng qonlilari Bosniya va Gersegovina hamda Xorvatiya davlatlarida 1992–1995-yillarda sodir bo‘ldi. Sobiq Yugoslaviya hududida, xususan Serbiya va Makedoniya davlatlarida, geosiyosiy vaziyat haligacha to‘liq barqarorlashgani yo‘q. Sharqiy Yevropa subregionining yana bir xususiyati bironta ham monarxiya davlati yo‘qligidan iborat. Rossiya hamda Bosniya va Gersegovina hududiy-davlat tuzilish jihatidan federativ, boshqa davlatlar esa unitar tuzilishga ega. Subregion hududi asosan, ulkan Sharqiy Yevropa tekisligidan iborat bo‘lsada, yirik tog‘ tizimlari ham mavjud. Tog‘lar Chexiya, Slovakiya, Ruminiya, Albaniya va sobiq Yugoslaviya davlatlari hududining katta qismini egallaydi. Foydali qazilmalardan neft va tabiiy gaz (Rossiya, Ruminiya), tosh va qo‘ng‘ir ko‘mir (Ukraina, Rossiya, Polsha, Chexiya, Slovakiya, Serbiya), temir rudalari (Rossiya, Ukraina, Polsha), rangli metallar (Albaniya, Serbiya, Bosniya va Gersegovina, Ruminiya), kaliy tuzlari (Belarus, Rossiya), torf (Belarus, Rossiya) zaxiralarini alohida ko‘rsatib o‘tish mumkin. Sharqiy Yevropaning tog‘li mamlakatlari gidroenergiya resurslariga boy bo‘lib, ulardan samarali ravishda foydalanilmoqda. Shuning uchun ham Slovakiya, Bosniya va Gersegovina, Ruminiya, Albaniyaning energetika balansida GES ulushi yuqori. Aholi daryo vodiylari, dengiz

bo‘ylarida hamda yirik sanoat rayonlarida zich joylashgan. Urbanizatsiya darajasi, Moldova, Bosniya va Gersegovina hamda Sloveniyadan tashqari, 50 foizdan yuqori, ayrim davlatlarda esa 70 foizdan ham ortib ketadi. Lekin o‘rtacha olganda, boshqa subregionlarga nisbatan Sharqiy Yevropaning shaharlashuv darajasi biroz pastroq. Eng yirik shahar aglomeratsiyalari Moskva, Sankt-Peterburg, Praga, Kiyev, Budapesht negizida, Ukrainadagi Donetsk-Dneprbo‘yi va Polshadagi Sileziya sanoat rayonlarida, Rossiya hamda Bolgariyaning Qora dengizbo‘yi sohillarida shakllangan. Sharqiy Yevropa davlatlarida oxirgi yillarda shakllangan demografik vaziyat inqirozli ko‘rinishga ega bo‘lib, tug‘ilishning o‘lim darajasidan pasayib ketganligi bilan tavsiflanadi. Shuning uchun ham Sharqiy Yevropadagi aksariyat mamlakatlar aholi soni tez sur’atlar bilan kamayib borayotgan davlatlar qatoriga kiradi. Aholining milliy tarkibida slavyan xalqlari yetakchilik qiladi. Slavyan xalqlari guruhiga rus, ukrain, belarus, polyak, bolgar, serb, xorvat, chex, slovak, bosniyalik, sloven, makedoniyalik, chernogoriyaliklar kiradi. Sharqiy Yevropa mamlakatlarining ijtimoiy-iqtisodiy darajasi bir-biridan ancha farq qiladi. Garchi bu yerdagi hamma mamlakatlar o‘tish iqtisodiyotidagi davlatlar safiga kiritilgan bo‘lsada, Sloveniya, Chexiya, Vengriya, Slovakiya, Xorvatiya, Polsha kabi davlatlarning aksariyat iqtisodiy ko‘rsatkichlari Yevropadagi rivojlangan davlatlar pog‘onasiga yaqinlashgan bo‘lsa, Albaniya, Makedoniya, Moldovaning ijtimoiy-iqtisodiy ko‘rsatkichlari birmuncha past bo‘lib, ko‘proq rivojlanayotgan mamlakatlarning darajasiga tortadi. Sharqiy Yevropa mamlakatlarining xalqaro ixtisoslashuvi asosan ko‘p tarmoqli sanoat, jumladan, yoqilg‘i-energetika (Rossiya, Polsha, Chexiya, Ruminiya), qora metallurgiya (Rossiya, Ukraina, Polsha, Serbiya, Chernogoriya), rangli metallurgiya (Serbiya, Chernogoriya, Albaniya), kimyo (Rossiya, Belarus, Ukraina, Polsha), mashinasozlik (Rossiya, Ukraina, Belarus, Polsha, Chexiya, Slovakiya, Vengriya, Sloveniya), yengil sanoati (Rossiya, Polsha, Chexiya), oziq-ovqat (Chexiya,

Ukraina, Bolgariya, Serbiya, Ruminiya, Makedoniya, Moldova) ishlab chiqarishlari bilan belgilanadi. Ba’zi davlatlar dehqonchilik va chorvachilik mahsulotlarining eksporti bilan ham ajralib turadi (Vengriya, Polsha, Serbiya, Bolgariya). Ko‘p davlatlari uchun turizm sohasi ham muhim daromad manbayi hisoblanadi. Iqtisodiyotning bu tarmog‘i, ayniqsa, Bolgariya, Ruminiya, Chexiya, Slovakiya, Xorvatiya, Chernogoriya, Sloveniya, Vengriya kabi davlatlar uchun katta ahamiyat kasb etadi.

6.2. Yevropaning tabiiy sharoiti va resurlarining mamlakatlar iqtisodiyotidagi o‘rni

Yevropaning relyefining aksari qismi pasttekislik va qirlardan, 1/5 qismi tog‘lardan iborat. Yevropa o‘rtacha (300 m) va maksimal (4807 m, Alp tog‘laridagi Monblan cho‘qqisi) balandligi jihatdan boshqa qit’alardan (Avstraliya bundan mustasno) keyinda turadi. Ba’zi rayonlari (Kaspiy bo‘yi pasttekisligi -28 m, Shimoliy va Boltiq dengizlari sohili) dengiz sathidan pastligi Yevropa relyefi tektonik tuzilishi va tarkib topishi tarixi jihatidan xilma-xil. Yevropaning Sharqiy qismini Sharqiy Yevropa tekisligi egallaydi. Uning yuzasi to‘lqinsimon, tepalik ko‘p, o‘rtacha balandligi 170 metr. Ba’zi joylari 200 m va undan ham balandroq bo‘lib, quyidagi qirlar bor: Valroka burni – Yevropaning g‘arbiy eng chekka nuqtasi. O‘rta Rus, Volga bo‘yi, Dnepr bo‘yi, Volin, Podolsk va boshqalar. Sharqiy Yevropa tekisligi asta-sekin O‘rta Yevropa tekisligiga o‘tib boradi. G‘arbiy Yevropaning katta qismi tog‘lardan iborat. Janubda yosh burmali tog‘lar ko‘tarilib turadi, bular – Pirenei, Alp, Apennin, Karpat, Stara-Planina tog‘lari, Dinara yassitog‘ligi. Yevropaning o‘rta qismida qadimgi tog‘lar – Yura, Gars, Shvarsvald, Sudet va boshqalardan iborat. Qadimiy tog‘larga yana Grampian, Pennin, Skandinaviya tog‘lari va Uralni kiritadilar. Yevropa relyefining taraqqiyotida pleystotsen muz bosishlarining roli katta. Ko‘p joylarda muzlik izlari hozirgacha saqlangan. Muzlikning asosiy markazi – Skandinaviya,

kichikroq markazlari-Britaniya orollari, Alp va Karpat tog‘lari bo‘lgan. Muz qalinligi 2,0-2,5 km.ga yetgan.

Yevropa hududi geologik tuzilishi jihatidan to‘rt qismga bo‘linadi: Sharqiy Yevropa platformasi; kaledon burmalanishi tuzilmalari; gersin burmalanishi tuzilmalari (Angliya janubi, Fransiya, Ispaniyaning bir qismi, Polsha va Chexiya massivi) va Janubiy Yevropadagi Alp burmalanishi tuzilmalari. Sharqiy Yevropa platformasini kembriygacha paydo bo‘lgan kristalli burmalangan fundament tashkil qiladi. Bu fundament Boltiq qalqoni (Finlyandiya, Shvetsiya, Norvegiya janubi, Kareliya, Kola yarim oroli), Ukraina qalqoni (Dneprning o‘ng sohili, Azov bo‘yi, Voronej tepaliklari) va Timan kryajida yer yuzasiga chiqqan, boshqa joylarda chuqur joylashgan bo‘lib, paleozoy, mezozoy va kaynozoy yotqiziqlari bilan qoplangan. Kaspiy bo‘yi (8-10 km), Dnepr-Donesk (4-5 km), Moskva (2-3 km), Polsha-Litva va Pechora botiqlarini juda qalin tog‘ jinslari qatlami qoplab yotadi. Silur davrining oxirida hosil bo‘lgan kaledon burmalanishi strukturalari (Skandinaviya, Buyuk Britaniya va Irlandiya tog‘lari) kembriygacha hosil bo‘lgan kristalli slaneslar, kembriy, ordovik va silur davrlariga mansub cho‘kindi va vulqon jinslaridan tarkib topgan. Gersin burmalanishi strukturalari paleozoy erasining oxirida hosil bo‘lib, kembriydan oldingi va paleozoy erasida vujudga kelgan cho‘kindi, vulqon va otqindi jinslardan iborat. Unga Angliya janubi, Ispaniyaning g‘arbi, Portugaliya, Britan yarim oroli, Markaziy Fransiya massivi, Vogeza, Shvarsvald, Ardenna, Slanesli Reyn, Gars tog‘lari, Ural va Novaya Zemlyadagi burmalangan yotqiziqlar kiradi. Alp burmalanishi strukturalari tokembriy, paleozoy, mezozoy, kaynozoy eralariga mansub cho‘kindi va otqindi jinslardan tarkib topgan. Ularga Qrim, Stara-Planina, Karpat, Alp, Apennin, Korsika, Sardiniya, Pireney, Iberiya va Bet tog‘lari kiradi. Neogen boshida ko‘tarilgan tog‘ tizmalari etagida Akvitaniya, Shveysariya-Bavariya, Karpat oldi va Kavkaz oldi botiqlari, Vena, Vengriya botiqlari kabi tog‘lararo botiqlar paydo bo‘lgan hamda ular neogen-

to‘rtlamchi davrlar yotqiziqlari bilan to‘lgan. Neogen yotqiziqlari mavjud Qora va O‘rta dengizlar botiqlari kaynozoy erasida hosil bo‘lgan. Neogenda chuqur siniqlar paydo bo‘lishi bilan Karpat tog‘larida, Reyn daryosi bo‘yida va boshqa joylarda vulqonlar otilgan. Keyingi davrda vulqon otilishi Italiyada (Vezuviy, Etna va boshqalar) davom etmoqda. Tog‘ tizmalarining ko‘tarilishi va pastliklarning cho‘kishi yer po‘stining eng yangi harakatlaridan dalolat beradi.

Yevropada neft va gaz konlari paleozoy va mezozoy yotqiziqlari orasidan Alp tog‘lari etagi va tog‘ oralig‘idagi bukilmalarda (Ruminiya, Vengriya, Bolgariya, Italiya va boshqalari) neft neogen yotqiziqlari orasidan topilgan. Toshko‘mir va qo‘ng‘ir ko‘mirning katta konlari (Don, Lvov-Volin, Moskva yoni, Pechora havzalari, Polsha, GFR, Belgiya, Buyuk Britaniya) bor. Temir va marganes rudalari, boksit, rangli metallardan mis, nikel, kobalt, qo‘rg‘oshin, kumush konlari asosan gersinid mintaqasida mavjud, kaliy va tosh tuzlari Ukraina, Belorussiya, Kaspiy bo‘yi va Ural oldida hamda perm yotqiziqlari orasida uchraydi. Apatit-nefelin rudalarining yirik konlari Kola yarim orolida, katta tuz konlari Daniya, GFR va Polsha hududlarida topilgan.

Yevropaning aksariyat qismi o‘rtacha kengliklarda joylashgan. Yevropada arktika, subarktika, mo‘tadil va subtropik mintaqalar iqlim tiplari bor. Yevropaning arktika mintaqasidagi orollarida iqlim sovuq, qish uzoq, yoz qisqa (iyulning o‘rtacha haroratii 5°C.dan past). Subarktika mintaqasida (Islandiya, Fennoskandiya, Shimoliy va Sharqiy Yevropa tekisligida) yoz uzoqroq va iliqroq, iyulda o‘rtacha harorat 10-12°C. Qish g‘arbiy rayonlarda yumshoq, sharqda sovuq; yog‘in 400-1000 mm, bug‘lanish yog‘inga nisbatan kam. Mo‘tadil mintaqaning (Yevropaning O‘rta dengiz bo‘yi va Qrimning janubidan boshqa qismi) Shimolda iqlim sovuq, janubda iliq, g‘arbida dengiz iqlimi, sharqida esa mo‘tadil kontinental, qish sovuq, yoz shimolda salqin, markazida iliq, janubda issiq. Subtropik mintaqada iqlim O‘rta dengiz tipli, qish iliq, seryomg‘ir (yanvarning o‘rtacha harorati 4-12°),

yoz issiq va quruq. Yevropaning shimoli-sharqida Pechora daryosi xavzasida eng past harorat -52°C qayd qilingan. Umuman qish sharqiy Yevropada sovuq. Sharqiy Yevropaning janubida qor bir oy, shimolda 7-9 oy erimaydi. Iyulda o‘rtacha harorat Yevropada O‘rta dengiz atrofida (28-30°) va Kaspiy dengizi bo‘yida (24-26°) eng yuqori, Arktika orollarida eng past (2- 4°C) bo‘ladi. Eng yuqori harorat (48°C) Pireney yarim orolining janubida kuzatilgan. Yevropada yillik yog‘in miqdori g‘arbdan sharqqa tomon kamayib boradi. Atlantika okeaniga yaqin rayonlarda yiliga 1000-2000 mm yog‘in yog‘adi. Sharqiy Yevropada yillik yog‘in miqdori 300-500 mm, Kaspiy dengizi bo‘yida 200 mm va undan kam, Arktika orollarida 300-400 mm. Yevropaning katta qismida yillik yog‘in miqdori bug‘lanishga nisbatan ko‘proq.

Ichki suvlari oqib turadigan suvning hajmi (2850 km^3) jihatidan Yevropa yer yuzida Janubiy Amerikadan keyin 2-o‘rinda. Yevropada suv oqimi g‘arbdan sharqqa va shimoldan janubga tomon kamayib boradi. Yevropaning katta qismi Atlantika okeani va uning dengizlari havzasiga, oz qismi Shimoliy Muz okeani va ichki Kavza-Kaspiy dengiziga mansub.

Sharqiy Yevropa tekisliklarida joylashgan. Volga daryosi uzunligi (3530 km), havzasining maydoni (1360 ming km^2) va o‘rtacha yillik suv sarfi (8000 m/ sek) bo‘yicha 1-o‘rinda. Boshqa daryolari: Ural, Dnepr, Don, Pechora, Dnestr, Shimoliy Dvina. G‘arbiy Yevropadagi eng katta daryolar: Dunay (uzunligi 2850 km, havzasining maydoni 817 ming km^2), Reyn, Elba, Visla, Luara, Taxo, Odra. Daryolar sharqiy Yevropa tekisliklarida qorlardan, qisman yomg‘irlardan, O‘rta Yevropa tekisliklarida, asosan, yomg‘irlardan, Alp tog‘larida qor, yomg‘ir, qisman muzliklarning erishidan, O‘rta dengiz bo‘yidagi karst relyefli rayonlarda grunt suvlaridan to‘yinadi. Yevropa daryolariga oqimini tartibga solib turuvchi ko‘plab suv omborlari va boshqa suv inshootlari qurilgan, ularning ko‘pchiligi o‘zaro va ko‘llar bilan kanallar orqali bog‘langan, natijada ularning transport ahamiyati ortgan.

Yevropada koʻllar notekis taqsimlangan. Ular asosan, toʻrtlamchi davrda muzlik bosgan yerlarda joylashgan. Tekisliklardagi koʻllar: Ladoga, Onega, Venern, Balaton, Vettern, Melaren, Imandra; togʻ etagida joylashgan koʻllar: Jeneva, Lago-Majore, Komo, Garda va boshqa Baland togʻ tepalarida "Alp" koʻllari, Apennin yarim oroli va Islandiyada vulqon koʻllari bor. Koʻllarning suvi chuchuk. Janubi-Sharqdagi arid rayonlarda koʻl suvi shoʻr va juda minerallashgan (Elton, Bosqunchoq). Yevropaning Osiyo bilan chegarasida dunyodagi eng katta koʻl-Kaspiy dengizi joylashgan. Yevropaning shimoliy va shimoli-sharqida botqoqlik koʻp. Shu bilan birgalikda, Yevropadagi muzliklarning umumiy maydoni 118 ming km^2dan ziyoddir. Yevropaning eng yirik muzliklari Shpitsbergen (58 ming km^2), Novaya Zemlya, Frans-Iosif Yeri, Islandiyada va Skandinaviya togʻlarida. Muzliklarning qalinligi 400-600 m, ayrim joylarda 1000 m.gacha. Alp togʻlari, Uralning Shimoliy, Pireney, Serra-Nevada togʻlarida ham muzliklar bor.

6.3. Aholisi va davlatlar tuzumi. Aholisining soni, migratsiyasi va tabiiy oʻsishining pastligi va uning sabablari

BMT maʼlumotiga koʻra, 1990-yilda 5,3 milliard, 2015-yilda esa 7,3 milliard boʻlgan dunyo aholisi soni ayni paytga kelib 7,79 milliardga yetgan. Bu raqam 2050-yilda 9,7 milliardga, 2100-yilda esa 11,2 milliardga yetishi kutilmoqda.

Yevropaning aholisi 2020-yilga kelib 750 million kishiga yetdi. Antropologik tarkibi. Yevropaning deyarli barcha aholisi katta yevropoid irqiga mansub boʻlib, bir necha kichik irqlarga boʻlinadi. Skandinaviya mamlakatlari, Birlashgan Qirollik, Irlandiya, Islandiya, Niderlandiya, Estoniya va Latviya hududlarida atlantika-boltiq irqiga mansub aholi yashaydi. Yevropaning markaziy viloyatlari va uning sharqiy qismida oʻrta Yevropa irqiga mansub turli xalqlar bor. Adriatika dengizi sharqidagi mamlakatlarda, Gretsiya Shimoli, Bolgariya, Avstriya janubi va Italiya shimoli (Tirol), Qora dengizning

Shimoliy, g‘arbi va sharqida istiqomat qiluvchi aholi bolqon-kavkaz irqiga kiradi. Ispaniya, Italiyaning katta qismi, Fransiya, Gretsiya janubi, O‘rta dengiz orollarida hind-o‘rta dengiz irqiga, Litva, qisman Latviya va shimoliy Yevropaning Rossiya qismida oq dengiz-boltiq irqiga mansub xalqlar yashaydi. Yevropaning Ural va Volga havzalari va boshqa hududlarda turli irqqa mansub xalqlar bor.

Etnik tarkibi bo‘yicha Yevropa xalqlari tillarining ko‘pchiligi Hind-Yevropa tillari oilasiga mansub. Sharqiy va Janubi-sharqiy Yevropada slavyanlar guruhiga mansub xalqlar joylashgan. Ruslar, ukrainlar, beloruslar–sharqiy slavyanlar; polyaklar, chexlar, slovaklar-g‘arbiy slavyanlar; bolgarlar, makedonlar, serblar va chernogorlar janubiy slavyanlarni tashkil etadi. Shimoliy va Markaziy Yevropada olmon tillirida so‘zlashuvchi xalqlar–olmonlar, avstriyaliklar, Shveysariyaliklar, lyuksemburglar, gollandlar, inglizlar, shotlandlar, danlar, shvedlar, norveglar, islandlar va boshqalar yashaydi, Janubi-G‘arbiy Yevropa aholisi roman tillarida so‘zlashuvchi xalqlar–italyanlar, fransuzlar, ispanlar, portugallar, ruminlar, moldavanlar va boshqalardan iborat. Janubi-Sharqiy Yevropadagi hind-oriylar guruhiga mansub lo‘lilarning ko‘pchiligi va barcha mamlakatlarda istiqomat qiluvchi deyarli hamma yaxudiylar (rasmiy tili-idish, ivrit tili) mahalliy tilda so‘zlashadi. Grek tili va albanlar tili hind-Yevropa tillarining alohida guruhiga kiradi. Yevropa aholisining salmoqli qismini ural-oltoy xalqlari tillarida so‘zlashuvchilar tashkil etadi. Finlar, estonlar, karellar, mordavlar, marilar, udmurtlar, vengerlar va boshqa ugorfin tillarida, chuvashlar, tatarlar, boshqirdlar, gagauzlar va boshqa turkiy tillarda gaplashadi. Yevropada xristian dini, asosan ikki oqim (pravoslaviy va katolitsizm)ga bo‘linadi; shuningdek, 16-17 asrlardagi reformatsiya davrida katolik cherkovidan ajralib chiqqan protestantizm va boshqa diniy oqimlar bor. Sharqiy va janubi-sharqiy Yevropa xalqlarida pravoslaviy, janubi-g‘arbiy Yevropa aholisi o‘rtasida katolitsizm keng yoyilgan. Yevropadagi turkiy xalqlar,

albanlar, lo‘lilarning ko‘pchiligi, shuningdek, bosniyalik va bolgarlarning bir qismi islom diniga e’tiqod qiladi.

6.4. Yevropa mamlakatlarining sanoati

Yevropa jahonda iqtisodiy va texnologik salohiyatining ulkanligi va serqirraligi, sanoatning yuqori darajada rivojlanganligi bilan alohida ajralib turadi. Shimoliy, g‘arbiy va janubiy Yevropa davlatlari rivojlangan davlatlar blokiga mansub bo‘lsa, 1990-yillarning boshida sotsialistik tuzum va rejali iqtisodiyotdan voz kechib, bozor iqtisodiyotini shakllantirishga kirishgan davlatlari, xususan, Yevropada joylashgan sobiq Ittifoq respublikalari, o‘tish iqtisodiyotidagi davlatlar sirasiga kiradi.

Yevropa iqtisodiyoti uchun yuqori darajada rivojlangan integratsion jarayonlar katta ahamiyatga ega. Bu holat, ayniqsa yagona savdo-bojxona makoniga ega bo‘lgan jahondagi eng yirik integratsion uyushma hisoblangan Yevropa Ittifoqi (YeI)ning faoliyatida namoyon bo‘lmoqda. YeIga 2020-yil holatiga ko‘ra, 28 ta davlat, shu jumladan, Osiyoda joylashgan Kipr hamda YeI tarkibidan bosqichma-bosqich chiqib ketayotgan Buyuk Britaniya a’zodir. Dastlab, 1950-yillarda 6ta davlat (GFR, Fransiya, Italiya, Belgiya, Niderlandiya, Lyuksemburg)ni birlashtirgan holda shakllanishi boshlangan YeI bir nechta kengayish to‘lqinlarini boshidan kechirdi. YeI tarkibi, ayniqsa, XXI asrning birinchi o‘n yilligi mobaynida bir qator sobiq sotsialistik davlatlar (Chexiya, Slovakiya, Vengriya, Latviya, Litva, Estoniya va boshqalar) qo‘shilishi hisobiga ancha kengaydi.

Yevropa jahon xo‘jaligida sanoat va qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishi, mahsulot va xizmatlar eksporti, xalqaro turizm rivojlanganligi bo‘yicha yetakchi o‘rinlarni egallaydi. Mintaqaning iqtisodiy salohiyatini, birinchi navbatda, «Katta yettilik»ka kiruvchi to‘rtta davlat – Germaniya, Buyuk Britaniya, Fransiya va Italiya belgilab beradi.

Yevropa sanoatining yetakchi tarmog‘i mashinasozlik hisoblanadi. Mazkur tarmoq butun sanoat mahsulotining 1/2, eksportning 2/3 qismini tashkil qiladi. Ayniqsa, avtomobilsozlik yuksak darajada rivojlangan. «Reno» (Fransiya), «Folksvagen», «Mersedez-Benz», «Opel», «BMW», (GFR), «Fiat» (Italiya), «Volvo» (Shvetsiya), «Tatra» (Chexiya) kabi avtomobil konsernlari mashhurdir.

Yevropada sanoat tarmoqlari ichida mashinasozlikdan keyingi ikkinchi o‘rinda kimyo va neft-kimyo sanoati turadi. Ikkinchi jahon urushiga qadar kimyo sanoati, asosan, kon-kimyo xomashyosiga asoslangan holda rivojlangan edi. Kaliy va osh tuzlari, oltingugurt va boshqa shu kabi xomashyodan foydalanilardi. Qit’ada neft va tabiiy gaz konlarining ochilishi neft-kimyo tarmog‘ining rivojlanishiga asos bo‘ldi. Temza, Sena, Reyn, Elba, Rona kabi daryolarning quyilish qismlarida joylashgan port shaharlarida yirik neftni qayta ishlovchi markazlar barpo etildi. Eng yirik bunday neft-kimyo majmuasi Niderlandiyaning Rotterdam shahrida shakllangan.

Aksariyat Yevropa davlatlarining yoqilg‘i-energetika balansida neft va tabiiy gaz muhim o‘rin egallaydi. Rossiyani hisobga olmaganda, Yevropaning eng yirik neft-gaz sanoati rayoni Shimoliy dengiz hisoblanadi. Ko‘pchilik Yevropa mamlakatlari neft va tabiiy gazni Rossiya, shimoliy Afrika va Fors ko‘rfazidagi davlatlardan import qiladi. Germaniya, Rossiya, Ukraina, Polsha va Chexiya davlatlarida toshko‘mir va qo‘ng‘ir ko‘mir qazib olinadi. Germaniya 2018-yildan ko‘mirning asosiy qismini Avstraliyadan import qilmoqda. Yirik IESlarining asosiy qismi dengiz portlari va katta shaharlarda barpo etilgan. Dunay va uning irmoqlari, Rona, Reyn, Dnepr, Volga va boshqa daryolarda yirik GESlar barpo qilingan.

Qora metallurgiya, avvalambor, temir rudasi va toshko‘mir zaxiralari mavjud bo‘lgan Germaniya, Buyuk Britaniya, Fransiya, Ispaniya, Belgiya, Lyuksemburg, Polsha, Chexiyada rivojlangan. Rangli metallurgiyaning asosiy tarmoqlari alyuminiy va mis sanoatidir. Alyuminiy sanoati xomashyo va elektr energiyasi bilan

yaxshi ta’minlangan Norvegiya, Islandiya, Fransiya, Vengriya, Ruminiya mamlakatlarida rivojlangan. So‘nggi paytlarda alyuminiy korxonalari, asosan, rivojlanayotgan mamlakatlardan olib kelinadigan xomashyoga tayanmoqda. Mis sanoati Germaniya, Fransiya, Buyuk Britaniya, Italiya, Belgiya, Polsha hamda Bosniya va Gersogovinada rivojlangan.

Yevropada yengil sanoat o‘zining oldingi ahamiyatini birmuncha yo‘qotdi. Eski to‘qimachilik rayonlari hisoblanmish Buyuk Britaniyadagi Lankashir va Yorkshir, Polshadagi Lodz hozirgi vaqtda ham faoliyat ko‘rsatmoqda. Lekin so‘nggi yillarda yengil sanoat Janubiy Yevropaga ko‘chayotganligini ta’kidlab o‘tish lozimdir.

Ko‘p tarmoqli chorvachilik yevropaning qator mamlakatlarida, ayniqsa Shimoliy va G‘arbiy Yevropa davlatlarida yuqori darajada rivojlangan bo‘lib, xalqaro ixtisoslashuv tarmog‘iga aylandi. Janubiy Yevropada dehqonchilik chorvachilikdan ustun ahamiyatga ega. Italiya, Ispaniya, Portugaliya, Gretsiya moyli (zaytun, kungaboqar) ekinlar va subtropik mevalarni yetishtirish bo‘yicha dunyoda yetakchi o‘rinlarni egallaydi.

Nazorat uchun savollar

1. Yevropaning iqtisodiy va siyosiy geografik o‘rni, maydoni, chegaralari to‘g‘risida tushuncha bering.
2. Yevropaning tabiiy sharoiti va resurlarining mamlakat iqtisodiyotidagi o‘rnini aniqlang.
3. Yevropa davlatlarining aholisi va davlatlar tuzumlari to‘g‘risida tushuncha bering.
4. Yevropa davlatlarining aholisining soni, migratsiyasi va tabiiy o‘sishining pastligi va uning sabablarini tushuntiring.
5. Yevropa mamlakatlarining sanoati rivojlanishiga sabab bo‘lgan omillar to‘g‘risida tushuncha bering.
6. Yevropaning iqtisodiyoti rivojlangan davlatlari to‘g‘risida tushuncha bering.

7-BOB. YEVROPANING TURIZM GEOGRAFIYASI

7.1. Yevropaning dunyo xaritasida tutgan o‘rni va roli.

7.2. Yevropa mintaqasining turistik resurslari.

7.3. Yevropaning butun jahon turizmidagi hissasi.

7.4. Yevropa mintaqasida xalqaro turizmning rivojlanish dinamikasi.

7.5. Yevropaning turistik davlatlari.

7.1. Yevropaning dunyo xaritasida tutgan o‘rni va roli

Yevropaning dunyo xaritasida tutgan o‘rnini to‘liqroq tasavvur qilish uchun uning qadimiy rivojlanish tarixi va madaniyatiga e’tiborni qaratish lozim. Yevropaning madaniy merosi, xususan, Qadimgi Yunoniston, Rim imperiyasi va Yaqin Sharq xristianligiga asoslangan. Qadimgi Yunonistonning tarixi miloddan avvalgi 700-yillarga borib taqaladi. Rim imperiyasi miloddan avvalgi 753-yildayoq rivojlana boshlagan, ammo uning eng gullab-yashnagan davri milodiy 1-asr boshlariga to‘g‘ri keladi. Rim imperiyasi 117-yilda eng yuqori cho‘qqiga chiqdi. Yevropada Rim imperiyasining qulashi bilan xalqlarning buyuk ko‘chishi boshlandi. Shunga qaramay, monastirlarda ilk davrning an’analari saqlanib qolgan. VII asrdan boshlab arab ko‘chmanchilari Yevropaning sharqiy va janubiy qismlarini bosib oldilar. 800-yilda Rim imperatori taxtini egallagan Karl G‘arbiy va Markaziy Yevropaning katta hududlarida hukmronlik qilgan. U “Yevropaning otasi” deb nomlangan. Uning saltanati parchalanganidan keyin Muqaddas Rim imperiyasiga asos solingan.

O‘rta asrlardagi feodal jamiyati Fransiyadan Yevropaning boshqa mamlakatlariga ham tarqaldi. Britaniyada zodagonlar va qirol o‘rtasidagi hokimiyat taqsimoti bo‘yicha kelishmovchiliklar natijasida parlamentning tuzilishiga olib keldi. Shu vaqtlarda Papaning qudrati kuchaydi, Yevropa salib yurishiga kirishdi va inkvizitsiya bid’atlarga qarshi chiqdi.

XV asrdagi uyg‘onish davri yevropada san’at, madaniyat va siyosat tarixidagi burilishni boshlab berdi. Yevropa 15-asrdan boshlab Yevropa imperiyalari, xususan Ispaniya (sobiq Kastiliya), Portugaliya, so‘ngra Gollandiya, Fransiya, Buyuk Britaniya (sobiq Angliya) iqtisodiy va siyosiy tomondan kuchayib bordi va Afrika, shimoliy va janubiy Amerika hamda Osiyodagi yirik davlatlarni mustamlakalarga aylantirdi.

Yevropada XVIII asr oxirida sanoat inqilobi boshlandi va xomashyo va bozorlarga bo‘lgan talabning oshishiga yordam berdi. Sanoat va fabrikalarning rivojlanishi natijasida qishloqlardan odamlar ish izlab shaharlarga ko‘cha boshladilar. Yevropada o‘sha vaqtda shaharlar bir-biriga juda zich joylashgan bo‘lib, katta shaharlarda halokatli epidemiyalar keng tarqalgan edi. Bundan tashqari, ishchilar ko‘pchilik zavodlarda chang va quyuq tutunlarda ishlardi.

Ratsionalizm va shaxs erkinligi tarafdori bo‘lgan ma’rifat-parvarlik harakati XVIII asrda keng shuhrat qozondi. Zamonaviy demokratiya XVIII asr oxiridagi Fransiya inqilobi davrida tug‘ilgan deb ishoniladi. Hukmronlik asta-sekin monarxlardan burjuaziyaga o‘ta boshladi. XIX asr boshlarida Fransiyaning birinchi konsuli Napoleon I o‘z qo‘shnilarini bosib olib, butun Yevropani yagona davlatga aylantirishga harakat qildi. XIX asrda millatchilik kuchaydi va ishchilar harakati Buyuk Britaniyadan butun Yevropaga tarqaldi. Ba’zi joylarda bu hatto fuqarolar urushlariga olib keldi. Ko‘pgina davlatlar mustaqil bo‘ldi, ikkinchi tomondan, ba’zi kichik knyazliklar yirik milliy davlatlarga qo‘shildi. Ayniqsa, qashshoq va qiyin paytlarda muhojirlar Yevropadan, xususan, AQSH va Kanadaga oqib keldi.

XX asrda farovonlik oshgani sayin, resurslar uchun raqobat va mustamlaka hukmronligi qurolli to‘qnashuvlarga olib keldi, ularning eng yiriklari 1914-1918-yillardagi Birinchi Jahon urushi va 1939-1945-yillardagi Ikkinchi Jahon urushlari edi. Yevropadagi Birinchi jahon urushi iqtisodiyotning yemirilishiga va Versaldagi adolatsiz tinchlik bitimiga olib keldi va bir qancha mamlakatlarda yana

diktatorlar hokimiyat tepasiga keldi. Bu oxir-oqibat Ikkinchi jahon urushiga olib keldi, bu insoniyat tarixidagi eng halokatli urush edi.

7.1.1-rasm. Yevropaning siyosiy kartasi.

Ikkinchi jahon urushidan keyin vujudga kelgan siyosiy vaziyat ham Yevropa tarixidagi muhim bosqichdir. Sovuq urush davrida Yevropa ikki yirik siyosiy va iqtisodiy bloklarga bo‘lindi: Sharqiy Yevropadagi sotsialistik davlatlar va G‘arbiy Yevropadagi kapitalistik davlatlar. Iqtisodiy o‘sish va demokratiyaning rivojlanishi, ayniqsa kapitalistik mamlakatlarda tez sur’atlar bilan amalga oshirildi. 1990-yillar boshida Sovet Ittifoqi ham, sharqiy blok ham parchalanib ketdi. Shu bilan birga, sharqiy va g‘arbiy Germaniya birlashtirildi. 1990-yillarda Yevropa Ittifoqi o‘zining hozirgi shaklini oldi, biroq ayni paytda Bolqonda Yugoslaviya urushlari davom etayotgan edi. Boshqa tomondan, sobiq sharqiy blokning ko‘plab mamlakatlari ham demokratiklashdi va XXI asrda ularning ko‘pchiligi YeI va NATOga

qo‘shildi. 2002-yildan boshlab YeIning ko‘plab a’zo davlatlari yagona valyuta – yevroga o‘tdi.

7.2. Yevropa mintaqasining turistik resurslari

Yevropa mintaqasi turizmi jahondagi eng rivojlangan infratuzilmaga ega hisoblanadi. Mintaqa turistik resurslarga juda boyligi bilan ahamiyatlidir. Yevropa qirg‘oqlari Atlantika va Shimoliy muz okeani va uning 10 dan ortiq dengizlari bilan yuvilib turadi. Mintaqa hududida 20dan ortiq daryolar, 15ta katta-kichik ko‘llar, 25 taga yaqin orollari, 10dan ziyod tog‘ tizmalari, takrorlanmas xilma-xil (arktik, antraktik, subarktik, mu’tadil, subtropik) iqlim mintaqalari, rang-barang tabiat zonalari azal-azaldan sayyohlarni o‘ziga jalb qilib kelgan.

Yevropaning turistik resurslari haqida chuqurroq to‘xtaladigan bo‘lsak, bir qator davlatlar bo‘yicha ko‘rib o‘tamiz.

Shunday ekan sizu bizda umrimiz davomida yangidan-yangi joylarni borib ko‘rish, boshqa xalqlar va madaniyatlar bilan tanishish, shuningdek, maza qilib dam olish imkoniyati mavjud. Yer kurrasining har bir nuqtasi shu qadar betakrorki, undagi hamma joyni borib ko‘rishga umrimiz ham yetmas, balki. Shuning uchun biz Yevropaning 15ta eng maftunkor joylari haqidagi ma’lumotlarni ko‘rib o‘tamiz.

1. Fordlar, Norvegiya. Turistlar uchun meditatsiya uchun eng maqbul joy, bu Norvegiya sohillari hisoblanadi. Suvdan qad rostlagan qoyalar, nabotot olamiga boy yashil tog‘lar, qor bilan qoplangan cho‘qqilar – bunday go‘zalliklar hech bo‘lmaganda bir marta borib ko‘rishga arziydi.

2. Shamoni, Fransiya. Ilk qishki Olimpiada o‘tkazilgan ushbu shaharcha Alp tog‘ining baland cho‘qqilaridan biri Monblan tagida joylashgan.

3. Galshtatt, Avstriya. Avstriya hududida joylashgan baland Alp tog‘lari bag‘ridagi bu shaharcha unda 3000 yildan beri qazib

olinadigan tuzi bilan mashhur. U sayyohlar orasida hayratlanarli tabiat peyzajlari bilan nom qozongan.

4. Plitvits ko‘li, Xorvatiya. Yevropaning Janubi-Sharqida joylashgan qadimiy milliy bog‘lardan biri o‘zining pog‘ona-pog‘ona ko‘llari bilan mashhur.

5. Meteora, Gretsiya. Gretsiya Shimolidagi qoyalar ustida eng yirik cherkovlar kompleksi joylashgan. U “Meteora” deb nomlanib, “havoda muallaq turganlar” ma’nosini anglatadi.

6. Ansi ko‘li, Fransiya. Ansi ko‘li yevropadagi eng toza ko‘l bo‘lganligi uchun u joylashgan hudud sayohat va suv sport turlari ixlosmandlari tomonidan yuqori baholanadi.

7. Gigantlar yo‘li, Shimoliy Irlandiya. Gigantlar yo‘li – 40 000 ta o‘zaro birlashgan bazalt va andezit kalonnalar bo‘lib, ular qadimda otilgan vulqon natijasida shakllangan. Bu joy Buyuk Britaniyaning tabiat mo‘jizalaridan biri sifatida qayd etilgan.

8. Kappadokiya, Turkiya. Ushbu joy o‘ziga xos ravishda shakllangan qoyalari tufayli sayyohlar orasida shuhrat topgan. Ular “mo‘jizaviy mo‘rilar” nomi bilan mashhur.

9. Noyshvanshtayn qasri, Germaniya. Bu joy attraksionlar bog‘idagi ertaknamo qasrni yaratishda Disneyga ilhom bag‘ishlagan. Noyshvanshtayn – Bavariyadagi eng ommabop sayyohlik nuqtasidir.

10. Santorini, Gretsiya. Qit’aning janubi-sharqida joylashgan mazkur grek oroli bundan ming yillar ilgari insoniyat tarixidagi eng yirik vulqonlardan biri sababli deyarli vayron bo‘lgan edi. Bugungi kunda esa Santorini o‘zining O‘rtayer dengizining mo‘jaz va yoqimli muhiti hamda insonni qushday yengil qiluvchi ochiq tabiati bilan nom qozondi.

11. Verdon darasi, Fransiya. 700 metr chuqurlikdagi Verdon darasiga Yevropaning eng go‘zal daryo kanonlaridan biri sifatida qaraladi.

12. Selyalandsfoss sharsharasi, Islandiya. Islandiyaning bu xushmanzara sharsharasi suratini ko‘plab joylarda, jumladan kalendarlarda tez-tez uchratish mumkin.

13. Jeneva ko‘li, Shveysariya / Fransiya. Yevropaning yirik ko‘llaridan biri bo‘lgan Jeneva ko‘li qorli tog‘lar, qal’alar va uzumzorlar bilan o‘ralgan.

14. Praga, Chexiya. Bu shahar o‘zining maftunkor ilonizi ko‘chalari hamda gotik uslubida qurilgan binolari bilan juda mashhur. Pragaga “ming minoralar shahri”, deya qarashadi.

15. Lauterbrunnen vodiysi, Shveysariya. Shveysariyaning Lauterbrunnen vodiysiday go‘zal maskanni dunyoning boshqa yeridan topish juda qiyin. Sharsharalar, qorli cho‘qqilar, insonga sokin ruh, mamnunlik hissini beruvchi manzara, cherkovlarning nayzasimon minoralari – ularga soatlab termulib turish mumkin.

Tarixiy madaniy turistik resurslarga ham Yevropa juda boy bo‘lib, bu borada eng mashhur muzeylar bo‘yicha to‘xtaladigan bo‘lsak, dunyodagi yirik muzeylar tarkibiga quyidagilar kiradi.

Vatikan muzeyi. Vatikan muzeylari birinchi navbatda Rafael mo‘yqalamiga mansub rasmlar bilan bezatilgan muhtasham zallari va Sikstin kapellasidagi Mikelanjoning freskalari – devoriy suratlari bilan dovrug‘ qozongan. Etrusk Grigorian muzeyi – Vatikan muzeylaridan biri hisoblanadi. Bu yerda oltindan yasalgan ko‘pgina eksponatlar, Qadimgi Rimdan qolgan osori-atiqalar, shuningdek etrusk, yunon va italyan guldonlari kolleksiyalari saqlanadi. Pio-Kristiano muzeyidan esa nasroniylikning ilk davriga oid san’at asarlari o‘rin olgan. Kyaramonti muzeyi antik haykaltaroshlikka bag‘ishlangan. Tarix muzeyida Vatikan tarixiga aloqador eksponatlar – karetalar, avtomobillar, askar formalari, bayroqlar, Rim papasi har kuni va bayramlarda ishlatgan buyumlarni ko‘rish mumkin.

Luvr muzeyi. Luvr – dunyodagi eng yirik va eng mashhur muzeylaridan biri. O‘tgan yili bu erga 9,7 million ziyoratchi keldi. Muzey 160106 kvadrat metr maydonni egallagan bo‘lib, shundan

58470 kvadrat metrida ekspozitsiyalar joylashgan. Luvr muzeyi turli tamaddunlar, madaniyatlar va davrlarga oid 300 mingga yaqin eksponatga ega, biroq bulardan atigi 35 mingtasi namoyish etiladi, xolos. Ko‘pgina eksponatlar asrab-avaylanishi uchun ketma-ket bir oydan ortiq namoyish etilmaydi. Luvr 1793-yilda keng ommaga ochilgan ilk muzey bo‘lgan.

Ermitaj muzeyi. Ermitaj nafaqat Rossiyadagi, balki dunyodagi eng yirik badiiy va madaniy-tarixiy muzeylardan biridir. Muzey tarixi imperator ayol Yekaterina II yig‘a boshlagan san’at asarlari kolleksiyasiga borib taqaladi. Ermitajda tosh asridan hozirgi zamongacha bo‘lgan davrga oid 3 millionga yaqin san’at asarlari va madaniyat yodgorliklari saqlanadi.

Britaniya muzeyi. Britaniya muzeyi Buyuk Britaniyadagi bosh tarixiy-arxeologik muzey sanaladi, u o‘tgan yili ziyoratchilar soni bo‘yicha dunyoda uchinchi o‘rinni egalladi. Avvaliga muzeyda Qadimgi Gretsiya va Qadimgi Rimga daxldor eksponatlarni yig‘ish rejalashtirilgan edi. Britaniya imperiyasining turli nuqtalaridan Londonga olib kelingan arxeologiya topilmalari va san’at asarlari bilan bir qatorda Britaniya muzeyi har xil davrlarga mansub rasmlar, medallar, tangalar va kitoblar bilan ham boyib bordi. Hozir bu yerda 7 milliondan ziyod san’at asarlari saqlanadi.

Uffitsi galereyasi. Uffitsi 1560-1581-yillar davomida Florensiyada barpo etilgan saroy bo‘lib, hozir bu yerda Yevropaning eng yirik tasviriy san’at muzeyi joylashgan. Galereyada mashhur italyan musavvirlari – Jotto, Sandro Bottichelli, Leonardo-da-Vinchi, Rafael, Jorjone, Titsian, Uchchello va Chimabue mo‘yqalamiga mansub asarlarni ko‘rish mumkin. Shuningdek, bu yerda antik, fransuz, ispan, nemis, golland va flamand san’ati namunalari ham anchagina.

XX asrning ikkinchi yarmida atrof-muhitni toza saqlab qolish va tabiiy resurslardan oqilona foydalanish, muhofaza qilish, sayyoraviy muammolarga aylanib ketganligi ma’lum bo‘ldi. Shu bilan birga

insoniyatning tarixiy, madaniy me’rosini saqlash ham sayyoraviy chegaralarda kun tartibiga chiqdi. Ushbu dolzarb muammolar natijasida jahonda qishloq turizmi rivojlanish bosqichini boshladi.

Yevropada so‘nggi yillarda qishloq turizmi, shu singari, agroturizmni rivojlantirish bo‘yicha resurslardan samarali foydalanish a’lo darajada yo‘lga qo‘yilgan.

Bu yo‘nalishda qishloq joylarda turizmni rivojlantirish muhim ahamiyatga ega bo‘lib uning salohiyatli imkoniyatlari ham bor. Bu imkoniyatlar quyidagilardan iborat;

• qishloq joylarda joylashish va ovqatlanishning shahardagiga nisbatan 2-2,5 marotaba arzonligi;

• qishloq joylarining ekologik jihatdan tozaligi;

• ekologik toza oziq-ovqat turlarining mavjudligi;

• xalqimizning qadimiy milliy me’rosining saqlanib qolganligi;

• jozibador turistik resurslar, milliy belgilar, xususiyatga boy bo‘lgan xizmat turlarining ko‘pligi va rang-barangligi va boshq;

• milliy me’ros mahsulotlari ishlab chiqishning saqlanib qolganligi (milliy hunarmandchilik, ustachilik mahsulotlari va boshqa…).

Ikkinchidan, qishloqlarimizda turizmning quyidagi turlarining resurslari ham mavjudligi:

• tarixiy-arxeologik turizm resurslari–tarixiy obidalar, tarixiy joylar, arxeologik qoldiqlar, topilmalar;

• etnografik turizm resurslari–ana’naviy mahalliy hayot tarzi, milliy folklor, urf-odatlar, madaniyat, turli marosimlar, milliy o‘yinlar;

• qishloq xo‘jalik-agroturizm resurslari–qishloq bog‘lari, dehqonchilik, madaniy landshaftlar va qishloq xo‘jalik ishlari, polizchilik, qishloqning o‘ziga xos ko‘rinishi va qurilishi;

• diniy-diyorat turizmi resurslari–muqaddas qadamjolar, aziz-avliyolarning qabrlari, shifobaxsh buloqlar, turli diniy marosimlar;

• ekologik turizm resurslari–qishloq joylarning vatanimizning barcha tabiiy–geografik mintaqalarida (tog‘, tog‘ oldi, cho‘l, adir, suv havzalari) joylashganligi;

• rekreatsiya va sog‘lomlashtirish turizm resurslari – pansionatlar, sog‘lomlashtirish markazlari, kurortlar, mineral suvlar, betakror go‘shalar, buloqlar, o‘rmonlar, to‘qayzorlar, sharsharalar, daryo sohillari;

• qishloq fermerlari ish tartibi va hayot tarzi (qishloq xo‘jaligi hayvonlarini saqlash, yem-xashak tayyorlash mahsulotlar yetishtirish va sotish).

Qishloq turizmini tashkil qilishda yuqorida qayd qilingan turizm turlarining barcha resurslari majmuali, birikkan holda ishlaydi va har qanday turistni ko‘proq muddatlarga ushlab qoladi. Shuning uchun ham Yevropa davlatlari qishloq turizmini rivojlantirishga o‘tgan asrning 60-yillaridan jadal kirishdi.

Markaziy Yevropa qishloq turizmining beshigi hisoblanadi. Fransiya, Buyuk Britaniya, Germaniya. Bu uchala mamlakat Yevropada birinchilardan bo‘lib qishloq turizmini rivojlantirishga kirishgan davlatlar hisoblanadi. Fransiya davlatining qishloq turizmi mamlakat Sharqida va janubida kuchli rivojlangan, g‘arbida rivojlantirish jarayonlari olib borilmoqda. Bu holatning asosiy sababi Fransiyalik tadbirkorlar qishloqlarning tabiiy iqlim xususiyatlarini hisobga olganligidandir. Sharqda qishloq turizmi rivojlanganining asosiy sababi bu joylarda tog‘ tizmalarining ko‘pligi hisoblanadi (Fransiya Alpi, Vogeza tog‘lari, Yura tog‘lari) va Shveysariya, Italiya, Germaniya, Belgiya va Lyuksemburg davlatlari bilan chegaradoshligidir.

Fransiyaning janubi esa plyaj-cho‘milish zonalari bilan mashhurdir va vinochilik rayonlari ham aynan janubiy rayonlarida joylashgan. Ushbu rayonlar uchun ham qishloq turizmini rivojlantirish strategiyasini ishlab chiqilgan. Bu strategik reja bo‘yicha Sharqdagi

qishloq turizmi davlat mablag‘lari tomonidan kuchli ravishda qo‘llab-quvvatlanadi.

Germaniyada ham qishloq turizmi bir tekis emas. Bu mamlakatda qishloq turizmi boy rayonlarda kuchli rivojlangan. Chunki, Germaniya davlati ham, mamlakatdagi boy rayonlar ham qishloq turizmini rivojlantirish uchun katta mablag‘lar ajratadi. Sobiq GDR hududlarida ham qishloq turizmi g‘arbdagi hamshaharlari tajribalari hisobiga asta-sekinlik bilan rivojlanib bormoqda.

Buyuk Britaniyada qishloq turizmi asosan mamlakat janubida yaxshi rivojlangan. Buning asosiy sabablari mamlakatning katta shaharlari va poytaxtning janubda joylashganligi bilan izohlanadi. Britaniya davlati ham qaysi rayonlaridagi qishloqlarda turistik oqimni tashkil qilish imkoniyatlari ko‘p bo‘lsa o‘sha rayonlarga imtiyozli foizli kreditlarni ko‘p ajratadi.

Shimoliy Yevropa davlatlaridagi qishloq turizmi qattiq tabiiy iqlim sharoitlariga moslashgan. Daniya davlatining qishloq turizmi Yevropa davlatlari uchun e’talon hisoblanadi. Shimoliy Yevropa davlatlaridagi qishloq turizmi qish mavsumlarida shaharliklarning qishloqlarga kelib chang‘i sporti bilan dam olishiga ixtisoslashgan.

7.3. Yevropaning butun jahon turizmidagi hissasi

Yevropa turizm sanoati dastlabki bir necha yil ichida hayratlanarli darajada o‘sdi va bugungi kunda rivojlanmoqda. Vaqt sinovidan o‘tgan va kundan-kunga o‘z faoliyatini yaxshilashda davom etgan sayyohlik kompaniyalari ortib bormoqda. Turizm industriyasi faoliyatining qisqacha sharhi shuni ko‘rsatadiki, xuddi shu sanoat jami bandlikning qariyb 8 foizini ish bilan ta’minladi. Ilgari turizm sanoati juda sekin sur’atlarda o‘sib borardi. Bu Yevropaning bir qator shaharlarida sodir etilgan teraktlar ham ta’sir ko‘rsatdi.

Xo‘sh, turizm sanoatida raqobatbardosh kuchlarni harakatga keltiruvchi asosiy kuchlar nima? Axborot-kommunikatsiya

texnologiyalari Yevropada turizm sanoatining o‘sishiga olib keldi. Bu juda uzoq vaqt davomida qo‘llanilgan, ammo so‘nggi paytlarda chuqur ildiz otgan. Uning ta’siri nafaqat Yevropada, balki butun dunyoda sezilmoqda. Sayyohlik axborot markazlari soni ortib bormoqda va bu ma’lumotlar orqali butun dunyoga samarali va birinchi bo‘lib uzatilmoqda.

Internet turizm sanoatiga ham katta ta’sir ko‘rsatdi. Turizm mahsulotlari Internetda sotiladigan mahsulotlarning eng ko‘p sonini ifodalaydi. Internet orqali Yevropada turizm sanoatining marketingi yuqori darajaga ko‘tarildi va bu nima uchun turizm sanoati hayratlanarli darajada o‘sib borayotganini tushuntiradi. Internet biznes yuritish uchun Yangi imkoniyatlarni taqdim etadi. Turistik mahsulotlar mijozning uyiga olib kelinadi. Internetdan kelib chiqadigan tahdidlar mavjud bo‘lsa-da, kamchiliklardan ko‘ra afzalliklari ko‘proq.

Turmush tarzi va hayot qadriyatlarining o‘zgarishi Yevropadagi turizmga ta’sir qiluvchi yana bir kuchdir. Zamonaviy avlod odamlar ommaviy turizm deb atalgan narsalarni qilgan o‘tmishdan farqli o‘laroq, Yangi yo‘nalishlar va individual tashriflarni afzal ko‘radi. Sayohat va o‘yin-kulgi turmush tarzi turizm sanoatiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Odamlar zerikarli hayot kechiradigan eski davrdan, ishdan keyin ta’til olib, topgan-tutganini o‘zi uchun sarflaydigan qiziqarli hayot davriga o‘tishdi. Bu jihat tufayli tashriflar soni ortib bormoqda va odamlar endi madaniyat va tashrif buyurgan joylarning odamlari kabi turli xil narsalarga qiziqishmoqda. Bu nima uchun turizm sanoati yuqorida muhokama qilinganidek gullab-yashnashini tushuntiradi.

Aholining ko‘payishi hisobiga bozor hajmining o‘sib borishi turizm sanoatiga ta’sir qiluvchi yana bir kuchdir. Iqtisodiy kuchlar turizm sanoatiga ta’sir qiladi. Odamlar yetarlicha kreditga ega bo‘lganda, iqtisodiy jihatdan barqaror bo‘lganda, puli yetishmagandan farqli o‘laroq, turizm sanoati bilan shug‘ullanishlari mumkin bo‘ladi. Dunyo rivojlanayotgani va ko‘plab odamlar iqtisodiy jihatdan yaxshilanayotganligi sababli, turizm provayderlari ham o‘z

mahsulotlarini yaxshilashlari kerak va bu turizm industriyasining manfaatdor tomonlari ichida raqobat masalasini keltirib chiqaradi. Raqobat sanoatga ta’sir qiluvchi kuchdir. Har bir kompaniya o‘z raqobatchisini bozorda va jarayonda ortda qoldirishni xohlaydi, ular o‘z xizmatlarini sezilarli darajada yaxshilaydilar va ko‘pchilik bu xizmatlardan o‘zlarini hayratga soladi. Xizmatlarni yaxshilash turizm industriyasining harakatlantiruvchi kuchiga aylanadi.

Yevropa insoniyat sivilizatsiyasining eng muhim, qadimgi o‘choqlaridan biri bo‘lib hisoblanadi. Yevropa xalqaro turizm oqimining ilk bor tashkil etilgan mintaqasidir. Hozirgi vaqtda Yevropaning siyosiy xaritasida 40dan ortiq davlatlar mavjud. Yevropa aholisi eng zich joylashgan mintaqalaridan biri bo‘lib (MDH davlatlaridan tashqari), uning hududida yer shari aholsinining 8 foizdan ortiq qismi yashaydi. Yevropa dunyoda eng yirik, qadimiy shaharlari, ibodatxonalari, sport inshootlari, ko‘ngil ochar o‘yingohlari, san’at markazlari, kurortlar, shifobaxsh mineral suvlari, dengiz plyajlari, mehmonxonalar, restoranlar, zamonaviy transport kommunikatsiyalari, xilma-xil servis xizmati ko‘rsatuvchi korxonalarining barchasi turizm infratuzilmasining rivojlanishiga juda katta imkoniyatlar tug‘diradi.

Jahon turizmida turistlar harakatiga nazar tashlaydigan bo‘lsak, bu borada Yevropa mintaqasi o‘rni 2010-yilda 486,4 mln., 2015-yilda 605,1 mln., 2016-yilda 619,5 mln., 2017-yilda 673,3 mln., 2018-yilda 710,0 mln., 2019-yilda 744,3 mln.dan ortiq turistlarni qabul qilib, yilik o‘sish 4,0%ni tashkil qilgan holda yaqqol ustunlikka erishmoqda.

Jahon turizmining rivojlanish tendensiyalarini to‘laroq tahlil qilish uchun turisik resurslardan foydalanish imkoniyatlari darajasi qanday ekanligini mintaqalar misolida o‘rganib chiqsak, yutuqlar negizida nimalar borligi haqida to‘laroq tasavvurga ega bo‘lamiz.

7.3.1-jadval

Jahon turizmida Yevropa mintaqasining ko‘rsatkichlari[32]

Mintaqa-lar nomi	Yillar bo‘yicha turistlar soni mln. kishi hisobida						Yillik o‘sish %da	
	2010	2015	2016	2017	2018	2019	18/17	19/18
Yevropa	486,4	605,1	619,5	673,3	710,0	744,3	5,5	4,0
Osiyo-Tinch okeani	208,2	284,1	306,0	324,0	347,7	360,6	7,3	3,7
Amerika	150,4	194,1	201,3	210,8	215,9	220,2	2,3	2,0
Afrika	50,4	53,6	57,7	62,7	67,1	73,2	7,0	8,9
Yaqin Sharq	56,1	58,1	55,6	57,7	60,1	64,2	4,8	6,1



7.3.1-rasm. 2005-yildan 2021-yilgacha mintaqalar bo‘yicha tashrif buyurgan turistlar soni va unda yevropa mintaqasining o‘rni.

Yuqorida tahlil qilingan 7.3.1-jadvaldagi berilgan ma’lumotlar bo‘yicha yanada kegroq tushunchaga ega bo‘lish uchun quyidagi 7.3.2-rasmni keltirib o‘tishni maqsadga muvofiq deb bilamiz.

[32] World Tourism Organization (UNWTO)yillik statistik ma’lumotlari asosida tuzib chiqildi.

Amerika	Yevropa	Osiyo va Tinch Okeani
-turistlar soni: 220 million, o‘sish +2%. -daromad: 343 mlrd. AQSH doll, o‘sish +1,3%	-turistlar soni: 744 million, o‘sish +4%. -daromad: 574 mlrd. AQSH doll, o‘sish +2%	-turistlar soni: 361 million, o‘sish +4%. -daromad: 444 mlrd. AQSH doll, o‘sish +3%.



Afrika	Yaqin Sharq
-turistlar soni: 73 million, o‘sish +9%. -daromad: 39 mlrd. AQSH doll, o‘sish +2%	-turistlar soni: 64 million, o‘sish +6%. -daromad: 80 mlrd. AQSH doll, o‘sish +4%

7.3.2-rasm. Yevropa mintaqasining jahon turizmidagi ko‘rsatkichlari[33].

Yevropa mintaqasi turizmi jahondagi eng rivojlangan infratuzilmaga ega hisoblanadi. Mintaqa turistik resurslarga juda boyligi bilan ahamiyatlidir. Yevropa qirg‘oqlari Atlantika va Shimoliy muz okeani va uning 10 dan ortiq dengizlari bilan yuvilib turadi. Mintaqa hududida 20dan ortiq daryolar, 15ta katta-kichik ko‘llar, 25

[33] UNWTO. International Tourism Highlights. 2019 Edition ma’lumotlari asosida jamlangan.

taga yaqin orollari, 10dan ziyod tog‘ tizmalari, takrorlanmas xilma-xil (arktik, antraktik, subarktik, mo‘tadil, subtropik) iqlim mintaqalari, rang-barang tabiat zonalari azal-azaldan sayyohlarni o‘ziga jalb qilib kelgan.

7.4. Yevropa mintaqasida xalqaro turizmning rivojlanish dinamikasi

Yevropa insoniyat sivilizatsiyasining eng muhim, qadimgi o‘choqlaridan biri bo‘lib hisoblanadi. Yevropa xalqaro turizm oqimining ilk bor tashkil etilgan mintaqasidir. Hozirgi vaqtda Yevropaning siyosiy xaritasida 40dan ortiq davlatlar mavjud. Yevropa aholisi eng zich joylashgan mintaqalaridan biri bo‘lib (MDH davlatlaridan tashqari), uning hududida yer shari aholsinining 8 foizdan ortiq qismi yashaydi. Yevropa dunyoda eng yirik, qadimiy shaharlari, ibodatxonalari, sport inshootlari, ko‘ngil ochar o‘yingohlari, san’at markazlari, kurortlar, shifobaxsh mineral suvlari, dengiz plyajlari, mehmonxonalar, restoranlar, zamonaviy transport kommunikatsiyalari, xilma-xil servis xizmati ko‘rsatuvchi korxonalarining barchasi turizm infratuzilmasining rivojlanishiga juda katta imkoniyatlar tug‘diradi.

Shu sababli mintaqa turizmining jahon turizmidagi ulushi 2017-yilda 51% (673,3 mln. turist), 2018-yilda 50,7% (710,0 mln. turist), 2019-yilda 50,9%ni (744,3 mln. turist) tashkil qilib, yillik o‘sish sur’ati 2018-yilda 5,5%ni, 2019-yilda 4,0% o‘sishga erishib, mintaqalar orasida yetakchilik qilmoqda (7.4.1-rasm).

Yevropa mintaqasi nafaqat turistlarni qabul qilish bo‘yicha, shu bilan birga daromad olish bo‘yicha ham mintaqalar orasida yetakchilik qiladi. 2017-yilda 519,5 mlrd., 2018-yilda 570,5 mlrd., 2019-yilda 574,2 mlrd. AQSH dollari miqdorida daromad olgan.

Yevropa mintaqasi tabiiy geografik va siyosiy jihatdan Shimoliy Yevropa, G‘arbiy Yevropa, Markaziy va Sharqiy Yevropa, Janubiy (O‘rta yer dengizi bo‘yi) Yevropa qismlariga bo‘linadi.



7.4.1-rasm. Yevropa mintaqasi turizmining makroiqtisodiy ko‘rsatkichlari[34].

Mintaqaning geografik joylashish omili, ya’ni ko‘pgina dunyo mamlakatlariga quruqlik, suv yo‘llari bilan chiqish imkoniyatlarining mavjudligidan tashqari, yana bir eng muhim xususiyatlaridan biri ichki mintaqaviy turistik oqimning ustunligidir. Yevropa bo‘ylab sayohat qilayotgan turistlarning qariyib 8/10 qismi yevropalik aholidir.

Yevropa mintaqasining subregionlar bo‘yicha tahil o‘tkazadigan bo‘lsak, subregionlar ichida eng rivojlangani Janubiy Yevropa subregioni 2016-yilda 237,1 mln, 2017-yilda 267,5 mln, 2018-yilda 289 mln., 2019-yilda 304 mln. turistlarga xizmat ko‘rsatishga erishgan. G‘arbiy Yevropa subregioni 2016-yilda 181,6 mln, 2017-yilda 192,7 mln, 2018-yilda 200,4 mln., 2019-yilda 204,3 mln. turistlarga xizmat ko‘rsatgan (7.4.1-jadval).

[34] World Tourism Organization (UNWTO) yillik statistik ma’lumotlar asosida tuzib chiqilgan

7.4.1-jadval

Yevropa subregionlari turizmi rivojlanishi ko‘rsatkichlari[35]

Subregionlar nomi	Yillar bo‘yicha xizmat ko‘rsatilgan turistlar soni mln. kishi				Yillar bo‘yicha olingan daromadlar mlrd. AQSH dol. hisobida*			
	2016	**2017**	**2018**	**2019**	**2016**	**2017**	**2018**	**2019**
Shimoliy Yevropa	73,8	78,4	78,9	79,9	83,2	88,6	90,9	91,1
G‘arbiy Yevropa	181,6	192,7	200,4	204,3	157,2	170,9	180,4	179,6
Markaziy va Sharqiy Yevropa	127,1	134,6	141,4	156,2	52,6	60,7	69,1	68,9
Janubiy Yevropa	237,1	267,5	289,4	304,0	175,1	199,3	228,4	234,5
Jami	619,5	673,3	710,0	744,3	468,1	519,5	570,5	574,9

*mahalliy valyutada va domiy narxlarda hisoblangan.

Yuqoridagilardan xulosa qilib oladigan bo‘lsak, Yevropa xalqaro turizm bo‘yicha jahon yetakchisi bo‘lib, har yili mintaqaga 700 milliondan ortiq sayyohlar keladi. Yevropada turizmning o‘sish sur’ati 2010-yillarda tezlashdi, chunki ko‘plab mamlakatlar mobilroq bo‘ldi. Garchi yuqori darajadagi rivojlanish bo‘lsa-da, tashrif buyuruvchilar sonining ko‘payishi o‘ziga xos qiyinchiliklarni keltirib chiqardi, chunki ko‘plab yo‘nalishlar sayyohlarning yuqori intensivligi bilan kurashishning barqaror yo‘llarini izlashdi. Shunga qaramasdan sayohat va turizm sektori Yevropa iqtisodiyotiga ijobiy ta’sir ko‘rsatdi. Yevropa yalpi ichki mahsulotiga 2019-yilda sayohat va turizmdan 2,191 milliard yevro tushgan, ammo bu raqam koronavirus (COVID-19) pandemiyasi natijasida 2020-yilda ikki barobarga kamaydi. Shu bilan birga, sayohat va turizmning yevropa mehnat bozoriga qo‘shgan hissasi 2019-yilda 38 milliondan ortiq ish o‘rinlarini va 2020-yilda esa 35 million ish o‘rinlarini tashkil etdi, bu kamayish sog‘liqni saqlash inqirozi tufayli o‘tgan yilga nisbatan qariyb to‘qqiz foizga kamayganini anglatadi.

[35] World Tourism Organization (UNWTO) йиллик статистик маълумотлари асосида тузиб чиқилган

Koronavirus (COVID-19) pandemiyasi davrida Yevropada turizm sanoati ham dunyodagi kabi katta zarar ko‘rdi. Yevropa turizmi 2020-yilda COVID-19 pandemiyasidan eng ko‘p zarar ko‘rgan sohalardan biri bo‘ldi, bu esa butun dunyo bo‘ylab xalqaro sayyohlar sonining keskin qisqarishiga olib keldi. Pandemiya ichki sayohatlarga ham ta’sir qildi, chunki virus tarqalishini nazorat qilish uchun uyda qolish to‘g‘risida buyruqlar qabul qilindi. Buni 2020-yilda Yevropa ichki turizm xarajatlarining keskin kamayib ketganligidan ham ko‘rish mumkin.

Yevropadagi xalqaro sayyohlar soni ham xuddi ichki turizmdagi kabi tendensiyalarni ko‘rsatdi. Pandemiya boshida Yevropaga xalqaro sayyohlar soni barcha hududlar bo‘yicha 97 foizga kamaydi. 2021yil boshiga kelib, sayyohlarning kelishi hali ham avvalgi darajadagiga yetmadi. G‘arbiy va shimoliy Yevropada o‘tgan yilga nisbatan katta pasayish qayd etilgan. Pandemiya paytida yevropaliklar ham sayohatlarga deyarli chiqmadi. Yevropadan boshqa mintaqalarga chiqish sayohatlari 2020-yilda qarib 60 foizdan ko‘proqqa qisqardi.

Yevropada turizmi sayyohlik sanoatiga ajratilgan katta xarajatlarga qaramay, 2021-yilda o‘sishga erishilmadi. Mintaqa turizmi 2025-yildan keyin o‘sishi bashorat qilinmoqda. Lekin, yangi infeksiyalar xavfi hali ham to‘liq bartaraf etilganicha yo‘q. Masalan, yevropaga tashrif buyuruvchilar sonining o‘sishi 2021-yildan G‘arbiy Yevropadan tashqari barcha mintaqalar uchun 100 foizdan ko‘proq o‘sishi va turizm bozorining barcha sektorlari bo‘yicha daromadlarning o‘sishi prognoz qilingan edi. Bu prognozlar o‘zini oqlamadi, daromad qiymatlari 2025-yilga kelib pandemiyadan oldingi darajaga yetishi kutilmoqda.

7.5. Yevropaning turistik davlatlari

Yevropaning yetakchi davlatlarida turizmdan olinayotgan daromadlarning yillik o‘rtacha o‘sishi pandemiyadan oldin 4,0%ni

tashkil etmoqda. Bu yutuqlarning bir qancha sabablari bo‘lib, ularning asosiylari quyidagilardan iboratdir:

- xalqaro turizmda marketing tadqiqotlari yuqori darajada tashkil etilgani;
- iste’mol bozorining tobora yangi tovarlar va xizmatlar bilan muntazam ravishda boyib borayotganligi;
- reklama, tashviqot yuqori darajada yo‘lga qo‘yilishi va uni qanday darajada amalga oshirish kerakligini aniq bilishi;
- yirik turfirmalar, kompaniyalar o‘z izlanishlarini yaxlit tizim sifatida shakllantirib izchillik bilan olib borishlaridir.

Bizga ma’lumki davlat xazinasiga chet el valyutasi tushumini ta’minlovchi eng qulay tarmoq ham mehmonxona va otellar hisoblanadi. Mamlakatga tashrif buyurgan turist birinchi navbatda undagi xizmatlarni sotib oladi. Hozirgi kunda sayyohlar mehmonxonalardagi bir kunlik xizmat haqi 50 dan 200 dollargacha bo‘lishini talab qilishmoqdaki aynan shu narxdagi sifatli xizmatni yevropa turoperatorlari taklif qilish imkoniyatiga egadirlar.

Yevropaning rivojlangan mamlakatlari turizm bozori tobora Yangi turmahsulotlar va xizmatlar bilan boyib borayotgan hozirgi sharoitda, Yangi imkoniyatlarni aniqlash, ulardan oqilona foydalanishda talab-taklif va uni o‘rganish natijalaridan foydalanish turizm rivojlanishining asosi bo‘lib qolmoqda. Ba’zi mamlakatlar turizm iste’mol bozorida ustuvorlikka ega bo‘lish maqsadida turfirmalar, kompaniyalar izlanishlarni yaxlit tizim sifatida shakllantirib, jahon bozorida o‘zining munosib o‘rniga ega bo‘lish, eksport salohiyatini oshirishga intilmoqda.

Yevropaning rivojlangan mamlakatlari ichki bozori haddan tashqari to‘yinganligi, sanoat mahsulotlarining tez yangilanishi va turi (xili) o‘zgarib turishi bilan ko‘pgina davlatlardan yaqqol ajralib turadi. Masalan, mavjud ma’lumotlarga ko‘ra Germaniya, Fransiya va Italiya bozorlariga har yili madaniy-maishiy va xo‘jalik mahsulotlarining 1000dan ortiq yangi turi, boshqacha qilib aytganda har kuni taxminan

uchtadan Yangi mahsulot kelib tushadi. Shu jumladan, turizm sohasida yangidan-yangi xizmat usullarining kengayishi natijasida, insonlarning ma’naviy kamolotini yanada rivojlantirish uchun imkoniyat tug‘diradi. Turizmdagi xizmatlar soni xaridorlarning xarid qurbidan ancha oldinga o‘tib ketdi.

Bunday sharoitda turizmda xizmat qiluvchilar o‘z-o‘zidan raqobatchilar orasidan o‘z mahsulotlariga bo‘sh joy qidirish, bir ilojini qilib oraga suqilib kirib olish, «xizmat ko‘rsatish bo‘shlig‘ini» topish va raqiblar bilan keskin kurash bilan jiddiy tarzda shug‘ullanishga majbur etadi. Bunday vaziyatda kompaniya, firmani boshqarish tuzilmalari faoliyat ko‘rsatishining yetakchi masalasi bo‘lib, korxonaning butun faoliyatini bozorda va iste’mol sohasida tinimsiz o‘zgarib turgan holatlarga eng yuqori darajada moslashtirish masalasi o‘rtaga chiqadi. Shuning uchun ham rivojlangan mamlakatlarning turizm bozoridagi eng asosiy g‘oyasi maqsadni aniq belgilab olishdan iboratdir.

Yevropadagi davlatlar rivojlanishning yangi bosqichga chiqish uchun hamma tarmoqlarda iqtisodiy islohotlarni bir maromda amalga oshirishga erishdi. Shu jumladan, turizm sohasini isloh qilishda davlat tomonidan keng ko‘lamda kichik va o‘rta korxonalarning ish faoliyatini yaxshilashga katta miqdorda kreditlarning berilishi tezda o‘z samarasini ko‘rsatdi. Bunday natijalarga erishishda Italiya, Ispaniya, Fransiya va Germaniya boshqa davlatlarga o‘rnak qilib olsa bo‘ladigan natijalarni qo‘lga kiritdi. Kichik va o‘rta korxonalarga bunday imkoniyatlarning yaratilishi ularning ish faoliyatini keskin tarzda o‘zgartirib yuborishi bilan birga ishsizlik muammosiga bir oz barham berilishiga olib keldi. Aholini ijtimoiy himoyalash yaxshilandi, milliy daromadning sezilarli darajada o‘sishiga sabab bo‘ldi.

Bulardan tashqari yevropaning rivojlangan mamlakatlari turizmi rivojlanishida asosiy ahamiyat kasb etadigan narsalar ham borki, bularni xalqaro tashkilotlar misolida ko‘rish maqsadga muvofiqdir. YeIning tashkil bo‘lishi bilan birga bir qator muammolar, shu

jumladan turizm sohasidagi ba’zi bir to‘siqlar o‘z yechimini topdi. Bulardan hozir boshqa regionlarda turizm rivojlanishiga katta to‘sqinlik qilayotgan viza va bojxona sistemasi yevropada bartaraf etildi. Turistlar Ittifoqqa a’zo mamlakatlarda vizasiz bemalol harakatlanish imkoniyatiga ega bo‘ldilar. “Yevropa Taraqqiyot va Tiklanish Banki” tashkil qilinishi bilan iqtisodiy nochor bo‘lib qolgan korxonalarga katta miqdorda kreditlar ajratishi va ularning oyoqqa turib olgandan keyin bemalol ular bilan iqtisodiy hamkorlikda ish olib borishi imkoniyatlari tug‘ildi. Butun jahon tarixida katta burilish aynan yevropaning rivojlangan mamlakatlari ishtirokida amalga oshirilishi ko‘zda tutilmoqda. Bunda YeIga a’zo davlatlarning o‘n ikkitasi 1999-yil 1 yanvardan boshlab yagona bo‘lgan “yevro” valyuta zonasiga birlashdilar. Shu paytdan boshlab Yevropadagi o‘n ikkita davlatda hisob-kitoblar “yevro” orqali amalga oshirilib kelinmoqda. Bu valyuta birligi ikki yil davomida hisob-kitoblarda ishlatilib 2002-yil 1-yanvar kuni keng ko‘lamda muomlaga chiqarildi va olti oy mobaynida, ya’ni 1-iyulga qadar oldingi eski valyutaga to‘liq almashtirilib bo‘lindi. Bundan ko‘zlangan maqsad AQSH dollari zonasidan chiqib ketish va dollar bilan munosib raqobatlasha oladigan valyutani yuzaga keltirishdir[36]. Bu tadbirlar amalga oshirilishi o‘z navbatida turizm sohasiga ta’sirini o‘tkazdi. Xalqaro yo‘nalishlar bilan tashrif buyurgan turistlar bemalol o‘n ikkita davlatda to‘siqlarsiz xizmatlarni sotib olish imkoniyatiga ega bo‘ldi. Yagona valyuta zonasida bo‘lgan davlatlar turistlar almashinuvida hech qanday muammo bo‘lmaydi. Bu bilan turizm sohasida rivojlanishning Yangi imkoniyatlarini yuzaga keltirdi.

Yevropa mintaqasi davlatlari turistlarni qabul qilish va xizmat ko‘rsatishining rivojlanishi Fransiya misolida ko‘rib chiqishni maqsadga muvofiq deb bildik. Sababi, Fransiya hozirgi kunda nafaqat yevropada, balki jahonda eng ko‘p turistlar tashrif buyuruvchi mamlakatlardan biri bo‘lib hisoblanadi (7.5.1-jadval).

[36] O‘zbekiston iqtisodiy axborotnomasi. №8. 2000., 37 б.

7.5.1-jadval

Yevropaning turizmi rivojlangan davlatlarining turistik ko‘rsatkichlari[37]

Davlatlar nomi	Yillar bo‘yicha xizmat ko‘rsatilgan turistlar soni mln. kishi				Yillik o‘sish %da
	2016	2017	2018	2019	19/18
Fransiya	82,7	86,9	89,4	90,3	1,0
Ispaniya	75,4	81,9	82,8	83,7	1,1
Italiya	52,4	58,3	61,6	64,5	4,8
Germaniya	35,6	37,5	38,9	39,6	1,8
Turkiya	30,3	37,6	45,8	51,2	11,9
Avstriya	28,2	29,5	30,8	31,9	3,5
Rossiya	24,6	24,4	24,6	24,4	-0,5
Gretsiya	25,4	27,2	30,1	31,3	4,1
Xorvatiya	14,2	15,5	16,6	17,4	4,3

2019-yilda Fransiyaga tashrif buyurgan turistlarning umumiy soni 90,3 mln. kishi bo‘lib, xizmat ko‘rsatishdan kelayotgan doromad 2018-yilda 67,4 mlrd. AQSH dollarini tashkil etdi. Fransiyaga kelib-ketuvchi turistlarni jalb etuvchi asosiy turistik resurslar mamlakatning xilma-xil boy tabiiy resurslari (Alp tog‘lari, Yassi tog‘lar, Karst platolari, Past tekisliklar, daryo vodiylari, yam-yashil o‘rmonlar)dir. Atlantika okeani qirg‘oqlaridagi uzundan-uzoq qumli tepalar tizmasi, baxmalsimon mayin qumli cho‘milish plyajlari va O‘rtayer dengizining moviy rangli qo‘ltiq (ko‘rfaz)lari hamda madaniy-tarixiy, arxitektura yodgorliklari tashrif buyurayotgan sayyohlarni o‘ziga rom qiladi[38].

Yevropada tashrif buyuruvchilarning umumiy soni bo‘yicha Fransiyadan keyingi o‘rinni Ispaniya egallaydi. 2019-yilda turistlarning umumiy soni qariyib 83,7 mln. kishiga, daromadi bo‘yicha 2018-yilda 73,8 mlrd. AQSH dollarini tashkil qilib, bu ko‘rsatkich bo‘yicha yevropada birinchi o‘rinni band qilmoqda.

[37] World Tourism Organization (UNWTO)yilik statistik ma’lumotlari asosida tuzib chiqilgan.
[38] Turistik resurslar tahlillari natijasidagi xulosasi.

Tashrif buyuruvchi turistlarning aksariyat qismi G‘arbiy Yevropa jumladan, Germaniya, Buyuk Britaniya, Islandiya, Irlandiya mamlakatlari fuqarolaridir. Ispaniya xorijiy sayyohlarga plyajlari dam olishdan tashqari keng ko‘lami ekskursiya dasturlarini taklif qilib kelmoqdalar. Mamlakatdagi asosiy turistlar oqimi Salvador Dali teatr muzeyi (Fregeyros sh.), Prado muzeyi (Madrid sh.), Ispaniya Qiroli rezidensiyasi (Ekskorial sh.), ochiq osmon shahar (Toledo sh.) muzeylariga yo‘naltirilgan.

Nazorat uchun savollar

1. Yevropaning dunyo xaritasida tutgan o‘rni va roli haqida tushuncha bering.
2. Yevropa mintaqasining turistik resurslarini tahlil qiling.
3. Yevropaning butun jahon turizmidagi hissasini tahlil qiling.
4. Yevropa mintaqasida xalqaro turizmning rivojlanish dinamikasini tahlil qiling.
5. Yevropaning turizmi rivojlanishiga ta’sir etuvchi iqtisodiy omillar to‘g‘risida tushuncha bering.
6. Yevropaning turistik davlatlarida turizm rivojlanisha geografik omillarning ahamiyatini tushuntiring.

8-BOB. AMERIKA MINTAQASINING IQTISODIY VA SIYOSIY GEOGRAFIK TAVSIFI

8.1. Amerikaning siyosiy-geografik o‘rni, uning qulayliklari.

8.2. Tabiiy sharoiti va tabiiy resurslari.

8.3. Amerika mamlakatlarining aholisi va davlatlarning tuzilish shakllari.

8.4. Amerika mamlakatlari xo‘jaliklarining umumiy tavsifi.

8.5. Sanoat tarmoqlarini mamlakatlar bo‘yicha hududiy joylanishi.

8.1. Amerikaning siyosiy-geografik o‘rni, uning qulayliklari

Amerika g‘arbiy yarim sharda joylashgan ikki materik – shimoliy va janubiy Amerikani hamda ularga yaqin orollarni qamrab olgan qit’adir. Uning umumiy maydoni 42 mln. km^2 ga teng. Shimoliy va janubiy Amerika materiklarini Panama kanali ajratib turadi.

Amerikaning zamonaviy siyosiy xaritasida 35ta mustaqil davlat mavjud. Ular o‘z hududiy kattaligi jihatidan bir-biridan keskin farq qiladi. Qit’adagi 4ta mamlakat dunyoning 10ta maydoni bo‘yicha eng yirik davlatlari qatoridan joy olgan – Kanada, AQSH, Braziliya va Argentina. Boliviya, Kolumbiya, Peru va Meksikaning maydoni 1 mln. km^2dan oshadi. Venesuela va Chili davlatlarining hududi esa 500 ming km^2dan katta. Shu bilan birga, Amerikadagi 7ta davlatning maydoni 1 ming km^2dan kam. Ularning barchasi Karib dengizidagi orollarda joylashgan.

Amerikada faqatgina 2ta davlat – Boliviya va Paragvay – bevosita dengizga chiqish imkoniyatiga ega emas. Meksika, Gvatemala, Gonduras, Nikaragua, Kosta-Rika, Panama va Kolumbiya qirg‘oqlari ikkita, ya’ni Atlantika va Tinch okean suvlari bilan yuviladi. AQSH va Kanada esa uchta – Atlantika, Tinch va Shimoliy Muz okeanlariga chegaradosh.

Amerikadagi 35 davlatdan 25tasi respublika, 10tasi Britaniya Hamdo‘stligi qirolliklari, ya’ni konstitutsion monarxiyalar hisoblanadi. Konstitutsion monarxiyalardan 2tasi – Kanada va Beliz – Shimoliy Amerika materigida joylashgan, qolgan 8 tasi esa Karib dengizidagi orol davlatlaridir. Amerikada 7ta federativ davlat joylashgan – AQSH, Argentina, Braziliya, Kanada, Meksika, Venesuela hamda Sent-Kits va Nevis. Sent-Kits va Nevis jahondagi eng kichik federativ davlat hisoblanadi.

Amerika 2ta yirik siyosiy-geografik mintaqa – Shimoliy Amerika va Lotin Amerikasiga bo‘linadi. Shimoliy Amerikada AQSH va Kanada joylashgan. Amerikadagi AQSHdan janubda joylashgan barcha davlatlar Lotin Amerikasini tashkil qiladi. Jahonning ushbu yirik mintaqasi Lotin Amerikasi deb atalishi ko‘p davlatlarida aholi qadimgi lotin tilidan kelib chiqqan ispan, portugal va fransuz tillarida so‘zlashishi bilan bog‘liq.

Shimoliy Amerika va Lotin Amerikasi ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish darajasi hamda aholining milliy-madaniy xususiyatlari bilan farq qiladi. AQSH va Kanada “Katta yettilik” guruhiga kiradigan rivojlangan davlatlar bo‘lsa, Lotin Amerikasi davlatlari esa rivojlanayotgan davlatlardir.

Lotin Amerikasi – Amerika qit’asidagi AQSH, Kanada davlatlari va Grenlandiya orolidan tashqari barcha mamlakatlarni o‘z ichiga oladi. Aholisining aksariyat qismi qadimgi lotin tili negizida vujudga kelgan ispan va portugal tillarida so‘zlashayotganligi bois bu mintaqa Lotin Amerikasi deb ataladi. Lotin Amerikasining siyosiy xaritasida hozirgi kunda 33ta mustaqil davlat hamda qator mustamlakalar mavjud. Uning hududida bir necha kichikroq mintaqalar ham ajratiladi. Jumladan, Shimoliy Amerika materigining AQSHdan janubdagi qismi va Karib dengizidagi orollarda joylashgan davlatlar O‘rta Amerika (Mezoamerika) mintaqasini tashkil etadi. Bu regiondagi davlatlar orasida hududi, aholisi va iqtisodiy salohiyati bilan Meksika alohida ajralib turadi. O‘rta Amerikaning Meksikadan boshqa

davlatlari Karib dengizi akvatoriyasi, uning tabiiy resurslari va transport yo‘llari bilan tarixan chambarchas bog‘liqligi sababli, Karib havzasi davlatlari deb ham yuritiladi. Materikda, Meksikadan janubi-sharqqa tomon joylashgan 7ta davlat (Beliz, Gvatemala, Salvador, Gonduras, Nikaragua, Kosta-Rika, Panama) Markaziy Amerika deb nomlanadi. Karib dengizidagi 13ta orol mamlakatlar, o‘z navbatida, Vest-Indiya umumiy nomi ostida birlashtiriladi. Janubiy Amerika materigida esa 12ta mustaqil davlat va 1ta mustamlaka (Fransiya Gvianasi) joylashgan. Janubiy Amerikada Lotin Amerikasidagi okeanga chiqish imkoniyati bo‘lmagan 2ta davlat joylashgan bo‘lib, bular Boliviya va Paragvaydir. Hududi kattaligi jihatidan Braziliya (jahon mamlakatlari orasida 5-o‘rin), Argentina (8-o‘rin), Meksika, Peru, Venesuela va Kolumbiya ajralib turadi. Vest-Indiyada “mitti” davlatlar safiga mansub bir necha davlatlar joylashgan. Lotin Amerikasidagi aksariyat davlatlarida prezidentlik respublikasi boshqaruv shakli joriy etilgan. Vest-Indiyadagi ayrim kichik davlatlar hamda Markaziy Amerikada joylashgan Beliz Britaniya Hamdo‘stligi tarkibidagi konstitutsiyaviy monarxiyalar bo‘lib, rasman ularning davlat rahbari Buyuk Britaniya qirolichasi Yelizaveta II hisoblanadi. Braziliya, Argentina, Meksika, Venesuela singari yirik davlatlar hamda Karib dengizidagi 2ta kichik oroldan iborat Sent-Kits va Nevis mamlakati federativ davlat tuzilishiga ega. Mintaqaning qolgan mamlakatlari unitar tuzilishga ega.

8.2. Tabiiy sharoiti va tabiiy resurslari

Amerika mintaqasining tabiiy sharoiti va resurslari bo‘yicha to‘xtaladigan bo‘lsak, uning eng yirik davlatlaridan biri bo‘lgan AQSHdan boshlashni maqsadga muvofiq deb bilamiz. AQSH hududi yirikligi uchun tabiiy sharoiti juda xilma-xil. Kontinental shtatlarning Sharqiy va markaziy qismlari, asosan, tekisliklardan iborat, g‘arbiy qismidan esa Kordilyera tog‘larining bir nechta tarmoqlari o‘tgan. Alyaska va Gavayi shtatlarining relyefi ham, asosan, tog‘li. Alyaska

hududida Shimoliy Amerika materigining eng baland nuqtasi – balandligi 6194 metr bo‘lgan Denali (oldingi nomi – Mak-Kinli) cho‘qqisi joylashgan. Materikning eng past nuqtasi – Ajal vodiysi (-86 m) ham AQSHda, Kaliforniya shtatida joylashgan.

AQSH ko‘mir, neft, tabiiy gaz, temir, turli rangli metallar rudalari, mineral tuzlarning yirik zaxiralariga ega. Ayniqsa, mamlakatning g‘arbiy tog‘li hududlari mineral resurslariga boy. Ammo AQSHda sanoat ishlab chiqarishining hajmi yirikligi tufayli mamlakat mineral xomashyoning ko‘p turlarini import qiladi.

Kontinental shtatlarning hududi, asosan, mo‘tadil va subtropik, Alyaskaning katta qismi subarktika va arktika, Florida yarimoroli hamda Gavayi orollari esa tropik iqlim mintaqasida joylashgan. Meksika ko‘rfaziga tutash hududlarda tropik dovullar (tornado) ko‘p sodir bo‘ladi. AQSH suv va gidroenergetika resurslariga boy. Mamlakatning eng yirik daryolari – Missisipi, Missuri, Rio-Grande, Kolorado, Kolumbiya.

Regiondagi ikkinchi iqtisodiy jihatdan rivojlangan mamlakat Kanadaning sharqiy qismi qadimgi platformada joylashgan bo‘lib, asosan, tekislik va kuchli parchalangan yassi tog‘liklardan iborat bo‘lsa, Tinch okeaniga tutash g‘arbiy qismi baland Kordilyera tog‘lari bilan o‘ralgan. Kanadaning hududida uran, temir, nikel, mis, qo‘rg‘oshin, rux, oltin, neft va tabiiy gazning yirik konlari mavjud.

Kanada hududining 75%qismi sovuq iqlim zonasiga to‘g‘ri keladi. Asosiy tabiat zonalari – tayga, tundra va arktika cho‘llari. Janubida dasht landshafti keng tarqalgan. Mamlakat yer, suv hamda o‘rmon resurslariga juda boy. Shimoliy yarim shardagi o‘rmonlarning deyarli 1/3 qismi Kanadaga to‘g‘ri keladi.

Shimoliy Amerikadagi ikki davlat AQSH va Kanadadan tashqari qolgan barcha davlatlar Lotin Amerikasi deb yuritiladi. Lotin Amerikasining g‘arbiy qismida Kordilyera va And tog‘lari bir necha ming kilometrga cho‘zilgan. Meksika, Markaziy Amerika davlatlari, Kolumbiya, Ekvador, Peru, Boliviya, Chili mamlakatlarining hududini

asosan shu tog‘lar egallaydi. Venesuela bilan Paragvay davlatlari ham qisman And tog‘lari bilan band. Shuningdek, Karib dengizidagi orol mamlakatlarining yer yuzasi ham ko‘proq tog‘li ko‘rinishga ega. Braziliya, Argentina, Urugvay, Surinam, Gayana kabi davlatlar hududi, asosan, tekislik va parchalangan yassi tog‘liklardan iborat. Kordilyera-And tog‘lari va Karib dengizidagi orollar seysmik va vulqonik jihatidan yer yuzidagi eng faol mintaqalar qatoriga kiradi. Shuning uchun Lotin Amerikasidagi tog‘li mamlakatlarda kuchli zilzilalar vaqti-vaqti bilan sodir bo‘ladi. Masalan, 2010-yili Chili, 2012-yili Gvatemala, 2010-yili Gaitida ro‘y bergan kuchli zilzilalar falokatli ziyon yetkazgan edi. Lotin Amerikasining ba’zi davlatlari turli foydali qazilmalarining jahon xo‘jaligi miqyosida ahamiyatli zaxiralariga ega. Jumladan, neft-gaz resurslariga Venesuela, Meksika, temir rudalariga Braziliya, Kuba, Venesuela, boksit (alyuminiy) rudalariga Yamayka, Braziliya, Venesuela, Gayana, Surinam, misga Chili, Peru, nikelga Kuba, litiy, qalay va mineral tuzlariga Boliviya, tabiiy selitraga Chili, qimmatbaho toshlarga Kolumbiya boy hisoblanadi. Hududi asosan issiq iqlim mintaqalarida joylashganligi bois Lotin Amerikasi agroiqlim resurslariga boy, dehqonchilik ishlari esa bu yerda yil bo‘yi davom etadi. Lekin O‘rta Amerikada tropik to‘fonlar tez-tez sodir bo‘lib, aholi va xo‘jalikka katta ziyon yetkazadi. Iqlimi sernamligi hisobiga Lotin Amerikasi suv va gidroenergiya resurslari bilan yaxshi ta’minlangan. Mintaqadagi qator davlatlar o‘rmon resurslariga juda boy, bu borada Braziliya, Kolumbiya, Venesuela yetakchi hisoblanadi.

8.3. Amerika mamlakatlarining aholisi va davlatlarning tuzilish shakllari

Lotin Amerikasi davlatlarida, 2017-yil holatiga, jami 650 millionga yaqin aholi yashaydi, va bu yer shari aholisining 8,5 foizini tashkil qilmoqda. O‘tgan asrda Lotin Amerikasida aholining tabiiy ko‘payishi “demografik portlash” bosqichini kechirib, mintaqa aholisi

va uning jahon aholisi tarkibidagi ulushi yuqori sur’atlar bilan o‘sib kelgan. Hozirgi davrga kelib esa, Lotin Amerikasi mamlakatlari tug‘ilish darajasi asta-sekin pasayishi bilan tavsiflanadigan demografik o‘tishning 3-bosqichini kechirmoqda. Kuba, Urugvay va Argentina esa demografik o‘tish jarayonini yakunlab, aholi tabiiy ko‘payishining past darajasi bilan ajralib turibdi. Aholi soni jihatidan mintaqada Braziliya (206 mln.) va Meksika (121 mln.) yetakchilik qilmoqda. Shuningdek, Kolumbiya, Argentina, Venesuela va Peru kabi mamlakatlarning aholisi soni 20–50 mln. kishi oralig‘ida. Shu vaqtning o‘zida, Vest-Indiyadagi ayrim “mitti” orol davlatlarida aholi soni 0,5 mln. kishiga ham yetmaydi. Lotin Amerikasi aksariyat davlatlari yuqori urbanizatsiyalashgan mamlakatlar guruhiga mansub. Xususan, shaharlashuv ko‘rsatkichi Argentina, Venesuela va Urugvayda 90 foizdan, Braziliya va Chilida 80 foizdan oshadi. Lotin Amerikasining Mexiko, San-Paulu, Rio-de-Janeyro, Lima, Buenos-Ayres, Santa-fe-de-Bogota singari eng yirik shaharlari negizida jahon miqyosida eng yiriklari qatorida joy olgan shahar aglomeratsiyalari vujudga keldi. Lekin bu “gigant” shaharlarda millionlab odamlar qishloq joylardan kelib, juda katta maydonlarni egallagan xarob massivlarda turmush kechirmoqda. Masalan, Braziliyaning Rio-de-Janeyro va San-Paulu shaharlaridagi Favela deb ataladigan bunday kvartallar odatda “soxta” urbanizatsiyaning tipik misollari tariqasida keltiriladi. Bunday, shartli ravishdagi shahar joylarida ijtimoiy va ekologik muhit muammoli bo‘lishi tabiiy hol. Lotin Amerikasi aholisining hozirgi irqiy tarkibi xilma-xil bo‘lib, asosan, Yevropa mustamlakachiligi davrida shakllangan. Bu mintaqada yevropaliklar avlodlari (kreollar), qora tanlilar, amerikalik hindular hamda metislar, mulatlar va sambolar singari aralash irq vakillari yashaydi.

Lotin Amerikasining tub aholisi mongoloid irqiga mansub amerikalik hindular hisoblanadi. Lotin Amerikasi davlatlarining ko‘pida davlat tili sifatida ispan tili qabul qilingan. Hududining maydoni va aholisi soni bo‘yicha subregionda yetakchi bo‘lgan

Braziliyada davlat tili va muomaladagi asosiy til – portugal tili. Gaiti, Gviana va ayrim orol mamlakatlarida davlat tili fransuz, Janubiy Amerikadagi Gayana, Markaziy Amerikadagi Beliz hamda Vest-Indiyaning qator mamlakatlarida esa bu funksiyani ingliz tili bajaradi. Shuningdek, Janubiy Amerikadagi Surinam davlatida va Karib dengizidagi ba’zi mamlakatlarda niderland (golland) tili keng qo‘llaniladi. Lotin Amerikada Rim-katolik cherkovi nasroniylari ko‘pchilikni tashkil qiladi va bu mintaqa katoliklar soni bo‘yicha dunyoda yetakchidir. Inglizzabon mamlakatlarida protestantlik, “Gviana uchburchagi” mamlakatlarida esa induizm va islom dinlari keng tarqalgan. Lotin Amerikasi mamlakatlari aholisi, asosan, ikki xil hududlarda – Atlantika okeani va Karib dengizi qirg‘oqbo‘yi tekisliklari hamda Kordilyera-And tog‘larining ichki rayonlarida mujassamlangan. Aholining bunday joylashuvi tabiiy sharoit, ayniqsa, iqlim qulayligiga mos ravishda tarixan shakllangan. Meksika, Peru, Kolumbiya, Ekvador kabi mamlakatlar aholisining aksariyat qismi yuqori balandlikdagi tog‘li rayonlarda yashashi bilan ajralib turadi. Bu borada o‘ziga xos “geografik rekord” aholisining yarmidan ortig‘i 3300–3800 metr mutlaq balandlikka ega Altiplano yassitog‘ligida joylashgan Boliviya davlatiga tegishli. Uning poytaxti – La-Pas shahri – dunyodagi eng yuqori balandlikda joylashgan poytaxt hisoblanib, bunday relyef sharoitida shakllangan jahondagi yagona “millioner” shahardir. Braziliya, Urugvay, Argentina, Venesuela va, ayniqsa, orol davlatlarida, o‘z navbatida, aholi, asosan, okean va dengizga tutash tekisliklarda mujassamlangan.

Davlatlarning tuzilishi bo‘yicha to‘xtaladigan bo‘lsak, mintaqadagi davlat tuzilishi har xil bo‘lib, ularning ba’zilarini ko‘rib chiqamiz.

Amerika Qo‘shma Shtatlari. AQSH 50ta shtat, bitta federal okrug va beshta hududdan tashkil topgan federativ respublikadir. Bundan tashqari, jahonning mavjud eng qadimgi federatsiyasi hisoblanadi. 2021-yilda AQSH demokratiya indeksida 26-o‘rinni egalladi.

AQSHning amaldagi konstitutsiyasi 1787-yilda qabul qilingan. Davlat va hukumat boshlig‘i, qurolli kuchlar bosh qo‘mondoni-Prezident, uning vakolatlari juda katta. Vitse-prezident bilan birga bavosita, ikki bosqichli saylov yo‘li bilan (saylovchilar hay’ati orqali) 4 yil muddatga saylanadi. Qonun chiqaruvchi hokimiyatni senat va vakillar palatasidan iborat ikki palatali kongress amalga oshiradi. Senatda 100 senator bor (ular 6 yil muddatga, har shtatdan 2 tadan saylanadi va 1/3 qismi har 2 yilda yangilab turiladi). Vakillar palatasiga 435 deputat 2 yilga saylanadi. Ijrochi hokimiyat organi – AQSH hukumati prezident tomonidan senatning roziligi bilan tayinlanadi; 13 vazirdan iborat bo‘ladi. Hukumat kongress oldida mas’ul emas. Har bir shtatning o‘z konstitutsiyasi bor. Shtatdagi qonun chiqaruvchi hokimiyatni qonun chiqaruvchi majlis, ijrochi hokimiyatni esa gubernator amalga oshiradi. AQSH davlatining konstitutsiyaviy tizimiga uch siyosiy-huquqiy qoida asos qilib olingan, bu qoidalar – hokimiyatning bo‘linishi, federalizm va sudning konstitutsiyaviy nazoratidan iborat. Hokimiyatning bo‘linish qoidasi davlat hokimiyatining uch tarmog‘i – qonun chiqaruvchilik, ijroiya va sud hokimiyatlarining mustaqilligini va ular o‘rtasida vazifalarning chegaralab qo‘yilishini nazarda tutadi. Federal darajadagi uch tarmoq – Kongress, Prezident va Oliy suddir.

Kanada – Buyuk Britaniya boshchiligidagi Hamdo‘stlik tarkibidagi federativ davlat. Amaldagi Konstitutsiyasi 1982-yil 17-aprelda kuchga kirgan. Davlat boshlig‘i – Buyuk Britaniya qiroli (qirolichasi), uning nomidan general-gubernator davlatni boshqaradi. Qirolicha general-gubernatorni Kanada bosh vazirining tavsiyasi bilan, odatda, 5 yil muddatga tayinlaydi. Qonun chiqaruvchi hokimiyatni qirolicha nomidan general-gubernator va 2 palatali parlament (senat va jamoalar palatasi) amalga oshiradi. Ijroiya hokimiyatni qirolicha nomidan general-gubernator hamda bosh vazir va vazirlardan iborat hukumat amalga oshiradi.

Meksika – federativ respublika. Meksika Qo‘shma Shtatlarining 1917-yil 5-fevraldagi siyosiy Konstitutsiyasi amal qiladi, unga

keyinchalik o‘zgartishlar kiritilgan. Davlat boshlig‘i – prezident, u umumiy to‘g‘ri ovoz berish yo‘li bilan 6 yil muddatga saylanadi. Konstitutsiyaga binoan, prezident qayta saylanishi mumkin emas. Qonun chiqaruvchi hokimiyatni Milliy kongress (2 palatali parlament), ijroiya hokimiyatni prezident amalga oshiradi.

Braziliya – federativ respublika. Amaldagi konstitutsiya 1988-yil 5-oktyabrda qabul qilingan. 1994-yil mart va 1997-yil iyunda tuzatish kiritilgan. Davlat boshlig‘i – prezident. Prezident bilan vitseprezident aholi tomonidan to‘g‘ri va yashirin ovoz berish orqali 4 yil muddatga saylanadi. Prezident ketma-ket ikkinchi muddatga saylanishi mumkin. Qonun chiqaruvchi hokimiyat – Milliy kongress (parlament). Parlament ikki palatali bo‘lib, deputatlar palatasi va federal senatdan iborat. Ijroiya hokimiyatni prezident va u tuzgan hukumat amalga oshiradi.

Argentina – federativ respublika. Amaldagi konstitutsiyasi 1994-yil 24-avgustda qabul qilingan. Davlat boshlig‘i – prezident. Prezident va vitseprezident 4 yil muddatga saylanadi. Qonun chiqaruvchi hokimiyat – Milliy kongress (parlament). Kongress ikki palatali bo‘lib, senat va deputatlar palatasidan iborat. Ijrochi hokimiyat prezident va hukumatdir.

8.4. Amerika mamlakatlari xo‘jaliklarining umumiy tavsifi

Amerika mamlakatlari xo‘jaliklari bo‘yicha olib borilgan o‘rganishlarga qaraganda, shimoliy Amerika mamlakatlari iqtisodiyoti va xo‘jaligi bo‘yicha barcha adabiyotlarda keng yoritib berilgan. Shuning uchun biz ko‘proq nisbatan iqtisodiyoti va xo‘jaligi kamroq yoritilgan Lotin Amerikasi mamlakatlarini tahlil qilib o‘tishni maqsadga muvofiq deb bildik.

Lotin Amerikasi mamlakatlari xalqaro ixtisoslashuvi, eng avvalo, yoqilg‘i, konchilik, metallurgiya sanoati hamda ko‘p tarmoqli qishloq xo‘jaligi bilan bog‘liq. Hozirgi davrda ayrim mamlakatlar uchun

mashinasozlik ham muhim ishlab chiqarish tarmog‘iga aylandi. Yoqilg‘i sanoatida asosiy eksportbop ahamiyat neft va neftni qayta ishlash sanoatiga tegishli bo‘lib, iqtisodiyotning bu tarmog‘i, eng avvalo, Venesuela bilan Meksikada yuqori darajada rivojlangan. Shuningdek, Ekvador, Boliviya davlatlarida ham neft-gaz sanoati rivojlanib bormoqda. Oxirgi yillarda Lotin Amerikasi mamlakatlarining umumiy eksporti tarkibida neft va neft mahsulotlari ulushi 20 foizdan ko‘proq bo‘lmoqda. Lotin Amerikasi mamlakatlariga jahon yoqilg‘i eksporti umumiy hajmining 8 foizga yaqin qismi to‘g‘ri keladi. Mintaqa mamlakatlarida konchilik va metallurgiya sanoati ham yaxshi rivojlangan. Braziliya jahon mamlakatlari orasida temir rudani qazish va eksport qilish bo‘yicha yetakchi o‘rinlardan birini egallaydi. Shuningdek, Braziliya marganes, alyuminiy, mis, uran rudalarini qazib olishga ham ixtisoslashgan. Juda yirik GESlarning qurilishi hisobiga Braziliyadagi metallurgiya korxonalari arzon elektrenergiyasi bilan ta’minlandi va bu ishlab chiqarish tarmog‘i mamlakatda tobora rivojlanmoqda. Lotin Amerikasi metallurgiya sanoati mahsulotlari umumiy eksportining eng katta qismi misga to‘g‘ri keladi. Bu metallni qazish va eritish sanoati, ayniqsa, Chili va Peru uchun katta iqtisodiy ahamiyatga ega. Boliviyada qalay, surma, kumush va turli nodir metallarning qazish sanoati yaxshi rivojlanib, mamlakatning xalqaro ixtisoslashuvini ko‘p jihatidan belgilaydi. Kuba esa dunyo bo‘yicha nikel va kobalt metallarini ishlab chiqarishda yetakchi mamlakatlar qatorida joy olgan. Mashinasozlik sanoati, asosan, Braziliya, Meksika va Argentinada yaxshi rivojlangan bo‘lib, jahon xo‘jaligi miqyosida ko‘proq avtomobilsozlik, elektronika va elektrotexnika tarmoqlariga ixtisoslashgan. Bu mamlakatlar uchun yengil avtomobillar eng asosiy eksportbop mahsulotga aylangan. Lotin Amerikasining eng yirik davlatlarida mashinasozlikning yaxshi rivojlanishi uchun metallurgiya bazasining yaxshi rivojlanganligi, arzon va nisbatan malakali ishchi kuchi, yirik ichki bozorining mavjudligi, rivojlangan davlatlar, eng

avvalo, AQSHning yirik korporatsiyalari bilan hamkorligi muhim sanaladi.

Qishloq xo‘jaligi ham Lotin Amerikasi mamlakatlarning xalqaro ixtisoslashuvini ko‘p jihatdan belgilaydi. Shakarqamish, kofe, banan, kakao, soya va paxta yetishtirish Lotin Amerikasi mamlakatlari qishloq xo‘jaligining eksportga yo‘naltirilgan eng muhim tarmoqlari hisoblanadi. Shakarqamish ko‘proq Vest-Indiya orollari hamda Janubiy Amerikaning Shimoliy hududlarida issiq va fasliy nam iqlim sharoitida yetishtiriladi. Ayniqsa, Braziliya va Kuba iqtisodiyoti uchun shakarqamish yetishtirish va eksport qilish juda katta ahamiyatga ega. Bu ikki davlat shakar eksporti bo‘yicha dunyo bo‘yicha yetakchi o‘rinlarni egallaydi. Kofe eksporti bo‘yicha jahonda Braziliya yetakchilik qiladi. Braziliya yassitog‘ligining Janubi-Sharqiy yonbag‘irlarida kofe plantatsiyalari katta maydon egallaydi. Meksika qo‘ltig‘i va Karib dengiziga ro‘para bo‘lib turgan Meksika, Markaziy Amerika davlatlari va Kolumbiyaning tog‘ oldi (500–1500 m) hududlarida ham kofe yetishtirishga ixtisoslashgan yirik qishloq xo‘jalik rayonlari shakllangan. Bu yerda yetishtiriladigan “arabika” navli kofe jahon bo‘yicha eng sifatli va qimmatbaho hisoblanadi. Banan Lotin Amerikasiga Osiyodan olib kelinib, o‘tgan asrning boshida Markaziy Amerika davlatlarida eng asosiy qishloq xo‘jalik ekiniga aylandi.

Hozirgi kunda Braziliya, Ekvador, Kosta-Rika, Meksika, Kolumbiya eng ko‘p banan yetishtiradi, bananlarni eksport qilishda esa Ekvador va Kosta-Rika peshqadamlik qiladilar. Banan plantatsiyalari ko‘proq Tinch okeani qirg‘oqlarida joylashgan. Soya yetishtirish va eksport qilish bo‘yicha Lotin Amerikasi davlatlari ichida Braziliya, Paragvay va Argentina, kakao Braziliya, Ekvador va Dominikana Respublikasida, paxta esa Braziliya, Paragvay, Meksika va Argentina tomonidan ko‘p eksport qilinadi. Lotin Amerikasining yana bir yirik qishloq xo‘jalik rayoni – Argentinadagi Pampa deb ataladigan dasht yerlaridir. Argentina Pampasi uchun tekis relyef, issiq va nam

subtropik iqlim, serhosil qora tuproq xosligi bois, bu hudud donchilik va go‘sht chorvachiligi uchun juda qulay sharoitga ega. Shu rayondagi fermer xo‘jaliklarining hisobiga Argentina bug‘doy, makkajo‘xori va go‘shtning jahon bo‘yicha yetakchi eksportyorlaridan biriga aylangan. Xalqaro dengiz transport tizimida alohida o‘rin tutadigan Panama kanali ikkita materik, ya’ni Shimoliy va Janubiy Amerikada joylashgan Panama davlati hududidan o‘tadi. Bu kanal Atlantika okeani havzasiga tegishli Karib dengizi bilan Tinch okeanini tutashtiradigan, eng serqatnov dengiz yo‘llardan biri hisoblanadi. Panama davlati, o‘z navbatida, dengiz kompaniyalari uchun past stavkadagi soliqlarni joriy qilib, jahon bo‘yicha eng katta dengiz flotiga ega mamlakatga aylandi. Bunga, asosan, xorijiy transport kompaniyalarning rasman Panamada ro‘yxatdan o‘tganligi hisobiga erishilgan. Ma’lumki, Lotin Amerikasi davlatlari rivojlanayotgan mamlakatlar blokiga mansub. Mintaqa umumiy YIMning 2/3 qismi to‘g‘ri keladigan Braziliya, Meksika va Argentina tayanch rivojlanayotgan davlatlar guruhiga kiradi. Shuningdek, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi va aholi turmush darajasining nisbatan yuqori ko‘rsatkichlari mintaqa mamlakatlari orasida Chili, Urugvay, Barbados va Bagama orollariga xos. Mintaqaning eng sust rivojlangan davlati esa Gaiti Respublikasi hisoblanadi.

8.5. Sanoat tarmoqlarini mamlakatlar bo‘yicha hududiy joylanishi

Amerika mamlakatlari sanoatining rivojlanishi va joylashuvi bo‘yicha to‘xtaladigan bo‘lsak, mintaqa mamlakatlari ichida sanoati eng rivojlangan AQSHga alohida ko‘rib chiqamiz. AQSHda 1933-yil 16-iyunda kuchga kirgan sanoatni qayta tiklash haqidagi qonun “Yangi yo‘nalish” doirasidagi yana bir muhim tadbir bo‘ldi. Bu qonun sanoatning davlat tomonidan rivojlantirishni joriy qilishga asos bo‘ldi. Birinchi jahon urushi natijasida AQSH dunyodagi yetakchi davlatga aylanadi. Amerika kompaniyalari Yevropa mamlakatlariga ulkan

miqdorda va yuqori narxlarda harbiy jihozlar, qurol -yaroq va oziq ovqat yetkazib berdi. Koʻplab Yevropa mamlakatlari AQSHdan urush olib borish uchun kredid oldilar va urushdan soʻng AQSH oldida qarzdor boʻlib qoldi. AQSH kompaniyalari urush davrida jami 35 mlrd. dollar foyda koʻrdi. AQSH milliy daromadining 66,3% sanoatda hosil qilinadi. Sanoat ishlab chiqarishning yarmiga yaqini sanoat korporatsiyalari qoʻlida. Ular orasida: “Ekson”, “Mobil”, “Teksako”, “Shevron”, “Standard oyl of Kaliforniya”, “Standard oyl of Indiana”, “Jeneral motors”, “Ford motor”, “Kraysler” avtomobil, “IBM”, “Jeneral elektrik”, “ITT” elektr mashinasozligi, “Yu. S. Stil” poʻlat quyish, “Dyupon de Nemur” kimyo va boshqa korporatsiyalar bor. Avia-raketa-kosmik, energomashinasozlik, elektron, shuningdek neft kimyosi, atom va energetika sanoati gʻoyat tez surʼatlar bilan taraqqiy etmoqda. Elektr energiyaning 74% issiqlik elektr stansiyalarida, 12,1% GESlarda, 14,1 % AESlarda hosil qilinadi. Neft (Meksika qoʻltigʻi sohilidagi Galf, Kaliforniya, Alyaska), tabiiy gaz va oltingugurt (Galf), koʻmir (Appalachi va Markaziy havzalar), temir ruda (Yuqori koʻl atrofi), fosforit (Florida), uran, rangli metallar, kaliy tuzlari qazib olinadi. Qora metallurgiyaning asosiy markazlari – Chikago, Pittsburg, Detroyt, Klivlend, Buffalo, Baltimor, Filadelfiya. Alyuminiy sanoati Galf atrofida hamda Kolumbiya va Tennessi daryolari havzalarida joylashgan. Sanoatning yetakchi tarmogʻi – mashinasozlik va metallsozlik. Sanoat va energetika asbob-uskunalari, qurilish va qishloq xoʻjaligi mashinalari ishlab chiqarish asosan shimoli-sharqiy shtatlarda, elektrotexnika va aloqa vositalari ishlab chiqarish shimoli-sharq va Kaliforniyada yoʻlga qoʻyilgan. Avtomobilsozlikning bosh markazi Detroyt shahri, samolyotlar, raketa va kosmik texnika ishlab chiqaruvchi zavodlar asosan Los-Anjeles, San-Diyego, Boston, Nyu-York, Filadelfiya, Baltimor, Buffalo, Dallas, Atlanta va boshqa shaharlarda joylashgan. Kemasozlik (asosan harbiy kemasozlik) AQSH shimoli-sharqiy sohili portlarida rivojlangan. Atom sanoatining asosiy markazlari – Ok-Rij, Padyuka, Portsmut, Eyken, Xanford.

Kimyo sanoati ximikatlar, plastmassalar, kimyoviy tola, sintetik kauchuk, loklar, kir yuvish vositalari, bo‘yoqlar, ma’danli o‘g‘itlar va sh.k.ni ishlab chiqaradi. Mazkur tarmoq korxonalari asosan shimoli-sharqiy shtatlarda, Meksika qo‘ltig‘i sohilidagi shaharlarda joylashgan. Harbiy sanoat asosan Kaliforniya, Nyu-York, Texas, Konnektikut, Missuri, Massachusets, Virginiya shtatlarida. Yengil sanoat tarmoqlaridan eng salmoqlisi to‘qimachilik (ko‘proq Shimoliy Karolina, Janubiy Karolina va Jorjiya shtatlarida) va tikuvchilik (Nyu-York va janubiy shtatlar). Charm-poyabzal sanoati yaxshi rivojlangan. Oziq-ovqat sanoati o‘z xomashyosi bilan yaxshi ta’minlangan. Uning yetakchi tarmoqlari – go‘sht, sut, un, yog‘, qand-shakar, konserva, alkogolli, alkogolsiz ichimliklar, tamaki.

Kanada – yuksak taraqqiy etgan industrial-agrar mamlakat. YIMda sanoatning ulushi 22%, qishloq xo‘jaligi ulushi 2,2%. Aholi jon boshiga mineral xomashyo va yarim fabrikatlar ishlab chiqarish jihatdan Kanada taraqqiy etgan ko‘pgina mamlakatlardan ustunlik qiladi. Nikel, rux, kumush, molibden rudalari, asbest, oltin, platina, niobiy, tabiiy gaz, oltingugurt qazib chiqarishda, gazetabop qog‘oz, alyuminiy, sellyuloza, tilingan binokorlik yog‘ochlari ishlab chiqarishda dunyoda oldingi o‘rinlardan birida turadi. Kanadada ko‘mir, neft, temir rudasi, volfram, uran (metall tarkibidagi ruda), kaliyli tuzlar, oltingugurt ham qazib chiqariladi. Yiliga o‘rtacha 490,8 mlrd. kVt-soat elektr energiya hosil qilinadi. Toronto, Vankuver va Ontario atrofida bir qancha yirik issiqlik elektr stansiya va AES bor. Asosiy GESlari Kavbek, Ontario va Britaniya Kolumbiyasi viloyatlarida. Ishlab chiqaruvchi sanoatda oziq-ovqat va tamaki sanoati’, qora va rangli metallurgiya hamda metall ishlash, transport mashinasozligi va b. tarmoqlar yetakchi o‘rinda Mashinasozlik ishlab chiqaruvchi sanoat mahsuloti qiymatining 1/2 qismini beradi. Uning asosiy tarmog‘i – transport mashinasozligi (avtomobil, kema, aviatsiya, vagon va lokomotivsozlik). Boshqa sanoat tarmoqlaridan qishloq xo‘jaligi mashinasozligi, neft va gaz sanoati, kon, o‘rmon va

sellyuloza-qog‘oz sanoati uchun uskunalar ishlab chiqarish kor-xonalari yaxshi rivojlangan. Mashinasozlikning asosiy markazlari: Toronto, Montreal, Uinsor, Gamilton va b. Qora metallurgiya Gamilton, Su-Sent-Mari, Uellend va Sidni shaharlarida, alyuminiy, rangli metallar ishlab chiqarish Arvid, Kitimat, Norand, Sadberi, Tompson, Traylda to‘plangan. Neftni qayta ishlash zavodlari Montreal va Sarniyada joylashgan. Kimyoviy o‘g‘itlar, sintetik kauchuk va plastmassa ishlab chiqarish rivojlangan. Asosiy markazlari: Sarniya, Montreal, Toronto, NiagaraFole va Kitchener. Un tegirmoni, go‘sht, baliq-konserva va likyor-aroq ishlab chiqarish oziq-ovqat sanoatining asosiy tarmoqlari bo‘lib, ular muhim eksport ahamiyatiga ega. Yengil sanoat tarmoqlaridan to‘qimachilik, ko‘n-poyabzal va tikuvchilik nisbatan yaxshi rivojlangan. Mahsulotning yarmi Montrealda ishlab chiqariladi. Tilingan taxta, gazetabop qog‘oz, karton ishlab chiqarish markazlari: Britaniya Kolumbiyasi va Kavbek viloyatlari. Qishloq xo‘jaligi sermahsul, fermalari mexanizatsiyalashgan va ixtisoslashgan. Qishloq xo‘jaligiga yaroqli yerlarning 1/4 qismiga yaqini yirik xo‘jaliklarga birlashgan. 70 mln. gektar yer fermalar bilan band. Dehqonchilik ustun. G‘alla (bug‘doy, arpa, suli, makkajo‘xori), texnika ekinlari (qand lavlagi, soya, zig‘ir, tamaki), o‘t va yem-xashak, sabzavot, kartoshka, raps yetishtiriladi. Fermalarning 9/10 qismi elektrlashtirilgan. Don xo‘jaligi rivojlangan asosiy joylar: dasht viloyatlari, ayniqsa, Saskachevan va Manitoba. Yetishtirilgan bug‘doyning 1/2 qismidan ziyodrog‘i, arpa hosilining 1/3 qismi chetga chiqariladi. Sut chorvachiligi Ontario, Kavbek va Britaniya Kolumbiyasi viloyatlarida rivojlangan. Chorvachiligida qoramol, cho‘chqa, qo‘y va ot boqiladi. Qishloq xo‘jaligi mahsulotining 60% ga yaqinini chorvachilik yetishtirib beradi. O‘rmon xo‘jaligi Britaniya Kolumbiyasi, Kavbek va Ontarioda yaxshi rivojlangan. Jahonda tayyorlanadigan yog‘ochning katta qismi Kanadaga to‘g‘ri keladi. Baliqchilik, hayvonotchilik, parrandachilik, mo‘ynachilik rivojlangan.

Braziliya – sanoatida kon, temir va marganets rudalar qazib olish muhim ahamiyatga egadir. Boksit, qo‘rg‘oshin, volfram, oltin, olmos, neft va tosh ko‘mir, bir oz miqdorda qalay, rux, mis, nikel ham qazib chiqariladi. Braziliya tashqi bozorga, asosan AQSHga strategik ahamiyatga molik madanlar – niobiy, berilliy, sirkoniy kabilarni, shuningdek, uran rudasini sotadi. Hosil qilinadigan elektr energiyaning 90% GESlarga to‘g‘ri keladi. Tiete va RiuGrandi daryolarida yirik elektr stansiyalar mavjud. Mahsulot. Ishlab chiqarish tarmoqlari orasida eng yiriklari: metallurgiya (Volta Redonda va Belu Orizonti shaharlaridagi zavodlar Lotin Amerikasidagi eng katta po‘lat ishlab chiqarish korxonalari hisoblanadi) va mashinasozlik (jumladan, avtomobilsozlik, kemasozlik, aviasozlik, radioelektronika mashina-sozligi). Keyingi yillarda elektr texnika, harbiy sanoat, atom sanoati, neftni qayta ishlash sanoati, kimyo va neft kimyosi tarmoqlari (kislotalar, ma’danli o‘g‘itlar, sintetik tolalar, bo‘yoqlar, plastmassalar) rivojlandi. To‘qimachilik (asosan ip gazlama) va oziq-ovqat sanoati (qand-shakar, go‘sht, yog‘, tamaki) Braziliya uchun an’anaviy sohalardir. Sement, sellyuloza qog‘oz va oyna sanoati ham rivojlangan.

Argentina asosan, qishloq xo‘jaligi xomashyosini qayta ishlashga ixtisoslashgan. Yetakchi tarmoq – oziq-ovqat (go‘sht, yog‘, un, vinochilik, konserva, qand-shakar) sanoati. Go‘sht yetishtirish va eksport qilish sohasida Argentina dunyoda oldingi o‘rinlardan birida turadi. To‘qimachilik, charm-poyabzal tarmoqlari rivojlangan. Og‘ir industriyada mashinasozlik (traktor, qishloq xo‘jaligi mashinalari, avtomobillar, stanoklar, elektr texnika asbob-uskunalari va boshqalar), neftni qayta ishlash, qora metallurgiyaning salmog‘i katta. Sement, sellyuloza-qog‘oz korxonalari bor. Neft, gaz, qo‘rg‘oshin, pyx, temir, uran, berilliy va volfram rudalari qazib olinadi. Yoqilg‘i-energetika balansining salkam 85% ni neft va gaz tashkil qiladi. AESlar qurilgan. Asosiy sanoat markazlari: Buenos-Ayres, Rosario, Kordova, La-Platadir.

Nazorat uchun savollar

1. Amerikaning siyosiy-geografik o‘rnining turizmni rivojlantirishdagi ahamiyatini tushuntiring.
2. Amerikaning tabiiy sharoiti va tabiiy resurslaring turizm rivojlanishiga ta’sirini aniqlang.
3. Amerika mamlakatlarining aholisi va davlatlarning tuzilish shakllari haqida tushuncha bering.
4. Amerika mamlakatlari xo‘jaliklarining umumiy tavsifini tushuntiring.
5. Amerika sanoat tarmoqlarini mamlakatlar bo‘yicha hududiy joylanishi bo‘yicha tushuncha bering.
6. Mintaqadagi rivojlangan turistik markazlar to‘g‘risida tushuncha bering.

9-BOB. AMERIKANING TURIZM GEOGRAFIYASI

9.1. Amerikaning siyosiy xaritasi va uning tarkibiy tuzilishi.
9.2. Amerikaning turistik imkoniyatlari va turistik mamlakatlari.
9.3. Mintaqaning xalqaro turizmdagi tutgan o‘rni va hissasi.
9.4. AQSHda ichki va xalqaro turizmning rivojlanish xususiyatlari.
9.5. AQSH turizmining asosiy yo‘nalishlari va dinamikasi.

9.1. Amerikaning siyosiy xaritasi va uning tarkibiy tuzilishi

Tarixdan yaxshi xabardor kishilar yaxshi biladiki, Amerika qit’asining borligi haqida Kolumbdan oldin o‘zbek olimi aytgandi. Amerikaning ochilishi rasman 1492-yilning 12-oktyabri deb hisoblanadi. O‘sha kuni mashhur yevropalik jahongashta dengizchi Xristofor Kolumb yangi olam sohillariga langar tashlaydi. Endi yana o‘zbek olimiga qaytamiz. 973-yilda Xorazm hududida tug‘ilgan Abu Rayhon Beruniyning bugungi zamonaviy kashfiyotlarni yaralishida anchagina mehnati singgan. Beruniy yer sayyorasining o‘lchovini aniqlik bilan o‘lchagan dunyodagi birinchi olimdir. Beruniy o‘lchami bugungi olimlarning hisob-kitoblaridan (kompyuterda hisoblaganda albatta) atigi 17 kilometrga farqlanadi. Yer o‘lchovini bilganda u Osiyo, Afrika va Yevropa qit’alari dunyoning uncha katta bo‘lmagan bo‘lagi 2/5 qismini anglatishni ma’lum qiladi. Xo‘sh qolgan 3/5 qismi nimadan iborat. Abu Rayhon Beruniy Yevropa va Osiyo o‘rtasida boshqa qit’a borligiga oid ilmiy gipotezasini ilgari suradi. Beruniy umrida okean ko‘rmagan inson bo‘lsada, buyuk ixtirosi bilan “Buyuk kashfiyot toji”ini kiyishga haqli. To‘g‘ri, u Xristofor Kolumb kabi yog‘och kemada Amerika sohiliga qadam qo‘ymagan bo‘lsada, Amerikadan 11 000 kilometr uzoqlikda turib, aql mash’ali ila o‘z qalami uchida yangi kashfiyot g‘oyasini berdi. Bu 5 asrdan so‘ng o‘z tasdig‘ini topdi. Xo‘sh nima uchun unda bu yurt Amerika deyiladi? Xristofor Kolumbiya yoki Beruniya deyilmaydi? Birinchidan, bobomiz

kamtarlikka borgan, ikkinchidan, yevropada osiyolik olimlar bilan muloqot va jurnallar bo‘lmagan. Uchinchidan, o‘rtada tarixga tasodifan kirgan yana bir shaxs bor. U 1454-yilda Florensiyada tug‘ilgan Amerigo Vespuchidir. U tadqiqotchi, savdogar va sayyoh bo‘lgan Medichilar oilasiga xizmat qilgan. U Kolumb xaritasi asosida sayohatga chiqqandi. Kolumb Amerikaga birinchi borgan bo‘lsa ham, u yerga “Vest Indiya”, ya’ni Osiyoning davomi sifatida qaraydi. Amerigo Vespuchi Kolumbdan farqli ravishda ko‘rganlari haqida Florensiya zodogonlariga hikoya qiladi, ko‘plab maktublar yo‘llaydi. O‘limidan so‘ng uning yozgan maktublari “Rakkolta” nashrida va Yevropaning boshqa jurnallarida ham chop etiladi. Kolumbning asarlari esa hali ommalashmagan edi (uning qarashlari va asarlari o‘limidan 50 yil o‘tib ommalashgan). Shu bois yangi olamga bu materikning mo‘tadil iqlimi u yerda yashovchi aborigenlar va unumdor tuproqlarini ta’riflagani uchun Amerigo nomiga o‘tib ketadi. Zotan, bu faktlar o‘sha davrda ijtimoiy tarmoqlar bo‘lmasada, jurnallar orqali ommalashgan. U Amerika va Amerikaning asl xalqi, urf-odatlari to‘g‘risida juda ko‘p yozgandi[39].

Amerika dunyosining zamonaviy siyosiy xaritasining shakllanishi uzoq tarixga ega. Shimoliy Amerika qirg‘oqlariga birinchi bo‘lib Yevropaliklar V–VI asrlarda irlandlar bo‘lganligi haqida dalillar mavjud. Olimlarning fikriga ko‘ra Amerika mintaqasida IX asrda normanlar (vikinglar) bo‘lgan, ular Monrealdan 160 km. uzoqlikdagi hududdagi toshlarga yozuvlar ko‘rinishidagi izlarini qoldirishgan. Shu bilan birgalikda shimoliy Afrikadan kelgan muhojirlar Kolumbdan 2000-yil oldin Amerikaga sayohat qilgan bo‘lishi mumkinligini ta’kidlaydi.

XV-XVII asrlarda Lotin Amerikasi hududlari va davlatlarining kashf qilinishi va yevropaliklar bosib olinishi natijasida ularning keyinchalik jahon xo‘jaligi tizimiga integratsiyalashuvi, sivilizatsiyasi taraqqiyotidagi bosqichlardan birining natijasi va ajralmas qismi

[39] 14.05.2018. Kun.uz.Sherzodxon Qudratxo‘jayev. Amerikani qayta kashf qilish.

bo‘ldi. Usmonli sultonligining Kichik Osiyo va Bolqonni bosib olinishi yevropaliklarning Janubiy va Janubi-Sharqiy Osiyoga dengiz va quruqlikdagi savdo yo‘llaridan foydalanishga sezilarli darajada to‘sqinlik qildi. Yevropada talab yuqori bo‘lgan (ziravorlar, ipak va boshqalar) tovar manbalariga to‘g‘ridan-to‘g‘ri kirishni ta’minlash zarurati Hindiston va Xitoyga to‘g‘ridan-to‘g‘ri dengiz yo‘llarini topishning amaliy vazifasini belgilab berdi.

XV asr oxirida. X. Kolumb Hindistonga eng qisqa g‘arbiy yo‘lni topish uchun Ispaniya ekspeditsiyasini boshqargan, ammo u dunyoning yangi qismini kashf etgan. Buning natijasida 1492-yil 12-oktabr Amerikaning yevropaliklar tomonidan kashf etilgan rasmiy sanasi bo‘lib hisoblanadi.

Yevropadan, birinchi navbatda Ispaniya va Portugaliyadan Amerikaning kashf etilgan yerlariga bosqinchilarning ko‘plab ekspeditsiyalar uyushtirildi. Lotin Amerikasining zamonaviy davlatlarining aksariyati Ispaniyaning sobiq mustamlakalari bo‘lgan. Yevropaliklarning Amerikani bosib olishi natijasida Amerika sivilizatsiyalarining oldingi markazlarini yo‘q qildi. Hozirgi Lotin Amerikasi hududida yashagan hind qabilalari va xalqlari uzoq tarixiy taraqqiyot yo‘lini bosib o‘tgan. VIII-IX asrlarda atsteklar, mayya, inklar va boshqa xalqlar qadimiy rivojlanish yo‘llarini bosib o‘tgan. Ulardan ba’zilari o‘z yozuvlariga ega bo‘lib, matematika, astronomiya, tibbiyot, tasviriy san’at va me’morchilikni rivojlantirishda sezilarli muvaffaqiyatlarga erishgan.

Yangi yerlarning zabt etilishi savdo, sanoat, dengizchilikning rivojlanishiga misli ko‘rilmagan turtki berdi va yevropa mamlakatlarida kapitalning dastlabki jamg‘arishida muhim omil bo‘ldi.

Ammo bu mintaqadagi qadimgi xalqlarning mustaqil rivojlanishi asosan XVII asrda yakunlangan. Yevropa mustamlakachiligi mahalliy qabilalarning madaniyatini yo‘q qilish bilan birga, ularni mustamlakaga aylantirdi. Mustamlakachilik harakatlarida Ispaniya va

Portugaliyadan tashqari boshqa Yevropa davlatlari ham ishtirok etdi. Shimoliy Amerikani nisbatan tizimli ravishda mustamlaka qilish (“Anglo-Sakson Amerikasi” – AQSH va Kanadaning zamonaviy hududi) XVIII asrda boshlangan va ingliz mustamlakachiligi frantsuz va gollandiyaliklarga qaraganda ancha muvaffaqiyatli bo‘lgan. Yevropa davlatlarining tub aholisi dastlab shimoliy Amerikaning Atlantika qirg‘og‘iga kelib joylashgan.

Keyinchalik 13ta Britaniya mustamlakalari mustaqillik uchun kurashning “yadrosiga” aylandi (Buyuk Britaniya hukmronligidan) va 1776-yilda ularning o‘rnida Amerika Qo‘shma Shtatlari tashkil topdi. Hozirgi vaqtda AQSH va Kanada Lotin Amerikasidagi qo‘shnilariga ulkan iqtisodiy, siyosiy va moliyaviy ta’sir ko‘rsatadigan ikkita yuqori rivojlangan kapitalistik davlatdir. Amerikada bitta sotsialistik davlat bor – Kuba. 1898-yildan boshlab mamlakat rasman mustaqil deb e’lon qilindi, lekin aslida u AQSH tomonidan bosib olingan. 1959-yilda Kubada diktator Batista rejimiga qarshi ozodlik urushi yakunlandi va qariyb 40 yil davomida mamlakatni Fidel Kastro boshqarib keldi. Kubada bozor iqtisodiyoti elementlari mamlakat xo‘jalik majmuasiga joriy etilmoqda.

Amerikaning qolgan mamlakatlari (Lotin Amerikasi mamlakatlari) rivojlanayotgan mamlakatlar guruhiga kiradi. Ularning aksariyati XIX asrda 1810-1825-yillardagi milliy ozodlik urushlari natijasida mustaqillikka erishdi, bu urushlarda aholining keng qatlamlari: dehqonlar, qora tanlilar va inqilobiy ziyolilar, ruhoniylarning bir qismi, zodagonlar va savdogarlar vakillari ishtirok etdi.

XIX asr boshlarida. Gaiti (1804), Ekvador (1809), Paragvay, Kolumbiya, Venesuela (1811), Argentina (1816), Chili (1818), Meksika, Kosta-Rika, Nikaragua, Peru, Kolumbiya, Salvador, Gonduras, Gvatemala (1821), Braziliya (1822), Urugvay, Boliviya (1825) mustaqillikka erishdi. Barcha mamlakatlarda respublika tuzumi o‘rnatilgan (faqat Braziliyada monarxiya 1889-yilgacha saqlanib

qolgan). Lotin Amerikasi davlatlari kapitalizm rivojlanishida uzoq yo‘lni bosib o‘tdi. Ular boy tarixga, o‘ziga xos madaniyatga ega bo‘lishi bilan birga noyob tabiiy resurslarga nihoyatda boy. Ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning ko‘pgina ko‘rsatkichlari bo‘yicha bu davlatlar Osiyo va Afrikaning ko‘plab rivojlanayotgan mamlakatlaridan oldinda, lekin ular dunyoning sanoati rivojlangan davlatlaridan ancha orqada qolmoqda. Bu davlatlar tashkil topgan davrdan to hozirgi kungacha avval Yevropa davlatlariga, keyinroq esa AQSHga kuchli iqtisodiy va moliyaviy qaramlikda bo‘lgan. Shu bilan birga, mintaqa doirasida alohida mamlakatlar o‘rtasida ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish darajasida juda jiddiy farqlar mavjud.

Bir qator geograf olimlar tipologiyasiga ko‘ra Lotin Amerikasi mamlakatlari quyidagicha guruhlangan:

1. Yuqori salohiyatli davlatlar: Braziliya va Meksika.

2. Tobe kapitalizmning dastlabki rivojlanishining ko‘chiruvchi mamlakatlari: Argentina va Urugvay.

3. Kapitalizmning keng miqyosda rivojlangan mamlakatlari: Venesuela va Chili.

4. Kapitalizmning tashqi yo‘naltirilgan adaptiv rivojlanishi mamlakatlari: Boliviya, Kolumbiya, Paragvay, Peru, Ekvador.

5. Iqtisodiyoti plantatsiyaga bog‘liq bo‘lgan kichik mamlakatlar: Nikaragua, Gvatemala, Kosta-Rika, Gonduras, Salvador, Dominikan Respublikasi va Gaiti va boshqalar.

6. Kapitalizmning “konsessiya rivojlanishi” kichik mamlakatlari: Yamayka, Trinidad va Tobago, Surinam.

7. Kichik davlatlar – Panama, Bagama orollari, Bermud orollari (Britaniya), Kayman Orollar orollari (Britaniya) savdo yo‘llari chorrahasida joylashgan orollar yoki qirg‘oqbo‘yi mamlakatlari,”soliq jannati” mamlakatlari, “mehmonxona mamlakatlari”dir.

9.2. Amerikaning turistik imkoniyatlari va turistik mamlakatlari.

Jahon turizmida yana bir o‘zining imkoniyatlari kattaligi bilan ajralib turadigan turistik mintaqa Amerikadir. Turistik mintaqa nuqtai-nazaridan shimoliy Amerika, Markaziy Amerika va Janubiy Amerikadan iborat bo‘lib, xilma-xil tabiat zonalari va iqlim mintaqalariga bo‘linadi.

Amerikaning turistik imkoniyatlari va turizmi rivojlangan mamlakatlari bo‘yicha alohida davlatlar misolida to‘xtalib o‘tishni lozim deb topdik. Bunda mintaqada eng rivojlangan davlat AQSH bo‘lib, bu davlat bo‘yicha keyingi bo‘limlarda alohida tushunchalar berib o‘tamiz. Shuning uchun mintaqadagi turizmi rivojlangan yana bir rivojlangan davlat Kanadadir. Kanadaning asosiy turistik hududlari. Kanadada turistik rayonlashtirishga ko‘ra oltita mintaqa ajratiladi (9.2.1-rasm).

1 – Ko‘l bo‘yi; 2 – Kavbek; 3 – Sharqiy qirg‘oq; 4 – markaz; 5 – G‘arbiy qirg‘oq; 6 – Shimoliy

9.2.1-rasm. Kanadaning turistik hududlarga bo‘linishi.

Ko‘l bo‘yi okrugi tarkibiga Ontario provinsiyasi kiradi. Mintaqa Kanadaning markaziy qismining janubida joylashgan bo‘lib, AQSH bilan chegarada bo‘lib qirg‘oqlari Buyuk Amerika ko‘llarining suvlari bilan yuviladi. Hududning. asosiy turistik markazlaridan biri Ottava 1857-yilda Kanada poytaxtiga aylandi. Ottavaning asosiy diqqatga sazovor joylari Kanada tabiat muzeyi, fan va texnologiya muzeyi, Kanada milliy galereyasi va parlament majmuasidir. Musiqa ixlosmandlari Milliy san’at markazi orkestri, simfonik orkestrining musiqalarini tinglash bilan birga, ular bilan uchrashuvlardan bahramand bo‘ladi. Shahar ichida taniqli bog‘lar bo‘lib, ulardan eng mashhuri Gatinet bog‘idir. Har yili bahorda Ottavada rang-barang lolalar festivali keng ko‘lamda o‘tkaziladi.

Toronto Kanadaning eng yirik shahridan biri bo‘lib, ingliz tilida so‘zlashuvchi yetakchi madaniy va savdo markazi, tozalik va tartib yuqori darajaga ko‘tarilgan. Bu shaharda drama teatrlari, Milliy balet, Milliy opera, San’at markazi, Konservatoriya, Ontario qirollik muzeyi va boshqalar faoliyat yuritadi. Bundan tashqari, shahar o‘zining to‘rtta professional sport klublari va sport arenalari bilan mashhur. Torontodagi eng baland binolardan biri “Tower” (553 m.) va mashhur “Eaton Center” savdo markazi joylashgan. Torontodagi Yong ko‘chasi dunyodagi eng uzun ko‘chadir. Birlashgan Millatlar Tashkiloti Torontoni rasman “dunyodagi eng ko‘p millatli shahar” deb tan oldi – shahar aholisi 100dan ortiq tilda gaplashadi. Bundan tashqari dunyoga eng mashhur Niagara sharsharasining Kanadada joylashgan qismi Toronto shahri yoqinida joylashgan. Bu erga har yili butun dunyodan millionlab sayyohlar mashhur Laurentian, Algonquian va La Verandre milliy bog‘lariga, Sent-Lorens va Leyk bo‘yidagi vodiylarga tashrif buyuradi.

Kanadaning sharqida Kavbek provinsiyasi joylashgan bo‘lib, uning qirg‘oqlarini Atlantika okeani suvlari yuvid turadi. Kanadadagi eng qadimgi shahari Monreal Kavbek provinsiyasida joylashgan.

Shahar markazining tarixiy qismi, Jak-Kartye koʻprigi va Monrealdan bir necha oʻn daqiqalik yoʻlda Sent-Lorens togʻlari va Laurentian milliy bogʻi ajoyib changʻi kurortlari joylashgan.

Kavbekda Kanadadagi eng qadimgi Laval universiteti, shuningdek, mashhur Montmorency sharsharasi joylashgan. Kavbekda shimoliy Amerikadagi yagona qadimgi shahar devori va oʻrta asrga oid binolar – Lotin kvartallari saqlanib qolgandir.

Kanadaning sharqiy sohillarida Atlantika okeani qirgʻoqlariga yaqin joylarda Nyufaundlend va Labrador, Nyu-Brunsvik, Shahzoda Eduard oroli, Yangi Shotlandiya provinsiyalari asosiy turistik markazlar boʻlib hisoblanadi. Mamlakatning janubidagi turistik markazlari AQSH bilan chegaradosh, uchta provinsiyadan iborat: Manitoba, Saskachevan, Albertadir. Kalgaridagi turistlar oʻziga jalb qiladigan eng qiziqarli joylar hayvonot bogʻlari va dinozavrlar parki joylashgandir.

Kanadaning gʻarbiy qirgʻogʻi materikining gʻarbiy qismida joylashgan, shimoli-gʻarbda Aleksandr arxipelagi (Alyaska) bilan chegaradosh, Britaniya Kolumbiyasi provinsiyasini oʻz ichiga oladi. Bu mintaqada Vankuver Kanadaning eng goʻzal shaharlaridan biri joylashgan boʻlib, aholisi soni boʻyicha mamlakatda uchinchi oʻrinda turadi. Shaharda Stenli bogʻi, Qirolicha Yelizaveta botanika bogʻi, Ford teatri, planetariyni oʻz ichiga olgan Centenary muzeyi va dengiz muzeyi joylashgan**.**

Mamlakatning shimoliy qismida uchta viloyatdan joylashgan: Yukon, shimoli-gʻarbiy hududlar, Nunavut. Mintaqada umumiy maydoni 730 ming km^2 boʻlgan koʻplab milliy bogʻlar va qoʻriqxonalar mavjud. Wood Buffalo milliy bogʻida oʻtgan asrlarda keskin qirib yuborilgan bizonlarni koʻrishingiz mumkin. Mintaqadagi Jasper Parkining mashhur muzliklari, koʻllari, issiq buloqlarituristlarni yil davomida oʻziga jalb qilib keladi.

Amerika mintaqasining yana bir turizmi rivojlanayotgan davlati Braziliyadir. Braziliya Janubiy Amerikaning Sharqiy qismida

joylashgan davlatdir. U Gviana, Surinam, Gayana, Venesuela, Kolumbiya, Peru, Boliviya, Paragvay, Argentina va Urugvay bilan chegaralarga ega. Braziliya g‘ayrioddiy go‘zal tabiati, tarixiy arxitekturasi va ekzotik oshxonasi bilan Janubiy Amerikadagi eng yirik davlatdir. Xalqaro turizmda Braziliya ekologik, ko‘ngilochar, plyaj, etnografik, madaniy-ma’rifiy turizm turlariga ixtisoslashgan.

Mamlakat ekvatorial, ikkita subekvatorial, tropik va subtropik iqlim zonalarida joylashgan. Shuning uchun ob-havo butun yil davomida yuqori bo‘lib, iqlim sharoitlarining xilma-xilligi turistlar harakatini ta’minlashga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi.

Braziliyada sayyohlarga mashhur mehmonxonalar tarmog‘i yuqori sifatli xizmatlarni taklif etiladi, ular orasida eng obro‘li to‘rt yulduzli mehmonxonalar hisoblanadigan Trocadero, Casablanca Palace va Miramar Palaceni ta’kidlash kerak. Braziliya poytaxti sayyohlarda alohida qiziqish uyg‘otadi. Misol uchun, poytaxtdagi Milliy teatr konturi bo‘yicha Misrdagi Xeops piramidasiga o‘xshaydi. Milliy kengash binosi Ramzes II ibodatxonasining shakliga mos keladi. Yevropadagi shaharlar kabi aniq shahar markazlari yo‘q, lekin katta va keng xiyobonlar mavjud. Bu xiyobonlarga Amazonkadan va Afrikadan ko‘plab daraxt turlari olib kelib ekilgan.

Braziliya turistik rayonlashtirishga ko‘ra, beshta mintaqa ajralib turadi: shimoliy, shimoli-sharqiy, janubi-sharqiy, markaziy-g‘arbiy va janubiydir. Amazonka daryosi mintaqasi (shimoliy mintaqa) tabiatning ulug‘vorligi, etnografik xususiyatlari, tashlandiq konlarda mustaqil ravishda oltin izlash imkoniyati bilan sayyohlarni o‘ziga jalb qiladi. Dunyodagi eng katta Amazonka daryosi vodiysi nam ekvatorial o‘rmonlar bilan qoplangan, shuning uchun bu yerda ekologik turizm rivojlanmoqda. Manausda 24ta mashhur mehmonxona mavjud bo‘lib, bular Braziliyadagi eng qimmat mehmonxonalar hisoblanadi. Shimoli-sharqiy mintaqa sayyohlarni mashhur plyajlar (3500 km), kapoeyra, karnaval, barokko cherkovlari bilan o‘ziga jalb qiladi. Suv harorati

hech qachon 27°C dan pastga tushmaydi. Do‘konlarda sayyohlar odatda olmos sotib olish imkoniyatlariga ega.

Janubi-sharqiy mintaqa va Rio-de-Janeyro – barokko binolari, katta plyajlari, karnavallari, gastronomiyasi, dunyodagi eng katta Marakana stadioni bilan mashhur. Deyarli shahar markazida, Korkovado tog‘ida Masihning 30 metrli ulkan haykali joylashgan. Buni shaharning istalgan joyidan ko‘rish mumkin. Turistlar shaharning Cosme Velho ko‘chasidan boshlanadigan osma treylerlar orqali Korkova tog‘ cho‘qqisiga 30-40 daqiqada etib boradi. Korkovadodagi yodgorlik 1924-yildan 1931-yilgacha qurilgan. Haykal muallifi Pol Landovskidir. U temir-betondan yasalgan va mozaika bilan qoplangan.

Harbiy paradlar va karnaval kortejlari shaharning asosiy ko‘chasi – Prezident Vargos avenidasida o‘tkaziladi. Ayni paytda ko‘chaning ikki tomonida yig‘ma stendlar o‘rnatilgan. Shaharning eng mashhur ko‘chasi – Avenida Atlantikadir. Riodagi eng tor ko‘cha – Beco das Cancelas, kengligi bor-yo‘g‘i 35 sm.dir. Riodagi piyodalar yo‘laklari kichik qora va oq toshlar yotqizilgan bo‘lib, bu qora va oq ikki irq birligining o‘ziga xos ramzidir.

Rio botanika bog‘ida 7000 dan ortiq o‘simliklar, shu jumladan mashhur orkide to‘plami (600 tur) mavjud. Bog‘ bir necha zonalarga bo‘linadi: tropik zona, savanna, tog‘li kamar va gerbariy, akvarium va kutubxonaga ega. Karnaval Riodagi turistlarni jalb qiladigan asosiy omildir. U fevral oyining oxirlarida – mart oyining boshlarida o‘tkaziladi, 4 kun va 4 kecha davom etadi, lekin uni o‘tkazishga butun yil davomida tayyorgarlik ko‘riladi. Karnavalda har yili eng yaxshi samba ijrochisi va ushbu ritmdagi eng yaxshi qo‘shiq jamoa aniqlanadi.

Makumba – bu yangi yil arafasida bo‘lib o‘tadigan karnavalga o‘xshash bayram bo‘lib, qora tanlilar va mulatlar qadimiy marosimni o‘tkazishadi. Bunda ichimliklar va taomlar namoyish etiladi, shamlar yoqiladi, odamlar shamlar atrofida aylana bo‘ylab o‘tiradi va qo‘shiqlar kuylashadi. Yarim tunda suvga sovg‘alar, sharob, gullar va

shirinliklar tashlanadi. Agar ummon ularni qabul qilsa, u duolarni ijobat qilganini bildiradi.

Markaziy va g‘arbiy mintaqalar sayyohlarni Pantanalning yovvoyi tabiati, ko‘llar, issiq buloqlar, qo‘riqxonalar, g‘orlarni ko‘rishga taklif qiladi. Ekstremal janubda esa mashhur Iguazu sharsharasi, tabiiy bog‘lar, plyajlar, qarag‘ay o‘rmonlari joylashgandir.

An’anaviy Braziliya oshxonasi portugallar, afrikaliklar va janubiy amerikalik mahalliy hindularning oshpazlik an’analari asosida shakllangan. Feijoada – eng keng tarqalgan taom bo‘lib, har xil turdagi go‘sht, loviya, undan tayyorlanadi, qalampir sousi bilan ziravorlanadi, karam, apelsin bilan birgalikda tanovul qilish mumkin. Qahva Braziliyadagi eng mashhur alkogolsiz ichimlikdir. Bu shirin kofe “qahva” kuniga bir necha marta iste’mol qilinadi. “Kaipirinya” – limon va shakar qo‘shilgan shakar qamish arog‘i, bundan tashqari, rom, pivo, vino ham turistlar orasida mashhurdir.

9.3. Mintaqaning xalqaro turizmdagi tutgan o‘rni va hissasi

Xalqaro turistlar soni mintaqada 2010-yilda 150,4 mln., 2017-yilda 201,8 mln., 2018-yilda 215,9 mln., 2019-yilda 220,2 mln. kishini tashkil qilgan. Ushbu mintaqa uchun yana bir xarakterli bo‘lgan holat Yevropa singari ichki turizmning ustunligidir. Shu singari turistlarga ko‘rsatilgan xizmatlardan 2010-yilda 215,5 mlrd., 2017-yilda 325,8 mlrd., 2018-yilda 338,0 mlrd., 2019-yilda 342,6 mlrd. AQSH dollari miqdorida daromad olgan.

Keyingi yillarda Amerika turizm bozori o‘zining jozibadorligini namoyon qilmoqda. Ayniqsa, Karib havzasi, Markaziy Amerika va asosan Janubiy Amerika turizmining mavqei tobora ko‘tarilib bormoqda.

Janubiy Amerika xalqaro turistlarning tashrifi bilan alohida ajralib turadi. Chunki, ushbu mintaqa o‘zining xilma-xil, takrorlanmas tabiiy resurslari, tarixiy yodgorliklari, madaniyati, etnik turmush-tarzi bilan xarakterlanadi.



9.3.1-rasm. Amerika mintaqasi turizmi rivojlanishining makroiqtisodiy ko‘rsatkichlari[40]

Mintaqada dunyodagi eng baland Anxel (Venesuela) sharsharasi, sersuv Amazonka (Braziliya) daryosi, qo‘l tekkizilmagan keng maydondagi namlik o‘rmonzorlar, eng yuqori (And tog‘lari) cho‘qqisi joylashgan. Bizgacha yetib kelgan qadimgi ink qabilalari sivilizatsiyasining diqqatga sazovor diniy shaharlari Machu-Pikchu va Kusko, Naska plotasi, kolonizatsiya qilish davri shaharlari. Bu materikning eng yirik va ulkan turistik imkoniyatlaridir. Hozirgi kunda ulardan juda kam foydalanilmoqda. Materikning mavjud turistik resurslari to‘liq ishga solinsa, Janubiy Amerikaning turistlar tashrifida salmog‘i so‘zsiz ortadi.

Amerikada, xuddi Yevropadagidek singari turistlar oqimining eng ko‘p qismi mintaqa ichki turizmiga to‘g‘ri keladi. Ayniqsa, intensiv turistik oqim Shimoliy Amerika davlatlari AQSH, Kanada va Meksika o‘rtasida kuzatiladi..

[40] UNWTOT. Yillik statsistika ma’lumotlari asosida tuzib chiqilgan.

9.3.1-jadval

Amerika mintaqasi subregionlari turizmining rivojlanishishi ko‘rsatkichlari[41]

Subregionlar nomi	Yillar bo‘yicha xizmat ko‘rsatilgan turistlar soni mln. kishi				Yillar bo‘yicha olingan daromadlar mlrd. AQSH dol. hisobida*			
	2010	2017	2018	2019	2010	2017	2018	2019
Shimoliy Amerika	99,5	137,4	142,2	146,4	164,8	252,4	263,6	265,5
Karib havzasi	19,5	26,0	25,8	27,1	23,3	31,8	32,7	35,9
Markaziy Amerika	7,8	11,1	10,9	11,4	6,9	12,6	12,4	12,6
Janubiy Amerika	23,6	36,4	37,0	35,6	20,5	29,0	29,3	28,5
Jami mintaqa bo‘yicha	150,4	210,9	215,9	220,2	215,5	325,8	338,0	342,6

*mahalliy valyutada va doimiy narxlarda hisoblangan.

AQSHga tashrif buyuruvchi turistlarni yovvoyi tabiat resurslari, takrorlanmas go‘zal landshaft manzaralari, harakatdagi geyzer buloq-lar vodiysi, “Tirik geologik” milliy bog‘lari (Yellouston), gigant stalagmitli g‘orlari (Karlsbad), katta ponaramali (Grand-Kanon) tog‘ daralari, mayin qumli (Kaliforniya) plyajlari maftun etadi. Horijiy mamlakatlardan kelgan sayyohlarni AQSHning nafaqat tabiiy boy resurlari balki, uning osmon o‘par ma’muriy, savdo-sotiq binolari (Manxetten), banklar markazi (Uoll-strit), mashhur ko‘priklari (Bruklin), oliygohlar (Kolumbiya universiteti), prezident qarorgohi (Oq uy), opera teatri (Metropoliten), Kinostudiyalari (Gollivud), ko‘ngil ochar, dam olish parklari (Disneylend) kabilar o‘ziga chorlaydi. 2019-yilda 79,7 mln.dan ortiq turistlarga xizmat ko‘rsatildi,

[41] World Tourism Organization (UNWTO) yillik statistik ma’lumotlari asosida tuzib chiqilgan.

ularga ko‘rsatilgan xizmatlardan mamlakat 214,1 mlrd. AQSH dollari miqdorida daromad oldi. Mamlakatda ichki turizm salmog‘i katta bo‘lib, uning asosiy marshrutlari dam olish sog‘lomlashtirish, ko‘ngil ochar, tabiat obyektlari, tarixiy va madaniy markazlarga, qarindosh-urug‘larga tashrif buyurishdan iboratdir.

9.3.2-jadval

Amerika mintaqasidagi rivojlangan davlatlarning turistik ko‘rsatkichlari[42]

Davlatlar nomi	Yillar bo‘yicha xizmat ko‘rsatilgan turistlar soni mln. kishi				Yillar bo‘yicha daromadlar mlrd. AQSH dol. his.		
	2010	2017	2018	2019	2017	2018	2019
AQSH	60,0	77,2	79,7	79,3	210,7	214,5	214,1
Kanada	16,2	20,9	21,1	22,1	25,0	26,4	26,8
Meksika	23,3	39,3	41,3	45,0	21,3	22,5	24,6
Braziliya	5,2	6,6	6,6	6,6	5,8	5,9	5,9
Argentina	5,3	6,7	6,9	7,4	5,3	5,6	5,7

Amerika mamlakatlaridan uzoq mintaqalarga chiqayotgan turistlarning katta qismi yevropa mamlakatlarini tanlaydi. Asosiy turistik oqim Buyuk Britaniya, Fransiya, Italiya, Germaniya, Ispaniya, Niderlandiya, Portugaliya kabi davlatlarga yo‘naladi. Buning etnik sabablari bor bo‘lib, ularning ota-bobolarining kelib chiqishi yevropa mamlakatlari hisoblanadi.

9.4. AQSHda ichki va xalqaro turizmning rivojlanish xususiyatlari

Amerika Qo‘shma Shtatlarida turizm infratuzilmasi va sanoati rivojlangan va tezlik bilan yuksalayotgan soha hisoblanadi. 2019-yilning o‘zida xalqaro va ichki turizmdan AQSH yalpi ichki mahsulotiga 1,1 trln. AQSH dollariga teng daromad kelib tushgan. Shuni alohida ta’kidlash kerakki, bu tushumning katta qismini ya’ni 80

[42]World Tourism Organization (UNWTO) yillik statistik ma’lumotlari asosida tuzib chiqilgan.

foizidan ortig‘ini ichki turizmdan kelgan daromad hisoblanadi. 2019-yilda ushbu sohada bevosita ish bilan bandlar soni 5,75 mln. kishiga yetgan.



9.4.1-chizma. AQSHga tashrif buyurgan xorijiy sayyohlar soni (2011-2018-yillar mln. kishi hisobida).

9.4.1-chizmadan ko‘rinib turibtiki, AQSHga tashrif buyurgan xorijiy sayyohlar soni 2018-yilda 2011-yilga nisbatan 16,14 mln.kishiga ko‘paygan. Bunga sabab AQSH tomonidan ushbu sohasi rivojlantirish uchun strategik rejalar ishlab chiqilganligidadir. Chunki mehmondo‘stlik industriyasi mamlakatda daromaddorliligi bo‘yicha 6-o‘rinda turadi. Shu bilan birgalikda bu soha aholini band qilish bo‘yicha beshinchi tarmoq hisoblanadi.

AQSHda yuqori potensialdan foydalanish maqsadida 2011-2021-yillarga mo‘ljallangan rejaga ko‘ra 2021-yilda xalqaro sayyohlar sonini 100 million kishiga yetkazish va ulardan tushadigan daromadni 250 mlrd. AQSH dollariga yetkazish borasida bosh dastur ishlab chiqilgan edi, lekin kutilmagan pandemiya tufayli dunyodagi kabi AQSHda ham turizm chuqur inqirozga tushib qoldi.

Bunga quyidagi qadamlar orqali erishish rejalashtirilgan:

1. AQSHni targ‘ib qilish. – Iliq taklif va kutib olishni tashkil etish (aeroport, avtobus va temiryo‘l stansiyalari, portlar va h.k.); AQSH

brendini koordinatsiya qilish va xususiy sektor bilan muvofiqlashtirish; Federal (hukumat) reklama tadbirlarini kuchaytirish; tashrif buyuruvchilarga sayohat qilishini yanada ham yoqimli qilish maqsadida oson foydalana olinadigan resurslar, texnologiyalar yaratish.

2. Mamlakat doirasida sayyoh sifatida tashrif buyurish va sayohatni amalga oshirish uchun qulay imkoniyatlarni yaratib berish; turizm xizmatlari savdo-sotig‘ini amalga oshirishni yengillashtirish orqali turizm oqimni oshirish; Vizalarni olish jarayonlarini yumshatish; mamlakatga kirish joylarida qo‘shimcha xizmatlar va sifatni oshirishga qaratilgan chora-tadbirlar olib borish; yo‘lovchilarning xavfsizligi va nazoratni oshirish; transport xizmatlarini kengaytirish va sifatini oshirish.

3. Iste’molchilarga yuqori sifatli turizm xizmatlarni ko‘rsatish va ularda qayta tashrif buyurishga bo‘lgan ehtiyojni shakllantirish; hukumat tomonidan boshqariladigan turizm hududlarda xizmat sifatini oshirish; turizmda kompetentli kadrlarni tayyorlash va xizmat ko‘rsatishga jalb qilish; turizm va sayohat bilan bog‘liq kichik biznesni qo‘llab-quvvatlash.

4. Mamlakat bo‘ylab nazorat va monitoringni olib borish, barchani bir maqsadga yo‘naltirish; turizm va mehmondo‘stlik sohasini mamlakatda muhim sohaga aylantirish; turizm rivojlanishini qo‘llab-quvvatlash.

5. Tadqiqotlar olib borish va ularning natijalari asoslanib turizm faoliyatini rivojlantirish; ilmiy-tadqiqotlar olib borish; tadqiqot natijalarini tahlil qilish va kuzatish.

AQSHda turizm va sayohat markazlashtirilmagan holda boshqariladi. Unda mahalliy hokimiyatlar sohani nazorat qilib rivojlantirib boradi, bular milliy, mintaqaviy, davlat (shtat) va mahalliy darajaga tushib boradi.

Milliy darajada – federal hukumat, regional darajada – shtatlar hukumati, mahalliy darajada -destinatsion boshqaruv tashkilotlari (DMO-destination management organization) ish olib boradi.

9.5. AQSH turizmining asosiy yo‘nalishlari va dinamikasi

AQSHda shtatlarni turistik rayonlashtirish bir necha bosqichda amalga oshirilgandir. Birinchi bosqichda mamlakat bo‘ylab nisbatan teng taqsimlangan tadqiqotning asosiy nuqtalari tanlanib. Keyin bu nuqtalarning tavsifi amalga oshirildi. Tadqiqot punktlari sifatida turistik markazlar tanlandi. Keyin turistik ixtisoslashuvning dominant turlari bo‘yicha turistik markazlarni tasniflash amalga oshirildi. Nuqtalarni tasniflash asosida bir xil turdagi turistik markazlarni o‘z ichiga olgan hududlarning chegaralari aniqlandi, bu o‘xshash hududlarni aniqlashga olib keldi. Keyinchalik, turistik ixtisoslashuv turlari bo‘yicha turistik hududlarni tasniflash amalga oshirildi.

Asosiy turistik hududlar quyidagi federal birliklarni o‘z ichiga oladi, Nyu-York, Nyu-Jersi, Pensilvaniya, Meyn, Nyu-Xempshir, Vermont, Massachusets, Rod-Aylend, Konnektikut, Merilend, Delaver, G‘arbiy Virjiniya, Ogayo, Michigan, Indiana, Illinoys, Ayova, Viskonsin va Minnesota, Kolumbiyadir. Mintaqa AQSHning asosiy massivining Shimoli-Sharqida joylashgan bo‘lib, Sharqda Atlantika okeani bilan Shimolda Kanada bilan chegaradosh va Buyuk Amerika ko‘llari bilan chegaralanadi.

Mintaqada aholi eng zich joylashgan va sanoatlashgan hududdir. Boshqa mintaqalarga qaraganda tabiiy rekreatsiya resurslari ancha kam. Rekreatsion tizimlarning asosini shaharlarning madaniy va tarixiy resurslari tashkil etadi. Milliy bog‘lar, qo‘riqxonalar va tabiiy dam olish zonalari bo‘lgan, Appalachi tog‘lari, Adirondak granit massivi, Long-Aylendning sharqiy qismi, Delaver daryosi darasi, Minnesota va Viskonsin kabi mashhur joylar bor. Turizm nuqtai nazaridan mintaqa keng ixtisoslashgan. Bu yerda madaniy-ma’rifiy, ishbilarmonlik, ta’lim, ko‘ngilochar turizm, dengiz va ko‘l sohillarida

dam olish rivojlangan. Unga yiliga 40 millionga yaqin sayyoh tashrif buyuradi.

Mintaqa aholisining asosiy qadriyatlari: ta’lim, intellektual yutuqlar, fuqarolik huquqlarini kengaytirish va fuqarolarning davlat boshqaruvidagi ishtiroki.

AQSH poytaxti Vashington. Agar siz Vashington xaritasiga qarasangiz, u diagonal xiyobonlar bilan to‘ldirilgan to‘rtburchakli ko‘chalar tarmog‘idir. Eng qiziqarli sayyohlik joylari ro‘yxatiga quyidagilar kiradi: Oq uy – AQSH Prezidentining qarorgohi, Kapitoliy – Amerika Kongressi binosi (Amerika poytaxtidagi eng baland bino, Vashingtondagi hech bir bino undan baland bo‘lmasligi kerak). Kongress kutubxonasi – dunyodagi eng yirik kutubxonalardan biri, Milliy san’at galereyasi, Linkoln yodgorligi, noma’lum askar qabri bo‘lgan Arlington memorial qabristoni, Milliy san’at galereyasi, Smitson instituti muzeyi, Oliy sud. va boshqa davlat organlari joylashgan. Shahardan 25 km uzoqlikda Maunt-Vernon shaharchasida J. Vashingtonning uy-muzeyi va qabri joylashgan.

Nyu-York biznes va jahon madaniyatining eng yirik poytaxtlaridan biridir. Bu xilma-xil arxitekturaga ega shahar: eski golland uylari, oynavand osmono‘par binolari, Chinatown, hashamatli do‘konlar, Grinvich qishlog‘idagi hashamatli uylari bilan mashhur. Manxetten oroli shaharning moliyaviy va savdo markazidir. Turistlarni qiziqtiradigan obyektlar: Brodvey – Nyu-Yorkdagi eng uzun ko‘cha, Brodvey teatrlarida ko‘plab shoular, 2 km uzunlikdagi Bruklin ko‘prigi, Ozodlik orolidagi Ozodlik haykali, Soxodagi galereyalar, Markaziy bog‘, Karnegi Xoll (teatr markazi). Birlashgan Millatlar Tashkiloti shtab-kvartirasi, Rokfeller markazi, Zamonaviy san’at muzeyi, Metropolitan san’at muzeyi, Amerika hindulari muzeyi, Ibtidoiy san’at muzeyi, dengiz, tarixiy, numizmatik muzeylar joylashgan. Filadelfiya diqqatga sazovor joylarga ega mintaqadagi ikkinchi yirik shahar – Tasviriy san’at muzeyi, universitet, hayvonot bog‘i, botanika bog‘i bor.

Atlantik Siti Nyu-Jersi shtatining asosiy sayyohlik markazi va mamlakatdagi asosiy okean kurortlaridan biri bo‘lib, unga har yili 18 million sayyoh tashrif buyuradi. Bu yerda har yili Miss America tanlovi o‘tkaziladi.

Murfreesboro (Arkanzas) olmos koniga sayyohlarni jalb qiladi, ular olmosni pul to‘lash evaziga shaxsiy izlash orqali topishga harakat qilishlari mumkin. Janubi-Sharqiy qirg‘oq. Mintaqa Florida yarim orolida joylashgan va Meksika ko‘rfazi qirg‘oqlari bo‘ylab tor chiziqda cho‘zilgan. Florida, Luiziana va Texas qirg‘oqlari kabi turistlarni o‘ziga jalb qiladi. Mamlakatning janubidagi hududlariga yiliga 30 millionga yaqin sayyoh tashrif buyuradi. Hudud asosan dengiz bo‘yidagi dam olish, ko‘ngilochar, ekologik, etnografik, madaniy-ma’rifiy turizmga ixtisoslashgan.

Florida ajoyib iqlimi va qumli plyajlariga ega. Floridaga har yili 22 millionga yaqin sayyoh tashrif buyuradi. Shu bilan birgalikda Meksika ko‘rfazi qirg‘og‘ida ko‘plab dengiz bo‘yidagi kurortlar mavjud, ular orasida Galveston 50 km uzunlikdagi qumli plyaj bilan ajralib turadi. Bularning ichida Mayami 240 km. uzunlikdagi plyajlarga ega bo‘lgan kurort joylashgan. Mayami o‘zining osmono‘par binolari, hashamatli villalar bilan mashhur.

Everglades milliy qo‘riqxonasi shimoliy Amerikadagi eng katta (557 000 gektar maydoni) nam subtropiklarning botqoqli hududida noyob o‘simliklar o‘sadi. Bu yerda yovvoyi subtropik tabiat, noyob qush turlari va noyob tropik o‘simliklar saqlanib qolgan. Bu yerdagi iqlim subtropik. O‘rtacha havo harorati 35°C (yoz) dan 22°C (qish) gacha? okeandagi suv harorati 20-24°C bo‘ladi.

Orlando – dunyoga mashhur “Walt Disney World” ko‘ngilochar parki bilan ko‘plab sayyohlarni o‘ziga jalb qiladi, bu yerda “Kelajak shahri” va “Dengiz dunyosi” 11 ming gektar maydonda joylashgan. Bular turistlarga dunyodagi eng mashhur shou va attraksionlarni taklif qiladi. Bundan tashqari, u yerda: Garri Potter haqidagi ertakka bag‘ishlangan istirohat bog‘i, Ozodlik maydoni, “Prezidentlar

zali”dagi mashhur Amerika rahbarlarining mumdan yasalgan haykallari va boshqa ko‘ngilochar tadbirlar o‘tkaziladi. Hududdagi Kanaveral burni – kosmik kemalarni uchiradigan maydon joylashgan.

Kaliforniya mintaqasi AQSHning janubi-g‘arbiy qismida joylashgan, janubda Meksika bilan chegaradosh, g‘arbda Tinch okeani sohillari bo‘ylab cho‘zilgan. Shtat dengiz sohilida dam olish, ko‘ngilochar, ekologik, madaniy-ma’rifiy turizmga ixtisoslashgan. Kaliforniyaning Tinch okeani sohilida o‘nlab dengiz sohilidagi kurortlar (Santa-Barbara, Long Beach, Santa Mariya, Santa Cruz) joylashgan. Unga yiliga 20 millionga yaqin sayyoh tashrif buyuradi.

Los-Anjeles – AQSHning ko‘ngilochar poytaxti deb yuritiladi. Bu yerda har yili Oskar mukofotini topshirish marosimi bo‘lib o‘tadi. Gollivud yulduzlari Beverli-Xillz hududida yashaydi. Los-Anjeles shahrida zamonaviy san’at muzeylari bor. Shaharning chekkasida eng yirik kinostudiyalar joylashgan bo‘lib, kino sanoati va video biznesining markazi hamdir. Bundan tashqari, sayyohlar uchun qiziqarli obyektlardan biri Merilend okeanariumida – dengiz sherlari va delfinlarini ko‘rish uchun oxirgi 15 yil ichida 100 milliondan ortiq turistlar tashrif buyurgan Disneylend va ulkan “Qirolicha Meri” okean layneri – dengiz muzeyi ham turistlar uchun mashhurdir. Los-Anjelesdan 150 km janubi-sharqda har yili 1 milliondan ortiq kishilar o‘z ta’tillarini o‘tkazadigan Palm Springsning zamonaviy kurorti joylashgan. Unda 3 ming basseyn, yuzlab mehmonxonalar, motellar va restoranlar mavjud.

San-Fransisko AQSHning Tinch okeani sohilidagi asosiy port va moliyaviy markazdir. San-Fransisko qishi yumshoq va yozi salqin. Shahar o‘zining 1280 metrli “Oltin darvoza” ko‘prigi, Junior maydoni, Market-strit biznes markazi, Montgomeri ko‘chasidagi moliyaviy magnatlarning shisha saroylari, AQSHdagi eng yirik Chinatown bilan mashhur. Sayyohlar uchun alohida qiziqish uyg‘otadigan kanyonlari va Sequoia milliy bog‘lari bo‘lib, u yerda daraxtlar balandligi 100 metr

va aylanasi taxminan 30 metrga yetadi. Daraxtlarning yoshi 2500-yilgacha borib taqaladi.

Shimoli-g‘arbiy materik Qo‘shma Shtatlarning shimoli-g‘arbiy qismida joylashgan, shimolda Kanada bilan chegaradosh, Tinch okeani bilan chegaradosh va Oregon va Vashington shtatlarini o‘z ichiga oladi. Viloyat dengiz sohilida dam olish, ekologik va madaniy turizmga ixtisoslashgan. Sietlning o‘ziga xos belgisi – o‘tgan asrning 60-yillari boshlarida ko‘plab shahar va madaniy tadbirlar markazi bo‘lgan ko‘rgazma majmuasi hududida qad rostlagan fantastik ko‘rinishga egadir. Oregon shtatida so‘ngan vulqon Krater ko‘li milliy bog‘i mavjud bo‘lib, uning kraterida diametri taxminan 10 km, chuqurligi taxminan 700 m. bo‘lgan ajoyib ko‘k suvli ko‘l hosil bo‘lgan. Olimpiya milliy bog‘i xalqaro biosfera rezervati maqomiga ega va o‘zining noyob flora va faunasi tufayli Jahon merosi ro‘yxatiga kiritilgan.

Nazorat uchun savollar

1. Amerikaning siyosiy xaritasi va uning tarkibiy tuzilishini tushuntirib bering.
2. Amerikaning turistik imkoniyatlarini tahlil qilib bering.
3. Amerikaning turistik mamlakatlari bo‘yicha tushuncha bering.
4. Mintaqaning xalqaro turizmdagi tutgan o‘rni va hissasini tahlil qilib bering.
5. AQSHda ichki va xalqaro turizmning rivojlanish xususiyatlarini ochib bering.
6. AQSH turizmining asosiy yo‘nalishlari va dinamikasini tahlil qilib bering.

10-BOB. AFRIKANING IQTISODIY VA SIYOSIY GEOGRAFIK TAVSIFI

10.1. Afrikaning iqtisodiy va siyosiy geografik o‘rni, maydoni, chegaralari.

10.2. Tabiiy sharoiti va resurlarining mamlakatlar iqtisodiyotidagi o‘rni.

10.3. Aholisi va davlat tuzumi. Aholisining soni, migratsiyasi va tabiiy o‘sishining pastligi va uning sabablari.

10.4. Afrika mamlakatlarining sanoati.

10.1. Afrikaning iqtisodiy va siyosiy geografik o‘rni, maydoni, chegaralari

Afrika tabiiy resurslarga boy bo‘lishiga qaramay, mavjud siyosiy, ijtimoiy, iqtisodiy muammolar natijasida rivojlanish darajasi past bo‘lgan ko‘plab davlatlar joylashgan qit’adir. Umumiy maydoni 30,3 mln. km² dan ortiq bo‘lgan ushbu qit’ada 62 ta davlat joylashgan. Ularning 54tasi mustaqil davlatlardan iborat. Qit’ada 10ta orol, 15ta quruqlik ichkarisidagi, 37tasi dengiz chegaralariga egadir. Afrika hududi 5ta subregionga ajratiladi (10.1.1-rasm).

10.1.1-rasm. Afrika subregionlari.

Shimoliy, G‘arbiy, Markaziy, Sharqiy va Janubiy Afrika subregionlari bir-birlaridan geografik o‘rni xususiyatlari, tabiiy resurslar bilan ta’minlanganlik darajasi, maydonda joylashgan davlatlar soni kabi ko‘rsatkichlariga ko‘ra farq qiladi (10.1.1-jadval).

10.1.1-jadval

Afrika subregionlari haqida umumiy ma’lumot

Subregionlar	Maydoni, mln. km^2	Aholisi soni, mln. kishi	Davlatlar soni
Shimoliy	8,5	218	7
G‘arbiy	6,0	341	16
Sharqiy	6,3	379	17
Markaziy	6,6	142	9
Janubiy	2,7	61	5

Shimoliy Afrika O‘rta va Qizil dengizlar, Atlantika okeaniga chiqa olish imkoniyati mavjud bo‘lgani sababli qadimdan Yevropa

hamda G‘arbiy Osiyo davlatlari bilan aloqalarni yo‘lga qo‘ygan edi. Hududining katta qismi subtropik mintaqaga to‘g‘ri kelganligi davlatlarning paxta, zaytun, uzum, sitrus mevalar yetishtirishga ixtisoslashishga sabab bo‘lgan. Sanoat tarmoqlari rivojlanishi esa, birinchi navbatda mineral xomashyolarni qazib olish (neft, tabiiy gaz, fosforit, temir rudasi) hamda qayta ishlash bilan bog‘liq. Bundan tashqari, qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini qayta ishlashga ixtisos-lashgan yengil va oziq-ovqat sanoati ham yaxshi rivojlangan. Bu yerda dengiz transporti ahamiyatli hisoblanadi. Ayniqsa, Suvaysh kanalining bu mintaqa hududida joylashganligi transport xizmatlarining yuqori darajada rivojlanishiga sabab bo‘lgan.

Bundan tashqari, xizmatlar sohasida turizm xizmatining ham o‘rni katta. Aholisining asosiy qismini arab tilida so‘zlashuvchi xalqlar tashkil qiladi. Ko‘p asrlik tarixga egaligi sababli, mintaqa davlatlari iqtisodiyoti uchun an’anaviy hisoblangan sug‘orma dehqonchilik, ko‘chmanchi chorvachilik, hunarmandchilik kabi tarmoqlar o‘ziga xos an’analarga egaligi bilan ajralib turadi. Misr va Jazoir subregionning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish darajasiga ko‘ra peshqadam davlatlar hisoblanadi. G‘arbiy Afrika Sahroyi Kabir va Gvineya qo‘ltiqlari oralig‘ida joylashgan bo‘lib, hududi tropik cho‘llar, savanna hamda nam ekvatorial mintaqaga to‘g‘ri keladi. Ushbu subregionda Afrikaning aholi soni jihatidan yetakchi davlati Nigeriya joylashgan.

Aholisining milliy tarkibi ancha murakkab. Mustamlakachilik davrida qulchilik eng avj olgan mintaqa hisoblanadi. Subregionning zamonaviy qiyofasini, birinchi navbatda, bu yerda qadimdan rivojlanib kelgan qishloq xo‘jaligiga ixtisoslashuv belgilaydi. Plantatsiya xo‘jaligining rivojlanishi bo‘yicha katta tajribaga ega bo‘lgan subregion davlatlari, asosan, texnik ekinlar yetishtirishga ixtisoslashgan. Qishloq xo‘jaligida yetishtiriladigan monokultura ekinlarining (yeryong‘oq, turli mevalar, tabiiy kauchuk, kakao, kofe) asosiy qismi eksportga yo‘naltiriladi. Konchilik sanoati asosiy rivojlangan sanoat tarmog‘i hisoblanadi. Asosan, temir va uran

rudalari, boksit, qalay, neft, olmos, oltin qazib olinadi. Nigeriya G‘arbiy Afrikaning iqtisodiyoti nisbatan rivojlangan davlatlariga misol bo‘la oladi. Markaziy Afrika mamlakatlari materikning markaziy qismida, nam ekvatorial o‘rmonlar hamda savanna mintaqalarida joylashgan. Subregion mineral resurslar turi va zaxirasiga ko‘ra, nafaqat Afrikada, balki jahonda oldingi o‘rinlarning birini egallaydi. Bundan tashqari, mintaqa suv, biologik (asosan o‘rmon) resurslariga ham boy bo‘lsa-da, mavjud tabiiy resurs imkoniyatlaridan to‘lig‘icha foydalanilmaydi. Markaziy Afrika ishlov berilmagan olmos, mis, kobalt, marganes, qalay, neft kabi mineral resurslarning asosiy qismini jahonning turli davlatlariga eksport qiladi. Bundan tashqari, subregion eksportida o‘rmon resurslarining salmog‘i ham katta. Asosiy sanoat tarmog‘i konchilik sanoati bo‘lib, so‘nggi yillarda yirik shaharlarda asta-sekinlik bilan qayta ishlovchi sanoat tarmoqlari ham rivojlanmoqda. Aholisi, asosan, bantu oilasiga mansub xalqlardan tashkil topganligi bilan ajralib turadi. Kongo Demokratik Respublikasi subregion bo‘yicha iqtisodiy jihatdan eng rivojlangan davlat hisoblanadi.

Sharqiy Afrika uchun, asosan, subekvatorial va tropik iqlim xosdir. U Hind okeaniga chiqish imkoniyatiga ega bo‘lganligi sababli, qadimdan Hindiston va turli arab davlatlari bilan savdo aloqalarini o‘rnatib kelgan. Boshqa subregionlardan farqli ravishda bu mintaqa mineral resurslarga nisbatan kambag‘al ekanligi bilan ajralib turadi. Shu sababli iqtisodiyotini rivojlantirishda mavjud bo‘lgan boshqa tabiiy resurslardan samarali foydalanishga harakat qiladi. Asosan, tropik qishloq xo‘jaligi rivojlangan bo‘lib, jahon bozoriga kofe, choy, kokos palmasi mahsulotlari, turli ziravorlar olib chiqadi. Mintaqaning ba’zi davlatlari konchilik sanoati mahsulotlarini ham eksport qiladi. Qayta ishlovchi sanoat tarmoqlari rivojlanib bormoqda. Tashkil qilingan tabiiy bog‘lar va qo‘riqxonalar turizmni rivojlanishiga yordam beradi.

10.1.2-rasm. Afrikaning turistik resurslari.

Sharqiy Afrika aholisi etnik jihatdan turli qabila va urug‘, elat va millatlardan tashkil topgan. Keniya subregiondagi ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish darajasiga ko‘ra peshqadam davlat hisoblanadi.

10.2. Tabiiy sharoiti va resurlarining mamlakatlar iqtisodiyotidagi o‘rni

Afrikadagi davlatlarning tabiiy resurslari ham turlicha bo‘lib, teritoriyaning kattaligi, relyefning xilma-xilligi asosiy omillardan biri hisoblanadi. Afrika davlatlarining jahon xo‘jaligidagi o‘rni, asosan, tog‘-kon sanoati va tropik dehqonchiligi bilan belgilanadi. Ya’ni qit’adagi davlatlar iqtisodiyotida ko‘proq xomashyoni yetkazadigan tarmoqlar ustunlik qiladi. Buning asosiy sabablari ixtisoslashuvning mustamlakachilik davrida shakllanganligi, ishlab chiqarishning texnik va texnologik qoloqligi bilan bog‘liq.

Nigeriya, Jazoir, Angola, Liviya, Gabon, Kongo, Ekvatorial Gvineya neft va tabiiy gaz, Niger va Malavi uran, Gvineya boksit, Zambiya va KDR mis, Marokash fosforit, Gana va Tanzaniya oltin, Botsvana, KDR, Angola, Zimbabve, Namibiya olmos, JAR esa toshko‘mir, temir, marganes, oltin, platina, olmos kabi mineral resurslarni qazib olish va eksport qilish hajmi bilan ajralib turadi.

Aksariyat Afrika davlatlarining qishloq xo‘jaligi uchun ma’lum bir ekin turining yakkahokimligi xosdir. Masalan, Sudan, Mali, Chad

va Burkina- Fasoda asosiy ekini paxta, Kot-d'Ivuar, Gana, Kamerunda kakao, Senegal va Gambiyada yeryong‘oq, Efiopiya va Ugandada kofe, Keniyada esa choy hisoblanadi. Ko‘ptarmoqli qishloq xo‘jaligi JAR hamda O‘rta dengizbo‘yi davlatlarida shakllangan.

Ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish darajasi nuqtayi nazaridan Afrika 3 ta qismga bo‘linadi. JAR qit'adagi davlatlar orasida iqtisodiy jihatdan eng qudratlisi bo‘lganligi uchun alohida ajratiladi. Misr, Liviya, Jazoir, Tunis va Marokash kabi birmuncha yuqori darajada rivojlanayotgan davlatlar Shimoliy (O‘rta dengizbo‘yi) Afrika iqtisodiy geografik mintaqasini hosil qiladi. Qit'aning qolgan davlatlari Tropik Afrika mintaqasi tarkibiga kiradi. Tropik Afrikadagi 34 ta davlat BMT tomonidan jahonning eng sust rivojlangan davlatlar guruhiga kiritilgan.

Afrikada tabiiy sharoiti va resurlarining mamlakatlar iqtisodiyotidagi o‘rni bo‘yicha tahlil qiladigan bo‘lsak, iqtisodiyoti rivojlangan va tabiiy resurslarga boy bo‘lgan davlatlardan biri Janubiy Afrika Respublikasi (JAR) hisoblanadi. JAR Afrika qit'asining chekka janubiy qismida joylashgan, qirg‘oqlari janubi-g‘arbda Atlantika, Janubi-Sharqda Hind okeani suvlari bilan yuviladi. JAR muhim va serqatnov xalqaro dengiz yo‘llari bo‘yida joylashgan. JARdagi Keyptaun shahri Janubiy yarim shardagi eng yirik port-shaharlardan biridir. Boshqaruv shakli – parlamentar respublika. Poytaxti – Pretoriya shahri. U yerda faqat prezident va hukumatning qarorgohlari joylashgan, parlament Keyptaunda, Oliy sud esa Blumfonteyn shahrida faoliyat ko‘rsatadi.

JAR hududining relyefi xilma-xil. Sharqiy qismida Drakon tog‘lari, janubida esa Kap tog‘lari joylashgan. Mamlakatning Shimoliy va markaziy qismlari Veld platosi bilan band, g‘arbiy hududlari esa tekislik relyefi bilan ajralib turadi. JAR yirik mineral boyliklarga ega davlat. Mamlakatda ko‘mir, marganes, xrom, uran, oltin, olmos, platina, vanadiy va turli nodir metallarning katta zaxiralari mavjud.

JARning markaziy va g‘arbiy hududlarida issiq va qurg‘oqchil tropik iqlim shakllangan. Mamlakat janubi va Sharqidagi dengizbo‘yi hududlarda esa nam subtropik iqlim kuzatiladi. Mamlakatning qurg‘oqchil iqlimli qismida suv resurslari taqchilligi mavjud.

JAR qit’a davlatlari orasida aholi soni bo‘yicha 6-o‘rinda turadi. Aholi tabiiy ko‘payishi sur’atlari aksariyat Afrika davlatlariga nisbatan pastroq bo‘lib, yillik hisobda 1–1,2%ga teng. JAR aholisi qo‘shni davlatlardan ko‘chib kelayotganlar hisobiga ham ko‘paymoqda.

JARda urbanizatsiya darajasi 65%ga teng va bu ko‘rsatkich Afrikadagi ko‘p davlatlarga nisbatan ancha yuqori. Mamlakatning eng yirik shahri va iqtisodiy poytaxti Yoxannesburg hisoblanadi.

JAR aholisining salkam 80%ini turli mahalliy millat va elatlar tashkil qiladi. JAR Tropik Afrika davlatlaridan yevropaliklarning nisbatan yuqori ulushi (10%ga yaqin) bilan ajralib turadi. yevropaliklarning katta qismini afrikanerlar XVII–XIX asrlarda ko‘chib kelgan gollandlarning avlodlari tashkil etadi. Ular niderland tili asosida shakllangan afrikaans tilida so‘zlashadi.

Mamlakatning shimoli-sharqidagi sanoat rayonlari, janubi-sharqiy va janubiy dengizbo‘yi hududlarida aholi zichligi yuqori bo‘lsa, g‘arbiy va shimoli-g‘arbiy cho‘l hududlarida aholi juda siyrak joylashgan.

JAR qit’adagi iqtisodiy jihatdan eng rivojlangan davlat hisoblanadi. Iqtisodiyoti tog‘-kon sanoati, mashinasozlik, ko‘ptarmoqli qishloq xo‘jaligi va turizmga ixtisoslashgan.

Turli foydali qazilmalarning boy zaxiralari hisobiga JARda tog‘-kon sanoati yuqori darajada rivojlangan. JAR ko‘mir, temir rudasi, marganes, oltin, platina, palladiy, olmos va boshqa mineral resurslarni qazib olish bo‘yicha jahon mamlakatlari ichida yetakchi o‘rinlarni egallaydi. JAR jahondagi eng yirik ko‘mir eksportyorlaridan biridir.

Qishloq xo‘jaligi mamlakat hududining 15% qismida intensiv rivojlangan, xolos. Buning asosiy sababi suv resurslarning taqchilligi bilan bog‘liq. Ammo, shunga qaramasdan, JARda dehqonchilik va

chorvachilikning turli tarmoqlari yuqori darajada rivojlangan. Dehqonchilikning eng muhim tarmoqlari bog‘dorchilik va uzumchilik hisoblanadi. Chorvachilikning asosiy tarmoqlari – qoramolchilik, qo‘ychilik, echkichilik. JARda chorvachilikning noodatiy tarmog‘i – tuyaqushlarni boqish ham rivojlangandir.

JARning janubiy dengizbo‘yi qismida hamda mamlakat ichkarisidagi yirik shaharlarda turizm yaxshi rivojlangan.

Shu bilan birgalikda qit’a davlatlaridan yana biri Nigeriya Federativ Respublikasi bo‘yicha ham to‘xtalib o‘tishni maqsadga muvofiq deb bildik. Nigeriya Federativ Respublikasi G‘arbiy Afrikada joylashgan davlatdir. Qirg‘oqlari janubdan Atlantika okeanining Gvineya qo‘ltig‘i suvlari bilan yuviladi.

Boshqaruv shakli – prezidentlik respublikasi. Nigeriya federativ davlat bo‘lib, 36ta shtat va federal poytaxt hududidan iborat. Nigeriyaning shtatlari, asosan, etnik tamoyil asosida ajratib qo‘yilgan. Poytaxti – Abuja shahri – mamlakatning markazida joylashgan.

Nigeriyaning hududi Niger va Benue daryolari bilan relyefi jihatdan farq qiladigan ikki qismga bo‘linadi. Shimolda relyef, asosan, yassi tog‘liklardan iborat, mamlakatning janubiy qismi esa pasttekisliklardan iborat.

Nigeriyaning eng katta tabiiy boyligi – uning neft zaxiralari. Neft konlari ko‘proq mamlakatning janubiy qismida joylashgan.

Mamlakat, asosan, subekvatorial va ekvatorial iqlim mintaqalarida joylashgan. Yil bo‘yi issiq harorat saqlanadi. Yog‘in miqdori janubiy dengizbo‘yi hududlaridan Shimolga tomon kamayib boradi. Ekvatorial iqlimli qismida yillik yog‘in miqdori 3000 mm. atrofida. Doimiy va fasliy nam o‘rmonlar hamda savannalar Nigeriyaning asosiy tabiat zonalaridir.

Nigeriyadagi daryolardan eng yirigi Niger daryosi hisoblanadi. U Gvineya qo‘ltig‘iga quyilishida katta deltani hosil qiladi. Niger deltasi mamlakatning muhim iqtisodiy rayoni hisoblanadi.

Nigeriya aholi soni bo‘yicha jahonda 7-o‘rinda turadi va u dunyoning 10ta peshqadam davlati orasida tabiiy ko‘payishning eng yuqori sur’atlari bilan ajralib turadi. Nigeriya aholisi yiliga 4–4,5 million kishiga ko‘paymoqda.

Nigeriya aholisining deyarli yarmi shaharlarda yashaydi. Nigeriyada 6ta “millioner” shahar mavjud. Gvineya qo‘ltig‘i sohilida joylashgan Lagos shahri nafaqat Nigeriya, balki butun Afrikadagi eng yirik shahar hisoblanadi. Lagos 1991-yilgacha mamlakat poytaxti bo‘lgan, lekin uning aholisi juda ko‘pligi sababli poytaxt Abuja shahriga ko‘chirildi.

Nigeriya Tropik Afrikadagi aksariyat mamlakatlar singari ko‘pmillatli davlat bo‘lib, aholisining etnik tarkibi 250tadan ziyod mahalliy millat va elatlardan iborat. Eng yirik millatlari – xausa, yoruba va igbo (har biri jami aholining tahminan 20%ini tashkil qiladi). Nigeriyaning Shimoliy va g‘arbiy shtatlarida islom dini, Sharqiy va janubiy shtatlarida esa xristian dini ko‘proq tarqalgan.

Aholi zichligi mamlakatda o‘rtacha hisobda 1 km^2ga 200 kishidan ziyodroq bo‘lsa, qirg‘oqbo‘yi hududlarida bundan 3–4 barobar yuqoridir.

Nigeriya YIMning umumiy hajmi bo‘yicha Afrikada 1-o‘rinda turadi, YIMning aholi jon boshiga to‘g‘ri keladigan miqdori esa uncha yuqori emas 6000 AQSH dollari atrofida. Ammo bu Tropik Afrikadagi ko‘p davlatlarga nisbatan birmuncha balandroq ko‘rsatkichdir (mintaqa bo‘yicha o‘rtacha ko‘rsatkich 3600 AQSH dollariga teng).

Mamlakat iqtisodiyotining asosi va davlat byudjeti daromadining bosh manbayi – neft eksporti. Neftni qazish va uni qayta ishlash sanoati Nigeriya sanoatining eng rivojlangan tarmog‘idir. Mamlakatda o‘rmon, to‘qimachilik, oziq-ovqat va tog‘-kon sanoati ham birmuncha rivojlangan. Lagos – Nigeriya va butun Afrikaning eng yirik shahri. Qishloq xo‘jaligi – aholi bandligining asosiy sohasi. Nigeriyada yeryong‘oq, makkajo‘xori, sholi, sorgo, tabiiy kauchuk, paxta, sholi, turli sabzavot va meva ekinlari yetishtiriladi. Qoramolchilik,

qo‘ychilik, echkichilik, cho‘chqachilik Nigeriya chorvachiligining asosiy tarmoqlari hisoblanadi.

Shimoliy-sharqiy Afrika mamlakatlari ichida Misr Arab Respublikasi bo‘yicha to‘xtalib o‘tishni ham maqsadga muvoq deb bilamiz. Misrning kichik qismi Osiyo qit’asidagi Sinay yarimorolida joylashgan. Qirg‘oqlari Shimolda O‘rta, Sharqda Qizil dengiz suvlari bilan yuviladi. Suvaysh kanali bu ikki dengizni tutashtiradi hamda ayni paytda, Afrika va Osiyoning chegarasi hisoblanadi. Suvaysh kanalining o‘tganligi, Osiyo va Afrika tutashgan hududda joylashganligi Misr iqtisodiy geografik o‘rnining qulayligini belgilaydi.

Misrning hududi, asosan, tekisliklardan iborat. Faqat Qizil dengizga yaqin qismi hamda Sinoy yarimorolida tog‘lar mavjud. Foydali qazilmalardan Misrda, asosan, neft, tabiiy gaz, temir rudasi, fosforit konlari mavjud. Misr hududining katta qismi tropik, O‘rta dengiz sohili esa subtropik iqlim mintaqasida joylashgan. Yozi juda issiq, qishi iliq. Yog‘in juda kam yog‘adi, yillik miqdori, odatda, 200 mm. dan oshmaydi. Shuning uchun mamlakat hududi, asosan, tropik cho‘llar bilan qoplangan.

Issiq va quruq iqlim sharoitida Misr uchun suv resurslarining yetishmovchiligi xos. Mamlakatning yagona daryosi – uning hududini janubdan shimolga kesib o‘tib, O‘rta dengizga quyiladigan Nil – cho‘llar orasidan oqib o‘tadigan tranzit daryodir. Nil daryosida jahondagi eng yirik suv omborlaridan biri – Asvon suv ombori barpo etilgan.

Misr Afrika davlatlari orasida aholi soni bo‘yicha Nigeriya va Efiopiyadan keyingi uchinchi o‘rinda turadi. Aholining tabiiy o‘sishi nisbatan yuqori darajada saqlanib kelmoqda. Misr aholisi yiliga deyarli 2,5%ga, ya’ni 2 milliondan ziyod kishiga ko‘payadi.

Misrda shahar aholisining ulushi 45% atrofida va bu ko‘rsatkich shimoliy Afrikaning boshqa davlatlariga nisbatan pastroq darajada. Eng yirik shaharlari qatoriga Qohira, Iskandariya va Giza kiradi.

Misr bir millatli davlat hisoblanadi, chunki aholisining 99%i arablardan iborat. Keng tarqalgan din – islom. Lekin misrliklarning 10%ga yaqin qismi xristian diniga mansub.

Misrda aholi juda notekis joylashgan. Misrliklarning 90%idan ziyod qismi aholi zichligi bilan jahon miqyosida ajralib turadigan Nil vodiysi va deltasida yashaydi. Shuningdek, Suvaysh kanali bo‘yida, O‘rta va Qizil dengizlar sohillarida ham aholi zichligi birmuncha yuqori.

Misr Afrika qit’asidagi davlatlar orasida eng katta iqtisodiy salohiyatga ega davlatlardan biri. Mamlakat iqtisodiyoti agrar-industrial xarakterga ega. Sanoati, asosan, neft-gaz, to‘qimachilik, oziq-ovqat va kimyo tarmoqlariga ixtisoslashgan.

Shuningdek, metallurgiya, mashinasozlik sanoati ham rivojlanib bormoqda. Qishloq xo‘jaligi sug‘orma dehqonchilikka tayanadi. Asosiy ekinlar – paxta, sholi, makkajo‘xori, sabzavot, meva va poliz ekinlari. Chorvachilikning asosiy tarmog‘i qoramolchilik hisoblanadi.

Misr Arab Respublikasining davlat byudjeti uchun Suvaysh kanali orqali kemalar tranzitidan tushadigan bojlar muhim daromad manbayidir. Misr iqtisodiyotining muhim tarmoqlaridan biri turizm hisoblanadi. Turizmning rivojlanishiga Misr dengizbo‘yi hudud-larining tabiiy sharoiti hamda mamlakatning juda boy tarixiy-madaniy merosi katta ta’sir ko‘rsatadi.

10.3. Aholisi va davlatlar tuzumi. Aholisining soni, migratsiyasi va tabiiy o‘sishining pastligi va uning sabablari

Afrika aholi soni bo‘yicha Osiyodan keyingi qit’a hisoblanib, 2020-yil ma’lumotlariga ko‘ra, u yerda 1,4 milliardgan ortiq kishi yashaydi. Bu jahon aholisining qarib 17 foizini tashkil etadi.

Afrika davlatlari orasida aholi soni jihatidan Nigeriya alohida ajralib turadi. Uning aholisi, 2020-yil holatiga ko‘ra, salkam 200 mln. kishiga teng bo‘lib, bu jahon mamlakatlari orasidagi 7-o‘rin

hisoblanadi. E’tiborlisi, Nigeriya Afrika davlatlari orasida maydoni bo‘yicha 14-o‘rinda turadi.

Aholi soni jihatidan Nigeriyadan keyingi yetakchi o‘rinlarni Efiopiya (107,5 mln. kishi), Misr (97 mln. kishi), Kongo Demokratik Respublikasi (84,3 mln. kishi), Tanzaniya (59,1 mln. kishi) va Janubiy Afrika Respublikasi (57,7 mln. kishi) kabi davlatlar egallaydi.

Afrika aholisi qit’a bo‘yicha notekis joylashgandir. Bunga tabiiy omillar, ayniqsa, iqlim va suv resurslari katta ta’sir ko‘rsatgan. Nil vodiysi va deltasi, O‘rta dengiz va Gvineya qo‘ltiqbo‘yi hududlari, Sharqiy Afrikaning tog‘ oralig‘idagi botiqlari va JARning sanoatlashgan rayonlarida aholi zichligi eng yuqori darajaga ega. Ayni paytda, Sahroi Kabir, Kalaxari, Namib kabi tropik cho‘llarda aholi zichligi juda past.

Shunga qaramasdan Afrika aholisi eng yuqori sur’atlar bilan o‘sayotgan qit’a hisoblanadi. Jahon aholisi hozirgi vaqtda o‘rtacha yillik hisobda 1,2% ga ko‘payib borayotgan bo‘lsa, Afrikada bu ko‘rsatkich 2,6%ni tashkil etmoqda. Afrikaning aksariyat davlatlariga tug‘ilish va tabiiy ko‘payishning yuqori sur’atlari, o‘rtacha umr ko‘rishning nisbatan past ko‘rsatkichlarini qayd etmoqda.

Bu boradagi holat faqat Tunis, Marokash, Liviya, Botsvana, JAR, Mavrikiy va Seyshel orollari kabi ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi birmuncha yuqori bo‘lgan davlatlarda qit’adagi umumiy vaziyatdan farq qiladi.

Afrika qit’alar orasida urbanizatsiya darajasi (43%, 2020 y.) jihatidan oxirgi o‘rinda turadi. Shahar aholisi salmog‘i, asosan, O‘rta dengizbo‘yi davlatlari, JAR, kichik orol mamlakatlari va neft sanoati rivojlangan davlatlarida yuqori. Niger, Ruanda, Burundi, Malavi singari davlatlarda esa urbanizatsiya darajasi 20%ga ham yetmaydi.

10.3.1-jadval

Afrikadagi ayrim davlatlar va rivojlangan davlatlarning demografik ko‘rsatkichlari (2019-yil holati bo‘yicha)

Ko‘rsatkichlar	Afrikaning ayrim davlatlari		Jahonning rivojlangan davlatlari	
	Niger	Chad	Germaniya	Yaponiya
1ta ayolga to‘g‘ri keladigan o‘rtacha farzandlar soni	7.2	6.4	1.6	1.4
Aholining yillik tabiiy ko‘payishi, %	3.8	3.1	-0.2	-0.3
Erkak va ayyollarning o‘rtacha umr ko‘rishi, yoshi	E.-59 A. -61	E.-52 A. -54	E.-78 A. -83	E.-81 A. -87
Aholining yosh tarkibida 15 yoshgacha bolalar ulushi, %	50	47	13	12
Aholining yosh tarkibida 65 yoshdan katta bo‘lganlarning ulushi, %	3	2	21	28
Go‘daklar o‘limi, 1000ta tug‘ilgan go‘dakka nisbatan	60	72	3	3

Aholining irqiy, etnik va diniy tarkibi jihatidan Afrika qit’asi ikkita katta qismga bo‘linadi. Birinchisi, Misr, Liviya, Sudan, Jazoir, Tunis, Marokash, Mavritaniya kabi davlatlardan iborat bo‘lgan Shimoliy Afrika mintaqasi. Bu davlatlarda, asosan, janubiy yevropeoid irqiga mansub bo‘lgan arab va barbarlar istiqomat qiladi, asosiy din islom dini hisoblanadi, aholining etnik va diniy tarkibi yaxlitliligi bilan ajralib turadi. Qit’adagi boshqa davlatlar esa Tropik Afrika mintaqasini tashkil qiladi. Bu mintaqa aholisining etnik tarkibi juda rang-barang bo‘lib, asosan, negroid irqiga mansub yuzlab millat, elat va qabilalardan iborat. Dinlardan esa islom, xristianlik va turli xil mahalliy dinlar keng tarqalgan bo‘lib, har xil davlatlarda ularning nisbati turlichadir.

Dunyoda 1980-2000-yillarda ikkinchi yirik migratsiya “to‘lqini” ro‘y berdi, bu esa aholining deyarli 1 milliardini qamrab oldi: 740 million kishi ichki migratsiya, 215-230 million kishi transchegaraviy (xalqaro) migratsiyasi kuzatildi. Jahon bankining ma’lumotlariga ko‘ra, Afrika xalqaro migratsiyasining soni 30,6 million kishini tashkil etdi va noqonuniy migratsiyani hisobga olgan holda bu ko‘rsatkich 40 millionni tashkil etadi. Bundan ko‘rinib turibdiki jahon migratsiyasida Afrikaning ulushi yil sayin olrtib bormoqda. Buning asosiy sababi mintaqa davlatlarining iqtisodiy taraqqiyotdan orqada qolayotganligidir.

Afrikada davlatlar tuzumi bo‘yicha to‘xtaladigan bo‘lsak mintaqalardagi davlatlar tuzilishi bir biriga yaqinligini ko‘rishimiz mumkin. Shimoliy Afrika mintaqasidagi davlatlar bo‘yicha to‘xtaladigan bo‘lsak, Jazoir respublikasining amaldagi konstitutsiya 1996-yil 28-noyabrdagi referendumda ma’qullangan. Davlat boshlig‘i – president bo‘lib, umumiy va to‘g‘ri yashirin ovoz berish yo‘li bilan 5 yil muddatga saylanadi va yana 1-marta qayta saylanishi mumkin. Qonun chiqaruvchi hokimiyat – bir palatali Milliy xalq majlisi. Ijrochi hokimiyat – prezident boshchiligidagi Vazirlar kengashi.

Misr Respublikasining amaldagi konstitutsiyasi 1971-yil 11-sentabrdagi referendumda ma’qullangan, keyinchalik unga o‘zgartirishlar kiritilgan. Davlat boshlig‘i – president bo‘lib, vakolat muddati 6 yil qilib belgilangan. Cheklanmagan marta qayta saylanishi mumkin. Qonun chiqaruvchi hokimiyatni prezident amalga oshiradi, u bosh vazir va hukumat a’zolarini tayinlaydi hamda lavozimlaridan ozod qiladi.

Liviya jamahiriya (xalq ommasi davlati). Konstitutsiyasi yo‘q. Rahbar organ – Inqilobiy (Tarixiy) rahbariyat. Qonun chiqaruvchi organ – umumiy xalq kongressi. Ijrochi hokimiyat – hukumat vazifasini bajaruvchi Oliy Xalq qo‘mitasi. Davlat boshlig‘i – Liviya inqilobi rahbari hisoblanadi.

Marokash konstitutsiyali monarxiya davlati. Amaldagi konstitutsiyasi 1972-yilda qabul qilingan, unga 1992 va 1996-yil referendumlarda qabul qilingan o‘zgartirishlar kiritilgan. Davlat boshlig‘i – qirol. U bosh vazir va vazirlarni tayinlaydi hamda lavozimidan bo‘shatadi, Vazirlar Kengashida raislik qiladi, parlamentni tarqatib yuborishi mumkin. Qonun chiqaruvchi hokimiyatni qirol va ikki palatali parlament (Vakillar palatasi va Maslahatchilar palatasi), ijroiya xokimiyatni hukumat amalga oshiradi.

G‘arbiy Afrikadagi eng katta davlatlardan biri Nigeriya federativ respublikasidir. Amaldagi konstitutsiyasi 1999-yil 29-mayda qabul qilingan. Buyuk Britaniya boshchiligidagi Hamdo‘stlikka. a’zo. Davlat boshlig‘i prezident. U umumiy to‘g‘ri va yashirin ovoz berish yo‘li bilan 4 yil muddatga saylanadi va yana bir marta saylanishi mumkin. Qonun chiqaruvchi hokimiyatni Milliy assambleya (ikki palatali parlament), ijroiya hokimiyatni prezident va hukumat amalga oshiradi.

Niger respublikasining amaldagi konstitutsiyasi 1999-yil 18-iyuldagi referendumda ma’qullangan. Konstitutsiyaga binoan, davlat boshlig‘i – prezident. Qonun chiqaruvchi hokimiyatni Milliy majlis (bir palatali parlament), ijroiya hokimiyatni prezident boshchiligidagi hukumat amalga oshiradi.

Janubiy Afrika Respublikasi – federalizm nishonalari bo‘lgan unitar respublika. Buyuk Britaniya boshchiligidagi Hamdo‘stlik tarkibiga kiradi. 1997-yil 4-fevraldan kuchga kirgan konstitutsiya amal qiladi. Davlat boshlig‘i – prezident. Milliy assambleya tomonidan uning a’zolari orasidan 5-yil muddatga saylanadi. Qonun chiqaruvchi hokimiyat – 2 palatali parlament. U viloyatlarning Milliy kengashi (yuqori palata) va Milliy assambleya (quyi palata)dan iborat. Ijrochi hokimiyatni prezident boshchiligidagi hukumat amalga oshiradi

Sharqiy Afrika davlatlaridan biri Efiopiya respublikasining amaldagi konstitutsiyasi 1995 yil 22 avgustda qabul qilingan. Davlat boshlig‘i – prezident, u parlament tomonidan 6 yil muddatga saylanadi. Qonun chiqaruvchi hokimiyatni Xalq vakillari kengashi

(parlamentning quyi palatasi), ijrochi hokimiyatni Bosh vazir va hukumat amalga oshiradi. Parlament – Federal majlis 2 palata: Federatsiya kengashi (yuqori palata) va Xalq vakillari kengashi (quyi palata)dan iboratdir.

10.4. Afrika mamlakatlarining sanoati

Afrikaning ayrim davlatlarini hisobga olmaganda aksariyat davlatlari qishloq xo‘jaligiga ixtisoslashgan. Mintaqa davlatlarida sanoat rivojlanishi sekin bormoqda. Buning natijasida Afrikaning 30 dan ko‘proq davlatlari dunyoning eng kam rivojlangan davlatlari ro‘yxatiga kiritilgan. Bu haqdagi ma’lumot BMTning savdo va rivojlanish bo‘yicha konferensiyasi (YuNKTAD) hisobotida keltirilgan.

YuNKTAD vakilining ta’kidlashicha, hisobotni tuzishda uchta mezon e’tiborga olinadi: aholi jon boshiga daromad (yiliga 1230 dollardan kam bo‘lsa), inson resurslari va iqtisodiyotning zaifligi.

Ro‘yxatga dunyodagi 47 ta davlat kiritilgan. Unga asosan Afrika davlatlari, jumladan, Angola, Benin, Burkina-Faso, Burundi, MAR, Chad, Kongo Demokratik Respublikasi, Jibuti, Eritreya, Efiopiya, Gambiya, Madagaskar, Mali, Sudan, Janubiy Sudan, Uganda, Zambiya va boshqa davlatlar kirgan.

BMT hisobot asosida va Barqaror rivojlanish maqsadlariga amal qilib, ushbu davlatlar rahbariyatlariga vaziyatni yaxshilash bo‘yicha tavsiyalar ishlab chiqadi. Hisobot tuzilishi tarixi davomida uni bor-yo‘g‘i 5ta davlatgina tark etishga muvaffaq bo‘lgan, bular: Botsvana, Kabo-Verde, Ekvatorial Gvineya, Maldiv orollari va Samoa.

Afrika mintaqalari bo‘yicha bir qator davlatlarning rivojlanishi bo‘yicha to‘xtalib o‘tishni maqsadga muvofiq deb bildik. Shu singari Shimoliy Afrikadagi Jazoirni oladigan bo‘lsak, sanoati (xususan kon sanoati) nisbatan rivojlangan agrar mamlakat. Yalpi ichki mahsulotda sanoatning ulushi – 37,7%, qishloq xo‘jaligining ulushi – 14,9%. Jazoir Afrika mamlakatlari ichida tabiiy gaz chiqarish, uzum

yetishtirish va vino tayyorlashda, neft qazib olish, bug‘doy, arpa yetishtirish va zaytun moyi tayyorlashda, sitrus mevalari yetishtirishda yetakchi o‘rinda turadi. Iqtisodiyotda davlat sektori ustun mavqeni egallaydi (yalpi ichki mahsulotning salkam 80%). Ammo davlat korxonalarining aksariyati o‘z quvvatining 40-50% atrofida ishlaydi. Yengil va oziq-ovqat sanoatida xususiy sarmoya ustun – 70 – 90%, qurilishda 60%, xizmat ko‘rsatish, ulgurji va chakana savdoda 80% gacha.

Sanoatda neft (yiliga o‘rtacha 35 mln. tonna), gaz (163 mlrd. m^3), temir rudasi, fosfat va rangli metallar qazib olish va ularni qayta ishlash yetakchi tarmoqlarga aylangan. Temir va qo‘rg‘oshin rux rudalari, toshko‘mir, birmuncha miqdor mis rudasi ham qazib olinadi. Bir yilda 17,3 mlrd. kVt-soat elektr energiyasi ishlab chiqariladi. Mahsulot ishlab chiqarish sanoati metallurgiya, mashinasozlik, neftni qayta ishlash, kimyo va elektrotexnika tarmoqlari, qishloq xo‘jaligi xomashyosini qayta ishlash korxonalaridan iborat. Oziq-ovqat, ayniqsa vinochilik, tamaki, konserva sanoati, zaytun yog‘i ishlab chiqarish rivojlangan. To‘qimachilik, metall ishlash korxonalari bor.

Qishloq xo‘jaligining asosiy tarmog‘i – dehqonchilik. Bug‘doy, arpa, sholi, javdar, makkajo‘xori va boshoqli don ekinlari ekiladi. Ammo tabiiy sharoitlari g‘oyat qulay bo‘lishiga qaramay, qishloq xo‘jaligi mamlakat oziq-ovqat ehtiyojining atigi 1/3 qismini ta’minlaydi. Yiliga donli ekinlar hosili 4-5 mln. tonnani tashkil etadi. Mamlakatda sabzavot va mevalar ham yetishtiriladi. Vohalarda tokzor, zaytunzor va xurmozorlar bor. Jazoirda qoramol (1,5 mln.ga yaqin), qo‘y (15 mln.), echki, tuya boqiladi. Baliqchilik rivojlangan. Po‘kakbop dub po‘stlog‘i, eng yaxshi nav qog‘oz ishlab chiqarishda ishlatiladigan alfa o‘ti (dunyoda 1-o‘rin) terib olish yo‘lga qo‘yilgan. 1980-yillar oxiridan mamlakatda xo‘jalikni bozor iqtisodiyoti iziga ko‘chirishga kirishildi. Islohot doirasida davlat xo‘jaliklarining mustaqilligi kengaytirildi, ularning bir qismi aksiyadorlik jamiyatlariga aylantirildi va xususiy kishilar qo‘liga berildi. Yerlarning bir qismi

yakkahol dehqonlarga topshirildi. Transportida temir yo‘l muhim ahamiyatga ega (4,3 ming km). Asosiy temir yo‘l magistrali Ujda (Marokash) – Oran – Jazoir – Konstantina – Gardimav (Tunis). Avtomobil yo‘llarining uzunligi 88 ming km. Asosiy magistral sohil bo‘ylab ketgan. Neft va gaz quvurlari bor. Dengiz transporti tashqi savdo uchun xizmat qiladi. Muhim dengiz portlari: Jazoir, Oran, Annaba, Bajoiya, Arzev. Havo transporti rivojlangan 31ta aerodrom bor. Xalqaro ahamiyatga ega aeroportlari Jazoir, Annaba va Oran shaharlarida.

Jazoir chetga neft, gaz, vino, sitrus mahsulotlari, tamaki, po‘kak, qog‘oz chiqaradi. Chetdan mashinalar, sanoat uskunalari, oziq-ovqat (don, sut, go‘sht), kiyim-kechak keltiriladi. Tashqi savdodagi asosiy mijozlari – AQSH, Fransiya, Germaniya, Italiya, Yaponiya hisoblanadi.

Shimoliy Afrikadashi iqtisodiyoti tez rivojlanayotgan mamlakatlardan biri Misrdir. Misr agrar-industrial mamlakat. Jahon bozoriga yuqori sifatli uzun tolali paxta va undan to‘qilgan gazlamalarni ko‘p miqdorda yetkazib beradi. XIX asr 70-yillar oxiri 80-yillar boshlarida neft qazib olish va eksport qilish ko‘paya boshladi. Iqtisodiy taraqqiyotga, ayniqsa, sanoat va unga ko‘maklashuvchi tarmoqlarni rivojlantirishga e’tibor kuchaydi. 90-yillarning o‘rtalarida yalpi ichki mahsulotda sanoatning ulushi 28,5%, qishloq xo‘jaligi ulushi 20% ga yetdi.

Sanoati mustaqillikka erishgunga qadar, asosan, mayda hunarmandchilik korxonalaridan iborat edi. Iskandariyada neftni qayta ishlovchi, avtomobil shinalari ishlab chiqaruvchi zavodlar, Suvaysh-Qohira neft quvuri mavjud. 1952-yildan beri 1000 dan ortiq Yangi sanoat ob’yektlari ishga tushirildi. Sanoat korxonalari, asosan, Qohira, Iskandariya va Nil deltasidagi boshqa yirik shaharlarda joylashgan. 1958-yilda Qohira yaqinida qurilgan Hulvon metallurgiya zavodi mamlakatning dastlabki yirik metallurgiya korxonalaridandir. Bu zavod Asvon yaqinidan qazib olingan sifatli temir (40—60%) rudasi

asosida ishlaydi. Asvon shahrida yiliga 300 ming tonna po‘lat ishlab chiqaradigan metallurgiya markazi bor. Mashinasozlik sanoati ham qayta qurilgan. Mostorodda elektr kabellari zavodi va metall buyumlar ishlab chiqarish fabrikasi, Hulvonda vagonsozlik, avtomobil, po‘lat quvurlar zavodlari, Iskandariyada to‘qimachilik sanoati uskunalari zavodi, Qohirada velosiped va televizor zavodlari, Port-Said, Iskandariyada kemasozlik korxonalari, keyingi yillarda ishga tushirilgan avtomobil, traktor, sovitkich, metall qirqish stanoklari ishlab chiqaruvchi korxonalar ham bor. Suvaysh, Qohira, Iskandariya, Tanta shaharlari neftni qayta ishlash markazlaridir. Kimyo sanoati faqat mineral o‘g‘it ishlab chiqarishdan iborat. Kafr-uzzayyat va Abuza’baldagi zavodlar yiliga 200 ming tonna superfosfat ishlab chiqarish quvvatiga ega. Asyutda yiliga 200 ming tonna superfosfat chiqaradigan zavod mavjud. Abuza’balda qurilgan antibiotiklar zavodi farmatsevtika sanoatiga asos soldi. Yana 5ta farmatsevtika korxonasi qurildi. Bulardan tashqari, Asvonda kalsiy, Suvayshda ammoniy sulfat, Iskandariya yonida soda zavodlari, Hulvonda kokskimyo zavodi bor. Qurilish ashyolari sanoati korxonalari Hulvon, Al-Ma’sara, Al-Tur va Iskandariya atroflarida bo‘lib, asosan, sement ishlab chiqaradi. Yirik to‘qimachilik korxonalari Al-Mahallat-ul-Kubro, Kafr-ud-Davvar va Kafr-uzzayyat shaharlaridadir. Oziq-ovqat sanoati qishloq xo‘jaligi mahsulotini qayta ishlaydi. Armant, Ko‘m-Umbo‘, Adfu shaharlarida yirik qand zavodlari bor. Asvon gidroenergetika majmuiga kiruvchi elektr styalar va yoqilg‘i bilan ishlaydigan elektr styalar yiliga o‘rtacha 525 mlrd. kVt-soatdan ortiq elektr energiya ishlab chiqaradi.

Qishloq xo‘jaligining yetakchi tarmog‘i – dehqonchilik. Qishloq xo‘jaligi, asosan, Nil deltasi va vodiysida rivojlangan, bu yerda 3 mln. gektarga yaqin (mamlakat hududining 3%) maydonda yiliga 2-marta, Asvon to‘g‘oni qurilgandan beri 3-marta (qishda ham) ekin ekib, hosil olinadi. Birinchi navbatda ko‘proq daromad keltiradigan sholikorlik va paxtachilik (ingichka tolali paxta tayyorlash bo‘yicha dunyoda 1-o‘rin) rivojlangan. Bundan tashqari, bug‘doy, arpa, makkajo‘xori,

dukkaklilar va sabzavot, shakarqamish, xashaki ekinlar ekiladi. Sitrus mevalar (apelsin, mandarin, limon), xurmo, banan, anjir, uzum, asosan, mamlakat Shimolida yetishtiriladi.

Tabiiy yaylov va yem-xashak kamligi sababli chorvachilik yaxshi rivojlanmagan. O‘troq aholi (dehqonchilik vohalarida) qoramol (sut uchun), qo‘y, echki va xonaki parranda, ko‘chmanchilar esa tuya, qo‘y va echki boqadi. Asalarichilik rivojlangan. Nil daryosi va ichki ko‘llarda, shuningdek, O‘rta dengizda baliq ovlanadi.

Shimoliy Afrikaning yana bir rivojlangan davlati Liviyadir. Liviya rivojlanayotgan mamlakatlar qatoriga kiradi. Iqtisodiyotning asosi – neft qazib chiqarish va uni qayta ishlash sanoati. Yalpi ichki mahsulotda sanoatning ulushi 42,6%, qishloq xo‘jaligining ulushi 8,5%ni tashkil etadi.

Sanoati neft va gaz konlari, neftni qayta ishlash, sement, metallurgiya, oziq-ovqat (zaytun moyi, meva va baliq konservalari, tamaki mahsulotlari), to‘qimachilik (jun gazlama), ko‘nchilik korxonalaridan iborat, bir necha elektr stansiyalari bor. Yiliga o‘rtacha 12 mlrd. kVt-soat elektr energiya hosil qilinadi.

Sanoat korxonalarining ko‘pchiligi Tarobulus al-G‘arb, Bing‘ozi va boshqa shaharlarda joylashgan. Misurotada yirik metallurgiya majmuasi, boshqa shaharlarda quvur, elektr simlari ishlab chiqaruvchi korxonalar, traktor va avtomobil yig‘uvchi zavodlar bor. Hunarmandchilik rivojdangan.

Qishloq xo‘jaligiga yaroqli yerlar o‘rmonlar bilan birga 4,2 mln.ga (2%). Asosiy ekinlari – arpa va bug‘doy. Sabzavot, meva (apelsin, mandarin, xurmo, uzum), yer yong‘oq, zaytun, tamaki ham yetishtiriladi. Liviya Sahroi Kabiridagi aholining asosiy mashg‘uloti – chorvachilik. Qo‘y, echki, qoramol, tuya, yilqi, eshak boqiladi. Sohil yaqinidagi suvda baliq va dengiz jonivorlari ovlanadi.

Shimoli-G‘arbiy Afrikadagi Marokash davlati bo‘yicha to‘xtaladigan bo‘lsak, mamlakatda asosan agrar tarmoq ustunlik qiladi. Shu bilan birga mamlakatda sanoat, ayniqsa, konchilik birmuncha

rivojlangan. Iqtisodiyotida yirik qishloq xo‘jaligi fermalari va zamonaviy sanoat korxonalari bilan bir qatorda yarim natura va mayda tovar dehqon xo‘jaliklari katta o‘rin tutadi. Mustaqillikka erishilgandan keyin Marokash hukumati iqtisodiyotning zamonaviy tarmoqlarini rivojlantirish, milliy xo‘jalikni tarmoq, hudud jihatidan va tuzilmaviy nisbatlar jihatidan tartibga solish siyosatini yurgiza boshladi.

Qishloq xo‘jaligi Marokash iqtisodiyotining negizi. Ekiladigan yerlar 7,5 mln. gektardan ortiq, bu yerlarning ko‘p qismiga donli ekinlar ekiladi. Iqtisodiy faol aholining 50% qishloq xo‘jaligida band. Yalpi ichki mahsulotning 1/5 va eksportning 1/3 qismini qishloq xo‘jaligi ta’minlaydi. Dehqonchilik mahsulotining yarmidan ko‘prog‘ini donli ekinlar beradi. Bug‘doy, arpa, makkajo‘xori, oq jo‘xori, tariq va sholidan yaxshi hosil olinadi. Kartoshka, qand lavlagi, pomidor, paxta, dukkaklilar ham yetishtiriladi; tokzorlar, zaytunzorlar, sitruszorlar ko‘p. Jami yer fondining 28% (12,5 mln.ga)ni yaylov va o‘tloqlar, 12%ni o‘rmon va butazorlar tashkil etadi. Barcha haydaladigan yerlarning 95% mamlakat Shimolida joylashgan. Chorvachilikda qoramol, qo‘y, echki, tuya boqiladi. Baliqchilik va parrandachilik rivojlangan. O‘rmonlarda po‘kakli dub qobig‘i va evkalipt yog‘ochi, palma bargi tayyorlanadi.

Marokashning ishlab chiqarish sanoatida iqtisodiy faol aholining 23% band. Marokashda dunyodagi fosfat xomashyosi zaxiralarining 70% joylashgan. Uni qazib olish sohasida Marokash dunyoda 3-o‘rinda, eksport qilish jihatidan 1-o‘rinda turadi. Marokash sanoatining to‘qimachilik, konchilik, kimyo, neft kimyosi, farmatsevtika va sement sanoati tarmoqlari rivojlangan. Bu soha milliy xomashyo zaxiralaridan unumli foydalanish maqsadida, asosan, eksport uchun tayyor va yarim tayyor mahsulot ishlab chiqarishga yo‘naltirilgan. Yangi qurilgan o‘nlab korxonalar sanoatning tarkibiy tarmoqlari qiyofasini ancha o‘zgartirib yubordi. Mamlakatda qazib olinadigan fosfarit negizida kimyo sanoati rivoj topdi, qand va sement zavodlari, rangli

metallurgiya korxonalari barpo etildi. Yiliga o‘rtacha 14,8 mlrd. kVt-soat elektr energiya hosil qilinadi. 70-yillarning o‘rtalaridan boshlab chetdan keltiriladigan xomashyo, yarim tayyor mahsulot va asbob-uskunalardan foydalanuvchi korxonalar ham qurildi. Gazlama va kiyim-kechak, avtomobil va elektron sanoati uchun qismlar ishlab chiqaruvchi korxonalar kiradi. Shu bilan birgalikda hunarmandchilik sohasi iqtisodiyotda muhim o‘rin egallaydi.

Oziq-ovqat va to‘qimachilik ishlab chiqarish sanoatining eng yirik tarmoqlaridir. Unda baliq, sabzavot, meva konservalash, un-yorma, qand-shakar, sut zavodlari bor. To‘qimachilik sanoati tarkibidagi korxonalarning aksariyat qismi mayda va o‘rta fabrikalardan iborat. Fos shahrida yirik to‘qimachilik kombinati qurilgan. Rabotda va ko‘hna shaharlarda hunarmandlar ko‘proq gilamdo‘zlik bilan shug‘ullanadi.

Og‘ir sanoatning muhim tarmog‘i bo‘lmish kimyo sanoati, asosan, fosfat xomashyosini qayta ishlash bilan shug‘ullanadi. Fosfor kislota va kimyoviy o‘g‘it olish uchun Safi yaqinida qurilgan kimyo zavodlari yiliga 4 mln. tonnadan ortiq fosforitni qayta ishlaydi. Boshqa tarmoqlardan Muhammadiya va Sidi-Krsimdagi neftni qayta ishlash zavodlari va boshqa shaharlardagi 9ta sement zavodi (eng yirigi Kasablankada), 7ta metall ishlash va avtoyig‘uv zavodini ko‘rsatib o‘tish mumkin. Nadordagi po‘lat prokat sexi, asosan, armatura ishlab chiqaradi.

Mamlakat ichkarisida yuk tashishda temir yo‘l asosiy rol o‘ynaydi. 2000 km temir yo‘ldan 867 km. elektrlashtirilgan. Asosiy temir yo‘l magistrali Marokash – Kasablanka – Rabot – Fos – Vujda Marokashning garbiy va sharqiy qismlarini Jazoir va Tunis bilan tutashtiradi. Avtomobil yo‘llari uzunligi 60 ming km. Marokashda 27 aerodrom bor, shundan 10tasi xalqaro toifadagi aeroportdir. Tashqi savdo yuklarining 95% dengiz orqali tashiladi. Asosiy dengiz portlari – Kasablanka, Safi, Muhammadiya, Ag‘odir, Tanjerda joylashgan.

Marokash chetga, asosan, sanoat va qishloq xo‘jaligi xomashyosi – fosforit, rangli metall rudalari, sitrus meva, baliq va uning konservasi, sabzavot, meva va ularning konservasi, fosfor kislota, o‘g‘it, po‘kak, kalava ip, jun, teri, go‘sht va boshqalar chiqaradi. Chetdan neft, oziq-ovqat, sanoat asbob-uskunalari, iste’mol buyumlari, kimyoviy mahsulotlar, g‘alla, qand-shakar keltiradi. Savdo-sotiqdagi asosiy sheriklari Fransiya, Saudiya Arabistoni, AQSH, Ispaniya, Rossiya, Germaniya, Italiyadir.

G‘arbiy Afrikadagi Nigeriya – yirik sanoat salohiyatiga ega bo‘lgan mamlakatdir. Yalpi ichki mahsulot va tashqi savdo qajmi jihatidan Afrikada 2-o‘rinda (JARdan keyin) turadi. Yalpi ichki mahsulotning yarmi sanoatda, taxminan 30% qishloq xo‘jaligi va xizmat ko‘rsatish sohasida ishlab chiqariladi. Nigeriya dunyoda neft eksport qiluvchi 10ta yirik mamlakat jumlasiga kiradi, neft qazib olish sohasida Afrikada birinchi o‘rinni egallaydi.

Qishloq xo‘jaligi – mamlakat iqtisodiyotining asosi, iqtisodiy faol aholi yarmidan ko‘prog‘ining tirikchilik manbai. Eng ommaviy dehqonchilik shakli jamoa dehqonchiligidir. Mamlakatdagi 8 mln.ga yaqin fermer xo‘jaligi qishloq xo‘jaligi mahsulotining 90%ni beradi. Haydaladigan yerlarning anchagina qismida oziq-ovqat ekinlari, asosan, ildizmevali va donli ekinlar yetishtiriladi. Dehqonchilikda dukkakli ekinlar, shakarqamish, sabzavot va ho‘l mevalar muhim o‘rin tutadi. Eksport uchun moyli palma, kakao, yer yong‘oq, kauchukli o‘simlik, paxta yetishtiriladi.

Chorvachilik, asosan, shimolida va quruq savannalar mintaqasida rivojlangan. Qoramol, qo‘y va echki boqiladi. Shimolida yilqichilik, janubida cho‘chqachilik va hamma mintaqalarda parrandachilik bilan shug‘ullaniladi. Daryolarda, Chad ko‘li va Gvineya qo‘ltig‘i suvlarida qimmatbaho baliq turlari ko‘p bo‘lsada, baliq ovlash unchalik rivojlanmagan. Baliqchilik mahsulotlari mamlakat aholisi ehtiyojlarini qondira olmaydi. O‘rmon xo‘jaligidagi asosiy yog‘och zaxiralari Niger daryosi etaklarida va janubi-sharqiy dengiz sohilida joylashgan.

Daraxtzorlar 23 ming km² ni tashkil etadi. O‘rmonlar tartibsiz kesilishi natijasida qimmatbaho yog‘och olinadigan daraxtlar kamayib ketdi. Mamlakatda o‘rmon xo‘jaligini tiklash tadbirlari ishlab chiqildi, yog‘och eksport qilish taqiqlandi.

Sanoatida konchilik asosiy o‘rinni egallaydi. Neft va tabiiy gaz, shuningdek, qalay va niobiy rudalari, toshko‘mir, temir rudasi va boshqa ba’zi turdagi foydali qazilmalar mamlakat konchilik sanoatining asosiy xomashyo negizidir. Ozroq miqdorda volfram, toriy, sirkon, uran, oltin, polimetall rudalar va boshqalar ham qazib olinadi. Xilma-xil nometall qazilmalar orasida ohaktosh, kaolin, qurilishbop qum, shag‘al bor. Mahalliy temir ruda, toshko‘mir, ohaktosh va o‘tga chidamli gilmoya negizida metallurgiyani rivojlantirishga kirishildi. Jumladan, 2000-yil oxirida Ajaokutda Tropik Afrikadagi eng yirik metallurgiya kombinatining birinchi navbati qurib bitikazildi. Neftni qayta ishlash zavodlari, “Pejo”, “Folksvagen”, “Fiat” va boshqa avtomobil zavodlarining yig‘uv liniyalari bor. Yiliga 912-14 mlrd. kVt-soat elektr energiya hosil qilinadi. Niger daryosi bo‘yidagi Kainji va Jebba GESlari, mamlakat janubidagi yirik shaharlarda joylashgan issiqlik elektr markazlari elektr energetikaning asosini tashkil qiladi.

Nigeriya sanoati tuzilmasida oziq-ovqat va yengil sanoat tarmoqlari yetakchi rol o‘ynaydi. Mamlakatda 95ta to‘qimachilik fabrikasi, oziq-ovqat korxonalari bor. Ob-juvoz zavodlarida palma, yer yong‘oq va chigit yog‘i ishlab chiqariladi. Tamaki, meva-konserva, go‘sht-sut, qand-shakar ishlab chiqarish korxonalari, tegirmonlar mavjud. Yog‘ochsozlik sanoati Sapeldagi yirik yog‘och ishlab chiqarish kombinatidan, Epadagi kombinat va boshqa 400dan ortiq mayda yog‘och tilish korxonalaridan iborat. Mamlakatning yirik shaharlarida mebel fabrikalari, gugurt va sellyuloza-qog‘oz korxonalari barpo etildi. Mamlakat janubidagi Nkala-gu, Port-Harkort, Abeokut, Kalabar, Emen shaharlarida sement, taxtalar va quvurlar ishlab chiqarish zavodlari joylashgan. Lagos mashinasozlik va metall

ishlash tarmoqlarining yirik markazidir. Xalq hunarmandchiligi rivojlangan.

G‘arbiy Afrikadagi Nigerda uran, qalay, gips, osh tuzi, soda qazib olinadi. Niger sanoati mahsulotining 3/4 qismini oziq-ovqat korxonalari beradi. Maradi, Magaria va Matameydagi yog‘ zavodlari 130 ming tonna yer yong‘oqni qayta ishlaydi. Zinderda yer yong‘oq tozalaydigan 3ta zavod, un-yorma korxonasi, Niameyda sut zavodi va sovitkichli qushxona, Tillaberi va Niameyda sholi oqlash fabrikalari, Niamey va Maradida pivo zavodlari bor. To‘qimachilik fabrikasi, 5ta paxta tozalash korxonasi, ko‘nchilik zavodi mavjud. Binokorlik materiallari (sement, sopol taxtachalar), kimyo mahsulotlari (sovun, upa-elik va dori-darmon) ishlab chiqariladi. Avtomashina kuzovi va tirkamalari yig‘iladi, mebel va mayda qishloq xo‘jaligi anjomlari ishlab chiqariladi. Kashtachilik, ko‘nchilik, kulolchilik ichki bozorda muhim o‘rin oladi. Yiliga o‘rtacha 180 mln. kVt-soat elektr energiya hosil qilinadi. Mamlakat ehtiyoji uchun zarur elektr energiyaning 50% Nigeriyadan olinadi.

Nigerda temir yo‘l yo‘q. Avtomobil yo‘llari uzunligi 19 ming km, shundan 3 ming km. asfaltlangan. Niger daryosida kemalar qatnaydi. Niamey va Agadesda xalqaro aeroport bor. Chetga uran ekstraktlari, tirik mol va chorvachilik mahsulotlari, araxis yog‘i, paxta, sabzavot chiqaradi, chetdan neft mahsulotlari, don, transport vositalari va asbob-uskunalar keltiradi. Tashqi savdodagi asosiy sheriklari Fransiya, Italiya, Germaniya, Yaponiya, Nigeriya, Jazoirdir.

Afrikada iqtisodiyoti eng rivojlangan davlat Janubiy Afrika Respublikasi (JAR) hisoblanadi. JAR iqtisodiyotning yetakchi tarmoqlari – ishlab chiqaruvchi sanoat (yalpi ichki mahsulotning 22,6%), konchilik sanoati (13%), moliya (15,21%), savdo va sayyohlik industriyasi (11,52%), transport va aloqa (9,11%), qishloq xo‘jaligi (5%) va baliqchilik (4,7%). Xizmat ko‘rsatish sohasi, neft va gaz qazib olish hamda qayta ishlashni istiqbolli sohalar qatoriga qo‘shish mumkin.

Sanoatida oltin (yiliga oʻrtacha 530 tonnadan koʻproq), platina metallari guruhi (100 tonnaga yaqin), vanadiy, xrom va marganets rudalari, surma, olmos qazib olishda dunyoda oldingi oʻrinlarda, koʻmir qazib chiqarishda 5-oʻrin, uran qazib chiqarishda 7-oʻrinda turadi. Temir rudasi, mis, asbest va boshqalar ham qazib olinadi. Yiliga oʻrtacha 190 mlrd. kVt-soat elektr energiyasi ishlab chiqariladi. Qora metallurgiya, mashinasozlik, kimyo, neftni qayta ishlash, sement, toʻqimachilik, oziq-ovqat sanoati rivojlangan.

Qishloq xoʻjaligi mahsulotining deyarli hammasi oq tanlilarga qarashli fermer xoʻjaliklari hissasiga toʻgʻri keladi. Asosiy ekinlari: makkajoʻxori (7,7 mln. tonna), shakarqamish (21 mln. tonna), bugʻdoy (1,5 mln. tonna), kartoshka, tamaki, sitrus va boshqa mevalar. Mamlakat hududining taxminan 80% (98 mln. gektar)dan ortigʻi qishloq xoʻjaligi maqsadlari uchun foydalaniladi. Qariyb 1,4 mln. gektar yer sugʻoriladi. Ekinlarni sugʻorish uchun Vaal, Ulifants, Krokodayl, GreytFish va boshqa daryolardan suv olinadi. Chorvachilikda qoramol, qoʻy, echki, choʻchqa boqiladi. Qoʻy juni yetishtirishda mamlakat faqat Avstraliya, Yangi Zelandiya, Argentinadan keyingi oʻrinda turadi. Sut chorvachiligi asosan yirik shaharlar atrofida.

Temir yoʻllarning uzunligi 33,8 ming km, shundan 5 ming km. ga yaqini elektrlashtirilgan. Qattiqqoplamali avtomobil yoʻllarining uzunligi 56,4 ming km. Neft va neft mahsulotlari portlardan asosiy sanoat markazlariga quvurlar orqali yetkazib beriladi. Dengiz floti rivojlangan. Eng muhim portlari Durban, Keyptaun. Port-Elizabet. Mamlakatda 3 ta xalqaro aeroport bor. Tashqi savdo aylanmasi yiliga 50 mlrd. AQSH dollaridan oshadi. Chetdan asosan mashina va asbob-uskunalar sotib oladi, chetga mineral va qishloq xoʻjaligi xomashyosi, olmos va metallar, kimyo va qishloq xoʻjaligi mahsulotlari chiqaradi. Tashqi savdodagi asosiy mijozlari: AQSH, Buyuk Britaniya, Germaniya, Yaponiya, Shveysariyadir.

Nazorat uchun savollar

1. Afrikaning iqtisodiy va siyosiy geografik o‘rni, maydoni, chegaralari haqida tushuncha bering.

2. Tabiiy sharoiti va resurlarining mamlakatlar iqtisodiyotidagi o‘rni haqida tushuncha bering.

3. Afrika mintaqasi aholisi va davlat tuzumlari haqida tushuncha bering.

4. Afrika mintaqasi aholisining soni, migratsiyasi bo‘yicha tushuncha bering.

5. Afrika mintaqasi aholisining tabiiy o‘sishining pastligi va uning sabablarini tushuntiring.

6. Afrika mamlakatlarining sanoati rivojlanishi bo‘yicha tushuncha bering.

11-BOB. AFRIKANING TURIZM GEOGRAFIYASI

11.1. Afrikaning dunyo xaritasida tutgan o‘rni va roli.

11.2. Afrika mintaqasining turistik resurslari.

11.3. Afrika mintaqasida xalqaro turizmning rivojlanish dinamikasi.

11.4. Afrikaning turistik davlatlari.

11.1. Afrikaning dunyo xaritasida tutgan o‘rni va roli

Afrika qit’asi shu nomdagi materik va unga tutash orollardan iborat. Qadimgi finikiyaliklar “afarik” so‘zi bilan Karfagendan g‘arbda yashovchi qabilalarni ataganlar (“afar” so‘zi finikiyaliklar tilida “chang” ma’nosini anglatgan). Rimliklar Karfagen va uning atroflarini bosib olganlaridan so‘ng bu hududga Afrika nomini berdilar. Keyinchalik esa bu nom butun materik va qit’aga nisbatan qo‘llana boshlagan.

Afrika materigining o‘rtasidan ekvator chizig‘i, g‘arbidan esa bosh meridian o‘tgan. Shu tufayli Afrika ham shimoliy, ham janubiy, ham sharqiy, ham g‘arbiy yarim sharlarda joylashgan.

Afrika qirg‘oqlari shimolda O‘rta dengiz, shimoli-sharqda Qizil dengiz, sharqda Hind okeani, g‘arbda Atlantika okeani suvlari bilan yuviladi. Qizil dengiz, Suvaysh kanali va Bob-al-Mandob bo‘g‘izi Afrikani Osiyodan, O‘rta dengiz va Gibraltar bo‘g‘izi esa Yevropa qit’asidan ajratadi.

Afrika qit’asi orol va yarimorollar ozligi bilan ajralib turadi. Uning tarkibiga Hind okeanidagi Madagaskar (sayyoramizdagi orollar orasida maydoni jihatidan 4-o‘rinda turadi), Maskaren, Komor, Seyshel orollari, Atlantika okeanidagi Yashil burun, Kanar, San-Tome va Prinsipi, Avliyo Yelena va boshqa orollar kiradi. Yagona yirik yarimoroli Somali hisoblanadi.

Qit’a siyosiy xaritasining shakllanish tarixi o‘ziga xos xususiyatlarga ega. Buyuk geografik kashfiyotlar davridan boshlab

Afrikaning aksariyat hududlari Yevropa davlatlarining mustamlakalariga aylandi. XX asrning boshiga kelib Afrikada faqatgina 2ta mustaqil davlat qolgan edi: bir necha ming yillik davlatchilik tarixiga ega Efiopiya hamda 1847-yil AQSHning yordamida barpo etilgan G‘arbiy Afrikadagi Liberiya davlati. Qit’aning qolgan hududi esa Buyuk Britaniya, Fransiya, Portugaliya, Belgiya, Germaniya, Italiya va Ispaniya tomonidan o‘zaro bo‘lib olingan edi.

Afrika davlatlari 1950-yillarda mustaqillikka erisha boshladi. 1960-yil BMT tomonidan “Afrika yili” deb e’lon qilinib, shu yil qit’adagi 17ta mamlakat mustaqillikka erishdi va jahon hamjamiyati tomonidan tan olindi. Ko‘plab mamlakatlari 1960–1980-yillar mobaynida davlat mustaqilligini qo‘lga kiritdi. Qit’adagi eng yosh davlatlar 1990-yilda mustaqillikka erishgan Namibiya, 1993-yilda Efiopiyadan ajralib chiqqan Eritreya va 2011-yilda mustaqilligini e’lon qilgan Janubiy Sudan hisoblanadi.

Afrikadagi ko‘plab davlatlarning chegaralari mustamlakachilik davrida shakllangan bo‘lib, aksariyat hollarda tabiiy va etnik chegaralarga mos kelmaydigan sun’iy ko‘rinishga ega. Buning ta’sirida haligacha qit’ada turli harbiy mojarolar va davlat to‘ntarishlari tez-tez sodir bo‘lib turadi.

Afrika siyosiy xaritasining o‘ziga xos jihatlaridan biri yirik maydonli davlatlarning ko‘pligidir. Jahondagi hududi 1 mln. km^2dan katta bo‘lgan 29ta davlatdan 12tasi Afrikada joylashgan (Jazoir, KDR, Sudan, Liviya, Chad, Niger, Angola, Mali, JAR, Efiopiya, Mavritaniya, Misr). Jahon bo‘yicha mavjud bo‘lgan maydoni 1 ming km^2dan oshmaydigan 24ta davlatdan atigi 1tasi – Seyshel orollari Afrikaga tegishli.

Afrikada jami 6ta orol mamlakatlari joylashgan. Ular Madagaskar, Kabo-Verde, Komor orollari, Mavrikiy, San-Tome va Prinsipi hamda Seyshel orollaridir. Dengizlarga chiqish imkoniyati yo‘q davlatlar soni bo‘yicha Afrika qit’alar orasida yetakchilik qiladi.

Afrikada quruqlik ichkarisida joylashgan jami 16ta davlat mavjud. Ularning qatorida Chad, Niger, Mali, Efiopiya, Zambiya, Botsvana, Janubiy Sudan kabi yirik davlatlar bor. Efiopiya jahonning quruqlik ichkarisida joylashgan 44 ta davlatlar orasida aholi soni bo‘yicha yetakchisi hisoblanadi.

Afrika davlatlaridan 51tasi respublika, 3tasi (Marokash, Svazilend (Esvatini), Le-soto) monarxiya boshqaruv shakliga ega.

Ma’muriy-hududiy jihatdan Afrikadagi 6ta davlat – Nigeriya, Efiopiya, Sudan, Janubiy Sudan, Somali, Komor orollari – federativ tuzilishga ega.

Afrika davlatlari boy va xilma-xil tabiiy resurslari, ayniqsa, mineral boyliklari bilan ajralib turadi. Neft va tabiiy gaz zaxiralariga Nigeriya, Jazoir, Liviya, Angola, Gabon, Kongo davlatlari boy. Qit’ada eng katta ko‘mir zaxiralari bilan JAR ajralib turadi. JAR, Namibiya, Botsvana, Zambiya, KDR, Niger va boshqa ko‘plab Afrika davlatlari rangli, qimmatbaho va radioaktiv metallar, olmosning yirik konlari bilan mashhur.

Afrikada keng tarqalgan tabiat zonalari savanna, chalacho‘l, cho‘l hamda nam ekvatorial o‘rmonlar hisoblanadi. Shimoliy Afrikada sayyoramizdagi eng yirik cho‘l – Sahroyi Kabir joylashgan. Uning janubiy chegarasi bo‘ylab cho‘zilgan Saxel deb ataluvchi chalacho‘l xususiyatli tabiiy geografik o‘lka jahon bo‘yicha aholisi va qishloq xo‘jaligi cho‘llashish jarayonidan eng jiddiy zarar ko‘rayotgan hudud hisoblanadi. Saxel Sudan, Chad, Niger, Mali, Mavritaniya kabi davlatlar hududini qamrab oladi.

11.2. Afrika mintaqasining turistik resurslari

Afrika nisbatan yosh sayyohlik mintaqalariga mansub bo‘lib, hozirgi vaqtda an’anaviy turistik mintaqalarga qaraganda turistik oqimlarning yuqori o‘sish sur’ati bilan ajralib turadi. Biroq, Afrika mintaqasi iqtisodiy va siyosiy jihatdan boshqalarga qaraganda kamroq barqaror va bu turizmning rivojlanishiga salbiy ta’sir qiladi.

Turizmning va turistik resurslardan yuqori darajada foydalana olmaslik holatiga 80-yillarning boshi va 90-yillarning o‘rtalari OITS qo‘rquvi tufayli mintaqaga sayohatlarning qisqarishi tufayli Afrikada turizmda turg‘unlik davri bo‘ldi. Bu davrda Afrikalik turoperatorlar sayyohlarni jalb qilish uchun narxlarni pasaytirishga majbur bo‘lishdi. Shu sababli, turizmdan olingan daromad darajasi turistlarning sonidan (har bir turistdan olinadigan o‘rtacha doramad) ancha orqada qoldi. Buning natijasida, Afrikaning turistlar uchun jozibador mintaqalarida turizm rivojlanishi talab darajasida bo‘lmadi.

Afrika boshqa qit’alardan o‘ziga xos geografik joylashuvi bilan ajralib turadi: ekvator chizig‘i materikni deyarli o‘rtada kesib o‘tadi. Materik ikki yarim sharda joylashganligi sababli u turizmni yil davomida rivojlantirish uchun keng imkoniyatlarga ega, uning shu ustunligi jahon turizmidagi mavsumiylik muammolarini hal qilishda qo‘l keladi. Bu ustunlik Yevropadan turistlar oqimini ta’minlashda katta ahamiyat kasb etadi. Afrika materigi katta miqdorda quyoshdan (yilning katta qismi quyoshli kunlar bo‘ladi) issiqlik oladi. Havoning harorati butun yil davomida yuqori bo‘lib, qish va yoz asosan namlik jihatidan farq qiladi: yoz deyarli hamma joyda yomg‘irli mavsum, qish quruq davr bo‘ladi.

Afrikaning katta maydonga egaligi, maydoni 30,3 million kv.km (yer shari quruqlik qismining 1/5 tashki qiladi) turizmning turlarini rivojlantirishga va boy resurslarga egaligidan dalolat beradi. Afrikaning Shimoliy qirg‘oqlari O‘rtayer dengizi suvlari yuvib turadi, bu esa qadimdan Yevropa, Osiyo va Afrikaning O‘rtayer dengizi mamlakatlari o‘rtasidagi savdoning rivojlanishida muhim rol o‘ynagan. Shuni ta’kidlash kerakki, Afrikaning geografik joylashuvining bunday muhim nuqtasi uning Osiyo (Yaqin Sharq) va yetakchi turistik mintaqa – Yevropaga yaqinligidir. Gibraltar bo‘g‘ozida Yevropa va Afrika o‘rtasidagi eng qisqa masofa atigi 14 km. Sinay yarim oroli Afrika va Osiyo o‘rtasidagi chegara hisoblanadi. O‘rtayer dengizi va Qizil dengizlarni tutashtiruvchi Suvaysh kanali

orqali Yevropadan Janubiy Osiyoga xalqaro ahamiyatga ega bo‘lgan dengiz yo‘llari o‘tadi.

Yuqorida ta’kidlaganimizdek Afrika qirg‘oqlarini Atlantika va Hind okeanlari suvlari yuvadi. Afrika qirg‘oq sohillari notekis tuzilishga ega bo‘lib, yaxshi himoyalangan dengiz qo‘ltiqlari deyarli yo‘q. Qirg‘oqlarning ba’zi joylari tik qoyalardan qumli plyajlarga almashinadi, bu esa dengiz qirg‘og‘idagi kurortlarni rivojlantirish uchun qulay imkoniyatlarni yaratadi. Shu bilan birga qirg‘oqlarga uriladigan kuchli to‘lqinlar va katta chuqurliklar kemalarning qirg‘oqqa yaqinlashishini qiyinlashtiradi. Mintaqaning Hind okeani suvlari yuvib turadigan qirg‘oqlarida ko‘plab marjon riflari mavjud.

Afrikada boshqa materiklardagidek baland va cho‘zilgan tog‘ tizmalari yo‘q (eng baland joyi Kilimanjaro tog‘i 5895 m) bo‘lganligi uchun tog‘ va tog‘ sport turizmini rivojlantirish imkoniyatlari past.

Afrika iqlimining asosiy xususiyatlari, birinchi navbatda, uning ekvatorial va tropik kengliklardagi o‘rni bilan belgilanadi, shuning uchun u eng issiq va eng quruq materikdir. Biroq, mintaqada sezilarli ichki iqlim farqlari mavjud. Ekvatorda harorat butun yil davomida yuqori (+24˚C), yog‘ingarchilik ham yil davomida tushadi (yiliga 2000 mm. dan ortiq). Namlikning bir xil ta’minlanishi o‘simliklarning uzluksiz o‘sishini ta’minlaydi va Kongo daryosi havzasi materikning markaziy qismi doimiy yashil o‘rmonlar bilan qoplangan. Ekvatorial iqlim zonasining Shimolida va janubida subekvatorial iqlimi bo‘lgan hududlar keng cho‘zilgan. Ular, shuningdek, yil davomida yuqori harorat bilan ajralib turadi, ammo yog‘ingarchilik notekis, 2 oydan 10 oygacha davom etadigan quruq mavsum mavjud. Bu yerda issiq savannalarning cheksiz kengliklari mavjud. Janub va shimolda subekvatorial o‘lkalar tropik iqlim zonalariga o‘tadi. Bu zonalarda iqlim yil davomida juda issiq va quruq bo‘ladi (yiliga 100 mm. dan kam yog‘ingarchilik, yomg‘ir ba’zi bir yillari bo‘ladi). Afrikaning keng hududlarda namlikning keskin yetishmasligi kuzatiladi. Materikning baland ko‘tarilgan va tik qirg‘oqlari okeanlardan nam

shamollarning kirib kelishini qiyinlashtiradi. Iqlimning kontinentalligi ayniqsa Afrikaning shimoliy, keng qismida yaqqol namoyon bo‘ladi. Afrikaning bu qismida (hududning taxminan ½ qismi yoki 14 million kvadrat kilometr) cho‘llar va yarim cho‘llar, shu jumladan dunyodagi eng katta cho‘l Sahroi Kabir (8 million kvadrat kilometr) joylashgan. Materikning o‘ta Shimoli va janubi subtropik iqlim zonalarida joylashgan. Yozda bu yerda tropik havo hukmronlik qiladi va havo quruq, bulutsiz, issiq bo‘ladi. Qishda ob-havo mo‘tadil havo massalari bilan belgilanadi, ular salqinroq va to‘yingan havo olib keladi natijada Afrikaning shimoliy (bu iqlim O‘rtayer dengizi deb ataladi) va janubi-g‘arbiy qismida qishda yomg‘irlar yog‘adi. Bu hududlardagi o‘rmonlarda doimiy yashil emanlar, magnoliyalar o‘zlarining tabiiy ko‘rinishida o‘sgan. Ammo hozirda ular kam saqlanib qolgan va madaniy landshaftlarga o‘z o‘rnini bo‘shatib bergan.

Afrikaning keng hududlarida namlik yetishmasligiga qaramay, sharqiy yarim sharning sersuv daryolaridan biri Kongo va dunyodagi eng uzun daryo Nil mana shu kengliklardan oqib o‘tadi. Afrika mamlakatlari iqtisodiyotida va xalqlari hayotida muhim rol o‘ynaydigan daryolardan – Zambezi, Niger, Limpopo, Orange va Zambezi daryosida dunyodagi eng katta sharsharalardan biri – Viktoriya ham shu katta kengliklarda joylashgan.

Afrikadagi deyarli barcha yirik ko‘llar mintaqaning Sharqida bo‘lib, ulardan tektonik chuqurliklarda (Tanganika, Nyasa) joylashgan. Tanganika ko‘li chuqurligi bo‘yicha dunyodagi eng chuqur ko‘l bo‘lgan Baykaldan keyin ikkinchi o‘rinda turadi. Afrikadagi eng katta ko‘l Viktoriya bo‘lib, u biroz sayoz ko‘llar qatoriga kiradi. Afrikaning qolgan qismida ham bir nechta ko‘llar bor, ular sayoz va ko‘pincha doimiy konturlarga ega emas. Quruq davrda bunday ko‘llar kichik maydonni egallaydi, ammo yomg‘irdan keyin (Chad ko‘li) ularning suvi deyarli ikki baravar ko‘payadi.

Afrika florasi juda boy. Hozirgi vaqtda o‘simliklarning 40 mingga yaqin turlari ma’lum, ularning aksariyati endemik, ya’ni faqat

Afrikada uchraydi. Afrika hayvonlari dunyosi boy va ekzotik, ayniqsa o‘txo‘rlar – jirafalar, zebralar, ko‘plab antilopalar, fillar, karkidonlar, begemotlar. Ko‘plab yirtqichlar: sherlar, gepardlar, giyenalar, shoqollar.

Afrika qarama-qarshi landshaftlar qit’asi bo‘lib, turizmni rivojlantirish uchun yaxshi tabiiy bazaga ega. Ammo inson faoliyati natijasida materik tabiatida kuchli o‘zgarishlar ro‘y berdi, ayrim hududlar ekologik halokat hududiga aylandi. Tabiatni asrash va undan oqilona foydalanish, shu jumladan turizmni rivojlantirish maqsadida Afrikaning ayrim davlatlari (Keniya, Tanzaniya, Uganda, Janubiy Afrika, Namibiya, Botsvana) hukumatlari milliy bog‘lar tizimini yaratdilar. Afrika mamlakatlari orasida milliy bog‘lar soni bo‘yicha birinchi o‘rin Keniyaga tegishli bo‘lib, ular butun hududning 15 foizini egallaydi. Mamlakatning janubiy qismida eng katta milliy bog‘ – Tsavo joylashgan.

Bu yerda sherlar, karkidonlar, jirafalar, antilopalar va 450 turdagi qushlar muhofaza qilinadi. Milliy bog‘ ayniqsa, fillar podasi bilan mashhurdir. Keniyaning janubida, shuningdek, Masai Mara qo‘riqxonasi va Nayrobi milliy bog‘i mavjud bo‘lib, u yerda sherlar, begemotlar, jirafalar, antilopalar, zebralar mavjud. Keniyaning o‘rta qismida, ekvator yaqinida joylashgan sayoz Nakuru ko‘lida milliy bog‘ ham mashhurdir. Bu yerda eng boy avifauna, shu jumladan flamingolar muhofaza qilinadi, ularning soni milliondan oshadi. Yovvoyi hayvonlarni tabiiy yashash joylarida ko‘rish imkoniyati bilan Keniyaga turizm yiliga 100 million AQSH dollardan ortiq daromad keltiradi.

Tanzaniyada joylashgan Serengeti milliy bog‘i butun dunyoda shuhrat qozongan. Siz yovvoyi hayvonlarning bunday katta konsentratsiyasini dunyoning boshqa joylarida ko‘rmaysiz: yovvoyi hayvonlar, zebralar, sherlar, leopardlar, fillar, jirafalar, begemotlar, karkidonlar va gepardlar ham Serengetidan milliy bog‘idan boshpana topgan. Ngoro milliy bog‘ida 2000 metr balandlikda o‘chgan vulqon

kraterida joylashgan. Uning faunasi Serengeti milliy bog‘i faunasiga o‘xshaydi.

Janubiy Afrika mintaqasida dunyoga mashhur Kruger milliy bog‘i (Janubiy Afrika), Kalahari-Hemsbok (Namibiya), Markaziy Kalahari qo‘riqxonasi (Botsvana) bor. G‘arbiy Afrika mintaqsida 30 ta milliy bog‘ va 75 qo‘riqxona mavjud bo‘lib, ularda ajoyib tabiiy landshaftlar – nam doimiy yashil va bargli o‘zgaruvchan nam o‘rmonlar, savannalar muhofaza qilinadi. Shimoliy Afrika mintaqasida ham bir necha o‘nlab milliy bog‘lar mavjud. Eng mashhurlaridan biri Marokashdagi Tazeka bo‘lib, u yerda doim yashil eman, archa va endemik fauna saqlanib qolgan.

Shimoliy Afrikada birinchi navbatda turistlarni tarixiy va madaniy yodgorliklar o‘ziga jalb qiladi. Shimoliy Afrikadagi mahalliy xalqlarning an’anaviy madaniyati yevropaliklar va amerikalik turistlarni markaziy va janubiy Afrika tabiati kabi o‘ziga tortadi. Shimoliy mintaqadagi ko‘plab xalqlarning o‘ziga xos xususiyatlari etnografik turizmini rivojlantirish uchun keng imkoniyatlarni yaratadi.

Shunga qaramay, Afrika sayyohlarning kelishi va turizmdan keladigan valyuta tushumlari bo‘yicha dunyoning yetakchi mintaqalaridan orqada qolmoqda. Mintaqada turizmni rivojlantirishga to‘sqinlik qiluvchi omillar qatoriga ko‘pchilik Afrika davlatlarining iqtisodiy darajasining pastligi, turizm infratuzilmasi va transport tarmog‘ining rivojlanmaganligi, xalqaro turizmga “yo‘l ochuvchi” ichki turizmning rivojlanmaganligi, ko‘plab “qaynoq nuqtalar”, hududiy da’volar va davlatlar o‘rtasidagi muammolarni ko‘rsatadi. Bu kabi muammolar vaziyatni beqarorlashtiradi va turistlarning xavfsizlik darajasini pasaytiradi. Shu bilan birga Afrikaning ba’zi hududlarida turizmning rivojlanishiga haddan tashqari issiqlik yoki namlik kabi tabiiy xususiyatlar ham salbiy ta’sir ko‘rsatadi.

Shimoliy (Tunis, Marokash), Sharqiy (Keniya) va Janubiy (Janubiy Afrika Respublikasi, Zimbabve) Afrika mamlakatlari xalqaro turizm bozoriga turistik resurslaridan kelib chiqqan holda bir qator

xizmatlarni taklif etmoqda. Tunis va Marokash plyajda cho‘milish, sog‘lomlashtirish va ta’lim turizmiga ixtisoslashib bormoqda. Safari turizmi an’anaviy ravishda Sharqiy Afrika milliy bog‘larida tashkil etilmoqda. Shuningdek Hind okeani sohillarida iqlimiy kurortlar rivojlantirilmoqda. Janubiy Afrikada turizmning rang-barang tuzilmasi mavjud: cho‘milish va plyaj, davolash va sog‘lomlashtirish, biznes, ta’lim va ov turizmi rivojlanib bormoqda.

Umuman so‘nggi yillarda Afrika qirg‘oqlarida dengiz sayohatlari muvaffaqiyatli rivojlanmoqda. Buning sabablaridan biri Yevropa va Osiyo portlarining Shimoliy Afrika portlariga yaqinligidir. Afrika qit’asining yana bir ustunlik tomoni qirg‘oq bo‘ylab dam olish uchun tabiati chiroyli va borish uchun qulay bo‘lgan orollar va arxipelaglarning joylashganligidir. Bularga misol qilib Madakaskar, Komor, San-Tome va Prinsipi orollarini olishmiz mumkin.

Afrikada tibbiyot turizmi boshlang‘ich bosqichida shakllanib bormoqda, shu bilan birgalikda Tunis (Sousse), Marokashning (Agadir, Mohammedia, Tangier, El-Xoseyma) dengiz bo‘yidagi iqlim kurortlari turistlar orasida ancha mashhurlikka erishib bo‘lgan. Hind okeani sohilida Keniyaning dengiz qirg‘oqlari kurortlari joylashgan bo‘lib, ulardan Mombasa, Kipini, Malindi, Lamu, Kilifi mashhurdir. Bir nechta kurortlar Janubiy Afrikaga ham sayyohlar orasida ommolashib bormoqda. Qolgan Afrika mamlakatlarida kurort biznesini rivojlantirish uchun tabiiy resurslardan foydalanish uchun mablag‘lar yetishmovchiligi mavjud.

Afrika mamlakatlarining ba’zi birlarida ishbilarmonlik turizmi ham muvaffaqiyatli rivojlanib bormoqda. Biznes turizmi eng tez rivojlanayotgan davlatlar tarkibiga Janubiy Afrika Respublikasi va Marokash kiradi. Shu bilan birgalikda Kongo Respublikasi, Zimbabve va Efiopiya biznes turizmining yuqori o‘sish sur’atlari kuzatilmoqda.

Afrikaga kelayotgan turistlar oqimining asosini yevropaliklar, AQSH va Kanada aholisi tashkil etadi. Yevropalik sayyohlar uchun Afrika qit’asida dam olishga bo‘lgan asosiy omillardan biri bo‘lib,

masofaning yaqinligi va xizmatlarning nisbatan arzonligi hisoblanadi. Afrikaga yevropaliklar orasida eng ko‘p Germaniya va Skandinaviya davlatlaridan sayyohlar tashrif buyuradi. Ular uchun o‘z vatani va dam olish maskani o‘rtasidagi tabiiy kontrastlar muhim ahamiyatga egadir. Amerikalik turistlar esa yangi sayyohlik yo‘nalishlarini “kashf qilishni” yaxshi ko‘radilar, bundan tashqari, Afrikaga masofa uzoq bo‘lishiga qaramasdan arzon xizmat tufayli tashriflar soni ortib bormoqda. Shu bilan birga yana eng muhim omillardan biri Afro-amerikaliklar uchun sayohat qilishning muhim sababi bu ota-bobolarining vataniga tashrif buyurish istagidir. Afrikaning aksariyat mamlakatlarida umumiy turistlar ichida AQSHdan kelgan sayyohlar soni bo‘yicha yetakchi o‘rinlarni egallaydi.

Afrika qit’asida turizmni rivojlantirish uchun boy resurslarga ega. Bu esa turistlar (dengiz sayohati, safari, tarixiy joylarga ekskursiyalar-birinchi odamlarning yashash joylari, qadimgi sivilizatsiya shaharlari va turli dinlarning muqaddas joylari) tashrifi va dam olish uchun keng imkoniyatlarni yaratadi.

Afrikaning aksariyat mamlakatlaridagi o‘ta keskin siyosiy vaziyat (fuqarolar urushlari, hududlarni yangi davlatlarga bo‘lish va ajratish uchun urushlar) tufayli turizm rivojlanishiga salbiy ta’sir ko‘rsatmoqda.

Afrika qit’asi yer sharining eng qadimiy sivilizatsiyasining markazlaridan biri bo‘lib, antik davrning noyob yodgorliklarining ko‘pchiligi Misr va Tunis kabi Shimoliy Afrika mamlakatlari saqlanib qolgan. Markaziy Afrika mamlakatlari (Keniya, Tanzaniya, Zambiya) Janubiy Afrika mamlakatlari bilan bir qatorda yovvoyi hayvonot dunyosini saqlab qolgandir. Shuningdek, Afrika qit’asida juda ko‘p sonli noyob yovvoyi hayvonlar turlari yashaydi, ularning aksariyat turlari faqat Afrikaning ma’lum qismlarida uchrashi bilan xarakterlidir. Xuddi shu kabi qit’adagi qo‘riqxonalar va milliy bog‘larda noyob o‘simlik turlari saqlanib qolgan. Bu Keniya, Janubiy Afrika Respublikasi, Tanzaniya va boshqa mamlakatlarda ekoturizm yoki

so‘nggi yillardan keng tarqalayotgan yashil turizm deb ataladigan turning, shu singari ov turizmining bir qator turlari rivojlanishiga olib kelmoqda.

Yuqorida ko‘rib o‘tilgan ijobiy tomonlar bilan birga salbiy tomonlari ham borki, ko‘pgina sayyohlar materik haqida noto‘g‘ri fikrga ega. Gap ijtimoiy hodisalar – qashshoqlik, suv tanqisligi, qurg‘oqchilik yoki harbiy to‘qnashuvlar tufayli yuzaga kelgan ocharchilik haqida bormoqda. Mintaqadagi biror mamlakat ochlikdan azob chekayotgan bo‘lsa, bu butun Afrika ochlikdan o‘lyapti degani emas. Siyosiy beqarorlik, ekstremistik tashkilotlar faoliyati, millatlararo to‘qnashuvlar tufayli Syerra-Leone, Kot-d’Ivuar, Sudan, Somali, Zair, Burundi, Jazoir kabi davlatlarga tashrif buyurishni xavfli qilib qo‘ymoqda. Nigeriya va Zimbabve “qora irqchilik” ko‘rinishlari tufayli turistlarning tashrifiga salbi ta’sir qilmoqda.

Sharqiy va Janubiy Afrikada aprel-may oylariga to‘g‘ri keladigan va bir necha hafta davom etadigan yomg‘irli mavsumda Afrikaga sayohat qilish noqulay bo‘ladi. Mintaqada quruq mavsum vaqtida o‘tlar sarg‘ayib, daraxtlarning barglari qurib qoladi va turistlarni jalb qiladigan jozibadorlik qolmaydi. Kuz vaqtida oktyabrdan boshlab tabiat qayta jonlanadi havo tiniq quyoshli ob-havo bo‘lishi turistik safarlar uchun qulay imkoniyatlar yaratadi.

11.3. Afrika mintaqasida xalqaro turizmning rivojlanish dinamikasi

Boshqa mintaqalarga qaraganda imkoniyatlari katta bo‘lishiga qaramasdan turistik resurslari nisbatan kam ishlatilayotgan Afrikada ham turizm rivojlanishi so‘nggi yillarda yangi bosqichga chiqdi. Afrika turizmi jahonda turistlar tashrifi bo‘yicha umumiyda bor-yo‘g‘i 2019-yilda 5%ni (73,2 mln. turist), daromad 3,7%ni (39,1 mlrd. AQSH doll.) tashkil qildi.

Afrikada turizm eng rivojlangan subregion shimoliy Afrika hisoblanadi. Afrikaning qolgan qismi Saxroikabrning janubi deb

yuritiladi. Shimoliy Afrika mintaqasiga turistlar tashrifi 2010-yilda 19,7 mln., 2017-yilda 21,7 mln., 2018-yilda 24,1mln., 2019-yilda 26,1 mln.ni tashkil etgan bo‘lib, undan 2010-yilda 9,7 mlrd., 2017-yilda 9,9 mlrd., 2018-yilda 10,7 mlrd., 2019-yilda 11,5 mlrd. AQSH dollari miqdorida daromad olgan.



11.3.1-rasm. Afrika mintaqasi turizmi rivojlanishining makroiqtisodiy ko‘rsatkichlari[43].

Saxroikabrning janubida joylshgan davlatlarida turistlarni qabul qilish ko‘rsatkichlari 2010-yilda 30,7 mln., 2017-yilda 41,6 mln., 2018-yilda 44,7 mln., 2019-yilda 47,1 mln.ni tashkil etgan bo‘lib, 2010-yilda 20,8 mlrd., 2017-yilda 26,5 mlrd., 2018 va 2019-yillarda 27,6 mlrd. AQSH dollari miqdorida turistlarga xizmat ko‘rsatishdan daromad olgan (11.4.1-jadval).

Afrika mintaqasidagi turizmi rivojlangan davlatlar bo‘yicha tahlil qilinadigan bo‘lsa, shimoliy Afrika mintaqasida to‘rtta davlat (Jazoir, Marokash, Tunis va Sudan) joylashgan bo‘lib, ma’lumotlarning ko‘rsatishi-cha, bu mamlakatlar turizmi butun mintaqadagi

[43]UNWTO yillik statistik ma’lumotlar asosida tuzib chiqilgan.

tashriflarning 2019-yilda 35,6%ni, daromadlarning 29,4%ni tashkil etgan.

11.4.1-jadval

Afrika mintaqasi subregionlari turizmi rivojlanishi ko‘rsatkichlari[44]

Subregionlar nomi	Yillar bo‘yicha xizmat ko‘rsatilgan turistlar soni mln. kishi				Yillar bo‘yicha olingan daromadlar mlrd. AQSH dol. hisobida*			
	2010	2017	2018	2019	2010	2017	2018	2019
Shimoliy-Afrika	19,7	21,7	24,1	26,1	9,7	9,9	10,7	11,5
Saxroikabr janubi	30,7	41,6	44,7	47,1	20,8	26,5	27,6	27,6
Jami mintaqa bo‘yicha	50,4	63,3	68,8	73,2	30,4	36,4	38,3	39,1

*mahalliy valyutada va doimiy narxlarda hisoblangan.

Saxroikabrning janubida joylashgan mamlakatlar orasida turizmi nisbatan rivojlangan davlatlar Janubiy Afrika Respublikasi (JAR) 2010-yilda 8,1 mln., 2017-yilda 10,3 mln., 2018-yilda 10,5 mln., 2019-yilda 10,2 mln. turistlarga xizmat ko‘rsatib, 2010-yilda 9,1 mlrd., 2017-yilda 8,8 mlrd., 2018-yilda 8,9 mlrd., 2019-yilda 8,4 mlrd. AQSH dollari miqdorida doromad olgan bo‘lib, mintaqadagi davlatlar ichida ilg‘or hisoblanadi. Jahonda Afrika mintaqasi turizmiga bo‘lgan qiziqish borgan sari ortib bormoqda.

11.4. Afrikaning turistik davlatlari

Afrikaning turistik mamlakatlari haqida to‘xtaladigan bo‘lsak, Efiopiya mintaqadagi davlatlar orasida turistik resurslari ko‘pligi bilan alohida ajralib turadi. Efiopiyada tarixiy joylar, yovvoyi tabiat va Afrikaning qadimiy qabilalari yashagan manzillarga juda boy hisoblanadi. Ko‘pgina qadimiy shaharlar butun dunyodan minglab

[44] World Tourism Organization (UNWTO) yillik statistik ma’lumotlar asosida tuzib chiqilgan.

sayyohlarni o‘ziga jalb qiladi. Bular ichida eng mashhurlari Aksum, Lalibela, Gondar bo‘lib, boy tarixga ega qadimiy davlatlarning poytaxtlari sayyohlik maskanlaridan biridir. Shu bilan birga islomning muqaddas shaharlariga ham musulmon ziyoratchilar tashrif buyuradi. Efiopiyada yo‘qolib ketish arafasida turgan bir qancha hayvonlar turlari yashaydigan ko‘plab milliy bog‘lar mavjud va bu yerga yuzlab sayyohlar ularni ko‘rish uchun kelishadi. Efiopiyada ekskursiya turizmidan tashqari tibbiy turizm rivojlangan. Bu yerda, asosan, mamlakat markazida ko‘plab mineral buloqlar mavjud. Afrikadagi birinchi besh yulduzli mehmonxona ham shu yerda ochilgan.

Efiopiyadan butunjahon madaniy meroslari ro‘yxatiga 9ta obyekt kiritilgan. Fasil-Gebbi – Amxaraning Efiopiya viloyatidagi Gonder shahrining qal’asi. XVI-XVII asrlarda qal’a Efiopiya imperatori Fasilidas va uning vorislarining qarorgohi bo‘lib xizmat qilgan. Eski devor bilan o‘ralgan shahar 900 metrlik devor bilan o‘ralgan bo‘lib, orqasida saroylar, cherkovlar, monastirlar va noyob jamoat va xususiy binolar joylashgan. Binolarning arxitekturasi hind va arab uslubida yaratilgan. 1979-yilda Fassil-Gebbi YuNESKOning Butunjahon merosi ro‘yxatiga kiritilgan.

Aksum – Efiopiyaning shimolida joylashgan shahar bo‘lib, miloddan avvalgi 400-yillardan beri bu hududda hukmronlik qilgan dengiz va savdo kuchlari Aksum qirolligi nomiga ega. Miloddan avvalgi X asrgacha O‘rta asr manbalarida ba’zan bu shohlikni Efiopiya deb atashgan. Shahar dengiz sathidan 2130 metr balandlikda joylashgan. 1980-yilda YuNESKO Axumning arxeologik yodgorliklarini Umumjahon merosi obyektlari ro‘yxatiga kiritdi. Aksum shahardagi asosiy Aksumit yodgorliklari kiradi. Yodgorliklar asosan toshlardan qurilgan binolar bo‘lib, ularning eng ko‘p qismi Shimoliy parkda joylashgan. Turli o‘lchamdagi obidalar, eng kattasining balandligi 33 metr bo‘lgan Katta tosh binosi qurilish vaqtida qulagan deb taxmin qilinadi. Eng balandlaridan biri bu qirol Ezananing 24 metrli Stelasidir. Aksum shaharning diqqatga sazovor

joylari qatoriga 1665-yilda qurilgan Sion avliyosi Maryam cherkovi kiradi, unda Ahd sandig‘i (XII asrning taniqli cherkovi) joylashgan, arxeologik va etnografik muzeylar bor.

Janubiy Afrika Respublikasi (JAR). Hozirgi JAR hududiga dastlab bushmenlar, keyinchalik gottentotlar o‘rnashgan. 1488-yilda portugal dengizchisi Dias Yaxshi Umid burnini kashf etadi. 1652-yilda gollandlar Janubiy Afrika sohillarida o‘z mustamlakalariga asos solishadi. Bular 1834-1839-yillarda Transvaal hamda Oranj respublikalariga asos solishadi. Inglizlarning Transvalga 1877-yilda hujum qilishi birinchi ingliz-bur urushini keltirib chiqaradi va bu urushda Buyuk Britaniya mag‘lubiyatga uchraydi. Lekin ikkinchi ingliz-bur urushidan so‘ng, 1902-yilda inglizlar burlar ustidan o‘z hukmronligini o‘rnatadi. 1910-yilda Kar, Natal, Transvaal va Oranjdan iborat federatsiya tuziladi va Britaniya dominioni deb e’lon qilinadi. Ikkinchi jahon urushidan so‘ng Janubiy Afrika Ittifoqi (1961-yildan JAR)ning hukumati aparteid siyosatini e’lon qiladi. Mamlakatning afrikalik aholisining noroziliklari, jahon hamjamiyatining mamlakat hukumatini iqtisodiy sanksiyalar bilan siquvga olishi 1989-yilda aparteid siyosatining tugatilishiga olib keldi. 1992-yilda dastlabki demokratik saylovlarda Nelson Mandela g‘olib chiqadi. 1994-yili hokimiyat bo‘linishi hamda aparteiddan voz kechish tamoyillariga asoslangan muvaqqat konstitutsiya qabul qilindi (1996-yilda Yangi konstitutsiya qabul qilingan). XXI asr boshlaridan mamlakatda qashshoqlikka barham berish va iqtisodni liberallashtirish masalalariga alohida e’tibor berilmoqda. Shuningdek, mamlakatda turizmni rivojlantirishga alohida e’tibor qaratildi. Mamlakatda turizm uchinchi yirik sanoatga aylantirildi. Mamlakatga har oyda o‘rtacha 900 mingdan ortiq sayyoh tashrif buyuradi. Dam olishning eng ommabop turi ekoturizm bo‘lib, u safari, kemping, ekstremal sport turlari va piyoda sayr qilish maqsadida mamlakatning milliy va xususiy qo‘riqxonalariga tashrif buyurishni o‘z ichiga oladi. Odamlar Janubiy Afrikaga mamlakatning asosiy geografik va tarixiy diqqatga sazovor

joylari bilan tanishish uchun ham keladi. Mamlakatning diqqatga sazovar joylari ichida, Yaxshi umid burni – Afrikaning eng janubi-g‘arbiy qismi; Stol tog‘i – dunyodagi eng qadimgi tog‘ bo‘lib, uning yoshi 460 million yildan ortiq, Agulhas burni – Afrika qit’asining janubiy uchi, ikki okeanning qo‘shilishi; Kruger bog‘i – 3 ta shtatni qamrab olgan dunyodagi eng katta qo‘riqxona; Massel ko‘rfazi – bu yerda portugal dengizchilari birinchi marta qirg‘oqqa chiqishdi va bu voqeani Janubiy Afrikaning kashfiyoti sifatida belgiladilar; Kimberli shahri – birinchi Janubiy Afrika olmoslari topilgan joy bo‘lib, eng katta olmos 3106,75 karat og‘irlikda topilgan; Sterkfonteyn – ibtidoiy odamlarning qoldiqlari va izlari topilgan qadimgi g‘orlarlar bor.

Zamonaviy kommunikatsiya texnologiyalari va o‘z mamlakatlari xususiyatlaridan foydalangan holda jahon bozorida o‘zini tanitgan Yangi turistik mintaqaviy markazlar tahlil uchun katta qiziqish uyg‘otadi. Afrikadagi aholi va YaIM bo‘yicha eng katta davlat Nigeriya hisoblanadi. Keyingi yillarda mamlakat hukumati tomonidan turizmni rivojlantirish bo‘yicha kompleks chora-tadbirlar qabul qilindi. Bunda, turizmni rivojlantirishda xususiy sektor, jumladan, xalqaro mehmonxona tarmoqlari, aviatashuvchilar, infratuzilma tarmoqlari kompaniyalari hisobidan amalga oshirilishi kerak. Ikkinchidan, turizmni rivojlantirish bo‘yicha yo‘nalishlarni ishlab chiqadigan, mehmonxonalar, ko‘ngilochar markazlarning xususiy qurilishini va xalqaro tashuvchilar bilan o‘zaro hamkorlikni muvofiqlashtiruvchi markazlashgan davlat-xususiy korporatsiyani tashkil etish maqsadga muvofiqdir. Uchinchidan, Nigeriyada turizm xizmatlari bozorini rivojlantirishning uslubiy usullari global foydalanish uchun foydalidir, masalan, tabiiy diqqatga sazovor joylardagi analoglarni izlash (Yuta shtatidagi Josa Plateau Lena Pillars Stone Pillars), madaniy (go‘zallik tanlovlarini tashkil etish, etnografik). festivallar, tarixiy (Benin davlati poytaxti qo‘shni davlatlar bilan qadimiy umumiy shaharlar arxeologik qazishmalar) va boshqalar. Olingan natijalar ko‘lami rivojlanayotgan mamlakatlarning ichki turizm bozorlari hisoblanadi. Turizm

Nigeriyaning boy resurslarga asoslangan iqtisodiyotini diversifikatsiya qilishga yordam beradi. Turizm faoliyatining kengayishi iqtisodiyotda bandlikning oshishiga olib keladi (mamlakatning iqlimiy xususi-yatlarini hisobga olgan holda yil davomida bandlik kafolatlanadi). Turizmni rivojlantirish mahalliy infratuzilmani rivojlantirishni rag‘batlantiradi, bu esa mamlakatning “iqtisodiy” rivojlanishiga turtki bo‘lib xizmat qiladi.

Marokash Qirolligi Afrika qit’asining shimolida joylashgan va eng qadimgi davlatlardan biridir. 466,5 ming kvadrat metr maydonda km.da 32 millionga yaqin aholi istiqomat qiladi. Shtat poytaxti – Rabot shahri. Marokashning shimoliy qismini O‘rta yer dengizi, g‘arbiy qismini esa Atlantika okeani yuvib turadi. 1912-yildan 1956-yilgacha mamlakat fransuz mustamlakasi bo‘lgan, shuning uchun hozirgacha ko‘plab aholi fransuz tilida gaplashadi.

Marokash Afrikaning eng sirli va rang-barang davlatlaridan biridir. Uning Atlas tog‘lari Mars sayyorasiga o‘xshaydi, oq-ko‘k rangdagi Essauira shahri esa qaroqchilar haqidagi filmdagi manzarani eslatadi. Marrakashning qadimiy obidalari sayyohlarni bir necha asrlar orqaga sayohat qilishga imkon beradi.

Marokash “paketli sayyohlar”ga ham, ekskursiyalar va faol vaqtni afzal ko‘radigan sayohatchilarga ham yoqadi. O‘rta yer dengizi yoki Atlantika okeanidagi kurort shaharchalarida dam olish, Yevropa mamlakatlaridagi kabi sayyohlarga yirik mehmonxona majmualari, restoranlar, bozorlar, kazinolar, hamomlar va suv sport turlarini taklif etadi. Bunday shaharchalarda hayot sayyohlar uchun mutlaqo xavfsizdir, mahalliy politsiya nafaqat diqqatli, balki har doim yordam berishdan va o‘z mamlakati haqida foydali ma’lumotlarni taqdim etishdan mamnun. Marokashda ajoyib yo‘llar, shu jumladan pullik magistrallar mavjud. Shuning uchun, eng qiziqarli joylarni ko‘rishning eng yaxshi usuli – bu avtomobilni ijaraga olishdir.

Atlantika qirg‘og‘ida plyajda dam olish uchun turistlar Agadirga borishi kerak. Bu ko‘plab yevropaliklar va badavlat marokashliklar

dam oladigan zamonaviy kurortdir. Turli toifadagi juda ko‘p mehmonxonalar, uzunligi 6 km. bo‘lgan keng qumli plyaj va restoranlar, barlar, klublar va kazinolar joylashgan ajoyib sayrgoh mavjud. Shu bilan birgalikda, to‘lqinlarda yurishni yaxshi ko‘radiganlar Essauira shahrini ham yoqtirishadi. Atlantika okeani sohilida joylashgan tinchroq kurort El-Jadida hisoblanadi. U keng qumli plyaji va qurilishi XVI asrda boshlangan qadimiy qal’asi bilan ajralib turadi. Go‘zal lagunalar va cho‘l plyajlar Oualidiya kurort shaharchasida dam oluvchilarni kutib oladi. Bu yerdagi okean juda sokin, shuning uchun turistlar bolalari bilan Oualidiyaga bemalol kelishi mumkin. Plyajlar bilan taxminan bir xil holat Kasablankada. Bularning barchasi plyajda ajoyib vaqt o‘tkazish mumkin bo‘lgan asosiy kurortlardir.

Nazorat uchun savollar

1. Afrikaning dunyo xaritasida tutgan o‘rni va rolini tushuntiring.
2. Afrika mintaqasining turistik resurslari haqida tushuncha bering.
3. Afrika mintaqasi turizmi rivojlanishiga ta’sir etuvchi omillarni aniqlang.
4. Afrika mintaqasida xalqaro turizmning rivojlanish dinamikasini tahlil qiling.
5. Afrikaning turistik davlatlari haqida tushuncha bering.
6. Afrika mintaqasining turistik mamlakatlari va ularning imkoniyatlarini tahlil qiling.

12-BOB. OSIYO VA OKEANIYA MINTAQASINING IQTISODIY VA SIYOSIY GEOGRAFIK TAVSIFI

12.1. Osiyo va okeaniya mintaqasining iqtisodiy va siyosiy geografik o‘rni, maydoni, chegaralari.

12.2. Tabiiy sharoiti va resurlarining mamlakatlar iqtisodiyotidagi o‘rni.

12.3. Aholisi va davlat tuzumi. Aholisining soni, migratsiyasi va tabiiy o‘sishining pastligi va uning sabablari.

12.4. Mintaqa mamlakatlarining sanoati.

12.1. Osiyo va okeaniya mintaqasining iqtisodiy va siyosiy geografik o‘rni, maydoni, chegaralari

Osiyo va Tinch okeani mintaqasining turistik salohiyati tahlilini o‘tkazishda mintaqani bir nechta subregionlarga bo‘lib o‘rganish geografik nuqtai-nazardan ancha qulaydir. Shuning uchun subregionlar bo‘yicha oladigan bo‘lsak bizda tasavvur tezroq paydo bo‘ladi.

Osiyo jahondagi eng yirik qit’a hisoblanib, uning maydoni 43,4 mln.km.kv. (jahon quruqlik yuzasining 29,2%)ni, aholisi soni esa 4,4 mlrd. kishiga yaqin (jahon aholisining 59,5%ni tashkil etadi). Zamonaviy Osiyo siyosiy xaritasida 47ta mustaqil davlat mavjud. Bu davlatlarning 13 tasi monarxiya boshqaruv shakliga, 7 tasi federativ ma’muriy hududiy tuzilishga ega. Qit’a hududi 5ta subregionga – Janubi-g‘arbiy, Janubiy, Sharqiy, Janubi-Sharqiy va Markaziy Osiyoga ajratiladi.



12.1.1-rasm. Osiyo mintaqasining subregionlarga bo‘linishi.

Mazkur subregionlarni madaniy-tarixiy mintaqalar sifatida ham ko‘rish mumkin. Ularni ajratishda tarixiy, etnik, diniy omillar bilan bir qatorda, tabiiy belgilarga ham e’tibor qaratilgan.

Janubi-g‘arbiy Osiyo. Aholi soniga ko‘ra Turkiya, Eron, Afg‘oniston, Iroq, Saudiya Arabistoni davlatlari yetakchilik qiladi. Umumiy aholining 60% qishloqlarda istiqomat qiladi. Subregionda, asosan, neft (Fors ko‘rfazi davlatlari, Turkiya, Ozarbayjon, Armaniston) mashinasozlik (Turkiya, Eron, Gruziya, Ozarbayjon, Armaniston), metallurgiya (Turkiya, Eron, BAA) va kimyo sanoatlari (Eron, Turkiya, Ozarbayjon) rivojlanmoqda. Yengil va oziq-ovqat sanoati Janubi-g‘arbiy Osiyoning barcha davlatlarida rivojlangan. Qishloq xo‘jaligining yetakchi tarmog‘i dehqonchilik hisoblanadi. Asosan, sug‘orma dehqonchilik rivojlangan, iste’mol uchun bug‘doy, makkajo‘xori, arpa yetishtiriladi. O‘rta dengizbo‘yi davlatlarida sabzavotchilik, mevachilik, uzumchilik rivojlangan bo‘lib, ular bilan bir qatorda zaytun yetishtirish katta o‘rin egallaydi va aynan mazkur dehqonchilik turi bo‘yicha mintaqa jahonda yetakchilik qiladi.

Turkiyada paxtachilik, tamaki, sitrus meva, donchilik, Eronda xurmo, sitrus mevalari, qand lavlagi, paxta, Iroq, Suriya va Isroilda paxta, tamaki va xurmo yetishtirish rivojlangan. Chorvachilikda Turkiya angor echkilar boqishga, Arabiston yarimoroli davlatlari tuyachilikka, Eron va Afg‘onistonda qorako‘lchilikka ixtisoslashgan. Xizmat ko‘rsatish sohalari orasida transport va turizm katta salmoqqa ega.

Janubiy Osiyo davlatlari. Janubiy Osiyo subregionining umumiy maydoni 4,5 mln km² ni tashkil etadi. Mintaqada 2 mlrd.ga yaqin aholi istiqomat qiladi. Mazkur subregion tarkibiga Hindiston yarimoroli, Hind-Gang tekisligi, Shri-Lanka, Maldiv, Andaman, Nikobar hamda Lakkadiv orollari kiradi. Uning hududida 7 ta davlat joylashgan. Mintaqa davlatlari orasida bitta monarxiya davlat tuzumiga ega bo‘lgan Butan Qirolligi bilan 6ta respublika mavjud. Ma’muriy-hududiy tuzilishiga ko‘ra esa Hindiston va Pokiston federativ, qolganlari unitar davlatlar hisoblanadi. Janubiy Osiyoning dunyo miqyosida tutgan o‘rni quyidagicha: bu subregion Yer shari quruqlik maydonining 3,1%ni egallaydi; dunyo aholisining 25,4% ushbu mintaqa aholisidan tarkib topadi; dunyo bo‘yicha YMMning 9%dan ortig‘i shu subregion hissasiga to‘g‘ri keladi.

Dunyo okeaniga bevosita chiqish imkoniyatining mavjudligi, Hind okeani havzasi qirg‘oqbo‘yi hududlarining markazida joylashganligi, uning hududida qadimiy tarixiy markazlarning mavjudligi, mintaqa geografik o‘rnining o‘ziga xos jihatlari hisoblanadi. Janubiy Osiyoni Shimolda Himolay tog‘ tizmasi va Qoraqurum o‘rab turadi. Shimoli-Sharqda u o‘rmonlar bilan qoplangan Assam-Birma tog‘lari, shimoli-g‘arbda esa Hindukush va Eron tog‘liklari orqali chegaralanadi. Mintaqa Shimoldan janubga qarab dunyodagi eng baland tog‘ Himolaydan ekvatorda joylashgan Maldiv orollariga tomon pasayib boradi. Mazkur mintaqaga musson tipli iqlim xos bo‘lib, yil davomida ob-havoning keskin o‘zgarishi bilan ajralib turadi. Bu yerda aniq ifodalangan ikki iqlimiy mavsum (nam yoz va quruq qish mavsumlari) ajratiladi. Mintaqa iqtisodiyoti rivojlanishida

tabiiy resurslar, ayniqsa, mineral resurslar katta ahamiyatga ega. Bu yerda yoqilg‘i-energetika resurslaridan boshlab (ko‘mir, tabiiy gaz, tarkibida radioaktiv toriy mavjud bo‘lgan monatsitli qumlar) qimmatbaho metall hamda toshlar mavjud (oltin, zumrad, olmos). Subregion jahonda qora metall rudalar (temir, marganes, xrom) zaxirasiga ko‘ra ajralib turadi. So‘nggi yillarda mintaqaning dengiz shelf zonasida neft va gaz qazib olish rivojlanmoqda. Suv resurslari bilan nisbatan yaxshi ta’minlangan. Hind, Gang, Brahmaputra eng yirik daryolari hisoblanadi. Subregionda yuqori unumdorlikka ega bo‘lgan allyuvial tuproqlar, qora tuproq xususiyatli gilli tuproqlar – regurlar keng tarqalgan. Janubiy Osiyoning barcha davlatlarida milliy, diniy, ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot omillari bilan bog‘liq holda, aholining tabiiy o‘sish sur’atlari yuqori. Janubiy Osiyoda 1 mln.dan ortiq 33ta etnos istiqomat qilib, mintaqa aholisining 98% ularning hissasiga to‘g‘ri keladi. Asosan, induizm (Hindiston, Nepal), islom (Pokiston, Bangladesh, Maldiv), buddizm (Butan, Shri-Lanka) dinlari tarqalgan. Ma’lumki, Janubiy Osiyo qadimiy sug‘orma dehqonchilik markazlaridan biri sifatida jahonning aholisi eng zich joylashgan areallardan biridir. Bu yerda o‘rtacha zichlik 355 kishi/km.kv.dan ortiq bo‘lib, o‘rtacha jahon ko‘rsatkichidan 6,7 marta ortiqdir. Tekislik hududlari, yirik daryo vodiylari (ayniqsa, Gang daryosi vodiysi) hamda dengizbo‘yi hududlarida aholining yuqori zichlik ko‘rsatkichlari qayd qilinadi. Janubiy Osiyo dunyoning eng kam urbanizatsiyalashgan mintaqalaridan biri hisoblanadi (46%). Bu holat mintaqa davlatlarining past ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyoti sabablidir. Shu bilan bir qatorda mintaqaning ko‘plab davlatlarida soxta urbanizatsiya jarayoni ham tez sur’atlarda rivojlanib bormoqda. Janubiy Osiyo iqtisodiyotida rivojlanish darajasiga ko‘ra, Osiyoning boshqa subregionlariga nisbatan past ko‘rsatkichlar qayd etadi. Butan va Nepal agrar, Maldiv agrar-industrial, Bangladesh, Pokiston, Hindiston hamda Shri-Lanka industrial-agrar davlatlar hisoblanadi. Janubiy Osiyo davlatlari jahon iqtisodiyotida asosan konchilik

(Hindiston, Nepal, Butan), qora va rangli metallurgiya (Pokiston, Hindiston, Shri-Lanka), kimyo (Hindiston, Pokiston), yengil va oziq-ovqat sanoat tarmoqlari (barcha davlatlarda) rivojlanganligi bilan ajralib turadi. Qishloq xo‘jaligi mahsulotlari yetishtirishda dehqonchilik sohasi ustun hisoblanadi. Janubiy Osiyo jahondagi donli ekinlar (ayniqsa, sholi) yetishtiruvchi yirik mintaqa sifatida tanilgan. Bundan tashqari, bu yerda jut (Hindiston, Bangladesh), tabiiy kauchuk, kokos (Shri-Lanka), shakarqamish, paxta, yeryong‘oq ham yetishtiriladi. Hindiston va Shri-Lanka jahon choy hosilining 40% ni yetishtirib, uning eksporti bo‘yicha yetakchi o‘rinlarni egallaydi. Shuningdek, subregion turli xil ziravorlar yetishtirish bo‘yicha ham jahonda peshqadamlik qiladi. Chorvachilikda qoramolchilik, qo‘y va echkichilik, baliqchilik kabi tarmoqlari rivojlangan. Shu bilan birga, mintaqa davlatlarida xizmat ko‘rsatish tarmoqlaridan turizm, tibbiyot, transport xizmatlar ko‘rsatish katta o‘rniga ega.

Sharqiy Osiyo davlatlari. Osiyoning sharqiy qismida joylashgan hududlari Sharqiy Osiyo subregioni hisoblanadi. Shimoliy, g‘arbiy, janubiy qismlaridan mintaqaning quruqlik chegaralari o‘tsa, sharqi Yapon, Sariq, sharqiy Xitoy, janubiy Xitoy dengizlari zanjiri bilan o‘ralgan. Uning umumiy maydoni 11,8 mln. km.kv., aholisi soni esa 1,5 mlrd.dan ortiq. Mazkur mintaqa yer shari quruqlik maydonining deyarli 8%ini egallaydi; dunyo aholisining 22,2%ni o‘z ichiga oladi; dunyo bo‘yicha YMM ning 1/4 qismidan ortiq shu mintaqa hissasiga to‘g‘ri keladi. Subregion hududida 5ta mustaqil davlat joylashgan. Sharqiy Osiyo subregioni Osiyoning maydon jihatdan eng katta mintaqasi hisoblanadi. Uning davlatlari orasida Xitoy maydon kattaligiga ko‘ra jahonda uchinchi, aholi soniga ko‘ra esa, birinchi o‘rinni egallaydi. Koreya Respublikasi mintaqaning maydon jihatdan kichik davlati hisoblansa, Mongoliya aholi soniga ko‘ra guruhda so‘nggi o‘rinni egallaydi. Subregion davlatlarining yana bir o‘ziga xos jihati shuki, har bir davlat o‘z siyosati, rivojlanish holatiga ko‘ra deyarli bir-biriga o‘xshamaydi. Bu yerda bozor iqtisodiyoti talablarini

o‘zida singdirgan sotsialistik tuzum asosida rivojlanayotgan Xitoy Xalq Respublikasi, jahonning eng harbiylashgan, yopiq davlat siyosat yurituvchi, totalitar tuzumga ega bo‘lgan Koreya Xalq Demokratik Respublikasi (KXDR), mintaqadagi yagona monarxiya tuzumiga ega bo‘lgan, jahonning iqtisodiy jihatdan eng rivojlangan davlatlaridan biri – postindustrial davlat Yaponiya, Yangi sanoatlashgan davlat – Koreya Respublikasi bilan bir qatorda iqtisodiyoti nisbatan past darajada rivojlangan Mongoliya joylashgan. To‘g‘ridan to‘g‘ri Tinch okeaniga chiqish imkoniyatiga ega (Mongoliyadan tashqari) ekanligi, subregionning qadimiy sivilizatsiya markazlaridan biri ekanligi geografik o‘rnining ijobiy jihatlari hisoblansa, g‘arbiy va janubiy qismlarining baland tog‘liklardan iboratligi, asosiy qismi Tinch okean bo‘yi seysmik zonasida joylashganligi, salbiy jihat sifatida namoyon bo‘ladi.

Sharqiy Osiyo davlatlari, asosan, mo‘tadil, subtropik va subekvatorial mintaqalarda joylashgan. Mazkur davlatlar iqtisodiyotida ularning hududida mavjud bo‘lgan tabiiy resurslar katta ahamiyatga ega. Mineral resurslarning turli ko‘rinishlari Yaponiyadan boshqa barcha davlatlarda tarqalgan bo‘lsa, Yaponiya, Koreya yarimoroli davlatlari suv resurslariga boyligi bilan ajralib turadi. Undan tashqari, yer (Xitoy), o‘rmon (Xitoy, Koreya yarimoroli davlatlari), rekreatsion (Yaponiya, Xitoy, Koreya Respublikasi) resurslar ham katta iqtisodiy ahamiyatga ega. Subregion aholi soni, uning zichlik darajasi yuqori bo‘lgan hududlardan biri hisoblanadi. Ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot omili Yaponiya, Koreya Respublikasi aholisining tabiiy ko‘payish darajasiga salbiy ta’sir ko‘rsatmoqda. Ularda tug‘ilish darajasi pastligi sababli aholi orasida katta yoshlilar hamda qariyalarning salmog‘i ortib bormoqda. Ayniqsa, ushbu davlatlarning qora metallurgiya, kemasozlik, avtomobilsozlik, elektronika va elektrotexnika, kimyo sanoatlaridagi ulushi katta. Sharqiy Osiyo davlatlari iqtisodiyotida qishloq xo‘jaligi katta ahamiyatga ega. Mongoliya va Yaponiya qishloq xo‘jaligida

chorvachilikning, qolgan davlatlarda esa dehqonchilikning hissasi yuqori. Dehqonchilik tarmoqlaridan donchilik (bug‘doy, sholi, makkajo‘xori), texnik ekinlar yetishtirish (paxta, tamaki, choy, kartoshka, soya), bog‘dorchilik yaxshi rivojlangan. Chorvachilikda qoramolchilik, cho‘chqachilik, parrandachilik va baliqchilik muhim o‘rin tutadi. Mongoliyada qo‘y va echkichilik, yilqichilik, tuyachilik va bug‘uchilik tarmoqlari ham rivojlangan. Transportida quruqlik transporti muhim ahamiyatga ega. Dengizbo‘yida joylashgan davlatlarda suv transporti ham yaxshi rivojlangan.

Janubi-Sharqiy Osiyo davlatlari. Janubi-Sharqiy Osiyo subregioni tarkibiga Hindixitoy yarimoroli, Malay arxipelagi orollari, Yangi Gvineyaning g‘arbiy qismi kiradi. Uning maydoni 4,5 mln. km. bo‘lib, umumiy quruqlik maydonining 3%ni egallaydi. Aholisi soni 630 mln.ga yaqin. Ya’ni bu subregionda jahon aholisining 8,5%dan ko‘prog‘i istiqomat qiladi. Geografik joylashuvi jihatidan Vyetnam, Kambodja, Laos, Myanma, Tailand va Malayziya yarimorol, Bruney, Indoneziya, Singapur, Filippin va Sharqiy Timor esa orol davlatlar hisoblanadi. Bu yerda maydon kattaligi, aholi soni, ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot darajasiga ko‘ra bir-biridan farq qiluvchi11ta davlat joylashgan. Ular orasida faqat Laos quruqlik ichkarisida joylashgan davlat bo‘lganligi sababli to‘g‘ridan to‘g‘ri dengizga chiqaolmaydi. Davlatlarning 4 tasi monarxiya boshqaruv shakliga ega. Ma’muriy-hududiy tuzilishiga ko‘ra, Malayziya va Myanma davlatlari federativ davlatlar hisoblanadi. Hind va Tinch okeanlari oralig‘ida joylashganligi; mintaqa davlatlari iqtisodiyoti rivojida ikki yirik sivilizatsiya – Xitoy va Hindiston ta’sirining kuchli ekanligi; buyuk geografik kashfiyotlar davrida rivojlanishni boshlagan xalqaro savdo va dengiz yo‘llari ustida joylashganligi mintaqa geografik o‘rnining asosiy xususiyatlari hisoblanadi. Subregion relyefida tog‘li va tekislik hududlar salmog‘i deyarli teng. Mintaqada yirik tekislik hududlari mavjud emas. Asosan, subekvatorial va ekvatorial iqlim mintaqalarida joylashgan bo‘lib, iqlim xususiyatlari bu yerda doimiy yashil tropik

o‘rmonlarning mavjud bo‘lishiga sababchi bo‘lgan. Mintaqaning 42% hududi o‘rmonlar bilan qoplangan. Suv resurslari bilan yaxshi ta’minlangan. Mekong, Iravadi, Chao-Praya, Xongxa daryolari eng asosiy chuchuk suv manbalari hisoblanadi. Mintaqaning yirik daryolari, asosan, yarim orol davlatlar hududidan oqib o‘tadi. Dunyo okeani biologik resurslari ham davlatlar iqtisodiyotida katta ahamiyatga ega. Ular aholi tomonidan iste’molda keng foydalaniladi.

Malay arxipelagining ba’zi orollarida tabiiy dur yetishtiriladi. Mintaqa tabiiy resurslari orasida mineral resurslar muhim iqtisodiy ahamiyatga ega. Myanma hududidan to Indoneziyagacha cho‘zilgan qalay-volfram belbog‘i o‘tgani sabab barcha yarimorol davlatlari hamda Indoneziya hududidan katta miqdorda qalay rudalari qazib olinadi. Subregion qalayning umumiy zaxiralari bo‘yicha jahonda birinchi o‘rinni egallaydi. Surma zaxiralari bo‘yicha Janubi-Sharqiy Osiyo qit’ada birinchi, jahonda esa ikkinchi o‘rinni egallaydi. Bundan tashqari, ushbu hududdan neft (Indoneziya, Malayziya, Bruney), toshko‘mir (Vyetnam, Indoneziya), uran rudalari (Indoneziya, Filippin), oltin (Myanma, Vyetnam, Filippin), volfram (Myanma, Tailand), boksit (Indoneziya, Filippin, Malayziya) kabi mineral resurslar ham qazib olinadi. Janubi-Sharqiy Osiyoning deyarli barcha davlatlarida aholining tabiiy ko‘payish darajasi yuqori. Bunga birinchi navbatda milliy, diniy omillar katta ta’sir ko‘rsatadi. Indoneziya, Filippin, Vyetnam mintaqaning aholi soni ko‘p bo‘lgan davlatlari hisoblanadi. Janubi-Sharqiy Osiyo hududida 200dan ortiq xalqlar yashaydi. Ular orasida malayliklar, laolar, tayliklar, vyetnamliklar, semanglar, birmaliklar, filippinliklar, yavaliklar, xitoylar katta salmoqqa ega. Indoneziya, Malayziya, Bruneyda islom diniga e’tiqod qiluvchilar oldingi o‘rinda turadi. Tailand, Laos, Kambodja, Myanma hamda Vyetnamda buddizm, Singapurda esa konfutsiylik dini keng tarqalgan. Ayrim davlatlarda katoliklarning salmog‘i katta (Filippin, Sharqiy Timor). Subregionda o‘rtacha zichlik 1 km.kv.ga 140 kishini tashkil etadi. Jakarta, Bangkok, Manila mintaqaning eng yirik

shaharlari bo‘lib hisoblanadi. Mintaqa davlatlari tarixiy rivojlanishida Xitoy va Hindistonning ta’siri katta bo‘lsada, ushbu davlatlarning aksariyat qismi o‘z ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot yo‘lini belgilashda yapon modeliga murojaat qilishgan. Natijada Janubi-Sharqiy Osiyo davlatlari ichida Singapur, Tailand, Malayziya kabi Yangi sanoatlashgan davlatlar (so‘nggi yillarda ijtimoiy-iqtisodiy ko‘rsatkichlarda ijobiy o‘zgarishlar yuz berayotgan rivojlanayotgan davlatlar guruhi) soni ortib bormoqda. Bundan tashqari, bu yerda Bruney kabi neft eksport qiluvchi davlat, Sharqiy Timor, Laos kabi iqtisodiyoti past darajada rivojlangan davlatlar ham mavjud. Subregionda konchilik (deyarli mintaqaning barcha davlatlarida), yoqilg‘i-energetika (Indoneziya, Malayziya, Bruney va b.), rangli metallurgiya (Indoneziya, Malayziya, Tailand, Vyetnam va b.), mashinasozlik (Indoneziya, Singapur, Malayziya va b.), kimyo (Indoneziya, Malayziya, Singapur, Vyetnam va b.), yengil va oziq-ovqat (deyarli mintaqaning barcha davlatlarida) sanoatlari tarmoqlari rivojlangan. Qishloq xo‘jaligida dehqonchilik ustun soha bo‘lib, sholi asosiy ekin turi hisoblanadi. Bundan tashqari, mintaqa davlatlarida turli ziravorlar, choy, kofe, kopra, geveya (tabiiy kauchuk olish uchun) kabilar ham yetishtiriladi.

Markaziy Osiyo siyosiy-geografik subregioni Yevrosiyo materigining ichkarisida joylashgan. 1991-yildan buyon mustaqil davlatlar sifatida rivojlanayotgan – Qozog‘iston, Qirg‘iziston, Tojikiston, Turkmaniston va O‘zbekiston joylashgan. Sanab o‘tilgan davlatlar iqtisodiy-geografik o‘rnining umumiy jihati shundan iboratki, birortasida ham dunyo okeaniga bevosita chiqish imkoniyati yo‘q, ya’ni beshtasining barchasi ichki kontinental mamlakatlar hisoblanadi. Jumladan, Qozog‘iston Respublikasi dunyodagi jami 44ta bunday geografik joylashuvga ega davlatlardan maydoni bo‘yicha eng yirigi hisoblanadi. Subregionning o‘rta qismida joylashgan O‘zbekiston Respublikasi geografik o‘rnining o‘ziga xosligi esa, nafaqat o‘zi, balki biror bir qo‘shni mamlakati ham dengizga tutash emasligidir. Bunday

geografik xususiyat jahon mamlakatlari ichida, respublikamizdan tashqari, faqatgina G‘arbiy Yevropadagi “mitti” davlatlaridan biri – Lixtenshteyn knyazligiga xos, hududi kattaroq davlatlardan esa hech qaysi birida geografik joylashuvining bunday jihati mavjud emas.

Qozog‘iston bilan Turkmaniston Respublikalari Kaspiy dengiziga tutash bo‘lib, bu holat ikkala davlatning iqtisodiy-geografik o‘rni, transport-geografik imkoniyatlari va tabiiy-resurs salohiyatiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Bundan farqli o‘laroq, transport-geografik sharoiti ancha murakkab bo‘lgan Tyan-shan va Pomir baland tog‘lari hududida joylashgan Qirg‘iziston va Tojikiston Respublikalarining iqtisodiy-geografik o‘rni, subregiondagi boshqa davlatlarning joylashuviga nisbatan birmuncha noqulay hisoblanadi.

Markaziy Osiyo subregioni iqtisodiy-geografik o‘rnining ijobiy tarafi uning tranzitligi, ya’ni Yevropa va Osiyo turli qismlarining quruqlik transporti tizimlarini bog‘lay olish imkoniyatlarida o‘z aksini topadi.

Bu holat tarixda Buyuk Ipak yo‘li hozirgi Markaziy Osiyo davlatlari hududidan o‘tganligida namoyon bo‘lgan. Hozirgi davrda ham subregion mamlakatlarining iqtisodiy-geografik imkoniyatlari shu jihatdan yuqori baholanishi asosli. Markaziy Osiyoning geosiyosiy o‘rni o‘ziga xos bo‘lib, Yevrosiyodagi asosiy geosiyosiy kuch markazlari – Xitoy, Rossiya, Eronga tutashligi va ushbu bevosita qo‘shnilaridan tashqari, AQSH, Yevropa Ittifoqi, Turkiya, Saudiya Arabistoni, Hindiston, Pokiston kabi geosiyosiy “o‘yinchi”larning tashqi manfaatlari kesishgan hududda joylashganligi bilan tavsiflanadi. Shuningdek, harbiy mojarolar tugamayotgan Afg‘oniston bilan chegaradoshligi hamda boshqa real va ehtimoliy harbiy-siyosiy ziddiyat zonalariga yaqin joylashganligi, Markaziy Osiyo geosiyosiy o‘rnining salbiy tomonlarini belgilaydi.

Markaziy Osiyo mamlakatlarining umumiy maydoni 4 mln.kv.km.ga, jami aholisi esa 2021-yil holatiga 75,0 mln. kishiga teng. Subregion davlatlari hududi kattaligi va aholisi soni jihatidan bir-

biridan ancha farq qiladi. Markaziy Osiyo davlatlarining hududiy va demografik salohiyati orasidagi tafovutlariga tabiiy sharoit va resurslarining xususiyatlari katta ta’sir ko‘rsatadi. Markaziy Osiyo davlatlari Yevrosiyo va Hind-Avstraliya litosfera plitalarining chegarasi bo‘ylab o‘tgan Alp-Himolay burmali mintaqaga yaqin joylashgan. Shu bois, mintaqaning Janubi-Sharqiy va markaziy qismlari seysmik jihatdan xavfli hisoblanadi. Kuchli zilzilalar sodir bo‘lishi, ayniqsa, Tojikiston va Qirg‘iziston hududlari uchun xos holat. Mintaqaning g‘arbiy va Shimoliy qismlari asosan platformali tektonik tuzilishiga ega. Yer yuzasi tuzilishiga ko‘ra, subregion Janubi-Sharqida joylashgan Tojikiston va Qirg‘iziston Respublikalari tog‘li, Qozog‘iston, O‘zbekiston va Turkmaniston esa asosan, tekislik keng tarqalgan mamlakatlar hisoblanadi. Lekin, bu uchta davlat hududida ham baland tog‘ tizmalari bo‘lib, maydonlarining 10–20 foizini egallaydi.

Okeaniya Tinch okeanining janubi-g‘arbiy va markaziy qismlarida joylashgan orollar guruhidan tashkil topgan bo‘lib, uning umumiy maydoni – 1,26 mln. km² ni tashkil etadi. Mazkur mintaqada 11 mln. kishidan ortiq aholi istiqomat qiladi. Uning tarkibida 40ga yaqin turli davlat, mamlakat va hududlar mavjud bo‘lib, ularning 13tasi mustaqil davlat hisoblanadi. Okeaniya siyosiy xartasida 1 federativ davlat (Mikroneziya Federativ shtatlari), 1ta monarxiya davlati (Tonga) va turli davlatlarning qator mustamlaka hududlari (masalan: Amerika Samoasi, Guam, Kingmen rifi (AQSH), Pitkern (Buyuk Britaniya), Norfolk, Ashmor va Kartye orollari (Avstraliya), Fransuz Polineziyasi, Yangi Kaledoniya (Fransiya) va b.) mavjud. Okeaniya davlatlari tarkibiy jihatdan Melaneziya, Polineziya va Mikroneziya mintaqalariga ajratiladi. Relyef xususiyatiga ko‘ra, Okeaniya kontinental, marjon va vulqon kelib chiqishiga ega orollardan tarkib topgan. Yangi Zelandiya, Yangi Gvineya (orolning Sharqiy qismi Okeaniya tarkibiga kiradi), Yangi Kaledoniya kabi yirik

orollar kontinental xususiyatga ega. Ular umumiy Okeaniya hududining 87%ni egallaydi.

12.1.2-rasm. Okeaniyaning tarkibiy qismlari va joylashuv o‘rni.

Tog‘li relyefga ega, maydoni nisbatan yirik orollar, asosan, mintaqaning janubi-g‘arbiy qismida joylashgan bo‘lsa, qolgan kichik va mayda orollar Tinch okean akvatoriyasida keng maydonda tarqoq ravishda joylashgan. Tinch okean akvatoriyasining 1/3 qismini Okeaniya orollari tashkil qiladi. Asosan ekvatorial, subekvatorial, tropik, subtropik va mo‘tadil mintaqalar hududida joylashgan. Yog‘in miqdori 1500–4000 mm.ni, o‘rtacha harorat esa +24° C; +28° C.ni tashkil etadi. Yirik tog‘li orollarda qizil, tog‘ laterit, tog‘ o‘tloq, jigarrang qo‘ng‘ir, jigarrang tuproq turlari tarqalgan. Atollarda esa nisbatan past unumli, g‘ovaksimon, suvni o‘zida saqlash imkoniyatiga ega bo‘lmagan tuproqlar mavjud. Suv resurslari bilan yaxshi ta’minlangan. Sepik (1126 km), Flay (1050 km), Uaikato (425 km) Okeaniyaning eng yirik daryolari hisoblanadi. Orollarda mineral resurslardan nikel (Yangi Kaledoniya), neft va gaz (Papua-Yangi Gvineya, Yangi Zelandiya), mis (Papua-Yangi Gvineya), oltin (Papua-Yangi Gvineya, Fidji), fosfat (Nauru), dengiz hududlaridagi iqtisodiy zonalarda temir-marganes qotishmalari, kobalt kabilar qazib olinadi.

Okeaniya orollari davlatlarining asosiy qismi aholi soni kam bo‘lgan davlatlar hisoblanadi. Aholisi, asosan, avstraloid kichik irqiga mansub polinez, melanez, mikronez va papuaslardan tashkil topgan. Milliy tarkibida turli qabila va urug‘ vakillarining salmog‘i yuqori. Ular papuas va avstronez oilalariga mansub. Lekin, mahalliy tillar deyarli muomalada emas. Asosan, muloqotda ingliz va fransuz tillaridan foydalaniladi. Xristian diniga e’tiqod qiluvchilar salmog‘i yuqori, bundan tashqari, qabilalarda an’anaviy dinlarga e’tiqod qiluvchilar ham bor. Tabiiy resurslarga kambag‘alligi, orollararo aloqalarda qiyinchiliklarning mavjudligi, mineral resurslar miqdorining chegaralanganligi, asosiy eksportbop mahsulotlar ishlab chiqarish jarayoni xalqaro monopoliyalar qo‘l ostida to‘planganligi Okeaniya davlatlari iqtisodiyoti rivojlanishiga ta’sir ko‘rsatadi.

Tabiiy rekreatsion resurslar ta’sirida xalqaro turizm rivojlanmoqda. Ayniqsa, Fidji, Solomon orollari sayyohlar eng ko‘p tashrif buyuradigan hududlar bo‘lib hisoblanadi. Okeaniya davlatlari orasida Yangi Zelandiya ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot darajasiga ko‘ra oldingi o‘rinda turadi. Rivojlanish xususiyatiga ko‘ra “ko‘chirilgan kapitalizm” davlati hisoblangan ushbu davlat ikkita yirik (shimoliy va janubiy orollar) va 700dan ortiq kichik orollardan tashkil topgan. Hududining 75%i dengiz sathidan 2000 m. balandda joylashgan bo‘lib, hududida mineral resurslardan oltin, kumush, tabiiy neft, ko‘mir, turli rangli metallar tarqalgan. Suv resurslari bilan yetarlicha ta’minlangan bo‘lib, bu yerda 40dan ortiq daryo va 3280ta ko‘llar mavjud. Iqtisodiyoti rivojlanishida bu yerda tarqalgan to‘q qo‘ng‘ir, sariq-qo‘ng‘ir, tog‘ tipli tuproqlar katta ahamiyatga ega. 2 mln. gektarga yaqin o‘rmon hududlari ham bor. Shu bilan birga tabiiy rekreatsion resurs imkoniyatlari yuqori. Transportida quruqlik transport turlari bilan birga dengiz transportining ahamiyati katta. Oklend (Yangi Zelandiyaning yagona millioner shahri), Gamilton, Vellington shaharlarini davlatning eng yirik iqtisodiy markazlari sifatida ko‘rish mumkin.

12.2. Tabiiy sharoiti va resurlarining mamlakatlar iqtisodiyotidagi o‘rni

Osiyo davlatlarining ko‘pchiligi mineral boyliklar bilan yaxshi ta’minlangan. Jahon neft zaxiralarining 70%i, gazning 80% dan ortig‘i, ko‘mirning 50% dan ko‘pi Osiyoning hissasiga to‘g‘ri keladi. Neft va tabiiy gazga Fors qo‘ltig‘i va uning qirg‘oqlari, Kaspiy dengizi, Turon tekisligi, Janubi-Sharqiy Osiyoning dengiz sayozliklari boy. Xitoy, Hindiston, Qozog‘istondagi qadimiy platformalar hududida yirik toshko‘mir, temir, marganes, xrom va turli rangli metall konlari joylashgan. Janubi-Sharqiy Osiyo mamlakatlarida jahonning eng yirik qalayi konlari “qalayi belbog‘i”ni hosil qiladi.

Osiyoda boshqa turdagi tabiiy resurslar (suv, yer, agroiqlimiy) hududiy tarqalishida katta farqlar bor. Suv resurslari bilan yaxshi ta’minlangan hududlar (misol uchun, Janubi-Sharqiy Osiyo davlatlari) bilan birga, bepoyon qurg‘oqchil cho‘llar ham bor.

Katta tafovutlar tabiiy namlik, ishlov beriladigan (haydaladigan) yerlar kabi resurslarning taqsimlanishida ham ko‘zga tashlanadi. Osiyodagi ko‘plab davlatlarda yer resurslari (avvalo, ekin maydonlari) yetishmaydi, yirik tog‘ massivlari, qurg‘oqchil cho‘llar keng tarqalganligi, aholi zichligi yuqori bo‘lganligi uchun ishlov beriladigan maydonlar ancha cheklangan. Osiyo hududining katta qismida quyosh tafti, uning issiqlik imkoniyatlari o‘simliklarning vegetatsiya mavsumining uzoq, hatto yil bo‘yi davom etishiga imkon beradi. Ammo tabiiy namlik qit’ada notekis taqsimlangan.

Bu holat qadimdan Osiyo mamlakatlarida har tomchi suvdan unumli foydalanishga undagan va bu qit’ani sun’iy sug‘orish dehqonchiligining beshigiga aylantirgan. Tarixiy ma’lumotlar Markaziy Osiyo, Janubiy va Janubi-g‘arbiy Osiyoda sug‘orma dehqonchilik madaniyati 4–5 ming yillar oldin shakllanganini tasdiqlaydi. Yer yuzasidagi barcha sug‘oriladigan yerlarning 3/4 qismi Osiyo mamlakatlarining hissasiga to‘g‘ri keladi. Sug‘oriladigan

yerlarning kattaligiga ko‘ra jahonda Xitoy birinchi, Hindiston esa ikkinchi o‘rinda turadi.

Osiyo mamlakatlari nafaqat tabiiy sharoiti va resurslari, aholining ko‘payishi va tarkibi jihatidan, balki ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanganligi nuqtayi nazaridan ham bir-biridan ancha farq qiladi. Ular iqtisodiy rivojlanganligi va xo‘jaligining ixtisoslashuviga ko‘ra bir necha guruhga bo‘linadi.

1. Yaponiya – “Katta yettilik” guruhiga kiradigan yagona Osiyo mamlakati. Yaponiya YIM hajmi bo‘yicha jahonning to‘rtinchi davlati hisoblanadi. Iqtisodiyoti innovatsion texnologiyalarga asoslangan ishlab chiqarish tarmoqlariga ixtisoslashgan. Aholi turmush darajasi borasida Yaponiya jahonning peshqadam davlatlaridan biri.

2. Isroil – “ko‘chirilgan kapitalizm” tipidagi rivojlangan davlat. Aholi jon boshiga YIM hajmi bo‘yicha Osiyodagi peshqadam davlatlaridan biri. Isroil iqtisodiyoti, birinchi navbatda, yuqori texnologiyalarga tayanadigan mashinasozlikning turli tarmoqlariga ixtisoslashgan.

3. Xitoy va Hindiston – tabiiy resurslar, aholi soni va YIM hajmi bo‘yicha ulkan salohiyatga ega tayanch rivojlanayotgan mamlakatlar. Ular so‘nggi 15–20 yilda iqtisodiyoti tez rivojlanayotgan davlatlarga aylandi. Hozirgi vaqtda Xitoy YIM hajmiga ko‘ra mintaqada birinchi, Hindiston esa uchinchi o‘rinni egallaydi. Ammo aholi jon boshiga hisoblanganda iqtisodiy ko‘rsatkichlari, ayniqsa, Hindistonda, hali rivojlangan davlatlar darajasidan birmuncha past. Ijtimoiy taraqqiyot borasida ham bu ikkala davlatda dolzarb muammolar mavjud.

4. Osiyoning yangi industrial davlatlari – Koreya Respublikasi, Singapur, Malayziya, Tailand. 1980-yillardan buyon amalga oshirilgan chuqur iqtisodiy islohotlar tufayli bu davlatlar ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotida keskin yuksalishlarga erishdi. Koreya Respublikasi va Singapur oxirgi vaqtda ko‘plab xalqaro tashkilotlar tomonidan rivojlangan davlatlar qatoriga kiritilmoqda. Yangi industrial davlatlarning iqtisodiyoti mikroelektronika, elektrotexnika,

avtomobilsozlik, kemasozlik kabi mashinasozlikning tarmoqlariga ixtisoslashgan. Yangi ishlab chiqarish va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini yaratish va eksport qilishda ham bu guruhdagi davlatlar katta yutuqlarga erishgan.

5. Yirik indusrial-agrar davlatlar – Indoneziya, Pokiston, Filippin, Turkiya, Eron. Bu davlatlar maydoni va aholi soni bo‘yicha yirik hisoblanib, katta tabiiy va mehnat resurs salohiyatiga ega. Bu davlatlarning iqtisodiyoti yengil, oziq-ovqat, tog‘-kon sanoati, mashinasozlikning ayrim tarmoqlari hamda ko‘p tarmoqli qishloq xo‘jaligiga ixtisoslashgan. YIMning hajmi bo‘yicha ular jahonning yetakchi 30 ta davlati qatoriga kiradi, ammo aholi jon boshiga to‘g‘ri keladigan ko‘rsatkichlari birmuncha pastroq (ayniqsa, Pokiston, Filippin va Indoneziyada).

6. Neftni eksport qiluvchi mamlakatlar – Fors qo‘ltig‘i arab davlatlari va Bruney. Bu mamlakatlar hozirgi vaqtda aholi jon boshiga YIMning darajasiga ko‘ra, nafaqat Osiyo, balki butun jahon miqyosida yetakchi o‘rinlarda turadi. Buning asosiy sababi neftni eksport qilish hisobiga tushadigan katta daromad va aholi sonining nisbatan kamligi (Saudiya Arabistonini hisobga olmaganda). Oxirgi yillarda Fors qo‘ltig‘i arab davlatlarida kimyo, metallurgiya kabi sanoat tarmoqlari, turizm, tranzit savdo, bank-moliya sektori ham yaxshi rivojlanib bormoqda.

7. O‘tish iqtisodiyotidagi davlatlar – Markaziy Osiyo va Kavkaz davlatlari, Mongoliya. Bu davlatlarning iqtisodiyoti industrial-agrar xarakterga ega bo‘lib, asosan, xomashyoni yetkazuvchi tarmoqlarga (neft-gaz sanoati, tog‘-kon sanoati, ko‘p tarmoqli qishloq xo‘jaligi) ixtisoslashgan. Neft va gazni katta hajmda eksport qiluvchi Qozog‘iston, Turkmaniston va Ozarbayjonning iqtisodiy ko‘rsatkichlari guruhdagi boshqa davlatlarga nisbatan yuqoriroq.

8. Turizm va xizmatlar sohasiga ixtisoslashgan davlatlar – Kipr, Livan, Maldiv Respublikasi. Bu hududiy jihatdan kichik, boy rekreatsion resurslarga ega davlatlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi

hozirgi sharoitda turizm hamda xizmatlar sohasi, ayniqsa, bank-moliya sektori bilan bog‘liq.

9. Sust rivojlanayotgan agrar-industrial davlatlar. Bular: Vyetnam, Kambodja, Bangladesh, Shri-Lanka, Iroq, KXDR va boshqa mamlakatlar bo‘lib, asosan, qishloq xo‘jaligi, tog‘-kon, yengil yoki oziq-ovqat sanoatiga ixtisoslashgan.

10. Iqtisodiyoti eng qoloq agrar davlatlar – Afg‘oniston, Nepal, Yaman, Myanma, Sharqiy Timor, Laos, Butan. Ularda sanoat juda sust rivojlangan, shuningdek, qishloq xo‘jaligida mehnat unumdorligi ancha pastdir.

Mintaqaning siyosiy va iqtisodiy rivojlanishi haqida fikr bildirish uchun, Ikkinchi Jahon urushining Tinch okeanidagi sahnasi boshlanishi, ya’ni G‘arbiy kuchlar (Buyuk Britaniya hamda AQSH) Janubi-Sharqiy Osiyoni urush qatnashchisi deb hisoblab boshlashiga qaytishga to‘g‘ri keladi. Sovuq urush tugashidan so‘ng, AQSHning tashabbusi bilan Janubi-Sharqiy Osiyo kelishuvi tashkiloti hamda ikkita tashkil etilishi oxirigacha amalga oshmagan ikki birlashma – Janubi-Sharqiy Osiyo Assotsiatsiyasi va MAFILINDO (Malayziya, Filippin, Indonziya) tashkilotlari tashkil etilishi Janubi-Sharqiy Osiyoning hududiy qiyofasini Osiyo-Tinch Okeani hududiga aylantirgan. Keyinchalik, bu hayoti uncha uzoqqa cho‘zilmagan uchta tashkilotlar hamda ularning tashabbuskor davlatlari 1967-yilning 8-avgustida Janubi-Sharqiy Osiyo Millatlari Assotsiatsiyasi(JSHOSA)ni tashkil etish orqali birlashdilar. Janubi-Sharqiy Osiyo Millatlari Assotsiatsiyasi dastlab beshta ishtirokchi davlatlar – Indoneziya, Malayziya, Filippin, Singapur va Tayland ishtirokida tashkil etilgan, keyinchalik 1984-yilda Brunei, 1995-yilda Vetnam, 1997-yilda Laos va Myanma, 1999-yilda Kambodja davlatlari bu tashkilotga qo‘shilishgan. Kelajakda sharqiy Timor ham JSHOSAning a’zosi bo‘lishi ehtimoli paydo bo‘ldi, chunki oxirgi yillarda bu davlatning JSHOSAga a’zolik uchun barcha yetarli sharoitlarga ega deb

baholanmoqda. Shu sababli, janubi-sharqiy Osiyoda jug‘rofiy jihatdan o‘n bitta mamlakat joylashadi.

1967-yilda tashkil etilishidan boshlab, janubi-sharqiy Osiyo Millatlari Assotsiatsiyasi uchta asosiy yo‘nalish, xususan siyosiy xavfsizlik, iqtisodiy hamjihatlik, sotsiologik-madaniy aloqalar maqsadlari ostida, jamoatchilik hamda hududiy hamkorlik va integratsiya masalalarida o‘ta kuchli qurilish ishlarini olib bordi. Hududiy institutsional, siyosiy, iqtisodiy va sotsiologik-madaniy rivojlanishni ko‘zda tutgan Janubi-Sharqiy Osiyo o‘ziga xos xususiyatlar bilan, dunyoning eng shiddatli va muvaffaqiyatli hududlaridan biriga aylandi.

Janubi-sharqiy Osiyo Millatlari Assotsiatsiyasida hududiy-lashtirishni “yengil hududiylashtirish” deb atash mumkin[45]. Janubi-sharqiy Osiyodagi hududiylashtirish jarayoni har ikkala – davlatlararo va global hududiylashtirish jarayonlarini o‘z ichiga oladi. Sovuq urushdan keyingi janubi-sharqiy Osiyo hududiylashtirish jarayoni 3 ta asosiy hodisa yordamida rivojlangan:

- birinchidan, JSHOMAning siyosiy-iqtisodiy guruh sifatida shakllangan;
- ikkinchidan, JSHOMA turli siyosiy va iqtisodiy tizimlarga ega bo‘lgan davlatlararo tashkilotdir;
- uchinchidan, JSHOMA davlatlarning suvereniteti bilan musobaqa sifatida qaraydi, ya’ni JSHOMAning maqsadlaridan biri, integratsiya jarayonida ushbu tashkilotning faoliyatiga davlatlarning mustaqilligi halal bermasligi ko‘zda tutilgan[46].

Bundan tashqari, janubi-sharqiy Osiyoning xalqaro integratsiyasi va hamkorlik masalalarining tavsifini tarixiy, sotsiologik-madaniy omillar ham hal etadi.

Bunday xususiyatlar bir tomondan, hududiy birliklar va turli ishtirokchilar o‘rtasida, boshqa tomondan yaratilayotgan qonun-

[45] Собербаум Ф., Бисон М., Стабс Р.. “Регионализм назарияси”: Осиё регионализмининг маълумотномаси. Лондон-Нью Йорк, Роутледж нашриёти.
[46] Palmuyo‘ki I. Janubi-Sharqiy Osiyoda regionalism va globalizm. Nyu York, 2001-y., 32 b.

qoidalar o‘rtasida chambarchars bog‘liqlikni yuzaga keltiradi[47]. O‘ziga xos tomonlarning shakllanishi o‘zaro-madaniy aloqalar bilan tushuntirilishi mumkin[48]. ASEAN tartib-qoidalari orasida, o‘ziga xos rag‘batlantirish usuli mavjud bo‘lib, bunda ASEAN boshchiligida oraliq nomutanosibliklar (kuchsiz hududlar)ni qo‘llab-quvvatlash, shuningdek ASEAN hududiga kirmaydigan davlatlar tomonidan ushbu hududning a’zolari rivojlanishiga aralashishlari cheklanishi nazarda tutiladi[49].

Janubi-Sharqiy Osiyodagi hududiy hamkorlik va hududiy-lashtirish jarayonining uzoq davom etishini chuqurroq tushunish uchun, yana bir muhim voqealardan biri, ya’ni hududning tarixiy rivojlanishini anglab yetish muhim ahamiyatga ega, chunki hamkorlik, faqatgina xalqaro hamjamiyat ishtiroki bilan emas, balki, institutsional rivojlanishning o‘ziga xosligini hisobga olish orqali tashkil etiladi[50].

Xalqaro hamjamiyat faqatgina quyidagi xususiyatlar mavjud bo‘lganda mavjud bo‘la oladi:

- hamjamiyatda barcha ishtirok etayotgan davlatlar guruhi o‘rtasida, umumiy qoidalar hamda cheklovlar tizimi yaratilgan;
- umumjamiyat manfaatlari va prinsiplari yagona maqsadlar tizimiga birlashtirilgan;
- barcha ishtirok etatgan subyektlar harakatlari o‘ziga xos tarzda taqsimlangan;
- jamiyatning barcha vakillari o‘rtasida aniq, chambarchas va maqsadli aloqalar o‘rnatilgan.

Ushbu jarayondagi “davlatlarning harakatlari”ni tushunib yetish uchun, biz avvalo, bu iboraning lug‘aviy ma’nosini hamda davlatlarning xalqaro hamjamiyatdan kutishi mumkin bo‘lgan manfaatlarini tushunib yetishimiz kerak[51]. Davlatlarning xalqaro

[47] Vunderlix J. Regionalizm, globallashuv va xalqaro tartib: – Gempshir: Eshgeyt, 2007, 39-bet.
[48] Emerson D.K., “Janubiy-Sharqiy Osiyo” nimani bildiradi? – Janubiy-Sharqiy Osiyo tadqiqotlar jurnali, 1984, 15(1) son, 1-21 betlar.
[49] Xaake J., JShOMAda diplomatiya va xavfsizlik madaniyati: Konstruktivistik qarash. – 2003, Osiyo-Tinch okeani hududining xalqaro aloqalari jurnali.,3(1) son, 57-87 betlar
[50] Narin Sh., Inlgiz maktabi va JShOMA: Tinch okeani tadqiqotlari jurnali. – 2006., 19(2)-son, 199-218 betlar.
[51] Vendt A., Xalqaro aloqalarning ijtimoiy nazariyasi. – 1999., Kembridj: Kembridj universiteti nashriyoti.

hamjamiyatdagi o‘rni ularning harakatidagi o‘ziga xos o‘zgarishlar bilan chambarchars holda o‘zgaradi. ASEAN davlatlari o‘zlarining jamoaviy o‘ziga xosliklarini ASEANning tartib-qoidalari va amaliyotiga asoslangan holda o‘zgartirganlar, ushbu jarayon ularning harakatlari o‘zgarishida juda muhim vazifani bajargan.

Umuman olganda, jo‘g‘rofiya, tarix, madaniyat, iqtisodiy va siyosiy tizimlar, siyosiy madaniyat va yondashishdar, xalqlar va ular o‘rtasidagi aloqa zanjiri Osiyodagi hududiylashtirish jarayoni shakllanishida muhim omillar to‘plamini kasb etgan[52]. ASEANning ishtirokchi davlatlari rasmiy qonun-qoidalarga asoslangan hamkorlikdan ko‘ra norasmiyroq hamkorlikka moyildirlar[53]. ASEAN asoslari umumiy tarzda o‘zaro qarama-qarshiliklarda kuch ishlatmaslik, boshqa ishtirokchi davlatlarning mahalliy hududlari ichki ishlariga aralashmaslik, hududiy avtonomiya prinsiplaridan tashkil topgan. ASEANning tarkibiy jarayoni muzokara, o‘zaro hamjihatlikka asoslangan qarorlar, tinch yo‘ldagi diplomatiya va quyi darajadagi institutsionallashtirish kabi jarayonlarni o‘z ichiga oladi.

ASEANning tamoyillari va protseduralari ASEAN ishtirokida, hamda uning ishtirokisiz ham, ASEANtarkibiga kiruvchi va undan tashqari sherik davlatlarning o‘zaro ishonchlilik va amaliy hamkorlik omillariga asoslangan. Chunki, 1997-yildagi Osiyodagi iqtisodiy inqiroz va Tinch okeanining Osiyo hududida yuzaga kelgan ochiq hududiylashtirish siyosati ASEANda markazlashdi, Xitoy va AQSH o‘rtasidagi rivojlanib borgan strategik musobaqa ushbu hududda institutsional jihatdan qayta tuzilishni va strategik jihatdan Yangicha tuzumni talab qildi. Institutsional qurilish jarayoni esa ASEAN tartib-qoidalariga binoan amalga oshirilishiga to‘g‘ri keldi va ish madaniyati hamda qonun-qoidalarga asoslangan o‘zaro munosabatlarga asos solindi.

Janubi-Sharqiy Osiyodagi hududiylashtirish konsepsiya va amaliyotni o‘z ichiga olgan holda yuzaga kelgan va rivojlangan.

---

[52] Bison M., Stabz R., JShOMA regionalizmi, kirish qismi. – 2012, London va Nyu York: Routledj nashriyoti, 1-8 betlar.

[53] Axariya A., Djonson A., O`rnak olishga arziydigan hamkorlik: Hududiy xalqaro institutlar taqqoslama istiqbolda. – 2012, London va Nyu York: Routledj nashriyoti, 1-8 betlar.

O‘ziga xos tarixiy, ijtimoiy-madaniy, jo‘g‘rofiy, iqtisodiy, siyosiy va xavfsizlik jihatlardan, Janubi-Sharqiy Osiyo o‘zining xususiy hududiylashtirish tizimini yaratdi, shu jumladan, ASEANning hududiy va global muhitga, strategik dunyoqarash va hisob-kitoblarga nisbatan davomiy islohotlarga munosabati tubdan o‘zgardi.

Okeaniya asosan ekvatorial, subekvatorial, tropik, subtropik va mo‘tadil mintaqalar hududida joylashgan. Yog‘in miqdori 1500–4000 mmni, o‘rtacha harorat esa +24° C; +28° C ni tashkil etadi. Yirik tog‘li orollarda qizil, tog‘ laterit, tog‘ o‘tloq, jigarrang qo‘ng‘ir, jigarrang tuproq turlari tarqalgan. Atollarda esa nisbatan past unumli, g‘ovaksimon, suvni o‘zida saqlash imkoniyatiga ega bo‘lmagan tuproqlar mavjud. Suv resurslari bilan yaxshi ta’minlangan. Sepik (1126 km), Flay (1050 km), Uaikato (425 km) Okeaniyaning eng yirik daryolari hisoblanadi. Orollarda mineral resurslardan nikel (Yangi Kaledoniya), neft va gaz (Papua-Yangi Gvineya, Yangi Zelandiya), mis (Papua-Yangi Gvineya), oltin (Papua-Yangi Gvineya, Fidji), fosfat (Nauru), dengiz hudularidagi iqtisodiy zonalarda temir-marganes qotishmalari, kobalt kabilar qazib olinadi.

Tabiiy resurslarga kambag‘alligi, orollararo aloqalarda qiyinchiliklarning mavjudligi, mineral resurslar miqdorining chegaralanganligi, asosiy eksportbop mahsulotlar ishlab chiqarish jarayoni xalqaro monopoliyalar qo‘l ostida to‘planganligi Okeaniya davlatlari iqtisodiyoti rivojlanishiga ta’sir ko‘rsatadi. Aholining asosiy faoliyat sohasi qishloq xo‘jaligi hisoblanadi. Unda eksportbop monokul’tura ekinlari yetishtirish (kokos pal’masi, shakarqamish, ananas, banan, kofe, kakao) asosiy o‘rin tutadi. Okeaniya davlatlari jahon bo‘yicha kopra (quritilgan kokos) eksportining 10%, ananas hosilining 90% ini beradi. Chorvachilik, asosan, yirik orollar hududida rivojlangan. Chorva mollari soni bo‘yicha mintaqa davlatlari orasida Yangi Zelandiya yetakchilik qiladi.

Dengiz biologik resurslariga ega bo‘lgan mintaqa davlatlari qishloq xo‘jaligida baliqchilik sohasi so‘nggi yillarda rivojlanib

bormoqda. Sanoatida asosan eksportbop qishloq xo‘jalik mahsulotlarga birlamchi qayta ishlov berish, o‘rmon va konchilik sanoati korxonalari faoliyat olib boradi. Tabiiy rekreatsion resurslar ta’sirida xalqaro turizm rivojlanmoqda. Ayniqsa, Fidji, Solomon orollari sayyohlar eng ko‘p tashrif buyuradigan hududlar bo‘lib hisoblanadi. Okeaniya davlatlari orasida Yangi Zelandiya ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot darajasiga ko‘ra oldingi o‘rinda turadi. Rivojlanish xususiyatiga ko‘ra “ko‘chirilgan kapitalizm” davlati hisoblangan ushbu davlat ikkita yirik (shimoliy va janubiy orollar) va 700 dan ortiq kichik orollardan tashkil topgan. Hududining 75%i dengiz sathidan 2000 m. balandda joylashgan bo‘lib, hududida mineral resurslardan oltin, kumush, tabiiy neft, ko‘mir, turli rangli metallar tarqalgan. Suv resurslari bilan yetarlicha ta’minlangan bo‘lib, bu yerda 40 dan ortiq daryo va 3280ta ko‘llar mavjud. 2 mln. gektarga yaqin o‘rmon hududlari ham bor. Shu bilan birga tabiiy rekreatsion resurs imkoniyatlari yuqori. Iqtisodiyoti industrial tipda bo‘lgan Yangi Zelandiya sanoatida konchilik, metallurgiya, yoqilg‘i energetika va oziq-ovqat tarmoqlari yaxshi rivojlangan. Chorvachilikda sut chorvachiligi va qo‘ychilik, dehqonchilikda esa bog‘dorchilik va uzumchilik asosiy qishloq xo‘jalik sohasi hisoblanadi. Transportida quruqlik transport turlari bilan birga dengiz transportining ahamiyati katta. Oklend (Yangi Zelandiyaning yagona millioner shahri), Gamilton, Vellington shaharlarini davlatning eng yirik iqtisodiy markazlari sifatida ko‘rish mumkin. Okeaniya davlatlari ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga erishish muammosidan tashqari, aholi orasida ishsizlik darajasining yuqoriligi, davlatlarning mintaqa hududidagi orollar nazorati ustidan yuzaga keladigan nizoli holatlar uning asosiy muammolaridan bo‘lib hisoblanadi.

Markaziy Osiyo mamlakatlari ulkan mineral-resurs salohiyatiga ega. Neft zaxiralari bo‘yicha Qozog‘iston va Turkmaniston, tabiiy gaz zaxiralari jihatidan Turkmaniston, O‘zbekiston va Qozog‘iston alohida ajralib turadi, toshko‘mirga Qozog‘iston, qo‘ng‘ir ko‘mirga esa

O‘zbekiston boy hisoblanadi. Neft-gaz zaxiralari, asosan, Kaspiy bo‘yi pasttekisligi, Qoraqum va Qizilqum cho‘llari, Ustyurt platosi hamda tog‘ oralig‘idagi botiqlarda, toshko‘mirning eng katta zaxiralari esa Qozog‘iston past tog‘laridagi Qarag‘anda va Ekibastuz ko‘mir havzalarida joylashgan. Temir, marganes va xrom kabi qora metallarning rudalariga Qozog‘iston boy. Turli rangli, jumladan qimmatbaho va nodir metallarning yirik konlari esa, Turkmanistondan tashqari, subregionning barcha davlatlarida mavjud. Jumladan, O‘zbekiston oltin, uran, kadmiy, mis, molibden, Qozog‘iston uran, volfram, molibden, qo‘rg‘oshin, rux, Qirg‘iziston oltin, simob, surma, Tojikiston kumush, uran zaxiralari bo‘yicha alohida ajralib turadi. Turli mineral tuzlarning ulkan zaxiralariga esa Turkmaniston, O‘zbekiston va Qozog‘iston ega. Markaziy Osiyo davlatlari iqlimining umumiy xususiyatlari mo‘tadil va subtropik iqlim jihatlarining turkumlanishi, keskin kontinentalligi va qurg‘oqchilligida o‘z ifodasini topadi. Shu tufayli Markaziy Osiyo davlatlari hududi asosan cho‘l, chalacho‘l va dasht tabiat zonalaridan iborat. Markaziy Osiyo sharoitida qishloq xo‘jaligi rivojlanishiga hal qiluvchi ta’sir ko‘rsatadigan omil – suv resurslari – subregion hududi bo‘yicha juda notekis taqsimlangan. Subregiondagi barcha yirik daryolar – Amudaryo, Sirdaryo, Zarafshon, Ili, Irtish va boshqalar transchegaraviy (ikki va undan ortiq davlat hududidan oqadigan) bo‘lib, Tyan-shan, Jung‘oriya Olotovi hamda Pomir tog‘laridan, ya’ni Tojikiston, Qirg‘iziston va Xitoy hududidan boshlanadi. Shuning uchun Tojikiston bilan Qirg‘iziston suv va gidroenergetika resurslariga boy, Qozog‘iston, O‘zbekiston, ayniqsa Turkmanistonning ko‘p hududlari esa ularga taqchildir.

Markaziy Osiyo mamlakatlarining umumiy YIM hajmi 2018-yil yakunlari bo‘yicha, Xalqaro valyuta fondi (XVF) ma’lumotlariga ko‘ra, 800 mlrd. AQSH dollariga teng. Beshta mamlakat ichida YIM hajmi bo‘yicha birinchi o‘rin Qozog‘iston, ikkinchi O‘zbekiston, uchinchi Turkmaniston, to‘rtinchi Tojikiston va beshinchi o‘rinda

Qirg‘iziston turadi. Subregion bo‘yicha umumiy ishlab chiqarish hajmining 56,4 % Qozog‘istonga, 25,8 % esa O‘zbekistonga to‘g‘ri kelsa, Turkmaniston,Tojikiston va Qirg‘iziston ulushlari, mos ravishda, 11,8, 3,3 va 2,7 % ga teng Subregion davlatlari ijtimoiy-iqtisodiy vaziyatining umumiy xususiyatlari, ularning yaqin o‘tmishgacha yagona siyosiy va iqtisodiy makonda rivojlanganligidan kelib chiqib, iqtisodiyoti asosan mineral xomashyo va yer-suv resurslariga tayanganligi, sanoatni rivojlantirish, uning yangi korxona, tarmoq va hududiy markazlarini tashkil etishga intilish, qishloq xo‘jalik ixtisoslashuvi o‘xshashligi, tashqi iqtisodiy aloqalarning umumiy yo‘nalishlarida, ya’ni Xitoy, Rossiya, Koreya Respublikasi, Turkiya, Yevropa davlatlari bilan amalga oshirilishida o‘z aksini topmoqda. Biroq, Markaziy Osiyo davlatlari har birining xo‘jaligining, albatta, o‘ziga xos jihatlari ham mavjud. Sanoat ishlab chiqarish Qozog‘iston, Turkmaniston va O‘zbekistonda iqtisodiy ahamiyati bo‘yicha qishloq xo‘jalik tarmoqlariga nisbatan birmuncha ustunlikka ega bo‘lganligi bois, bu uchta respublika industrial-agrar davlat hisoblanadi. Tojikiston bilan Qirg‘iziston esa iqtisodiyot agrar-industrial yo‘nalishda rivojlanmoqda. Yoqilg‘i-energetika majmuasi Qozog‘iston, Turkmaniston va O‘zbekistonda eng yaxshi rivojlangan. Qozog‘iston neft zaxiralari, uni qazib olish va eksport hajmi bo‘yicha subregionda yetakchi bo‘lib, yiliga 100 mln. tonnadan ortiq neft qazib oladi va katta qismini eksport qiladi. Turkmaniston uchun esa iqtisodiyot va milliy boylikning negizi gaz sanoati hisoblanadi. Bu mamlakat tabiiy gaz zaxiralari bo‘yicha jahonda 4chi, MDHda 2chi, Markaziy Osiyoda esa 1-o‘rinda turadi. Dunyo bo‘yicha zaxiralar hajmi jihatidan ikkinchi hisoblanadigan Galqinish gaz koni ham Turkmanistonda joylashgan. Qozog‘iston, O‘zbekiston va Turkmanistonda elektr energiyasi asosan IESlarda ishlab chiqariladi. Yoqilg‘i zaxiralariga boy bo‘lmagan Tojikiston va Qirg‘izistonda elektr energiyaning 90 foizdan ko‘prog‘i GESlarda ishlab chiqariladi.

Qora metallurgiya Markaziy Osiyo davlatlari ichida Qozog‘istonda eng yaxshi rivojlangan. Qozog‘istonda bu tarmoqning asosiy korxonalari temir rudasining yirik konlari negizida Qarag‘anda (Temirtov sh.) va Qostanay (Rudniy sh.) viloyatlarida joylashgan. Rangli metallurgiya, Turkmaniston Respublikasidan tashqari, barcha Markaziy Osiyo davlatlarining iqtisodiyoti va tashqi savdosida katta ahamiyatga ega. Jumladan, Tojikiston uchun Tursunzoda shahrida faoliyat ko‘rsatayotgan alyuminiy zavodi, Qirg‘iziston uchun esa Issiqko‘l viloyatidagi Qumtar oltin koni eng katta moliyaviy daromad keltiruvchi iqtisodiy obyektlar hisoblanadi. O‘zbekiston oltin, uran, mis, kadmiy, Qozog‘iston uran, qo‘rg‘oshin, rux, volfram, molibden, mis, Qirg‘iziston oltin, simob, surma, Tojikiston alyuminiy ishlab chiqarishda ancha yuqori ko‘rsatkichlarga ega. Kimyo sanoati Qozog‘iston, O‘zbekiston va Turkmanistonda nisbatan yaxshi rivojlangan bo‘lib, asosan mineral o‘g‘itlar, sulfat kislotasi, soda, mirabilit ishlab chiqarish, neft va tabiiy gazni qayta ishlashga ixtisoslashgan. Mashinasozlik bo‘yicha esa O‘zbekiston va Qozog‘iston yetakchilik qilmoqda. Bu borada O‘zbekistonda rivojlanib borayotgan avtomobilsozlik sanoati alohida e’tiborga sazovor. Qishloq xo‘jaligi Markaziy Osiyo mamlakatlarining barchasida ham yaxshi rivojlanib, yuqori iqtisodiy ahamiyatga ega. Qozog‘istonda qishloq xo‘jalikning tovar tarmoqlari tarkibiga, asosan, donchilik va chorvachilik kiradi. O‘zbekistonda qishloq xo‘jalik tarmoqlaridan paxtachilik, ipakchilik, bog‘dorchilik, uzumchilik, sabzavotchilik va qorako‘lchilik tovar ahamiyatiga ega. Turkmanistonda iqtisodiyotning agrar sektori paxtachilik, donchilik, polizchilik, qorako‘lchilik va yilqichilikka ixtisoslashgan. Turkmaniston chorvachiligida dunyoga mashhur Axaltaka otlarini boqish alohida ahamiyat kasb etadi. Tojikistonda qishloq xo‘jaligi paxtachilik, bog‘dorchilik va ipakchilikka, Qirg‘izistonda esa sabzavotchilik, tamakichilik va ko‘p tarmoqli chorvachilikka ixtisoslashgan.

Markaziy Osiyo mamlakatlari ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi istiqbollari ko‘p jihatdan ularning uzaro iqtisodiy integratsiyasiga bog‘liq. Subregion davlatlari o‘zaro integratsiyalashuvining bir qator muhim geografik omillarini ajratish mumkin:

- iqtisodiy-geografik o‘rnining umumiyligi;
- temiryo‘l va avtomobil transport tizimlarining yagonaligi, o‘zaro bog‘langanligi;
- yirik daryolar va sug‘orish kanallarining transchegaraviyligi;
- tog‘li va tekislikli mamlakatlar tabiiy resurslari, ayniqsa energiya manbalarining bir-birini to‘ldiruvchi xususiyatga ega ekanligi;
- subregion xalqlarining qardoshligi, tarixiy-madaniy jihatdan yaqinligi;
- Orolning qurishi, cho‘llashish, yerlarning sho‘rlanishi, tog‘ muzliklarining intensiv erishi, havo va suv havzalarining zararli chiqindilar bilan ifloslanishi kabi umumiy dolzarb ekologik muammolarining mavjudligi;
- zilzila, sel va suv toshqinlari, qor ko‘chkilari va boshqa tabiiy ofatlarga birgalikda qarshi kurashishning zarurati.

12.3. Aholisi va davlatlar tuzumi. Aholisining soni, migratsiyasi va tabiiy o‘sishining pastligi va uning sabablari

Osiyo aholisi eng ko‘p bo‘lgan qit’a hisoblanadi. Mintaqada 4,5 mlrd. kishidan ortiq, ya’ni jahon aholisining deyarli 60 % i yashaydi.

Osiyoda, qolaversa jahon davlatlari orasida aholi soni jihatidan alohida ajralib turadigan davlatlar Xitoy va Hindiston hisoblanadi. Ularning aholisi, 2018-yil ma’lumotlariga ko‘ra, mos ravishda, 1 mlrd. 410 mln. va 1 mlrd. 371 mln. kishiga teng bo‘lgan. Demak, Xitoy va Hindistonda Osiyo aholisining 61%, yoxud butun insoniyatning 36 % i istiqomat qiladi.

Aholi soni jihatidan, 2018-yil holatiga ko‘ra, Xitoy va Hindistondan keyingi yetakchi o‘rinlarni Indoneziya (265 mln. kishi),

Pokiston (201 mln. kishi), Bangladesh (166 mln. kishi), Yaponiya (126 mln. kishi), Filippin (107 mln. kishi), Vyetnam (95 mln. kishi), Eron (82 mln. kishi) va Turkiya (81 mln. kishi) kabi davlatlar egallaydi.

12.3.1-jadval

Osiyodagi aholisi soni bo‘yicha yetakchi davlatlar

№	Davlatlar nomi	Aholisi soni	№	Davlatlar nomi	Aholisi soni
1	Xitoy	1410549741	6	Yaponiya	126103388
2	Hindiston	1371961000	7	Fillipin	107980480
3	Indoneziya	265461700	8	Vetnam	95713300
4	Pokiston	2016174380	9	Eron	82840713
5	Bangladesh	166221000	10	Turkiya	81352642

Osiyo aholisi hozirgi bosqichda, umumiy olganda, yiliga 1–1,1%ga o‘smoqda. Ammo aholi ko‘payish sur’atlari davlatlarda turlicha. Yaponiya, Shimoliy va Janubiy Koreya, Xitoy, Singapur, Tailand, Gruziya, Armaniston, Kiprda aholining tabiiy ko‘payishi ancha past (yillik hisobda 0,5% dan oshmaydi). Shu bilan birga, Iroq, Yaman, Tojikiston, Afg‘oniston, Sharqiy Timor davlatlarida tabiiy ko‘payish sur’atlari juda yuqori (yiliga 2,5–3%).

Osiyoning umumiy urbanizatsiya ko‘rsatkichi XXI asrning dastlabki yillarigacha Afrikaga nisbatan ham past bo‘lib, 30% ga yetmas edi. Ammo 2018-yilga kelib, bu ko‘rsatkich mintaqa bo‘yicha 50%ga yetdi. Bunday keskin o‘zgarish, ko‘p jihatdan Xitoyda shaharlashuv jarayonining oxirgi yillardagi jadallashuvi bilan bog‘liq. So‘nggi 15–20 yilda bu davlatning urbanizatsiya darajasi 2 barobarga ortib, jahon bo‘yicha o‘rtacha ko‘rsatkichdan oshdi. Urbanizatsiya darajasi, ayniqsa, Singapur, Yaponiya, Koreya Respublikasi, Isroil kabi sanoatlashgan davlatlar hamda Janubi-g‘arbiy Osiyoning neftni qazib oluvchi mamlakatlarida juda yuqori (85–100 %). Afg‘oniston, Tojikiston, Shri-Lanka, Nepal, Kambodja, Myanma, Sharqiy Timorda esa urbanizatsiya ko‘rsatkichi 20– 30% oralig‘ida.

Osiyo aholisi hududiy jihatdan notekis joylashgan. Bunga tabiiy sharoit, ayniqsa, iqlim va suv resurslari omillari katta ta’sir ko‘rsatgan. Osiyoning aholi eng zich joylashgan qismlari Buyuk Xitoy tekisligi, Hind-Gang pasttekisligi, Hindiston yarimoroli, Yapon va Filippin orollari, Koreya yarimorolining janubi, Yava oroli hisoblanadi. Ayni paytda, Arabiston yarimoroli, Gobi va Taklamakon cho‘llari, baland tog‘li o‘lkalarda aholi zichligi o‘ta pastdir.

Osiyo barcha yirik dinlar – buddizm, xristianlik, islom, induizm, konfutsiylik, yahudiylik, sintoizmning beshigi hisoblanadi va bu qit’ada tarixan dinlarning o‘ziga xos geografiyasi shakllangan. Janubi-g‘arbiy va Markaziy Osiyoda, Pokiston, Bangladesh, Maldiv Respublikasi singari Janubiy Osiyo hamda Indoneziya, Malayziya, Bruney kabi Janubi-Sharqiy Osiyo davlatlarida islom dini asosiy ahamiyatga ega. Hindixitoy yarimorolidagi davlatlar, Mongoliya, Shri-Lanka va Butanda buddistlar ko‘pchilikni tashkil etadi. Armaniston, Gruziya, Kipr, Filippin, Sharqiy Timorda xristianlikning turli mazhablari yetakchilik qiladi. Mahalliy dinlardan Hindiston va Nepalda induizm, Xitoyda konfutsiylik va daosizm, Yaponiyada sintoizm, Isroilda esa iudaizm keng tarqalgan.

Okeaniya orollari davlatlarining asosiy qismi aholi soni kam bo‘lgan davlatlar hisoblanadi. Aholisi, asosan, avstraloid kichik irqiga mansub polinez, melanez, mikronez va papuaslardan tashkil topgan. Milliy tarkibida turli qabila va urug‘ vakillarining salmog‘i yuqori. Ular papuas va avstronez oilalariga mansub. Lekin, mahalliy tillar deyarli muomalada emas. Asosan, muloqotda ingliz va fransuz tillaridan foydalaniladi. Xristian diniga e’tiqod qiluvchilar salmog‘i yuqori, bundan tashqari, qabilalarda an’anaviy dinlarga e’tiqod qiluvchilar ham bor.

Markaziy Osiyo mamlakatlarining aholisi suv va yer resurslari omillari (gidrografik tarmoqlar va relyef)ga bog‘liq holda notekis joylashib, asosan, sug‘orma dehqonchilik yaxshi rivojlangan daryo vodiy va deltalari, tog‘ oralig‘idagi botiqlarda mujassamlangan.

Bunday yerlar eng ko‘p O‘zbekiston hududida bo‘lganligi bois, respublikamiz aholi soni jihatidan subregionda yetakchi o‘rin egallaydi. Aholi zichligi ko‘rsatkichlari bo‘yicha Markaziy Osiyoda, O‘zbekiston (71,5 kishi/km^2) va Tojikiston (61,3 kishi/km^2) yetakchi, Qozog‘iston (6,6 kishi/km^2) esa eng oxirgi o‘rinda turadi. Jahon mamlakatlari orasida ham, Qozog‘iston aholisi eng siyrak joylashgan davlatlar safiga kiradi (o‘rtacha aholi zichligi bo‘yicha dunyoda 184-o‘rin). Markaziy Osiyo davlatlarining demografik vaziyatiga tug‘ilish va aholi tabiiy o‘sishining ancha yuqori ko‘rsatkichlari xos. Aytilgan ko‘rsatkichlar Tojikiston va Qirg‘izistonda subregion bo‘yicha eng baland, Qozog‘iston va Turkmanistonda eng past, O‘zbekistonda esa o‘rtacha darajada. Shuningdek, beshta respublikada ham migratsiyaning salbiy saldosi kuzatilmoqda. Urbanizatsiya darajasi Qozog‘istonda 53%, O‘zbekistonda 51%, Turkmanistonda 50%, Qirg‘izistonda 36%, Tojikistonda esa 26% ga teng. Ko‘rinib turibdiki, eng yuqori va eng past ko‘rsatkichlari orasidagi tafovut 2 martaga teng. Markaziy Osiyoda 2ta “millioner” shahar mavjud: Toshkent (2,4 mln kishi) va Almati (1,7 mln. kishi).

Astana, Bishkek, Dushanbe, Ashxobod, Shimkent, Namangan, Samarqand esa eng yirik (aholi soni 500 ming kishidan ortiq bo‘lgan) shaharlar qatoriga kiradi.

Mahalliy xalqlardan o‘zbek, qozoq, qirg‘iz, turkman, qoraqalpoqlar oltoy tillar oilasining turkiy guruhiga mansub bo‘lsa, tojiklar va ularga qardosh Pomirdagi kichik xalqlar (shug‘nonlar, vaxanlar, ishkashimlar va boshq.) hind-Yevropa tillar oilasining eroniy guruhi tarkibiga kiradi. Sanab o‘tilgan millat vakillari, nafaqat tegishli respublikalarda, balki qo‘shni davlatlar hududida ham keng tarqalgan.

12.3.2-jadval

Markaziy Osiyo davlatlarining ba’zi demografik ko‘rsatkichlari

№	Davlatlar	Tug‘ilish (har 1000 kishiga)	O‘lim (har 1000 kishiga)	Tabiiy ko‘payish		Migratsiya saldosi (har 1000 kishiga)	Umumiy ko‘payish	
				har 1000 kishiga	%		har 1000 kishiga	%
1	Qozog‘iston	23	8	15	1,5	-1	14	1,4
2	Qirg‘iziston	28	6	22	2,2	-1	21	2,1
3	Tojikiston	31	6	25	2,5	-3	22	2,2
4	Turkmaniston	21	8	13	1,3	-1	12	1,2
5	O‘zbekiston	23	5	18	1,8	-1	17	1,7

Masalan, o‘zbeklar O‘zbekistonga qo‘shni Qirg‘iziston, Tojikiston, Turkmanistonda son jihatidan 2-chi, Qozog‘istonda esa 3-chi millat hisoblanadi. O‘z navbatida, O‘zbekistonda ham tojiklar, qozoqlar, qirg‘izlar va turkmanlar vakillari salmoqlidir. Markaziy Osiyo davlatlari, BMT tomonidan qabul qilingan jahon mamlakatlarining tasnifi nuqtayi nazaridan, o‘tish iqtisodiyotidagi davlatlar toifasiga mansub.

Osiyo davlatlari tuzumlari turlicha bo‘lib, ulardan davlatchilik tarixi eng qadimiylaridan bo‘lgan Xitoy Xalq Respublikasidir. Amaldagi konstitutsiyasi 1988-yil 4-dekabrda qabul qilingan; 1988, 1993, 1999-yillarda ayrim tuzatishlar kiritilgan. Konstitutsiyaga ko‘ra, Xalq vakillari Umumxitoy majlisi (XVUM) davlat hokimiyatining oliy organi. XVUM davlat boshlig‘i – XXR raisi hisoblanadi va uning o‘rinbosarlarini saylaydi. Qonun chiqaruvchi hokimiyatni XVUM amalga oshiradi. XVUM provinsiya, muxtor rayon, markazga bo‘ysunuvchi shaharlar va qurolli kuchlar tomonidan saylanadigan deputatlardan iborat. XVUMning doimiy ishlovchi organi Doimiy qo‘mitadir. XVUM vakolat muddati 5 yil Ijroiya hokimiyatni Davlat kengashi (hukumat) amalga oshiradi. U XVUM va uning doimiy qo‘mitasi oldida hisob berib turadi. Davlat kengashining vakolat muddati 5 yildan iborat.

Mintaqadagi eng rivojlangan davlat Yaponiyadir. Yaponiya konstitutsiyaviy monarxiya davlati hisoblanadi. Amaldagi konstitutsiya 1947-yil 3-mayda kuchga kirgan (keyinchalik tuzatishlar kiritilgan). Davlat boshlig‘i – imperator. Konstitutsiyaning 1-moddasiga ko‘ra, u “davlat va xalq birligi ramzi”dir. Imperator oilasining erkak a’zolari imperatorlik taxti uchun merosxo‘r hisoblanadi. Konstitutsiyaga muvofiq, imperator mustaqil hokimiyatga ega emas. Imperatorning davlat ishlariga aloqador bo‘lgan har qanday faoliyati Vazirlar mahkamasi maslahati va ma’qullashi bilan amalga oshiriladi. Qonun chiqaruvchi oliy hokimiyatni 2 palatali parlament (Vakillar palatasi va Maslahatchilar palatasi), ijroiya hokimiyatni Bosh vazir boshchiligidagi hukumat (Vazirlar mahkamasi) amalga oshiradi.

Hindiston federativ respublika. Buyuk Britaniya boshchiligidagi Hamdo‘stlik tarkibiga kiradi. Amaldagi konstitutsiyasi 1950-yil 26-yanvardan kuchga kirgan; keyinchalik o‘zgartishlar kiritilgan. Davlat boshligi – president. U parlamentning ikki palatasi va shtatlarning qonun chiqaruvchi organlari a’zolaridan iborat saylovchilar hay’ati tomonidan 5 yil muddatga saylanadi. Qonun chiqaruvchi hokimiyatni prezident ikki palata – shtatlar kengashi (Raja sabxa) hamda Xalq palatasi (Log sabxa)dan borat parlament, ijroiya hokimiyatni prezident va bosh vazir boshchiligidagi hukumat amalga oshiradi.

12.4. Mintaqa mamlakatlarining sanoati

Mintaqa mamlakatlari sanoati va xo‘jaligi bo‘yicha tahlillar olib boriladigan bo‘lsa, birinchi navbatda mintaqadagi yetakchi davlat Xitoy Xalq Respublikasidir. Xitoy industrial agrar mamlakat bo‘lib, 1949-yil xalq inqilobidan so‘ng xalq xo‘jaligini tiklashga kirishdi va dastlabki 5 yil ichida yuksak natijalarga erishdi. Ammo undan keyingi 20 yildan ortiq davr ichida iqtisodiyoti nihoyatda qiyin ahvolga tushib qoldi. 1978-yilda boshlangan iqtisodiy islohotlar mamlakat iqtisodiyotini rivojlanish yo‘liga olib chiqdi. Iqtisodiy o‘sish sur’ati

yiliga o‘rta hisobda 8-10%, xususiy mulkchilikka asoslangan tarmoqlarda 30% ga oshdi. 1980-yillar oxirida yalpi ichki mahsulot hajmi 2 baravar ko‘paydi, aholini oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta’minlash muammosi hal bo‘ldi. 1990-yillar oxirida yalpi ichki mahsulotda sanoatning ulushi 49%, qishloq xo‘jaliginiki 19%, xizmat ko‘rsatish tarmog‘iniki 32%ni tashkil etdi.

Sanoatida ko‘p tarmoqli mashinasozlik (stanoksozlik, qishloq xo‘jaligi va transport mashinasozligi, traktorsozlik, avtomobilsozlik, elektr energetikasi va boshqa sanoat jihozlari, elektron buyum va priborlar, shuningdek, velosiped, tikuv mashinalari, soat va boshqa ishlab chiqarish), kimyo, qora metallurgiya muhim mavqega ega. Sanoatning asosiy tarmoqlaridan – to‘qimachilik (ip-gazlama, shoyi, jun gazlama ishlab chiqarish), oziq-ovqat sanoati rivojlangan. Issiqlik energetika bazasining asosi – ko‘mir. U asosan, Xitoyning shimoliy va shimoli-sharqida qazib olinadi. Neft mamlakatning shimoli-g‘arbi va shimoli-sharqida qazib olinadi. Xitoy shimoli-sharqida yonuvchi slanets konlari, Sichuan soyligi va Saydam tekisligida gaz konlari bor. Po‘lat, rangli metallar (alyuminiy, mis, rux, qo‘rg‘oshin, qalay, surma) eritiladi. Sement, mineral o‘g‘it ishlab chiqariladi. Hunarmandchilik ham katta ahamiyatga ega. Xitoy badiiy hunarmandchilik buyumlari bilan ham mashhurdir.

Qishloq xo‘jaligining yetakchi tarmog‘i dehqonchilikdir. Qishloq xo‘jaligida foydalaniladigan yerning 93 mln. gektari (mamlakat hududining 10%) ishlanadi, 49% sug‘oriladigan yerlar. Ekin maydonining 2/3 qismini sholi, bug‘doy, batat, kartoshka egallaydi, 18%ga texnika ekinlari (paxta, soya, yer yong‘oq, choy, tamaki, jut, shakarqamish, qand lavlagi va boshqalar) ekiladi. Xitoyning janubidagi dengiz sohillari va Sichuan soyligida shakarqamish, sharqiy va markaziy rayonlarida choy o‘stiriladi. Tropik, subtropik va mo‘tadil mintaqalarda ko‘p tarmoqli bog‘dorchilik (sitrus mevalar, ananas, banan, mango, olma, nok va hokazo) rivojlangan.

Chorvachilikda Xitoyning har bir yirik rayoni o‘ziga xos yo‘nalishga ega. Sharqiy Xitoyda cho‘chqachilik, parrandachilik

rivojlangan, ish hayvonlari ko‘paytiriladi. Ichki Mongoliya, Shinjan-Uyg‘ur muxtor rayonining shimoliy qismi va Tibetda yaylov chorvachiligi (qo‘ychilik, qoramolchilik, yilqichilik) asosiy o‘rinda. Yanszi va Chjutszyan daryolari havzalarida tut ipak qurti, shimoliy-sharqiy Xitoyda va Shandunda dub ipak qurti boqiladi. Xitoy dunyoda tabiiy shoyi yetishtiruvchi yirik davlatlardan biridir.

Mintaqadagi iqtisodiy rivojlangan davlatlardan biri Yaponiya iqtisodiy qudrati bo‘yicha jahonda AQSH va XXRdan keyingi o‘rinda turadigan yuksak darajada rivojlangan industrial mamlakat. Sanoat ishlab chiqarishning umumiy hajmi bo‘yicha jahonda oldingi o‘rinlardan birini egallaydi. Ulkan korxonalar bilan birga mayda korxonalar ham mavjud (ayniqsa, yengil va oziq-ovqat sanoatida). Yaponiya iqtisodiyoti chetdan keltiriladigan xomashyo va yoqilg‘iga asoslangan.

Yaponiya jahon bozoriga sanoatning fanga asoslangan murakkab tarmoqlari mahsulotlari, zamonaviy konstruksion materiallar yetkazib beruvchi mamlakat. Yaponiya xalqaro iqtisodiy, savdo va moliya tashkilotlari hamda “sakkizlik” davlatlarida yetakchi mavqega ega. Yalpi ichki mahsulotda sanoatning ulushi 38%, qishloq, o‘rmon xo‘jaligi va baliq ovlashniki 2%, xizmat ko‘rsatish tarmog‘i 60%ni tashkil etadi.

Sanoatida iqtisodiy faol aholining 25% band. Energetika, metallurgiya, avtomobilsozlik, kemasozlik, kimyo, neft kimyosi, qurilish materiallari sanoati kabi tayanch tarmoqlar chetdan olinadigan xomashyo hamda texnologiyaning eng Yangi yutuqlari asosida deyarli butunlay Yangidan barpo etildi. Energetika sanoati ham asosan, chetdan keltirilgan neftga asoslangan. Yiliga o‘rtacha 1,097 trillion kVt-soat elektr energiya hosil qilinadi; uning 706,4 mlrd. kVt-soati issiqlik elektr stansiyalarida, 91,8 mlrd. kVt-soati GESlarda, 295 mlrd. kVt-soati atom elektr stansiyalariga to‘g‘ri keladi. Mamlakatda 52 atom elektr stansiyasi bor. Yaponiya sanoatida qora va rangli metallurgiya rivojlangan. Kon sanoatida ko‘mir, gaz, temir va mis rudasi, rux, qo‘rg‘oshin, marganets, kumush, oltin, simob, kaolin, talk va hokazo qazib olinadi. Mashinasozlik va kimyo sanoati yuksak taraqqiy etgan. Avtomobillar, maishiy texnika, elektron asboblar, aloqa vositalari, kema, po‘lat,

sement, plastmassa, sintetik tola, robot ishlab chiqarish, neftni qayta ishlash, biotexnologiya mamlakat iqtisodiy taraqqiyotining ustuvor tarmoqlaridandir. Yaponiya sanoati 4 asosiy rayon: Keyxin (Tokio, Kanagava), Chukyo (Aychi, Mie), Hanshin (Osaka, Hiogo), Kita Kyushu (Fukuoka)ga bo‘lingan. Mazkur rayonlarda jami sanoat mahsulotining 40% dan ortig‘i ishlab chiqariladi.

Qishloq xo‘jaligida hosildorlik bo‘yicha dunyoda oldingi o‘rinlardan birida bo‘lib, u yuqori darajada mexanizatsiyalashgan va avtomatlashtirilgan. Iqtisodiy faol aholining 4,2% qishloq xo‘jaligida band. Hududining 12,9% yoki 4,8 mln. gektarida dehqonchilik qilinadi. Dehqonchilikda asosiy ekin – sholidir. Shuningdek, kartoshka, sabzavot, oz miqdorda bug‘doy va dukkakli don ekinlari ekiladi. Mevachilik, bog‘dorchilik, chorbog‘ xo‘jaligi rivojlangan. Chorvachilikda qoramol, cho‘chqa, parranda boqiladi; pillachilik va baliqchilik rivojlangan. Yaponiyada 3000 dan ortiq baliq ovlash portlari bo‘lib, dunyo bo‘yicha ovlanadigan baliq va dengiz jonivorlarining 15% shu portlarga to‘g‘ri keladi.

Hindiston – agrar-industrial mamlakat. Sanoat ishlab chiqarish, jalb qilinayotgan xorij sarmoyasi hajmi jihatidan dunyodagi rivojlangan o‘nta davlat qatoriga kiradi. Yalpi ichki mahsulotda qishloq xo‘jaligi, o‘rmon xo‘jaligi va baliq ovlash 25%, sanoat 30%, xizmat ko‘rsatish tarmog‘i 45%ni tashkil etadi. Iqtisodiyoti ko‘p ukladli. Yalpi milliy mahsulotining 28%ni tashkil etuvchi davlat sektori harbiy sanoat tarmoqlari, atom energetikasi, transport va aloqada yetakchi o‘rin egallaydi.

Mamlakatda aholi soni ko‘p bo‘lishiga qaramay, uning qishloq xo‘jaligi mahsulotlariga bo‘lgan ehtiyoji to‘liq qondirilibgina qolmay, ko‘p qismini eksport ham qiladi. Qishloq xo‘jaligi dehqonchilikka ixtisoslashgan. Asosiy ekinlari – sholi, bug‘doy, tariq, dukkakli don ekinlari va moyli o‘simliklar. Hindiston shakarqamish, yer yong‘oq, choy, kanakunjut, paxta yetishtirish bo‘yicha dunyoda oldingi o‘rinlarda turadi. Shuningdek, kauchuk, kofe, makkajo‘xori, tamaki, qalampir, ziravorlar (murch, kardamon, mushk, dolchin va hokazo) yetishtiriladi. Mamlakatda kokos palmasi, banan, sitrus va boshqa mevali daraxtlar

ham o‘stiriladi. Chorvachiligida qoramol, qo‘y, echki, cho‘chqa, yilqi, tuya, parranda boqiladi. Pillachilik rivojlangan. Baliq va dengiz hayvonlari ovlanadi. O‘rmon xo‘jaligida qimmatbaho yog‘och tayyorlanadi.

Sanoatida marganets, slyuda (dunyoda oldingi o‘rinlardan birida), toshko‘mir, titan, temir rudasi, oltin, tabiiy gaz, xromit neft, boksit va boshqalar qazib olinadi. Yiliga o‘rtacha 380 mlrd. kVt-soat elektr energiyasi hosil qilinadi (uning 4/5 qismi issiqlik elektr stansiyalarida, 1/7 qismi GESlarda); AESlar ham bor. Yetakchi sanoat tarmoqlari: to‘qimachilik (asosan, jun va ipgazlama), oziq-ovqat (qand-shakar, tamaki), teri-poyabzal sanoati. Neftni qayta ishlash, sement, qog‘oz, shisha-oyna ishlab chiqarish korxonalari mavjud. Qora va rangli metallurgiya, kimyo sanoati, mashinasozlik rivojlangan. Dunyodagi axborot texnologiyalari yo‘nalishidagi korxonalarning yarmidan ko‘pi Hindistonda joylashgan. Yadroviy texnologiyalar va koinotni zabt etish bo‘yicha yetakchi o‘rinda. Hindistonda ishlab chiqariladigan sanoat mahsulotlarining 40%ga yaqinini mayda va hunarmandchilik korxonalari beradi.

Nazorat uchun savollar

1. Osiyo va Okeaniya mintaqasining iqtisodiy va siyosiy geografik o‘rni, maydoni, chegaralari to‘g‘risida tushuncha bering.
2. Osiyo va Okeaniya mintaqasining tabiiy sharoiti va resurlarining turizmni rivojlantirishdagi ahamiyatini tushuntiring.
3. Osiyo va Okeaniya mintaqasi mamlakatlarining iqtisodiyotidagi o‘rnini tahlil qiling.
4. Osiyo va Okeaniya mintaqasi aholisi va davlat tuzumi to‘g‘risida tushuncha bering.
5. Osiyo va Okeaniya mintaqasi aholisining soni, migratsiyasi va tabiiy o‘sishining pastligi va uning sabablari bo‘yicha tushuncha bering.
6. Mintaqa mamlakatlarining sanoati bo‘yicha tushuncha bering.

13-BOB. OSIYO VA OKEANIYA MINTAQASINING TURIZM GEOGRAFIYASI

13.1. Osiyo va Tinch okeani mintaqasining turistik salohiyati.

13.2. Mintaqaning jahon turizmida tutgan o‘rni va roli.

13.3. Mintaqada ichki va xalqaro turizmning rivojlanish xususiyatlari.

13.4. Xalqaro turizm dinamikasi.

13.1. Osiyo va Tinch okeani mintaqasining turistik salohiyati

Osiyo-Tinch okeani mintaqasi turizmi dunyodagi eng jadal rivojlanayotgan mintaqadir. Ammo bu yerga sayyohlar oqimi hali Yevropa va Amerika mamlakatlaridagidek ko‘p emas. Yaqin kelajakda ushbu mintaqaning ayrim mamlakatlari ularga tashrif buyuradigan sayyohlar soni bo‘yicha birinchi o‘ringa chiqishi kutilmoqda.

Xalqaro turistik salohiyati bo‘yicha Osiyoning eng mashhur mamlakatlariga Birlashgan Arab Amirliklari, Xitoy, Yaponiya, Indoneziya, Tailand, Hindiston, Shri-Lanka, Maldiv orollari, Malayziya, Filippin, Singapur, Nepal, Iordaniya, Livan, Mo‘g‘uliston kiradi.

Oxirgi yillarda turizm Janubiy Koreya, Laos, Kambodja, Vetnam kabi mamlakatlarda ham faol rivojlana boshladi.

Shuning uchun Osiyo va Tinch okeani mintaqasining turistik salohiyatini davlatlar misolida ko‘rib o‘tishni maqsadga muvofiq deb bildik.

Iordaniya – janubi-g‘arbiy Osiyodagi davlat, poytaxti Amman shahri. Bu asosan qishloq xo‘jaligi mamlakati. Iordaniya hududida miloddan avvalgi 2-ming yillik qadimiy madaniyat yodgorliklari mavjud. Janubiy Iordaniya tog‘larida arxeologlar II asrdagi Nabatiy qirolligining poytaxti Petra shahrini topdi. Bu topilmalar V va XIX asr oxirlariga taalluqlidir. Mamlakatga asosan turistlar turli xil toshlardan qurilgan ibodatxonalar, teatrlarni ko‘rish uchun keladi. Iordaniyaga

bundan tashqari turistlar ziyorat yo‘nalishida ham tashrif buyuradi. Shu sababli, bugungi kunda tobora ko‘proq diniy ziyoratchilar Sharqqa sayohatlarini Iordaniyadan boshlaydilar. Tuz dengizi, hozirgi O‘lik dengiz diniy voqealar joyi sifatida tilga olinadi. O‘lik dengizning o‘zi ajoyib tabiiy go‘zallik, chuqur ramziy ma’no va chinakam dramatik jozibaga to‘la dunyoning diqqatga sazovor joyidir.

Bugungi kunda O‘lik dengizning sharqiy qirg‘og‘ining butun uzunligi iordaniyalik va xorijiy sayyohlar orasida eng mashhur dam olish maskanlaridan biridir. Uning mashhur termal buloqlariga markaziy va janubiy Iordaniyadan zamonaviy yo‘llar infratuzilmasi orqali osongina yetib borish mumkin. Iordaniya janubida Qizil dengiz ham mashhur dam olish maskani hisoblanadi. Iordaniya dengiz bo‘yida dam olish asosiy maqsad bo‘lgan sayyohlarni o‘ziga jalb qilishi mumkin.

Livan – parlamentar demokratik respublika bo‘lib, maydoni nisbatan kichik (10,4 ming kvadrat kilometr) egallagan, 2,5 million kishi istiqomat qiladi. Livan Isroil va Suriya bilan chegaradosh. Poytaxti – Bayrut shahri. Livan yirik mintaqaviy bank markazi sifatida tanilgan. Bank ishi mamlakat iqtisodiyotining asosiy tarmoqlaridan biridir. Mamlakatda 80 dan ortiq banklar faoliyat yuritmoqda. Savdo va turizm ham mamlakat iqtisodiyotining muhim tarmoqlari hisoblanadi.

O‘rta yer dengizining yumshoq iqlimi Livanni ayniqsa jozibali qiladi, ammo bu mintaqadagi boshqa mamlakatlardan farqli o‘laroq, tog‘larning noyob tabiati qor bo‘ronlariga, bahorgi yam-yashil o‘tlarning palitrasiga va quyosh botishiga qoyil qolish imkoniyatini beradi. Livan turizmning quyidagi turlarining rivojlanishi bilan tavsiflanadi: biznes, madaniy, tarixiy va ekologik.

Livan mintaqadagi davlatlardan farqli ravishda nisbatan liberal soliq tizimi xorijiy investitsiyalar va tadbirkorlik uchun qulay sharoit yaratadi. Livandagi madaniy va tarixiy turizm qadimiy yodgorliklar bilan tanishish bilan bog‘liq. Mamlakatning tarixiy diqqatga sazovor

joylari qatoriga arxeologlar tomonidan kashf etilgan qadimiy shaharlar – Baalbek, Byblos va Anjar kiradi. Mamlakat poytaxti Bayrut antik davrni zamonaviy infrastruktura bilan uyg‘unlashtiradi.

Birlashgan Arab Amirliklari (BAA) — Arabiston yarim orolida joylashgan yetti arab davlatidan iborat federatsiyaga kiradi. Qisqa vaqt ichida BAA amirliklarning misli ko‘rilmagan investitsiyalarini jalb etish orqali – dengiz qirg‘og‘ida bir nechta aholi punktlari bo‘lgan suvsiz cho‘l o‘rnida boy va yuqori darajada rivojlangan mamlakatni barpo etdi. Hozirgi kunda butun dunyodan sayyohlar bu yerga tashrif buyurishga intilmoqda. Abu-Dabi – 900 mingga yaqin aholiga ega eng yirik amirlik, poytaxt va federatsiya prezidentining qarorgohi joylashgan shahardir. Dubay BAAning ikkinchi yirik shahri va amirligi bo‘lib, dunyodagi biznes va savdo, dam olish va ko‘ngilochar markazlardan biri hisoblanadi.

Sharja – BAAning “madaniy poytaxti”, uchinchi yirik amirlikdir. Ko‘plab muzeylar, tarixiy obidalar, masjidlar, bozorlar bor. Ajman barcha amirliklar ichida eng kichigi bo‘lib, o‘tmishda u marvarid uchun joy sifatida tanilgan (hozir u rivojlangan baliqchilik sanoati va kemalar ishlab chiqarish bilan mashhur. Ras al-Xayma BAAning Shimoliy qismidagi amirlik bo‘lib, XX asrdan beri u doimo bosqinchiliklarga duchor bo‘lgan va shuning uchun “qaroqchilar qirg‘og‘i” ma’nosini beradigan nom olgan. Birlashgan Arab Amirliklarining sharqiy qismida joylashgan Fujayra amirligi tabiatni sevuvchilar va tanho sukunatni afzal ko‘radiganlar uchun tavsiya etiladi. Fujayrada uchta qo‘riqlanadigan hudud mavjuddir.

Saudiya Arabistoni – dunyodagi eng katta Arabiston yarim orolining katta qismini egallaydi, Yamanning shimolida joylashgan. Mamlakat hududining katta qismini cho‘l egallaydi: shimolda Suriya cho‘lining bir qismi, janubi-sharqiy qismida Katta cho‘l (Rub-Al-Xali) joylashgan. Mamlakat iqtisodiyotining yetakchi tarmog‘i neft sanoati hisoblanadi. Dunyodagi aniqlangan neft zaxiralarining katta qismi Saudiya Arabistoniga to‘g‘ri keladi (taxminan 20%).

Saudiya Arabistoni islom an’analariga ega bo‘lgan mamlakat bo‘lib, xususan, turistik rasmiyatchiliklarda bular namoyon bo‘ladi: spirtli ichimliklarni olib kirish taqiqlanadi; giyohvand moddalar kontrabandasi o‘lim bilan jazolanadi; ibroniy tilidagi kitoblarni, shuningdek, Isroil bilan belgilangan tovarlarni olib kirish taqiqlanadi; ko‘chaga chiqayotgan ayollarga ro‘mol o‘rashlari tavsiya etiladi. Mamlakatda xalqaro turizmning asosiy turi diniy yo‘nalishda bo‘lib, ziyorat tarzida amalga oshiriladi. Saudiya Arabistoniga ziyorat qilish islom dini an’analariga asoslanadi. Har bir musulmon hayotida kamida bir marta muqaddas Makka va Madina shaharlariga haj qilishga harakat qiladi.

Suriya davlati Yaqin Sharq mintaqasida – o‘rta asrlarda katolik cherkovi tomonidan Muqaddas zaminni musulmonlardan ozod qilish uchun yurish qilgan salibchilarning so‘nggi tayanchi bo‘lgan. Hozirda salbchilarning bir qator qal’alari o‘tmishdan xabar berib turadi. Suriya poytaxti – Damashq shahri – dunyodagi eng qadimiy shaharlardan biri. Shaharning me’moriy yodgorliklari orasida Umaviylar masjidi, Nur-ad-Din kasalxonasi turistlarda katta qiziqish uyg‘otadi. Mamlakat poytaxtda 200 dan ortiq masjidlar bor. Suriya qadimdan hunarmandchilik rivojlangan bo‘lib, qilich, pichoq, mis idishlar ishlab chiqarish bilan mashhur. Shu bilan birgalikda bir nechta zamonaviy tog‘ kurortlari, dengiz bo‘yi sohillaridagi plyajlar mavjuddir.

Suriyada xalqaro turizmning rivojlanishiga bir qator siyosiy muammolar to‘sqinlik qilmoqda. Suriya ham boshqa arab davlatlari kabi mustaqil Isroil davlatini tan olmaydi. 1973-yilda Suriya Misr bilan birgalikda Isroilga qarshi urush boshladi va tinchlik imzolanishi bilan yakunlandi. Bu tarixiy fakt Suriya va Isroil o‘rtasidagi keskin munosabatlarga olib keldi. Isroil fuqarolariga va unga tashrif buyurgan shaxslarga Suriyaga viza berilmaydi.

Eron davlati janubi-g‘arbiy Osiyo hududida joylashgan. Bu mamlakat hududining katta qismini tog‘lar va cho‘llar egallaydi. Mamlakat markazinining katta qismini Eron tog‘lari, Lut cho‘llari

egallaydi. Eron hududida uchta tabiiy-iqlim zonasini ajratib ko‘rsatish mumkin: tropik issiq iqlimi bo‘lgan Fors va Ummon ko‘rfazining qirg‘oqlari, quruq subtropik issiq iqlimi bo‘lgan markaziy mintaqalar, qurg‘oqchil subtropik iqlimi bo‘lgan markaziy mintaqalar va o‘rtacha sovuq iqlimi bo‘lgan tog‘li hududlar.

Eron aholisining aksariyatini (80 milliondan ortiq aholining taxminan 60%ini) forslar tashkil qiladi. Rasmiy tili fors tili bo‘lib, asosiy dini islomning shia mazxabidir. Eron islom fundamentalizmi an’analariga ega bo‘lgan mamlakat bo‘lib, unga ko‘ra, Eronda turistlar va mahalliy aholi spirtli ichimliklarni do‘konlarda va hatto mehmonxonalarda ham xarid qilib bo‘lmaydi. Mamlakatga barcha turdagi alkogolli ichimliklar, targ‘ibot mazmunidagi video mahsulotlar hamda ibroniy tilidagi kitoblarni olib kirish qat’iyan man etiladi. Tashrif buyuruvchilarning pasportlarida Isroil davlatining viza belgilari bo‘lsa, Eronga kirish taqiqlanadi. Shuningdek, Islom qoidalariga to‘g‘ri kelmaydigan kiyimdagi ayollar ham chegaradan o‘tkazilmaydi.

Islom fundamentalizmining mavjud an’analari tufayli bu mamlakatda xalqaro turizm rivojlanishi talab darajasida emas. Eron asosiy daromadni neft va gaz xomashyosini qazib olish va eksport qilishdan oladi. Turizmning rivojlanishiga bir qator boshqa holatlar ham to‘sqinlik qilmoqda. Shunga qaramasdan Eron bir qator sohalarda xalqaro turizmni rivojlantirish uchun katta imkoniyatlarga ega. Madaniy-tarixiy yo‘nalishda qadimiy shaharlari – Tehron, Isfaxon, Sheroz, Tabrizda mashhur ziyoratgohlar bor. Bularga ko‘plab tarixiy diqqatga sazovor joylar, o‘rta asr masjidlari, qadimiy arxitektura yodgorliklarini kiritish mumkin. Eron turizmi uchun kelajakda tibbiy va sog‘lomlashtirish yo‘nalishi istiqbolli bo‘lishi mumkin. Eronda ko‘z jarrohligi, ortopediya, yurak-qon tomir kasalliklarini davolash kabi yuqori sifatli tibbiy xizmatlar mavjud. Eronda ko‘ngilochar va dam olish maqsadidagi turizm asosiy xususiyatga ega. Erondagi eng mashhur dam olish maskani Hormuz bo‘g‘ozidagi Kish orolidagi

zamonaviy Eron kurortidir. Eronga shopping-turlar ham xalqaro turizmning istiqbolli yo‘nalishi hisoblanadi. Ko‘plab Sharqona bozorlar mavjud bo‘lib, ularda mashhur fors qo‘lda ishlangan gilamlarni, shuningdek, kumush buyumlarni sotib olishingiz mumkin.

Mo‘g‘iliston – O‘rta Osiyodagi davlat. Mamlakat poytaxti – Ulan-Bator shahri. Mo‘g‘uliston iqtisodiyoti agrar va xomashyo xarakteriga ega (ko‘chmanchi chorvachilik, foydali qazilmalarni qazib olish). Mo‘g‘uliston turli mahsulotlar, jumladan, qo‘y va tuya juni, charm buyumlar, gilam, trikotaj mahsulotlarini eksport qiladi. Mo‘g‘uliston, boshqa ko‘plab mamlakatlar singari, turizmni rivojlantirishni rag‘batlantiradi.

Ekologik, etnografik va tarixiy sayohatlar bu mamlakat uchun eng istiqbolli bo‘lishi mumkin. Mo‘g‘uliston ekotizimlarning boy kombinatsiyasiga ega bo‘lgan dunyodagi kam sonli joylardan biridir. Mo‘g‘ulistonning yarmidan ko‘pini egallagan Gobi cho‘li o‘simlik va hayvonot dunyosining xilma-xilligi bilan ajralib turadi. Bu yerda o‘simliklari siyrak bo‘lgan katta toshli cho‘llarni, qumtepalarni uchratish mumkin. Turistlar uchun eng qiziqarli hudud Janubiy Gobi bo‘lib, u yerda asosiy diqqatga sazovor joylar va turistik uy markazlari joylashgan.

Qadimiy “Buyuk Ipak yo‘li”ning bir tarmog‘i Mo‘g‘uliston hududidan o‘tgan va qadimdan ko‘chmanchi va o‘troq turmush tarzini olib borgan xalqlarni bog‘lab turgan. Mo‘g‘uliston hali ham ko‘chmanchilarning turmush tarzi, qadimiy an’analari va o‘ziga xos madaniyatini saqlab kelmoqda.

Yapona – Osiyo va Tinch okeani mintaqasidagi orol davlat bo‘lib, aholisi 125 million kishini tashkil etadi. Yaponiya o‘zining ajoyib tabiiy go‘zalligi bilan jozibali. Mamlakat Tinch okeanidagi 6800ga yaqin orollarda joylashgan. Yaponiya hududining 68%ni tog‘lar egallaydi. Eng baland Fudzi tog‘i mamlakatning milliy ramzidir. Yaponiyaning o‘ziga xos xususiyati – mineral xomashyo bazasining qashshoqligi. Mamlakat kemasozlik, radioelektronika,

yengil va yuk mashinalari ishlab chiqarish bo‘yicha dunyoda oldingi o‘rinlardan birini egallaydi. Chinni, o‘yinchoqlar va badiiy mahsulotlar ishlab chiqarish an’anaviy bo‘lib qolmoqda. XX asrning oxirlarida neft narxining ko‘tarilishi bilan bog‘liq bo‘lgan global energetika inqirozlari Yapon xalqini yuqori texnologiyali sanoatni, shuningdek, moliya sektorini rivojlantirishga majbur qildi. Hozir Yaponiya nafaqat dunyodagi eng yirik sanoat mahsulotlari ishlab chiqaruvchilari, balki Osiyo-Tinch okeani mintaqasining texnologik “miya” va jahonning eng yirik moliyaviy markazlaridan biri hisoblanadi. Uzoq vaqt davomida (1868-yilgacha) Yaponiya “yopiq” davlat bo‘lib, Yapon madaniyatining o‘ziga xosligini belgilab berdi. Yaponiya poytaxti Tokio dunyodagi eng yirik megopolistlardan biridir. Tokioning diqqatga sazovor joylari orasida Kannon, Meiji, Rakanji budda ibodatxonalari, Yasukuni Shinto ziyoratgohi, imperator saroyi, Milliy muzey, Sogetsu san’at markazi mavjud. Osaka – G‘arbiy Yaponiyadagi eng katta shahar. Nara – Yaponiyaning qadimiy poytaxti, shahar-muzeyi o‘zining me’moriy yodgorliklari va imperator qarorgohi bilan mashhur. So‘nggi o‘n yillikda turistlarni Yaponiyaga ko‘plab sport va ko‘ngilochar tadbirlar, xususan, Olimpiya o‘yinlari, Jahon kubogi jalb qildi. Issiq iqlim, ko‘plab orollarning mavjudligi va mashhur qirg‘oq bo‘ylari Yaponiyani dengiz turizmi uchun qulay joyga aylantiradi. Bu yerdagi dengiz bo‘yidagi kurortlar mamlakatda turizmni rivojlantirish uchun qulaydir. Turizm infratuzilmasini rivojlantirishga katta investitsiyalar jalb qilinmoqda. Shunga qaramasdan yaponiyaliklar chet elda dam olishni afzal ko‘rishadi.

Hindiston Janubiy Osiyoda joylashgan ulkan subkontinentdir. Hindistonda bir milliard uch yuz milliondan ortiq odam yashaydi, bu esa demograflarning prognozlariga ko‘ra, o‘rta muddatli istiqbolda dunyodagi eng zich aholi yashaydigan mamlakatga aylanadi. Bundan tashqari, Hindiston dunyodagi eng ko‘p millatli davlat hisoblanadi. Fiziografik jihatdan Hindistonni uchta tabiiy mintaqaga bo‘lish mumkin: Himoloy, Hind-Ganga pasttekisligi va Dekan platosi. Turizm nuqtai nazaridan Hindistonda mamlakatning eng yirik shaharlari katta qiziqish

uyg‘otadi. Ulardan, Dehli – Hindiston poytaxti, Bombey, Kalkutta, Madras, Goa, milliy bog‘lari Korbet, Sariska, mashhur Toj-Mahal maqbarasidir.

Kalkutta – dunyoga mashhur hind yozuvchisi Rabindranat Tagorning tug‘ilgan joyi. Hindistonning eng mashhur kurortlari Hindistonning g‘arbiy qirg‘og‘ida, Goa shtatida joylashgan. Bu hudud turizm nuqtai nazaridan eng rivojlangan hisoblanadi va yevropaliklar orasida juda mashhur. Mehmonxona restoranlari va plyajlar ta’tilini afzal ko‘rganlarga ko‘proq yoqadi. Bundan tashqari iqtisodiyoti eng rivojlangan shtatlaridan biri bo‘lgan Kerala shtati turistik xizmatlar ko‘rsatishda shuhrat qozongan. Mamlakatdagi dunyoga mashhur Toj Mahal maqbarasi hind me’morchiligi yodgorligi, rang-barang toshlar mozaikasi bilan oq marmardan yasalgan besh gumbazli inshootdir. Hindiston shuningdek, diniy ziyoratgohlar markazi bo‘lishi bilan birgalikda tog‘ cho‘qqilarini zabt etishni orzu qiladigan ekoturistlarni o‘ziga jalb qiladi.

Hindistonning janubida xalqaro turizmning muhim obyektlari: Shri-Lanka oroli va Maldiv orollari joylashgan. 1984-yildan beri Kolombo Shri-Lanka poytaxti hisoblanadi. Madaniyatlar va dinlar, zamonlar va xalqlar aralashmasi shaharning o‘ziga xos qiyofasida o‘z izini qoldirgan. Eng ko‘p tarixiy va madaniy yodgorliklar orolning markazida to‘plangan va “madaniy uchburchak” ni tashkil qiladi. Anuradxapura – Shri-Lankaning birinchi qadimiy poytaxti, Polonnaruva – shtatning o‘rta asr poytaxti, mustaqil Singal davlatining hukmdorlarini so‘nggi qal’asi Kandi joydashgan. Bugungi kunda mamlakat dunyoda choyning yetakchi eksportchilaridan biri hisoblanadi.

Maldiv o‘rtalari Hind okeanidagi arxipelag bo‘lib, Shri-Lanka orolining janubi-g‘arbiy qismida joylashgan. Maldiv orollari 1190 ta mayda marjon orollaridan iborat bo‘lib, ulardan faqat 220 tasi o‘zlashtirilgan. Maldivliklar aralash irq bo‘lib, ularning shakllanishiga Shri-Lanka, Hindiston va arab davlatlaridan kelgan emigrantlar ta’sir ko‘rsatgan. Orollar aholisi taxminan to‘rtdan bir qismi poytaxt Male shahrida istiqomat qiladi.

13.2. Mintaqaning jahon turizmida tutgan o‘rni va roli

Osiyo va Tinch okeani turizmi juda tezkorlik bilan rivojlanib borayotgan mintaqalardan hisoblanadi. Mintaqa o‘zining takrorlanmas rekreatsiya resurslari va tabiat manzaralari bilangina emas, balki yuqori darajadagi servis xizmati bilan ham alohida ajralib turadi. Mintaqada turizmga sarflanadigan xarajatlar miqdori Yevropa va Amerikaga nisbatan anchagina kamligi bilan xaraterlanadi. Xalqaro turistlar soni mintaqada 2015-yilda 284,1 mln., 2016-yilda 306,0 mln., 2017-yilda 324,0 mln., 2018-yilda 347,7 mln., 2019-yilda 360,6 mln. kishini tashkil qilgan. Ushbu mintaqa uchun yana bir xarakterli bo‘lgan holat Yevropa singari ichki turizmning ustunligidir. Shu singari turistlarga ko‘rsatilgan xizmatlar-dan 2015-yilda 355,6 mlrd., 2016-yilda 370,8 mlrd., 2017-yilda 396,0 mlrd., 2018-yilda 436,4 mlrd., 2019-yilda 443,8 mlrd. AQSH dollari miqdorida daromad olgan[54].



13.2.1-rasm. Osiyo va Tinch okeani turizmining makroiqtisodiy ko‘rsatkichlari[55].

[54]www// UNWTO 2020 y.
[55]World Tourism Organization (UNWTO) yillik statistik ma’lumotlari asosida tuzilgan.

Osiyo va Tinch okeani mintaqasida asosiy turistlar oqimi Sharqiy Osiyo ya’ni Yaponiya, Janubiy Koreya va Xitoy (3/5 qismi) mamlakatlariga to‘g‘ri keladi. Ikkinchi o‘rinda Janubiy–Sharqiy Osiyo (1/3) mamlakatlari egallaydi. Avstraliya va Okeaniya hududlariga qariyib 10% keluvchi turistlar soni to‘g‘ri keladi.

Hozirgi kunda Osiyo va Tinch okeani mintaqasi bozorida Xitoy alohida o‘rinni egallaydi. Uning hissasiga butun mintaqaga keluvchi turistlarning 1/4 qismi, Syangan (Gonkong) va Tayvanni birgalikda qo‘shib hisoblaganda esa 30-35 % to‘g‘ri keladi. Xitoy turizmi 1980-yillardan boshlab rivojlana boshladi. Mamlakatda iqtisodiy islohatlar ya’ni “Ochiq eshik” siyosati amalga oshirilishi bilan turizmda ham tub o‘zgarishlar ro‘y berdi. Birgina 1988-yilda tashrif buyuruvchi turistlar umumiy soni 1979-yilga nisbatan 37 barobarga oshdi. Shu davrda mamlakatga keluvchi turistlarning aksariyat qismini Yaponiya va AQSHdan keluvchilar tashkil etdi.

Ya’ni Xitoyga keluvchilarning har uch kishidan biri Yaponlar, har besh nafar keluvchi sayyohlardan biri esa amerikaliklar edi. Undan keyingi o‘rinlarni Yevropa mintaqasi davlatlari (Fransiya, Buyuk Britaniya, Germaniya), Janubi-Sharqiy Osiyo mintaqasi davlatlari (Singapur, Tailand, Filippin), Avstraliya va Kanada davlatlari egallaydi. So‘nggi yillarda Xitoy turizm bozorida ishtirok etishda Malayziya, Indoneziya, Koreya Respublikasi, Mongoliya va Rossiya davlatlari turistlari faollik ko‘rsatmoqda.

Yaponiya mintaqadagi eng rivojlangan turistik davlatlardan biridir. Bu mamlakatga tashrif buyuruvchi turistlar turli xil maqsadlar bilan kelishadi. Ularning ko‘pchiligi dam olish, ko‘ngil ochishni ma’qul ko‘rishadi. Yaponiya ko‘ngil ochish turizmi bo‘yicha dunyoda AQSHdan so‘ng ikkinchi o‘rinni egallab kelmoqda.

13.2.1-jadval

Osiyo va Tinch okeani subregionlari turizmi rivojlanishi ko‘rsatkichlari[56]

Subregionlar nomi	Yillar bo‘yicha xizmat ko‘rsatilgan turistlar soni mln. kishi				Yillar bo‘yicha olingan daromadlar mlrd. AQSH dol. hisobida*			
	2016	2017	2018	2019	2010	2017	2018	2019
Shimoli-Sharqiy Osiyo	154,3	159,5	169,2	170,6	123,0	168,1	193,3	187,5
Janubi-Sharqiy Osiyo	110,8	120,5	128,7	137,3	68,5	130,6	138,4	147,7
Okeaniya	15,7	16,6	17,0	17,5	42,8	57,4	61,1	61,9
Janubiy Osiyo	25,2	27,5	32,8	35,3	20,1	39,9	43,6	46,6
Jami mintaqa bo‘yicha	306,0	324,7	347,7	360,6	254,4	396,0	436,4	443,8

*mahalliy valyutada va doimiy narxlarda hisoblangan.

Shu bilan birgalikda Osiyo va Tinch okeani mintaqasida joylashgan bir qator mamlakatlar, jumladan, Vetnam, Laos, Kambodja, Mongoliya kabi iqtisodiyoti rivojlanyotgan davlatlar ham o‘z o‘rnini topmoqda.

BTT ekspertlari xulosalariga ko‘ra, Osiyo va Tinch okeani mintaqasida sharqiy, Janubi-sharqiy Osiyo va Okeaniya hududlari yaqin kelajakda o‘z mavqeini yanada yuksaltirish imkoniyatlari kattaligi bilan jahon turizmida yetakchilikni qo‘ldan chiqarmaydi.

[56] World Tourism Organization (UNWTO) yillik statistik ma’lumotlari asosida tuzilgan.

13.2.2-jadval

Osiyo va Tinch okeani mintaqasidagi rivojlangan davlatlarining turistik ko‘rsatkichlari[57]

Davlatlar nomi	Yillar bo‘yicha xizmat ko‘rsatilgan turistlar soni mln. kishi				Yillar bo‘yicha daromadlar mlrd. AQSH dol. his.		
	2010	2017	2018	2019	2017	2018	2019
Xitoy	55,7	60,7	62,9	65,7	38,6	40,4	35,8
Tailand	15,9	35,5	38,3	39,8	52,4	56,4	60,5
Yaponiya	8,6	28,7	31,2	32,2	34,0	42,1	46,1
Gong Kong (Xitoy)	20,1	27,9	29,3	23,8	33,3	36,9	29,0
Malaziya	24,6	26,0	25,8	26,1	18,4	19,6	19,8
Xindiston	5,8	15,5	17,4	18,2	27,4	28,6	30,0
Vetnam	5,0	12,9	15,5	18,0	8,9	10,1	11,8
Janubiy Koreya	8,8	13,3	15,3	17,5	13,4	18,6	21,6
Singapur	9,2	13,9	14,7	15,1	19,9	20,4	20,1
Avstraliya	5,9	8,8	9,2	9,5	41,7	45,0	46,0

13.3. Mintaqada ichki va xalqaro turizmning rivojlanish xususiyatlari

Osiyo va Tinch okeani mintaqasida ichki va xalqaro turizmning rivojlanishi xususiyatlari bo‘yicha tahlil qiladigan bo‘lsak, asosiy turistik harakatlar eng rivojlangan mintaqalardan biri Janubi-Sharqiy Osiyodir. Mintaqada asosan turizmning rivojlangan turlarini tahlil qilish uchun, bu hududda joylashgan davlatlar tomonidan taklif qilinayotgan turistik xizmatlar bilan tanishib chiqish lozim:

Vetnam turizm borasida nisbatan Yangi bozor bo‘lib, kurort-mamlakat hisoblanadi. Ushbu mamlakat quyidagi turizm turlari bilan mashhur: sohil oromgohlari; piyoda sayohatlar; tropik tabiat qo‘yniga

[57] World Tourism Organization (UNWTO) yillik statistik ma’lumotlari asosida tuzilgan.

sayr; mahalliy aholining hayoti bilan tanishishga mo‘ljallangan turpaketlar; baydarkada eshkak eshish; velosipedda sayohatlar.

Vetnamning eng mashhur kurortlari bo‘lib Xalong, Fukuok, Danang, Fantxiet, Vungtau, Dalat, Xyue hisoblanadi.

Nyachang kurortida esa ajoyib dengiz mahsulotlarini pishiriladi va shuning uchun ushbu kurortda kulinariya (oshpazlik) turizmi mashhur.

Vungtauda oilaviy va dam olish turizmi rivojlangan, chunki ushbu hududda qimmatbaho uylar (villalar) juda ko‘p. Dalat kurorti o‘zining chiroyli ko‘llari, sharsharalari va soylari bilan mashhurligi uchun ushbu hududda ekoturizm va sog‘lomlashtiruvchi turizm yaxshi rivojlangan.

Fantxiet kurortida ovchilik bilan bog‘liq ajoyib sayohat uyushtirish mumkin, chunki ushbu hududda kichik baliqchilik shahri qad ko‘targan.

Shuningdek, Fukuok orolidagi sohillarda dayving, ya’ni suzish va sho‘ng‘ish bilan bog‘liq turizm rivojlangan, ushbu orolda dayving markazi 2002-yilda ochilgan.

Kambodjada, ekskursion sayohat borasida juda ko‘p makonlar joylashgan. Ushbu sayohat qadimiy o‘rmonni, Kardamon va Filli tog‘larni, Tonlesap ko‘lini, mangrali o‘rmonlarni, Pnom Pendagi milliy muzeyni, Pnom Vatni, Pnom Pen pagodalarini, Tonle Bati maqbarasini va Pnom Pen qadimiy bozorlarini o‘z ichiga oladi.

Kambodjadagi yagona, ammo mashhur sohil Sianukvil hisoblanadi. Ushbu hudud o‘zining sohil turizmi bilan mashhur bo‘lib, mamlakat poytaxti Pnom Pendan 200 km. uzoqlikda joylashgan. Sohilda shuningdek dayving sporti yaxshi rivojlangan bo‘lib, ushbu hududdagi barcha yerlar xususiy sektor vakillari tomonidan sotib olingan, shuning uchun kelajakda Sianukvil eng mashhur sohillardan biriga aylanishi kutilmoqda.

Mamlakatda ekoturizm ham yaxshi rivojlangan bo‘lib, Sianukvildan 18 km. uzoqlikda Ream milliy bog‘i, shuningdek 140

ming gektarda joylashgan, o‘rmon va tog‘ savannalaridan iborat Bokor milliy bog‘i joylashgan.

Rong orolida vulqonli tog‘lar juda ko‘p bo‘lib, ular dengiz sathidan 460 metr balandlikda joylashgan, namli musson o‘rmonlari, kichik balandliklar va sharsharalar bilan qoplangan. Ushbu hududga ko‘pincha ko‘p muddatli, maxsus lager va sayohatlar uyushtirish imkoniyati mavjudligi tufayli, turistlar ushbu hududni xush ko‘rishadi.

Laosda odam oyog‘i yetmagan, Janubi-sharqiy Osiyoning eng qadimiy makonlari saqlanib qolgan. Ushbu hududga ekskursiyalarni uyushtirishda, mamlakat poytaxti Ventyan, uning qadimiy poytaxti Luang-Prabang, Ko‘zalar vodiysi bilan mashhur Pxonsavan shahri, Pakse shahridagi Pu Champassak maqbarasi, va qadimiy urf-odatlari bilan mashhur Luang Namxta viloyatini e’tiborga olish lozim.

Ekoturizm borasida ham ushbu mamlakat juda qiziqarli bo‘lib, hayvonot olamiga boy hududlari, delfinlarga to‘la Don Kxon oroli bilan mashhur. Luang Namxta viloyatidagi qo‘riqxona-o‘rmonlar davlat tomonidan himoyalanadigan hududlardir. Oudomosay, Luang Barang viloyatlari o‘zining sharsharalari bilan, Xuapxanx va Kxammounay viloyatlari esa o‘zlarining ajoyib g‘orlari bilan mashhur.

Laosda turizmning rafting turi, ya’ni sharsharalarda va cho‘qqilarda qayiqda suzish ekstremal sport turi bilan bog‘liq turizm uchun juda ko‘p makonlar mavjud. Mekong hududi, Nam Lik va Nam Ngun hududlari shular jumlasidandir.

Shuningdek, ushbu mamlakatning ko‘pgina hududlarida, jumladan Vang-Vietda yana bir ajoyib turistik xizmatdan, ya’ni tyubing sayohatidan bahra olish mumkin. Ushbu xizmatda rezina xalqona jilg‘ilar va daryolar qirg‘oqlarida sayr qilish nazarda tutilgan. Yo‘l-yo‘lakay esa ajoyib restoranlarda, jumladan daryo bo‘yidagi barlarda oshpazlik turizmidan ham bahra olishingiz mumkin.

Bundan tashqari, Laosda trekking, ya’ni vilosipedda sayr qilish uchun ajoyib hududlar mavjud bo‘lib, Bolaven tekisligi va

Luangnamxta viloyati bunday turizm uchun juda qulay hududlar hisoblanadi.

Myanmada sohil oromgohlari mashhur bo‘lib, ular orasida Sandovay shahridan 7 km. uzoqlikda joylashgan Ngapali sohillari alohida o‘ringa ega. Ushbu sohillar Bengal qo‘ltig‘i bo‘ylab cho‘zilgan. Pateyn shahridan 40 km. uzoqlikdagi Chang-Ta sohillarida esa nafaqat sohil turizmidan, balki dengiz krablaridan ajoyib taomlarni taklif qiluvchi kulinar turizmdan bahra olish mumkin. Shuningdek, 2000-yilda ochilgan Ngve-San sohili va Andamand dengizi sohillari bo‘ylab cho‘zilgan Letkokon sohili eng mashhur sohillardan hisoblanadi.

Myanmani Bengal qo‘ltig‘i va Andamand dengizi suvlari yuvib turganligi uchun, ushbu mamlakatda dayving bilan bog‘liq turizm juda mashhurdir. Turizmning bu turi ayniqsa, Merguy arxipelagida joylashgan Qora cho‘qqilar, qizil sakkizoyoqlar makoni bo‘lgan G‘arbiy quyulishlar va Akula G‘ori juda maqbul hisoblanadi.

Ekoturizm uchun mamlakatda yetarlicha sharoit yaratishga e’tibor berilgan, 1984-yilda Alangdo-Katpa Milliy bog‘i yaratilgan. Yangondan uncha uzoq bo‘lmagan Xloga bog‘i, Kachin shtatida joylashgan Xkakobo Razi milliy bog‘i turli o‘simliklar, hasharotlar va hayvonot dunyosiga boy hudud hisoblanadi.

Ekoturizm uchun baliqlarga to‘la Inle ko‘li, dengiz parkini o‘z ichiga olgan Lampi oroli ham ajoyib makonlar hisoblanadi.

Myanmada piyoda sayohat juda mashhur hisoblanadi. Turizmning ushbu turi Shan shtatidan Pinday shahrigacha bo‘lgan hududni, ya’ni Shimoldan janubgacha bo‘lgan marshrutni o‘z ichiga oladi.

Tailandda ham sohil oromgohlari mashhur bo‘lib, ushbu sohillar ko‘pincha turistlar tomonidan jannatga qiyoslanadi. Pattayya, Rayong, Cha-Am, Xua-Xin, Krabi, Ko Samet orollari, Pxuket kabi kurort makonlar ushbu hududga zeb berib turadi. Pattayya ko‘ngilochar turizm uchun mo‘ljallangan kurort bo‘lib, chiroyli mehmonxonalar,

barlar, savdo majmualari bilan mashhur. Rayong Tailand qo‘ltig‘ining 100 km. hududini egallagan. Ushbu hududda osoyishta baliqchilik sohillari, dengiz mahsulotlariga va rassomlik ishlanmalariga boy bozorlar ko‘pdir. Cha-An va Xua-Xin kurortlari esa, mamlakat rahbarlarining ham yoqtirgan kurortlaridan hisoblanadi.

Ko Chang orolining janubiy qismida qo‘riqxona tashkil etilganligi tufayli, ushbu hududda ekoturizm bilan shug‘ullanish mumkin. Bundan tashqari, ekoturizm uchun, fil boshini eslatganligi tufayli, Tai tilidan “Fil boshi” deb tarjima qilinadigan ushbu orol haqiqatdan ham mo‘jizakor hisoblanadi.

Pxi hamda Lanta orollari suzish va yakka turizm uchun juda osoyishta hududlar hisoblanadi, shuning uchun bu yerda individual turizm va dayving juda mashhur. Ushbu hududda baland imoratlar qurish taqiqlanganligi tufayli, qadimiy yodgorliklar saqlab qolingan. Shu sababli, dayving va individual turizmdan tashqari, ekzotik va tarixiy obidalar bilan bog‘liq turizm ham rivojlangan. Dayving uchun Pxuket, Ko Tao orollari ham maqbul hududdir.

Ekskursiyalar borasida, Taylandda Bangkok, Chiangmay shaharlari, Pxuket, Pxi-Pxi, Samui, Ko Chang orollarida joylashgan milliy bog‘lar va qo‘riqxonalar alohida ahamiyat kasb etadi.

Malayziyaning ekskursion dasturi juda xilma-xildir. Tabiiy meroslar – milliy bog‘lar, qo‘riqxonalar, tog‘ yon-bag‘rlari, Borneo orolidagi o‘ziga xos g‘orlar ushbu dasturning asosiy qismini tashkil etadi. Turli milliy an’analar bo‘yicha qurilgan me’moriy obidalar, ochiq osmon ostidagi muzeylar, malay xalqining urf-odatlari, hunarmandchiligi va me’morchiligi to‘g‘risida ajoyib taassurot qoldiradi.

Langkavi va Penang, asosiy kurort orollar bo‘lib, ushbu orollarda yil bo‘yi havo harorati 30 gradus issiqlikda saqlanib turadi. Janubiy Xitoy dengizi suvlari yuvib turuvchi Terrengganu va Paxang, shuningdek Djoxor hududlarida, shuningdek Malakk yarimorolining

eng mashhur kurorti Desaru dengiz kurortida sog‘lomlashtirish bilan bog‘liq turizm ancha yaxshi rivojlangan.

Desaru kurortida, ko‘ngilochar turizm yaxshi rivojlangan, chunki ushbu hududda golf maydonlari, turli restoranlar va mehmonxonalar qad rostlagan.

Malakka yarimorolini sharqiy qismini egallagan Pantay-Bisikan sohili turizmning syorfing (taxta yordamida suv ustida suzish) va vindsyorfing (yelkanli taxtada suv ustida suzish) turlari uchun juda maqbul sohil hisoblanadi. Dunyoning turli burchaklaridan turistlar ushbu sohilga syorfing bilan shug‘ullanish va kit-akulalarni tomosha qilish uchun tashrif buyuradilar.

Ekoturizm ham Malayziya turizm bozorining muhim sohalaridan hisoblanadi. Turizmning ushbu turini rivojlantirish uchun, Tunku-Abdul-Raxman milliy bog‘i, Lambir-Xill milliy bog‘i tashkil etilgan. Bu bog‘lar boy tabiiy resurslari bilan turli xalqaro turistlarni jalb etib kelmoqda. Sabax shtatining tabiiy bog‘lari esa qirg‘oq-oldi orollari va akvatoriylar bilan bog‘liq turizm uchun qulay hududlar hisoblanadi. Shuningdek, ushbu hududda ekoturizmning boshqa yo‘nalishlarini rivojlantirish uchun, Palau-Payar dengiz parki, Rantau Abang sohil-qo‘riqxonasi kabi mo‘jizakor hududlar tashkil etilgan.

Bruney islom dunyosining mashhur mamlakatlaridan biri hisoblanadi. Jamoat joylarida qonun-qoidalar juda ham qat’iy. Spirtli ichimliklar 1991-yildan boshlab man qilingan. Bu mamlakatga asosan turistlar faqat mamlakatning tarixiy yodgorliklari va madaniyati bilan tanishish uchun tashrif buyuradilar.

Bu mamlakatdagi asosiy qiziqarli joy – 205 ming kv. metr hududni egallagan Istana-Nurul-Sulton saroyidir. Bundan tashqari, bu yerdagi 1958-yilda qurilgan Umar-Ali-Sayfuddin machiti ham sumn’iy qirg‘oqda qurilganligi tufayli, ko‘rkam va ko‘zga tashlanarli joy hisoblanadi. Keyingi o‘rinda 29 ta oltin gumbazlardan iborat Asr-Xassanil-Balqia-Moske machiti turadi.

Bruneyda shuningdek, tabiat mo‘jizalari hisoblangan suv ustidagi qishloqlarda, tabiat qo‘ynidagi turizmdan bahra olish mumkin. Ushbu qishloqda dunyodagi eng uzun Liana Rotang o‘simligi va eng yirik gul – Arnoldi raffleziyasi o‘sadi.

Indoneziyada eng mashhur dam olish maskani Bali oroli hisoblanadi. Ba’zi turistlar hattoki Baliga turpaketlar uchun buyurtma berishayotganlarida, ushbu orolga Indoneziyaning bir qismi sifatida emas, balki orol-davlat sifatida qarashadi. Ushbu orolda mashhur Nusa-Dua kurorti joylashgan. Ushbu kurort atrofida juda ko‘p qimmatbaho mehmonxonalar joylashgan. Kuta kurorti nisbatan arzon bo‘lib, yoshlar orasida ommabop hisoblanadi, chunki ushbu kurort atrofida juda ko‘p barlar va raqs maydonchalari qurilgan.

Oilaviy dam olish uchun Sanur dam olish maskani qulay hisoblanadi. Ushbu kurort Bali orolining janubida joylashgan bo‘lib, bolalar uchun Taman festival-istirohat bog‘i qurilgan.

Dayving uchun juda ko‘p sohillar Jakarta shimolida joylashgan. Ushbu sohillarning ko‘p qismi Lombok oroliga to‘g‘ri keladi.

Bali orolidagi Kuta-bich, Yava orolidagi Gradjagan, Sumatra orolidagi Nias sohillari syorfing uchun qulay makonlar hisoblanadi. Shuningdek, rafting uchun mos keluvchi Kalimantan va Bali orollaridagi daryolar juda qulay hisoblanadi. Ushbu daryolarda, shuningdek, tabiat qo‘ynidagi turizmdan bahra olish mumkin.

Indoneziya hududida 500 dan ortiq vulqonlar bo‘lib, ularning 200 dan ortig‘i faol qulqonlar hisoblanadi. Ushbu vulqonlarga kasb bilan bog‘liq sayohatlar ehtiyoji orqali dunyoning turli burchaklaridan ko‘pchilik mutaxassislar tashrif buyurishadi. Shuningdek, ushbu mamlakatda Osiyoning eng katta krateri – 1775 kv. metr maydonga ega Toba krateri joylashgan.

Ekoturizm uchun Indoneziya tabiati juda rangbarang va qiziqarlidir. Mamlakatda 35 tadan ortiq bog‘lar mavjud bo‘lib, Udjung-Kulon, Komodo, Lorens, Kerinchi-Sabat milliy bog‘lari kabi bog‘lar, shuningdek Sumatra tropik o‘rmonlar tizimi YUNESKOning

Butunjahon meroslar ro‘yoxatiga kiritilgan. Sumatra orolida 10dan ortiq eng ekologik toza ko‘llar joylashgan. Janubi-Sharqiy Osiyoning eng katta vulqonli ko‘li – Toba ko‘li joylashgan. Shuningdek, ushbu mamlakatda Tadjung Puting kabi qo‘riqxonalar ham tabiat qo‘ynidagi turizm uchun qulay makonlar hisoblanadi.

Indoneziyaning ekskursiya dasturiga juda ko‘p yodgorliklar va me’moriy obidalar kiradi. Tana Lot maqbarasidagi quyosh botishini tomosha qilish, mashhur Pura Kenex maqbarasi, Pasar Budung qadimiy bozori, Merapi tog‘i bag‘ridagi guruch vodiysi, Taman-Gili qadimiy qirollar saroyi, Purbakala muzeyi kabi makonlarni ziyorat qilish buning dalili bo‘lishi mumkin.

Singapurdagi sohillardan eng mashhuri mamlakat markazi, ya’ni Singapur shahridan uncha uzoq bo‘lmagan Sentoza orolidir. Ushbu orolda oq qum bilan qoplangan sohillar, turli suv sporti turlari bilan bog‘liq turizm bilan shug‘ullanish mumkin. Shuningdek, orolda tropik o‘rmonlar, go‘zal bog‘lar, sport maydonchalari va o‘simlik bilan davolaydigan shifoxonalar (spa salonlari) mavjud.

Singapurdan kemada Bintan oroliga yetib olish mumkin. Ushbu orolda Singapur va Indoneziya hamkoroligida Malakka qo‘ltig‘ida kurort hudud barpo etilgan. Ushbu kurortda sportning turli turlari, shuningdek golf bilan shug‘ullanish uchun, bundan tashqari veloturizm bilan shug‘ullanish, piyoda sayohatlarni uyushtirish uchun barcha sharoitlar muhayyo.

Ushbu mamlakatda shuningdek, kruiz sayohatlar avj olgan, chunki Singapur daryosi bo‘ylab turli yo‘nalishlarda turistlar uchun mo‘ljallangan kema qatnovlari yo‘lga qo‘yilgan. Temir yo‘l masalasida esa, Bangkok va Singapur o‘rtasida oyiga uch marta qatnaydigan “Sharqiy Ekspress” temir yo‘l yo‘nalishi mavjud. Ushbu temir yo‘l qatnov yo‘li faqat poyezdda sayohatni emas, balki yo‘l-yo‘lakay Janubi-Sharqiy Osiyodagi boshqa shaharlarga ekskursiyalar dasturini, Kvay daryosi bo‘ylab tabiat qo‘ynidagi turizmni, turli

umumiy ovqatlanish muassasalaridagi oshpazlik turizmini ham taklif qiladi.

Nomi “Osoyishtalik oroli” degan nomni bildiruvchi Sintoza oroli Singapurning janubida joylashgan. Ushbu orolda egizak binolar (Sky Tower)ni, tarixiy o‘lkashunoslik bilan bog‘liq boshqa bir qator me’moriy obidalarni, suv ostidagi sayohatni o‘z ichiga olgan okeanariumni tomosha qilishni, Ziravorlar bog‘idan, Gullar Terassasidan, Kapalaklar va hasharotlar Bog‘idan bahra olishni taklif qiladi. Ko‘ngilochar sayohat uchun esa, ushbu oroldagi akvapark, suv havzalari, va o‘ziga xos attraksion-qishloqni tomosha qilish maqbul.

Shuningdek, ushbu orolda bir necha muzeylar joylashgan bo‘lib, madaniy xordiq uchun ular ajoyib maskanlar hisoblanadi. Dengiz muzeyi, qimmatbaho toshlar muzeyi, terrakot askarlar muzeyi kabi muzeylar shular jumlasidandir.

Singapur shahrida avtomobillarning harakati taqiqlangan. Ammo ushbu shaharda yuzlab velosiped va piyodalar yo‘lakchalari barpo etilgan bo‘lib, ular bo‘ylab ajoyib velosiped va piyoda sayohatlarni uyushtirish mumkin.

Pulau-Ubin orolida, baliqchilar qishloqlari va palmalarga boy sohillardan tashqari, oshpazlik bilan bog‘liq turizm uchun ajoyib sharoitlarga ega bo‘lgan bir necha rangbarang restoranlar barpo etilgan.

Singapurning janubida joylashgan orollarda ham turizmning bir necha qiziq turlari rivojlangan. Shu jumladan Siter-Aylendz orolida dayving uchun barcha sharoitlar yaratilgan, Pulau-Buran-Darat va Pulau-Renggit orollarida faol va yovvoyi tabiat qo‘ynidagi turizm bilan mashg‘ul bo‘lish mumkin. Musson shamollari davrida bu orollarda yaxting (yaxtada suzish) va vidsyorfing bilan shug‘ullanish maqsadga muvofiq.

Filippin orollaridagi qulay iqlim, doimiy tarzdagiga nisbatan iliq ob-havo (deyarli doim 25 darajadan yuqori issiqlik) ushbu mamlakatni sohil turizmi (plyaj turizmi) uchun dunyoning eng yetakchi

mamlakatga aylantiradi. Ushbu davlatdagi ko‘pchilik orollar kurort hududlarga aylantirilgan. Borakay orolidagi “Oq sohil” (White Beach) va Palavan orolidagi Honda Bay kurorti shunday maskanlardan hisoblanadi.

Dayving va syorfing uchun Palavan orolidagi chuqurliklar, Mindoro oroli, Luson oroli qirg‘oqlari, sakkizoyoqlar va yo‘lbars-akulalarga boy Nasugbu qo‘ltig‘i juda qulay makonlar hisoblanadi. Borakay orolidagi La Yunion sohili va qirg‘oqlari ekstremal turizm (xavfli sport turlari bilan bog‘liq turizm) uchun juda mos keladi.

Filippin “Tinch okeani olovli halqasi” deb nomlangan hududda joylashganligi sababli, ushbu mamlakatda 20dan ortiq faol vulqonlar mavjud. Luson orolidagi vulqonlarga, ko‘pincha ekskursiyalar uyushtirish taklif qilinadi. 1991-yilda kuchli otilishni namoyish etgan Pinatubo vulqoni, to‘g‘ri konus shakliga ega bo‘lgan Mayon vulqoni, dunyoda eng kichik vulqon bo‘lgan Taal vulqoni shular jumlasidandir. Ushbu vulqonlarga olimlar va mutaxassislar tomonidan ko‘pgina ekskursiyalar amalga oshiriladi.

Bir vaqtlar Filippin hududi tropik o‘rmonlar bilan qoplangan bo‘lgan, hozir ularning juda kam qismi saqlanib qolgan. Ammo, bu davlatning ekotizimini tomosha qilishga oshiqayotgan turistlarning soni kamaygani yo‘q. Ekoturizm uchun eng maqbul joylar jumlasiga Palavan oroliga turli hayvonot va hasharotlar dunyosini tomosha qilish uchun otlanish mumkin.

Filippin bir vaqtlar ispanlar tomonidan ochilgan, ekzotik mamlakat hisoblanadi. Ushbu hududda ekskursiya amalga oshirish uchun juda ko‘p maqbaralar va cherkovlar mavjud. Shuningdek, dayving va sohil turizmi uchun qulay joy sifatida tan olinadi.

13.4. Xalqaro turizm dinamikasi

Zamonaviy dunyoda turizm xalqaro iqtisodiy faoliyatning eng muhim yo‘nalishlaridan biri bo‘lib, xizmatlar, tovarlar, valyuta,

bandlik va investitsiyalarni bevosita ishlab chiqaradi. Turizm rivojlanayotgan xizmat koʻrsatish sohasiga aylangan mamlakatlarda milliy taraqqiyotga ulkan iqtisodiy va ijtimoiy ta’sir koʻrsatadi. Shu bilan birga, turizm bozorida yuzaga kelayotgan oʻzgarishlar, xalqaro turizmning jadal rivojlanayotgan sanoatida Yangi tendensiyalarning paydo boʻlishini ta’kidlash lozim. Turizmni rivojlantirishning asosiy xususiyatlaridan biri turistik oqimlarning dunyoning turli mintaqalari va mamlakatlarida notekis taqsimlanishidir. Turistik oqimlar dunyoning bir qancha mintaqalarida toʻplangan boʻlib, ularning harakati asosan mintaqalararo xarakterga ega.

Tadqiqotchilarning qayd etishicha, turistlarning xizmat koʻrsatishga boʻlgan talablari ortib borishi bilan bir qatorda turistik mahsulotning oʻzi ham rang-barang boʻlib, uning mehnat intensivligi va kapital sigʻimlari ortib bormoqda. Bu koʻp jihatdan turizmning Yangi turlarining paydo boʻlishi va butun jahon turizm sanoatining barqaror rivojlanishi bilan bogʻliq. Soʻnggi besh yil ichida turizm sanoati ham rekreatsion, ham umuman turizm resurslarini saqlash va rivojlantirishning oʻtkir muammosiga duch keldi.

Osiyo-Tinch okeani mintaqasi turizm rivojlanishi dinamikasiga qaraydigan boʻlsak, mintaqa yetakchilari Janubiy Osiyo va shimoli-sharqiy Osiyodir. Shuningdek, ularning barqaror sayyohlik koʻrsatkichlarining hisobiga soʻnggi yillardagi tendensiyani mustah-kamladi. Mintaqadagi Yaponiya, Koreya Respublikasi va Malayziya kabi davlatlar iqtisodiyotida raqamli texnologiyalar keng qoʻllanilishi orqasidan katta yutuqlarga erishmoqda. Mintaqadagi soʻnggi yillardagi iqtisodiy oʻsish, infratuzilmani rivojlantirishga investitsiyalarni keng jalb etish va viza rejimini soddalashtirish choralaridan foyda koʻrmoqda.

Boy va noyob madaniyati, rang-barang tabiati va xizmat koʻrsatish standartlari Osiyo-Tinch okeani mintaqasini xalqaro sayyohlar uchun jozibador qiladi. Mintaqada turizmning oʻsish istiqbollari globallashuv, transport, infratuzilmadagi oʻzgarishlar, aholi

sonining ko‘payishi va mintaqaviy sayohatlarning rivojlanishi kabi bir qator omillar bilan belgilanadi. Shu bilan birga, turizmning rivojlanishiga to‘sqinlik qiluvchi bir qator omillar (masalan, viza rasmiylashtiruvi va chegarani kesib o‘tish), shuningdek, tabiiy ofatlar, sog‘liq va xavfsizlikka bevosita ta’sir qiluvchi turli xil kutilmagan zarbalar mavjud.

Osiyo-Tinch okeani mintaqasida havo transporti sanoati butun dunyoda, jumladan, turizm rivojlanishini belgilovchi asosiy omil hisoblanadi. Uning o‘sish sur’ati jahon iqtisodiyotining umumiy rivojlanishidan ikki baravar ko‘p va keyingi yigirma yil ichida yanada o‘sishi kutilmoqda. Osiyo-Tinch okeani mintaqasi arzon mintaqaviy tashuvchilarning global o‘sish tendensiyasini kengaytirmoqda. Osiyo-Tinch okeani mintaqasida Avstraliya mintaqa davlatlari orasidagi uzoq masofali yo‘nalishlarga arzon narxlardagi aviakompaniya xizmatlarini taklif qilgan birinchi mamlakatlardan biri bo‘ldi. Janubi-sharqiy Osiyoda arzon narxlardagi mintaqaviy tashuvchilar Malayziya, Singapur va Tailandda rivojlangan. Ushbu aviakompaniyalarning barchasi qo‘shni mamlakatlarga arzon narxlardagi yo‘nalishlarni taklif qiladi. Hamkorlik va integratsiyani rivojlantirishga yordam beradigan quruqlikdagi transportning yo‘llari tarmog‘i ham rivojlangandir.

Osiyoning rivojlangan avtomobil yo‘llari tarmog‘i orqali bog‘langan mamlakatlar turistik nuqtai-nazardan boy tarixiy va madaniy merosga egadir. Osiyo-Tinch okeani mintaqasidagi muhim transport infratuzilmasi Trans-Osiyo temir yo‘li bo‘lib, temir yo‘l sayohati milliy va xalqaro sayyohlik oqimlarida muhim rol o‘ynashi mumkinligini tushunish va hisobga olish tufayli ulkan sayyohlik salohiyatiga ega. So‘nggi yillarda sayyohlik maqsadlarida temir yo‘l transportidan foydalanishning kuchayishi natijasida dengizga chiqish imkoni bo‘lmagan mintaqadagi 12ta mamlakat eng yaqin portlar va xalqaro aeroportlardan uzoqda bo‘lishiga qaramay, turizm uchun qulayroq bo‘lib bormoqda.

Osiyo-Tinch okeani mintaqasining bir qator mamlakatlarida temir yo‘l transportiga asoslangan turizm dasturlari allaqachon ishlab chiqilgan.

Xalqaro turizm milliy taraqqiyotga qanchalik hissa qo‘shishi, sayohat va turizmdagi to‘siqlarni qanday kamaytirishni hal qilishda muhim rol o‘ynaydi. Osiyo-Tinch okeani mamlakatlari doimiy ravishda viza talablari, ariza to‘lovlari va tartiblari va boshqa rasmiyatchiliklarni doimiy ravishdv qayta ko‘rib chiqmoqda. Aksariyat mamlakatlar viza talablarini yumshatish milliy xavfsizlikka tahdid solishi mumkin, deb hisoblaydi va ular faqat turizm uchun vizalarni bekor qilishni joriy qilmoqda.

Osiyo-Tinch okeani mintaqasiga tashrif buyurayotgan turistlarning tarkibida 18% Yevropa va Amerika mintaqasiga to‘g‘ri keladi. Afrika, Yaqin Sharq tashrif buyurayotgan turistlar umumiyda 3%dan oshmaydi. Osiyo-Tinch okeani mintaqasida, xuddi Amerikada bo‘lgani kabi, turistlarning kelishi asosan ma’lum bir turistik markazlarga qaratilgan. Buning natijasida mintaqada turistik harakatlar Sharqiy, janubi-sharqiy Osiyo va Okeaniyada bir tekis taqsimlangan. Umuman olganda, asosiy turistik oqimlar sharqiy Osiyoga (56,9%), ikkinchi eng muhim subregion – janubi-sharqiy Osiyo (33,5%), Avstraliya va Okeaniya esa kichik bozor ulushiga ega – 9,6%.

Osiyo-Tinch okeani mintaqasiga sayyohlar kelishi ko‘p jihatdan Xitoydagi turizm bozorining holatiga bog‘liq bo‘lib, mintaqaga, shu jumladan Gonkongga tashrif buyuruvchilarning uchdan bir qismini tashkil qiladi. Xitoyda amalga oshirilgan siyosiy va iqtisodiy islohotlar ichki turizmni rivojlantirishga ijobiy ta’sir ko‘rsatdi. Xitoyning boy turizm resurslari sharqiy Osiyo va umuman Tinch okeani mintaqasi turizm modelini tubdan o‘zgartirish imkonini berdi. Xitoyga kelayotgan sayyohlar oqimining qariyb 60 foizi Malayziya, Indoneziya, Koreya Respublikasi, Rossiya, Mo‘g‘uliston kabi qo‘shni davlatlar hissasiga to‘g‘ri keladi.

Osiyo-Tinch okeani mintaqasida Xitoydan tashqari, mashhur sayyohlik yo‘nalishlari Osiyoning Yangi sanoatlashgan mamlakatlari Malayziya, Singapur, Tailand, Koreya Respublikasi, Indoneziya va Tayvan hisoblanadi. So‘nggi paytlarda amalga oshirilgan iqtisodiy o‘zgarishlar mintaqaga ishbilarmonlik sayohatlarining ko‘payishiga yordam berdi. Ishbilarmonlik turizmi mehmonxona biznesining, umuman turizm industriyasining rivojlanishiga turtki bo‘lgan. Bugungi kunda bu mamlakatlar turistlarni, birinchi navbatda, ekzotik tabiati, plyajda dam olish imkoniyati yuqoriligi bilan o‘ziga jalb qiladi. Bundan tashqari, Gonkong va Singapur ajoyib shoping turizmi markazlari sifatida tanilmoqda.

Tailandning turistik infratuzilmasi turli xil yo‘nalishdagi turistlar uchun mo‘ljallangan. Mehmonxonalarning aksariyati mamlakat poytaxti Bangkokning markazida joylashgan, jumladan, 1887-yilda qurilgan eng qadimgi mehmonxona ham faoliyat ko‘rsatadi. Bangkokning janubida Tailandning eng muhim kurortlaridan biri – Pattaya joylashgan. Bu kichik shaharchaga har yili Yevropa va sharqiy Osiyodan 5,5 milliongacha sayyoh tashrif buyuradi. Deyarli butun qirg‘oq plyajlar bilan band bo‘lib, ularda ko‘plab mehmonxona majmualari qurilgan. Shahardan unchalik uzoq bo‘lmagan joyda bir nechta timsoh, yo‘lbars, fil fermalari mavjud bo‘lib, ularda doimiy ravishda sayyohlar uchun hayvonlar ishtirokidagi barcha turdagi tomoshalar tashkil etiladi. Janubi-sharqiy Osiyodagi eng go‘zal botanika bog‘i ham mavjud. Mamlakat shimoli va shimoli-sharqining bir qismi o‘rmonlar bilan qoplangan va kichik ko‘llar mavjud.

Keyingi paytlarda sharqiy va janubi-sharqiy Osiyo hamda Okeaniya mamlakatlari o‘rtasida iqtisodiy va madaniy aloqalarning mustahkamlanishi tufayli mintaqalararo turistlar oqimi ortib bormoqda. Har o‘nta sayohatdan yettitasi mintaqa ichida va faqat uchtasi – tashqi turizmda, asosan Yevropa va Amerikaga tashrif buyuradi. Mintaqaga Yevropa va shimoliy Amerikadan ko‘proq

sayyohlarni jalb qilish maqsadida mamlakatlar turistik xizmatlar uchun maxsus narxlar belgilashni joriy qilmoqda.

Mintaqa mamlakatlarida sanoatning jadal rivojlanishi turizmning bandligi va inson resurslarining rivojlanishiga bevosita ta’sir qildi. Turizm sohasi mutaxassislariga va tegishli ta’lim ta’lim muassasalariga talab ortib bormoqda. Umuman olganda, Osiyo-Tinch okeani mintaqasida xalqaro turizmning nisbatan notekis rivojlanishi bashorat qilishni qiyinlashtiradi. Biroq, UNWTO ekspertlari mintaqalararo va mintaqa ichidagi sayyohlik almashinuvi jonlanishini bashorat qilmoqdalar va kelgusi yillarda sharqiy va janubi-sharqiy Osiyo va Okeaniya dunyodagi eng tez rivojlanayotgan turistik mintaqalardan biri sifatida o‘z pozitsiyalarini saqlab qolishlariga ishonishmoqda.

Nazorat uchun savollar

1. Osiyo va Tinch okeani mintaqasining turistik salohiyatini tushuntirib bering?
2. Osiyo va Tinch okeani mintaqasining jahon turizmida tutgan o‘rni va rolini tushuntiring?
3. Osiyo va Tinch okeani mintaqasida ichki turizmning rivojlanishini tahlil qiling?
4. Osiyo va Tinch okeani mintaqasida xalqaro turizmning rivojlanish xususiyatlarini tushuntiring?
5. Osiyo va Tinch okeani mintaqasida xalqaro turizm dinamikasini tahlil qiling?
6. Osiyo va Tinch okeani mintaqasida turizm rivojlanishi istiqbollari to‘g‘risida tushuncha bering?

14-BOB. YAQIN SHARQ MINTAQASINING IQTISODIY-SIYOSIY VA TURIZM GEOGRAFIYASI

14.1. Yaqin Sharq mintaqasining iqtisodiy va siyosiy geografik o‘rni, maydoni, chegaralari.

14.2. Tabiiy sharoiti va resurlarining mamlakatlar iqtisodiyotidagi o‘rni.

14.3. Mintaqaning jahon turizmida tutgan o‘rni va roli.

14.4. Mintaqada ichki va xalqaro turizmning rivojlanish xususiyatlari.

14.1. **Yaqin Sharq mintaqasining iqtisodiy va siyosiy geografik o‘rni, maydoni, chegaralari**

Yaqin sharq asosan g‘arbiy Osiyoda va qisman shimoliy Afrikada, janubiy va sharqiy Yevropa chegarasida joylashgan hududning tarixiy nomidir. Yaqin Sharq nomini mintaqaga eng yaqin bo‘lgan yevropaliklar qo‘ygan. Mintaqaning asosiy aholisi arablar, forslar, ossuriyaliklar, ozarbayjonlar, yahudiylar, misrliklar, kurdlar va turklardir. Shuningdek, armanlar, gruzinlar, yunonlar, albanlar va bosniyaliklarning bir qismi yashaydi. Yaqin Sharqda 350-360 million musulmon (turklar, forslar, kurdlar, arablar va boshqalar), 60-70 million xristianlar (armanlar, Anadolu yunonlari, gruzinlar, ossuriylar va boshqalar) yashaydi.

Yevropa va Afrikadan Osiyoga asosiy yo‘l Yaqin Sharqdan o‘tadi. Iqlimi asosan qurg‘oqchil, sug‘orish uchun ishlatiladigan bir qancha yirik daryolar mavjud. Yaqin Sharq sayyoramizning muhim neft qazib oluvchi hududidir.

BMT tasnifiga ko‘ra, Yaqin Sharq g‘arbiy Osiyoni qamrab oladi. Tarixan olib qaraydigan bo‘lsak, 1939-yilda Usmonli imperiyasining sobiq yerlarida tashkil etilgan. 1917-yilgacha bo‘lgan davrlardagi adabiyotlarda Yaqin Sharq atamasi ishlatilmagan. Yaqin Sharq atamasi dunyo bo‘yicha 1967-yilda arab-isroil mojarosi munosabati bilan keng

tarqaldi. Dunyo matbuoti “Yaqin Sharq ustidagi bulutlar” haqida faol yoza boshladi. Yaqin Sharq mintaqasi chegaralari o‘ziga xosdir, chunki mintaqa Janubiy Yevropa va shimoliy Afrikaning chorrahasida joylashgan va Osiyoning boshqa mintaqalaridan ancha farqlanadi. Uning o‘ziga xos ijtimoiy tuzilishi va madaniyatga ega.

Yaqin Sharqning Osiyo qismi G‘arbiy Osiyo iqlimi va relyefi bilan deyarli bir xil. Mintaqa hududining relyefi juda xilma-xildir. Mintaqaning janubiy qismida qadimgi platolar, shimoliy qismini esa burmali tog‘lar va tektonik jarayonlar natijasida hosil bo‘lgan tog‘lararo botiq va yoriqlar egallagan. Janubiy qismidagi platolar shimoliy Afrika hududiga ham kiradi; keng platolar va cho‘llar (Liviya cho‘llari, Nubiya cho‘llari va Sahroi Kabir) bor. Ammo, birinchi navbatda, Adan ko‘rfazi va Qizil dengizni o‘z ichiga olgan ulkan rift zonasi shaklida aniq dislokatsiyalar mavjud. Geologik davrda bu yerda lava oqimlarining shakllanishi va vulqon konuslarining shakllanishi bilan magma otilishi sodir bo‘lgan. Mintaqa Shimolida tor vodiylar bilan chegaradosh baland qirrali cho‘qqilari, chuqur daralar va tiniq qoyalarga ega bo‘lgan yosh burmali tog‘lar kabi relyef turini ko‘rish mumkin. Ushbu ikkita asosiy zona Suriya, Iordaniya, Livan va Iroqda kamroq kontrastli relyefga ega o‘tish zonasi bilan bog‘langan.

Bu yerda cho‘l platolari o‘rnini silliqroq landshaft egallaydi. Bu oraliq zona Yaqin va O‘rta Sharq iqtisodiyoti va tarixida katta ro‘l o‘ynagan. Bu yerda eng qadimiy aholi punktlaridan biri joylashgan bo‘lib, tabiiy resurslari jihatidan oldingi davrlarda tabiiy neft zaxiralarining shakllanishi uchun qulay sharoitlar mavjud edi. Mintaqaning geologik tarixining yana bir xususiyati tebranishli tektonik harakatlar bo‘lib, ular daryo va dengiz terassalarining shakllanishiga sabab bo‘lgan. Aynan shu kichik va nisbatan tekis va ixcham, unumdor tuproqlar qoplagan hududlar qadimgi aholi punktlari va dehqonchilikni rivojlantirish uchun juda qulay joylar. Yaqin va O‘rta Sharq hududi uchta yirik suv zonasining suvlari bilan o‘ralgan –

Qora dengiz (sovuq va tez-tez bo‘ronlar), o‘zgaruvchan O‘rta yer dengizi va issiq Hind okeani.

14.2. Tabiiy sharoiti va resurlarining mamlakatlar iqtisodiyotidagi o‘rni

Mintaqa uchta asosiy iqlim zonasida joylashgan va har birida havo massalarining maxsus aylanishi mavjud: issiq va qurg‘oqchil Sahro, o‘zgaruvchan va asosan nam iqlimi bo‘lgan Yevropa qit’asi va yozning issiq oylari va qishi sovuq bo‘lgan Osiyo. Natijada sezilarli harorat amplitudalari va yog‘ingarchilik miqdori, shuningdek, har xil tabiatning iqlim ta’sirining almashinishi mavjud. Iqlim farqlari turli xil topografiya va qirg‘oq chizig‘iga va hukmron shamollarga nisbatan turli xil pozitsiyalarning mavjudligi bilan kuchayadi. Bunday keskin qarama-qarshiliklarga misol qilib, Bayrut va Damashq o‘rtasidagi 105 km. uzunlikdagi hududni keltirish mumkin.

Bayrut issiq, nisbatan tor qirg‘oq tekisligida joylashgan bo‘lib, u yerda iqlim sharoiti banan yetishtirishga imkon beradi va yomg‘ir shaklida yillik jami 890 mm.dan ortiq yog‘ingarchilik bo‘ladi. Sohildan 15 km. Sharqda joylashgan tog‘larda qor qoplami noyabrdan iyungacha saqlanadi va qishki sport turlarini rivojlantirish imkoniyatini beradi.

Damashq cho‘ldagi voha bo‘lib, yozgi harorat Bayrutga qaraganda 18° yuqori, qishda esa ancha sovuqroq. Fors ko‘rfazining cho‘l qirg‘og‘ida iqlim issiq va quruq, namlik juda yuqori. Yaqin va O‘rta Sharqning iqlim sharoitini tavsiflab, shuni ta’kidlash mumkinki, yoz oylarining o‘rtacha harorati taxminan 30°ni tashkil qiladi, qishda esa ichki qismda, ayniqsa Shimoliy Iroq va Eronning bir qator hududlarida juda salqin.

Sohilbo‘yi hududlarida havo yumshoq va issiq. O‘rganilayotgan hudud yog‘ingarchilikning kamligi bilan ajralib turadi, hududning katta qismini cho‘l va chala cho‘llar egallaydi, ular yozgi va qishki haroratning ichki qismida kuchli farqlar natijasida paydo bo‘lgan,

namlik miqdori yuqoridir. Livanning g‘arbiy qismida yil davomida atigi 77 yomg‘irli kun bo‘lib, 1000-1500 mm yog‘ingarchilik bo‘lishi mumkin. Mamlakat janubidagi ichki hududlarda bir necha yil davomida yomg‘ir yog‘masligi mumkin. Biroq, ba’zi hududlarda ba’zi bir yillarda me’yoridan ortiqcha yog‘ingarchilik bo‘ladi.

Yaqin va O‘rta sharqning o‘ziga xos iqlim sharoiti noyob o‘simlik turlarining rivojlanishi uchun qulaydir. Bularga eng issiq va eng qurg‘oqchil mavsum boshlanishidan oldin pishib yetiladigan vegetatsiya davriga ega o‘tlar va ekinlar, shuningdek, issiq va quruq sharoitga moslashgan o‘simliklar kiradi. Shuning uchun mintaqaning florasi juda xilma-xil bo‘lib, unda ko‘plab madaniy turlar, jumladan, mevali daraxtlar mavjud. Shu bilan birga, mintaqada dunyoning boshqa mintaqalaridan keltirilgan o‘simliklarni yetishtirish uchun ham qulay sharoitlar mavjud.

Mintaqadagi mamlakatlarning minerallarga boy (fosfatlar, temir rudalari, rux, boksit, xrom va boshqalar) bo‘lib, katta konlar yuqori Misrdagi Asvon yaqinida joylashgan, xrom va mis Yaqin va O‘rta Sharqning Shimoliy va markaziy qismlaridagi tog‘larda uchraydi. Fosfat konlari Marokashda, shuningdek, Iordaniya va Misrda qazib olinmoqda. Iordaniya va Isroildagi O‘lik dengiz turli xil kimyoviy moddalarga boy bo‘lib, ulardan eng qimmati bromdir. Mintaqada oltin, volfram, marganets, yarim qimmatbaho toshlar, kinobar va abraziv materiallarning kichik zaxiralari, shuningdek, sement ishlab chiqarishda foydalaniladigan ohakning katta konlari mavjud.

Jahon energetika xo‘jaligida Yaqin Sharq mintaqasi alohida o‘ringa ega. Yaqin Sharq mintaqasining Fors qo‘ltig‘i atrofida 8 ta davlat joylashgan bo‘lib, ulardan 6 tasi – Saudiya Arabistoni, Birlashgan Arab Amirliklari (BAA), Ummon, Qatar, Quvayt, Bahrayn – tabiiy geografik, ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy, demografik va milliy-madaniy jihatdan bir-biriga ancha o‘xshaydi. Bu mamlakatlar guruhi Fors qo‘ltig‘i arab davlatlari deb ataladi.

Fors qo‘ltig‘idagi kichik orollarda joylashgan Bahrayndan tashqari, shu guruhdagi barcha davlatlar Arabiston yarimorolida joylashgan. Mintaqa iqtisodiy geografik o‘rnining qulayligi uchta qit’a – Osiyo, Afrika va Yevropa tutashgan hududda, xalqaro ahamiyatdagi dengiz yo‘llari bo‘yida joylashganligi bilan belgilanadi. Yaqin Sharq mintaqasidagi Fors qo‘ltig‘i arab davlatlari maydoni va aholisi soni jihatdan bir-biridan farq qiladi (14.2.1-jadval).

14.2.1-jadval

Yaqin Sharq mintaqasining fors qo‘ltig‘ida joylashgan arab davlatlari haqidagi umumiy ma’lumotlar

Davlatlar nomi	**Poytaxti**	**Maydoni (ming. km^2)**	**Aholisi (mln. kishi, 2020 y.)**
Baxrayn	Manama	0,7	1,6
Birlashgan Arab Amirliklari	Abu-Dabi	85,7	10,2
Quvayt	Al-Quvayt	17,8	5,3
Qatar	Doxa	11,4	3,2
Saudiya Arabistoni	Ar-Riyod	2150	35,2
Ummon	Maskat	309,5	5,4

Yaqin Sharq mintaqasidagi Fors qo‘ltig‘idagi hududiy va demografik salohiyati bo‘yicha eng yirik davlat – Saudiya Arabistoni. Qatar, Quvayt va Bahrayn esa kichik mamlakatlar hisoblanadi.

Fors qo‘ltig‘i arab davlatlarining barchasi monarxiya boshqaruv shakliga ega. Saudiya Arabistoni, Qatar, Ummon – mutlaq monarxiyalar, Quvayt va Bahrayn – konstitutsion monarxiyalar, BAA esa har biri mutlaq monarxiya hisoblanadigan yettita amirlik federatsiyasi bo‘lib, davlat tuzumida mutlaq va konstitutsion monarxiya elementlari uyg‘unlashgan.

Tabiiy sharoiti va resurslari**.** Arabiston yarimoroli relyefida tekislik va yassi tog‘liklar asosiy o‘rin egallaydi. Iqlimi tropik, yil

bo‘yi issiq va quruq. Yozda kunduzi havo harorati odatda +50ºC dan yuqori bo‘ladi, kechasi esa 0ºC gacha tushishi mumkin. Yillik yog‘in miqdori 100 mm.ga yetmaydi. Fors qo‘ltig‘i mintaqasida asosiy tabiat zonasi tropik cho‘llardir.

Fors qo‘ltig‘i davlatlarining asosiy tabiiy boyligi ulkan neft va gaz zaxiralari hisoblanadi. Neft zaxiralari bilan, ayniqsa, Saudiya Arabistoni, Quvayt va BAA, tabiiy gaz zaxiralari bilan esa Qatar, Saudiya Arabistoni va BAA ajralib turadi.

Iqlimning qurg‘oqchilligi tufayli suv resurslari taqchilligi mavjud. Arabiston yarimorolida doimiy oqar suvlar yo‘qligi sababli qadimdan yerosti suvlari asosiy suv manbayi sifatida xizmat qilgan. Hozirgi sharoitda suv bilan ta’minlanishda dengiz suvini chuchuklashtirish katta ahamiyat kasb etadi. Daryolar faqatgina yomg‘irlar yog‘ganda suvga to‘ladigan o‘zanlar – vodiylar ko‘rinishiga ega.

Fors qo‘ltigi arab davlatlari aholisining muhim xususiyati xorijiy migrantlarning katta ulushidir. Ummonda xorijiy ishchilar aholining 25%ini, Saudiya Arabistonida 30%ini tashkil etsa, boshqa davlatlarda bu ko‘rsatkich 50%dan yuqori, BAAda esa 90%ga yaqin. Xorijiy migrantlar asosiy qismini Janubiy Osiyo va Shimoliy Afrika davlatlarining fuqarolari tashkil etadi.

Aholining tabiiy o‘sishi Saudiya Arabistoni va Ummonda yiliga 1,6-1,8%, qolgan davlatlarda esa 0,8-1,3%ga tengdir.

Mintaqa davlatlariga shahar aholisining juda yuqori ulushiga xosdir. Ummonda urbanizatsiya darajasi 75%, Saudiya Arabistoni va BAAda 80%dan yuqori, Quvayt, Qatar va Bahraynda esa deyarli 100% ga teng.

Saudiya Arabistoni, BAA, Qatar, Quvaytda sunna, Bahraynda shia, Ummonda ibodiy musulmonlari ko‘pchilikni tashkil etadi. Saudiya Arabistonidagi Makka va Madina butun dunyo musulmonlari uchun muqaddas shaharlar hisoblanib, har yili u yerga 4 mln.dan ortiq kishi haj safarini amalga oshiradi.

Fors qo‘ltig‘i arab davlatlari iqtisodiy rivojlanishning yuqori darajasi bilan ajralib turadi. Aholi jon boshiga to‘g‘ri keladigan YIM hajmi bo‘yicha mintaqa mamlakatlari jahondagi yetakchi o‘rinlarda turadi.

Iqtisodiyotining tayanch tarmog‘i – neft va gaz sanoati. Neft va gaz eksporti mintaqa davlatlari uchun eng muhim daromad manbayi hisoblanadi. Energiya manbalari bilan yaxshi ta’minlanganligi hisobiga mintaqa davlatlarida kimyo va neft-kimyo, qora va rangli metallurgiya sanoati rivojlanmoqda.

Dehqonchilikning rivojlanishi suv resusrlarining yetishmovchiligi bilan cheklangan. So‘nggi vaqtlarda tomchilatib sug‘orish texnologiyalarini keng qo‘llashga e’tibor qaratilmoqda. An’anaviy ravishda asosiy qishloq xo‘jalik ekini xurmo palmasi hisoblanadi.

Chorvachilikning asosiy tarmoqlari qo‘ychilik, echkichilik va tuyachilik hisoblanadi.

Mintaqa davlatlarida, shuningdek, bank-moliya sektori, tranzit savdo va turizm ham rivojlanib bormoqda.

14.3. Mintaqaning jahon turizmida tutgan o‘rni va roli

Hududi jihatdan boshqa mintaqalarga qaraganda nisbatan kichik bo‘lishiga qaramasdan turistik ko‘rsatkichlari yuqori bo‘lgan mintaqa Yaqin Sharqdir. Yaqin Sharq mintaqasi turizmining iqtisodiy ko‘rsatkichlarini tahlil qiladigan bo‘lsak, ba’zi bir davlatlardagi siyosiy inqirozlarga qaramasdan jahondagi o‘rtacha o‘sishga mos ravishda rivojlanmoqda. Jumladan, turistlar oqimi 2010-yilda 56,1 mln., 2017-yilda 57,7 mln., 2018-yilda 60,1 mln., 2019-yilda 64,2 mln.ni tashkil qilib, xizmat ko‘rsatishdan 2010-yilda 52,1 mlrd., 2017-yilda 68,4 mlrd., 2018-yilda 72,8 mlrd., 2019-yilda 80,0 mlrd. AQSH dollari miqdorida tushumga erishilgan.

Mintaqada turizmi eng rivojlangan mamlakatlardan biri Misrga hozir butun dunyodan turistlar qadimiy ehromlarini ko‘rish uchun va

afsonaviy Nil daryosi qirg‘oqlaridagi qadimgi yodgorliklarni ziyorat qilishga oshiqmoqdalar.



14.3.1-rasm. Yaqin Sharq mintaqasi turizmi rivojlanishining makroiqtisodiy ko‘rsatkichlari[58].

Bunday turistik resurslardan to‘g‘ri foydalangan holda Misr 2010-yilda 14,7 mln., 2017-yilda 8,3 mln., 2018-yilda 11,3 mln. turistlarga xizmat ko‘rsatgan. Mintaqada ziyorat turizmi eng rivojlanan davlat Saudiya Arabistoni hisoblanadi. Saudiya Arabistoni 2010-yilda 10,8 mln., 2017-yilda 16,1 mln., 2018-yilda15,4 mln. 2019-yilda 16,5 mln. turistlarga xizmat ko‘rsatib, ulardan 2010-yilda 6,7 mlrd., 2017-yilda 12,1 mlrd., 2018-yilda ham 12,0 mlrd. AQSH dollari miqdorida daromad olgan.

Umuman olganda xalqaro turizmning rivojlanish tendensiyalari ko‘rsatishicha har bir mintaqa turmahsulotlarini jahon talabi darajasiga keltirish va marketing sohasidagi (Yevropa va Amerika mintaqasi tajriba-si asosida) ba’zi bir kamchiliklarni bartaraf etish uchun ko‘proq mablag‘ ajratish taqozo qilinadi. Jahonda turizmga sarflanayotgan

[58]UNWTO yillik statistik ma’lumotlar asosida tuzib chiqilgan.

xarajatlarni mamlakatlar misolida (Fransiya, Ispaniya, AQSH, Xitoy) ko‘rib o‘tganimizda, bu xarajatlar tez orada o‘zini qoplashining guvohi bo‘lamiz.

Xalqaro turizm rivojlanishida ko‘rib o‘tilgan omillarning har biri hal qiluvchi ahamiyatga ega bo‘lib, har bir davlat o‘zining imkoniyati darajasida bu sohani rivojlantirish va iqtisodiyotini yuksaltirishda foydalanadi.

14.4. Mintaqada ichki va xalqaro turizmning rivojlanish xususiyatlari

Yaqin Sharqning ayrim hududlarda davom etayotgan mojarolarga qaramay, turizm rivojlanishda davom etmoqda. Mintaqadagi bir qancha davlatlar sayohat qilish uchun mutlaqo xavfsizdir. Yaqin Sharq tarixi, madaniyati va hayratlanarli tabiiy manzaralarga boy. Yaqin Sharqqa sayohat Yangi va hayajonli hislarni uyg‘otadi.

Yaqin Sharqdagi eng xavfsiz beshta davlatning turizmi rivojlanishi bo‘yicha to‘xtalib o‘tamiz.

Iordaniyaga sayyohlar soni tobora ortib borayotganidan tashqari, mamlakat qo‘shni mojarolar davom etayotgan davlatlaridan kelgan qochqinlarni ham qabul qilmoqda. Mehmondo‘stlik, samimiylik va mehr-oqibat Iordaniya xalqining eng yaxshi xususiyatlaridan biridir. Zamonaviy shaharlar, kichik qishloqlar bilan qoplangan tog‘li hududlar va badaviy ko‘chmanchilar yashaydigan cho‘llar sayyohlarni o‘ziga jalb qiladi. Qadimgi tarixni sevuvchilar uchun: aynan shu yerda dunyoning Yangi yetti mo‘jizasidan biri, yo‘qolgan Petra shahri Iordaniya janubidagi qoyalar xarobalari ortida bo‘lib, o‘zida sir-sinoatlarni yashirgan.

Ummon bugungi kunga Yaqin Sharqda turizm bo‘yicha bir qator muvaffaqiyatlarga erishmoqda. Mamlakat turizm infratuzilmasi yaxshi rivojlangan, toifadagi mehmonxonalar yuqori darajada xizmatlarni taklif etadi. Ummonning savdo va g‘aroyib baliq ovlash qishloqlariga

turistlar tashrifi ortib bormoqda. Mamlakatning ekzotik tabiiy mo‘jizalari, go‘zal qoyali tog‘lar sayyohlarni hayratda qoldiradi.

Qatar Yaqin Sharqdagi turizmi eng istiqbolli mamlakatlardan biri bo‘lib, o‘zining boy madaniyatiga sodiq qolgan holda nafosat va zamonaviylikni mujassamlashtirgan manzillardan biridir. Qatar ajoyib qirg‘oq manzaralari, me’moriy o‘ziga xosligi va boy pazandachilik san’ati, xalqining mehmondo‘stligi bilan ajralib turadi.

BAA Sinay yarim orolining Sharqiy tomonida joylashgan va Fors ko‘rfazi bilan chegaradosh ajoyib, neftga boy mintaqadir. Odamlar BAA haqida o‘ylashganda Dubayning osmono‘par binolari ko‘z oldiga keladi. Aynan shu yerda dunyodagi eng baland binolar va eng yirik savdo markazlari joylashgan. Abu-Dabi poytaxti dam olish va sport uchun ideal joy bo‘lib, Shayx Zayed masjidi va Ferrari World tematik parki bilan mashhur. BAAning har bir amirliklari turistlarga o‘ziga xos tarzda xizmatlarni taklif etadi.

Ko‘rfazning neftga boy boshqa davlatlaridan farqli o‘laroq, Quvayt shahar-davlati haqiqiy arab madaniyatini saqlab qolgan. Bu yerda siz an’anaviy islom madaniyatining G‘arb ta’siri bilan uyg‘unligini topasiz. Quvayt shahri rivojlangan arxitektura va osmono‘par binolari, hashamatli mehmonxonalari va tarixiy muzeylariga boydir. Quvayt o‘zining ajoyib oshxonasi bilan ham mashhur, buni ko‘plab restoranlar tasdiqlaydi. Ko‘plab sayyohlarni jalb qiladigan cho‘l tekisliklari va oq qumli plyajlar sayyohlarni o‘ziga jalb qiladi.

Yaqin Sharq mamlakatlarida ro‘y bergan so‘nggi voqealar sayyohlar uchun mintaqaning 14 davlatiga sayohat qilish bo‘yicha tavsiyalarini qayta ko‘rib chiqishga majbur qildi. Bularga sabab bo‘lgan Misrda sayyohlar bir necha bor teraktlar qurboniga aylangani, xususan, 2015-yilda Rossiya layneri Sinay ustida halokatga uchragani ko‘rsatiladi.

Nazorat uchun savollar

1. Yaqin Sharq mintaqasining iqtisodiy va siyosiy geografik o‘rni, maydoni, chegaralari to‘g‘risida tushuncha bering.

2. Yaqin Sharq mintaqasining tabiiy sharoiti va resurlarining mamlakatlar iqtisodiyotidagi o‘rnini tushuntiring.

3. Yaqin Sharq mintaqasining jahon turizmida tutgan o‘rni va rolini tushuntiring.

4. Yaqin Sharq mintaqasida ichki turizm rivojlanishini tahlil qiling.

5. Yaqin Sharq mintaqasida xalqaro turizmning rivojlanish xususiyatlarini tushuntiring.

6. Yaqin Sharq mintaqasi turizmi istiqbollari to‘g‘risida tushuncha bering.

15-BOB. O‘ZBEKISTONNING TURIZM GEOGRAFIYASI

15.1. O‘zbekistonda turizm sohasining rivojlanish imkoniyatlari.
15.2. Ichki turizm va xalqaro turizm.
15.3. O‘zbekistonda turizm turlari, ularning geografiyasi.

15.1. O‘zbekistonda turizm sohasining rivojlanish imkoniyatlari

O‘zbekiston dunyo hamjamiyati va siyosiy xaritasida o‘ziga xos mavqega ega. U hozirgi kunda Birlashgan Millatlar Tashkilotiga (BMT) a’zo bo‘lgan 194 davlatdan biri hisoblanadi. O‘zbekiston Respublikasi BMTga 1992-yil 2-martda qabul qilingan.

O‘zbekiston Yevrosiyo va Markaziy Osiyoning deyarli qoq o‘rtasida joylashgan. Respublika hududi g‘arbdan sharqqa 1425 km.ga cho‘zilgan, shimoldan janubgacha masofa esa 930 km. Eng baland nuqtasi Hazrat Sulton cho‘qqisi (Hisor tizmasi) – dengiz sathidan 4643 m. balandlikda, eng past nuqtasi Mingbuloq botig‘I -12 m.

Davlat chegaralarining umumiy uzunligi 6221 km. bo‘lib, shundan 2203 km. yoki 1/3 qismi Qozog‘iston Respublikasiga, 1721 km. Turkmanistonga, 1161 km. Tojikistonga, 1069 km. Qirg‘izistonga va 137 km. Afg‘oniston Respublikasiga to‘g‘ri keladi.

O‘zbekistonning mikroiqtisodiy geografik o‘rni (hududning o‘ziga qo‘shni bo‘lgan davlatlarga nisbatan tutgan o‘rni) ancha qulayligi bilan xarakterlanadi. Bu holat, avvalo, uning Markaziy Osiyo respublikalarining qoq o‘rtasida joylashganligi va barcha mintaqa davlatlari bilan to‘g‘ridan to‘g‘ri chegaradoshligi tufayli kelib chiqadi. O‘zbekistonning mikroiqtisodiy geografik o‘rni qulayligi qo‘shni respublikalar bilan barcha turdagi quruqlik transporti (avtomobil, temiryo‘l, quvur) tuzilmalari bilan nisbatan yaxshi bog‘langanligida ham o‘z ifodasini topadi. Mikroiqtisodiy geografik o‘rnidagi bunday qulayliklar tarixiy davrlardan hozirgacha O‘zbekistonni mintaqa davlatlari orasida aholisi eng zich, yirik shaharlarga boy, iqtisodiyoti nisbatan rivojlangan darajaga olib chiqqan.

O‘zbekiston bugungi kunda qo‘shni davlatlar – Qozog‘iston, Qirg‘izston, Tojikiston, Turkmaniston va Afg‘oniston o‘rtasida bog‘lovchi xalqa vazifasini o‘taydi. Bularning barchasi respublikaning jahon iqtisodiyotiga integratsiyalashuvi, chet el investitsiyalarini jalb qilish, O‘zbekistonni davlatlar o‘rtasida o‘zaro foydali hamkorlikning, tovarlar va kapital tranzitining o‘zida xos mintaqaviy markaziga aylantiradi.

O‘zbekistonning bunday qulay iqtisodiy-ijtimoiy imkoniyatlari har bir qo‘shnilari tomonidan aholisi zich joylashgan tutash (kontakt) hududlarda (Farg‘ona vodiysi, Zarafshon, Quyi Amudaryo mintaqalari, Surxondaryo viloyati) hozirgi davrda ko‘plab turli ixtisosdagi respublikalararo hududiy ishlab chiqarish majmualari, qo‘shma korxonalardan tortib erkin iqtisodiy hududlarni tashkil qilishgacha keng imkoniyatlar beradi. Markaziy Osiyo mintaqasida mavjud bo‘lgan transchegaraviy daryolar va yo‘llar muammolari hal etilishi respublika mikrogeografik o‘rnining yanada qulaylashuviga olib keladi.

Yaqin atrofida joylashgan davlatlar (Rossiya Federatsiyasi, Afg‘oniston, Eron, Kavkaz respublikalari)ga nisbatan O‘zbekistonning mezoiqtisodiy geografik o‘rni (yaqin mintaqalarga nisbatan tutgan o‘rni) o‘rtacha qulayliklarga egaligi bilan tavsiflanadi. Mezo IGO‘ni bunday baholanishining sababi shundaki, O‘zbekiston bir tomondan, Kavkaz respublikalari, ayniqsa, Rossiya Federatsiyasi bilan, asosan, zamonaviy transport vositalari orqali samarali bog‘langan va bu davlatlar bilan an’anaviy ravishda ko‘p tomonlama yaqin aloqalar olib boradi. Jahon davlatlari orasida eksport-import aloqalari hajmiga ko‘ra, Rossiyaning yetakchilik qilib kelayotganligi buning isbotidir. Ikkinchi tomondan, janubda joylashgan va O‘zbekistonning mezoiqtisodiy geografik o‘rni guruh davlatlari toifasiga kiruvchi Afg‘oniston, Eron davlatlari butun o‘tgan tarixiy davrlar davomida respublikamiz bilan har tomonlama keng ijtimoiy aloqada bo‘lib

kelgan bo‘lsa-da, hozirgi vaqtda bunday aloqalarni olib borishga mavjud texnik va siyosiy qiyinchiliklar to‘siq bo‘lib turibdi.

Davlatlararo iqtisodiy va ijtimoiy aloqalarning yanada samarali natijalar berishi uchun jahonning uzoqroq mamlakatlari bilan bog‘lanish, boshqacha aytganda, makrokengliklar talab etiladi. Ammo, dunyo mamlakatlari bilan iqtisodiy aloqa o‘rnatishda materik ichkarisida joylashgan davlatlar dengiz bo‘yidagilarga nisbatan bir qancha noqulayliklarga duch keladi. O‘zbekiston yaqin dengizlarga chiqishi uchun kamida ikki davlat hududini bosib o‘tishiga to‘g‘ri keladigan jahondagi kamdan-kam davlatlaridan biri bo‘lganligi sababidan makroiqtisodiy geografik o‘rni (jahon davlatlariga nisbatan tutgan o‘rin) nisbatan noqulaydir. Mustaqillik yillarida turli yo‘nalishlarda O‘zbekistonni dunyo okeani bilan bog‘lovchi xalqaro yo‘l loyihalarida faol ishtirok etishi mazkur holatni biroz yengillashtiradi.

O‘zbekiston Respublikasining siyosiy geografik o‘rni klassik geosiyosatchilar tomonidan ajratilgan Yevrosiyoning ichki kontinental qismi, ya’ni Xartlend (ingl. Heartland – “dunyoning yuragi”) hamda Yevrosiyoning janubi-g‘arbiy dengizga yaqin mintaqasi Rimlend (Rimland – “ichki yarim oy”)ning o‘zaro tutashgan hududda joylashganligi bilan tavsiflanadi. Bu holat esa jahonda yetakchilikni qo‘lga kiritishni rejalashtirayotgan ko‘plab davlatlarning respublikamizga nisbatan geosiyosiy qiziqishlarining yuzaga kelishiga sabab bo‘lmoqda.

Bundan tashqari, O‘zbekistonning qulay transport geografik o‘ringa egaligi, davlatimizning strategik resurslar hisoblanmish – neft, gaz, oltin, uran va boshqa ko‘plab yerosti va usti boyliklariga egaligi, qulay tabiiy iqlim sharoiti, insoniyat tarixiy taraqqiyoti va sivilizatsiyasida salmoqli o‘rin tutishi, katta demografik salohiyatning mavjudligi uning o‘ziga xos geosiyosiy imkoniyatlarga egaligini ko‘rsatib beradi.

Shu bilan birga, uning siyosiy geografik o‘rniga salbiy ta’sir ko‘rsatuvchi omillar ham mavjud. Xalqaro terrorizm va diniy ekstremizm xavfi, respublikamiz hududini narkotrafik yo‘laklari sifatida foydalanishga harakat, global miqyosdagi ekologik muammolar, turli davlatlar orasidagi geosiyosiy raqobat, Afg‘onistondagi beqaror siyosiy vaziyat O‘zbekiston mazkur geografik o‘rin ko‘rinishiga ta’sir etuvchi salbiy omillar bo‘lib hisoblanadi. Mazkur salbiy holatlarni bartaraf etish maqsadida respublika rahbariyati tomonidan katta miqyosdagi ishlar amalga oshirilgan.

Markaziy Osiyo davlatlari o‘rtasidagi transchegaraviy daryolar, O‘zbekiston-Qirg‘iziston o‘rtasidagi eksklav (tegishli davlat hududining asosiy qismidan boshqa davlat hududi bilan ajralib turgan yerlar) va ba’zi chegara hududlari, Tojikiston bilan davlat chegarasida oxiriga yetkazilmagan delimitatsiya (chegara chizig‘ini aniqlashtirib, mustahkamlash) ishlari bo‘yicha yuzaga kelgan muammolar birinchi navbatda hal qilinishi lozim bo‘lgan muhim geosiyosiy muammolardan bo‘lib hisoblanadi.

Hududi yadroviy quroldan holi bo‘lgan, qo‘shilmaslik siyosatini qo‘llab-quvvatlovchi davlatga aylanishni o‘z oldiga maqsad qilib qo‘ygan O‘zbekiston siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy muammolarni hal qilish, iqtisodiy rivojlanishga erishish uchun qator davlatlar bilan yaqin hamkorlikni yo‘lga qo‘ygan. Atrof qo‘shnilaridan tashqari, Rossiya Federatsiyasi, Xitoy kabi davlatlar bilan yaqin aloqalar o‘rnatgan.

Shu bilan birga ShHT, MDH kabi tashkilotlarning faoliyatida doimiy ishtirokchi hisoblanadi.

Shu bilan birgalikda O‘zbekiston iqtisodiyoti tezlikda rivojlanayotgan davlatlar qatoriga kiradi. Iqtisodiyotda xizmat ko‘rsatish tarmog‘i ham asosiy o‘rin tutmoqda. Bunda turizm ham alohida ahamiyatga ega bo‘lib, milliy turizm infratuzilmasini rivojlantirish va turistlarga xalqaro talablar darajasida xizmat ko‘rsatish yo‘lga qo‘yila boshlandi. Bunda asosan “O‘zbekturizm”

Milliy Kompaniyasi (MK) turizm infratuzilmasini shakllantirish va rivojlantirishda yetakchi tashkilotga aylandi. “O‘zbekturizm” MK mamlakatimizda o‘sha paytlarda turistik faoliyatni tartibga solish huquqlariga ega bo‘lgan xo‘jalik yurituvchi tashkilot bo‘lgan.

Mamlakatimizda milliy turizm infratuzilmasi rivojlanishi va shakllanishining Yangi davrida islohotlar aniq rejalar asosida bosqichma-bosqich amalga oshirila boshlandi.

Milliy turizm infratuzilmasini qaytadan shakllantirish va iqtisodiy islohotlarni amalga oshirishning ***birinchi bosqichi*** 1992-yilda boshlandi. Bunda bizga butunlay Yangi bo‘lgan bozor iqtisodiyoti qonuniyatlariga asosan turizmni rivojlantirishga kirishildi. Bu davrda turizm infratuzilmasining tashikiliy-iqtisodiy va boshqaruv jarayonlari shakllantirildi. “O‘zbekturizm” MKsiga 1992-yilda asos solindi va turizmni rivojlantirishning starategik yo‘nalishlari belgilab olindi.

Turizmda islohotlarni amalga oshirishning ***ikkinchi bosqichi*** 1993-1994-yillarni qamrab oladi. Islohotlarning ikkinchi bosqichida muhim bir qadam qo‘yildi, ya’ni respublikamiz turizmini rivojlantirishning milliy modeli yaratildi. Ikkinchi bosqichda xorijlik turistlarni qabul qilish va xizmat ko‘rsatish hajmi ortib borishi natijasida infratuzilmada bir qator muammolar yuzaga kela boshladi. Bu muammolarni hal qilmasdan turizmni rivojlantirish mumkin emasligi ayon bo‘la boshladi. Bunda xalqaro talablarga javob beradigan Yangi turistik yo‘nalishlarning kamligi, xizmat ko‘rsatish sifatining pastligi, moddiy-texnik bazani yangilash, boshqaruvni bozor iqtisodiyoti tamoyillari asosida tashkil etish va turizmning huquqiy asoslarni yaratish faqat bitta tashkilot “O‘zbekturizm” MK doirasida hal etish mumkin emasligi ayon bo‘ldi.

O‘sha vaqtda bu kabi muammolarni yechishning yagona yo‘li sifatida xorij tajribasiga tayangan holda turistik inshootlar va obyektlarni davlat tasarrufidan chiqarib xususiylashtirish boshlandi. Turizm infratuzilmasining asosiy tarmoqlaridan biri bo‘lgan mehmonxona (xorijiy kompaniyalarning Yangi mehmonxonalari

qurildi, nomerlar fondi va undagi xizmat ko‘rsatish darajasi oshirildi) va ovqatlantirish sanoatida (yuqori darajada xizmat ko‘rsatuvchi restoran va kafelar ochildi) muhim qadamlar tashlandi.

Bu islohotlarning natijasida 1993-yilda respublikamizda huquqiy va mustaqil balansga ega bo‘lgan 123 tashkilot turistik faoliyat olib borgan.

Respublikamizda turizmni isloh qilishning ***uchinchi bosqichi*** 1995-yilni o‘z ichiga oladi. Bunda, eng asosiysi Tashqi ishlar vazirligi tomonidan xorijlik turistlar uchun yagona turistik viza (butun mamlakat hududida amal qiluvchi) joriy qilindi. Turizm rivojiga qo‘yilgan yana bir yorqin qadam tarixiy-madaniy yodgorliklar, arxitektura inshootlari, yaratilgan san’at asarlarini saqlash va ko‘paytirishga yo‘naltirilgan “Meros” milliy dasturni Vazirlar Mahkamasi tomonidan tasdiqlanishi bo‘ldi[59]. Turizmi rivojlangan Yevropa mamlakatlari tajribasi asosida xalqaro turizm bo‘yicha maxsus ochiq iqtisodiy zonalar nizomi Toshkent, Samarqand, Buxoro va Xiva shaharlari bo‘yicha ishlab chiqildi. “O‘zbekturizm” MK xorijlik turoperatorlar bilan bevosita aloqalarni o‘rnatish maqsadida O‘zbekiston havo aloqasiga ega bo‘lgan mamlakatlarda o‘z vakolatxonalarini (vakillar) ochdi. Germaniyada (Frankfurt), Buyuk Britaniya (London), AQSH (Nyu-York), Birlashgan Arab Amirliklari (Shardj), Rossiyada (Moskva)[60].

Respublikamizda turizm infratuzilmasini isloh qilishning ***to‘rtinchi bosqichi*** 1996 – 1997-yillarga to‘g‘ri keldi. Bu davrda bozor islohotlari tamoyillari asosida xizmat ko‘rsatish tarmoqlarini faol xususiylashtirish boshlandi. 1996-yili “O‘zbekturizm” MK tizimidagi barcha turistik obyektlarning umumiy sonining 90%i davlat tasarrufidan chiqarildi[61]. O‘zbekiston milliy turizmiga rivojlanishning yangicha ko‘rinishi shu davrdan kirib keldi.

---

[59] A. Norchayev. O‘zbekistonda turizm: islohotlar, muammolar,istiqbollar.//Iqtisodiyot va ta’lim –T., 2011, №5. - 72 b.

[60].A. Norchayev. O‘zbekistonda turizm: islohotlar, muammolar,istiqbollar.//Iqtisodiyot va ta’lim –T., 2011, №5. - 72 b.

[61]O‘sha manba.

O‘zbekistonda milliy turizmini isloh qilishning ***beshinchi bosqichi***ga 1998-yildan qadam qo‘yildi. Bu davrni ko‘pchilik mutaxassislar qayta tiklanish bosqichi sifatida belgilaydi. Bunda infratuzilmaning mutonosib rivojlanishini ta’minlash maqsadida bir qator islohotlar amalga oshirildi. Buning natijasida turistik xizmatlar eksporti barqarorlashdi, valyuta tushumi yaxshilandi, xorijlik tashrif buyuruvchilar soni sezilarli darajada o‘sdi, xususiy kapital va xorijiy investitsiyalarning barqaror oqimi ta’minlandi. Vazirlar Mahkamasning qarori asosida “O‘zbekturizm” MKsi qayta tashkil qilindi va uning tashkiliy-boshqaruv tuzilmasi, vakolatlari, funksiyalari kengaytirildi. Shu bilan birga O‘zbekistonning xususiy turistik tashkilotlari Assotsiatsiyasiga asos solindi[62].

1999-yilning may oyidan boshlab milliy turizmni rivojlantirishning ***oltinchi bosqichiga*** o‘tildi. Turizmni isloh qilishning bu bosqichida turistik faoliyat olib borayotgan tashkilotlarga maxsus bojxona imtiyozlari berildi. Bu bosqichning yana bir o‘ziga xos tomoni O‘zbekistonning chet eldagi elchixona va vakolatxonalarida turizm bo‘yicha maslahatchi lavozimi joriy etildi. O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi tomonidan 1999-yilning avgustida O‘zbekiston Respublikasi “Turizm to‘g‘risida”gi qonuni qabul qilindi. Buning natijasida turistik faoliyatni tartibga solishning huquqiy asosi yaratildi.

Bu vaqtda O‘zbekistonda turizm infratuzilmasi nisbatan shakllangan bo‘lib, oltinchi bosqichida o‘zining oldiga bir qator muhim vazifalarni qo‘ydi: turistik tashkilotlarning boshqaruv tizimini o‘zgartirish orqali bozor munosabatlarini chuqurroq singdirish; jahon turizmidagi o‘zgarishlarni hisobga olgan holda doimiy ravishda uning tarmoqlarini moslashtirib borish; doimiy ravishda mamlakatimiz turizmi rivojlanishini strategik jihatdan takomillashtirib borish; respublikamizdagi turistik resurslardan samarali foydalanish uchun xorijiy investitsiyalarni jalb qilgan holda xalqaro standartlarga javob

[62] O‘sha manba.

beradigan infratuzilmani yaratish; respublikamizning turistik oqimlar katta bo‘lgan obyektlarida turistlarga xizmat ko‘rsatish sifatini oshirish; turizmga bozor iqtisodiyoti qonuniyatlarining kirib kelishi natijasida turistlarga xizmat ko‘rsatish sifati va uning turlarini kengaytirib borish va ularga qo‘yiladigan Yangi talablarni o‘rganish; turizmi rivojlangan davlatlardagi yirik kompaniyalar bilan aloqalarni rivojlantirish va ular bilan qo‘shma korxonalarni (transport xizmati ko‘rsatish, joylashtirish vositalarini qurish, ovqatlantirish shaxobchalari) tashkil qilish; Yangi turistik obyektlarni ishga tushirishda rivojlangan mamlakatlarning investorlariga maxsus imtiyozlarni taqdim etish; turizm infratuzilmasi rivojlanishini belgilab beradigan tarmoqlar, shu jumladan, transport, telekommunikatsiya, internet, axborot xizmatlari, tadbirkorlik faoliyatiga keng imkoniyatlar yaratish kabi vazifalarni qo‘ydi.

Bu kabi dolzarb vazifalarni amalga oshirmasdan bozor munosabatlarini turizmga joriy qilib bo‘lmasligi va xalqaro munosabatlarda tenglikni ta’minlash mumkin emasligi amalda ayon bo‘lib qoldi. Bu bosqichda respublikamiz turizmi o‘z oldiga qo‘ygan vazifalarni yetarli darajada bajara olmadi. Respublikamiz turizmi infratuzilmasini to‘liq shakllantirishda hali ba’zi bir muammolar borligi ko‘rinib qoldi. Misol uchun, uzoq yillar davomida YaIMda turizmning ulushi pastligicha qoldi. Bu borada rivojlangan mamlakatlarning ko‘rsatkichlarini oladigan bo‘lsak, turizmdan eng ko‘p tushumga erishayotgan Ispaniyada YaIMning 10-12%ini, iqtisodiyoti bevosita turizmga bog‘liq bo‘lgan mamlakatlarda (Maldiv orollari, Seyshel orollari, Bagam orollari, Malta) bu ko‘rsatkich YaIMning 30-40%gacha qismini tashkil qiladi. Bu bosqichda xorijlik turistlar oqimining asosiy qismi mamlakatimizning an’anaviy turistik markazlari bo‘lgan to‘rtta shahar Toshkent, Samarqand, Buxoro va Xivaga to‘g‘ri keldi. Ammo, mamlakatimizning bir qator istiqbolli turistik resurslarga boy bo‘lgan mintaqalari (Qashqadaryo,

Surxondaryo, Jizzax, Farg‘ona vodiysi, Ustyurt platosi) infratuzilmasini rivojlantirish e’tibordan chetta qolib ketgan.

Shu bilan birgalikda turizmning ekologik, agrar, ilmiy, diniy, ziyorat, sport-sog‘lomlashtirish, rekreatsion kabi turlarini rivojlantirish uchun zaruriy sharoitlar yaratilmagan. Xorijlik va mahalliy turistlarga ko‘rsatilayotgan xizmatlar sifatini, turistik obyektlar reklamasini yo‘lga qo‘yishni, turistik obyektlarning holatini yaxshilashni, internet, sohaga zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish ishlarini jiddiy yaxshilash talab qilinsada, deyarli biror bir ijobiy ishlar amalga oshirilmadi.

Ichki turizmni, shu jumladan o‘smirlar turizmini tashkil etish va rivojlantirishda tizimli ishlar yo‘lga qo‘yilmadi. Maktablar, kollejlar va litseylar o‘quvchilari uchun turistik yo‘nalishlar dasturlarini g‘oyaviy-mazmuniy jihatdan boyitish, madaniy meros obyektlarining tarixi va ahamiyatini tushuntirib beruvchi har tomonlama puxta ishlangan materiallarni tayyorlash ishlari yetarli darajada olib borilmadi. Ko‘pgina turistik tashkilotlar va ularning xodimlari O‘zbekiston xalqining noyob ma’naviy boyligi va tarixiy merosi yodgorliklari bo‘lgan turistik obyektlar to‘g‘risida zarur axborot berish uchun yetarlicha tayyorgarlikka ega bo‘lmadi. Bu bosqichdagi yana bir muammoli holat, respublikamizda turizm sohasida oliy ma’lumotli malakali mutaxassislarga bo‘lgan talabning o‘sib borayotganiga qaramasdan, malakali mutaxassislarni tayyorlashga e’tibor qaratilmadi. Shu jumladan, gidlar, ekskursovodlar, turistik va mehmonxona tashkilotlari xodimlarining malakasini oshirish, qayta tayyorlash hamda ularni metodik qo‘llanmalar bilan ta’minlash jiddiy takomillashtirilmadi.

2016-yilga kelib sohadagi muammolarni tezlikda bartaraf etish va turizm infratuzilmasini qaytadan xalqaro talablar asosida shaklantirish kerakligi nomayon bo‘ldi. Bu vaqtda “O‘zbekturizm” MKsi o‘z vazifasini to‘laqonli ravishda bajarolmay qoldi. Bu kabi yig‘ilib qolgan muammolarni battaraf etish uchun turizmda islohotlarni amalga

oshirishning yangi ***yettinchi bosqichi***ga o‘tildi. Bugungi kundagi integratsion jarayonlar va turistlarning talabini qondirish va turizm infratuzilmasini tashkil qilishda Yangicha yondashuvni talab qildi. Bularni hisobga olgan holda Prezidentimiz tomonidan 2016-yil 2-dekabrda PF-4861-sonli “O‘zbekiston Respublikasining turizm sohasini jadal rivojlantirishni ta’minlash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi farmoni qabul qilindi[63]. Farmonga ko‘ra O‘zbekiston Respublikasi Turizmni rivojlantirish davlat qo‘mitasi sobiq “O‘zbekturizm” MK negizida tashkil qilindi. Turizm qo‘mitasi respublikamizda turizm sohasidagi vakolatli davlat organi etib belgilandi, shu bilan birga turizmni rivojlantirish bilan bog‘liq bo‘lgan barcha masalalarni, harakatlarni amalga oshiruvchi tashkilot hisoblangan. Shu bilan birgalikda Turizmni rivojlantirish davlat qo‘mitasining o‘z vakolatlari doirasida qabul qilgan qarorlari davlat va xo‘jalik boshqaruvi organlari, davlat hokimiyati va mahalliy boshqaruv organlari, mulkchilik shakllari va idoraviy bo‘ysunishidan qat’i nazar, xo‘jalik yurituvchi subyektlar tomonidan bajarilishi majburiy qilib belgilandi[64].

Shu bilan birgalikda mamlakatimizda xalqaro standartlarga javob beradigan zamonaviy turizm infratuzilmasini shakllantirish, rivojlantirish, moddiy texnik-bazasini kengaytirish, turistik xizmat ko‘rsatishni jahon andozalari darajasiga yetkazish, turistik xizmatlar eksportini qo‘llab-quvvatlash, turistik faoliyatdan keladigan valyuta tushumini ko‘paytirish, respublikamizning turistik resurslaridan oqilona foydalanish, soha uchun yetuk malakali mutaxassislarni tayyorlashni takomillashtirish, mahalliy aholini ish bilan ta’minlash, yangi ish o‘rinlarini tashkil etish kabi bir qator masalalar bilan shug‘ullanishi belgilangan edi.

Turizm qo‘mitasi faoliyatini ham zamonaviy talablar asosida takomillashtirib borish maqsadida Prezidentimizning 2021-yil 6-apreldagi “Turizm va sport vazirligi faoliyatini tashkil etish

[63] www. Lex.uz
[64] http://uza.uz

to‘g‘risida”gi PQ-5054-sonli qarori qabul qilindi[65]. Bu qarorga asosan Turizm va sport vazirligi tashkil qilindi.

15.1.1-jadval

O‘zbekiston Respublikasida turizm infratuzilmasining shakllanish va rivojlanish bosqichlari[66]

Bosqichlar	Amalga oshirilgan ishlar ko‘lami haqida qisqacha ma’lumotlar
Birinchi bosqich-1992-yil	Turizmning tashikiliy-iqtisodiy va boshqaruv jarayonlari shakllantirildi va rivojlanish yo‘nalishlari belgilab olindi. “O‘zbekturizm” MK tashkil etildi.
Ikkinchi bosqichi - 1993-1994-yillar	Turizm infratuzilmasini rivojlantirishning milliy modeli ishlab chiqildi. Infratuzilmani qayta shakllantirish borasida bir qator turistik obyektlar davlat tarmog‘idan chiqarildi va xususiylashtirildi. Mehmonxona industriyasida muhim o‘zgarishlar amalga oshirildi.
Uchinchi bosqichi – 1995-yil	Xorijlik turistlar uchun yagona turistik viza (butun mamlakat hududida amal qiluvchi) joriy qilindi. “Meros” milliy dasturi tasdiqlandi. Xalqaro turizm bo‘yicha maxsus ochiq iqtisodiy zonalar nizomi Toshkent, Samarqand, Buxoro va Xiva shaharlari bo‘yicha ishlab chiqildi. “O‘zbekturizm” MKsi O‘zbekiston havo aloqasiga ega bo‘lgan mamlakatlarda o‘z vakolatxonalarini (vakillar) ochdi.
To‘rtinchi bosqichi - 1996-1997-yillar	Bozor islohotlari tamoyillari asosida xizmat ko‘rsatish tarmoqlarini faol xususiylashtirish boshlandi. “O‘zbekturizm” MK tizimidagi barcha turistik obyektlarning 90%i xususiylashtirildi. Bu orqali milliy turizm rivojlanishining Yangicha ko‘rinishi yuzaga keldi.
Beshinchi bosqichi – 1998-yil	Qayta tiklanish bosqichi bo‘lib, infratuzilmaning mutonosib rivojlanishini ta’minlash maqsadida bir qator islohotlar amalga oshirildi. Eksport, valyuta, turist, xususiy kapital va investitsiyaning barqaror oqimi ta’minlandi. “O‘zbekturizm” MKsi qayta tashkil qilindi. O‘zbekistonning xususiy turistik tashkilotlari assotsiatsiyasiga asos solindi.

[65] www. Lex.uz

[66] Respublikamiz turizm infratuzilmasining rivojlanish bosqichlari muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

Oltinchi bosqichi - 1999-2016-yillar	Turistik faoliyat olib borayotgan tashkilotlarga maxsus bojxona imtiyozlari berildi. O‘zbekistonning chet eldagi elchixona va vakolatxonalarida turizm bo‘yicha maslahatchi lavozimi joriy etildi. O‘zbekiston Respublikasi “Turizm to‘g‘risida”gi qonuni qabul qilindi.
Yettinchi bosqichi - 2016-yildan hozirgacha	O‘zbekiston Respublikasida turizmni jadal rivojlantirishning chora-tadbirlari ishlab chiqildi. O‘zbekiston Respublikasi Turizmni rivojlantirish davlat qo‘mitasi sobiq “O‘zbekturizm” MK negizida tashkil etildi. Erkin turistik zona (ETZ)lar tashkil etildi. Turistik faoliyatni tartibga solish uchun Yangilangan va qayta ishlangan O‘zbekiston Respublikasining “Turizm to‘g‘risida”gi qonuni qabul qilindi. 2021-yil aprelda Turizm va sport vazirligi, 2022-yilda Turizm va sport vazirligi qayta Turizm va milliy meros vazirligi etib tashkil qilindi.

Turizm va sport vazirligi oldida bir qator vazifalar turgan bo‘lib, tadqiqotlarimiz ko‘rsatishicha ular quyidagilardir:

-turizmni mamlakat iqtisodiyotining yetakchi tarmoqlaridan biriga aylantirish va uni jadal rivojlantirish uchun shart-sharoitlar yaratish, sohadagi munosabatlarning tashkiliy-huquqiy asoslarini ishlab chiqish, istiqbolli turistik hududlarning jozibadorligini ochib berish orqali resurslaridan samarali foydalanish, turizm tarmog‘iga ilg‘or boshqaruvni joriy qilish, turizm sohasida O‘zbekistonning ijobiy qiyofasini shakllantirish;

-respublikamiz turizmini yaxlit konsepsiya asosida rivojlantirish, infratuzilmani shakllantirish va islohotlarni izchil amalga oshirish, turizmni respublikamiz iqtisodiyotining strategik sektorining biriga aylantirish, mamlakatimizning barcha turistik hududlarini va sohada faoliyat olib borayotgan tashkilotlarni kompleks ravishda rivojlantirish chora-tadbirlar dasturini ishlab chiqish, YaIMda, YaHMda, mahalliy byudjet daromadlarida turizmning ulushini oshirish;

-turizm sohasidagi qonun hujjatlarini va normativ-huquqiy bazani yanada takomillashtirish orqali turistik faoliyat olib borayotgan subyektlar uchun qulay sharoitlarni yaratib berish, infratuzilmani

shakllantirishga yo‘naltirilgan chora-tadbirlarni ishlab chiqish, xorijlik turistlar uchun tashrif vizasi va mamlakatga kirishdagi ro‘yxatdan o‘tkazishni, bojxona nazoratini soddalashtirish, davlat tomonidan turizm sohasini boshqarish mexanizmini maqbullashtirish, turizm sohasida statistik hisobga olish tizimini takomillashtirish;

-mamlakatimizda zamonaviy turizm infratuzilmasini jadal rivojlantirish, turistik resurslar salohiyatidan maqsadli foydalanish, mamlakat uchun asosiy turistik tashrifga aylanib qolgan madaniy-tarixiy turizm bilan birgalikda hozirda talab o‘sib borayotgan diniy, ziyorat, qishloq, ekologik, agrar, etnografik, ishbilarmonlik, gastronomik, sport, rekreatsion, davolash-sog‘lomlashtirish turizmini har tomonlama puxta rejalar asosida rivojlantirish, shu qatori respublikamiz aholisining katta qismini tashkil qilayotgan yoshlar (bolalar, o‘smirlar) turizmini, oilaviy turizmni, ijtimoiy turizmni (keksalar, nogironlar, kam ta’minlanganlar) rivojlantirish orqali aholi orasida turizmning ijtimoiy ahamiyatini oshirish, turistik minta-qalardagi resurslardan samarali foydalanilgan holda Yangi turizm yo‘nalishlarini ishlab chiqish, turizm infratuzilmasini kompleks rivojlantirishning milliy va hududiy chora-tadbirlar dasturlarini ishlab chiqish va izchil amalga oshirish;

-xalqaro hamkorlikni rivojlantirishda asosiy e’tiborni BMTBTT qaratish, jahondagi yirik turistik yarmarkalarda doimiy ravishda ishtirok etish orqali shartnoma va kelishuvlarga erishish, shu jumladan xorijiy mamlakatlarning turizm bo‘yicha nufuzli tashkilotlar bilan hamkorlikni kengaytirish, sohani tartibga soluvchi universal xalqaro konvensiyalar va bitimlardagi ishtiroki, turizm faoliyati amaliyotiga xalqaro va davlatlararo standartlar va normalarni joriy etish;

-respublikaning barcha mintaqalarida zamonaviy jahon standartlariga, turistlarning ehtiyojlari va talablariga javob beradigan turizm infratuzilmasining tarkibiy qismlari bo‘lgan mehmonxonalar va joylashtirish vositalari, umumiy ovqatlanish obyektlari, transport tuzilmalari, axborot markazlari, madaniyat va sport muassasalarini

jadal rivojlantirish, muhandislik-kommunikatsiya tizimlarini rekonstruksiya qilish uchun xorijiy investorlarni keng jalb etish;

-turizm rivojlanishi tendensiyalarini va zamonaviy marketing vositalari qo‘llanilishini hisobga olgan holda, raqobatbardosh turizm mahsulotlari va xizmatlarini ishlab chiqish, ularni ichki va xalqaro turizm bozorlarida targ‘ibot qilish bo‘yicha strategiyani ishlab chiqish, keng reklama-axborot faoliyatini amalga oshirish, mamlakat hududlarida turizm axborot markazlari va chet elda turizm vakolatxonalari ochish;

-turizm tarmog‘i uchun, ayniqsa menejment va marketing sohasida malakali kadrlarni tayyorlash tizimini tubdan takomillashtirish, muntazam ravishda qayta tayyorlash va malakasini oshirish tizimlarini takomillashtirish bosh vazifalar qilib belgilanishi kerak.

Yuqoridagilardan xulosa qilib, turizmni kelajakda rivojlantirishning strategik yo‘nalishlarini ishlab chiqdik (15.1.1-rasm).

Oxirgi yillarda turizmda eng dolzarb bo‘lgan, O‘zbekiston turizmida kuzatilmagan yangi yo‘nalishlar ham joriy qilina boshlandi. Bunga misol qilib, Toshkent viloyatining Chimyon-Chorvoq kurort-rekreatsiya zonasi chegarasi doirasida tashkil etilgan “Chorvoq” erkin turistik zonasini olishimiz mumkin. “Chorvoq” erkin turistik zonasining faoliyatini tashkil etish Prezidentimiz tomonidan 2017-yil 5 dekabrda “Chorvoq” erkin turistik zonasini tashkil etish to‘g‘risida”gi PF-5273-sonli farmoni asosida amalga oshirilmoqda[67].

Bu farmonga asosan respublikamizning turistik salohiyatini oshirish, resurslardan foydalanish samaradorligini oshirish, hududning imkoniyatlaridan to‘g‘ri foydalangan holda xorijiy va mahalliy turistlarni jalb qilish mexanizmlarini ishlab chiqish, turistlar uchun xalqaro talablarga javob beradigan qulay sharoitlar yaratish, zamonaviy infratuzilmani shakllantirish va rivojlantirishni ta’minlash,

[67] www. Lex.uz

turistik xizmatlar (mehmonxona, ovqatlantirish, transport) turlarini va sifatini yaxshilashni nazarda tutgan holda Erkin turistik zona hududida rekreatsion, savdo-ko‘ngilochar markazlar, sport-sog‘lomlashtirish, yuqori sinfdagi mehmonxonalarni ishga tushirish, shu jumladan, boshqa yordamchi obyektlarni qurish orqali zamonaviy infratuzilmani tashkil etish belgilab olindi.

15.1.1-rasm. O‘zbekistonda turizmni rivojlantirishning strategik yo‘nalishlari[68]

[68] http://elibrary.ru. Валеева С. Развитие концепции кластерного подхода в туризме. Maqolasi asosida muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

Bu borada olib borgan tadqiqotlarimizga tayangan holda ETZda qulay infratuzilmani yaratishda: ETZlar faoliyatini muvofiqlashtirish bo‘yicha rivojlangan mamlakatlar amalga oshirilayotgan ishlarga tayangan holda turizm infratuzilmasini yaratish va takomillashtirishda eng asosiy omillardan biri bo‘lgan xorijiy investitsiyalarni (zamonaviy joylashtirish majmualari, sport-sog‘lomlashtirish, rekreatsion, shoping-ko‘ngilochar va boshqa yordamchi obyektlar) keng jalb qilgan holda turistlarga xalqaro standartlar darajasida xizmat ko‘rsatish loyihalarini amalga oshirish; hududiy joylashuvni hisobga olgan holda maxsus rekreatsion zonalarni yaratishda katta ahamiyat beriladigan ekotizimlarga bo‘lgan munosabatlarni nazardan chetda qoldirmaslik; turistlar tashrifini amalga oshirishda mavsumiylikka e’tiborni qaratish orqali xizmat ko‘rsatuvchi su’ektlar faoliyatini muvofiqlashtirish; ekologik resurslardan oqilona foydalangan holda xalqaro standartlarga mos ravishda hududning relyefidan kelib chiqqan holda turistik yo‘nalishlarni ishlab chiqish; arzon ekologik transport turlaridan keng foydalanish, ETZning relyefidan kelib chiqqan holda qulay va arzon transport (elektropoyezd, elektroavtobus, elektromashinalar, elektro-mototsikllar) turlarini, shu jumladan, ularning harakatlarini muvofiqlashtirish orqali uzluksizligini ta’minlash, ular yuradigan yo‘llarni xalqaro standartlarga moslashtirish va kengaytirish; turistlarning harakatlanish qiyin bo‘lgan joylarda maxsus transport turlaridan foydalanish; turistlar xavfsizligini ta’minlashning qo‘shimcha shart-sharoitlarini yaratish, shu singari turistik obyektlarni va infratuzilmaning boshqa tizimlarini videokuzatuv jihozlari bilan ta’minlash; favqulotda yuzaga keladigan vaziyatlarda turistlarni ogohlantirish tizimlari bilan ta’minlash; erkin turistik zonaga tashrif buyurayotgan xorijiy va mahalliy turistlarning harakatlanish yo‘nalishlarini, shu singari ular haqidagi ma’lumotlarning yagona bazasini yaratish; erkin turistik zonada faoliyat olib borayotgan ishbilarmonlar, tadbirkorlar tomonidan amalga oshirilayotgan loyihalarni qo‘llab-quvvatlash uchun belgilangan maxsus soliq va

bojxona imtiyozlarini joriy qilish; ETZda sinov tariqasida hozirda dunyoda keng tarqalayotgan juda tejamkor muqobil, qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan samarali foydalangan holda energiya tejovchi Yangi zamonaviy uskunalar va texnologiyalarni joriy qilish; ETZda ekologik loyihalarni amalga oshirish, shu jumladan atrof-muhit muhofazasini ta'minlash maqsadida o'ziga xos ekologik tizimni yaratish kabi vazifalarni bajarish lozim.

Bunda yana bir ahamiyatli jihat borki, erkin iqtisodiy zonalar to'g'risidagi qonun hujjatlarining qoidalari ETZ hududida faoliyat olib borayotgan tadbirkorlik subyektlari uchun joriy qilindi. Shu singari, erkin iqtisodiy zonalar uchun nazarda tutilgan barcha preferensiya va imtiyozlar ham tadbirkorlik subyektlariga tatbiq etildi.

Shu bilan birgalikda yettinchi bosqichda eng muhim bo'lgan respublikamizdagi turistik faoliyatlarni tartibga solish uchun Yangilangan va qayta ishlangan O'zbekiston Respublikasining "Turizm to'g'risida"gi O'RQ-549 sonli qonuni 2019-yil 18-iyulda qabul qilindi[69].

Yuqoridagilardan ko'rinib turibdiki, O'zbekistonda bugungi kunda milliy turistik modelni shakllantirish jarayoni va rivojlantirish chora-tadbirlar dasturlari amalga oshirilmoqda. Hozirgi sharoitda respublikamizda bozor iqtisodiyoti shakllanayotgan bir vaqtda turizm milliy daromadni oshirishga, tashqi iqtisodiy aloqalarni rivojlantirishga, iqtisodiyotni barqarorlashtirishga xizmat qilishi lozim. Bozor iqtisodiyoti rivojlangan mamlakatlarda turistlarga asosan xususiy va davlat-sherikchilik kompaniyalari xizmat ko'rsatadi. Davlat asosan bosh islohotchi sifatida xususiy kompaniyalarga qulay iqtisodiy va huquqiy atmosfera yaratib beradi. Buning natijasida o'sha davlatda turizm barqaror rivojlanadi. Aksincha, boshqa tomondan agar davlat malakali mutaxassislarni tayyorlashni, ularning malakasini oshirishni, turistik resurslardan maqsadli foylanishni, zamonaviy telekommunikatsion texnologiyalarni, imtiyoz va preferensiyalarni, har xil

[69] www. Lex.uz

rasmiyatchilikni yengillashtirmasa, kutilmagan xavflar yuzaga kelganda zaruriy chora-tadbirlarni ko‘rmasa va boshqa muammolarni hal qilish bilan shug‘ullanmasa turizm rivojlanishi kerakli darajasiga yeta olmaydi. Turizmni xalqaro darajada rivojlantirish uchun davlat metodik va amaliy yondashuvlarni ishlab chiqarishi, turistik xizmatlar bozorining tashkil etilishiga ahamiyat berishi kerak.

15.2. Ichki turizm va xalqaro turizm

O‘zbekistonda turizm rivojlanishining yangi davrini Prezidentimiz tomonidan 2016-yil 2-dekabrda PF-4861-son “O‘zbekiston Respublikasining turizm sohasini jadal rivojlantirishni ta’minlash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi[70] farmoni qabul qilinishi boshlab berdi. Farmonga asosan turizmga mamlakat iqtisodiyotining strategik tarmog‘i sifatida qarash uni jadal rivojlantirish uchun tashkiliy-huquqiy asoslarni yaratish, qulay shart-sharoitlarni vujudga keltirish, mintaqalardagi resurslardan samarali foydalanish, sohaga zamonaviy boshqaruv usullarini joriy qilish, boshqarishni tubdan qayta ko‘rib chiqish, milliy turizm brendini yaratish va xalqaro bozorlarda jozibadorligini oshirish, targ‘ibotning Yangicha ko‘rinishiga o‘tish, O‘zbekistonning o‘ziga xos bo‘lgan ijobiy qiyofasini shakllantirish bo‘yicha bir qator vazifalarni bajarish belgilandi.

Shu singari, respublikamizni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish, xizmat ko‘rsatish sifatini oshirish, investitsiyalarni jalb qilish uchun shart-sharoitlar yaratilayotganligi, tarmoqlarning o‘zaro integratsiyalashuvi va uning iqtisodiyotdagi ulushining (YaIMda) ortib borayotganligi muhim ahamiyat kasb etmoqda. Turistlarga xizmatlar ko‘rsatish va turizm infratuzilmasi rivojlangan davlatlar hisoblangan Ispaniya, Turkiya, Fransiya, Xitoy, AQSH tajribasidan ko‘rinadiki, turizm infratuzilmasini rivojlantirish davlat iqtisodiyoti uchun (xizmatlar eksporti) ahamiyatli bo‘lgan xorijiy valyuta tushumini,

[70] www. Lex.uz.

turistik zonalarda aholi uchun Yangi ish o‘rinlarini tashkil qilish orqali aholini ijtimoiy himoya qilishga xizmat qiladi. Bizning yaqin qo‘shni mamlakatlardan (Qirg‘iziston, Turkmaniston, Tojikiston) yana bir ustunlik tomonimiz xizmat ko‘rsatish infratuzilmasining nisbatan yaxshi rivojlanganligidir. SHu bilan birga respublikamiz tarixiy-madaniy, rekreatsion, ekologik, diniy, qishloq-agrar turizm resurslari va mazali mevalar, milliy taomlar, boy etnografiya, xalqimizga xos bo‘lgan ajoyib urf-odatlarga ega. Bundan tashqari respublikamizda mavjud bo‘lgan eng muhim omillardan biri bo‘lgan tinchlik va barqarorlik mavjuddir.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 15-mart, 137-sonli “O‘zbekiston Respublikasida turizm sohasini yanada qo‘llab-quvvatlash va rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi[71] qarori turizm infratuzilmasini rivojlantirishni yanada qo‘llab-quvvatlash, milliy turizm mahsulotlari va brendlarini xalqaro turizm bozorlarida faol targ‘ibot qilishga qaratilgan qator farmon, qarorlar orasida alohida ahamiyatga ega bo‘ldi. Bu qaror qabul qilinishi respublikamiz turizmi rivojlanishidagi bir qator muammolarni yechimini ta’minlab berdi.

Milliy turizmni rivojlantirishda, xalqaro yo‘nalishlarni ishlab chiqishda va integratsion jarayonlarni Yangi bosqichga ko‘rtarishda “Buyuk Ipak Yo‘li”ning ahamiyatini nazardan chetda qoldirmasligimiz zarur. Chunki, hozirgi kunda “Buyuk Ipak Yo‘li” o‘zining tarixiy ahamiyatini (Xitoy hukumati tomonidan ilgari surilayotgan “Bir makon-bir yo‘l” loyihasi) qayta tiklamoqda. O‘zbekistonda tarixiy “Buyuk Ipak Yo‘li”ni qayta tiklash va unda turizmni rivojlantirish borasidagi ishlar mustaqillikning dastlabki yillaridan boshlangan edi. Bu borada 1995-yil 2iyunda PF-1162-sonli “Buyuk Ipak Yo‘lini qayta tiklashda O‘zbekiston Respublikasining ishtirokini avj oldirish va respublikada xalqaro turizmni rivojlantirish borasidagi chora-tadbirlar

[71] www. Lex.uz

to‘g‘risida”gi[72] farmon qabul qilingan edi. Ushbu farmonga asosan Vazirlar Mahkamasining 1995-yil 3-iyunda 210-sonli “O‘zbekiston Respublikasida xalqaro turizmning zamonaviy infrastrukturasini barpo etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi[73] qarori qabul qilindi. Yuqoridagi farmon va qarorlarga asosan respublikamizda turizm infratuzilmasini rivojlantirish uchun amalga oshrilishi kerak bo‘lgan chora-tadbirlar belgilab berilgan edi. Lekin, mintaqadagi iqtisodiy va siyosiy jarayonlar belgilangan vazifalarni bajarishning imkonini bermadi.

Turizmni rivojlantirishda “Buyuk Ipak Yo‘li”ga so‘nggi yillarda katta ahamiyat berishimizning asosiy sabablaridan biri, bu yo‘l qadimda savdo-sotiq yo‘li bo‘lib, u Janubi-sharqiy Osiyodan O‘rtayer dengizi havzasida joylashgan mamlakatlargacha cho‘zilgan. “Buyuk Ipak Yo‘li” dengiz yo‘llari ochilgunga qadar aosiy aloqa va muloqot yo‘li bo‘lib kelgan. Shu sababli u bir necha asrlar davomida Sharq va G‘arbni bir-biri bilan bog‘lab turgan. Bu yo‘lga “Ipak Yo‘li” deb nom berilishining asosiy sababi, bu yo‘ldan tashiladigan mahsulotlarning asosiy qismi ipakdan iborat bo‘lgan[74]. “Ipak Yo‘li” g‘arbiy yo‘nalishi Markaziy Osiyodan Eron orqali Yaqin Sharqqa undan Balqon orqali Italiyagacha borgan. Sharqiy yo‘nalishi esa Markaziy Osiyo (Movarounnaxr) orqali Pomir tog‘larining Shimoliy qismi orqali Qashqarga borib yo‘l ikkiga ajragan (Shimoliy va janubiy) holda dunyodagi eng katta cho‘llardan biri bo‘lgan Takla-Makonni aylanib o‘tib (Lobnor ko‘li yaqinida qo‘shilgan) Xitoyning Shanxay shahrigacha borgan.

Movarounnaxr hududi qadimdan “Buyuk Ipak Yo‘li”ning asosiy chorraxasida joylashgan mintaqa bo‘lib, yetakchi rolni bajarib kelgan. Respublikamizning qadimgi Toshkent, Andijon, Marg‘ilon, Jizzax, Samarqand, Buxoro, Termiz, Xiva shaharlari “Buyuk Ipak Yo‘li”ning asosiy manzillari bo‘lgan. “Buyuk Ipak Yo‘li” bugungi kunda ham o‘z ahamiyatini yo‘qotgani yo‘q. Xitoy hukumati tomonidan oldinga

[72]www. Lex.uz
[73] www. Lex.uz
[74] Pardayev A.X., Norchayev A.N. Xalqaro turizm. Darslik. –T.: TDIU. «Iqtisodiyot». 2010 y. -146 b.

surilayotgan “Bir makon – bir yo‘l” (BRI) loyihasi asosida “Buyuk Ipak Yo‘li”ni qayta tiklashning zamonaviy loyihasi taklif etilmoqda. Ushbu loyiha Osiyo va Yevropa o‘rtasidagi qadimiy “Buyuk Ipak yo‘li”ning qayta tiklanishi sifatida ishlab chiqilgan. BRI loyihasi besh qit’ani dengiz va quruqlik yo‘laklari bilan bog‘lashi nazarda tutilgan. 2013-yildan beri unda umumiy aholisi 4,6 milliard kishi va jahon YaIM qariyb 30%ga teng bo‘lgan 65dan ortiq mamlakatlar ishtirok etmoqda. Respublikamiz bu loyiha orqali Markaziy Osiyodagi transport salohiyatini maksimal darajada oshirish va “Xitoy-Markaziy Osiyo-G‘arbiy Osiyo” iqtisodiy yo‘lagini shakllantirishdan manfaatdor. Ushbu maqsadda, 2016-yilda Farg‘ona vodiysini respublikamizning boshqa hududlari bilan bog‘lovchi “Angren-Pop” elektrlashtirilgan temir yo‘li barpo etildi. Mazkur liniya Xitoygacha bo‘lgan masofani 270 kilometr qisqartirish imkonini berdi. Bundan tashqari, Xitoy-Qirg‘iziston-O‘zbekiston temir yo‘li qurilishi natijasida O‘zbekistondan Xitoy va Janubiy Osiyoga to‘g‘ridan to‘g‘ri chiqish imkoniyati yuzaga keladi, yuk tashish vaqti 5-6 sutkaga qisqarishi mumkin. Loyihaga asosan ikki yo‘nalish quruqlik va dengiz yo‘li loyihasi ishlab chiqilgan. (15.2.1-rasm).

Bu kabi loyihalar ishtirokchisiga aylanish O‘zbekiston iqtisodiyoti uchun ham muhim ahamiyat kasb etadi. Shuning uchun loyihada O‘zbekiston ham faol ishtirok etmoqda. Sababi, O‘zbekiston quriqlikdan o‘tadigan yo‘lning markazida joylashganligi uchun mamlakatimiz iqtisodiyotining mintaqadagi davlatlar bilan integratsiyasiga katta ta’sir ko‘rsatadi, shu singari turizmni rivojlantirishga va madaniyatlar almashinuviga ham katta hissa qo‘shadi.

Mamlakatimizda turistlarga xizmat ko‘rsatishni rivojlantirishda ilgari surilayotgan Yangi loyihaning imkoniyatlaridan foydalangan holda turizmni Yangi bosqichga ko‘tarish, ichki imkoniyatlardan oqilona foydalanish, eng avvalo ko‘hna madaniy va me’morchilik yodgorliklariga boy turistik markazlarimiz bo‘lgan Toshkent, Qo‘qon,

Samarqand, Buxoro, Shahrisabz, Termiz, Xivada zaruriy infratuzilmani yaxshilashimiz kerak.



15.2.1-rasm. “Buyuk Ipak Yo‘li”ning hozirgi zamonaviy taklif etilayotgan loyihasi[75].

Bu shaharlarimizda xorijiy turistlarni o‘ziga jalb qiluvchi, hayratga soluvchi va lol qoldiruvchi tarixiy-madaniy yodgorliklar mavjud. O‘zbekiston ana shu tarixiy shaharlari bilan jahonning ko‘pgina mamlakatlarida mashhur. Bu tarixiy shaharlarimizdagi turistik obyektlar va me’morchilik san’ati (Registon maydoni, Amir Temur maqbarasi, Ismoil Somoniy maqbarasi, Miri Arab madrasasi, Ichan qal’a) obidalari xorijlik sayyohlarni o‘ziga jalb etib, ularni hayratga solmoqda. O‘zbekistonning ana shunday tarixiy shaharlarini va undagi obyektlarni haqli ravishda “Sharq javohirlari” deyishimiz mumkin. Bu kabi shaharlarimizdagi ajoyib arxitektura obektlarini bunyod etgan me’morlar, usta-xunarmandlarning ishlariga buyuk shoirlar, yozuvchilar, tarixchilar qoyil qolib kelmoqdalar.

O‘zbekistonda ham dunyo turizmidagi o‘zgarishlarga mos ravishda keyingi yillarda infratuzilmani takomillashtirish borasida olib

[75] Xarita Google internet tarmog‘I ma’lumotlari asosida tuzigan.

borilayotgan chora-tadbirlar dasturining bajarilishi natijasida ajoyib mehmonxonalar, restoranlar, zamonaviy transport turlari, madaniy dam olish maskanlari, diniy marosimlarni amalga oshrish ziyoratgohlari vujudga kelmoqda. Shu singari respublikamizda so‘nggi yillarda Samarqandda “Sharq taronalari”, Surxondaryoda “Boysun bahori”, Baxshichilik san’ati xalqaro festivali, Qo‘qonda hunarmandchilik festivali, sport sohasida futbol, boks, o‘zbek milliy kurashi bo‘yicha jahon miqyosida chempionatlar o‘tkazilmoqda. Bu kabi tadbirlar ko‘pgina xorijiy mamlakatlardan turistlarni jalb qilmoqda. Biroq, turistlarga xalqaro standartlar darajasida xizmat ko‘rsatishni tashkil qilishda, hozirda mintaqadagi qo‘shni davlatlar o‘rtasidagi kuchli raqobatga bardosh berish uchun kechiktirib bo‘lmaydigan chora-tadbirlarni ishlab chiqish zarur. Bu kabi vujudga kelayotgan kuchli raqobatda yengib chiqish uchun sohadagi xizmat ko‘rsatayotgan xodimlarning doimiy malakasini oshirib borish, ilmiy tadqiqot izlanishlariga alohida e’tibor qaratish, xizmat turlarini sifatini va turlarini keskin darajada ko‘paytirish, turistlar uchun eng maqbul bo‘lgan shart-sharoitlar yaratib berish lozim. Shu singari, turizm bozorini rivojlantirishda xalqaro tajribadan ma’lumki, bu juda murakkab jarayon hisoblanadi. Sababi, turizmdagi ahamiyatga ega emas deb qaralgan har bir narsaga nisbatan nazoratsizlik, o‘zibilarmonchilik oxir oqibatda infratuzilmaning rivojlanishida katta muammolarni keltirib chiqaradi.

Yevropaning turizmi rivojlangan mamlakatlarida sohadan katta miqdorda daromadlar olishining sababi, ularda aniq maqsadga asoslanib turistik faoliyatning ayrim yo‘nalishlari davlat tomonidan to‘g‘ridan-to‘g‘ri yoki bilvosita siyosiy-rasmiy boshqarilib turiladi. Bunda to‘g‘ridan-to‘g‘ri boshqarish shaklida zarurat tug‘ilib qolganda turistik xizmatlar uchun belgilangan narxlar davlat tomonidan tartibga solinadi[76]. Bu kabi tajribalarni o‘rgangan holda bugungi kunda olib borilayotgan islohotlar natijasida respublikamizda nisbatan rivojlangan

[76]Adilova Z. A. Norchayev. Turizm menejmenti. O‘quv qo‘llanma. –T.:TDIU, 2011. -41 b.

infratuzilma vujudga keldi. Turizmning rivojlanishi yangi bosqichga ko‘tarildi, tadbirkorlarning samarali faoliyat ko‘rsatishi uchun yangi sharoit va mexanizm vujudga keldi. Bunga bir qator asoslar bor bo‘lib, O‘zbekiston turizm sohasi rivojlanishida salmoqli salohiyatiga ega davlat bo‘lib, Markaziy Osiyodagi davlatlar orasida raqobatbordosh turistik mahsulotlari bilan yetakchilik qiladi. Bu ko‘plab noyob tabiat obyektlarining mavjudligi (ko‘llar, tog‘ cho‘qqilari, bepayon cho‘llar), boy madaniy va tarixiy meros bilan ham bog‘liqdir. Mamlakatda 7,4 mingdan ziyod madaniy-tarixiy obyektlar ro‘yxatga kiritilgan. Bundan tashqari, respublikada 3 ta milliy bog‘ , 8 ta davlat qo‘riqxonasi, 106 ta muzey va sayyohlarni jalb qilish mumkin bo‘lgan ko‘plab boshqa obyektlar ham mavjud bo‘lib, uzoq yillar mobaynida, bu salohiyatdan to‘laligicha foydalanilmadi. Masalan, 2011-2016-yillar davomida xorijiy mehmonlarning mamlakatga o‘rtacha yillik tashrifining o‘sishi 8%ni tashkil etgan. Mavjud imkoniyatlardan to‘g‘ri foydalangan holda bizning oldimizga qo‘yilgan asosiy maqsadlardan biri ko‘proq turistlarni jalb qilish va kelayotgan daromadni oshirishdir. Turizmi rivojlangan mamlaktlar bir yilda o‘rtacha, AQSH 214,0 mlrd., Ispaniya 74,0 mlrd., Fransiya 67,0 mlrd., Italiya 49,0 mlrd., Turkiya 25,0 mlrd., Avstriya 22,0 mlrd. AQSH dollari miqdorida daromad olmoqda[77]. Bu borada bizning ko‘rsatkichlarimiz bugungi kun talabi bo‘yicha qoniqarli emas, o‘sish sur’atlari yildan-yilga yaxshilanayotgan bo‘lishiga qaramasdan hali to‘liq imkoniyatlarimizdan foydalana olmayapmiz.

Respublikamizga 2017-yildan turistlar tashrifi va turistik xizmatlar eksporti barqaror o‘sish tendensiyasiga ega bo‘lib bormoqda. Turistik xizmatlar eksporti 2010-yilda 121,4 mln., 2016-yilda 214,8 mln., 2017-yilda 546,9 mln., 2018-yil 1,041 mln., 2019-yilda 1,313 mln. bo‘lgan bo‘lsa 2020-yilda pandemiya sababli keskin ko‘rsatkich tushib ketgan, ya’ni 261 mln., AQSH dollarini tashkil etgan[78] (15.2.1-

[77] www/ unwto. International Tourism Highlights. 2019 Edition. Madrid.
[78] www/uzbektourism.uz ва Tourism in Uzbekistan 2019 statistik to‘plami ma’lumotlari.

jadval). Bundan ko‘rinib turibdiki turistik xizmatlar eksporti yildan-yilga doimiy tendensiyaga erishmoqda.

15.2.1-jadval

O‘zbekistonga tashrif buyurgan turistlar va turistik xizmatlar eksporti hajmi ko‘rsatkichlari[79]

Ko‘rsatkichlar	Yillar					
	2010	2016	2017	2018	2019	2020
Tashrif buyurgan turistlar (ming. kishi hisobida)	870,9	2,070	2,690	5,346	6,748	1,504
Turistik xizmatlar eksporti (mln. AQSH dol. hisobida)	121,4	214,8	546,9	1,040	1,313	261

Jadval ma’lumotlardan ko‘rinib turibdiki mamlakatimizga tashrif buyurgan turistlar soni 2010-yilda 870,9 ming, 2016-yilda 2,070 ming, 2017-yilda 2,690 ming, 2018-yilda 5,346 ming, 2019-yilda 6,748 mingtani tashkil qilgan bo‘lsa, 2020-yilda tashrif buyurgan turistlar soni 1,504 mingtaga tushib ketdi. 2017-yilga nisbatan 2019-yilda qarib 2,5 barobar ortganligini, 2019-yilda 2018-yilga nisbatan turistlar tashrifi 26,8%ga o‘sganligini ko‘rishimiz mumkin.

Turistik tashriflarning tahlili ko‘rsatishicha respublikamizning tashqi turizm bozorini ikkiga bo‘lib o‘rganish maqsadga muvofiqdir. MDH (MDH va yaqin qo‘shni mamlakatlar) va uzoq xorijiy mamlakatlar turizm bozoriga bo‘lamiz. Asosiy turistlar respub-likamizga MDH va yaqin qo‘shni mamlakatlardan tashrif buyurayotganligi, bu bozorning imkoniyatlari kattaligidan dalolat beradi.

Respublikamizga 2018-yilda Qozog‘istondan 2,253 ming, Tojikistondan 1,131 ming, Qirg‘izistondan 1,034 ming, Turkmanistondan 178,4 ming, Rossiya Federatsiyasidan 371,1 ming, Afg‘onistondan 44,2 ming, Ukrainadan 12,0 ming, Ozarbayjondan

[79] Uzbektourism.uz ва Tourism in Uzbekistan статистик тўплами маълумотлари.

10,3 ming, Belarusiyadan 7,6 ming, Armanistondan 1,4 mingta turist tashrif buyurgan. 2019-yilda shunga mos ravishda Qozog‘istondan 2,261 ming, Tojikistondan 1,474 ming, Qirg‘izistondan 1,455 ming, Turkmanistondan 574,8 ming, Rossiya Federatsiyasidan 458,4 ming, Afg‘onistondan 62,5 ming, Ukrainadan 14,0 ming, Ozarbayjondan 12,3 ming, Belarusiyadan 7,4 ming, Armanistondan 1,7 mingta turist tashrif buyurgan. Turistlarning tashrifi 2019-yilda 2018-yilga qaraganda 25,3% o‘sishga erishilgan[80](15.2.2-jadval).

15.2.2-jadval

MDH va yaqin qo‘shni davlatlardan tashrif buyurgan turistlar[81]

(ming kishi hisobida)

Davlatlar nomi	Yillar		Yillik o‘sish %da
	2018	2019	
Qozog‘iston	2,253	2,261	0,4
Tojikiston	1,131	1,474	30,2
Qirg‘iziston	1,034	1,455	40,7
Turkmaniston	178,4	574,8	322,2
Rossiya Federatsiyasi	371,1	458,4	23,5
Afg‘oniston	44,2	62,5	41,4
Ukraina	12,0	14,0	16,6
Ozarbayjon	10,3	12,3	19,4
Belarusiya	7,6	7,4	-2,7
Armaniston	1,4	1,7	21,4
Jami	5,043	6,321	25,3

Turistlar tashrifining 2019-yilda 2018-yilga nisbatan o‘sishini MDH va yaqin qo‘shni mamlaktalar miqyosida tahlil qilganimizda Qozog‘istondan 0,4%ga, Tojikistondan 30,2%ga, Qirg‘izistondan 40,7%ga, Turkmanistondan 322,2%ga, Rossiya Federatsiyasidan 23,5%ga, Ozarbayjondan 19,4%ga, Ukrainadan 16,6%ga,

[80] www/uzbektourism.uz O‘zbekiston Respublikasi Turizmni rivojlantirish davlat qo‘mitasining statistik ma’lumotlari.

[81]Uzbektourism.uz ва Tourism in Uzbekistan statistik to‘plam ma’lumotlari.

Armanistondan 21,4%ga, Afg‘onistondan 41,4%ga o‘sish bo‘lgan, faqat Belarusiyadan tashriflar -2,7%ga tushishi kuzatildi.

Shu singari uzoq xorijiy davlatlar bozoridagi tendensiyani ko‘rib chiqqanimizda asosiy turistlarni yetkazib beruvchi sakkizta mamlakat borligi aniqlandi. Bu davlatlar turistik bozordagi oqimining o‘rtacha 60-70%ni ta’minlab bermoqda.

O‘zbekistonga 2018-yilda xorijlik tashrif buyuruvchilarning asosiy qismi uzoq xorijiy mamlakatlar orasida katta qismi Turkiyaga to‘g‘ri keladi 41,2 ming kishi, keyingi o‘rinlarda Xitoydan 32,4 ming, Koreya Respublikasidan 27,2 ming, Hindistondan 21,0 ming, Germaniyadan 18,0 ming, Yaponiyadan 17,0 ming, Italiyadan 13,8 ming, Fransiyadan 13,5 ming, qolgan davlatlardan 118,7 ming turistlar tashrif buyurgan. 2019-yilda shunga mos ravishda Turkiyadan 63,5 ming, Xitoydan 54,2 ming, Koreya Respublikasidan 35,5 ming, Hindistondan 27,8 ming, Germaniyadan 27,6 ming, Yaponiyadan 24,9 ming, Italiyadan 20,3 ming, Fransiyadan 20,3 ming, boshqa davlatlardan 152,8 ming turistlar tashrif buyurgan (15.2.3-jadval).

Uzoq xorijiy mamlakatlar turizm bozoridagi tendensiyani tahlil qiladigan bo‘lsak, 2019-yilda 2018-yilga nisbatan turistik oqim Turkiyadan 54,1%ga, Xitoydan 67,2%ga, Koreya Respublikasidan 30,5%ga, Hindistondan 32,3%ga, Germaniyadan 53,3%ga, Yaponiyadan 46,4%ga, Italiyadan 47,1%ga, Fransiyadan 50,3%ga, qolgan boshqa davlatlardan 28,7%ga o‘sganligi kuzatildi.

Respublikamizda turizmidagi oxirgi yillardagi ijobiy o‘zgarishlarga erishilishing asosiy sabalari quyidagilardir: turizmni 2025-yilgacha bo‘lgan davrda rivojlantirishning chora-tadbirlari rejasining ishlab chiqilishi; qo‘shni va uzoq xorijiy davlatlar bilan iqtisodiy aloqalar va integratsion jarayonlarning qayta ko‘rib chiqilishi; turizmda faol investitsion muhitning yaratilishi; viza sistemasidagi o‘zgarishlar; turistik xizmatlar ko‘rsatishda raqobatning ortib borishi; infratuzilmaning shakllantirish jarayonining tezlashishi;

tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlash uchun yaratilayotgan shart-sharoitlar va boshqalar.

15.2.3-jadval

O‘zbekistonga nisbatan ko‘p turistlar tashrif buyurayotgan uzoq xorijiy davlatlarning ko‘rsatkichlari[82] (ming kishi hisobida)

Davlatlar nomi	Yillar			
	2016	2017	2018	2019
Turkiya	39,8	48,4	41,2	63,5
Xitoy	11,8	15,1	32,4	54,2
Koreya Respublikasi	25,3	31,1	27,2	35,5
Hindiston	17,9	15,1	21,0	27,8
Germaniya	6,0	7,2	18,0	27,6
Yaponiya	3,0	4,1	17,0	24,9
Italiya	3,7	4,8	13,8	20,3
Fransiya	4,7	5,6	13,5	20,3
Boshqa davlatlardan	46,0	49,9	118,7	152,8
Jami	154,5	181,3	302,8	426,9



15.2.2-rasm. O‘zbekistonda viza tartibi joriy qilingan davlatlar ko‘rsatkichlari[83].

[82]Uzbektourism.uz ва Tourism in Uzbekistan statistik to‘plam ma’lumotlari.

[83] www/uzbektourism.uz ва Tourism in Uzbekistan 2019 statistik to‘plam ma’lumotlari.

2020-yil 1 yanvardan vizasiz tartib asosida 86 ta mamlakatdan turistlarni qabul qilish joriy qilindi. 2019-yilda umumiy tashrif buyurgan turistlarning 58,0%ni vizasiz kelgan turistlarni tashkil etdi. Vizasiz tartibga amal qilish muddati ham 7 kundan 60 kungacha qilib belgilandi. Shu bilan birgalikda elektron viza tartibidan 57ta mamlakat turistlari foydalanish imkoniyati yaratildi. Elektron viza orqali 2019-yilda mamlakatimizga 60 mingta turist tashrif buyurgan. Bundan tashqari tranzit vizasiz tartib 36ta mamlakat fuqarolari uchun joriy qilindi. Bunday amalga oshirilgan ishlar natijasida mamlakatimizga tashrif buyurayotgan turistlar oqimining sonida mavsumlar kesimida ham ijobiy o‘zgarishlar kuzatilmoqda.

Mamlakatimizga tashrif buyurgan turistlarning 2018-2019-yillarda mavsumlar va oylar kesimida tendensiyasini o‘rganib chiqadigan bo‘lsak, 2018-yil yanvar-fevral oylarida eng kam turislar tashrifini ko‘rsatadi. Bu borada 2019-yilda olib borilgan ishlar va ishlab chiqilgan chora-tadbirlar natijasida yanvar oyida 437,2 ming turist tashrif buyurgan bo‘lib, o‘tgan yilgiga nisbatan 62,4% o‘sish, fevralda 393,5 ming turist tashrif buyurgan bo‘lib, o‘tgan yilgiga nisbatan 50,6% o‘sish erishilgan[84](15.2.4-jadval).

Yilning boshqa oylarida yillik o‘sish bu darajada kuzatilmadi. Buning asosiy sabablaridan biri oxirgi yillarda respublikamizning bir qator hududlarida qishki turizmni (Toshkent, Namangan, Jizzax viloyatlarida) rivojlantirish borasida olib borilgan ishlar samarasidir.

O‘zbekistonda nafaqat jahon turizmida eng katta muammolardan biri, turistik mavsumni bir xilda ushlab turishdir. Turistik mavsumni bir maromda ushlab turish, turizmi rivojlangan Fransiya, Germaniya, Ialiya, Kanada, Xitoy davlatlarida ham dolzarb masaladir.

Mamlakatimizga asosiy turistik oqim avgust, sentyabr, oktyabr, noyabr oylariga to‘g‘ri keladi. Buning asosiy sabablaridan biri, shu vaqtlarda respublikamiz ob-havosi qulay turistik sayohat qilishga imkon beradi. Yozda ham turistlar harakati 2019-yil iyun oyida 2018-

[84] www/uzbektourism.uz ва Tourism in Uzbekistan 2019 statistik to‘plam ma’lumotlari.

yilga nisbatan 29,7 % o‘sish, iyul oyida 18,0% o‘sishni qayd etgan holda oldingi yillarga nisbatan sezilarli darajada ortib borayotganligini ko‘rishimiz mumkin[85].

15.2.4- jadval

O‘zbekistonga tashrif buyurgan chet ellik turistlarning 2018-2019-yillarda oylar kesimidagi ko‘rsatkichlari[86] (ming kishi hisobida)

Oylar/yillar	2018-yil	2019-yil	O‘sish %da
Yanvar	269,2	437,2	62,4
Fevral	261,2	393,5	50,6
Mart	448,3	549,4	22,5
Aprel	434,9	544,4	25,1
May	441,5	496,7	12,5
Iyun	472,9	613,5	29,7
Iyul	506,1	597,7	18,0
Avgust	584,4	692,3	18,4
Sentyabr	503,3	613,8	21,9
Oktyabr	504,3	658,3	38,2
Noyabr	476,1	633,9	33,1
Dekabr	450,2	517,6	14,9

Turistik mavsumiylikni ta’minlashning eng muhim sabalaridan biri, yil davomida infratuzilmani bir xilda ishlashiga sharoit yaratishdir. Mavsumiylikning o‘rtasidagi farqning ortib ketishi bir qator muammolar, jumladan, malakali ishchilarning ish o‘rnini yo‘qotishi, mehmonxonalarning bandligi, transport xizmatidagi uzilishlarni, valyuta tushumlari harakatini va boshqalarni keltirib chiqaradi. Mamlakatimizda oldingi yillarda turistik mavsumiylik o‘rtasida juda katta farqlar mavjud edi, lekin oxirgi uch yil davomida amalga oshirilgan ishlar ko‘lami bu farqni kamaytirishga imkoniyat bermoqda.

[85] Uzbektourism.uz ва Tourism in Uzbekistan statistik to‘plam ma’lumotlari.
[86] Uzbektourism.uz ва Tourism in Uzbekistan statistik to‘plam ma’lumotlari.

Turistik mavsumlar orasidagi farqlarning kamayishini MDH va uzoq xorijiy mamlakatlardan tashrif buyurayotgan turistlar harakatini o‘rganish orqali qilinishi kerak bo‘lgan ishlarimizni aniqlab olamiz.

MDH va uzoq xorijiy mamlaktlar turislari harakati tahlili ko‘rsatishicha MDHdan tashrif buyurganlar oylar bo‘yicha 2019-yilda 2018-yilga nisbatan yanvarda 64,8%, fevralda 48,3%, martda 25,4%, oktyabrda 29,6%, noyabrda 33,0%, dekabrda 14,5%ni, uzoq xorijiy davlatlar ko‘rsatkichlari yanvarda 53,5%, fevralda 52,8%, martda 11,6%, oktyabrda 41,8%, noyabrda 35,5%, dekabrda 25,0%ni ko‘rsatib, o‘sish tendensiyalari bu ikki turistik bozorda bir-biriga yaqinligini ko‘rsatdi.

Qolgan oylar bo‘yicha MDH mamlakatlaridan tashrif buyurganlar 2019-yilda 2018-yilga nisbatan aprelda 22,3%, mayda 10,6%, iyunda 27,2%, iyulda 16,6%, avgustda 16,6%, sentyabrda 19,8%ni, uzoq xorijiy davlatlardan tashrif buyurgan turistlar mos ravishda aprelda 60,7%, mayda 36,5%, iyunda73,5%, iyulda 41,3%, avgustda 44,3%, sentyabrda 43,8% o‘sish kuzatildi. Tahlillar natijasi bo‘yicha ikki turistik bozordan tashrif buyurayotgan turistlar tendensiyasiga oylar bo‘yicha qaraydigan bo‘lsak, o‘sish o‘zoq xorijiy mamlakatlar bozorida tez kechayotganligini ko‘ramiz.

MDH bozorida turistlar tashrifi yoz oylarida yillik o‘sish kamligini ko‘rsatayotgan bo‘lsa, aksincha uzoq xorijiy davlatlardan tashriflar soni yillik foizda barqaror bo‘lib turibdi.

Bu ko‘rib o‘tilgan muammolar va yuzaga kelayotgan kamchiliklarni yaqin yillar ichida bartaraf etish va sohani rivojlantirish uchun qabul qilinayotgan qarorlar, farmonlar va chora-tadbirlar rejalari ichida yana bir ahamiyatga molik bo‘lgan, 2019-2025-yillarda respublikamizda “Turizmni rivojlantirish konsepsiyasi”ning tasdiq-lanishi bo‘ldi. Konsepsiya yaqin 4-5 yil ichida infratuzilmani mukammal shaklantirishga doir qilinishi kerak bo‘lgan ishlarni o‘z ichiga oladi. Bu kabi amalga oshirilayotgan ishlar natijasida,

respublikamizda turizm rivojlanishi yuqori bosqichga chiqishiga shubha qolmaydi.

15.2.5-jadval

MDH va uzoq xorijiy davlatlardan tashrif buyurgan turistlarning oylar kesimidagi ko‘rsatkichlari[87] *(kishi hisobida)*

Oylar nomi	MDH davlatlaridan			Uzoq xorijiy davlatlardan		
	2018 yil	2019 yil	O‘sish %da	2018 yil	2019-yil	O‘sish %da
Yanvar	254 426	419 202	64,8	11 768	18 063	53,5
Fevral	251 493	372 955	48,3	13 439	20 538	52,8
Mart	413 539	518 666	25,4	27 595	30 788	11,6
Aprel	403 100	493 173	22,3	31 862	51 213	60,7
May	408 743	452 032	10,6	32 757	44 719	36,5
Iyun	447 386	569 191	27,2	25 521	44 284	73,5
Iyul	476 456	555 760	16,6	29 649	41 905	41,3
Avgust	546 004	636 822	16,6	38 430	55 449	44,3
Sentyabr	457 454	547 861	19,8	45 851	65 923	43,8
Oktyabr	464 595	601 929	29,6	39 795	56 437	41,8
Noyabr	451 508	600 623	33,0	24 623	33 363	35,5
Dekabr	429 652	491 896	14,5	20 569	25 718	25,0

15.3. O‘zbekistonda turizm turlari, ularning geografiyasi

O‘zbekiston turizmni rivojlantirishda ulkan salohiyatga egaligi bilan Markaziy Osiyoda alohida o‘ringa ega. Mamlakatda 7,4 mingdan ziyod madaniy meros obyektlari bo‘lib, 3 ta milliy bog‘, 8 ta davlat qo‘riqxonasi, 106 ta muzey va sayyohlarni jalb qilish mumkin bo‘lgan ko‘plab turistik markazlar mavjud.

[87]Uzbektourism.uz ва Tourism in Uzbekistan statistik to‘plam ma’lumotlari asosida tuzildi.

Respublikamiz turizmi asosan shu kungacha tarixiy turizmga ixtisoslashgan edi. Bunday bir xillikdan voz kechish va yangi turistik imkoniyatlarni ishga solish borasida bir qator ishlar amalga oshirilmoqda. Shuning uchun biz kelajakda imkoniyati katta bo‘lgan turistik resurslardan foydalanish bo‘yicha to‘xtalib o‘tishni maqsadga muvofiq deb bilamiz.

Hozirgi kunda respublikamiz turizmi oldida turgan asosiy muammolardan biri mintaqalarda turizm infratuzilmasini rivojlantirish va rivojlanish yo‘nalishlarini ishlab chiqishda asosiy e’tibor nimalarga qaratilishini o‘rganish masalasi dolzarb bo‘lib qolmoqda. Shundan kelib chiqqan holda, izlanishlarimiz ko‘rsatishicha, so‘nggi paytlarda raqamli iqtisodiyot, innovatsiya, innovatsion-texnologiyalar kabi tushunchalarning hayotimizga kirib kelishi, shu bilan birga mintaqaviy iqtisodiyot va iqtisodiy geografiyadagi ilmiy inqilob sari tobora kengroq kirib kelayotgan tushunchalardan biri bozor iqtisodiyoti sharoitida ishlab chiqarishni tashkil etishning o‘ziga xos shakli sifatida klaster tushunchasi hisoblanadi.

Mintaqaviy turistik klaster bir qator o‘ziga xos xususiyatlar bilan tavsiflanadigan tizimdir. Mintaqaviy klasterni shakllantirishning muhim sharti xo‘jalik yurituvchi subyektlarning geografik yaqinligi hisoblanadi. Muhim sohalarda ishlab chiqaruvchi va qo‘llab-quvvatlovchi tarmoqlar, tashkilotlarning bir qancha firmalari to‘planmoqdaki, ular ishlab chiqarish miqyosida va turli-tumanlik bo‘yicha, shuningdek axborotlarni va resurslarni iqtisod qilishni ta’minlamoqda. Ular o‘rtasidagi munosabatlarning “quyuqlashishi” sababli mintaqaviy klasterlar juda katta raqobatbardoshlikka erishadi. Klasterlarning geografik miqyosi bir shahar yoki viloyatdan bir mamlakatga yoki hatto qo‘shni mamlakatlarga qarab o‘zgarib borishi mumkin[88].

Mintaqaviy klasterlarni tashkil qilishda xalqaro tajriba ko‘rsatishicha davlat-xususiy hamkorlik tamoyillari asosida tashkil

[88] Muallifning kuzatishlari orqali olgan xulosasi.

etish uning tezroq rivojlanishiga yordam beradi. Davlat mintaqaviy turistik klasterning shakllanish jarayoni va rivojlanishida, ayniqsa birinchi bosqichda, muhim ahamiyatga ega, biroq bu turizm biznesiga yaqin, qo‘shimcha ravishda strategik ittifoqchilikni amalga oshiradi. Amaliyotda samaradorlikni namoyon etuvchi davlat va xususiy sektorlar o‘rtasidagi aloqalarning turli shakllari, modellari va mexanizmlari mavjud. Davlat klasterning turli omillari uchun platforma yaratish yo‘li bilan joylarda klaster tashabbuskorligining rivojlanishiga, xodimlarga qo‘shimcha ta’lim berish va ularni qayta tayyorlash dasturlarini amalga oshirish orqali mahalliy ishchi kuchining malakasini oshirish, xorijlik tashrif buyuruvchilarni jalb qilish maqsadida mintaqa brendini yaratish va boshqalarga yordam beradi.

Mintaqalarni rivojlantirish uchun ustuvor tarmoqlarda klaster-larni nafaqat o‘rta muddatli, balki uzoq muddatli, strategik istiqbolli, globallashtirish va xalqaro raqobat jarayonlarining rivojlanishi nuqtai-nazaridan yaratish maqsadga muvofiqdir. Shuning uchun, hududiy rivojlanishning strategik maqsadlariga iqtisodiyotning raqobatdosh tuzilmasini shakllantirishga klasterli yondashuv doirasida erishish uchun yuqorida keltirilgan qoidalarni amalga oshirish mumkin. Qo‘shimcha qiymat yaratish jarayonida o‘zaro bog‘liq klasterlarni tashkil etishda ishlab chiqaruvchi korxonalar, yordamchi va infratuzilmaviy tashkilotlar yuqori texnologik va raqobatbardosh mahsulotlarni yaratish uchun shaxobchalarga bo‘linib ketgan tarmoqlarga birlashadilar.

Klasterning muvaffaqiyatli ishlashi uchun turistik jozibadorlik tamoyiliga asoslangan holda tarmoqlarning o‘zaro bog‘liqligi va ularning hamkorligini tashkil etilishini ko‘rishimiz mumkin.

Bizning tadqiqotlarimiz va O‘zbekiston Respublikasining administrativ bo‘linishi va mintaqalarni kompleks rivojlantirish imkoniyatlarini hisobga olgan holda ixtisoslashtirilgan klasterlarni tashkil qilishda turistik mintaqalarni quyidagicha bo‘lish maqsadga

muvofiq bo‘ladi: Toshkent (Toshkent viloyati va Toshkent shahri); Farg‘ona (Farg‘ona, Andijon va Namangan viloyatlari); Jizzax-Sirdaryo (Jizzax va Sirdaryo viloyatlari); Samarqand (Samarqand viloyati va Samarqand shahri); Buxoro-Navoiy (Buxoro va Navoiy viloyatlari); Janubiy turistik mintaqa (Qashqadaryo va Surxondaryo viloyatlari); Xorazm (Xorazm viloyati); Quyi Amudaryo (Qoraqalpog‘iston Respublikasi) turistik mintaqalariga ajratishni taklif qilamiz.

Ko‘rib o‘tilayotgan va tavsiya qilinayotgan O‘zbekistondagi sakkizta turistik mintaqalarni alohida ixtisoslashtirilgan klaster shaklida rivojlantirishni va ularni turistik jozibadorlik nuqtai-nazaridan quyidagi uchta klasterni ilgari surish maqsadga muvofiq bo‘lar edi.

O‘rtacha turistik jozibadorlikka ega mintaqalardan iborat birinchi klasterga 4 ta mintaqani kiritishni taklif etamiz. Bu mintaqalarda infratuzilma rivojlanishi sust bo‘lib, turistik yuklama va xorijiy turistlarning ulushi mahalliy turistlar sonidan o‘rtacha darajadan past. Bu klasterga rekreatsion-sog‘lomlashtirish resurslarga boy bo‘lgan Jizzax-Sirdaryo, Farg‘ona, Quyi Amudaryo va Janubiy turistik mintaqalarini kiritish maqsadga muvofiqdir.

Ikkinchi guruh mintaqasiga Toshkent va Samarqandni kiritishni maqsadga muvofiq deb bilamiz, sababi bu yerga xorijiy turistlar sayyohlik maqsadlari bilan birga xizmat doirasida ishbilarmonlik yo‘nalishida tashrif buyuradilar. Shuning uchun mintaqa aralash turistik resurslarga (tarixiy-madaniy, rekreatsion) boy mintaqa hisoblanadi.

Uchinchi guruhga Buxoro-Navoiy va Xorazm mintaqalarini kiritishni maqsadga muvofiq deb bilamiz, sababi bu yerda madaniy-tarixiy turistik jozibadorlik nuqtai-nazaridan infratuzilma yetarlicha rivojlangan.

Respublikamizning turistik mintaqalarida turizm rivojlanishini baholaydigan maxsus bo‘lim va mutaxassislar yo‘qligi uchun turistik

salohiyatga ega hududlarning rivojlanish strategiyasini loyihalash, iqtisodiy o‘sishning asosiy manbalari sifatida hududning o‘z resurslarini aniqlanishi va foydalanilishiga qaratilgan “o‘z-o‘zini rivojlantirish” tamoyilidan foydalanish maqsadga muvofiqdir.



15.3.1-rasm. Turistik mintaqalarning jozibadorlik nuqtai-nazaridan ixtisoslashtirilgan klasterlarga bo‘linishi[89].

Qoidaga binoan, resurslar cheklangan sharoitda faoliyat yuritadigan bir nechta hududlarning salohiyatini birlashtirish, sezilarli darajada undan foydalanish samaradorligini oshiradi va a’lo darajadagi miqdoriy jihatdan yuqori samaraga erishish imkonini beradi. Shuning uchun ko‘p bosqichli va hududlararo o‘zaro munosabatlarning ahamiyatini hududlarni rivojlantirishni boshqarish tamoyillaridan biri sifatida qabul qilinish muhimdir.

Shu nuqtai nazardan Toshkent viloyatining turistik rekreatsion resurslaridan samarli foydalanish maqsadida mintaqa turizmi infratuzilmasining raqobatbardoshliligini oshirish, turistik imkoniyatlardan samarali foydalanish, turistik salohiyatdan kelib chiqqan holda Yangi xizmat turlarini ishlab chiqish, tashqi aloqalarni rivojlantirish, mintaqada tashqi va ichki turizmni rivojlantirish, xorijiy va mahalliy turistlarga innovatsion texnologiyalardan keng foydalangan holda mehmonxona va transport xizmatlarini kengaytirish

[89]Tadqiqotchining izlanishlari natijasida ishlab chiqilgan.

va sifatini oshirish maqsadida Prezidentimiz tomonidan 2017-yil 5-dekabrda Chimyon-Chorvoq kurort-rekreatsiya zonasi chegarasi doirasida “Chorvoq” erkin turistik zonasini tashkil etish to‘g‘risida”gi PF-5273-sonli farmoni qabul qilindi[90]. Bu paytgacha respublikamizda erkin zonalar va uning tarkibida turistik-rekreatsion zonalarni tashkil etish amaliyoti qo‘llanilgani yo‘q edi. Bu bilan turistik-rekreatsion zonalarni tashkil qilish va turizmdagi eng so‘nggi innovatsion texnologiyalarni qo‘llash orqali mintaqa turistik industriyasining rivojlanishini faol qo‘llab-quvvatlash va mintaqa iqtisodiyotining rivojlanishi maqsad qilib olindi.

Buni mintaqalar misolida ko‘rib chiqadigan bo‘lsak, masalan, Jizzax turistik mintaqasida tahlillarimiz ko‘rsatishicha, klasterlarni (qishloq xo‘jaligi, tog‘-konchilik, turistik-dam olish va boshqalar) rivojlantirish uchun infratuzilmaning imkoniyatlari yetarli ekanligini ko‘rsatadi.

Respublika va xalqaro ahamiyatga ega bo‘lgan tarixiy-madaniy va tabiiy yodgorliklar saqlanib qolgan hududlar va tabiatni muhofaza qilish mavqeiga ega bo‘lgan hududlarda alohida qo‘riqlanadigan yerlarning mavjudligi, dam olish va faol rekreatsiya uchun yaroqli bo‘lgan turli-tuman tabiiy resurs-lariga ega bo‘lgan Jizzax mintaqasining beqiyosligi viloyatni respublikada eng jozibali rekreatsion turistik yo‘nalishlaridan biriga aylantirish mumkin.

Shu bilan birgalikda jahon turizmida so‘nggi yillarda qishloq turizmi keng tarqalmoqda. Turistik obyektlar va markazlarning aksariyati respublikamiz qishloqlarida joylashgan. Qishloqlarimizda ulkan turistik imkoniyatlar bo‘lishiga qaramasdan, bugungi kungacha bunday salohiyatdan to‘laligicha foydalanilmay kelinmoqda.

Buning asosiy sabablaridan biri qishloq infratuzilmasi yetarlicha shakllanmaganligi bois xorijiy va mahalliy turistlarning tashrifi yetarlicha amalga oshirilmay qolmoqda. Infratuzilmani yetarlicha rivojlantirish orqali qishloqlarimizda xizmat ko‘rsatishni xalqaro

[90] www/ Lex.uz.Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 06.12.2017 y., 06/17/5273/0363-son

darajaga yetkazish lozim. Mintaqalarimizda turistik marshrutlarni yetarlicha tashkillashtirish orqali qishloq joylarimizdagi mavjud turistik resurslardan samarali foydalanishgan holda yalpi hududiy daromadni oshirish imkoniyatini yaratish kerak. Bu borada respublikamizda bir qator ishlar amalga oshirilgan va oshirilib kelinmoqda. Masalan, respublikamizda qishloq joylari infratuzilmasini yaxshilash borasida 2009-yilni “Qishloq taraqqiyoti va farovonligi yili”, 2013-yilning “Obod turmush yili” – deb e’lon qilinishi va 2018-yilda “Obod qishloq” dasturining qabul qilinishi qishloqlar infratuzilmasini rivojlantirishda katta imkoniyatlarni yaratib bermoqda.

Hozirgi kunda hukumatimiz oldida turgan asosiy vazifalardan biri ham qishloq joylarida Yangi ish o‘rinlarini yaratish va bu orqali aholining ijtimoiy himoyasini kuchaytirish, ularning yashash darajasini yaxshilashga katta e’tibor bermoqda. Bu yo‘nalishda qishloq joylarda turizmni rivojlantirish muhim ahamiyatga ega bo‘lib, uning imkoniyatlari judda kattadir.

Bu imkoniyatlar bo‘yicha to‘xtaladigan bo‘lsak, ular quyidagilardan iborat: joylashtirish vositalari, transport va ovqatlan-tirish xizmatlarining qishloqlarimizda shahardagiga nisbatan 2-3 marotaba arzonligi; ob-havoning yirik shaharlarga nisbatan qishloqlarimizda nisbatan tozaligi; qishloqlarimizda ekologik toza oziq-ovqat mahsulotlarining mavjudligi, eng asosiysi bir necha turi shu joyning o‘zida yetishtirilishi; millatimizga va xalqimizga xos bo‘lgan qadimiy madaniy me’roslarning shaharlarimizdagiga ko‘ra ko‘proq saqlanib qolganligi; turistik jozibadorlikka va rekretsion resurslarga boyligi; hunarmandlar tomonidan o‘z an’anasiga xos bo‘lgan hududiy brend mahsulotlarning ishlab chiqilishi; har bir hududning xususiyatlaridan kelib chiqqan holda o‘ziga xos bo‘lgan xizmat turlarining ko‘pligi va rang-barangligi; avloddan-avlodga o‘tib kelayotgan qadimiy ishlab chiqarish texnologiyalarining saqlanib

qolinganligi (temirchilik, yog‘och o‘ymakorligi, kashtachilik, zargarlik va boshqa…).

Shu bilan eng ahamiyatlisi qishloqlarimizda turizmning quyidagi turlarining resurslari mavjudligi: tarixiy-arxeologik turizm resurslari (tarixiy obidalar, arxeologik qazilmalar, relyeflar, landshaftlar); etnografik turizm resurslari (xalq og‘zaki ijodi, milliy hayot tarzi, folklor, xalq o‘yinlari, turli marosimlar, hunarmanchilik mahsulotlari); qishloq xo‘jaligi (agroturizm) resurslari (qishloq bog‘lari, poliz ekinlari, pillachilik, qishloq xo‘jaligining mavsumiy ishlari, qishloqlarning o‘ziga xos ko‘rinishlari); tanishuv turlari (konferensiya, seminar va kurslar) diniy–ziyorat turizmi resurslari (diniy qadamjolar, masjid va boshqa ziyorat joylari, turli diniy marosimlar); ekologik turizm resurslari, qishloqlarning tabiiy geografik mintaqalarda (tog‘, tog‘ oldi, adir, cho‘l, suv havzalari va boshqalar) joylashganligi; sog‘lomlashtirish turizmi resurslari (mineral suv manbaalari, pansionatlar, sog‘lomlashtirish markazlari, sanatoriylar, kurortlar) rekreatsiya turizmi resurslari (betakror joylar, daralar, g‘orlar, buloqlar, o‘rmonlar, daryo bo‘ylari va boshqalar); sport turizmi resurslari (alpinizm va toqqa chiqish, chang‘i uchish trassalari, ot sporti maydonalari, avtoralli, motosport, velosport poygalari o‘tkazish yo‘laklari); ilmiy turizmni amalga oshirish resurslari (qo‘riqxonalar, maxsus qo‘riqlanadigan hududlar, buyurtmaxonalar va boshqalar).

Qishloq turizmini tashkil qilishda yuqorida qayd qilingan turizm turlarining barcha resurslari majmuali, kompleks holda ishlashi va har qanday toifadagi turistlarni ko‘proq muddatlarga ushlab qolishga (turistik safarni uzaytirish) harakat qilish lozim. Respublikamizda qishloq joylardagi resurslardan turistik maqsadlarda foydalanishni majmuali tashkil qilish qulayligini hisobga olib, yuqorida keltirilgan turizm turlarini jamlagan holda qishloq turizmi deb atasak, bu turizm infratuzilmasini rivojlantirish dasturlarini ishlab chiqish ancha oson kechadi.

Respublikamizda qishloq turizmi infratuzilmasini rivojlantirish zarurligining eng asosiy, dolzarb yana bir masalasi – shahar aholisining qishloqlarda dam olishini tashkil qilish deb tushunmog‘imiz lozim.

15.3.1-jadval

O‘zbekiston qishloqlaridagi turistik resurslar va ularning turlari[91].

№	Turizm turlari	Turistik resurslar
1	Tarixiy-arxeologik turizm	Tarixiy obidalar, arxeologik qazilmalar, relyeflar, landshaftlar
2	Etnografik turizm	Xalq og‘zaki ijodi, milliy hayot tarzi, folklor, xalq o‘yinlari, turli marosimlar, hunarmanchilik mahsulotlari
3	Qishloq xo‘jaligi (agroturizm)	Qishloq bog‘lari, poliz ekinlari, pillachilik, qishloq xo‘jaligining mavsumiy ishlari, qishloqlarning o‘ziga xos ko‘rinishlari
4	Tanishuv turlari	Konferensiya, seminar va kurslar
5	Diniy-ziyorat turizmi	Diniy qadamjolar, masjid va boshqa ziyorat joylari, turli diniy marosimlar
6	Ekologik turizm	Qishloqlarning tabiiy geografik mintaqalarda (tog‘, tog‘ oldi, adir, cho‘l, suv havzalari va boshqalar) joylashganligi
7	Sog‘lomlashtirish turizmi	Mineral suv manbaalari, pansionatlar, sog‘lomlashtirish markazlari, sanatoriylar, kurortlar
8	Rekreatsiya turizmi	Betakror joylar, daralar, g‘orlar, buloqlar, o‘rmonlar, daryo bo‘ylari va boshqalar
9	Sport turizmi	Alpinizm va toqqa chiqish, chang‘i uchish trassalari, ot sporti maydonalari, avtoralli, motosport, velosport poygalari o‘tkazish yo‘laklari
10	Ilmiy turizm	Qo‘riqxonalar, maxsus qo‘riqlanadigan hududlar, buyurtmaxonalar va boshqalar

[91]Kuzatuvlar asosida jamlangan.

Dunyo davlatlari tajribasi va olib borgan izlanishlarimiz ko‘rsatishicha, bir qator turizmi rivojlangan mamlakatlarda qishloq turizmini rivojlantirish orqali ichki turizmni, so‘ngra xalqaro turizmni rivojlantirgan. Bugungi kunda jahon turizmida “lider” o‘rinlarni egallab kelayotgan AQSH, Kanada, Fransiya, Angliya, Germaniya, Italiya, Avstraliya va Ispaniya davlatlari hozirgi mavqe’lariga dastlab qishloq turizmini rivojlantirish orqali erishgan. Shu sababli, G‘arbiy Yevropaning deyarli barcha davlatlarida qishloq turizmi infratuzilmasi yaxshi rivojlangan. Sharqiy Yevropa davlatlari ko‘p yillar sobiq sovetlar ta’sirida bo‘lganligi natijasida, tashkiliy ishlar, chora-tadbirlar to‘g‘ri rejalashtirilmaganligi va boshqa ba’zi bir omillar sababli qishloq turizmi infratuzilmasini talab darajasida rivojlantira olmadi.

Shu singari, bizning respublikamizda ham sobiq ittifoq vaqtida qishloq turizmi infratuzilmasini rivojlantirishga umuman e’tibor berilmaganligi sababli bugungi kunda jiddiy ilmiy tadqiqot olib borish kerakligi va bu borada rivojlangan davlatlar tajribasini o‘rganishga ehtiyoj borligi sezilmoqda.

Bu kabi muammolarni bartaraf etishning chora-tadbirlarini ishlab chiqishimiz va qishloq turizmi infratuzilmasini rivojlantirishning asosi quyidagilardan iborat bo‘lishi kerak: qishloq turizmini rivojlantrishning huquqiy-me’yoriy asoslarini takomillashtirish; salohiyatli turistlarga va rivojlanayotgan tarmoqlarning axborot byurolariga qishloq turizmi haqidagi barcha ma’lumotlarni, axborotlarni bepul yetkazib berish; qishloq infratuzilmalarini takomillashtirish bo‘yicha maqsadli imtiyozli mablag‘lar ajratish; qishloqlarda turistik resurslardan samarali foydalanish maqsadlaridan kelib chiqqan holda turistik korxonalarni davlat-xususiy sherikchilik asosida shakllantirish va davlatning foizli qatnashuvini ta’minlash; qishloq joylari infratuzilmasi rivojlanish holati monitoringini doimiy o‘tkazib borish; qishloq xo‘jalik klasterlari, fermer xo‘jaliklari va fermerlik faoliyatini rag‘batlantirish siyosatini qo‘llash; qishloq

infratuzilmasini rivojlantirishning istiqbolli loyihalarini amalga oshirish uchun investorlarni izlash.

Mamlakatimizda qishloq turizmi infratuzilmasini rivojlantirishda xalqaro modellar, tan olingan texnologiyalar va strategik rejalarni qo‘llash masalasi borasida olib borgan kuzatishlarimiz tahlili ko‘rsatishicha, ushbu modellar, texnologiyalar va strategik rejalarda biron bir qoyil qiladigan yoki hayratga tushadigan tomonlari yo‘qligini ko‘rsatdi. Respublikamizda bu texnologiyalar, strategik rejalarda belgilangan jarayonlarni va tashkiliy jihatlarini hech muammosiz qiynalmasdan tashkil qilishimiz ham, bajarishimiz ham mumkin.

Bu sohada eng muhimi ijtimoiy-iqtisodiy hayotimizda ijobiy o‘zgarishlar yaratadigan ushbu muhim sohani tashkil qilish va rivojlantirish rejalari, dasturlarini ishlab chiqish jarayonlarini boshlashimiz kerak.

Mamlakatimizda birinchi navbatda qishloq turizmi infratuzilmasini rivojlantirishda talab etiladigan narsa, davlat dasturi ishlab chiqilishi kerak. Ikkinchi talab, o‘rta va uzoq muddatli strategik prognoz parametrlarini yaratishdir. Uchinchi talab, qishloq turizmi infratuzilmasini rivojlantirish rejasi, davlat dasturi, boshqaruv tarkibi, moliyalash tizimi, yaratilgan shart-sharoitlar, turistik resurslar, qishloq aholisining turistlar tashrifi haqidagi munosabatlari, mahalliy aholining ijtimoiy-iqtisodiy hayotiga ta’siri, qishloq tabiiy resurslariga ta’siri haqida ommaviy nashrlarda respublikamizning olimlari, mutaxassislari, ijtimoiy-iqtisodiy sohalar mutaxassislari doimo ilmiy ommabop maqolalar bilan chiqishlari kerak bo‘ladi.

Masalan, Fransiyada 1971-yildan “Turizm va qishloq joylari” assotsiatsiyasi, Angliyada 2000-yildan “Turizm va qishloqlarni rivojlantirish” agentligi, Avstriyada 1991-yildan “Avstriya fermerlik turizmi assotsiatsiyasi” muvaffaqiyat bilan ishlab kelmoqda. Bu davlatlardagi tuzilgan tashkilotlarning ish uslubini o‘rganganimizda ular birinchi navbatda “Turizmning qishloqlarga yurishi” dasturini

amalga oshirgan va bu dasturni hozirgacha bosqichma-bosqich amalga oshirib kelmoqda.

Ikkinchidan, qishloq turizmini rivojlantirish masalalari, muammolari va ularning yechimlari haqida oson o‘qiladigan va sodda xamma birdek tushunadigan o‘quv-uslubiy qo‘llanmalar chop qilib qishloqlar aholisiga bepul taraqatilishi kutilgan natijalarni bergan.

O‘zbekistonda qishloq turizmi infratuzilmasini rivojlantirish ijtimoiy-iqtisodiy samaradorlikni ta’minlash bilan birga iqtisodiy islohotlarning natijadorligini oshiradi. Shu bilan birga, oldimizga qo‘ygan maqsadlarning bajarilishida davlatimizning iqtisodiy siyosatiga mos kelishini quyidagi tahlillardan ham tushunib olish mumkin. Mamlakatimizda qishloq turizmi infratuzilmasini rivojlantirish asosida qishloqlarimizdagi mavjud ishsizlikni yechish, kambag‘allikni bartaraf etish, mahalliy iqtisodni ko‘tarish, savdoni tashkil qilish, milliy ishlab chiqarishni tashkil qilish, xalqaro hamdo‘stlikni kuchaytirish kabi muhim masalalarda katta yutuqlarga erishishimiz mumkin.

Uchinchidan, shaharlarimizda yashayotgan aholining dam olishini tashkil qilish, shaharliklarni qishloqlar bilan bog‘lash, ularning qishloq xo‘jalik mahsulotlarini qishki mavsumga g‘amlab olishi sharoitlarini yaratish, ayniqsa shaharlik bolalarning qishloqlarda hordiq chiqarishini, tabiat bag‘rida bo‘lib, tabiatni anglashni, ekologik ong, ekologik madaniyatni shakllantirishimiz tabiatga mehr uyg‘otishimiz osonlashadi.

To‘rtinchidan, qishloq turizmini rivojlantirishda soliq tushumlarining ko‘payishini ta’minlash va ushbu mablag‘lar asosida qishloq infratuzilmasini yaxshilash, qarovsiz qolgan joylarni ko‘kalamzorlashtirish imkoniyatlari paydo bo‘ladi.

Beshinchidan, qishloq turizmini rivojlantirish asosida qishloq tabiatini, tarixiy obidalarni muhofaza qilish, ta’mirlash, muqaddas qadamjoylar, diniy ziyoratgohlarni obod qilish va ulardan xalqimizning erkin foydalanishini ta’minlash masalalari hal bo‘ladi.

Oltinchidan, tashrif buyurayotgan turistlar qishloqlarimizda saqlanib qolingan qadimiy urf-odatlarimiz, etnografiyamiz va mustaqilligimiz tufayli tobora sayqallanib borayotgan milliy meroslarimiz, milliy san’atimiz va madaniyatimiz bilan yaqindan tanishadi.

Bundan tashqari, qishloq turizmi infratuzilmasini shakllantirish va takomillashtirishda ba’zi bir xorij mamlakatlarining qishloq turizmini rivojlantirishning o‘ziga xos modellari bilan tanishib chiqdik. Ular asosan bu borada nimalarga alohida e’tibor qaratganini ko‘rib o‘tamiz.

Qishloq turizmini rivojlantirish bo‘yicha Germaniya modelining asosiy maqsadi alohida federal yerlarining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish darajasidagi farqlarni kamaytirish, qishloq turizmining sport va rekreatsion-sog‘lomlashtirish turizmlari bilan yaxlit infratuzilmaga birlashtirishdir. Asosiy vazifalar qilib, voqealar, hodisalar bazasida qishloq va fermerlik turizmlarini rivojlantirish belgilangan. Amalga oshirish vositalari sifatida fermerlar va ularning loyihalarini yakka tartibda qo‘llab-quvvatlash, turistik mahsulotlarni past rivojlangan viloyatlarga yo‘naltirishdir.

Buyuk Britaniya modelida qishloq turizmini rivojlantirishining asoslari bo‘lib, kelgusida tadbirkorlar, fermerlardan qishloq xo‘jalik yerlarining olib qo‘yilishi xavfini kamaytirish va qishloq joylarda madaniyatning qadimgi ko‘rinishlarini saqlab qolishdan iborat.

Asosiy maqsad va vazifalar qilib mamlakatda fermerlik turizmini keng ko‘lamda rivojlantirish orqali qishloq turizmi rivojlanishidagi nomutonosibliklarni yo‘qotishdir. Bu belgilangan maqsad va vazifalarni amalga oshirish vositalari sifatida qishloq turizmini rivojlantirish dasturini kreditlash, dotatsiyalash, turistik tashkilotlarning fermerlar manfaatini himoya qilishini ta’minlashdir. Moliyalashtirishning asosiy manbalari bo‘lib, davlat va xususiy investorlar belgilangandir. Qishloq turizmi infratuzilmasini

rivojlantirishning ahamiyati agrar ixtisoslashtirishning alternativ yo‘nalishini ishlab chiqishdan iborat.

Qishloq turizmini rivojlantirishining Fransiya modelining asosiy maqsadi bo‘lib, oziq-ovqatga bo‘lgan talabning o‘sib borishini hisobga olgan holda foydalanishga noqulay (uzumzorlar, poliz ekinlari maydonini tashkil qilish) va kam hosildor yerlarni o‘zlashtirish orqali qishloq turizmi infratuzilmasini takomillashtirish, sport-sog‘lomlashtirish va davolash turizmlari bilan yaxlit infratuzilmani yaratishdir.

Shundan kelib chiqqan holda vazifalari belgilangan bo‘lib, qishloq turizmini rivojlantirish darajalarida hududiy farqlarni yo‘qotish, gastronomiya va vinochilik turizmlarini rivojlantirishdan iborat. Bu mexanizmni amalga oshirish vositalari sifatida shimoli-g‘arbiy departamentlarning turistik mahsulotlarini harakatga keltirish, fermerlar va ularning loyihalarini yakka tartibda qo‘llab-quvvatlashdir. Ularni moliyalashtirishda davlat va xususiy investorlarning manbalariga tayaniladi. Shu bilan birga Fransiyada qishloq turizmi infratuzilmasini rivojlantirishning ahamiyati agrar ixtisoslashtirishning alternativ yo‘nalishini ishlab chiqishdir.

Qishloq turizmini rivojlantirishda Italiya modelining asosiy oldiga qo‘ygan maqsadi mamlakat janubidagi agrar rayonlarni depressiv holatidan chiqarish va qishloq turizmining plyaj, sport-sog‘lomlashtirish va kurort-davolanish turizmlari bilan yagona infratuzilmani barpo etishdir.

Shu bilan birga asosiy vazifalari bo‘lib, fermerlik va gastronomiya turizmlarini rivojlantirishdan iborat. Bu kabi chora-tadbirlarni amalga oshirish vositalari sifatida turistik kottejlar qurilishi, qadimgi qishloq uylarini tiklashni rag‘batlantirish va qishloq turistik mahsulotini janubiy mintaqalarga yo‘naltirishdir. Moliyalashtirish manbalari bo‘lib, davlat va xususiy investorlar belgilangan. Shu bilan birga Italiyada qishloq turizmining ahamiyati agrar ixtisoslashtirishning alternativasi bo‘lib xizmat qiladi.

Qishloq turizmini rivojlantirishda Ispaniya modelining oldiga qo‘ygan maqsadi mamlakat janubidagi agrar rayonlarning rivojlanishidagi qaloqlikni bartaraf etish va qishloq turizmining kurort-plyaj, sport-sog‘lomlashtirish turizmlari bilan birga tashkil etish imkoniyatlarini oshirishdir.

Qishloq turizmini rivojlantirishning yana bir asosiy vazifalari sifatida bolalar oromgohlari tarmoqlarini rivojlantirish, saqlanib qolgan qadimiy tosh qal’alar bazasida mehmonxona uylar tizimini yaratish, gastronomiya turizmini rivojlantirish belgilangan. Yuqoridagilarni amalga oshirish vositalari sifatida kottejlar va qishloq uylarining qadimgi ko‘rinishini tiklashni rag‘batlantirish, qishloq turizmi marshrutlarini janubiy provinsiyalarga yo‘naltirish. Amalga oshiriladigan chora-tadbirlarni moliyalashtirish manbalari sifatida davlat va xususiy investorlar belgilangan. Ispaniyada qishloq turizmi infratuzilmasini rivojlantirishning ahamiyati agrar ixtisoslashtirishning alternativ yo‘nalishini ishlab chiqishdir.

Qishloq turizmini rivojlantirishdagi modellarni o‘rganishda yana bir diqqatimizni qaratishimiz lozim bo‘lgan tomoni, biz bilan deyarli bir vaqtda sotsializm lageridan chiqqan Polsha va Ruminiya modelini ham ko‘rib o‘tishni maqsadga muvofiq deb bilamiz. Sababi bu davlatlar o‘tgan asrning oxirlarida biz bilan bir xil ko‘rinishdagi infratuzilmaga ega bo‘lgan.

Qishloq turizmini rivojlantirishning Polsha va Ruminiya davlatlari modelining asosiy maqsadi agrar rayonlarni depressiv holatidan chiqarish, qishloq joylardagi boy rekreatsiya va ekologik turizm resurslarining salohiyatidan unumli foydalanishdan iboratdir. Buning asosiy vazifalari qilib, qishloqlarda joylashtirish, ovqatlantirish, transport vositalarini ko‘paytirish orqali infratuzilmani takomillashtirish, dehqonlarni tadbirkorlik bo‘yicha o‘qitish, ularning yashash tarzini yaxshilash va qishloq turistik mahsulotlarini harakatlantirish belgilab olingan. Belgilangan vazifalarni amalga oshirish vositalari sifatida qishloq turizmini rivojlantruvchi dehqon

xo‘jaligini kreditlash, dehqonlarni Yevropa standartlari bo‘yicha xizmat ko‘rsatishga o‘qitish va qishloq joylarda transport tarmoqlarini yaxshilashdan iborat. Moliyalashtirish manbalari sifatida boshlanishida asosan davlat mablag‘larini yo‘naltirish va sekin asta keyinchalik xususiy sektorni (investorlar) jalb qilishdir. Bu davlatlarda ham qishloq turizmi infratuzilmasini rivojlantirishning ahamiyati agrar ixtisoslashtirishning alternativasini ishlab chiqishdir.

Qayd qilingan modellarning mazmuniga e’tibor beradigan bo‘lsak, Yevropa davlatlarining qishloq turizmini rivojlantirishda yagona dasturga, o‘zaro hamkorlik va ishlab chiqarish dasturiga ega ekanligini ko‘ramiz. Bu modellarning eng muhimi shundaki, Yevropa davlatlari qishloq turizmini rivojlantirishda qishloqni ijtimoiy-iqtisodiy holatini ko‘tarishning davlat dasturlarini tuzib chiqqan.

Endi, mamlakatimizda qishloq turizmini rivojlantirishda xalqaro modellarni qo‘llashga kelsak, viloyatdagi qishloqlarimizning turistik resurslar imkoniyatlarini hisobga olib, bir qancha modellarni joriy qilsak bo‘ladi.

Biz qishloqlarimizda yuqorida qayd qilingan modellardan ham mukammalroq modellarni ishlab chiqishimiz imkoniyatlaridan foydala-nishimiz kerak.

Qishloq turizmini rivojlantirishda birinchi navbatdagi vazifalar albatda joylashtirish vositalari infratuzilmasini yaratish hisoblanadi. Lekin, qishloqlarda qishloq turizmini rivojlantirishdagi dastlabki tadbirkorlikda bu masalani tezda hal qilsa bo‘ladi. Qishloq turizmini rivojlantirgan Yevropa davlatlari dastlabki vaqtda (Buyuk Britaniya) ham turistlarni joylashtirishda ijara usulini taklif qilgan.

Tadbirkorlikka keng yo‘l ochish va ularning faoliyat ko‘rsatishiga shart-sharoitlar yaratilgandan keyin o‘z-o‘zidan alohida-alohida uylar, kottejlar qurish raqobat natijasida boshlanib ketadi. Lekin, qishloq turizmini rivojlantirishda dastlab tadbirlar qishloq joylardagi eng jozibali va qiziqarli turistik obyektlar bo‘yicha turmarshrutlar ishlab chiqishdan boshlanmog‘i kerak.

Qayd qilganimizdek, ko‘plab turizm turlari turmarshrutlar ishlab chiqishda mavzulari bir xil bo‘lganligidan ularning keng qamrovli faoliyati ancha chegaralangan yoki bir yoki ikki mavzuda bo‘lib qolmasligi lozim. Qishloq turizmining marshrutlari turli mavzularda bo‘lishi va turistik obyektlarning xima-xil ko‘rinishda bo‘lishi, ularning jozibadorligi alohida ahamiyatga egadir. Masalan, birgina qishloq aholisining yashash tarzini o‘rganish yoki tomosha qilish bo‘yicha quyidagi turistik marshrutlarni ishlab chiqish mumkin:

1. Qishloq bilan tanishuv marshruti (aholisi, tili, hududlari, tabiati, dehqonchiligi, chorvachiligi, asosiy ishlab chiqarish mahsulotlari, kelib chiqishi va boshqalar).
2. Qishloq aholisining yashash tarzi (urf-odatlari, bayramlari, marosimlari, uy-ro‘zg‘or tutishlari, uy jihozlari, mehmon kutish, oiladagi munosabatlar, to‘ylar, milliy ta’omlar tayyorlash usullari, dam olishi va boshqalar)

Qishloq turizmini rivojlantirshning yana bir imkoniyatlari shundan iboratki, qishloqlarimizda turli mavzularda ekskursiyalarni tashkil qilishdir. Qishloqlarda ekskursiyalarning qiziqarliligi shundaki, ekskursiyalar bir obyektdan butunlay boshqa mavzudagi obyektga yo‘l-yo‘lakay o‘tilishidir. Agar qishloqlarda turistlarga xizmatlar ko‘rsatishni kunlik ekskursiyalar asosida tashkil qilsak, turistlarga ancha qulayliklar yaratilishi mumkin bo‘ladi. Chunki, qishloqlarda uzoq masofali turistik marshrutlar qishloqdagi dastlabki tunash joylariga qaytib kelishida ancha toliqtirib qo‘yadi.

Ikkinchidan, qishloq turizmida turistik marshrut yoki turistik ekskursiya ishlab chiqilganda va amalda o‘tkazilganda tushki ovqatlanish xizmatlarini albatta dalada tashkil qilish kerak. Chunki, dala sharoitida choy qaynatish, dala sharoitida ovqat tayyorlash turistlar uchun haddan tashqari va taassurotli bo‘lishi tabiiydir.

Qishloq turizmida turistik marshrutlar ishlab chiqilganda bir qishloqdan ikkinchi qishloqqa o‘tishda yo‘llarda uchragan, dalalarda ishlayotgan yoki chorva mollarini boqayotganlar bilan turistlarni

uchrashtirish dasturlari, ular bilan suhbatlashtirish dasturlari albatta sayohatning qiziqarli bo‘lishini ta’minlaydi. Qishloq turizmini rivojlantirishda turistik marshrutlarni reklama qilish, turizm turini rivojlantirishning asosiy omillaridan biri hisoblanadi. Qishloq turizmi marshrutlarini reklama qilganda boshqa turizm reklamalaridan mazmuni va tuzilishi bo‘yicha o‘ziga xos usullar va yondashuvlardan foydalanishni talab etadi.

Masalan, bu reklamalarda dastlab qishloqning joylashgan o‘rni, atrofidagi mavjud turistik resurslar, infratuzilmaning imkoniyatlari va turistik xizmatlarning qisqacha izohlari roliklar bilan ifodalanishi kerak. Shu singari bunday reklamalarning to‘liq axborotli bo‘lishi va maxsus platformalarga joylashtirilishi natijasida turistlar sayohatni amalga oshirmoqchi bo‘lgan qishloqqa erkin yetib borishi kafolatlanadi.

Demak, yuqoridagi tahlillar va xalqaro tajribalardan kelib chiqqan holda mamlakatimizda qishloq turizmini rivojlantirishda birinchi navbatda Turizm va sport vazirligi tarkibida “Qishloq turizmini rivojlantirish” bo‘limini tashkil qilishimiz zarur bo‘ladi. Bu bo‘limning qishloq turizmini rivojlantirish uchun quyidagi ishlarni amalga oshirishi maqsadli yo‘nalish bo‘ladi: qishloqlardagi turistik resurslarning ro‘yxatini tuzib chiqish, ulardan ichki va xalqaro turizmda foydalanish darajalarini aniqlash bo‘yicha tavsiflarini ishlab chiqish; qishloq turizmida atrof-muhitni muhofaza qilishda ekologik turizmni rivojlantirish dasturlarini yaratish; qishloqlarda yetishtiri-layotgan oziq-ovqat va ishlab chiqarilayotgan mahalliy mahsulotlarning sifatini ko‘tarish orqali iste’molchilarga taklif qilish; qishloq turizmi bo‘yicha alohida marketing tadbirlarini ishlab chiqish, talab-taklif iste’molchi tizimidagi ishlarning strategik rejalarini ishlab chiqish va amalga oshirish; qishloq turizmi infratuzilmasini yaratish usullarini ishlab chiqish va ularni amalda qo‘llash.

Mamlakatimizda qishloq turizmini rivojlantirishning strategik dasturini ishlab chiqish hozircha ancha murakkab hisoblanadi. Chunki,

qayd qilganimizdek, bu sohada keng ko‘lamli tadqiqotlar boshlanganicha yo‘q. Lekin, shunga qaramasdan qishloq turizmini rivojlantirishning strategik dasturini dastlab loyiha variantlarda ishlab chiqishni boshlashimiz lozim bo‘ladi.

Nazorat uchu savollar

1. O‘zbekistonda turizm sohasining rivojlanish imkoniyatlarini tahlil qiling.
2. O‘zbekistonda ichki turizm rivojlanishi holati bo‘yicha tushuncha bering.
3. O‘zbekistonda xalqaro turizm rivojlanishini tahlil qilib bering?
4. O‘zbekistonda turizm turlarini rivojlantirish uchun qanday ishlar amalga oshirilayapti.
5. O‘zbekistonda turizm rivojlanishida geografik omillarning ta’sirini tushuntiring.
6. O‘zbekistonda turizm rivojlanishi istiqbollari bo‘yicha tushuncha bering.

TURIZM ATAMALARI LUG‘ATI

O‘zbek tilida	Rus tilida	Ingliz tilida	Atamaning mazmuni
Chetga chiquvchi turizm	Выездной туризм	Outbound tourism	Chetga chiquvchi turizm – O‘zR qonun hujjatlariga ko‘ra O‘zbekiston Respublikasida doimiy istiqomat qiluvchi shaxslarning boshqa mamlakatga sayohat qilishi.
Turagentlik faoliyati	Турагентская деятельность	Travel agency activities	Turagentlik faoliyati – yuridik shaxs yoki yakka tartibdagi tadbirkor (turagent) tomonidan litsenziya asosida amalga oshiriladigan turistik mahsulotni bozorga chiqarish va sotish faoliyati.
Turoperatorlik faoliyati	Туроператорская деятелност	Tour operator activities	Turoperatorlik faoliyati – yuridik shaxs yoki yakka tartibdagi tadbirkor (turagent) tomonidan litsenziya asosida amalga oshiriladigan turistik mahsulotni shakllantirish, bozorga chiqarish va sotish faoliyati.
Turistik faoliyat	Туристская деятельность	Tourist activities	Turistik faoliyat – turoperatorlik va turagentlik faoliyati, shuningdek sayohatlarni tashkil etish bo‘yicha boshqa faoliyat.
Turizm tarixi	История туризма	History of tourism	Turizm tarixi – davrlar mobaynida turizmning rivojlanishi bosqichlarini nazarda tutuvchi va voqelikni aks ettiradigan manbalar.
Turizmda ovqatlanish	Питание в туризме	Food in tourism	Turizmda ovqatlanish – bu turistik xizmat bo‘lib, uning asosida insonning ovqatga

			bo‘lgan biologik ehtiyojini qondirish bilan bog‘liq tadbirkorlik faoliyati yotadi.
Turistik resurslar	Туристские ресурсы	Tourist resources	Turistik resurslar – O‘zR qonun hujjatlariga ko‘ra – turistik xizmat ko‘rsatish obyektlari, shuningdek turistlarning ma’naviy ehtiyojlarini qondirishga, ularning jismoniy kuchlarini tiklash va rivojlantirishga ko‘maklashishga qaratilgan obyektlarni o‘z ichiga oluvchi tabiiy-iqlim, sog‘lomlashtirish, tarixiy-madaniy, ma’rifiy va ijtimoiy-maishiy obyektlar majmui.
Turistik xizmat	Туристская услуга	Tourist service	Turistik xizmat – turistik korxonaning turistlar ehtiyojlarini qondirish borasidagi faoliyat natijasi.
Ekskursiya faoliyati	Экскурсионная деятелност	Excursion activity	Ekskursiya faoliyati – turistik faoliyatning tarixiy yodgorliklar, diqqatga sazovor joylar va boshqa obyektlar bilan tanishtirish maqsadida oldindan tuzilgan yo‘nalishlar bo‘yicha ekskursiya yetakchisi hamrohligidagi 24 soatdan oshmaydigan ekskursiyalarni tashkil etishga doir qismi.
Mehmonxona	Гостиница	Hotel	Mehmonxona – turizm va mehmonxona industriyasining elementi bo‘lib, turli turdagi xizmatlar taklif qiluvchi va turistlarni joylashtirish obyekti

Ishbilarmonlik turizmi	Бизнес-тур	Business tour	Ishbilarmonlik turizmi-turizmning bir turi bo‘lib, uning asosida malum xizmat yoki kasbiy vazifalarni xal kilish zarurati yotadi.
Sayohat	Путешествие	Traveling	Sayohat – odamlarning makon va zamonda turli xil maqsadlarda bir joydan boshqa joyga o‘tishi. Sayohatlar cheklangan bo‘ladi.
Turistik xizmatlar	Туристские услуги	Tourist services	Turistik xizmatlar – turistik faoliyat subyektlarining joylashtirish, ovqatlantirish, transport, axborot-reklama xizmatlari ko‘rsatish borasidagi, shuningdek turistlarning ehtiyojlarini qondirishga qaratilgan boshqa xizmatlari.
Turistik bozor	Туристский рынок	Tourism market	Turistik bozor – xizmatlar va tovarlar umumiy bozorning bir qismi bo‘lib, bozorda turistik-ekskursiya xizmatlarini pulga va aksincha pulning turistik-ekskursiya xizmatlariga ayriboshlash jarayoni amalga oshiriladi.
Turizmda tadbirkorlik	Туристский бизнес	Tourism business	Turizmda tadbirkorlik – turistik korxonaning turizm sohasida daromad keltiruvchi har qanday iqtisodiy faoliyatidir.
Turistik marshrut	Туристский маршрут	Travel route	Turistik marshrut – dasturda nazarda tutilgan asosiy va qo‘shimcha xizmatlarni olish maqsadida ma’lum vaqt ichida turistlarning rejalashtirilgan harakat yo‘nalishi. Liniyali,

			aylana va radil marshurutlar bor.
Turizm marketingi	Маркетинг туризма	Tourism marketing	Turizm marketingi – turistik mahsulotni ishlab chiqarish, realizatsiya qilish iste'molini tashkil qilishni boshqarishga kompleks yondashuv bo‘lib, u turistik bozor talablarini hisobga olishga, turistik mahsulot sotish hajmini kengaytirish maqsadida talabga faol ta'sir ko‘rsatishga mo‘ljallanadi.
Xalqaro turizm	Международный туризм	International tourism	Xalqaro turizm – turizm turi bo‘lib, turistlarni mamlakatga kirib kelishi va mamlakatdan chiqib ketishini o‘z ichiga oladi.
Milliiy turizm	Националный туризм	National tourism	Milliy turizm – o‘z mamlakati chegarasidan tashqariga turistik borishlar va ichki turizmni tashkil qiladi
Tarif	Тариф	Rate	Tarif – chegirma yoki xizmatlardan foydalanganlik uchun to‘lov tizimi.
Informatsion chek	Информационный чек	Information check	Informatsion chek – varoqda alfavit tartibida xona nomerlari bo‘yicha mehmonlarning ro‘yxatga o‘tganligini qayd qilinishi
Turizm konsepsiyasi	Концепция туризма	Tourism concept	Turizm konsepsiyasi – hozirgi holatga nisbatan ilmiy qarashlar yig‘indisi va turizmni rivojlantirishning asosiy yo‘nalishlarini prognoz qilish.

Mehmondo‘stlik industriyasi	Индустрия гостеприимства	Hospitality industry	Mehmondo‘stlik industriyasi – bu kelayotgan turistlarni joy va oziq-ovqat bilan ta’minlashga, shuningdek ularning bo‘sh vaqtini mazmunli tashkil etishga yo‘naltirilgan biznes
Tashkilot imiji	Имидж организации	The image of organization	Tashkilot imiji – tashkilotning iste’molchi va bir guruh turistlar nigohidagi obrazi
Xarita	Карта	Map	Xarita – yer yuzi satxining kichiklashtirilgan, umumlashtirilgan va o‘lchamli ko‘rinishi; yer yuzining maxsus geografik modeli ko‘rinishi
Turistik xizmatlar sifati	Качество туристского обслу-живания	Quality of tourist services	Turistik xizmatlar sifati – iste’molchilarga turistik mahsulot va xizmatlarni yetkazib berishni ta’minlovchi menejment tizimi.
Mehmonxonalarni tasniflash	Классификация гостинист	Classification of hotels	Mehmonxonalarni tasniflash – taqdim etiladigan xizmatlar sifat bo‘yicha mehmonxona tashkilotlarini baholash tizimi.
Ekskursiyalarni tasniflash	Классификация экскурсий	Classification of excursions	Ekskursiyalarni tasniflash – ekskursiyalar quyidagi asoslar bo‘yicha bo‘linishi: mazmuni, ishtirokchilar soni, o‘tkazish joyi, o‘tkazish shakli, tashish tartibi.
Komission to‘lov	Комис-сионное вознаграждение	Commission remuneration	Komission to‘lov – turistik va transport xizmatlarini ishlab chiqaruvchilari tomonidan turagentga, uning ushbu turistik xizmatlarni sotishda vositachilik qilganligi uchun pullik mukofot to‘lash.

Komission rag‘batlanti-rish to‘lovi	Комис-сионное поощ-рителное вознагражде ние	The commission incentive fee	Komission rag‘batlantirish to‘lovi – belgilangan hajmdan ko‘p turistik xizmatlarni sotganligi uchun turagentga yuqori narxlarda mukofot pulini berish.
Turistik faoliyatni tashkil etish	Организация туристской деятелности	Organization of tourism activity	Turistik faoliyatni tashkil etish – turistik tashkilotlarda ishlab chiqarish va xizmat ko‘rsatish jarayonini boshqarish.
Xizmatlar majmui	Комплекс услуг	Complex of services	Xizmatlar majmui – rekreatsion markazlar, turistik markazlar, mehmonxonalarda ko‘rsatiladigan jami xizmatlar; turda nazarda tutilgan xizmatlar majmui
Diskont kartasi	Карта дисконтная	Discount card	Mijozlarni jalb qilish va ushlab qolish maqsadida joriy qilinadigan marketing vositasi bo‘lib chegirma berishni anglatadi
Kassa chiptasi	Кассовый чек	Sales check	Ulgurji savdo korxonalari biznesida oldi-sotdi haraktalarini tasdiqlovchii hujjat
Garni mehmonxona	Отел-гарни	Hotel Garni	Odatda restoranga ega bo‘lmagan va cheklangan xizmatlar taqdim etuvchi mehmonxona korxonalari
O‘ta maxsus yo‘lovchi	Очен важный пассажир	Very Important Passenger	Maxsus servis taqdim etiladigan shaxs
Shahar restorani	Городской ресторан	city restaurant	Shahar ichida joylashgan bo‘lib, belgilangan ma’lum soatlarda ishlaydi. Ular taom, gazak, ichimliklarni keng assortimentda tavsiya etadi

Vokzal restoranlari	Ресторан при вокзале	Restaurant at the station	Temir yo‘l vokzallarida joylashadi, yo‘lovchilarga xizmat qiladi. Cheklangan taomlar soni, past narxlar va tez xizmat ko‘rsatish bilan ajralib turadi.
Kema restorani	Ресторан при карабле	restaurant at the ship	Kemada joylashgan bo‘lib turistlar va yo‘lovchilarga xizmat ko‘rsatishga mo‘ljallangan
Vagon-restoranlar	Вагон ресторан	dining-car	Ilk bor 1867-yili «Pulman» Djordja Pullman kompaniyasi tomonida ixtiro etilgan uzoq masofaga qatnovchi temir yo‘l poyezdlarida bo‘ladi.
Korxona-oshxona	Столовое предприятие	large enterprise of food	Yirik, mexanizatsiyalashgan korxona, o‘zi mahsulot ishlab chiqaradi, ovqat va qandolat mahsulotlari tayyorlaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

Normativ – huquqiy hujjatlar

1. O‘zbekiston Respublikasining “Turizm to‘g‘risida”gi qonuni. Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi: 03/19/549/3446-son. 19. 07. 2019-y.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 5-yanvardagi “O‘zbekiston Respublikasida turizmni jadal rivojlantirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ–4095-son qarori.
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 3-iyuldagi “O‘zbekiston Respublikasida raqamli iqtisodni rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-3832-son qarori.
4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016-yil 2-dekabrdagi “O‘zbekiston Respublikasining turizm sohasini jadal rivojlantirishni ta’minlash chora-tadbirlari to‘g‘risida” PF-4861-son farmoni.
5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 19-fevraldagi “Axborot texnologiyalari va kommunikasiyalari sohasini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-5349-son farmoni.
6. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 5-dekabrdagi “Chorvoq” erkin turistik zonasini tashkil etish to‘g‘risida” PF-5273-son farmoni.
7. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 9-fevraldagi “O‘zbekiston Respublikasida ichki va ziyorat turizmini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-6165-son farmoni.
8. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 5-yanvardagi “O‘zbekiston Respublikasida turizmni jadal rivojlantirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PF-5611 son farmoni
9. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 5-iyundagi “O‘zbekiston Respublikasi turizmni rivojlantirish davlat qo‘mitasining moddiy-texnika bazasini yanada

mustahkamlash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 356-sonli qarori

Asosiy adabiyotlar

10. Александрова А.Ю. Международный туризм: Учебник/ А.Ю. Александрова. -М.: Аспект Пресс, 2002. – 470 с.

11. Александрова А. Ю. Международный туризм. Учебное пособие для вузов. – М.: Аспект Пресс, 2001.- 464 с.

12. Ashim Gupta. Travel Agency and Tour Operations: Concepts and Principles Publisher: Centrum Press 2012, New Delhi, India.

13. Abduvohidov A. Turizmda axborot texnologiyalari. Darslik -T.: TDIU. 2019-y.

14. Adilova Z.D., Sodiqov T.B. Xalqaro turizm biznesi. O‘quv qo‘llanma. – T.: TDIU, 2010-y. – 160 b.

15. By Arturo Cuenllas. Innovation in hospitality management. Madrid. Spain. 2012 y. –p 45.

16. By Hans Mol Series edited by Terry Phillips “English for Tourism and Hospitality in Higher Education Studies, Course Book with audio CDs” Patricia Paskins 2010. 143 p.

17. Биржаков М.Б. Введение в туризм. – Издание 9-е переработанное и дополненное. – СПб.: «Издательский дом Герда», 2007. -576 с.

18. Быстров С. А. Технология организации туроператорской и турагентской деятельности. –Москва. “ИНФРА-М” 2018 –с 375.

19. Голубчиков Ю. Н. Туристическая география Севера России. -Москва. “АНО Диалог культур” 2018й. –с 116.

20. География туризма: учеб. /кол. Авторов; под ред. А.Ю. Александровой. 2-е изд., испр. и доп. – М.: КНОРУС, 2009. – 592 с.

21. Дмитриев М.Н., Забаева М.Н., Малыгина Е.Н. Экономик туристского рынка: учебник для студентов вузов,

обучающихся по направлениям сервиса и туризма / -М.: ЮНИТИ-ДАНА, 2012. – 311 с.

22. Gee Ch. Y., Makens J.C., Chey, D. The Travel Industry. 3d. Wdit. -New York John Wiley Sons Ine. 2003. -250 p.

23. Kotler P., Bowen J. Makens J. Marketing For Hospitality & Tourism Pearson International Edition 2014, USA

24. Carmen Babaita, Gabriela Sipos, Andreia Ispas, Andrea Nagy. Ledership style and culture for innovation in hotel industru. Economic Department-Tourism Services. West University of Timisoara, Faculty of Economics and Business Administration Timisoara Romania. 2010-y. –p 650

25. Chris Ryan. Recreational Tourism: Demand and Impacts / Channel View Publications, 2003. – 358 p.

26. Cathy A. Enz. Hospitality Strategic Management: Concepts and Cases. 2nd Edition. Wiley; 2nd edition (April 7, 2009).

27. Cheryl Mallen and Lorne J. Adams. EVENT MANAGEMENT IN SPORT, RECREATION AND TOURISM. THEORETICAL AND PRACTICAL DIMENSIONS. Third edition by Routledge. 711 Third Avenue, New York, NY 10017. 2017. 292-p.

28. Dr. Chloe Lau, Assistant Professor, School of Hotel and Tourism Management. Meetings, Incentives, Conventions and Exhibitions (MICE). The Hong Kong Polytechnic University and PSHE Section, Curriculum Development Institute July 2016. 60-p

29. Stephen J. Page. Transport and tourism global perspectives. Scottish Enterprise Forth Valley Chair in Tourism, Department of Marketing, University of Stirling, Stirling, Scotland FK9 4LA 2009. 481-p.

30. Кабушкин Н.И. Менеджмент туризма: Учебник. 4-е изд., стереотип. – Минск: Новое знание, 2004. -409 с.

31. Квартальнов В. А. Туризм. -М.: Финансы и статистика, 2002. – 320 с.

32. Квартальнов В.А. Туризм: история и современность: Избранные произведения: В 4-х т. -М.: Финансы и статистика, 2002. -499 с.

33. Кружалин В. И., Мироненко Н. С., Зигерн-Корн Н. В., Шабалина Н. В. География туризма. Учебник. -М. : Федеральное агентство по туризму, 2014. — 336 с.

34. Lundberg D., Krishnamurthy M. – Tourism Economics. New York: John Wiley Sons Ine. 2003. -210 p.

35. Mamatqulov X.M. va bosh. Xalqaro turizm. Darslik. –T.: O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati, 2009. -191 b.

36. Mamatqulov X.M. Turizm infratuzilmasi. O‘quv qo‘llanma. -T.: Ozbekiston faylasuflari milliy jamiyati, 2011. -335 b.

37. Шимова О.С. Устойчивый туризм. Учебно-методическое пособие. -Минск: РИПО, 2014. -158 стр.

38. N. N. Safarova. Turizm rivojlanishining ilmiy-nazariy asoslari.–T.: IFMRnashriyoti, 2017. -220 bet.

39. Pardayev A.X., Norchayev A.N. Xalqaro turizm. Darslik. – T.: Iqtisodiyot. 2010. -264 b.

40. Pardaev A.X., Norchaev A.N., Rabbimov E.N. Ekologik turizm. O‘quv qo‘llanma. – T.: TDIU, 2011. -128 b.

41. Писаревского Е. Л. Учебник /коллектив авторов. Основы туризма**.** -М.: Федеральное агентство по туризму. 2014. -384 с.

42. Stephen Williams. Tourism Geography: Critical Understandings of Place, Space and Experience. Taylor&Francis e-Library, 29 West 35th Street, New York, NY 10001. 2015-327 p.

43. Севастьянов, Д. В. Страноведение и международный туризм. Учебник /Д. В. Севастьянов. -2-е изд., пер. и доп. -М. : Издательство Юрайт, 2019.-317 с.

44. Скобкин С.С. Менеджмент в туризме: учеб. пособ. – М.: Магистр, 2007. – 447 с.

45. Safayeva S.R. Turizm va O‘zbekiston milliy merosi. O‘quv qo‘llanma. –T.: TDIU, 2010 – 161 b.

46. С.А. Быстров. Технология органигации туроператориской и турагентской деятельности. -М.: ИНФРА-М, 2018. -375 с.

47. Тимохина Т.Л. Организация приема и обслуживания туристов: учебное пособие. – 3-е изд., перераб. и доп. –М.: ИНФРА-М, 2008. –с 352.

48. Ушаков Д.С. Экономика туристской отрасли. Учебное пособие.- Ростов на Дону. «МарТ» Феникс, 2010. –с 446.

49. Чудновский А.Д. Управление индустрией туризма: учебное пособие. – 2-е изд. /А.Д. Чудновский, М.А Жукова, В.С. Сенин. – М.: КНОРУС, 2005. – 448 с.

Qo‘shimcha adabiyotlar

50. Sh. Sayfutdinov, F. Xalimova. Servis faoliyati. O`quv qo`llanma. –T.: TDIU. 2019 y.-235 b.

51. A. Norchaev. Turoperator menejmenti. O`quv qo`llanma. –T.: TDIU. 2019 y. -245 b.

52. A. Norchaev, M. Alieva, F. Xalimova. Mehmonxona xo`jaligida innovasiya. O`quv qo`llanma. –T.: TDIU. 2019 y. 232 b.

53. A. Norchaev, M. Nurfayzieva. Mintaqaviy turizm. O`quv qo`llanma. –T.: TDIU. 2019 y. -178 b.

54. A. Norchaev, D. Umirova. Turizmda transport xizmatlari. O`quv qo`llanma. –T.: TDIU. 2019 y. -262 b.

55. A. Norchaev, D. Umirova. Ekskursiya xizmatini tashkil qilish. O`quv qo`llanma. –T.: TDIU. 2019 y. -260 b.

56. A. Abduvohidov. Turizm rivojlanishini prognozlash. O`quv qo`llanma. –T.: TDIU. 2019 y. 184 b.

57. M. Amonboev, N. Jo`raeva. Turizm iqtisodiyoti. O`quv qo`llanma. –T.: TDIU. 2019 y. -280 b.

Internet tarmog‘i veb-saytlari va manzillari

58. www. world-tourism.org (Butunjahon turizm tashkiloti)
59. www. Uzbektourism.uz (O`zbekiston Respublikasi Turizm va sport vazirligi).
60. www. Stat.uz (O`zbekiston Respublikasi Statistika qo`mitasi).
61. www. uzdaily.uz (O`zbekiston yangiliklari: biznes, iqtisodiyot, moliya, investisiyalar, birja, sport, turizm).
62. www/ cont.org.
63. http: //cbu.st.uz/uz/press
64. www. interunion.ru (Туристическая компания)
65. www. tag-group.com (Global travel. Global events).
66. www. e-tours.ru (Туристическая компания “Мир Странствий”)
67. www. travel-library.com
68. www. Kun.uz. (O`zbekiston Respublikasi kundalik yangiliklari)
69. https://wttc.org. (world travel & tourism council)

MUNDARIJA

KIRISH…….. 3

1-BOB. “TURIZM GEOGRAFIYASI” FANIGA KIRISH….. 5
1.1. Turizm geografiyasi fanining predmeti va obyekti…… 5
1.2. Geografiya fanlari tizimi haqida tushuncha va uning mohiyati……. 7
1.3 Turizm va geografiyaning bir-biriga bog‘liqligi, turizmning rivojlanishiga ta’sir etuvchi omillar…… 10

2-BOB. DUNYO SIYOSIY HARITASI VA KARTOGRAFIYA…….. 24
2.1. Dunyo siyosiy xaritasi haqida tushuncha…… 24
2.2. Dunyo siyosiy xaritasi shakllanishining asosiy bosqichlari 27
2.3. Qadimgi dunyo va o‘rta asrlardagi dunyo siyosiy xaritasi……. 28
2.4. Buyuk geografik kashfiyotlar va yevropa mustamlakachilik bosqichining boshlanishi…… 37
2.5. Birinchi va ikkinchi jahon urushi ta’sirida dunyo siyosiy xaritasida yuz bergan siyosiy o‘zgarishlar…… 41
2.6. Hozirgi dunyo mamlakatlarining davlat tuzumlari……. 47
2.7. Dunyo mamlakatlarining toifalarga bo‘linishi…… 50

3-BOB. UMUMIY TABIIY GEOGRAFIYA…… 56
3.1. Yer sayyorasi shakli, harakatlari, uning hajmi va ichki tuzilishi…… 56
3.2. Litosfera, atmosfera, gidrosfera, biosfera haqida umumiy ma’lumotlar va ularda ro‘y beradigan hodisalar va ularning xususiyatlari…… 61
3.3. Yer sharining quyosh atrofida aylanishi, quyosh radiatsiyasi, gravitatsiya va yerning magnit maydoni…… 65

4-BOB. DUNYO AHOLI GEOGRAFIYASI…… 74
4.1. Aholi soni, aholining qayta tiklanishi, demografiya va urbanizatsiya tushunchlarining mazmuni…… 74
4.2. Materiklar va mamlakatlar bo‘yicha aholining joylashishi va zichligi…… 82
4.3. Dunyo aholisining tabiiy o‘sishi. Tashqi va ichki migratsiya…….. 92
4.4. Aholining tarkibiy tuzilishi. Jinsiy, irqiy, milliy, diniy va yosh tarkibi…… 102

5-BOB. JAHON IQTISODIYOTIDA TURIZM…… 108
5.1. Xalqaro turizmning jahon iqtisodiyotidagi o‘rni…… 108
5.2. Turizm xizmatlarining jahon eksporti…… 115
5.3. Turizm sohasida jahon kapital qo‘yilmalari…….. 120
5.4. Turizm xizmatlari bozorini rivojlantirish omillari…… 125

6-BOB. YEVROPANING IQTISODIY VA SIYOSIY GEOGRAFIK TAVSIFI……. 134
6.1. Yevropaning iqtisodiy va siyosiy geografik o‘rni, maydoni, chegaralari…….. 134
6.2. Yevropaning tabiiy sharoiti va resurlarining mamlakat iqtisodiyotidagi o‘rni……. 143
6.3. Aholisi va davlatlar tuzumi. Aholisining soni, migratsiyasi va tabiiy o‘sishining pastligi va uning sabablari…… 147
6.4. Yevropa mamlakatlarining sanoati…….. 149

7-BOB. YEVROPANING TURIZM GEOGRAFIYASI…….. 152
7.1. Yevropaning dunyo xaritasida tutgan o‘rni va roli……. 152
7.2. Yevropa mintaqasining turistik resurslari……... 155
7.3. Yevropaning butun jahon turizmidagi hissasi……. 161
7.4. Yevropa mintaqasida xalqaro turizmning rivojlanish dinamikasi…….. 166

7.5. Yevropaning turistik davlatlari…… 169

8-BOB. AMERIKA MINTAQASINING IQTISODIY VA SIYOSIY GEOGRAFIK TAVSIFI…… 175
8.1. Amerikaning siyosiy-geografik o‘rni, uning qulayliklari…… 175
8.2. Tabiiy sharoiti va tabiiy resurslari…….. 177
8.3. Amerika mamlakatlarining aholisi va davlatlarning tuzilish shakllari…….. 179
8.4. Amerika mamlakatlari xo‘jaliklarining umumiy tavsifi…….. 183
8.5. Sanoat tarmoqlarini mamlakatlar bo‘yicha hududiy joylanishi…… 186

9-BOB. AMERIKANING TURIZM GEOGRAFIYASI……. 192
9.1. Amerikaning siyosiy xaritasi va uning tarkibiy tuzilishi…….. 192
9.2. Amerikaning turistik imkoniyatlari va turistik mamlakatlari 197
9.3. Mintaqaning xalqaro turizmdagi tutgan o‘rni va hissasi……. 202
9.4. AQSHda ichki va xalqaro turizmning rivojlanish xususiyatlari…… 205
9.5. AQSH turizmining asosiy yo‘nalishlari va dinamikasi…….. 208

10-BOB. AFRIKANING IQTISODIY VA SIYOSIY GEOGRAFIK TAVSIFI…… 213
10.1. Afrikaning iqtisodiy va siyosiy geografik o‘rni, maydoni, chegaralari…….. 213
10.2. Tabiiy sharoiti va resurlarining mamlakatlar iqtisodiyotidagi o‘rni……. 217
10.3. Aholisi va davlat tuzumi. Aholisining soni, migratsiyasi va tabiiy o‘sishining pastligi va uning sabablari…… 223
10.4. Afrika mamlakatlarining sanoati…….. 228

11-BOB. AFRIKANING TURIZM GEOGRAFIYASI……... 240
11.1. Afrikaning dunyo xaritasida tutgan o‘rni va roli…….. 240
11.2. Afrika mintaqasining turistik resurslari…… 242
11.3. Afrika mintaqasida xalqaro turizmning rivojlanish dinamikasi…….. 250
11.4. Afrikaning turistik davlatlari…… 252

12-BOB. OSIYO VA OKEANIYA MINTAQASINING IQTISODIY VA SIYOSIY GEOGRAFIK TAVSIFI……... 258
12.1. Osiyo va okeaniya mintaqasining iqtisodiy va siyosiy geografik o‘rni, maydoni, chegaralari……... 258
12.2. Tabiiy sharoiti va resurlarining mamlakatlar iqtisodiyotidagi o‘rni… ……. 271
12.3. Aholisi va davlat tuzumi. Aholisining soni, migratsiyasi va tabiiy o‘sishining pastligi va uning sabablari……. 283
12.4. Mintaqa mamlakatlarining sanoati…… 288

13-BOB. OSIYO VA OKEANIYA MINTAQASINING TURIZM GEOGRAFIYASI…… 293
13.1. Osiyo va Tinch okeani mintaqasining turistik salohiyati 293
13.2. Mintaqaning jahon turizmida tutgan o‘rni va roli…….. 301
13.3. Mintaqada ichki va xalqaro turizmning rivojlanish xususiyatlari……. 304
13.4. Xalqaro turizm dinamikasi……. 313

14-BOB. YAQIN SHARQ MINTAQASINING IQTISODIY-SIYOSIY VA TURIZM GEOGRAFIYASI…… 319
14.1. Yaqin Sharq mintaqasining iqtisodiy va siyosiy geografik o‘rni, maydoni, chegaralari……... 319
14.2.Tabiiy sharoiti va resurlarining mamlakatlar iqtisodiyotidagi o‘rni……. 321
14.3. Mintaqaning jahon turizmida tutgan o‘rni va roli…… 325

14.4. Mintaqada ichki va xalqaro turizmning rivojlanish xususiyatlari…….. 327

15-BOB. O‘ZBEKISTONNING TURIZM GEOGRAFIYASI…… 330
15.1. O‘zbekistonda turizm sohasining rivojlanish imkoniyatlari 330
15.2. Ichki turizm va xalqaro turizm…… 347
15.3. O‘zbekistonda turizm turlari, ularning geografiyasi…… 361

TURIZM ATAMALARI LUG‘ATI…….. 380

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR .....……...… 387

ОГЛАВЛЕНИЕ

ВВЕДЕНИЕ……..... 3

ГЛАВА 1. ВВЕДЕНИЕ В ГЕОГРАФИЮ ТУРИЗМА. 5

1.1. Предмет и объект географии туризма……..5

1.2. Понятие о системе географических наук и ее сущность.....7

1.3. Взаимозависимость туризма и географии, факторы, влияющие на развитие туризма……10

ГЛАВА 2. ПОЛИТИЧЕСКАЯ КАРТА МИРА И КАРТОГРАФИЯ …… 24

2.1. Понимание политической карты мира…….....… 24

2.2. Основные этапы формирования политической карты мира…….27

2.3. Политическая карта древнего мира и средневекового мира…….28

2.4. Великие географические открытия и начало европейской колониальной фазы……37

2.5. Политические изменения на политической карте мира в результате Первой и Второй мировых войн……....41

2.6. Государственные системы современного мира.....…....47

2.7. Мировая классификация……...50

ГЛАВА 3. ОБЩАЯ ПРИРОДНАЯ ГЕОГРАФИЯ..... .56

3.1. Форма, движение, размеры и внутреннее строение планеты…….....56

3.2. Общие сведения о литосфере, атмосфере, гидросфере, биосфере и происходящих в них явлениях и их свойствах…...…61

3.3. Вращение земли вокруг солнца, солнечное излучение, гравитация и магнитное поле земли……..…..65

ГЛАВА 4. ГЕОГРАФИЯ НАСЕЛЕНИЯ МИРА……..74

4.1. Содержание понятий народонаселение, восстановление населения, демография и урбанизация……..…..74
4.2. Распределение и плотность населения по континентам и странам…….…….....82
4.3. Естественный прирост населения. Внешняя и внутренняя миграция……..……92
4.4. Структура населения. Пол, раса, национальность, религия и возрастной состав…….102

ГЛАВА 5. ТУРИЗМ В МИРОВОМ ХОЗЯЙСТВЕ……..…108
5.1. Роль международного туризма в мировой экономике.....108
5.2. Мировой экспорт туристических услуг……....115
5.3. Мировые капиталовложения в туризм…….……120
5.4. Факторы развития рынка туристических услуг……..…..125

ГЛАВА 6. ЭКОНОМИЧЕСКАЯ И ПОЛИТИЧЕСКАЯ ЕВРОПА ГЕОГРАФИЧЕСКОЕ ОПИСАНИЕ……..…..…..134
6.1. Экономическая и политическая география Европы, площадь, границы…….134
6.2. Роль европейских природных условий и ресурсов в экономике страны……..…..143
6.3. Население и система государств. Низкое население, миграция и естественное увеличение и его причины……..……147
6.4. Промышленность европейских стран……..149

ГЛАВА 7. ГЕОГРАФИЯ ТУРИЗМА В ЕВРОПЕ …… ….152
7.1. Место и роль Европы на карте мира…….....152
7.2. Туристские ресурсы европейского региона…….....155
7.3. Вклад Европы в мировой туризм……..…161
7.4. Динамика развития международного туризма в Европейском регионе……....…166
7.5. Туристические страны Европы……..……..….169

ГЛАВА 8. ЭКОНОМИЧЕСКАЯ И ПОЛИТИЧЕСКАЯ ГЕОГРАФИЧЕСКАЯ ХАРАКТЕРИСТИКА АМЕРИКАНСКОГО РЕГИОНА……175
8.1. Политическая география Америки, ее удобства……..…175
8.2. Природные условия и природные ресурсы…….….177
8.3. Население американских стран и структурные формы государств…….....179
8.4. Общая характеристика американских ферм……..…183
8.5. Региональное распределение отраслей по странам…….....186

ГЛАВА 9. ГЕОГРАФИЯ ТУРИЗМА АМЕРИКИ…….…..192
9.1. Политическая карта Америки и ее структура…….....192
9.2. Возможности американского туризма и туристические страны……..…….197
9.3. Роль и вклад региона в международный туризм……197
9.4. Особенности развития внутреннего и международного туризма в США……...205
9.5. Основные направления и динамика туризма США…….208

ГЛАВА 10. ЭКОНОМИЧЕСКАЯ И ПОЛИТИЧЕСКАЯ АФРИКА ГЕОГРАФИЧЕСКОЕ ОПИСАНИЕ…….....213
10.1. Экономическая и политическая география Африки, площадь, границы……..…213
10.2. Роль природных условий и ресурсов в экономике стран……....217
10.3. Население и государственное устройство. Низкое население, миграция и естественное увеличение и его причины……...223
10.4. Промышленность африканских стран……...228

ГЛАВА 11. ГЕОГРАФИЯ ТУРИЗМА В АФРИКЕ……..240
11.1. Место и роль Африки на карте мира……..…240
11.2. Туристские ресурсы Африканского региона…….....242
11.3. Динамика развития международного туризма в Африканском Регионе…….…250
11.4. Туристические страны Африки……...252

ГЛАВА 12. ЭКОНОМИЧЕСКОЕ И ПОЛИТИЧЕСКОЕ ГЕОГРАФИЧЕСКОЕ ОПИСАНИЕ АЗИИ И ОКЕАНИИ…….....258
12.1. Экономическое и политическое географическое положение, площадь, границы региона Азии и Океании……258
12.2. Роль природных условий и ресурсов в экономике стран…….…....271
12.3. Население и государственное устройство. Бедность населения, миграция и низкий естественный прирост и ее причины……....283
12.4. Промышленность стран региона……..…288

ГЛАВА 13. ТУРИСТИЧЕСКАЯ ГЕОГРАФИЯ АЗИИ И ОКЕАНИИ…….…….293
13.1. Туристический потенциал Азиатско-Тихоокеанского региона……..293
13.2. Роль и место региона в мировом туризме…….……..….301
13.3. Особенности развития внутреннего и международного туризма в регионе…….....…304
13.4. Динамика международного туризма……..……..…313

ГЛАВА 14. ЭКОНОМИЧЕСКО-ПОЛИТИЧЕСКАЯ И ТУРИСТИЧЕСКАЯ ГЕОГРАФИЯ БЛИЖНЕГО ВОСТОКА……...….319

14.1. Экономико-политико-географическое положение, площадь, границы Ближневосточного региона……..…...319
14.2. Роль природных условий и ресурсов в экономике стран……..……321
14.3. Место и роль расследования в мировом туризме……..325
14.4. Особенности развития внутреннего и международного туризма в регионе.....327

ГЛАВА 15. ГЕОГРАФИЯ ТУРИЗМА УЗБЕКИСТАНА……..…330
15.1. Возможности для развития туризма в Узбекистане……..330
15.2. Внутренний туризм и международный туризм…….....347
15.3. Виды туризма в Узбекистане, их география..……361

ГЛОССАРИЙ ТЕРМИНОВ ТУРИЗМА……..380

ЛИТЕРАТУРА.....387

TABLE OF CONTENTS

INTRODUCTION……..……. 3

CHAPTER 1. INTRODUCTION TO THE GEOGRAPHY OF TOURISM . ……..5
1.1. Subject and object of the science of tourism geography ……..… 5
1.2.The concept of the system of geographical sciences and its essence 7
1.3. The interdependence of tourism and geography, the factors influencing the development of tourism ……..……10

CHAPTER 2. WORLD POLITICAL MAP AND CARTOGRAPHY ……..……. 24
2.1. Understanding the political map of the world …….....…..24
2.2. The main stages of the formation of the political map of the world……..…….....27
2.3. Political map of the ancient world and the medieval world……...……28
2.4. Great geographical discoveries and the beginning of the european colonial phase …….....37
2.5. Political changes on the world political map as a result of the first and second world wars ……..……..41
2.6. State systems of the modern world ……..……47
2.7. World country classification …… …...50

CHAPTER 3. GENERAL NATURAL GEOGRAPHY……..... 56
3.1. The shape, motion, size and internal structure of the planet….. 56
3.2. General information about the lithosphere, atmosphere, hydrosphere, biosphere and the phenomena that occur in them and their properties……..……...…61

3.3. The rotation of the earth around the sun, solar radiation, gravity, and the earth's magnetic field ……...65

CHAPTER 4. GEOGRAPHY OF THE WORLD POPULATION…..…. ……... 74
4.1. Content of the concepts of population, population recovery, demography and urbanization…….....……74
4.2. Population distribution and density across continents and countries……...…..... 82
4.3. Natural population growth. External and internal migration …….…….....92
4.4. Population structure. Gender, race, nationality, religion and age structure……...102

CHAPTER 5. TOURISM IN THE WORLD ECONOMY..….. .108
5.1. The role of international tourism in the world economy..……..108
5.2. World exports of tourism services ……..... 115
5.3. Global capital investment in tourism ……120
5.4. Factors for the development of the tourism services market.....125

CHAPTER 6. ECONOMIC AND POLITICAL EUROPE GEOGRAPHICAL DESCRIPTION……..……...134
6.1. Europe's economic and political geography, area, borders……... 134
6.2. The role of European natural conditions and resources in the country's economy …….……..……143
6.3. Population and system of states. Low population, migration and natural increase and its causes ……...… ..147
6.4. Industry of European countries …….…….....……..... 148
CHAPTER 7. GEOGRAPHY OF TOURISM IN EUROPE.....152
7.1. Europe's place and role on the world map ……..…… 152
7.2. Tourist resources of the European region ……...…. 155

7.3. Europe's contribution to world tourism …….....……..... 161
7.4. Development dynamics of international tourism in the European region…….....166
7.5. Tourist countries of Europe ……....…….. ...169

CHAPTER 8. ECONOMIC AND POLITICAL GEOGRAPHICAL DESCRIPTION OF THE AMERICAN REGION …..…….……...175
8.1. America's political geography, its conveniences ……..…… 175
8.2. Natural conditions and natural resources ……...177
8.3. Population of American countries and structural forms of states…….…..179
8.4. General description of American farms ……...……. 183
8.5. Regional distribution of industries by country …….…..... 186

CHAPTER 9. GEOGRAPHY OF TOURISM IN AMERICA....192
9.1. The political map of America and its structure …….……192
9.2. American tourism opportunities and tourist countries……..... 197
9.3. The role and contribution of the region in international tourism ……..… 202
9.4. Features of the development of domestic and international tourism in the USA ……..…. 205
9.5. The main directions and dynamics of USA tourism …..……...208

CHAPTER 10. ECONOMIC AND POLITICAL AFRICA GEOGRAPHICAL DESCRIPTION ……213
10.1. Africa's economic and political geography, area, borders……213
10.2. The role of natural conditions and resources in the economy of countries…….217
10.3. Population and state system. Low population, migration and natural increase and its causes ……223
10.4. Industry of African countries ……...……228

CHAPTER 11. GEOGRAPHY OF TOURISM IN AFRICA…. 240
11.1. Africa's place and role on the world map …….…….. 240
11.2. Tourist resources of the African region …….....242
11.3. Development dynamics of international tourism in the African region …….. ...250
11.4. Tourist countries of Africa ……..……252

CHAPTER 12. ECONOMIC AND POLITICAL GEOGRAPHICAL DESCRIPTION OF ASIA AND OCEANIA……258
12.1. Economic and political geographical location, area, borders of Asia and Oceania region…….....258
12.2. The role of natural conditions and resources in the economy of countries…….271
12.3. Population and state system. Poor population, migration and low natural growth and its causes……..283
12.4. Industry of the countries of the region ……..……..288

CHAPTER 13. TOURISM GEOGRAPHY OF ASIA AND OCEANIA ……..293
13.1. Tourist potential of Asia and the Pacific ……..……293
13.2. The role and place of the region in world tourism …….……..301
13.3. Features of development of domestic and international tourism in the region…….….304
13.4. Dynamics of international tourism ……. ...313

CHAPTER 14. ECONOMIC-POLITICAL AND TOURISM GEOGRAPHY OF THE MIDDLE EAST NT ……..…319
14.1. Economic and political geographical location, area, borders of the Middle East region …….319

14.2. The role of natural conditions and resources in the economy of countries…….321
14.3. The place and role of the investigation in world tourism……325
14.4. Features of development of domestic and international tourism in the region……..….327

CHAPTER 15. GEOGRAPHY OF TOURISM OF UZBEKISTAN……..…...330
15.1. Opportunities for tourism development in Uzbekistan ……330
15.2. Domestic tourism and international tourism…….…....347
15.3. Types of tourism in Uzbekistan, their geography…….……361

GLOSSARY OF TOURISM TERMS ……...…… 380

LIST OF REFERENCES ……..……. 387

NORCHAYEV ASATULLO NORBO‘TAYEVICH

TURIZM GEOGRAFIYASI

Oliy o‘qiiv yurtlari talabalari uchun darslik

Toshkent – «INNOVATSION RIVOJLANISH NASHRIYOT-MATBAA UYI» – 2022

Muharrir:	**S. Abdunabiyeva**
Texnik muharrir:	**A. Moydinov**
Musavvir:	**A. Shushunov**
Musahhih:	**B. Baxronova**
Kompyuterda sahifalovchi:	**M. Zoyirova**

E-mail: nashr2019@inbox.ru. Tel.: +99899920-90-35
№ 3226-275f-3128-7d30-5c28-4094-7907, 10.08.2020.
Bosishga ruxsat etildi 07.11.2022.
Bichimi 60x84 1/16. «Timez Uz» garniturasi.
Ofset bosma usulida bosildi.
Shartli bosma tabog‘i: 26,0. Nashriyot bosma tabog‘i 25, 5.
Tiraji: 50. Buyurtma № 115.

«INNOVATSION RIVOJLANISH NASHRIYOT-MATBAA UYI»
bosmaxonasida chop etildi.
100174, Toshkent sh., Olmazor tumani,
Universitet ko‘chasi, 7-uy.